

Pedagogika

UDK 372.800.2

TOOLS FOR ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN AN E-EDUCATION ENVIRONMENT AND THEIR USE

ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH VOSITALARI VA ULARDAN FOYDALANISH

ИНСТРУМЕНТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СРЕДЕ ЭЛЕКТРОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich

Guliston davlat pedagogika instituti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV-mavze.

E-mail: aa_xudayberdiyev2024@gmail.com

Abstract. This article presents the means of organizing the educational process in an e-learning environment and issues of their use. Information and communication technologies used in the e-learning environment, printed materials, audio cassettes, video cassettes, video clips, telephone, radio and television, satellite systems, electronic communications, computer-based training programs, WWW (Word Wide Web), educational tools such as teleconferencing, audio conferences, audiographic conferences, video conferences, computer conferences, as well as information on their use.

Key words: e-education, information and communication technologies, informatization, web technologies, synchronous, asynchronous, WWW (Word Wide Web), teleconference, audio conference, audiographic conference, video conference.

Аннотация. В данной статье представлены средства организации образовательного процесса в среде электронного обучения и вопросы их использования. Информационные и коммуникационные технологии, используемые в среде электронного обучения, печатные материалы, аудиокассеты, видеокассеты, видеоклипы, телефон, радио и телевидение, спутниковые системы, электронная связь, компьютерные обучающие программы, WWW (Word Wide Web), образовательные инструменты, такие как представлены телеконференции, аудиоконференции, аудиографические конференции, видеоконференции, компьютерные конференции, а также информация по их использованию.

Ключевые слова: электронное образование, информационно-коммуникационные технологии, информатизация, веб-технологии, синхронные, асинхронные, WWW (Word Wide Web), телеконференция, аудиоконференция, аудиографическая конференция, видеоконференция.

Kirish. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Bundan tashqari, bir qancha axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish kabi kompleks dasturi amalga oshirilmogda [1].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar

Tadqiqot ob'ekti sifatida elektron ta'lim muhitida tashkil etiladigan o'quv jarayoni olindi. Elektron ta'lim muhitida foydalaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalariga tasnif berildi. Tadqiqot ishida tavsiflash, qiyoslash, kompleks va funktsional tahlil metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Hozirgi kunda jamiyatni axborotlashtirish, axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini to'liqroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirish hamda jahon axborot ashyolaridan bahramand bo'lishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishda umumiy ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini egallashga asoslangan ilg'or ta'lim tizimlarini kiritish, AKT sohasida, birinchi navbatda dasturiy vositalarni, ma'lumotlarning axborot bazalarini ishlab chiqish, respublika, tarmoq va mahalliy AKT tarmoqlarini shakllantirish, kompyuter va telekommunikatsiya texnikasini ishlab chiqish sohalarida ishlash uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashni tashkil qilish masalalari kompterashtirish va AKT larini rivojlantirish hamda ularning zamonaviy tizimlarini joriy etishning birinchi galdagi eng muhim vazifalari qatoriga kiritilgan.


Axborot inqilobi va jamiyat qurilishining yangi turini-axborot jamiyatining shakllanishini-ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotda axborot va bilimlarining ahamiyatini tubdan o'zgartiradi. Agar iqtisodiy faoliyat agrar jamiyatda iste'mol oziq-ovqatlarini ishlab chiqish bilan, sanoat jamiyatda-sanoat mollari ishlab chiqish bilan bog'langan bo'lsa, axborotli jamiyatda asosiy iqtisodiy faoliyat *axborotni ishlab chiqish* va uni xalq xo'jaligining barcha sohalarida samarali ishlab turishida foydalanishidan iboratdir. Agar agrar jamiyatda asosiy ishlab chiqarishni chegaralab turadigan omil er, sanoat jamiyatda-mablag' bo'lsa, axborot jamiyatida bunday omil *bilimdan* iboratdir. Shunday qilib axborot, bilim iqtisodiy rivojlanish asosida yotuvchi fundamental ijtimoiy omil bo'lmoqda. Axborot jamiyatdagi yangi tur iqtisodiy rivojlanish ishchilarning hayotida bir necha marta o'z kasbini o'zgartirishga, doimo o'z malakalarini oshirishga olib keladi [2].

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan va qo'llanishi kerak bo'ladigan asosiy texnologiyalarning turlariga quyidagilarni kiritish mumkin: chop etilgan materiallar (darslik, qo'llanma va hakoza); audikassetalar, videokassetalar va videokliplar; telefon; radio va televideniye (shu jumladan, sun'iy yo'ldoshli va kabellik); elektron aloqa; kompyuterli o'qitish dasturlari; WWW (Word Wide Web); Tjeanjumanlar (audioanjumanlar, audiografik anjumanlar, videoanjumanlar, kompyuterli anjumanlar).

Ushbu texnologiyalar o'zlarining parametrlari to'plamlari bilan o'zaro farq qiladilar va ularning turlicha bo'lishi ularni tanlash muammosini dolzarb qiladi. Endi yuqorida sanalgan texnologiya turlarining mazmuni bilan tanishaylik [2], [3], [6].

1. *Chop etilgan materiallar*. Har doimgidek tayyor chop etilgan materiallari ko'pchilik o'quv fanlarining mazmunini asosiy etkazuvchisi (aks ettiruvchisi) bo'lib qolaveradi. Lekin chop etiladigan zamonaviy axborot tayyorlash uchun ko'p darajada zamonaviy axborot texnologiyalari, masalan matnli protsessorlar, kichik nashr qilish tizimlari, skanerlash va fakslar foydalaniladi. Darslik, o'quv qo'llanmalar tarqatma va boshqa o'quv materiallari, hatto eng zamonaviy kompyuterli telekommunikatsion texnologiyalarga yo'naltirilgan ba'zi kurslar ham, ko'pincha chop etilgan shaklda foydalanish uchun taqdim etiladi.

2. *Audiokassetalar, videokassetalar va videodisklar*. Audio va videomateriallar hozirgi kunda ta'limda keng qo'llanilmoqda. Videomateriallar (kasseta va disklar) o'quv xonalarida jadval asosida barcha o'quvchilar tomonidan ko'rilishi mumkin. Shuningdek, ulardan yakka holda ham foydalanish mumkin. Jamoaviy foydalanilgan holda, o'quvchilar orasida muloqot va muhokama etish imkoniyati ham mavjud. Video va audiomodullarga materiallar elektron aloqa, ovozli aloqa, telefon, kompyuterli anjumanlarga asoslangan masofali o'qitishda o'quv interfaol modullar bilan birgalikda o'zining yanada ham samarasini ko'rsatadi.



1-rasm. Aloqa anjumanlari turlari.

3. *Telefon*. O'quvchilarni tyutor bilan o'zaro interfaol muloqoti uchun telefon masofali kurslar tashkil etishda samarali foydalanishi mumkin. Mutloq, Verbal muloqotning etarlicha didaktik jihatdan qimmatligi bo'yicha chegaralanganligi (imkoniyatga egaligi)ga qaramay ushbu texnologiyani o'quvchilarni masofadan turib o'qitishda telefondan keng foydalanishni soddaligi va osonligini tushunsa bo'ladi.

4. *Radio va oynai jahon (shu jumladan, sun'iy yo'ldoshli va kabellik)*. Etarlicha katta sonli o'quvchilar auditoriyasiga mo'ljallangan o'quv kurslarni uzatib o'qitishda radio va oynai jahon ko'pincha yaxshi samara beradi. Lekin bu texnologiyalar o'quvchilarga masofadan turib o'qitiladigan kurslarni o'rganishda ularga o'zlariga qulay vaqtni erkin tanlashga imkoniyat bermagan holda masofadan turib o'qitishning egiluvchanlik darajasini pasaytirishlari mumkin.

5. *Elektron aloqa*. Bu texnologiya ta'limda o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv aloqani ta'minlab berishda qanday foydalanilsa, xuddi shunday turli anjumanlardagi o'zaro aloqalarda ham foydalanilish mumkin (1-rasm).

6. Elektron aloqa orqali munozarali forumlar o'tkazish o'quv jarayonida foydalanish uchun turli ro'yxatlarni jo'natishni tashkil etishga mo'ljallangan.

7. Ro'yxatlarni jo'natishning moderirlanuvchi (aloqa anjumanlarni o'tkazishni mutaxassis-moderator boshqargan holda) va moderirlanmovchi, shuningdek ochiq va yopiq shakllari mavjud. Yopiq kompyuterli anjumanlar (ishtirok etish hamma o'quvchilar uchun mumkin bo'lmagan anjumanlar)ga nafaqat pullik, balki, ma'lum bir darajadagi yoki kasbga ega bo'lgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan bepul anjumanlar ham kiradi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

Ko'pgina yaqin va uzoq xorijiy davlatlarda, shu jumladan, Rossiyada guruhliy manzillar, obunalar, saralashlar va ma'lumotlarni jo'natishlarni tashkil etish uchun aloqali anjumanlar o'tkazishning maxsus uskunaviy vositalari ishlab chiqilgan. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

ListStar <http://www.starnine.com/liststar/>
ListCaster <http://www.mustang.com/products/we/ListCaster>
Listserv <http://www.lsoft.com/listserv/stm>
Lyris E-Mail LS <http://www.lyris.com/>
Majordomo <http://www.greatcircle.com/majordomo>
Minordomo <http://www.halcyon.com/sanford/cgi/minordomo>
SV List <http://www.cadvision.com/software/htm/SVListblue.htm>

Ko'pchilik o'quv aloqa anjumanlarida munozaralarni boshqarish va ularni muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq. Bunday anjumanlar moderirlanuvchi hisoblanadi. Ushbu texnologiyadan o'quv jarayonida foydalanishning samarasi ko'p tomondan moderator (fasiliteytor)ning ixtisoslashganligi, uning o'quv kursining maqsadiga eng yuqori darajada erishilishini ta'minlaydigan munozaralarni boshqara olishi bilan aniqlanadi.

Maxsus "Moderatorlar" Web sahifalarida (<http://star/ucc/nau/edu/marui/moderators.html>) o'quv aloqa anjumanlari olib boradigan o'qituvchilar uchun foydali axborotlar joylashtiriladi. Ushbu sahifalarda: o'quv anjumanlarni tashkil etish va o'tkazish masalalari tahlil qilinadi; o'quv anjumanlarda ko'pincha beriladigan savollarning (FAQ) ro'yxatlarini tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalar beriladi; kompyuterli anjumanlarda o'qitish etikasi - etiket muammolari qaraladi; Moderirlash muammolari bo'yicha chop etilgan qisqacha berilgan ma'lumotlari (annotatsiyalari), ushbu nashrlardagi to'la matnlarning Web sahifalar bilan aloqalari beriladi.

6. *Kompyuterli ta'lim dasturlari (shu jumladan, gipermatnli, multimedia, intellektual va boshqalar).* Kompyuterli ta'lim dasturlari odatda ikki: axborot ma'lumotnomalik va nazorat - ta'limiy tartibda o'qitish imkoniyati mavjud. Birinchi tartib chop etilgan materiallar, audio va videoyozuvlar bilan birgalikda o'quv materialiga kirishni kengaytirish va soddalashtirish, o'quv materialini qulay va ko'rgazmali tarkiblash uchun, shuningdek, uni ustida oson harakatlanish (navigatsiya) uchun foydalaniladi. Nazorat - ta'lim tartibi o'quvchilarni masofadan turib o'qitish mobaynida o'z-o'zini bilimini sinashda ham, joriy yoki oraliq sinashda ham keng foydalaniladi. Maxsus ishlab chiqilgan uskunaviy vositalardan foydalanish kompyuterli ta'lim dasturlarini yaratish jarayonini anchagina engillashtiradi. Ular yordamida hatto, kompyuter texnologiyalaridan ko'p xabarsiz bo'lgan tarix, adabiyot, huquq va boshqa fan o'qituvchilari ham bemalol ta'lim dasturlarini yaratishlari mumkin.

Kompyuter ta'lim dasturlarini yaratish uchun etarlicha samarali uskunaviy vosita uskunaviy NM - Card gipermediya (ya'ni, matndan tashqari multimedia imkoniyatlarini ham o'zida mujassamlashtirilgan ma'lumotga yo'l ko'rsatuvchi hujjatlar) tizimidir. NM - Card dasturiy majmua sifatida quyidagi uchta asosiy elementlardan tashkil topgan: HYPER-MEDIA - ma'lumotlar omborining elementar blok (tugun)larini yaratish muharriri; Elementar bloklarni yuqoriroq darajadagi birlashmaga birlashtira oladigan komponovshik (aloqalar muharriri); HYPER-MEDIA - ma'lumotlar ombori tuzilishi bo'yicha navigatsiya (yutqazish)ni amalga oshirish imkoniyatini beradigan ijrochi (yutqazuvchi). Oxirgi vaqtda boshqa imkoniyatlari qatorida ta'lim dasturlarini yaratishga imkoniyat beradigan Web texnologiyalar asosida integrallashgan ta'lim paketlarini yaratish tez rivojlanmoqda.

7. *WWW (Word Wide Web - jahon o'rgimchak to'ri).* Ushbu eng ko'p tarqalayotgan Internet tizimi ta'limning yangi modelini (o'qitishning yangi uslubini) rivojlanishiga olib kelmoqda. O'quv kurslari Web sahifa va o'quv axborot fazosi xaritasining metashakli asosida ishlab chiqilmoqda. Ushbu texnologiya tovush, video, grafikalarini qo'llash imkoniyatini bera olishiga qaramay, hozirgi vaqtda o'quv kurslarida Web ni eng samarali foydalanishda verbal kommunikatsiyani egallash bo'lmoqda. Hozirgi kunlarda umuman ta'limda qo'llanilayotgan Web texnologiyalarning asosiy turlariga quyidagilarni kiritish mumkin: integrallashgan ta'lim paketlari (ITP); asinxron anjuman; sinxron anjuman; birgalikdagi masofali guruhli ish.

Web texnologiyasi asosida yaratilgan ietegrallashgan ta'lim paketlari ichida hozirgi kunda eng ko'p tarqalganlari quyidagilardir [4], [5]:

| ITP nomi | ITP ning asosiy vazifalari |
|----------------------------------|---|
| Webct | Ta'lim kurslarini yaratish, axborot ashyolarini birgalikda foydalanish, anjumanlar o'tkazish, sinash va baholash. |
| Interactive Learning Network | O'qitish natijasini baholash, o'quvchilar o'zlatirishi haqidagi ma'lumotlar omborini yaratish, interfaollik assistirlash, haqiqiy vaqtda munozara, guruhli masofali ta'lim. |
| The Internet Classroom Assistant | O'qitish, anjumanlar o'tkazish, turli o'quv muhitida axborot ashyolarini va aloqalarni birgalikda foydalanish. |
| The Learning Manager (TLM) | O'quv kurslarining xaritalarini yaratish, o'quv ashyolarining multimediasini saqlash, o'quvchilarni bilimini sinash va baholash. |

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

Turli integrallashgan o'qitish paketlarini foydalanish imkoniyatlari haqida axborot olish, ularda foydalanishni namoyish qilish versiyalari bilan tanishish, ta'lim muassasasi bilan ularni olish shartlarini kelishish va boshqa masalalarni aniqlashni quyidagi Web manzil bilan amalga oshirish mumkin:

| | |
|------------------------------|---|
| Authorware | http://www.macromedia.com/software/authorware |
| CyberProf | http://www.cyberprof.uiuc.edu/index.html |
| DiscoverWare | http://www.discoverware.com/Discoverware/home.html |
| Eventware Classroom | http://eventware.com/products |
| FirstClass | http://www.softarc.com/ |
| Interactive Learning Network | http://coursenfo.com/ |
| Internet Classroom Assistant | http://129.105.114.26/nicenet/ica/ |
| The Learning Manager | http://www.campuscan.com/frames/frstlok2.htm |
| Learning Space | http://www.2.lotus.com/home.nsf/tabs/learnspace |
| Learning Web | http://www.learning-web.com/ |
| Toolbook II Assistant | http://www.asymetrix.com/products/toolbook2/assistant |
| TopClass | http://www.wbtsystems.com/product/index.html |
| WebCT | http://www.webct.com/webct/ |
| Web Course in a Box | http://www.modduck.com/wcbinfo/ucb.html |

Hozirgi paytda faollik bilan Web texnologiyalari asosida o'quv muloqot mobaynida jo'natilgan ma'lumotlarni saralash va arxivlashni, o'quv munozaralarini uzoqdan boshqarish, forumlarni tuzish va kichik mavzular bo'yicha munozaralar tashkil etish, jo'natilgan ma'lumotlarning ko'p darajalik shajarasini tuzishni amalga oshirish imkoniyatini beradigan *asinxron* kompyuter anjumanlarini o'tkazish uchun uskunaviy vositalar ishlab chiqilmoqda.

Ular orasida etarlicha keng tarqatilganlari quyidagilardir [4], [6]:

| | |
|---------------------------|---|
| W3 Interactive Talk (WIT) | http://www.w3.org/pub/www/wit/ |
| WebBoard | http://webboard.ora.com/ |
| WebThread | http://www.emaze.com/wt-info.htm |
| XAforum | http://www.xa.com/forum.htm |
| Big Mouth Lion | http://www.infohiway.com/bigmouthlion/ |
| Futplex | http://gewis.win.tue.nl/applications/futplex |
| InterBoard | http://interboard.theforge.com/ |
| HyperNews | http://union.ncsa.uiuc:80/HyperNews |
| Message Board | http://www.ichat.com/products/mb_10.html |
| NetForms | http://www.maxum.com/NetForms |
| NetForum | http://www.biostat.wisc.edu/netforum/ |

Oxirgi paytda katta tezlikda *sinxron* kompyuter anjumanlar-Chatwere larni o'tkazish uchun maxsus dasturiy ta'minot rivojlanmoqda. U o'quvchilarni sinxron asosida muloqotdagi interfaol ta'limni tashkil etish, b.a. o'quv jarayonida haqiqiy vaqtda interfaol muloqat tizimini foydalanish imkoniyat beradi.

Web texnologiyasi asosidagi *sinxron* kompyuter anjumanlarni o'tkazish uchun eng ko'p tarqalgan uskunaviy vositalar orasidagilardan quyidagilarni ajratish mumkin:

| | |
|-----------------|---|
| AtChat | http://www.abbottsys.com/atchat.html |
| Conference Room | http://www.webmaster.com/products/conferenceroom/index.html |
| HoneyCom | http://www.honeysw.com/honeycom.htm |
| ICQ | http://www.icq.com |
| LOL Chat | http://www.lolchat.com |
| Microsoft Chat | http://www.microsoft.com/ie/chat |
| Expressions | http://www.eshare.com/products/exp3.html |
| Interaction | http://www.interaction.in-progress.com |
| PowWow | http://www.tribal.com/powwow |
| WinTalk | http://www.elf.com/elf/wintalk.html |
| Rooms | http://www.ichat.com/products/roomsf&b.html |
| Rendezvous | http://rendezvous.visualtek.com |
| PumpKIN | http://www.klever.net/pumpkin.html |
| PeopleLink | http://www.peoplelink.com |

Sinxron muloqotlarda tovushni uzatish, video va fayllarni uzatish bo'yicha ushbu uskunaviy vositalarning imkoniyatlari *masofadan turib o'qitishda* muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda masofadan turib birgalikdagi guruhii ishni tashkil etishda maxsus dasturiy ta'minot – "guruhver (groupware)"ni – qo'llash alohida dolzarb bo'lmoqda. "Guruhver" tizimlarning axborotni saqlash, boshqarish va ma'lumotlar omborida izlash kabi standart imkoniyatlarini foydalanish masofadan turib o'qitishda birlashgan talabalar

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

loyihalarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. *Telekommunikatsiyani foydalanish* – sinxron asinxron kompyuterli matnli, audio – videoanjuanlarning elektron aloqa orqali xat uzatish, fayllarni jo‘natish – guruhiiy masofadan turib o‘qitish jarayonida yagona hujjat ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Web texnologiyalar asosida masofadan turib guruhiy ta‘lim uchun quyidagi uskunaviy vositalar ishlab chiqilgan:

Super TCSuite <http://www.frontiertech.com/products/suite/> - elektron aloqa, hujjatlar ustida birgalikdagi ish, axborot izlash va uni boshqarish, munozarali guruhlar.

Team WARE Office <http://www.teamw.com/teamware/products/twvoffice.htm> - elektron aloqa, o‘quv graffikalarni tuzish, munozaralar, hujjatlarni saqlash va izlash.

TEAMate <http://www.mmb.com/> - hujjatlarni ishlab chiqish va foydalanishda hamkorlik qilish, guruhiy masalalarni echish jarayonini boshqarish tizimi.

WebShare http://www.radnet.com/Webshare/main_webshare.html - munozaralar, axborotlarni izlash va saqlash, o‘quv graffikalar tuzish.

8. *Teleanjuanlar (audio anjuanlar, audio grafik anjuanlar, video anjuanlar, kompyuterli anjuanlar)*. Ta‘lim muassasalarida maxsus jihozlar asosida kabi, kompyuter tarmog‘i orqali tovush, grafik, video va matnlarni uzatish asosida teleanjuanlarni o‘tkazish hozirgi kunning talabidir. O‘quv anjuanlarning asosiy turlari texnologik tomondan kompyuter tarmoqlarining multimediasini rivojlantirish mobaynida yaqinlashalarda, lekin didaktik tomonidan o‘zaro alohida farqlarini saqlaydilar. Umuman har bir teleanjuanlarning har bir turida masofadan turib o‘qitishning maxsus metodlari shakllanadi. Ohirgi paytlarda o‘qitishda foydalaniladigan barcha turlari orasida kompyuterli anjuanlar (elektron aloqa, shuningdek yuqorida eslatilgan Web texnologiyasi asosida o‘tkaziladigan kompyuterli sinxron va asinxron anjuanlar) keng tarqalmoqda.

Axborot texnologiyasi tez rivojlanayotgan va keng tarqalayotgan bir paytda e‘tiborimizni o‘quv-tarbiya jarayoniga yangicha yondashgan holda qaratmog‘imiz lozim. Ta‘lim tizimida yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash: yangi pedagogik uslub va usullarni rivojlantirishga; o‘qituvchilar o‘zlarining oldida turgan masalalarni hal etish stilini o‘zgartirishga; pedagogik tizim tuzilishini o‘zgartirishga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha o‘ziga xos masalalarini keltirib chiqaradi [5].

Zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalar texnologiyalari asosida o‘qitish metodlarini to‘rt guruhga ajratish mumkin: o‘z-o‘zini o‘qitish uslubi; “bittasi-bittani” pedagogik uslublari; “bittasi-ko‘pni” o‘qitish; kommunikatsiya asosida “ko‘plar-ko‘plarni” o‘qitish.

O‘quv-tarbiya jarayoniga yangi axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida yangi pedagogik texnologiya faoliyatini kiritilishi hozirda qo‘llanilayotgan an‘anaviy ta‘lim tizimini tubdan o‘zgartiradi. Bularni quyidagilarda ko‘rish mumkin: a) Texnologik asoslari tezlikda rivojlanayotganligi tufayli kurslar (darslik, qo‘llanmalar)ni ishlab chiqish faoliyati qiyinlashadi. Bu o‘qituvchi, uslubchi va olimlardan pedagogik ishlash usullari bo‘yicha yangi maxsus malakalarini talab etadi. Bundan tashqari zamonaviy axborot texnologiyalari o‘quv materiallarni ishlab chiqish sifati uchun qo‘shimcha talablar qo‘yadi. b) An‘anaviy o‘qitish tizimining markaziy figurasi o‘qituvchidir. Yangi axborot texnologiyasini ta‘lim tizimida qo‘llash sekin-asta o‘quv jarayonida asosiy og‘irlik faol qatnashuvchi o‘qituvchiga tusha boshlaydi. O‘qituvchining asosiy pedagogik faoliyati – o‘quvchi faoliyatini muvaffaqiyatli ushlab turishga qaratiladi ya‘ni o‘qituvchi o‘quvchining o‘quv axborotlarini oson o‘zlashtirishga qo‘maklashuvchi bo‘ladi. v) Yangicha o‘qitish sinfdagi o‘quvchilarga yakka tartibda faol va jadal ta‘sir etishni ta‘minlaydi. An‘anaviy o‘qitishda esa o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi teskari aloqa umumlashgan holda (barcha o‘quvchilar bilan) amalga oshiriladi [6].

Xulosa. Ta‘lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarning kiritilishi, o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyati, ularning darsdagi o‘rni va vazifalarini keskin o‘zgarishiga olib keladi. Shu bilan birga darsning samaradorligi ortadi, o‘quvchilar bilimlarni o‘zlarining kuchi, qobiliyati va materialni qabul qilish sur‘atiga asosan qabul qilishi hamda ularni mustaqil ravishda o‘zlashtirishiga olib keldi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-6079-son. Toshkent sh., 2020-yil 5-oktabr.
2. Abduraximov D.B., Toshtemirov D.E. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Guliston, 2020. - 332 b.
3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta‘limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.
4. Amirov D.M. va boshqalar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. Toshkent, 2010. – 576 b.
5. Toshtemirov D.E. Ta‘lim portali: yaratish tamoyillari, mazmuni va foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: Universitet. 2015. -156 b.
6. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta‘lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: “Universitet”, 2019. - 232 b.

Muallif:

Xudayberdiyev Abdumadjid Abduljalilovich - Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchishi.

UDK: 37.015.3

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF INCREASING MORALITY OF UNIVERSITY STUDENTS

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ НРАВСТВЕННОСТИ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

Xajiyeva Iroda Adambayevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali

E-mail: irush1978@mail.ru

Abstract. The article analyzes the pedagogical and psychological aspects of the development of moral values among students of technical universities. The pedagogical bases for choosing the technology of spiritual and moral education of students are revealed. The role of educational methods aimed at the formation of spiritual and moral qualities in the development of spiritual and moral relations has been studied. Special attention is also paid to didactic approaches to the development of spiritual values among students.

Keywords. Spirituality, values, psychological foundations, technology, socialization, behavior, individual characteristics.

Аннотация. В статье анализируются педагогические и психологические аспекты развития нравственных ценностей у студентов технических вузов. Раскрыты педагогические основы выбора технологии духовно-нравственного воспитания студентов. Исследована роль воспитательных методов, направленных на формирование духовно-нравственных качеств, в развитии духовно-нравственных отношений. А также уделяется особое внимание на дидактические подходы развития духовных ценностей у студентов.

Ключевые слова. Духовность, ценности, психологические основы, технологии, социализация, поведение, индивидуальные особенности.

Kirish. Yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish muammosi jamiyatda doimo qiziqish uyg'otib kelgan va bugungi kunda u yangicha mazmun kasb etmoqda. Fanda ma'naviyat jismoniy, aqliy, ijtimoiy va boshqa xususiyatlar bilan birga shaxs kamolotining tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Shaxsning ma'naviy salohiyatini yuksaltirish bilan shug'ullanadigan fanlarning mazmuni va mavqeini qayta ko'rib chiqish pedagogik jarayonni tashkil etishda integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirish, shaxsning ma'naviy rivojlanishiga ko'maklashish imkonini beradi. Ko'rinib turibdiki, inson fanlari rivojlanishining yuqori darajasi shaxsning rivojlanishi uchun me'yoriy prognozlarini va kerakli narsaning modelini yaratishga imkon beradi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarda ma'naviy qadriyatlarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishning dastlabki, asosiy, tuzatuvchi va yakuniy bosqichlari belgilangan. Tajriba va nazorat guruhlarini tanlash eksperimentni tashkil etish va o'tkazishga qo'yiladigan talablar hisobga olingan. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy, metodik, psixologik, pedagogik adabiyotlar, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov, natijalarni matematik statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Shaxsni rivojlantirishga qaratilgan pedagogika ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan ta'limning maqsad va vazifalari haqidagi g'oyalarni o'zgartirdi. Bu, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasasi talabalarini o'qitish va tarbiyalashning mazmuni va texnologiyalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ijtimoiy va kasbiy ta'limni rivojlantirishda aksiologik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvni amalga oshiradigan texnologiyalar psixologik xaziralarni aniqlash va shaxsiy potensialni amalga oshirishga qaratilgan.

Tizimli yondashuv ta'lim jarayonini boshqarishni ta'minlaydi, natijalarni tahlil qilish asosida o'z vaqtida tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Talabalarda ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishda, birinchi navbatda, quyidagi psixologik omillarga e'tiborni qaratish lozim: birinchi kurs talabalarini universitet muhitiga moslashtirish; talaba yoshlarning yanada ijtimoiylashuvi uchun sharoit yaratish; ma'naviy-axloqiy shakllanishini ta'minlash; ijtimoiy va kasbiy o'zini o'zi belgilashda yordam berish; ijtimoiy ahamiyatga ega va kasbiy jihatdan muhim fazilatlarini rivojlantirish; ta'limni yakunlash va bitiruvchilarning raqobatbardoshligini shakllantirish; xulq-atvorning kasbiy va axloqiy standartlarini shakllantirish; shaxs tomonidan ijtimoiy rollarning obyektiv tizimini egallashi; bo'lajak mutaxassisning kasbiy madaniyatini shakllantirish [16-18].

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

Belgilangan vazifalar ustuvor yoʻnalishlarni aniqlash imkonini beradi. Universitetdagi taʼlim faoliyati, masalan: talabalarni kasbiy va axloqiy tarbiyalash; ekologik madaniyatni tarbiyalash; ijtimoiy va kasbiy harakatchanlikni shakllantirish; maʼnaviy-axloqiy tarbiya va boshqalar; psixologik madaniyatni tarbiyalashga qaratilgan.

Har bir bosqich oʻquv vazifalarining tabiati, talabalarning kasbiy taʼlim darajasi, yoshlarning individual xususiyatlari va oʻziga xos (operativ) vaziyat bilan belgilanadi.

Taʼlimning barcha bosqichlarida oʻquv ishlarining muvaffaqiyatini taʼminlaydigan tizimni shakllantirish usuli talaba yoshlarda maʼnaviy qadriyatlarni rivojlantirishga psixologik yordam boʻlishi mumkin.

Albatta, bu jarayonni amalga oshirishda hamkorlikning roli katta. Hamkorlik murakkab usul boʻlib, quyidagilarni oʻz ichiga oladi: talaba yoshlarning kasbiy taʼlimining boshlangʻich darajasi va dinamikasini diagnostika qilish; kasbiy munosabat, umidlar va niyatlar, qiziqishlar, imtiyozlar va qadriyatlarning tabiati va xususiyatlarini, shuningdek, talabalarning shaxsiy qobiliyatlari aniqlash; kasbiy va shaxsiy rivojlanishda psixologik yordam koʻrsatish; faoliyat va xulq-atvorni mustaqil loyihalashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda psixologik yordam; hayotiy masalalar boʻyicha maslahatlar berish.

Shunday qilib, psixologik yordam talaba yoshlarda maʼnaviy qadriyatlarni rivojlantirishda taʼlimning ajralmas qismiga aylanishi kerak [11-15].

Taʼkidlash joizki, shaxs ijtimoiylashuvi – ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, individ oʻzi yashayotgan jamiyatning ijtimoiy tajribasini singdirsa, ikkinchi tomondan, oʻzi oʻzlashtirgan ijtimoiy aloqa va munosabtlar tizimini faol ravishda qayta tiklaydi va rivojlantiradi. Inson nafaqat ijtimoiy tajribani orrtiradi, balki bu tajribani oʻz shaxsiy qadriyatlari, qarashlariga aylantiradi va ijtimoiy munosabatlarga oʻz fikrni bildiradi. Bunda shaxs turli xil ijtimoiy munosabatlarga subyektiv tarzida kirib, oʻzini qamrab turgan ijtimoiy olamni va oʻz-oʻzini oʻzgartiradi.

Talaba yoshlar tarbiyasida ijtimoiy tajriba asosiy oʻrin egallaydi. Ijtimoiy tajriba quyidagi ikkita asosiy narsani oʻz ichiga oladi: ijtimoiy muhitning normalari, qoidalari, qadriyatlari, munosabatlari va boshqalarni; mehnat, ishlab chiqarish va faoliyatning boshqa turlaridagi madaniyatini.

Maʼlumki, oʻqitish amaliyotida yagona ideal yondashuv mavjud emas. Talabalarda maʼnaviy qadriyatlarni rivojlantirishda shunday didaktik yondashuvlarni, didaktik vositalarni izlab topish davom etmoqdaki, natijada ularni oʻqitish natijalarini kafolatlaydigan oʻziga xos texnologik jarayonga aylantirish mumkin boʻladi. Texnologiyalar usullar, metodlar, shakllar kabi mikrotuzilmalari mantiqiy texnologik zanjirga birikib, yaxlit pedagogik jarayonni – pedagogik texnologiyani tashkil etadi. Bu tushunchaning ilmiy asoslari bir qancha pedagogik adabiyotlarda asoslab berilgan [1].

I.G.Zaxarova pedagogik davrlarga xos texnologiyalar uch koʻrinishdagi inqilob natijasida yuzaga kelishini asoslab bergan [2]. Birmuncha keng yoyilgan “texnologiyalar” qogʻoz, pero va bosma stanok (dastlabki inqilob); kutubxona, laboratoriya va auditoriya (ikkinchi inqilob); mikroprotessorlar va telekommunikatsiyalar (uchinchi inqilob) oʻz davriga mos texnologiyalarning paydo boʻlishi va rivojlanishiga zamin yaratdi.

Bugun mutaxassis-pedagogning kasbiy mahoratiga qoʻyilayotgan talablar maʼnaviy qadriyatlar doirasida kengayib boryapti.

Talabalarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasini tanlash uchun quyidagilarga eʼtibor qaratish lozim: texnologiyalardan foydalanishdan kutilayotgan natijani aniqlash; oʻqituvchining maʼnaviy-axloqiy tarbiya muammosini bilish bilan bogʻliq texnologiyani tanlash va oʻzlashtirishga boʻlgan ichki motivatsiyasi; resurs bilan taʼminlash yoki taʼlim texnologiyalarini amalga oshirish uchun tegishli sharoitlar.

Texnika oliy taʼlim muassasalari talabalarida maʼnaviy qadriyatlarni rivojlantirishning oʻrganilayotgan muammosini nazariy tahlil qilish quyidagilarga imkon berdi: oʻrganilayotgan hodisa haqida toʻliq tasavvurga ega boʻlish; oliy taʼlim muassasasidagi tarbiya va oʻquv jarayoni tizimini tahlil qilish; oʻquv materialini tanlash, baholash va umumlashtirish mezonlarini ishlab chiqish; oʻqitish va tarbiyalash shakllari, usullari va vositalarining "inventarizatsiyasini" amalga oshirish; maʼnaviy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonini baholashning obyektiv koʻlamini aniqlash; maʼnaviy qadriyatlarga yoʻnaltirilgan muloqot holatlarini namuna qilish.

G.G. Amirova, Yu.K. Babanskiy, V.P. Bepalko, M.V. Klarin, M.N. Kuzmin, N.V. Kuzmina [3;10] larning taʼkidlashicha, pedagogik faoliyatning tabiatiga koʻra, tashkiliy shart-sharoitlar talabalarning bilim olishining butun bosqichiga, pedagogik shartlar esa yaxlit pedagogik jarayondagi oʻrganishning muayyan bosqichlariga mos keladi.

Texnologiyaning bosqichlari sifatida quyidagilarni belgilab oldik: diagnostik (tashxislovchi); tayyorgarlik; texnologik; baholovchi.

Maʼnaviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tarbiya usullarini qoʻllash natijasi maʼlum bir xulq-atvor turini belgilaydigan gʻoyalar, tushunchalar, gʻoyalar va odatlarni shakllantiradigan maʼnaviy-axloqiy munosabatlarni, motivlarni yaratishdir.

Oliy taʼlim muassasalari oʻqituvchilari talabalarda maʼnaviy qadriyatlarni rivojlantirishda quyidagi talablarga javob berishi kerak: maʼnaviy-axloqiy tarbiyaning mohiyati bilishni; talabalar psixologiyasini bilishni; asosiy tushunchalar, qonunlar va modellar, taʼlim oluvchilarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalash usullari va vositalarini; ijtimoiy-gumanitar fanlar oʻrtasidagi aloqadorlik va hamkorlikni amalga oshirishni; oʻqitiladigan fanning mutaxassis shaxsini shakllantirishdagi umuminsoniy jihatlarini; talabalarni maʼnaviy, axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda taʼlim

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

muassasalari, jamoat tashkilotlarining burchlarini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni; talabalarni tarbiyalash jarayonida psixologiya asoslarini bilishi va qo'llay olishni; milliy istiqlol mafkurasi, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi asosida ta'lim oluvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishni; talaba yoshlarda ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishning Dasturini ishlab chiqish, tavsiya va takliflar bilan ishtirok etishni; talabalarda vatanparvarlik, milliy g'urur va o'z-o'zini anglash, o'z xalqining va boshqa xalqlarning tarixiga, madaniyatiga va an'analariga hurmat, bilim va haqiqatga intilish, mehnatsevarlik, tadbirkorlik va qonunga bo'ysunish hissiyotlarini shakllantirishni; talaba yoshlarni o'quv jarayonlarida milliy g'oya va mafkura mazmuni bilan tanishtirib borishni; ta'lim oluvchilarni estetik rivojlantirish, ularni ajdodlarimizning va jahon sivilizatsiyasining boy merosi bilan tanishtirishni; yangi O'zbekiston sharoitida ijodiy faollikni shakllantirishni; so'zlash madaniyatini; ta'lim oluvchilar bilan individual ishlash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlar tizimini rivojlantirish bo'yicha tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshirish belgilab olindi: tajriba-sinov ishlarini aniq maqsadga yo'naltirish; tajriba-sinov ishlarining izchilligi, tizimliliigi va uzviyligini amalda ta'minlash; muammoning nazariy asoslari bilan amaliy ishlanmalar orasida o'zaro aloqadorlikni o'rnatish; respondentlarning o'z imkoniyatlarini erkin ro'yobga chiqara olishlariga erishish; tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadga erishish uchun qulay pedagogik vaziyatni vujudga keltirish.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlar tizimini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatini quyidagi pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni yaratish orqali ta'minlash aniqlab olindi: tajriba-sinov materiallari mazmuni asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda tanlash; tajriba-sinov materiallariga mos keladigan didaktik vositalar, shakllar, usullar va metodlar tanlab olish; tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari – respondentlar sonini taqqoslash, qiyoslash imkoniyatini beradigan ko'rsatkich bo'la olishiga erishish; respondentlarning tajriba-sinov ishlari mazmun-mohiyatidan to'laqonli tarzda xabardor etish; tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda tadqiqotchi yoki ushbu faoliyatni tashkil etishga mas'ul bo'lgan yetakchi-pedagog bilan respondentlar o'rtasida samimiy psixologik muloqot hamda o'zaro hamkorlik o'rnatish; tajriba-sinov ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida respondentlar bilan muloqot qila olish imkoniyatini yaratish; tajriba-sinov ishlari natijalarini doimiy ravishda umumlashtirib tahlil etish; umumiy natijalarni qayta tahlil etish imkoniyatini beradigan matematik-statistik metodlarni aniqlash.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishga doir kompleks pedagogik-psixologik shart-sharoitlar va vositalar samaradorligini aniqlashga qaratildi (1.1.jadval).

Talabalarda ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish bosqichlari

| Bosqichlari | Bosqichning vazifalari | Faoliyat turlari |
|---------------------|--|--|
| Boshlang'ich | Talabalarda ma'naviy qadriyatlarini o'zlashtirish uchun maqsad qo'yish; ma'naviy qadriyatlarining rivojlanganligini o'rganish uchun empirik material to'plash, qadriyatlar to'g'risidagi to'g'ri tasavvurni shakllantirish va unda tarkibiy qismlarining o'rni va ahamiyatini ochib berish; "Haft shuaro" majmuasining elektron ilovasini taqdim etish | Talabalarnig tarbiyaviy faoliyatlarini kuzatish; ma'naviy qadriyatlarining rivojlanganligi tahlili; psixologik muhitni o'rganish va pedagogik masalalarning yechimi |
| Asosiy | Ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishning ketma-ketlikdagi ishlanmasi; axborotlarga kirish imkoni, vositalari va usullari, nazariy bilimlarni faollashtirish; ma'naviy qadriyatlar mohiyatini va tuzilishini anglash, kasbiy dunyoqarashni, qadriyatlarini, yo'nalishlarni shakllantirish; birlamchi manba haqida bilim va tasavvurga ega bo'lish. | Amaliy va nazariy vazifalarni bajarish; talabalar o'rtasida qadriyatlarga oid tadqiqotlarni o'tkazish; o'qituvchilar faoliyatini ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish uslubi nuqtayi nazaridan tahlil qilish va tadqiqot natijalari asosida "Haft shuaro" majmuasiga oid alohida tadbirlarni uyushtirish. |
| Tuzatuvchi | AKT orqali ma'naviy qadriyatlar mexanizmlarini o'zlashtirish, usul va vositalarni qayta ishlab chiqish, AKT malakalarini mukammallashtirish; maxsus kurs jarayonida nazariy bilimlarni chuqurlashtirish; amaliy faoliyatning o'z-o'zini tahlil qilish usullarini egallash; | Mustaqil tadqiqotni ishlab chiqish va o'tkazish, oliy ta'lim muassasasining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda talabalar bilan turli xildagi faoliyat turlarini tashkil etish; talabalar faoliyatini muammoli tahlil qilish. |
| Yakunlovchi | Nazariy bilimlarni umumlashtirish va sintezlash; "Haft shuaro" majmuasi orqali ma'naviy qadriyatlarini o'zlashtirishning umumiy kompleksini ishlab chiqish; kasbiy dunyoqarashni shakllantirish. | Pedagogik jarayonni tashkil etish; o'qituvchi va talabalarining individual va tipologik xususiyatlarini aniqlash; tadqiqot dasturi asosida ishlab chiqilgan tashkiliy qadriyatlarini mukammallashtirish borasidagi keyingi ishlar; texnika oliy ta'lim muassasasi talabalarining keyingi qadriyatlar rivojlanishini oldindan bashorat qilish (prognozlash); pedagogik prognozni hisobga olgan holda texnika oliy ta'lim muassasasi talabalarida qadriyatlar tizimini tuzib chiqish |

Tajriba va nazorat guruhlarini tanlash eksperimentni tashkil etish va o'tkazishga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda, amalga oshirildi. Tajriba quyidagi bosqichlarga bo'lindi: dastlabki; asosiy; tuzatuvchi va yakuniy.

Eksperimentning har bir bosqichi maxsus kurs dasturiga muvofiq, ta'limiy blokni, ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari va texnologik amaliyotlarni o'z ichiga olgan bo'lib, har bir blokning o'z maqsadi ko'rsatilgan. Guruhlararo o'zaro hamkorlikni tashkil etishga ixtisoslashgan mashg'ulotlarda turli zamonaviy o'qitish usullari va texnologiyalaridan foydalanildi. O'qitish tizimining maqsadi shundan iborat ediki, maxsus kurs mavzulari tugashi bilan talabalarda shakllanish va rivojlanish ketma-ketligiga ko'ra, ma'naviy qadriyatlarga oid ma'lum bir bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi nazarda tutilgan.

Xulosa: Mamlakatimizda oliy kasbiy ta'lim tizimida sodir bo'layotgan yangilanish jarayonlari kelajakda oliy texnik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislariga yangi talablarni qo'ydi. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida nafaqat ma'lum bilim va ko'nikmalar yig'indisiga ega bo'lgan, balki o'zini o'zi anglash, o'z-o'zini tarbiyalashga hissa qo'shadigan, shaxsiy xususiyatlar va fazilatlarining boy ichki salohiyatiga ega bo'lgan raqobatbardosh muhandislarni yetishtirish davr talabidir.

Texnika oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoni o'quv dasturining turli fanlarini o'rganish uchun alohida jarayonlar to'plami sifatida shunday tashkil etilishi kerakki, u nafaqat talabalarga bilimlarni uzatishga, balki talabalarga ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, bilimlarini kengaytirish, barqaror ehtiyojini shakllantirishga yordam berishi lozim. Biroq bu rivojlanish faol va samarali davom etishi uchun talaba o'quv faoliyatida motivatsion tarzda ishtirok etishi kerak, ya'ni o'quv faoliyati uning uchun shaxsan ahamiyatli bo'lib, faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. –М.: Народное образование. 1998. -255 с.
2. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T.: Moliya, 2003. -172 b.
3. Захарова И.Г. Информационные технологии для качественного и доступного образования. //Педагогика. 2002. №1.
4. Амирова, Г.Г. Педагогическая технология формирования иноязычной речевой деятельности студентов технического вуза. – Казань, 2002.
5. Бабанский, Ю.К. Педагогика высшей школы – Алма-Ата: Мектеп, 1989. – 176 с.
6. Беспалько, В.П. Слагаемые педагогической технологии [Текст] / В.П. Беспалько. – М., 1989.–192 с.
7. Кларин, М.В. Педагогическая технология в учебном процессе: анализ зарубежного опыта. – М.: Педагогика, 1989. – 103 с.
8. Кузьмин, М.Н. Образование в условиях полиэтнической и поликультурной России // Педагогика. – 1999. – №6. – С. 3-11.
9. Кузьмин, М.Н. Концепция национальной школы: Цели и приоритеты содержания образования. – М., 1994.
10. Кузьмина, Н.В. Методы исследования педагогической деятельности. – Л., 1970. – 172 с.
11. Хажиева И.А., & Юсупов Ф. (2012). К проблеме воспитания образованного и интеллектуально развитого студента в современной социокультурной ситуации. Илм сарчашмалари, УрДУ, Урганч, (11), 89.
12. Khadjieva I.A. (2019). Development of spiritual and moral values of students on the basis of innovative technologies. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
13. Iroda KHADZHIEVA. Sultoniy ijodiyotini pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish ("Haft shuaro" majmuasi asosida). Жамият ва инновациялар. 02 (2022) / ISSN 2181-1415. 266-271-b.
14. И.А.Хажиева. Дидактика гуманитарных дисциплин при создании адаптивной модели компьютерного обучения для студентов вузов технического направления. Илм ham jamiyat. №3. 2022. 28-30-б
15. Khajieva I. The role of spiritual values in the light of the idea of the harmoniously developed person in the education process. Mintaqada zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari. №1 ю 2017. 60-64-б.
16. Iroda Adambayevna Xajiyeva. Pedagogik vositalar yordamida oliy ta'limning texnika yo'nalishi talabalariga komil inson g'oyasini tushuntirish. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 4 | 2022. 1049-1057-b.
17. Xajiyeva Iroda Adambayevna. Texnika yo'nalishidagi talabalarga inson va insonparvarlik g'oyasini tushuntirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni. Muallim. №4. 2022. 36-41-б.
18. Iroda Khadzhieva. Developing the cognitive activity of students of technical universities using active methods of teaching. Жамият ва инновациялар. 02 (2022) / ISSN 2181-1415. 540-543-б.

Muallif:

Xajiyeva Iroda Adambayevna - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali dotsenti.

UDK:378.015.31:613

HEALTH PROMOTING WORLDWIDE IN STUDENTS IN PEDAGOGICAL FIELDS

PEDAGOGIK YO'NALISHLARDA TAHSIL OLUVCHI TALABALARDA SALOMATLIKNI TARG'IB QILUVCHI
DUNYOQARASH

УКРЕПЛЕНИЕ ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ОБЛАСТИ ВО ВСЕМ МИРЕ

Mattiyev Ilhom Begmatdulobovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Amir Temur ko chasi 9- uy.

E-mail: ilhom_matiev@gmail.uz

Abstract. In this article, the acceleration of research work on the improvement of the worldview that promotes health, the prevention of suicide among young people, the increase of awareness of knowledge about mental health, the achievements of traditional medicine and modern European medicine in the formation of a healthy lifestyle mutual coordination, wide promotion of national sports and physical education values, optimal mechanisms of personalization and optimization of people's physical load, taking into account age, sex, labor and educational activities and health, were discussed.

Key words: health, assessment, criterion, level, technologies, development, standard, infrastructure, reform, declaration, approach.

Аннотация. В данной статье рассматривается ускорение исследовательской работы по совершенствованию мировоззрения, способствующего здоровью, профилактике самоубийств среди молодежи, повышению осведомленности о психическом здоровье, достижениям традиционной медицины и современной европейской медицины в Обсуждались формирование взаимной координации здорового образа жизни, широкая пропаганда национальных ценностей спорта и физического воспитания, оптимальные механизмы персонализации и оптимизации физических нагрузок людей с учетом возраста, пола, трудовой и учебной деятельности и состояния здоровья.

Ключевые слова: здравоохранение, оценка, критерий, уровень, технологии, развитие, стандарт, инфраструктура, реформа, декларация, подход.

Kirish. Dunyo mamlakatlarida yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni bo'yicha YuNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan ta'limning xalqaro standart tasniflagich darajalari bo'yicha ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash, STEAM ta'limini joriy qilish, jahon mehnat bozoriga yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlash muammolari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. YuNESKOning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish" dasturiy hujjati (1995 yil); BMTning "XXI asrda oliy ta'lim: yondashuv va amaliy choralar" Butun jahon deklaratsiyasi (1998 yil); Yevropa OTM ta'lim sifatining bir xilligini ta'minlash maqsadida qabul qilingan Bolonya deklaratsiyasi (1998 yil); kredit-modulli ta'lim tizimini takomillashtirish, o'qitishni yangi strategiyalarga moslashtirish, ta'limiy axborot infratuzilmasi negizini kasbiy faoliyatga aloqador parametrlar doirasida rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirishda tizimli ishlar olib borilmoqda. Pedagogik oliy ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalari va ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak o'qituvchilarga salomatlikni targ'ib qiluvchi dunyoqarashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish, ta'lim sifatini oshirish, raqamli ta'lim resurslari fondini yaratish orqali kredit-modulli texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonlarida talabalar faoliyatini ma'naviy tomonlama takomillashtirish masalalarini yo'lga qo'yish kerak[1].

Ta'lim muassasalarida yoshlarning sog'lom hayot kechirish falsafasini va metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish, uni obyektiv baholash mezon va darajalarini ishlab chiqish bo'yicha Seoul National University Centre for Health Systems Research, KOSHA, KASP (Janubiy Koreya), JOICFP, JSHEP (Yaponiya); School of Public Health and Primary Care, Peking Union Medical College and School of Public Health, (XXR); SOPHE, ERIC, AAPAC, NIH, NHC, NHIC, CAHA, CHHCS, Global Health Technologies Coalition, International Life Sciences Institute, HPRC (AQSh); Database of Internet Resources in Public Health the Department of Health of England, Brighton University, AYPH (Buyuk Britaniya) va Federativ salomatlik markazi, Gigiyena ilmiy-amaliy markazi, SDU (Rossiya) kabi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida olib borilmoqda[2].

Keyingi yillarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirish muammosi bo'yicha bir qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olindi: yoshlar o'rtasidagi suisidning oldini olish, ruhiy salomatlik haqidagi bilimlardan xabardorligini oshirish maqsadida Koreyada yoshlar sog'ligini saqlash dasturi ishlab chiqilgan (Seoul National University Centre for Health Systems Research, KOSHA, KASP); sog'lom turmush tarziga oid o'quv-dasturiy va metodik materiallar yaratilgan, talaba va o'quvchilarning sog'lom turmush tarzi bo'yicha salomatlik reytinglari, ta'lim muassasalari reytinglari aniqlangan (JOICFP, JSHEP); sog'lom turmush tarzini shakllantirishda an'anaviy tibbiyot bilan zamonaviy Yevropa tibbiyoti yutuqlari o'zaro muvofiqlashtirilgan, milliy sport va jismoniy tarbiya qadriyatlarini keng targ'ib etilgan (School of Public Health and Primary Care, Peking Union Medical College and School of Public Health); sog'lom turmush tarzi (Healthy

Lifestyle), inson salomatligi muhofazasi va salomatlikni mustahkamlash (Health Promotion) va salomatlik pedagogikasi (Health Education) bo'yicha davlat ta'lim standartlari yaratilgan hamda pedagogik mazmuni takomillashtirilgan (SOPHE, ERIC, AAPAC, NIH, NHC, NHIC, CAHA, CHHCS, Global Health Technologies Coalition, International Life Sciences Institute, HPRC); yoshlar salomatligini muhofaza qilish, farovonligini ta'minlash, o'zgarishlarni tahlil qilish dasturi ishlab chiqilgan (Database of Internet Resources in Public Health the Department of Health of England, Brighton University, AYPH); o'smirlarning ijtimoiylashuvi aspektida sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-biologik va psixologik-pedagogik asoslari ishlab chiqilgan (Federativ salomatlik markazi, Gigiyena ilmiy-amaliy markazi, SDU).

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Bugungi kun tadqiqotlarida keltirilayotgan ilmiy xulosalar va takliflar yangidan -yangi zamonaviy tadqiqot usullarini talab qiladi. Shu boisdan ham tadqiqotlarda zamonaviy texnologiya va tadqiqot usullaridan foydalanish talab qilinadi. Mazkur tadqiqot jarayonida madaniyatga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish; tahlil qilish; pedagogik kuzatuv; sosiometrik (suhbat, anketa, test, intervyu); tajriba-sinov, tizimlashtirish, taqqoslash, qiyoslash kabi zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Sog'lom tumush tarzi-salomatlikni mustahkamlash va saqlash, kasalliklarning oldini olish va faol hayot davomiyligini oshirishga qaratilgan faoliyat turidir. Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyati-yoshi, jinsi, mehnat va ta'lim faoliyati va salomatligini hisobga olgan holda, odamlarning jismoniy yukini optimallashtirish va shaxsiylashtirishning maqbul mexanizmidir. "Salomatlik-farovonlikni oshirish texnologiyasi" fanini o'rganish mavzusida sog'lom turmush tarziga ega bo'lgan jismoniy tarbiya va sportning mazmuni va ularni turli ijtimoiy, yosh va jinsdagi guruhlarning ijtimoiy holatini yaxshilash uchun ulardan foydalanish usullari mavjud. Sog'lomlashtirish texnologiyalarining bir turi sifatida ularning maqsadi va vazifalari mavjud. Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llashdan maqsad sog'lom turmush tarziga bo'lgan ahvolini yaxshilashdir. Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llash maqsadlari qo'yidagilardir: tananing funksional qobiliyatini oshirish; kasalliklar profilaktikasi; vosita rejimini optimallashtirish; faol dam olish tufayli charchoqni kamaytirish; JSST tavsiyalari asosida sog'lomlashtirish sinflarida optimal o'quv yuklarini individualizatsiya qilish; yomon axloqlarga qarshi kurashda mashqdan foydalanish; turli yoshdagi jinsiy va sog'liqni saqlash ahvoli, shu jumladan, nogiron kishilarning faol jismoniy tarbiya va sog'liq sinflariga jalb qilinishi; sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida sog'liqni saqlash texnologiyalarini joriy etish; professional ahamiyatga ega bo'lgan ish faoliyatini rivojlantirish.

Sog'lomlashtirish texnologiyasi tibbiy-pedagogik va ijtimoiy toifadagi fan bo'lib, ham jismonan, ham ruhan sog'lom bo'lgan millat namoyondasini tarbiyalash va takomillashtirish borasidagi zarur omillarni va uslublarni o'rganib, ularni turmushga tadqiqot etish kabi vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Sog'lomlashtirishning asl maqsadi muayyan shaxsning salomatligini nazorat qilish va ta'minlash orqali oilaning, jamiyatning, millatning va davlatning mustahkam bo'lishiga asos yaratishdir[3].

Tarbiya jarayonida jismoniy mashqlarning samarali ta'sirini belgilay oladigan omillarni bilish pedagogik jarayonni boshqarishni osonlashtiradi. Bu omillar quyidagicha guruhlanadi: 1.O'qituvchi va o'quvchilarning shaxsiy tavsifi omili. 2.Ilmiy omillar-jismoniy tarbiyaning qonuniyatlari tomonidan anglanishi me'yorini xarakterlaydi. 3.Metodik omillar-jismoniy mashqlardan foydalanishda amal qilinadigan juda keng qamrovdagi talablar guruhini umimlashtiradi [4]. Bu borada *sog'lom turmush tarzi va sog'lom madaniyatning falsafiy jihatlari* T.Mahmudov, S.Otamurodov, A.Ochildiyev, J.Tulenov, S.Shermuhammedov, E.Yusupov, A.Erkayev, U.Qoraboyevlarning tadqiqotlarida; ta'limning turli bosqichlarida *sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va uni pedagogik talablar asosida shakllantirish* O.Musurmanova, D.Sharipova, Ye.Seytxalilov, T.Ulmatqulov, F.Abdurahimova, K.Risqulova, O.Djamaldinova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida; *sog'lom turmush madaniyatining ayrim psixologik xususiyatlari* G.Shoumarov, V.Karimova, E.G'oziyev, N.Safoyev, Z.Nishonova kabilarning ilmiy-tadqiqot ishlarida; masalaning bevosita *pedagogik jihatlarining ayrim masalalari, aniqrog'i, uning zarur pedagogik talab ekanligiga oid qarashlar* M. Ochilov, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Inomova, U.Mahkamov, N.Ortiqov, S.Ochilov, M.Quronov, Z.Ismailova, G.Ibragimova, D.Ro'ziyeva, S.Yo'ldasheva va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ko'rib chiqilgan [5].

Jumladan, sog'lom turmush tarzi va gigiyenik tarbiya, oilaviy tarbiya masalalari (O.Musurmanova, D.Sharipova, S.R.Muxamediyeva, T.Ulmatqulov, O.Djamaldinova, S.Axmedova, A.Saidov, T.K.Narbayeva), oilaviy tarbiya va sog'lomlik masalalari (M.Maxmudova), yoshlar tarbiyasida valeologik bilimlar ahamiyati masalasi (O.Musurmonova, D. Sharipov, M. Toirova), D.Sharipova gigiyenik tarbiya himoyachisi sifatida o'z qarashlarini shakllantiradi. Olimlarning fikriga ko'ra, salomatlikning tibbiy-gigiyenik jihatlarini, jismoniy tarbiya va sport, ovqatlanish ratsioni muhimdir. Salomatlik ko'p qirrali tushuncha ekanligi, uning ta'limi va tarbiyasi jarayonida barcha jihatlarini muvofiqlashtirish zarurligi qayd etildi.

O.Musurmonova sog'lom turmush tarzi tushunchasini shaxs ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Uning milliy va umum-bashariy mazmuni haqida fikr yuritiladi.

O.Jamoldinova fikriga ko'ra, Sog'lom turmush madaniyati tushunchasi sog'lom turmush tarzi tushunchasidan keng tushuncha bo'lib, inson hayoti, shaxsi, yashash muhiti, oilasi, madaniy qiziqishlari bilan bog'liq hodisa.

Xulosa

Oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashni takomillashtirish muammosini nazariy tahlil qilish bizga quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

- Oliy o'quv yurtlari talabalarida ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha salmoqli tahliliy materiallar mavjudligiga qaramasdan, talabalar o'rtasidan sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashni takomillashtirishga xizmat qiluvchi muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yaratishning mantiqiy asoslari bilan bog'liq masalalar yetarlicha o'rganilmaganligicha qolmoqda.

Tegishli masalani hal qilish yoshlarda sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashni takomillashtirish, butun jamiyatning, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy kuchlarining davlat miqyosida hamkorligini taqozo etadi. Ko'rib chiqilayotgan muammo, ayniqsa, maktabgacha yoshdan boshlab, uzluksiz, oliy ta'limgacha bo'lgan ta'lim muassasalarida keskin bo'lishi kerak.

O'sib borayotgan shaxsning sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashini shakllantirish izchil xarakterga ega bo'lishi kerak. Shunday qilib, insonning sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashini takomillashtirish jarayoni davlatning milliy g'oyasiga, eng muhim vazifasiga aylanishi kerak;

- shaxsning qadriyat yo'nalishlari orasida salomatlik ustunlik qiladi, bu uning mehnat qobiliyatini belgilaydi va barkamol rivojlanishini ta'minlaydi. Bu insonning atrofda dunyoni faol bilishiga hissa qo'shadi va uning o'z-o'zini tasdiqlashi va o'z-o'zini anglashi uchun sharoit yaratadi va to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlikning dinamik holati sifatida tavsiflanadi. Shu bilan birga, insonning moslashuvchan resurslari ekstremal vaziyatlarda ham optimal hayotni saqlab qolish qobiliyati sifatida joylashtirilgan. Sog'liq inson ongida dunyoning alohida rasmini shakllantiradi, chunki shaxsning o'z hayot yo'lini belgilashda qo'ygan vazifalari va maqsadlarini amalga oshirish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratadi;

- sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarash insonning o'z xulq-atvoridan xabardor bo'lishi, his-tuyg'ulari va fikrlarini nazorat qilish, oiladagi va atrofda munosabatlarni tartibga solish, yomon odatlardan voz kechish, shaxslararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, hayot uchun ijobiy hissiy muhit yaratishga asoslanishi kerak. Shu bilan birga ushbu dunyoqarashni takomillashtirishga qaratilgan ta'lim jarayoni shaxs salomatligining qadriyati butun jamiyatning qadriyati sifatida ko'rib chiqiladi, bu ijtimoiy va individual ongning elementiga aylanishi kerak bo'ladi.

Oliy o'quv yurti talabasi shunday bilim darajasiga ega bo'lishi kerakki, u mustaqil va ongli ravishda o'z hayoti modelini ishlab chiqishga imkon beradi, bunda sog'lom turmush tarzi ustuvor bo'ladi;

- Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashini takomillashtirish uchun pedagogik tizim atrof-muhit bilan axborot va "energiya"ning o'zaro ta'siri va almashinuvi uchun ochiq bo'lishi zarur;

U o'qituvchilar o'rtasida tashabbuskorlikning namoyon bo'lishi, o'z-o'zini takomillashtirish, o'zini-o'zi anglash, pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish istagi bilan isbotlangan faol, g'ayratli prinsipi o'z ichiga olishi kerak, shuningdek, tanlov erkinligiga ega bo'lishi kerak. Bosim, tashqaridan bosim o'tkazmasdan rivojlanish yo'llarini aniqlash; pedagogik tizim o'z-o'zini rivojlantirish maqsadlariga, talabalarining shaxsini rivojlantirishga, o'quv jarayonining barcha subyektlarida sog'lom turmush tarzi uchun qadriyat yo'nalishlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

- Oliy ta'limning o'quv jarayoni talabalarining intellektual salohiyatini rivojlantirish orqali ularning sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashini shakllantiradi, shaxsning ijtimoiy-shaxsiy, aqliy va jismoniy salohiyati, ta'lim, axborot va xulq-atvor jihatlarida izchillikka rioya qilgan holda ushbu dunyoqarashini shakllantirishga kompleks yondashuv;

- Sport o'yinlari orqali sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashni shakllantirishning mualliflik modeli kompleks, tizimli, aksiologik va gumanistik yondashuvga asoslanib, o'zaro bog'liq bo'lgan uchta blokdan iborat. Maqsadli blok sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayonini to'g'ri tashkil etishga qaratilgan asosiy g'oyani, global va aniq maqsadlarni, vazifalarni uslubiy yondashuvlarni va tamoyillarni belgilaydi. Axborot-kontent bloki kompetensiyalarni shakllantirishni ko'rsatadi: pedagogik nazariya va amaliyotning ta'lim salohiyatiga asoslangan umumiy madaniy, shaxsiy, kommunikativ, ijtimoiy, ta'lim va kognitiv. Texnologik blok texnologiya, vositalar va shakllar bilan ifodalanadi, shaxsning sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayonini tashkil etish[11]. Biz pedagogik ta'sir vositalari va texnologiyalarning samaradorligini shakllantirish jarayonini pedagogik qo'llab-quvvatlashning ishlab chiqilgan shakllariga bog'liqligini aniqladik. Talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzi deganda, biz quyidagilarni nazarda tutamiz:

- Dasturni ilmiy asoslangan ishlab chiqarish va amalga oshirish dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasiga mos keladigan uslubiy yondashuvlar tizimi asosida sport o'yinlari orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

- Talabalarining sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradigan maxsus ta'lim muhitini yaratish;

- Sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashni shakllantirishda prosessual va axborot tarkibiy qismlarining birligi tamoyilini amalga oshirish;

- Xususiy soha faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, pedagogik harakatlar ketma-ketligini ishlab chiqish;

- Tarixiy, shaxsiy, texnik, nazariy, amaliy, me'yoriy, fiziologik, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarshini murakkabligini ta'minlash, tashkil etish va amalga oshirish bilan bog'liq tibbiy va boshqa ma'lumotlar, sport o'yinlari;

- Treninglar, nazariy tayyorgarlik, o'qitish jarayonida talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi maxsus, pedagogik aloqani shakllantirish;

O'yinchilar va murabbiyning umumiy maqsadli yo'nalishi bilan tavsiflangan va sport o'yinining qoidalari va usullarini, nazariy asoslarni va barcha tegishli ma'lumotlarni o'zgartirishga, nazariy va amaliy o'yin ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan uyushtirilgan psixologik iqlim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари www.lex.uz, www.regulation.uz, www.xs.uz, www.review.uz ва бошқа манбалар асосида олинди.

2. Диссертация мавзуси бўйича хорижий тадқиқотлар шарҳи: <http://www.travisafrc.com/>; <https://www.friedrich-verlag.de/fileadmin/redaktion/sekundarstufe/>; <https://ru.scribd.com/document/106204902/What-is-Competence-Delamare-Winterton>; <https://e-koncept.ru/2014/14600.htm>; <https://www.degruyter.com/view/j/rpp.2015.5.issue-1/rpp-2015-0030/rpp-2015-0030.xml> ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.

3. Абдуллаева П.Т. Педагогическая наука в структуре университетского образования: достижения и перспективы. Вестник КазНУ, серия «Педагогические науки». – 2011. - №1(32) - С.50-53.

4. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – T.: O'qituvchi, 1994. – 320 b.

5. Jo'maboyev Y. O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. Toshkent. O'zbekiston. 1980.-12 bet. Ziyoyev N. Istiqloq – ma'naviyat negizi. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999. -192 b.

6. Shayxova X. Sog'lom turmush tarzi va yoshlar kamoloti. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008. - 60 b.

7. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - Toshkent: Universitet, 1998. - 184 b. O'rinboyev N.O'. Barqaror taraqqiyotni ta'minlashda sog'lom turmush tarzining o'rni. Avtoref. dis. ... fal. fan. nomz. - T., 2005. – 23 b.

8. Кадырова З. Проблемы повышения социальной активности молодежи Узбекистана в условиях всестороннего реформирования общества: Дис. ... д-ра. филос. наук. –Тошкент, 2001.

9. Маттиев, И. Б. (2011). Культура здорового образа жизни: взгляды прошлых цивилизаций (на примере Узбекистана). In Педагогика: традиции и инновации (pp. 49-51).

10. Маттиев, И. Б. (2016). Некоторые направления государственной политики здоровьесбережения как педагогический фактор формирования здорового поколения. Бюллетень науки и практики, (10 (11)), 358-363.

11. Маттеев И. Б. (2022). Социально-педагогическая необходимость развития здравоохранения для студентов. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(4), 300-304.

12. Маттиев, И. Б. (2019). Саломатликни асрашга йўналтирилган технологиялар: долзарблик сабаблари ва омиллари. Интернаука, (14-2), 56-58.

13. МАТТИЕВ, И. (2017). Саломатликни асрашга йўналтирилган технологиялар: ўқитувчилар компетенцияси масалалари. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 35(2), 61-64.

Muallif:

Mattiyev Ilhom Begmatdulobovich - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, pedagogika fanlari doktori.

UDK:37.035

PRACTICAL METHODS OF IMPROVING IDEOLOGICAL IMMUNITY OF STUDENTS

TALABALARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI TAKOMILLASHTIRISHNING AMALIY METODLARI

ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У СТУДЕНТОВ

Rahimova Iroda Ravshanovna

Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, 140104, Bustansaroy ko'chasi 93.

Email: rahimovsanjar59@gmail.com

Abstract. In this article, further improvement of ideological immunity education, level of educational work, improvement of methods of forming immunity to the ideas of destructive ideologies, positive attitude towards ideological and educational work, true faith in national ideals, confidence, stability of the individual issues of his ideological immunity and active life position are discussed.

Key words: principles, immunity formation, methods, forms and means, true faith, development, trust, effectiveness of propaganda, ideological possibilities, best practice.

Аннотация: В данной статье дальнейшее повышение идеологического иммунитета образования, уровня воспитательной работы, совершенствование методов формирования иммунитета к идеям деструктивных идеологий, положительное отношение к идейно-воспитательной работе, истинная вера в национальные идеалы, уверенность, устойчивость отдельных вопросов. обсуждаются его идеологическая неприкосновенность и активная жизненная позиция.

Ключевые слова: принципы, формирование иммунитета, методы, формы и средства, истинная вера, развитие, доверие, эффективность пропаганды, идеологические возможности, передовой опыт.

Kirish. Mafkuraviy immunitet tarbiyasini yanada takomillashtirishda oliy o'quv yurtlarida ilg'or pedagogik tajribasini yoyishning ahamiyati katta. Buning dolzarbligi shundaki, ko'pincha, oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiyaviy ish pand-nasihatcha tayanib, qarshi targ'ibotning boshqa uslublari, shakllari va vositalariga kam ahamiyat beriladi. Bu ham oliy o'quv yurtlarida milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillarini shakllantirishda qarshi targ'ibot ishining mazmuni, uslublari va shakllarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatib turadi. Qarshi targ'ibot samaradorligining zaruriy tamoyillaridan biri - uning tezkorligida bo'lib, unda muayyan mintaqaviy sharoitlar, talabalarning yosh xususiyatlari, oliy o'quv yurtining u yoki bu muddatda hal qila olishi mumkin bo'lgan mafkuraviy imkoniyatlarini hisobga olish nazarda tutiladi.

Oliy o'quv yurtida qarshi targ'ibot ishini tashkil qilishdagi muhim yo'nalishlardan biri-mikroiqlim, ijtimoiy psixologik sharoitlar, axloq qoidalarining qaror topishi, talabalar ma'naviy ehtiyojlarining takomillashishi, oliy o'quv yurtidan tashqari muhitning ta'sirini doimo aniq maqsadga yo'naltirilgan holda o'rganishdan iboratdir. Bu vazifani bajarishda ota-onalar, jamoatchilik, auditoriyadan tashqari ish olib boruvchi tashkilotchilar, guruh murabbiylari, tyutorlar, ota-onalar qo'mitasi, oliy o'quv yurtlarining yoshlar tashkilotlari muhim o'rin tutadilar. Talabalarda buzg'unchi mafkuralar g'oyalariga nisbatan immunitetni shakllantirish metodlarini takomillashtirish faqat g'oyaviy-tarbiyaviy ish bilan cheklanmaydi. Bunga ishonirishning turli usullari tufayligina erishish mumkin.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlar darajasi, oliy o'quv yurtlar pedagogik jamoalarining ilg'or tajribasi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarning barcha shakllarini tashkil qilish va o'tkazishda talabalarda yot mafkuralar ta'siriga murosasizlikni shakllantirish, ularda soxta uydirmalarga qarshi immunitetni tarbiyalashda aniq maqsad va vazifalarni qo'yish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga puxta o'ylab tayyorlangan, pedagogik asoslangan mafkuraviy immunitetni tarbiyalash tizimini nazarda tutish kerak va adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar boshqa manbalarda keltirilgan axborot va ma'lumotlar bilan taqqoslantirildi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Bugungi kun tadqiqotlarida keltirilayotgan ilmiy xulosalar va takliflar yangidan-yangi zamonaviy tadqiqot usullarini talab qiladi. Shu boisdan ham tadqiqotlarda zamonaviy texnologiya va tadqiqot usullaridan foydalanish talab qilinadi. Mazkur tadqiqot jarayonida tizimlashtirish, taqqoslash, qiyoslash kabi zamonaviy tadqiqot usullaridan ham foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida talabalarning mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish metodikalari, raqobatbardosh mutaxasislarni tayyorlash mexanizmlari, bo'lajak o'qituvchilarning mafkuraviy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o'qitish modellari texnologik taraqqiyot g'oyalari bilan uyg'unlashtirilgan interfaol dasturlar ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan. Jahon oliy ta'lim tizimida talabalarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyoning yetakchi, rivojlangan mamlakatlari Amerika qushma shtatlari, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarida talabalarning tafakkurini o'stirish, qobiliyatlarini erta namoyon etish, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda muammoli o'qitish, modulli o'qitish, blended learning (aralash o'qitish), mahorat darslari, vebinarlar, evristik metodlar, virtual ta'lim texnologiyalarini qo'llash muhim o'rin tutadi. Shunday ekan, biz qarashlar, fikrlalar, go'yalar, mafkuralar degan tushunchalarga nisbatan o'z qarashlarimizga ega bo'lmog'imiz darkor.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi - bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" - deb ta'kidlagan edi[1]. Shu o'rinda mafkura, ma'naviyat, ma'rifat so'zlarining izohlari yana bir bor ta'kidlansa maqsadga muvofiq bo'lardi. Mafkura (arab-fikrlar majmui) - muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlatning manfaatlari, orzulari, maqsadlari ifodalangan qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlari ifodalanayotgan guruh va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi. Mafkura. har qanday jamiyat hayotida zarur[7].

Talabalarni har tomonlama rivojlangan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, jismonan va ruhan tetik, sog'lom turmush tarzini takomillashtirish yuksak g'oyalarini tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor vazifalariga aylandi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

Shuningdek, ma'naviyat, insonparvarlik, axloq, mafkuraviy yetuk, vatanparvarlik, hayotiy faollik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni takomillashtirishda mahallaning roli ham juda beqiyos. Shunday ekan, mahallaning jamiyatimizdagi joriy etilishi, oila, mahalla, maktab uch birligi jamiyatimizning mustahkam zanjiri bo'lishi belgilangan. 1993-yil 2-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi bejiz bo'lmagan. O'zbekiston Respublikasida muhim demokratik institut va 14 fuqarolik jamiyatining asosi deb mahallaning e'tirof etilishi ham asoslidir.

Bugungi kunda-mahalla institutining nufuzi oshib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida birinchi bor uning huquqiy maqomi bayon etilishi va shu asosda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratilishi mahallalar jamiyatimiz va davlatimiz tomonidan qo'llab quvvatlanayotganligining yorqin ifodasidir. Mahalla fuqarolik instituti sifatida qator muhim ijtimoiy funksiyalarni bajarib, ijtimoiy aloqalarni kuchaytirishga, ijtimoiy guruhlarining tengligini saqlashga yordam beradi.

Yot mafkuralar yoshlarga bilvosita pedagogik ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni mafkura haqida ochiq gapirmaydilar, balki san'at, iqtisodiyot, huquq, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy muammolarni ko'tarib, mafkuraviy nuqtai nazardan xulosalaydilar. Ishontirish talabalarida ilmiy dunyoqarash va milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, xususan, yot mafkuralar ta'siriga murosasiz munosabatni tarbiyalashning asosiy metodidir. Ma'lumki, milliy o'zlikni anglash amaliy-g'oyaviy birlik bilan kuchli. Talabalarni ma'naviy qadriyatlarini ongli o'zlashtirishga ularni muntazam ishontirib borish bilan o'rgatish mumkin. Ishontirish eng, avvalo, aniq ilmiy bilimlar, misollarning haqqoniy tahliliga asoslanadi. Ishontirish metodi uchun o'ta aniqlikka ega bo'lgan xolis dalillar muhimdir.

G'oyaviy ta'sirning his-tuyg'ularga bog'lanishi ko'pgina omillar: axborotning vaqt va hajm jihatidan psixologik aniqlikda belgilanishi; maqsadga erishish yo'lida ta'sirchan dalillarning tanlanishi; dolzarbligi va keskinligi; nutq va boshqa vositalarning obrazlilik bilan bog'liq. Afsuski, amaliyotda talabalarga ushbu omillarning ta'siri hamma vaqt ham hisobga olinavermaydi. Ba'zan talabalarga professor-o'qituvchilar nuqtai nazaridan muhim bo'lgan ma'lumotlarni ko'proq berishga harakat qilinadi. Masalan, dars tugab, talabalar anjumanlar xonasiga kelishadi va uzoq vaqt davomida ma'ruzachi, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha dekan muovini, yoshlar ijtimoiy harakati bo'limi raisi, yo'riqchisini tinglaydilar. Tadbirning boshlanishidan 20-30 daqiqa o'tar-o'tmas ko'pchilik talabalar nima haqida gapirilayotganligiga e'tibor bermay qo'yadilar. Zerikib, majlisning tezroq tugashini va uylariga ketishni kutib o'tiradilar. Bundan natija salbiy bo'lishi aniq. Oliy o'quv yurtidagi bunday muloqot usuli talabalarni ularga o'rgatilayotgan g'oyalardan bezdiradi. Ana shunda paydo bo'lgan ma'naviy bo'shliqni osongina yot, "ozibali" g'oyalar to'ldirishi mumkin. Agar mavzu bo'yicha eng kerakli material tanlab olinsa va uni yetkazib berishning jonli shakli topilsa, bunday xatoning oldi olinadi. Shunda yoshlarga g'oyaviy va hissiy ta'sir o'tkazish ularning qo'yilgan masalalarga qiziqishi va e'tiborining eng yuqori darajasiga erishiladi. Talabalarida mafkuraviy-tarbiyaviy ishga nisbatan ijobiy munosabat paydo bo'ladi. Vaholanki, busiz mafkuraviy immunitetni shakllantirib bo'lmaydi.

Talabalarga yetkazilayotgan ma'lumotning dolzarbligi, yangiligi o'ta muhimdir. U yoki bu g'oyaviy-axloqiy muammo keskin qo'yilgan maqola, video, kinofilm va teleko'rsatuvlarni muhokama qilish ularda jonli qiziqish uyg'otadi. Buning uchun kino namoyishlaridan so'ng taassurotlar yangiligida talabalarining bir-biri bilan o'rtoqlashuvini tashkil etish lozim. Chunki bir-ikki hafta o'tib, talabalar davralarida muhokama uchun yana yangi mavzular paydo bo'ladi. Ularning boshidan kechirgan, kinofilmlardan olgan taassurotlari endi jonli, manfaatli munosabatni keltirib chiqarishga xizmat qilishi ham mumkin.

Zamonaviy kino va yoshlar muammolarini o'rganish, hal qilishda yoshlar uchun filmlar yaratish bilan bevosita shug'ullanayotgan yosh rejissyorlarning fikrlari qimmatlidir. Jumladan, taniqli kinorejissyorlardan biri "Kinoning tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida fikringiz?", degan savolga shunday javob bergan edi: "Uning tarbiyaviy roli maktab va oliy o'quv yurti bilan bir darajada turadi, deb o'ylayman. Sababi, hayotda tarbiyachi va o'qituvchining gapi bolaga qonun bo'lsa, kinoda ham bosh qahramon nima qilsa, bola ham shuni takrorlagisi keladi. Ba'zan muallimning ta'siridan ko'ra kinoning ta'siri bolada kuchliroq sezilib qoladi. Chunki qush uyasida ko'rganini qiladi, deganlaridek, bola ko'proq eshitganlariga emas, ko'rganlariga rioya qiladi. Ammo shunisi achinarliki, keyingi paytlarda yoshlarimizning g'arb jangari filmlariga qiziqishi kuchayib bormoqda. Lekin faqatgina mushaklarni zo'raytirib, yosh miyada ijobiy qahramon topilmasa, achinarli hol. Bizning o'zbek kinolarimiz Vatanga, ota-onaga mehr, do'stlik tuyg'ularini tarannum etadi, haqiqiy tarbiya vazifasini o'taydi. "Shaxsan mening asarlarimda zo'ravonlik, fahsh kadrlari va bir millatni ikkinchisiga gij-gijlash hych qachon bo'lmagan, bo'lmaydi ham"[3].

Talabalar uchun asar qahramoni, yoki guruh murabbiysining nimani gapirayotgani emas, balki qanday gapirayotganligi ham katta ahamiyatga egadir. Nutqning hissiyotlarga boyligi va obrazlilik, rasmiy iboralardan, qoliplardan holi bo'lishi muhimdir.

Ma'lumot mazmuni va uni yetkazish shakli tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan holda har bir chiqishga (hatto auditoriyada bir oddiy xabarni e'lon qilishda ham) sinchkovlik bilan tayyorgarlik ko'rish darkor. Shunda talabalar nafaqat qator yangi bilimlarga ega bo'ladilar, balki muayyan ehtirosli ruhiy holatga tushadilar, busiz esa bilim e'tiqodga, immunitetga aylanmaydi.

Biroq mukammal mazmunli va uslubiy jihatdan aniq yetkazib berilgan axborot ham shaxsning faol immunitetini, yot mafkuralar targ'iboti va axloqiga nisbatan immunitetini shakllantirishga qodir emas. Taniqli psixolog B.G.Ananyevning aytishicha, "ta'limning vazifasi tayyor ma'lumot berish emas, balki ijodiy, tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini o'zi, mustaqil tahlil qilishga qodir jamiyat va avval tayyor holda mavjud bo'lmagan yangi ma'lumotni yaratishga qodir shaxsni tarbiyalashdir"[4].

Demak, mafkuraviy tarbiyaning dunyo miqyosida shu kungacha erishilgan yutuqlarini umumlashtirib, milliy mafkuraviy tarbiya mexanizmini yaratish va xalqni-xalq, millatni-millat qilish maqsadlariga safarbar etish zarur. Barcha tashkilot, muassasa, o'quv yurtlarida milliy mafkuraviy ta'lim joriy qilinib, ularning mavzulari hayotiy bo'lishi, ichki va tashqi mafkuraviy tahdidlarga immunitet hosil etishga qaratilishi lozim. Ana shunda "biz millatimiz" degan psixologik, ma'naviy birlik yaratiladi. Ichki va tashqi mafkuraviy tahdid havfining har bir o'zbekistonlikka uqtirilishi "BIZ" tuyg'usini, ya'ni umummilliy jipslashuvni kuchaytiradi. Anglangan umumiy tahdid millatni birlashtirishga undaydi.

Talabalar bilan g'oyaviy-tarbiyaviy ishini tashkil qilishning ilg'or pedagogik tajribasida so'z va ish birligi tamoyili ularning bayon qilayotgan fikrlarini aniq yoki qo'lidan keladigan ishlar bilan tasdiqlashga muntazam o'rgatishda ham qo'llaniladi. Masalan, agarda institut, universitetda elektr quvvati va suvning sarflanishi nazorat qilinmasa, o'quv jihozlari, asbob-uskunalar tez-tez sinib tursa, buferdan non qoldiqlari uyilib yotsa, talabalarni tejankorlikka va avaylab-asrashga undash befoyda. Atrof-muhit talabalarni tarbiyalashi kerak.

Xulosa

Pedagogika fanlari doktori professor V.M.Korotov o'zining "Tarbiyalovchi ta'lim" kitobida ta'kidlaganidek, "O'zaro o'rgatish uslubi g'oyaviy-ma'naviy ishonirish uslubiyatiga yakun yasaydi. U jamoani, uning har bir a'zosini g'oyaviy-tarbiyaviy ishning a'zosiga aylantiradi. Chunki ilg'or g'oyalarning faol targ'ibotchisi sifatida talaba ularning ichiga chuqur kiradi. E'tiqodli insonga aylana boradi. Bir-birini o'rgatish - auditoriyadan tashqari g'oyaviy-tarbiyaviy ishini tashkil qilishda ham katta yordam beradi. O'nlab yosh ma'ruzachilar chiqishlar qilibdimi, demak tez orada pedagoglarning ularga sarflagan mehnati o'z samarasini beradi. Bunday chiqishlar mavzularining kengligi va yoshlarning har bir ma'ruzaga chuqur tayyorlanishlari ma'rifatparvarlik ishini yanada yuqori darajaga ko'taradi[5]. Ogoh bo'laylik! "Ogoh bo'ling, odamlar!"-degan da'vat hamisha bong urgandek yangrab turishi kerak. Faxrlanishi mumkin va lozim bo'lgan bebaho qadriyatlar - o'z mustaqilligimizni, tinchligimizni, jamiyatda millatlar va fuqarolar o'rtasidagi totuvlikni asrang. O'z erkimizni qanday tasarruf etish, uni bugungi murakkab va ba'zan shafqatsiz dunyodagi haddan ziyod xavf-xatarlardan saqlash har birimizga bog'liqdir[2].

Bahs-munozara metodi yot mafkuralar tomonidan yoshlarni o'ziga tortuvchi shakllarda targ'ibot qilinayotgan soxta qadriyatlarni fosh qilishda samaralidir. Afsuski, bu metod ommaviy tajribada kam qo'llanilmoqda. Vaholanki, talabalar davrasida kimlardir bizning mafkuramizga yot bo'lgan qarashlarni bildirish va turli fikrlar paydo bo'lgan vaziyatlarda aynan muhitni zararli g'oyaviy tomonga burishga intilish uchramoqda

Bahs - muhokama uchun O'zbekiston va xorij mamlakatlari hayotidan olingan voqeaalarga bag'ishlangan zamonaviy publisistik (ommabop) asarlar manbalar uchun asos bo'la oladi. Jurnalistlarning dunyodagi turli ijtimoiy qatlamlar, jumladan, talaba yoshlar hayoti to'g'risidagi jonli taassurotlari ularda alohida qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, g'oyaviy-tarbiyaviy ishda yot mafkuralarni fosh qiluvchi badiiy adabiyotlardan foydalanish ham yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Ma'lumki, hozirgi kunda jamiyatimiz hayotiga jiddiy xavf tug'diradigan mafkuraviy tahdidlardan biri - yosh mustaqil davlatlarni sobiq Ittifoqqa birlashtirish g'oyasidir[3].

"Otamdan qolgan dalalar", "Ikki eshik orasi" asarlari bo'yicha o'tkazilgan talabalarining bahslari tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu kitoblar Sho'ro tuzumini qo'msovchi ayrim kuchlarga qarshi targ'ibotning va yoshlarda ularga ongli ravishda tanqidiy munosabatni qabul qilmaslik, ya'ni mafkuraviy immunitetni tarbiyalashning kuchli vositasi bo'lishi mumkin ekan. Jonli muloqot talabalarining qarashlari, ularning e'tiqodlari, ehtiyojlari, ongi, his-tuyg'ularidagi salbiy tasavvurlarni yo'qotgan holda yo'naltirish imkonini beradi. Biroq, buning uchun ta'lim oluvchilarning kayfiyatini o'rganib, muhokama qilinayotgan muammoga qiziqtirish, masalani dolzarb va tushunarli shaklda qo'ya bilish kerak. Munozaralarda yoshlar o'zlarini erkin tuta oladigan, fikrlarini mustaqil, erkin bayon qila oladigan muhit yaratish kerak. Talabalarga u yoki bu masala bo'yicha o'z qarashlarini zo'rlab singdirishga har qanday urinish, ularga o'zining o'qituvchilik obro'sini suiiste'mol qilib tazyiq o'tkazish mumkin emas. Chunki bu holda talabalar o'z fikrlarini aniq, ochiq bayon qilmay qo'yadilar, yashiradilar. Ularda bahsga bo'lgan qiziqish, erkin fikrlash ishtiyoqi so'nadi va o'qituvchi fikriga beixtiyor ko'nadigan, jur'atsiz konformist bo'lib qolishadi. Bundan esa ikkiyuzlamachilik, munofiqlik va ishonchsizlik sari bir qadam qoladi. Natijada bu talabalar orasida milliy mafkuramiz va ma'naviyatimizga yot bo'lgan qarashlar va kayfiyatlar paydo bo'lishining boshlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nuqti (<https://www.gazeta.uz>).
2. Karimov I. O'zbekiston - XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot shartlari kafolatlari - T.: "O'zbekiston", 1997.

3. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari. T.: "O'zbekiston", 2000. –80 b.
4. Musoqov Z. O'zbek aktyorlarini dunyo tanisa. / Ma`rifat, 2001 yil 11 avgust.
5. Аняньев Б.Г. Человек как предмет познания . Л., 1969 .179 с.
6. Коротов В.М. Воспитающее обучение. М., «Просвещение», 1980.-47 ст.
7. Olimov S. Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslari //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 2. – №. 2. 307-b
8. Ortiqov O. Bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda umuminsoniy tarbiyaning o'rni //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2021. – т. 1. – №. 1.

Muallif:

Rahimova Iroda Ravshanovna, Samarqand davlat chet tillar instituti, mustaqil tadqiqotchi.

UDK:378.14

CHARACTERISTICS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY AND EDUCATIONAL METHODOLOGY

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA TA'LIM METODIKASI XUSUSIYATLARI

ХАРАКТЕРИСТИКА ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДИКИ ОБРАЗОВАНИЯ

Jiyanov Oybek Pardabayevich

Samarqand davlat universiteti, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni 15-uy.

E-mail: 01051987oybek@gmail.com

Abstract. In this article, pedagogical technology facilitates the forms of education based on systematic, technological approaches, the goals of improving this system in various directions based on pedagogical technologies, the cooperative activities of the teacher, student-pupil, and the goals they set, selected content, the method, the form, the tool, that is, the technology, are discussed.

Key words: human potential, technical means, pedagogical technology, development trend, provider, directions, improvement, goals, knowledge level, group character, conditions.

Аннотация: В данной статье педагогическая технология облегчает формы обучения, основанные на системных, технологических подходах, цели совершенствования этой системы в различных направлениях, основанные на педагогических технологиях, совместной деятельности учителя, ученика-ученика и поставленных ими целях. обсуждаются избранное содержание, метод, форма, инструмент, то есть технология.

Ключевые слова: человеческий потенциал, технические средства, педагогическая технология, тенденция развития, провайдер, направления, совершенствование, цели, уровень знаний, групповой характер, условия.

Kirish. "Pedagogik texnologiya" iborasi birinchi marta 1970 yilda yapon olimi T.Sakamoto tomonidan kiritilgan. Olimning fikricha-pedagogik texnologiya o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasidir. Professor N.F.Talizina pedagogik texnologiyani belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat,-deb hisoblaydi.[2]. Professor N.Saydahmedovning aytishicha pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi. Professor M.Ochilovning yozishicha pedagogik texnologiya tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan metodlar va usullar majmuidir [4]. Bu tushunchaga YuNESKO tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: pedagogik texnologiya-bu ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish, uni qo'llashning tizimli usulidir. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuidir.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Bugungi kun tadqiqotlarida keltirilayotgan ilmiy xulosalar va takliflar yangidan -yangi zamonaviy tadqiqot usullarini talab qiladi. Shu boisdan ham tadqiqotlarda zamonaviy texnologiya va tadqiqot usullaridan foydalanish talab qilinadi. Mazkur tadqiqot jarayonida madaniyatga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish; tahlil qilish; pedagogik kuzatuv; sosiometrik (suhbat, anketa, test, intervyu); tajriba-sinov, tizimlashtirish, taqqoslash, qiyoslash kabi zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Pedagogik texnologiya eskimi, yangimi qadimdan mavjud. Biroq jamiyat taraqqiy etgan sari maorif oldiga o'zining yangidan-yangi ijtimoiy buyurtmalarini qo'yib borganligi tufayli, ta'lim-tarbiya PDF created with pdf Factory Pro trial version www.pdfactory.com 7 jarayoni ham zamonaviy ilg'or metodlar, usullar bilan boyib, yangilanib boradi. Pedagogik texnologiyaning yo'nalishlari ko'p. Hozirgi an'anaviy ta'lim, bu 17-asrda Ya.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko'p qo'llanilayotgan sinf-dars tizimidan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yoʻnalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yoʻnalishlarda rivojlanmoqda. Ular pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni oʻquvchi shaxsiga yoʻnaltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar; oʻquvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga yoʻnaltirilgan pedagogik texnologiyalar; oʻquv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqish asosidagi pedagogik texnologiyalar; oʻquv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish asosidagi pedagogik texnologiyalar; tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar; rivojlantiruvchi taʼlim texnologiyalari va boshqalar.

Taʼlim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham oʻqituvchi, ham talaba-oʻquvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qoʻygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, yaʼni texnologiyaga bogʻliq. Oʻqituvchi va oʻquvchi-talabani maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda oʻqituvchi talaba-oʻquvchilarning bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak boʻlar, bular oʻqituvchi va talaba-oʻquvchilarga bogʻliq. Shu bilan bir qatorda oʻqitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda oʻqituvchi oʻquv predmetining oʻziga xos tomonini, joy va sharoitni, OʻTVni, eng asosiysi, oʻquvchi-talabani imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi keraq shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, oʻquvchi-talabani taʼlimning markaziga olib chiqish kerak. Pedagogik texnologiyalarni oʻquv jarayoniga olib kirishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: - pedagogik texnologiya amaliyoti va nazariyasini oʻqib oʻrganishni tashkil etish; - pedagogik texnologiyalarni oʻrganish, koʻzatish, nazorat qilish va amalda joriy etish kurslarini tashkil etish; - pedagogik texnologiyalarni oʻquv jarayoniga tatbiq etish boʻyicha seminarlar, treninglar oʻtkazish; - pedagogik texnologiyalarni tuplash, tanlash, qoʻllash boʻyicha tegishli maʼlumotlar bankini yaratish, ularni tahlil qilish asosida oʻquv jarayoniga tatbiq etish; - ilgʻor pedagogik texnologiyalarni amalda koʻllash tajribalarini tahlil etish, umumlashtirish, ommalashtirish boʻyicha tavsiya, koʻllanmalar yaratib, taʼlim muassasalariga yetkazish. Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bogʻliq kasblarning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor boʻlishlari zarur. Pedagogik texnologiyani har turli taʼriflari mavjud boʻlib, ulardan ayrimlarini kurib chiqamiz: Texnologiya-biror ishda, mahoratda, sanʼatda qoʻllaniladigan usullar, yullar yigʻindisi. (Izohli lugat.) Texnologiya - ishlov berish, ahvolni oʻzgartirish sanʼati, mahorati, qobiliyati, metodlar yigʻindisi. (V. M. Shepel.) Pedagogik texnologiya oʻqitishning, taʼlimning shakllari, metodlari, usullari, yoʻllari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yigindisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy- uslubiy vositalaridan iborat. (B.T. Lixachev.) Pedagogik texnologiya — oʻqituvchi mahoratiga bogʻliq; boʻlmagan holda pedagogik muvaffakiyatni kafolatlay oladigan, oʻquvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir[1]. (V.P. Bepalko.) Pedagogik texnologiya - taʼlimning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti. (I.P.Volkov.) Taʼlim texnologiyasi - didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi. (A.Choshanov.) Pedagogik texnologiya - oʻquv jarayonining oʻquvchilar va oʻqituvchi uchun soʻzsiz qoʻlay sharoitlar taʼminlashni loyihalash, tashkil qilish va oʻtkazish boʻyicha hamma detallari uyulab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli. (V.M.Monaxov.) Pedagogik texnologiya — texnika resurslari, odamlar va ularning oʻzaro taʼsirini hisobga olgan holda taʼlim shakllarini optimallashtirish vazifasini qoʻyuvchi oʻqitish va bilimlarni oʻzlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qoʻllash va aniklashning tizimli metodi (YuNESKO).

Pedagogik texnologiya - pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, uskunali va metodologik vositalarning tizimli yigʻindisini va ularning amal qilish tartibini bildiradi[6]. Pedagogik texnologiya, bu - soʻzsiz rioya qilish eng yuqori natijani kafolatlaydigan koʻrsatmalar emas, balki qonuniyatlar boʻlib, ularning amaliy ahamiyatidan iborat. (V.Yu.Pityukov.) Pedagogik texnologiya - bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir tizimga keltirishdir. (Sakomoto) Pedagogik texnologiyani mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan oʻzlashtirish darajasiga erishishdan iborat boʻlib, uni tatbiq etishni hisobga olgan holda taʼlim jarayonini ilgʻordan loyihalashtirishda namoyon boʻladi. (U.Nishonaliyev.) Pedagogik texnologiya - bu oʻqituvchi (tarbiyachi)ning oʻqitish (tarbiya) vositalari yordamida oʻquvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda taʼsir koʻrsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayonidir. (N.Saydahmedov.) Pedagogik texnologiya - bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yoʻnaltirilgan oʻquv jarayonini tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, yaʼni oʻqituvchi (pedagog)ning oʻqitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga maʼlum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda koʻrsatgan taʼsirini va taʼlim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan taʼlimiy tadbiridir (B.R.Ziyomuhamedov). Pedagogik texnologiya bu - obyektiv, moddiy jarayon. Agar biz oʻquv-tarbiya jarayonidan uning obyektiv, moddiy (substansiyalik) jihatini ajrata olsaq shunda biz texnologiyaga, eng kamida, uning tafsilotiga ega boʻlamiz (V.K.Dyachenko). Pedagogik texnologiya - bu oʻqitishga oʻziga xos yangicha (innovation) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiym muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga kuchirilgan tasviri, taʼlim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi. (B.L.Farberman) Pedagogik texnologiya - turli mualliflar (manbalar)ning barcha taʼriflari mazmunini oʻzida mujassam etuvchi umumlashtirishdan

iborat[5]. (G.K.Selevko.) www.ziyouz.com kutubxonasi Pedagogik texnologiyaning hozirgi kunda shunday turli-tuman ta'riflari mavjudligi natijasida bu masalaning yechimini quyidagicha o'ziga xos usulda hal qilish to'g'risida ham taklif bildirilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi ko'p kirrali bo'lib, unga pedagogik psixologik didaktik tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa no'qtai nazarlardan yondashish mumkin. Hozir ta'lim-tarbiya sohasida rivojlanib borayotgan yunalishlardan biri - zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash bo'lib, uni amalga oshirish dolzarb vazifalardandir. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda, asosan, inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan-avlodga o'zlash amalga oshiriladi. Insoniyat hayoti axborotlar bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha aytganda, insonning har bir harakati axborot olish va o'zlash yoki undan foydalanish, uni o'rganish, o'zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat. Shuning uchun ham hozirgi insoniyat sivilizatsiyasini axborot sivilizatsiyam deb ataladi. Shu no'qtai nazardan, sivilizatsiya tushunchasiga berilgan ta'riflardan biri quyidagicha: „Sivilizatsiya - axborotni tuplash, tahlil qilish va undan foydalanish hamda atrof-muhit va o'zi hakida axborot yaratish uchun eng ko'p ma'lumot olishga qodir bo'lgan moddaning yuqori turgun holatidir“. Bu ta'rifdan axborotni avloddan-avlodga o'zlashning, ya'ni ta'lim-tarbiya ishining ahamiyati qanchalik muhim ekanligi kurinib turibdi. Ya'ni, ta'lim-tarbiya sivilizatsiyaning mavjudlik sharti hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan „sivilizatsiyaning bosh belgisi - axborotni tuplash, mavhum (abstrakt) tahlil qilish (hayvonlar bunga qodir emas) va undan o'z turini, o'z jamoasini o'zoq saqlash uchun foydalanishdan iborat.“ Bundan axborotni tuplash, tahlil qilish va undan foydalanishning shakl, usul va vositalarini takomillashtirib borish zarurligi va buning zamirida pedagogik texnologiya yotishi tushuniladi. Axborotlarning inson hayotidagi ahamiyatini aniqlashga qiziqish ortishi tabiiy. Bu haqdagi ta'riflardan biri quyidagicha: „Axborot-bu sezgi a'zolarimizni tashqi olamga moslashtirishimiz jarayonida biz undan oladigan mazmun belgisi“ (N.Viner). Bu ta'rif tirik organizmning tashqi muhitdagi axborotni idrok qilishiga doir xususiy holga tegishli[7]. Ushbu aytilganlar asosida pedagogik texnologiyaning quyidagi eng qisqa va umumlashtirilgan ta'rifini keltirishimiz mumkin: „Pedagogik texnologiya - barkamol insonni shakllantirish faoliyati“. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyaning keng kulamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta'riflarini keltirishimiz mumkin: Pedagogik texnologiya axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat. Pedagogik texnologiya -ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yigindisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya - bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va ifodalashning tizimli metodidir. Pedagogik texnologiya - ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qo'lay shakl va usulda o'zlash va o'zlashtirish jarayonidan iborat. Demak pedagogik texnologiya insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat. Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi. Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu faoliyat boshqa hamma faoliyatlarga xos bo'lgan belgilarga ega bo'lib, avvalo, jarayon kurinishida amalga oshiriladi va shu kurinishda mavjud bo'ladi. Shu bilan birga bu jarayon o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lib, bu qonuniyatlarni insoniyat tomonidan o'rganish davom etmoqda. Pedagogik faoliyatda „texnologiya“ atamasining o'qllana boshlashi bilan pedagogik amaliyot, uning nazariy jihatlari hamda ular hakidagi bildirilayotgan mulohazalar birmuncha yuqori ilmiy darajaga ko'tarilmokda.

Pedagogik texnologiya - hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Uni pedagogikaning xozirgacha mavjud bo'lgan hamda takomillashib kelayotgan barcha asosiy yunalishlari bo'yicha amaliy vazifalarni yanada yuqoriroq darajada amalga oshirish yulidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin. Shu no'qtai nazarlardan pedagogik texnologiyani, avvalo, hozirgi pedagogika fani tarakkiyoti natijasida hosil bo'lgan yangi yunalish deb hisoblagan holda, uning o'ziga xos tamoyillari, qirralarini chuqur o'rganib borish va pirovardida qonuniyatlarini animat yo'lidagi muammolarni yechish lozimligi kurinib turibdi. Pedagogik texnologiya, avvalo, ta'lim-tarbiyani yanada rivojlantirish ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi insonlar (pedagoglar, ota-onalar, jamoatchilik) faoliyatidan iborat ijtimoiy hodisa hisoblanishi lozim. Har kanday ijtimoiy hodisalar kabi pedagogik texnologiyani ilmiy jihatdan o'rganuvchi fan sohasi mavjud bo'lib, u pedagogik texnologiya fani deb nomlanadi. Bu fan, o'z navbatida, zamonaviy ta'lim-tarbiyaning eng maqsadga muvofiq yullari va usullarini tadqiq qiluvchi nazariy hamda o'quv fani turlariga ajraladi. Shu bilan birga pedagogik texnologiya amaliy faoliyat yunalishi sifatida o'quv-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tamoyillar, algoritmlar va boshqaruv tizimi hamda bevosita ta'lim-tarbiya jarayonini o'z ichiga oladi. Pedagogik texnologiya ijtimoiy hayotning turli sohalari bilan o'zaro bog'liq ravishda shakllanib va rivojlanib borishi natijasida turlicha kurinishlarda namoyon bo'ladi. Bular pedagogik texnologiyaning qo'yidagi kurinishlaridan iborat: ijtimoiy hodisa, nazariy fan, o'quv fani, ta'lim-tarbiya tizimi, jarayoni, pedagogik faoliyat va uning metodikalari hamda aloqador fanlarning ilmiy tadqiqot sohasi.

Pedagogik texnologiya ijtimoiy hodisa sifatida ta'lim-tarbiya masalalari bilan bog'liq motivlar: ehtiyoj, talab, manfaat, qiziqish, maksadlardan kelib chiqadi va ularni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Xulosa

Shu bilan birga, xuddi shunday motivlar har bir shaxsda, oilada ham mavjud. Jamiyat har bir a'zosining bilim darajasi ortib borishi shu jamiyat va davlat rivojining eng asosiy shartlaridan hisoblanadi. Bu shartning bajarilishi esa, o'z navbatida, pedagogik texnologiyaning qanchalik yukori darajada ekanligiga bog'liq. Bundan esa pedagogik texnologiya shaxs, oila, jamiyat, davlat hayotida muhim ahamiyatga ega ijtimoiy hodisa ekanligi kurinadi. Pedagogik texnologiya nazariy fan sifatida pedagogika fanining alohida yunalishini tashkil etib, o'z maqsadi, vazifalari, muammolari, metodologiyasi va boshqa nazariy asoslariga ega. O'z muammolarini hal qilishda boshqa fanlar bilan bog'likliklarga ega. Pedagogik texnologiya nazariy fan sifatida ta'lim-tarbiya sohasida kafolatli natijaga erishish darajasini oshirish muammolarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. –192 с.
2. Талызина Н. Ф. Психолого-педагогические основы автоматизации учебного процесса / Психолого-педагогические и психофизиологические проблемы компьютерного обучения // Сб.научн.тр. – М.: Изд-во АПН СССР, МГУ, 1995. – С. 15-26
3. K.Ishmatov, Igor pedagogik texnologiyalar, Namangan, 2000.
4. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. -Қарши. Насаф. 2000. 80 б.
5. Фарберман Б.Л. Илгор педагогик технологиялар. - Т.: Ўз.Р.ФА.Фан. 2000.- 128б.
6. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. 7-е изд. – М.: Садовое кольцо, 2006. –198 с.
7. www.ziyouz.com kutubxonasi

Muallif:

Jiyanov Oybek Pardabayevich - Samarqand davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi.

UDK:297.1:37.0221

BAIT UL-HIKMA AND ITS PLACE IN PEDAGOGY OF IX-XII CENTURIES

BAYT UL-HIKMA VA UNING IX-XII ASR PEDAGOGIKASIDAGI O'RNI

БАЙТ УЛ-ХИКМА И ЕЕ МЕСТО В ПЕДАГОГИКЕ IX-XII ВЕКА

Mardiyeva Yulduz Ubaydullayevna

Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, 140104, Bustansaroy ko'chasi 93.

E-mail: mardievayulduz@gmail.com

Abstract. This article describes the further improvement of the scientific environment, scientific institutions, activities of scientists, and the educational process under the influence of Muslim culture, formed during the Arab Caliphate. In the culture of this period known as "Arab culture" in Europe, although many scholars who lived in the Middle Ages wrote their works in Arabic, it is noteworthy that in fact they were not Arabs, most of them were Persians, Turks and representatives of other nations within the Arab Caliphate. has been read. The existing education system during the period of the Arab caliphate and then the Turkish state was also thoroughly analyzed.

Key words: Arab culture, Bayt ul-hikma, library, scientific institutions, madrasas, education, upbringing.

Аннотация. В данной статье описывается дальнейшее совершенствование научной среды, научных учреждений, деятельности ученых и образовательного процесса под влиянием мусульманской культуры, сформировавшейся во времена Арабского Халифата. В культуре этого периода, известной как «арабская культура» в Европе, хотя многие учёные, жившие в средние века, писали свои труды на арабском языке, примечательно, что на самом деле они не были арабами, а большинство из них были персами, турками и представителями других стран в составе Арабского Халифата. Также тщательно проанализирована существовавшая система образования в период Арабского халифата, а затем и Турецкого государства.

Ключевые слова: арабская культура, Байт уль-хикма, библиотека, научные учреждения, медресе, образование, воспитание.

Kirish. Arab xalifaligida tashkil qilingan ilmiy muassasa - Bayt ul-Hikmada antik yunon ilm fani va qadimgi hind allomalarining 400 ming jilddan iborat ilmiy me'rosi saqlangan bo'lib, ular dastlab suryoniy(suriya) tiliga sungra esa arab tiliga tarjima qilinadi. X asrdan boshlab mazkur ilmiy me'rosning fors tiliga ham tarjima qilina boshlanganligi manbalarda o'z ifodasini topgan. Yunonistondan Sosoniylar davlatiga kuchib kelgan olimlar va ular bilan keltirilgan yunon kutubxonasini VII asrda arablar bosqini natijasida xalifalik qo'lga o'tishi xalifalik davri allomalarining qo'lida boy ilmiy xazinaning to'planishiga sabab bo'lgan edi. Arab xalifaligi tarjimonlari tomonidan tarjima qilingan ushbu kutubxona

materiallari mamlakatda boy ilmiy me'rosning shakllanishiga asos bo'ldi. Arab xalifaligida mamalakatning turli burchagidan yig'ilgan olimlar, xususan, O'rta Osiyolik olimlar, tarjima natijasida yig'ilgan bilimlarni o'zlarining nazariya va ilmiy g'oyalari bilan boyitib, turli fan yo'nalishlari bo'yicha qo'lga kiritilgan ilmiy natijalarni jahon ilm faniga yetkazib berdi. Bu bilan jahon ilm fanida o'zlarining munosib o'rinariga ega bo'ldi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Mavzuga oid ilmiy xulosalar tahlil jarayoniga tortilgan manba va adabiyotlarning ishonchligini talab qiladi. Shu boisdan tahlil jarayoniga tegishli tashkilotlar tasdig'idan o'tgan ilmiy adabiyotlar jalb qilindi. Ushbu adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar boshqa manbalarda keltirilgan axborot va ma'lumotlar bilan taqqoslantirildi. Bugungi kun tadqiqotlarida keltirilayotgan ilmiy xulosalar va takliflar yangidan-yangi zamonaviy tadqiqot usullarini talab qiladi. Shu boisdan ham tadqiqotlarda zamonaviy texnologiya va tadqiqot usullaridan foydalanish talab qilinadi. Mazkur tadqiqot jarayonida tizimlashtirish, taqqoslash, qiyoslash kabi zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ilk musulmon uyg'onish davri tarixi Yevropa mamlakatlarida bugungi kungacha arab madaniyatining tarkibiy qismi sifatida o'rganilib kelinishi sir emas. Biroq, shu narsani yoddan chiqarmaslik lozimki, to'plangan ilmiy bilimlarni tahlil qilish faqatgina arab olimlari tomonidan amalga oshirilgan hodisa emas. Bu jarayonda Markaziy Osiyolik allomalarning ham o'rni beqiyos. Jumladan, matematika, astronomiya, tarix, geografiya, tarbiyashunoslik, pedagogika, estetika, tibbiyot kabi qator fanlarning ilmiy bazasi Markaziy Osiyolik aj-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Beruniy, al-Farobiy, ar-Roziy, ibn Sino kabi sharq mutaffakirlarining sa'y-harakatlari natijasida yuzaga keldi. Jahon ilm fanida yuqorida keltirilgan fikrlarimizni tasdiqlovchi qator ilmiy faktlar mavjud. "Bayt ul-Hikma"da Hunayn va Baxtyashu, Sobit ibn Kurra, Qusto ibn Luqo, Yax'ya ibn Adiy, Is'hoq ad-Damashqiy, Ibn Mayka, Ibn Muqaffalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar, tarjima ishlari nafaqat arab dunyosida, balki butun jahon ilm fanida mashhur bo'lganligi bugungi kun ilm fani tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. [7]

Bu akademiya ilm-fan markazi bo'lib, barcha musulmon o'lkalari qatorida O'rta Osiyodan ham olimu fozillarni to'pladi. "Markazda Movarounnahr, Xurosondan kelgan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Marvarudiy, Javhariy kabi olimlar Bag'dod akademiyasini jahonga mashhur qilishda juda katta faoliyat ko'rsatdilar"[5]. Arab xalifaligi turli mamlakatlarda istilochilik yurishlarini olib borar ekan, islom dinini yoyish bilan bir qatorda, arab tilining mavqeyini oshirish uchun ham harakatni kuchaytirgan. Natijada arab tili islom dini tili bo'lishidan tashqari, boshqa birlikni ham yaratdi, ya'ni butun IX asr davomida islomlashtirilgan xalqlarning yagona adabiy tili bo'lish bilan bir vaqtda, ularning yaqinlashuvi va "musulmon madaniyati" deb ataluvchi qardosh madaniyatlar tizimining paydo bo'lishi uchun asos bo'ldi. Arab tilining suzlashuv va tiliga aylanishi natijasida xalifalik parchalanib ketgandan so'ng ham mazkur aloqa vositasi o'zining ahamiyatini yuqotmadi. Turli davlatlarda istiqomat qiluvchi olimlarning arab tilida ijod qilishi, xalifalik tarkibiga kirgan ko'pgina xalqlarning arab tilida suzlashuvi, davlatlararo munosabatda arab tilining asosiy aloqa vositasi ekanligi ushbu tilning keying davrlardagi taraqqiyotini belgilab bergan. Shu o'rinda, alohida ta'kidlash zarur bo'lgan tarixiy haqiqat xususi tuxtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Xalifalik tarkibiga kiruvchi davlatlar olimlarining arab va u bilan bir qatorda ikkinchi til sifatida rivojlanib kelayotgan forsiy tilda ijod qilishi Yevropa davlatlarida ularning ham arab millatiga mansub degan notug'ri xulosani keltirib chiqargan. Masalan Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Marvaziyning jahon ilm fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan ilmiy nazariyalari "arab olim"larining hissasi sifatida, ibn Sinoning tibbiyot va badiiy adabiyotdagi asarlari forsiy olim sifatida talqin qilib kelindi. Bu holat bugungi kun tadqiqotlarida ham uchraydi. Lekin arab tili mazkur davrda asosiy til yoki hukmron tabaqaga xos oliy til sifatida, fan, ijod tili sifatida saqlanib qoldi. Yaratilgan ilmiy yoki badiiy asarlar "arab durdonasi" sifatida umumiy madaniy va ma'naviy merosni tashkil qildi.

Arab xalifaligi O'rta Osiyoni zabt etgan davrdan boshlab, turkiy muhit o'zligini yuqotmadi. Balki, arab madaniyati bilan qorishib keta boshladi. Arab istilosidan so'ng bosib olingan mamlakatlarning ma'naviy hayotida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlar qishloqqa emas, asosan shahar jamoasiga ta'sir qildi. Istilodan so'ng 100 yil o'tgach, ko'pchilik shahar aholisi olimlar, savdogarlar, hunarmandlar musulmonchilikni qabul qilgan edilar [8]. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, ular din bilan birga arab tilini ham o'zlashtirib borganlar va insoniyat tomonidan yaratilgan umumbashariy qadriyatlar bilan tanishish, ulardan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Ilmu fan, ta'lim-tarbiya jarayoni qayerda zarur sharoit va qulay muhit yaratilsa, o'sha yerda taraqqiy etadi. Shu sababdan olimlar ham bugun bir yerda yashab, ijod qilsalar, ertasiga ijtimoiy kelishmovchiliklar ularni boshqa o'lkalarga, bir homiydan boshqa homiyga borishga majbur qilgan.

Olim T.I.Raynovning yozishicha, o'sha davrlarda olimlar bittadan yoki kichik bir guruh bo'lib ko'chib yurganlar va maktablarda emas, balki ko'cha-ko'yda, duch kelgan joyda ilm o'rganib, ilm o'rgatganlar. Oddiy xalq ichidan chiqqan bolalarni savodli qilishda mana shu ko'chib yuruvchi olimlarning xizmati katta bo'lgan [3]. VIII asrdan to XII asrgacha O'rta Osiyoda kuchli ijtimoiy kurash sharoitida musulmon ta'lim tizimi islom e'tiqodi talablariga asoslangan pedagogik ta'limotlar shakllandi. Shu davrda musulmon ta'lim muassasalarining ikki turi: Maktab (dabariston) va Madrasa tashkil topdi. Maktablar (arab tilida- "yozish joyi") yoki dabariston (fors-tojik tilida - "kotiblar joyi") boshlang'ich ta'lim uchun xizmat qildi va VIII asrda xalifa buyrug'i bilan butun Arab xalifaligi hududidagi masjidlar qoshida tashkil qilindi.

Oʻrta Osiyoda bu maktablarning asosiy vazifasi yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishdan, yaʼni oʻsib kelayotgan avlodga Turkiston sharoitiga moslashish, uyda, jamoat joylarida, mahallada, qishloqda oʻzini tuta bilish, axloq va odob qoidalarini oʻrgatib borishdan iborat boʻlgan. Maktablarda taʼlim individual tarzda, yakka yondashuv asosida olib borilgan. Oʻquvchilarda etiqodni, iymonni shakllantirish uchun ularda jannat, doʻzax haqida, har bir yomonlikning bu dunyoda boʻlmasa, u dunyoda albatta jazolanishi uqtirilgan. Maktab muallimida 3 ta uzunligi 3 xil xivich boʻlgan. Sobiq sovet pedagogikasida bu xivichlar bolalarni jazolash uchun ishlatiladigan qurol, deya tavsiflanardi. Lekin bu xivichlardan foydalanishdan maqsad, muallimga nisbatan turli uzoqlikda oʻtirgan oʻquvchilarni ovoz chiqarmay, xivichning uchini tekkazib chaqirishdan iborat boʻlgan. Oʻrta Osiyoda oʻgʻil bolalarning boshlangʻich diniy taʼlim olishlari majburiy boʻlgan.

Madrasa esa oʻrta va oliy diniy maktab sifatida musulmon Sharqida juda katta ahamiyatga ega boʻlib, Misr, Shom, Mesopotamiya, Eronda emas, balki dastlab Xuroson hamda Movarounnahrda paydo boʻldi. Tarixchi olim G.A.Hidoyatovning taʼkidlashicha, “madrasa Bagʻdodda faqat XI asrda ochildi” [6]. Turkistonda arablar koʻproq shahar hayoti rivojga va shaharlar turini oʻzgarishga imkon yaratdilar. Darhaqiqat, savdo - sotiqning taraqqiy etishi, musulmon davlatlari oʻrtasida qatʼiy chegaraning yoʻqligi va xalqaro savdo aloqalarining rivoji oʻrta Osiyo shaharlariga oʻzining ijobiy taʼsirini koʻrsatdi, jumladan, XI - X asrlarda Buxoro, Samarqand, Mavr, Urganch, Shosh shaharlari boy madaniyat, ilm - fan, hamda tijorat markazlariga aylangan. IX - asrda yangi feodal munosabatlarning shakllanishi jarayonida butun Arab xalifaligi tarkibidagi davlatlar siyosatida “vaqf” tushunchasi mavjud edi. “Vaqf” yoki “vuquf” atamasi bilan musulmon hukmdorlari tomonidan muassasalar, masjidlar, Maktablar, kasalxonalar, Oллоh yoʻliga yoki ruhoniylar tasarrufiga berilgan yerlar, koʻchmas mulk, doʻkon, karvonsaroy, hammom va boshqalar atalardi. Vaqfdan davlat hyech qanday soliq undirmasdi, barcha daromad yoki tushum oʻsha egalik qiluvchi muassasa yoki shaxs ixtiyorida boʻlard [1]. Bu ham maktab va madrasalarni moddiy taʼminlashga, taʼlim - tarbiya ishlarini keng koʻlamda amalga oshirish uchun koʻmak berardi.

XI - X asrlarda oʻrta Osiyo ilm toliblari oʻrtasida oʻzga yurtlarga borib tahsil olish, oʻz bilimlarini boyitish odat tusiga kirdi. Bu-oʻziga xos tajriba almashish usuli boʻlib, deyarli barcha oʻrta Osiyo mutafakkirlari musofirlik, hijrat pogʻonasini bosib oʻtganlar, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Shu sababli, bu oʻlka farzandlarining koʻpchiligi Bagʻdod, Damashq, Qohira, Kufa, Basra kabi shaharlarda tahsil olganlar. IX asrdan boshlab diniy ilmlardan shariat, yaʼni huquqshunoslik va hadisshunoslik gurkurab rivojlandi. Ular qatorida dunyoviy ilmlar ham taraqqiy qildi. Xalifot tarkibidagi xalqlar uchun Qurʼoni Karimning “har bir musulmon ilm olishi farzdir” degan oyati va Muhammad alayhissalomning “Ilmu hunarni Xitoyda boʻlsa ham borib oʻrganinglar” [2], - degan hadislar oʻziga xos bir shior vazifasini oʻtadi.

Shu sababli, Arab xalifaligida diniy ilmlar bilan birga falsafa, axloqshunoslik, tarix, tabiat, ximiya, tibbiyot, geografiya, matematika, geometriya, astronomiya, filologiya, psixologiya, mantiq va boshqa fanlar boʻyicha katta ishlar olib borildi. Koʻplab fan sohaslarining rivojida Oʻrta Osiyolik mutafakkirlarning ham hissasi juda katta boʻldi.

Movarounnahrda birinchi boʻlib hadis toʻplagan muhaddis Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy sanaladi. Yana vatandoshlarimiz-Imom at-Termiziy, Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Isʼhoq ibn Rohavayh al-Marvaziy, Imom al-Haysam ibn Qulayb ash-Shoshiy, Hofiz al-Xorazmiy, Imom Hasan Ahmad ibn Muhammad as-Samarqandiy kabilar bu sohaning bilimdonlari edilar.

“IX asrda Fargʻona viloyatidan chiqqan mashhur astronom Abul Abbos Ahmad bin Muhammad bin Qator al-Fargʻoniy yashagani bizga maʼlum. Shuningdek, yana fargʻonalik astronom, mashhur kuzatuvchi IX asrning ikkinchi yarmida X asrning birinchi oʻn yilligida yashagan at-Turkiy, soʻngra uning oʻgʻli astronom Abdul Hasan fan sohasida katta ish qilgan. Buxoroda, Somoniylar saroyida mashhur arab geograf sayyohi Abu Dulaf yashab, ijod qilgan. Buxoro tarixchisi - Narshaxiy faoliyati ham xuddi shu davrga toʻgʻri keladi. X asrning ikkinchi yarmida butun sharqiy arab dunyosida mashhur Muhammad ibn Ahmad al-Xorazmiy oʻz ilmi bilan shuhrat qozondi. X asr oxirlarida Marv yaqinidan chiqqan as-Soguniy al-Usturlobiy matematika va astronomiya sohaslarida ish olib bordi. Deyarli u bilan bir vaqtda Sirdaryo sohilida tugʻilib voyaga yetgan al-Xojandiy va Sirdaryo sohilidagi Forob degan joyda tavallud topgan mashhur qomus muallifi al-Javhariy oʻsha sohalarda faoliyat koʻrsatgan” [3], -deb yozadi T.Raynov.

Dunyoga mashhur Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi qomusiy bilim sohiblari ham oʻrta asrlarda yashagan ajdodlarimiz vakillari edilar. Shuningdek, tadqiqotimiz mavzuini tashkil etgan axloqiy tarbiyaga oid taʼlimotlar sohiblari Imom Muhammad Ismoil al-Buxoriy va Abu Nasr al-Forobiy ham ana shu- IX-X asrlarda yashagan Sharqning buyuk mutafakkirlaridir. Yaqin va Oʻrta Sharq mamlakatlaridagi madaniy yuksalishga olib kelgan asosiy sabab Movarounnahr va Xurosonning arablarga qaramlikdan qutilishi hamda feodal munosabatlar yangi bosqichi boʻldi. Bu davr madaniy taraqqiyotida Arab xalifaligiga boʻysungan mamlakatlarning xoʻjalik-iqtisodiy aloqalarining kuchayishi va buning oqibatida turli madaniyatlar - Oʻrta Osiyo xalqlari, forslar, arablar, hindlar, yunonlar, rumliklar madaniyatining yaqindan oʻzaro aloqasi va bir-biriga taʼsir etib borishi katta rol oʻynadi. Bu xususda pedagogika fanlari doktori X.X.Tillashevning: “Oʻrta asrlardagi Sharqning, shu jumladan, Oʻrta Osiyoning buyuk qomusiy bilim sohibi boʻlmish mutafakkirlarining ilmiy merosini tahlil etish natijalari yangi davrning aksariyat

ilmiy qarashlariga IX-XIII yuz yilliklar mobaynida zamin yaratilganligini to'la va asosli ravishda ta'kidlash uchun imkon beradi"[4],- degan fikrlari g'oyat ahamiyatli.

Xulosa

IX-X asrlarda mamlakatimiz hududida chet ellik bosqinchilarning hujumlari oqibatida ilmiy va tarbiyaviy muhit tuxtab qolmadi. Ajdodlarimizda mavjud bo'lgan azaliy odat ya'ni, ta'lim va tarbiya jarayonini qattiq tutish, yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash zarurati arablar bosqini natijasida kirib kelgan islom dini va shariat asosida yangicha mafkuralar bilan boyitildi. Din nafaqat ta'lim jarayoniga balki tarbiya jarayoniga ham kirib kelib, asosiy vositaga aylandi. Islomiy aqida va tafakkur asosida tarbiyalangan sharq mamlakatlari aholisidan jahon ilm fani rivojiga o'lgan hissa qushgan ko'plab mutaffakkirlar yetishib chiqdi. Markazlashgan davlatlarning tashkil topishi va siyosiy, iqtisodiy barqaror muhitning yuzaga kelishi Movarounnahr zaminida keng ilmiy muhit taraqqiyotini keltirib chiqardi. Bu jarayon esa Movarounnahrndan hatto bugungi kun jahon ilm-fani uchun ilmiy asos yaratib bergan ko'plab olimlarning yetishib chiqishiga sabab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. История стран Азии и Африки в средние века. Т. 1. – М.: Наука, 1987. – 10 с.
2. Мухаммад пайгамбар қиссаси. Ҳадислар. – Т.: Камалак, 1991. – 60 б.
3. Райнов Т.И. Великие учёные в Узбекистане (IX – XI вв). – Т.: Фан, 1944. – 5 с.
4. Тиллашев Х.Х. Общепедагогические и дидактические идеи учёных – энциклопедистов Ближнего и Среднего Востока эпохи средневековья. – Т.: Фан, 1989. – 129 с.
5. Ўрта Осиёда педагогик фикр тараққиётидан лавҳалар. – Т.: Фан, 1996. – 84 б.
6. Ҳидоят Г.А. Менинг жонажон тарихим. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 107 б.
7. Хайруллаев М.М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. – Т.: Фан, 1994. – 25 б.
8. Якубовский А.Ю. Культура и искусство Средней Азии. – Л.: Наука, 1940. – 26 с.

Muallif:

Mardiyeva Yulduz Ubaydullayevna - Samarqand davlat chet tillar instituti, mustaqil tadqiqotchi.

УДК: 811.512.133-1

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING THE FUNDAMENTALS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ROBOTICS IN THE SUBJECT OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA SUN'YI INTELLEKT VA ROBOTOTEXNIKA ASOSLARINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ОСНОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И РОБОТОТЕХНИКИ ПО ПРЕДМЕТУ ИНФОРМАТИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Абдужалилов Жавлонбек Адилевич

Мухаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети, Тошкент шаҳри, 100102, Амир Темур 108.

E-mail: javlontuit@gmail.com

Abstract. In this article, we made a comparative analysis of teaching topics related to Artificial Intelligence and Robotics in the subject of "Informatics and information technology" at general secondary education in Uzbekistan and different foreign countries. Based on our studies, we assumed that the teaching the topics related to basics of artificial intelligence and robotics in the subject of "Informatics and information technology" in general secondary education will help students to form digital competencies. In order to justify this hypothesis, we analyzed whether digital competences can be formed in students in the process of learning artificial intelligence and robotics.

Key words: Artificial intelligence, robotics, software programming.

Аннотация. В данной статье мы провели сравнительный анализ преподавания тем, связанных с искусственным интеллектом и робототехникой, по предмету «Информатика и информационные технологии» в системе общего среднего образования Узбекистана и разных зарубежных стран. На основании наших исследований мы предположили, что преподавание тем, связанных с основами искусственного интеллекта и робототехники, по предмету «Информатика и информационные технологии» в общем среднем образовании поможет учащимся сформировать цифровые компетенции. Для обоснования этой гипотезы мы проанализировали, могут ли цифровые компетенции формироваться у студентов в процессе обучения искусственному интеллекту и робототехнике.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, робототехника, программирование.

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz O'zbekiston va turli xorijiy mamlakatlardagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanida sun'iy intellekt va robototexnika mavzularini o'qitishning qiyosiy tahlilini o'tkazdik. Tadqiqotlarimiz asosida umumiy o'rta ta'limdagi informatika va axborot texnologiyalari fanida sun'iy intellekt va robototexnika asoslariga doir mavzularni o'qitish o'quvchilarda raqamli kompetensiyalarni

shakllantirishga yordam beradi, deb taxmin qildik. Ushbu gipotezani asoslash uchun biz raqamli kompetensiyalarni sun'iy intellekt va robototexnikani o'rganish jarayonida o'quvchilarda shakllantirish mumkinligini tahlil qildik.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, robototexnika, dasturiy ta'minot.

Introduction. Today, in the process of building a New Uzbekistan, improving the system of personnel training in the field of information technologies is one of the important conditions for the successful implementation of the "Digital Uzbekistan-2030" strategy, the development of digital technologies and the wide introduction of them into the everyday life of the population. This task affects the formation of requirements for all levels of the educational system. In particular, it means that there is a high demand for pre-professional training for general high school students as future representatives of engineering and digital specialties, and the development of their digital competencies in the field of artificial intelligence. These circumstances determine the need to make changes and additions to the methodological system of teaching 10-11th grade Informatics and information technology in the general secondary education system, in which there is a need to effectively use modern achievements and opportunities in the field of artificial intelligence and robotics.

Literature review. It is important to teach students Artificial Intelligence (AI) and Software programming to develop metacognitive thinking and 21st century skills. The above-mentioned factors incorporate elements of STEM and ICT promotion. Teaching of STEM in school education can be organized as interesting with project-based tasks [1]. Educational robotics (ER) is a learning environment that inspires the participants to build and design robotics activities [2]. By constructing programmable robots, student groups engage in playful collaborative problem-solving activities. ER assists students in delving into the science of programming and acquiring new knowledge, allowing them to learn a wide range of topics in the fields of computer science and technology [3].

Artificial intelligence (AI) is the science and engineering of making intelligent machines, especially intelligent computer programs. It is related to the similar task of using computers to understand human intelligence, but AI does not have to confine itself to methods that are biologically observable. Intelligence is the computational part of the ability to achieve goals in the world. Varying kinds and degrees of intelligence occur in people, many animals and some machines [4].

Artificial intelligence (AI) is one of the technologies that will significantly change our society, economy and labour market over the next few decades. Some of the best-known examples of AI application areas are autonomous driving, chatbots, voice assistants, internet search engines. As part of the project, a user-friendly environment will be provided to enable students to learn more about AI services and applications. Early training in artificial intelligence goes beyond computational thinking and examines how computers perceive, think, act, learn and make decisions. Although early education in AI appears to be a necessity, there is no set of rules for the use of artificial intelligence in schools. Various technical solutions and initiatives for personalised and creative learning have been announced with promising results, the ways however that educational institutions are using these tools strongly varies and is entirely up to them.

Educational Robotics (ER) also aids in developing children's creativity and improving cognitive capacities, particularly in the areas of science, technology, engineering, and math (STEM) [5]. Furthermore, these robots assist children in learning variety of skills, including self-evaluation and self-reliance, as well as a great deal about programming and technology [6]. The application of ER gained in school inspires children and teenagers to pursue these disciplines further. This is certainly true in the case of improving students' ability and capabilities of programming languages to operate robots by simplifying them [7]. Thus, student's learning should be designed more engaging and entertaining [8].

The rapid advancement of technology, particularly in the fields of Artificial Intelligence (AI) and Robotics, has underscored the necessity of integrating these concepts into the educational curriculum, even at the foundational levels. This dissertation addresses the imperative to improve the methodology of teaching the fundamentals of AI and Robotics in computer science courses for 10-11 grade school students. The research recognizes the critical role of early exposure to these disciplines in nurturing a generation adept at understanding and contributing to the evolving technological landscape.

As UNESCO highlighted, the connection between AI and education involves three areas: learning with AI (e.g., the use of AI-powered tools in classrooms), learning about AI (its technologies and techniques) and preparing for AI (e.g., enabling all citizens to better understand the potential impact of AI on human lives). The Beijing Consensus on Artificial Intelligence [9] prepared by UNESCO suggests AI as a mean to empower both teachers and learners and to help them gaining both technical and traversal skills and values for their life and work.

Furthermore, Artificial Intelligence is becoming ubiquitous in our society and in our daily life [10] and consequently, a great deal of future career paths for the new generations will undoubtedly be AI-related. For this reason, AI is increasingly included in educational programs as a prerequisite to understand (and operate into) the contemporary world as well as to have access to a significant part of the job market.

The importance of the introduction of AI in education has been highlighted already from the 70s [11]. However serious attempts to introduce AI curricula in schools around the world have started to be made only in the last decade. Khan et al. [12] indicate 2017 as the time when internationally a great deal of activity around AI and education has been recorded.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

Although generally considered by students as an attractive and to-be-explored subject, AI is often perceived as destined for future Computer Scientists only. Students' representations of AI often include uneasily achievable levels of engineering skills, male-oriented job opportunities, complex and expensive machinery, research-based and abstract learning content [13].

Research object and methodology. Informatics and information technology textbooks have been developed for students of the 11th grade in general secondary education by the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan in 2021. These textbooks include topics in Artificial Intelligence and Robotics, but these topics provide a more theoretical overview of Artificial Intelligence. Analyzing the information in the following samples, it was found that there was no information about students' logical thinking, programming, and the implementation of collaborative projects. Only following topics related to AI and robotics were included in the textbook: The concept of artificial intelligence and the history of its development; Features of artificial intelligence; Types and branches of artificial intelligence; Python's role in artificial intelligence technologies.

By studying the superficial information about artificial intelligence in the above topics, the students will not gain an understanding of how to use AI technology in practice.

According to the decree of the Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan "On Approval of the Basic Curriculum for General Secondary Schools for the 2023-2024 Academic Year" the basic curriculum for the 2023-2024 academic year was released. In this curriculum the subject of Informatics and Information Technologies in the Natural Sciences module is taught 1 hour a week in grades 1 and 5-8, and 2 hours a week in grades 9-11. Based on this decree, during the 2023-2024 academic year, special attention is paid to the formation of the following modern skills in students of general secondary schools: collaboration - forming the ability to work as a team; communication skills - development of communication skills; creative thinking - reaching for innovations, developing new ideas and solving problems in order to achieve one's goal; critical thinking - having an independent opinion and expressing it, approaching the issue critically.

The following table 1 lists the hours allocated to Informatics and Information Technology by the Ministry of Preschool and School Education in the curriculum of general secondary schools in the 2023-2024 school year.

Table 1. Number of weekly load for the subject

| Subject | Weekly load (hour) | | | | | | | | | | |
|--|--------------------|---|---|---|---|---|---|---|---|----|----|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 |
| Informatics and Information Technology | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 2 | 2 |

The annual 34 hours allocated to Informatics and Information Technologies in schools for students of grades 1-8 are not enough to fully cover the theoretical and practical training in the subject, one of the reasons for this is the lack of computer equipment in the Informatics rooms.

According to the decree of Minister of Pre-school and School Education of the Republic of Uzbekistan dated July 19, 2023 "On Approval of Elective Curricula for the 2023-2024 Academic year in General Secondary Educational Institutions" new direction of "Web freelancer" established for the academic year 2024:

1. "Informatics and information technologies", "Foreign language" and "Mathematics" are optional subjects in the selection class for web freelancer;

2. Hours allocated for elective subjects are taught based on the following distribution:

- In grades 7-8-9, "Informatics and information technologies" is taught for 1 hour, "Foreign language" for 0.5 hours, and "Mathematics" for 0.5 hours. In this case, in the 7th-8th-9th grades, the science of "Algebra" is taught in 0.5 hours allocated to the science of "Mathematics".

- In grades 10-11, "Informatics and information technologies" are taught for 5 hours, "Foreign language" for 2 hours, and "Mathematics" for 2 hours. In this case, in 10-11th grades, 1 hour of "Algebra" and 1 hour of "Geometry" are taught out of 2 hours allocated to "Mathematics".

The hours allocated for Informatics and information technologies in the Elective curriculum of the web freelancer in general secondary educational institutions are listed in the table 2 below.

Table 2. Number of weekly load for Elective subject

| T/r | Subject | Weekly load (hour) | | | | |
|-------------------------|--|--------------------|---|---|----|----|
| | | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 |
| Elective subject | | | | | | |
| 1 | Informatics and Information Technology | 1 | 1 | 1 | 5 | 5 |

Analysis and results. Uzbekistan is a compelling case for investigation and implementation for educational innovations due to various factors such as its openness of the government, educational reforms, and investment opportunities. XXI century skills are concise promotional pieces for its keen-to-learn and potential students.

The country enters a new era of growth and development, its educational sector stands poised for transformation and expansion. As of 2023 October, www.stat.uz, with 36.6 million population, there are 10438 primary and middle schools, nearly half a million teachers and 6.4 million 1-11 grade students (about twice the population of Oklahoma). The educational sector in Uzbekistan is experiencing significant reforms and modernization efforts. With a focus on enhancing educational infrastructure, fostering innovation, and aligning curriculum with global standards, the country is poised to become a hub for quality education.

For implementing an appropriate educational practice of AI and S/W in Uzbekistan educational system tracks back to three decades. Since then, a considerable number of initiatives and reforms have been made. President's decree contributed to increase of great interest of research institutes higher education (Decree of the President of Republic of Uzbekistan, 2021). For instance, dozens of international patents were issued, and several AI applications were integrated into industry after establishing specific institutions (Decree of Prime Minister of Republic of Uzbekistan, 2021). These changes of interest caused the introductions of the AI and ER into curriculum of many higher educational institutions. Nevertheless, training ICT teachers and providing methodical support for running AI and ER lessons is lacking.

The development of Artificial Intelligence has risen to the level of state policy of the Republic of Uzbekistan. The President of the Republic of Uzbekistan and the Cabinet of Ministers have approved decrees on the accelerated implementation of Artificial Intelligence technologies in the Republic of Uzbekistan in recent years. President Resolution of the Republic of Uzbekistan No. PR-4996 dated 17.02.2021 "On measures to create conditions for the accelerated implementation of Artificial Intelligence technologies" was signed. In accordance with the Strategy "Digital Uzbekistan – 2030", the resolution identifies the issues of accelerated implementation and widespread use of Artificial Intelligence technologies in Uzbekistan, ensuring access to digital data and their high quality and creating favorable conditions for training qualified personnel in this field [14].

Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PR-5234 dated 26.08.2021 "On measures to introduce a special regime for the use of Artificial Intelligence technologies" was approved. The resolution calls for the creation of a favorable and optimal Ecosystem for the development of innovative business models, products and services based on artificial intelligence technologies, their accelerated implementation in identified priority sectors and industries [15].

Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No.475 dated 31.07.2021 provides for the accelerated implementation of Artificial Intelligence technologies and the establishment of a system of training highly qualified personnel in this field [16]. Also, the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated 29.11.2021 No.717 "On approval of the Regulations on the procedure for establishing a special regime to support Artificial Intelligence technologies and its activities" [17].

To ensure the implementation of the above Decisions and Decrees, the following priorities are set:

- establishment of cooperation and implementation of joint projects with leading foreign Institutions on the development of Artificial Intelligence education.
- Introduction of AI in the textbooks of high schools and develop open educational resources.
- opening of special directions of Artificial Intelligence in Higher Education Institutions and targeted training of personnel for priority sectors of the economy, social sphere and public administration.
- joint research projects of national and foreign Higher Education Institutions and Research organizations in the field of artificial intelligence.
- sending young scientists engaged in research activities on the basis of exchange programs in the field of Artificial Intelligence for short-term foreign scientific internships.

For the development and implementation of study programs in AI aimed at educating personnel in accordance with the government development strategy, it is required to integrate two areas of education. As is known from experienced countries, while the development of hybrid curricula will create new jobs in the economic field in the near future, it will also serve as the basis for new areas of research and industries.

Currently, there is the need to train potential personnel for digitalization and automation of the Economy (Digital Economy, Business Intelligence), Medicine (medical image processing using ML and DL), Information Security (Information Protection, Cybersecurity) in the Republic of Uzbekistan. Training staff with knowledge of ICT and AI in these areas and filling gaps in staffing has raised the level of public policy. According to the Presidential Decree, by 2030, the Strategy "Digital Uzbekistan 2030" aims to train 100,000 programmers, young people with knowledge in the field of ICT and AI.

Conclusion. To implement the objectives of the development strategy of the Republic of Uzbekistan, it is required to update the existing curriculum and subjects in the general secondary education system or develop new curriculum and course materials. The sphere of business should always be inextricably linked with the study process. The process of

digitization and automation of economic sectors (such as Medicine, Economy and others as well as providing information security in the digital environment) and staffing, are currently the responsibility of only the universities in the field of ICT in Uzbekistan. In Uzbekistan, from year to year, the need for personnel with knowledge and skills in the field of artificial intelligence and software products for every sector of the economy, especially in the fields of medicine, ecology, information security and heavy industry, is growing. Thus, the government need to consider to increase number of hours for teaching and learning of Informatics and Information technology subject in general secondary education to prepare students with AI and Robotics designing and programming knowledge, and digital skills in the 21 century, in order to be ready in the 4th industry revolution.

REFERENCES:

1. Doniyorbek Ahmadaliev, Ahmed Hosny Saleh Metwally //The Effects of Educational Robotics on STEM Students' Engagement and Reflective Thinking. IEEE Frontiers in Education Conference 2022, pp 111-118.
2. B. Sisman and S. Kucuk, "An Educational Robotics Course: Examination of Educational Potentials and Pre-Service Teachers' Experiences," International Journal of Research in Education and Science, 2019 vol. 5, no.2, pp. 510-531.
3. G. K. Wong, X. Ma, P. Dillenbourg and J. Huan, "Broadening artificial intelligence education in K-12: where to start?," ACM Inroads 2020, vol.11, no. 1, pp. 20-29.
4. McCarthy, J. What is artificial intelligence? // Computer Science Department, Stanford University. November 12, 2007.
5. T. Sapounidis and D. Alimisis, "Educational robotics for STEM: A review of technologies and some educational considerations," In Science and mathematics education for 21st century citizens: Challenges and ways forward. Hauppauge, NY, USA: Nova Science Publishers, September 2020, pp. 167-190.
6. M. Çetin and H. Ö. Demircan, "Empowering technology and engineering for STEM education through programming robots: A systematic literature review," Early Child Development and Care 2018, vol.190, no. 9, pp. 1323- 1335.
7. L. Negrini, "Teacher training in educational robotics," In Robotics in Education, Cham, Switzerland: Springer International Publishing 2019, pp. 92- 97.
8. M. Chevalier, C. Giang, A. Piatti, and F. Mondada, "Fostering computational thinking through educational robotics: a model for creative computational problem solving," International Journal of STEM Education 2020, vol. 7, no. 1. pp. 142- 147.
9. UNESCO, (2019), Beijing Consensus on Artificial Intelligence, Outcome Document of the International Conference on Artificial Intelligence and Education, 16-18 May 2019. pp. 12- 17.
10. Taguma, M., Feron, E., & Lim, M. H. (2018). Future of education and skills 2030: Conceptual learning framework. Organization of Economic Co-operation and Development.
11. Kahn, K. (1977). Three interactions between AI and education. In E. Elcock, & D. Michie (Eds.), Machine intelligence 8: Machine representations of knowledge. Ellis Horwood Ltd. and John Wylie & Sons
12. Kahn, K., & Winters, N. (2021). Constructionism and AI: A history and possible futures. British Journal of Educational Technology, 52, pp 1130–1142.
13. Silva Marques, Livia & Gresse von Wangenheim, Christiane & Hauck, Jean. (2020). Teaching Machine Learning in School: A Systematic Mapping of the State of the Art. Informatics in Education. 19.
14. <https://lex.uz/docs/5297046>
15. <https://lex.uz/docs/5603319>
16. <https://www.lex.uz/docs/5544451>
17. <https://lex.uz/docs/5746496>
18. Akhmedov R.Sh. (2024). The Theme of AI Technologies in American Science Fiction. *Tadqiqotlar* 35(3): 84-87.

UDK 372.879.6

EFFECTIVENESS OF DEVELOPING THE PHYSICAL QUALITIES OF 7-8 YEAR OLD STUDENTS BASED ON NATIONAL ACTIVITY GAMES

MILLIY HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA 7-8 YOSHLI O'QUVCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ 7-8 ЛЕТ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДЕЯТЕЛЬНЫХ ИГР

Anorqulov Baxtiyor Norqul o'g'li

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: baxtiyoranorqulov94@gmail.com

Abstract. We have accumulated and enriched experience in national action games over the past years. It became necessary to search for new methods, methods and tools aimed at increasing the educational content of action games,

forming skills and abilities, and improving movement qualities. National action games are of great importance in improving the physical qualities of primary school students.

Key words: game, action, education, physical quality, method, style, tools, health, primary class.

Аннотация. За прошедшие годы мы накопили и обогатили опыт национальных экшенов. Возникла необходимость поиска новых методов, методов и средств, направленных на повышение образовательного содержания подвижных игр, формирование навыков и умений, улучшение двигательных качеств. Большое значение в совершенствовании физических качеств учащихся младших классов имеют национальные подвижные игры.

Ключевые слова: игра, действие, воспитание, физические качества, метод, стиль, орудия, здоровье, начальный класс.

Kirish. O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan asosiy masalalardandir. Yoshlarimizni har tomonlama yetuk, sog'lom qilib o'stirishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati kattadir. «Sport tinchlik elchisi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashning noyob vositasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Sportchilarning mardligi, iste'dodi va mahorati bilan inson imkoniyatlari cheksizligini yana bir bor isbotlaydilar, kuch, nafasat va uyg'unlikni, hammamiz haqli ravishda faxrlanadigan fazilatlarini yana bir bor namoyish qiladilar»

Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanayotganda, tananing tiklanishi mashqning o'zi kabi muhimdir, chunki jismoniy faoliyatning hajmi va intensivligini oshirish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin emas. Shuning uchun jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadigan odamlarda charchoqni tiklash va bartaraf etish jarayoni jismoniy mashqlar paytida katta ahamiyatga ega. Organizmga o'ta yuqori talablarni qo'yadigan va ko'pincha to'plangan surunkali charchoq fonida yuzaga keladigan o'quv yuklarining hajmi va intensivligining sezilarli darajada oshishi ko'pincha charchoqning yuqori darajasi bilan birga keladi. [1].

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'quvchilarning salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiyaning o'rni kattadir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy sog'lomlashtirish ishlarini tashkil qilish, jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik masalalari bo'yicha A.A.Rixsiyeva, F.N.Nasriddinov, A.I.Rixsiyev, [2] F.Xo'jayev [3], T.S.Usmonxo'jayev [4], Sh.X.Xankeldiyev [5], A.K.Atayev[6], lar ilmiy izlanish olib borishgan. Ularning ishlarida, O'zbekiston sharoitida yashayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari hamdo'stlik davlatlari tengdoshlarinikidan farq qilishi ko'rsatilgan.

O'tgan yillar davomida harakatli o'yinlar bo'yicha to'plangan, boyitilgan katta tajribaga egamiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy sifatlarini oshirishda harakatli o'yinlarni ahamiyati kattadir. Shu boisdan xam bir qator mutaxassis olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlari harakatli o'yinlarga bag'ishlangan.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar jismoniy sifatlarini oshirishning qulay davri bo'lib hisoblanadi. Maktablarda olib borilgan pedagogik kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, haftada o'tiladigan ikki soatli jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarni jismoniy sifatlarini yetarli darajada oshirishga ozlik qiladi. Bu esa bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan bo'lib qoladi. Boshlang'ich sinf boshidagi bolalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda harakatli o'yinlarni ahamiyati kattadir. Shu boisdan biz tomondan tanlangan mavzu «Milliy harakatli o'yinlar asosida 7-8 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish samaradorligi» zarur va dolzarb mavzulardan hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Harakatli o'yinlardan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy sifatlarini rivojlantirishni ilmiy pedagogik jihatidan asoslash.

Tadqiqot ob'yekti va qo'llaniladigan metodlari

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quv-sog'lomlashtirish jarayoni. Nazariy tahlil va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, suhbat, antropometriya, test, matematik statistika, pedagogik tajriba. Shulardan biri yoshlik chog'idan boshlab bolaning jismoniy sifatlarining rivojlanishiga katta e'tibor berish hisoblanadi. Ishda Sirdaryo viloyati Guliston shahar 2-16- umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari 7-8 yoshli o'g'il va qiz bolalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkich natijalari keltirilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy rivojlanishi antropometrik ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Tajriba guruhi o'g'il bolalarining gavda uzunligi 7 yoshli o'g'il bolalarda 118,1 sm, qiz bolalarda esa 116,8 sm; 8 yoshli o'g'il bolalar 121,7 sm.ni, qiz bolalar 120,6 sm.ni; tashkil etadi. Bo'y o'lchovining 7-8 yoshli o'g'il bolalar o'rtasidagi farqi 3,6 smga, 7-8 yoshli qiz bolalarda 3,8 smga tengdir.

O'g'il bolalarning vazniga e'tibor beradigan bo'lsak, 7 yoshda 17,5 kg.ni, qiz bolalarda esa 16,2 kg.ni 8 yoshli o'g'il bolalarda 20,4 kg.ni , qiz bolalarda esa 19,4 kg.ni tashkil etgan.

O'pkaning tiriklik sig'imi o'lchanganda, 7 yoshli o'g'il bolalarda tajriba guruhida 1152,6 ml.ni, qiz bolalarda esa 1142,3 ml.ni tashkil etgan.

O'ng panja kuchlari tajriba guruhi 7 yoshli o'g'il bolalarida 8,3 kg.ni, qiz bolalarida esa 7,9 kg.ni tashkil etadi. Chap panja kuchlari esa o'g'il bolalarda 8,2 kg.ni, qiz bolalarda 7,8 kg.ni tashkil etdi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

Tajriba guruhi o'g'il bolalarining tana uzunligi 7-8 yoshlilar o'rtasidagi farq 3,6sm.ni, qiz bolalarniki esa 3,8 sm.ni; 9-10 yoshli o'g'il bolalarda 3,6 sm.ni, qiz bolalarda esa 4,1sm.ni tashkil etdi.

Tana og'irligi 7-8 yoshli o'g'il bolalar o'rtasidagi farq 2,9 kg.ni, qiz bolalarda esa 3,2 kg.ni ekanligini ko'rsatdi. O'pkaning tiriklik sig'imini kuzatganimizda, o'g'il bolalarning 7-8 yoshlilari 65,8 ml.ni, qiz bolalar esa 53,9 ml.ni tashkil etdi. O'ng panja kuchlari tajriba guruhi o'g'il bolalarining 7-8 yoshlilardagi farq 3,6 kg.ni, shu yoshdagi qiz bolalardagi farq 2,3 kg.ni tashkil etdi. Chap panja kuchlari 7-8 yoshli tajriba guruh o'g'il bolalari o'rtasidagi farq 3,6 kg.ni, qiz bolalarda esa 2,2 kg. farqlar borligini kuzatdik.

Tajribagacha 7-8 yoshli nazorat guruhi o'g'il va qiz bolalarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari quyidagicha; 7-8 yoshlilar o'rtasida o'g'il bolalarning tana uzunliklari o'rtasidagi farq 2,9 sm.ni, qiz bolalarda esa 2,8 sm.ga teng ekanligi kuzatildi

Xulosalar

1. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning sog'ligini mustahkamlash jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadidir. 7-8 yoshli bolalar uchun harakat tartibi katta ahamiyatga ega, chunki ularning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi darajasi ko'pincha harakat faolligini va mashqlarni to'g'ri tashkil qilishga bog'liq.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy sifatlarni rivojlantirishda milliy harakatli o'yinlarni, ularning pedagogik xususiyatlarini xisobga olib ko'paytirish lozimligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

3. Milliy harakatli o'yinlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari sevib, maroq bilan o'ynaydilar. Bunday o'yinlar jismoniy tarbiya darslaridagina emas, balki sog'lomlashtirish tadbirlarida xam o'ynaladi. Jismoniy sifatlarni rivojlantirishga mo'ljallangan umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlarga doir bayon qilingan material ko'proq o'yin tarzida beriladi. harakatli o'yindan keyin bo'shashtiradigan, ohista yuriladigan yoki diqqat-e'tiborni o'stiradigan mashqlarni berish ularni pulsi urishi bir meyyorda urishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anorqulov, B. (2022). JISMONIY MASHQLARDAN KEYIN ORGANIZMNING QAYTA TIKLANISHI. *Science and innovation*, 1(B7), 693-697.
2. Rixsiyeva A. A., Nasriddinov F. N., Rixsiyev A. I. Fizicheskiye sostoyaniye shkolnikov i sportivnoy molodyoji. – Tashkent: Ibn Sini, 1992. - 151 S.
3. Usmonxodjayev T. S. Nauchno-pedagogicheskiye osnovi fizicheskogo sovershenstvovaniya detey v svyazi s ix dvigatelnoy aktivnosti. Avtoref. diss.... d-ra ped. nauk. –Tashkent: 1995. -50 s.
4. Xo'jayev F., Usmonxo'jayev T. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari. 1-sinf uchun metodik qo'llanma. –T: O'qituvchi, 1996. -183 b.
5. Xonkeldiyev Sh.X. Fizicheskaya podgotovlennost uchayuyeyasya molodeji . –Tashkent: Medisina, 1986. - 204 s.
6. Atayev A. K. Oilada bolalar jismoniy tarbiyasining nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent: O'qituvchi, 1992. -150 b.

Muallif:

Anorqulov Baxtiyor Norqul o'g'li - Guliston davlat universiteti, Sport turlarini o'qitish uslubiyati kafedrasida stajyor o'qituvchisi.

UDK 372.815.99

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF SOCIAL INSTITUTIONS IN STUDENTS

TALABALARDA IJTIMOIIY USTANOVKALARNING SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ У СТУДЕНТОВ

Bekbolayev Javlonbek Jumanazar o'g'li

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: bekbolayevjavlonbek2024@gmail.com

Abstract. In this article, the current problems of studying social institutions among students of higher educational institutions, the scientific views of foreign and Uzbek scientists on the concept of social institutions, their analysis, their similarities and differences are analyzed from a socio-psychological point of view. Human activity is mainly regulated by social institutions that reflect the principles of life, values and determine the behavior of the individual. Although the level of real influence of social institutions on behavior has not yet been fully determined, based on our research, we can say that we are trying to fully reveal the social psychological factors of the formation of social institutions in students. Our research helps not only to consider the phenomenon of social influence in the study of the problem of formation and change of social norms among students, but also to identify effective mechanisms of social influence on individual

behavior. Social institutions have a role in ensuring adaptation to any social situation in a person's life, because through social institutions, a person reforms himself and prepares to be ready for a certain level of change. These issues are also analyzed in detail in our article. Uzbek psychologists and doctors of philosophy are gradually turning their scientific attention to the issue of social institutions, and wide-ranging scientific work is being done in this direction. In this article, you can get detailed information about important information and comparative-analytical opinions in several scientific works.

Key words: student, social institution, psychological approach, education, training, belief, system, mechanism, group.

Аннотация. В данной статье с социально-психологической точки зрения анализируются актуальные проблемы изучения социальных институтов среди студентов высших учебных заведений, научные взгляды зарубежных и узбекских учёных на понятие социальных институтов, их анализ, их сходства и различия. Деятельность человека в основном регулируется социальными институтами, которые отражают принципы жизни, ценности и определяют поведение личности. Хотя уровень реального влияния социальных институтов на поведение еще до конца не определен, на основании наших исследований можно сказать, что мы пытаемся в полной мере раскрыть социально-психологические факторы формирования социальных институтов у студентов. Наши исследования помогают не только рассмотреть феномен социального влияния при изучении проблемы формирования и изменения социальных норм у студентов, но и выявить эффективные механизмы социального влияния на поведение личности. Социальные институты играют роль в обеспечении адаптации к любой социальной ситуации в жизни человека, поскольку посредством социальных институтов человек реформирует себя и готовится быть готовым к определенному уровню изменений. Эти вопросы также подробно анализируются в нашей статье. Узбекские психологи и доктора философии постепенно обращают научное внимание к проблеме социальных институтов, в этом направлении ведется широкомасштабная научная работа. В этой статье вы сможете получить подробную информацию о важных сведениях и сравнительно-аналитических мнениях в нескольких научных работах.

Ключевые слова: студент, социальный институт, психологический подход, образование, обучение, убеждение, система, механизм, группа.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20.04.2017 yil 2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori e‘lon qilindi. Ushbu farmonda Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta‘minlash shart sharoitlari keltirib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim. Shundan kelib chiqan holda oliy ta’lim muassasasi talabalarida ijtimoiy ustanovkalarni o‘rganish o‘z-o‘zidan zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Inson faoliyati asosan hayot tamoyillari, qadriyatlarini aks ettiruvchi va shaxsning xulq-atvorini belgilaydigan ijtimoiy ustanovkalar bilan tartibga solinadi. Ijtimoiy ustanovkalarining xulq-atvorga haqiqiy ta’siri darajasi hali aniqlanmagan bo‘lsa-da, olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida talabalarda ijtimoiy ustanovkalarining shakilanishining ijtimoiy psixologik omillarini to‘la qonli ochib berishga xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotimiz talabalarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish va o‘zgartirish muammosini o‘rganishda nafaqat ijtimoiy ta’sir hodisasini ko‘rib chiqishga, balki shaxsning xatti harakatlariga ta’sir qilishning samarali mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob’ekti sifatida oliy ta’lim muassasalari talabalarida tadqiqotchilikka oid intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari uchun xizmat qiluvchi texnologiyalardan foydalanish jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, jamoaviy va yakka tartibdagi suhbatlar, so‘rovlar (og‘zaki) o‘tkazish usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Talaba shaxsi muammosiga ijtimoiy-psixologik yondoshishning o‘ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan bo‘ladigan turli shakldagi o‘zaro munosabatlarning oqibati sifatida qaraladi. Ya’ni ijtimoiy psixologiya avvalo biror guruhning a’zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo‘ysunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta’sirlari uning ongida qanday aks topishini o‘rganadi. Guruhning shaxs psixologiyasiga ta’siri qay yo‘sinda sodir bo‘lishi Ijtimoiy psixologiyada sotsializatsiya muammosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa, bu ta’sirlarning shaxs xatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bo‘lishi ijtimoiy yo‘l-yo‘riqlar muammosi bilan bog‘liqdir. Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli tipdagi shaxslarda namoyon bo‘lishini aniqlagan holda, shaxs

xulq-atvorini boshqarish mexanizmlarni ishlab chiqish Ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Ijtimoiy ustanovka muammosi — ijtimoiy psixologiyaning eng muhim muammolaridan biri sifatida ko'rilgan ekan, ustanovkaning shaxs xulq-atvorida namoyon bo'lishi masalasi ham ba'zi tadqiqotchilar tomonidan tahlil etilgan va quyidagi xulosalarga kelingan.

Ustanovka shaxsning xulq-atvorini belgilab beradi, agarda: boshqa ta'sirlar kamaytirilgan bo'lsa; ustanovka xatti-harakatga mos kelsa; ustanovka kuchli bo'lsa; ustanovka onggacha yetkazib borilsa. [10]

Ijtimoiy ustanovka tushunchasi ma'lum bir darajada xulq atvor motivining tanlovini ham izohlab beradi. Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq-atvorining ichki, anglanm agan yoki qisman anglangan motivlariga kiradi. Masalan, bir talabaga qaysidir o'qituvchining dars o'tishi yoqadi, u nima uchun shu o'qituvchining dars o'tishi yoqishini tushunmagan holda o'qituvchining keyingi darslari ham «menga yoqadi» degan tasavvurda bo'ladi. Shu ma'noda olib qaralganda, ijtimoiy ustanovka shaxsdagi anglanmagan munosabatlarga o'xshaydi. Lekin aslida ustanovka juda murakkabdir. Chunki ijtimoiy ustanovka tushunchasida munosabatlar ham, shaxsiy ma'no ham, baholar sistemasi ham, bilimlar ham o'z ifodasini topadi. Ya'ni, ijtimoiy ustanovka shaxsning turli ijtimoiy obyektlarga nisbatan munosabat bildirishining ichki mexanizmidir, shu obyektlar bilan ishlashga, ularni baholashga hamda ma'lum tarzda idrok qilishga tayyorgarlik holatidir.

V.G. Kriskoning fikricha «har qanday ustanovkalar ong ostidan chiqadi va shuning uchun ularning to'g'ri yo'l bilan kelishishlari juda qiyin». Ustanovkalar bilan harakatlar o'rtasidagi bo'linishni Daniel Betson va uning kasbdoshlari «o'ziga axloqiy bino qo'yish», ya'ni o'zida bo'lmagan axloqiy xususiyatlarni egallashga bo'lgan harakatlardir, deb ta'riflaydi. Universitet talabalariga ikkita topshiriq berildi, agar topshiriqning birinchisi to'g'ri bajarilsa 30 dollar mukofot berilishi, ikkinchisi uchun hech narsa berilmasligi aytiladi va talabalarga ikkalasidan bittasini tanlashlari taklif qilinadi. 20 ta talabadan bittasigina «pul to'lanadigan topshiriq»ni olish kerak, degan fikrni rad etadi, 80% talaba esa aksincha yo'l tutadi [11].

Daril Bern va Keyt Mak Konell Karnegi Mellon universiteti talabalari o'rtasida so'rov olib bordi. Tadqiqotchilar bergan savollar orasida talabalarining o'quv jarayonini, aynan talabalarni nazorat qilishga munosabatini aniqlovchi yashirincha savol ham mavjud edi. Unga nisbatan talabalar deyarli yomon munosabat bildirmaganlar. Lekin bir haftadan so'ng tadqiqot qayta o'tkazilganda sinaluvchilar talabalar nazoratiga qarshi ekanliklari haqida fikrlarini yozib berishgan va talabalar nazoratiga munosabati ham anchagina yomonlashgan. Tadqiqotchilar ulardan savollarga qanday javob berishganlarini eslashni so'rashganda, ular avvalgi va hozirgi javoblari bir xil ekanligini ko'rsatganini tan olishmagan. Klark universiteti talabalarida ta'kidlagan va tajriba ularga ta'sir ham shunday so'rov o'tkazilgan va ular ham xuddi shunday javob qaytarishgan [12].

Informatsiyaning mazmuni va yetib kelish tartibi kishilarning ijtimoiy ustanovkalar shakllanishi va o'zgarishiga quyidagicha ta'sir ko'rsatishi mumkin:

1. Kishilarga birinchi bo'lib yetib kelgan ma'lumot, ikkinchi yoki keyingi yetib kelgan ma'lumotga nisbatan ijtimoiy ustanovkalariga ko'proq ta'sir ko'rsata oladi (bu hol «birinchilik effekti» degan nom olgan). Bu quyidagi shart-sharoitlarda yuz beradi: a) insonlar kerakli ma'lumotni tinimsiz oqim ko'rinishida olishsa; b) kishilarda jismoniy va psixologik charchoq kuzatila boshlagan vaqtda (diqqatning o'chishi, informatsiyaga bo'lgan qiziqishning yo'qolishi va h.k.) ma'lumot kelishda davom etsa.

2. Kishilarga ikkinchi yoki undan keyin yetib kelgan ma'lumot quyidagi holatlarda ijtimoiy ustanovkalariga ko'proq ta'sir ko'rsatadi: a) agarda kishilar uni ko'p vaqt oralig'ida qismlarga bo'lib olishsa; b) agarda bu ma'lumot kishilarga juda uzoq vaqt mobaynida yetib kelaversa va nihoyat ular eng avvalida nimalarni eshitganliklarini unutib yuborishsa.

3. Agar ma'lumot olishdan avval shaxs «bu ma'lumotga ishonish kerak emas» degan ogohlantirish boisa, u holda ma'lumot yetib kelganida shaxs uni umuman qabul qilmaydi hamda o'zining ijtimoiy ustanovkasini o'zgartirmaydi.

4. Agarda «ma'lumot manbaiga ishonmang» degan ogohlantirish kechroq yetib kelsa va ungacha shaxs ma'lumotni qabul qilib boigan bo'lsa, u holda bu ogohlantirish shaxsdagi ijtimoiy ustanovkalarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsata olmaydi.

5. Ko'pchilik holatlarda murakkab va qarama-qarshi ma'lumot ijtimoiy ustanovkalariga yomon ta'sir ko'rsatadi, aksincha oddiy va aniq ma'lumot ijtimoiy ustanovkalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Auditoriyaning o'ziga xosligiga ko'ra ijtimoiy ustanovkalarining o'zgarishi va shakllanishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Shaxs ma'lumot manbaiga nisbatan avvaldan ijobiy munosabatda bo'lsa, u holda ma'lumot beruvchining nuqtayi nazarini qabul qilishadi (hatto bu nuqtayi nazar yetarlicha mantiqiy va tartibli bo'lmasa ham).

2. Shaxs ma'lumot manbaiga avvaldan salbiy munosabatda boisa, u holda ma'lumot beruvchining nuqtayi nazarini deyarli qabul qilmaydi (hattoki bu nuqtayi nazar mantiqiy izchil va mukammal isbotga ega bo'lsa ham).

3. Yuqori darajadagi intellekt, ta'lim va madaniyatga ega boigan shaxs ko'pincha emotsiyalarga emas, balki mulohazali fikrlarga asoslanib reaksiya bildiradi.

4. Past darajadagi intellekt, ta'lim va madaniyatga ega bo'lgan shaxs ko'pincha mulohazali fikrlarga emas, emotsiyalarga asoslanib reaksiya bildiradi.

Ijtimoiy ustanovka (sotsial attitude — ingl.) — insonning boshqa kishilar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarga va hodisalarga bo'lgan barqaror munosabati.[4]

O'zbekistonda ayni paytda bu muammo doirasida pedagogik, falsafiy, psixologik va turli nuqtai nazarlardan har xil yo'nalish va mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borgan zamondosh olimlarimizning ilmiy izlanishlari ham mazkur tadqiqotning dunyoga kelishiga turtki bo'lib, unda qo'yilgan muammolarni hal qilishda o'ziga xos ko'mak berdi. Jumladan, M. Maxmudova, G.J. Tulenova [8], V.Karimova [3], N.Ismoilova, D.Abdullayeva [4], I.R. Safarboyeva [6] kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida ijtimoiy faollik va shaxsni faollashtirish muammolari pedagogik, psixologik hamda falsafiy jihatdan yoritib berilgan. Q. Quranboyevning tadqiqot ishi esa «Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida)» deb nomlanib, talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning uslublari va mazmuni, uning pedagogik asoslari yaratib berilgan. Muallif ilmiy kuzatishlarida ma'naviy-axloqiy muammolar, yoshlar ta'lim-tarbiyasida ongli intizomning o'rni, burch va mas'uliyat, jamoatchilik sifatlarini tarkib toptirish muammolari tahlil qilinadi. Bu izlanishlar natijalarining ilmiy xulosalari ko'rsatib o'tiladi. Har ikki tadqiqot ishida ham yuqorida bayon etilgan holatlarda talaba va kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning mazmuni, maqsadi, metod, shakl va vositalari xususida to'xtalib o'tilgan. A.Akramov tomonidan «Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish» nomli tadqiqot ishida fuqarolik, fuqarolik pozitsiyasi, shaxsiy nuqtai nazar, fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik, burchga sadoqat, fidoyilik kabi tushunchalarga mualliflik nuqtai nazaridan yondashilgan va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.[2]

I.R. Safarboyeva «O'quvchi shaxsini faollashtirishda milliy mentalitet elementlaridan foydalanishning pedagogik asoslari» nomli tadqiqot ishida o'quvchi shaxsining faollashuv jarayoniga bir qator omillar o'z ta'sirini o'tkazishini va bu ta'sirlar quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidlab o'tgan: jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitning qaror topganligi; fuqarolar ma'naviy-axloqiy etukligini ta'minlash masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi; ta'lim-tarbiya ishlarining muayyan maqsad asosida tizimli, uzluksiz va izchil olib borilayotganligi; tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega sub'ektlar imkoniyatlarining yagona ijtimoiy maqsadni amalga oshirilishiga yo'naltirilganligi; shaxs omilining ijtimoiy munosabatlar jarayonida etakchi mavqega ega bo'lishi va boshqalar. [6]

Faylasuf olima G.J.Tulenova «Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy omilning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil)» nomli tadqiqot ishida ma'naviy omilning yoshlarning kasbiy xulqiga, ijtimoiy mo'ljaliga, amaliy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini falsafiy-metodologik jihatdan atroflicha o'rganish hamda mavjud muammolarni yechish borasida xukumat va jamoatchilik sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqqan. [8]

Xulosa. Yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish muammolari bo'yicha olib borilgan turli sohalardagi tadqiqotlar mazmunini o'rganish asosida quyidagicha xulosalarga keldik: 1. O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning mazmunini asoslash, uning metodikasini ishlab chiqish pedagogika fani va amaliyoti oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. 2. O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish shaxs umumiy kamolotini hamda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi, bugungi kunga qadar yaxlit pedagogik jarayon sifatida tadqiq etilmaganligi ta'kidlanadi. 3. O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligi ularning ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirokiga bog'liq bo'lib, shaxsning ijtimoiy borliqqa munosabatini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardayoq mamlakat aholisi, shu jumladan, yoshlar o'rtasida mustaqillik g'oyalarini targ'ib etish, ularda istiqlolni mustahkamlashga yo'naltirilgan ijtimoiy faollikni qaror toptirish vazifasi kun tartibiga qo'yildi. Bu boradagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda ta'lim-tarbiya jarayonining roli katta. Yoshlarning ijtimoiy harakatlardagi ijtimoiy ustanovkalari o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi asosiy psixologik omillarni aniqlash, oliy ta'lim tizimida talabalarda ijtimoiy ustanovkalar shakllanish tamoyillari, shakl, metod va vositalarini aniqlashtirish asosida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20.04.2017 yil 2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori. <http://lex.uz/docs/-3171590>
2. Akramov A.A. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish: Ped.f.n. ... dis. – T.: TDPU, 2016. 180 b
3. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 172 bet.
4. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent, 2013. 168 bet.
5. Safayev N.S., Ergashev P.S., Amirova N.A., Odilova N.G., Rahimova I.I., Ziyavutinova G.Z. Psixologik yetuklik asosiy mezonlarva rivojlanish qonuniyatlari. Toshkent-2018. 166. b.
6. Safarboyeva I. O'quvchi shaxsini faollashtirishda milliy mentalitet elementlaridan foydalanishning pedagogik asoslari. Toshkent, 2006. - 180 b.
7. Sharapova S. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. Monografiya. Guliston sh. 2020.144 b.

8. Tulenova G., Sagdullayeva D. Falsafa. O'quv qo'llanma. - T.: "Aloqachi", 2019
9. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi. T.: Akademiya. 2011, - 326 b.
10. Alimasov V. Falsafa yoxud fikrlash san'ati. T.: Noshir. - 256 b.
11. Krisko V.G. "Psixologiya i pedagogika" M., 2007 y. - 200 s.
12. Bem, Daryl J.; Honorton, Charles (January 1994). "Does psi exist? Replicable evidence for an anomalous process of information transfer" (PDF). *Psychological Bulletin*. **115** (1): 4–18. doi:[10.1037/0033-2909.115.1.4](https://doi.org/10.1037/0033-2909.115.1.4)

Mualliflar:

Bekbolayev Javlonbek Jumanazar o'g'li - Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.

UDK 372.879.6

CHARACTERISTICS OF IMPROVING THE TECHNIQUE OF PLAYERS IN THE GAME OF HANDBALL

GANDBOL O'YINIDA O'YINCHILARNI TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕХНИКИ ИГРОКОВ В ИГРЕ В ГАНДБОЛ

Bekmuratov Alisher Joniqulovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, 4-mavze

E-mail: alisherbekmuratov@gmail.com

Abstract. This article talks about the specific features of improving the technique of handball players and the conditions that created the attention paid to the sport in our country. Improving the technique of players in the game of handball using methods with and without the ball in the game of handball. Handball technique is a set of various special methods used in the game to achieve the set goal. held. During the article, the classification of the technique of attack, the technique of movement during the attack, and the main features of the improvement of the technique of the players are shown in the table. During the preparation of the article, methods of comparison, pedagogical observation, survey, interview, questionnaire, test, interview were used. These methods have improved the effectiveness of the article more useful aspects.

Keywords: Handball, players' technique, improvement, special methods, attack technique, game efficiency, comparative-comparison, pedagogy, catching the ball.

Аннотация. В данной статье говорится об особенностях совершенствования техники гандболистов и условиях, создавших внимание к этому виду спорта в нашей стране. Совершенствование техники игроков в игре в гандбол с использованием методов с мячом и без мяча в игре в гандбол. Техника гандбола – это совокупность различных специальных приемов, используемых в игре для достижения поставленной цели. В ходе статьи классификация техники нападения, техника движения во время атаки, а также основные особенности совершенствования техники игроков показаны в таблице. При подготовке статьи использовались методы сравнения, педагогического наблюдения, опроса, интервью, анкетирования, теста, интервью. Эти методы повысили эффективность статьи и добавили больше полезных аспектов.

Ключевые слова: Гандбол, техника игроков, совершенствование, специальные приемы, техника нападения, результативность игры, сравнительно-сравнение, педагогика, ловля мяча.

Kirish. Vatanimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligini ta'minlashning muhim sharti bo'lgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni shakllantirish, jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish, xalq manfaati uchun butun borlig'i bilan kurasha oladigan insonlarni tarbiyalashda sportning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev, "Biz O'zbekistonning xalqaro sport maydonlarida obro'-e'tibori va nufuzini oshirishga katta hissa qo'shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, sportning yuqori saviyasidagi yutuqlar bilan cheklanib qolmaslik kerak, shuningdek, biz ham o'zimizni xalqaro sport maydonlarida qo'lga kiritishimiz kerak. Ommaviy sportga katta e'tibor qarating" nomli maqolasi mamlakatimizda aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir. Qo'l to'pi keng tarqalgan sport turlaridan biri bo'lib, u o'quvchi yoshlarni jismoniy rivojlantirish, ularning salomatligini mustahkamlashning ommabop va eng qulay vositalaridan biridir. Bu kattalar uchun ham, o'smir-yoshlar uchun ham birdek ma'qul bo'lgan chinakam xalqchil o'yin hisoblanadi. Qo'l to'pi o'yinida to'p bilan va to'psiz usullar bajariladi. Qo'yilgan maqsadga erishmoq uchun o'yinda qo'llaniladigan xilma-xil maxsus usullar yig'indisi qo'l to'pi texnikasini tashkil etadi.[7][8]

Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida gandbol o'yinida o'yinchilarni texnikasini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish jarayoni. Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatuv, so'rov, suhbat, anketa, test, intervyu, usullaridan foydalanildi.

Olinadigan natijalar va ularning tahlili


Texnik usullar – bu qo‘l to‘pi o‘yinini vujudga keltirish vositasi demakdir. Yuksak sport natijalariga erishish ko‘p jihatdan gandbolchilarning ana shu xilma-xil vositalarni qan-chalik to‘liq bilishiga, raqib jamoa o‘yinчилari qarshilik ko‘rsa-tayotgan, ko‘pincha esa charchoq orta borayotgan sharoitda o‘yin jarayonidagi turli holatlarda ularni qanchalik mohirlik bilan, samarali qo‘llashiga bog‘liq. Qo‘l to‘pi texnikasini yaxshi bilish gandbolchining har tomonlama tayyorgarligi va har jihatdan kamol topishining ajralmas qismidir.[3]

Hujum o‘yini texnikasi. To‘pni egallagan hujumchi butun vujudi bilan raqiblar darvozasiga to‘p kiritishga intiladi. Raqiblarning qarama-qarshiligini faqat maxsus usullar yordamida yengishi mumkin. O‘yin texnikasining bu qismiga to‘pni ilish, ushlash, to‘pni erga urib olib yurish va egallab olish, chalqitish (fint) va to‘siq (zaslon) qo‘yish usullari kiradi.[4]

To‘pni ilish. Bu to‘pni egallashga imkon beruvchi usul. To‘pni bir va ikki qo‘llab ilish mumkin. To‘pni ikki qo‘llab ilishda qo‘llarning panjalari bir-biriga yaqinlashtirilib voronkasimon chuqurlik hosil qilinadi, barmoqlar to‘pga tekkanidan so‘ng, uchib kelgan to‘p tezligini pasaytirish uchun qo‘llar bukiladi. To‘pni bir qo‘lda ilish juda murakkab bo‘lganligi sababli ilish va keyingi qo‘lni silkitish ko‘pincha bunday holatda tutash harakatni tashkil etadi. To‘p bilan muvaffaqiyatli harakat qilish uchun uni to‘g‘ri ushlash lozim. Agar o‘yinchi uni ikki qo‘llab ushlasa to‘p yaxshi nazorat qilinadi. Lekin to‘pni bir qo‘llab yuqoridan yoki ochiq kaft bilan ham ushlash mumkin. Faqat bu holda to‘pni qattiq siqib ushlamaslik lozim, chunki bu qo‘lning panja bo‘g‘imlari qotishiga olib keladi.

To‘pni uzatish asosiy texnik usul hisoblanadi. To‘p uzatish ko‘p usullar yordamida, ayniqsa, boshqalarga qaraganda ko‘proq yuqoridan va qo‘l panjalari yordamida bajariladi. Uzatish texnikasining bajarilishi to‘p otish usulida ham farq qiladi. Qo‘llarni tirsak qismida bukkan holda yuqoridan to‘pni uzatish - qo‘l to‘pida to‘p uzatishning asosiy usulidir. Keyingi vaqtlarda yashirin holda – orqadan, bosh ortidan, oyoqlar orasidan to‘p uzatish ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lmoqda. To‘p uzatish panjalarning faol ishlashi natijasida bajariladi. Qo‘l panjalari yordamida uzatilgan to‘p aniqlik va tezlikdan yutadi.[3]

1-sxema.



To‘pni erga urib olib yurish. Bu usul bir joyda turganda, ko‘proq yurganda, yugurganda bajarilib, qo‘l to‘pi o‘yinчисining harakat qilishda qo‘llaniladigan asosiy usullaridan hisoblanadi. To‘pni yerdan har-xil: yuqoriroq va pastroq sapchitib turib yurish mumkin. Bu usulda qo‘l to‘pi o‘yinчisi maydondan sapchib ketayotgan to‘pni pastga tushirib va keng yoyilgan barmoqlari bilan kutib oladi. U qo‘lini bukib, to‘pni biroz yuqoriga uzatadi, so‘ng uni yana maydonga ma‘lum burchak bo‘yicha keskin itaradi. Bunda oyoqlar bukilgan, gavda biroz egilgan, bosh to‘g‘ri tutilgan bo‘lishi kerak. To‘pni erga urib olib yurish to‘g‘ri chiziq, yoysimon chiziq va doira bo‘ylab har xil yo‘nalishlarda bajarilishi mumkin.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

Yo'nalishni, tezlikni, sapchish balandligini o'zgartirib hamda to'pga qaramasdan erga urib olib yurishlar hozirgi zamon qo'l to'pi o'yinida katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.


To'pni otish. Otish natijasi bir qator sharoitlarga bog'liq, shular orasida muhimi raqiblarga kutilmagan vaziyatda otish yo'nalishini va usulini o'zgartirishdir.

To'pni ko'zlagan joyga yo'naltirishda, ayniqsa, tezlik muhim rol o'ynaydi – uning kuchi tezligiga bog'liq.

To'p otish texnikasini bajarishda uning inersiyasi va vaznini hisobga olish zarur, to'p otayotgan qo'lning keng amplitudadagi harakati mushaklar qisqarishiga va gavdadagi barcha mushaklarning qisqarishiga qulay sharoit yaratadi. Lekin o'yinda bir necha qadamdan so'ng, keng amplitudada qo'lni silkitib to'p otishni qo'llash anchagina mushkul. Shuning uchun o'yinchilar va murabbiylarning ijodiy izlanishdan maqsadi tez otish texnikasini (harakatni tezlashtirib, to'p ilgandan so'ng darrov sakrab va hokazo) yaratishga qaratilgan.

Darvozaga joydan to'p otish, yurib kelib, sakrab va tayangan holatda bajariladi.

Eng ko'p tarqalgan usul – harakatda yuqoridan qo'lni bukib to'p otishdir. Qo'llarni silkitish natijasida to'pni otish holati o'zgaradi. To'p otish boshning orqa tomonidan, elka ustidan yoki yon tomondan bo'lishi mumkin. Bu vujudga kelgan holat va texnikani bajarish xususiyatiga qarab aniqlanadi.



1-rasm. Qo'llarni tirsak qismida bukkan holda yuqoridan to'p uzatish

Qo'l to'pi o'yinida o'yinchilarning texnikasini takomillashtirish ularning maydondagi umumiy ishlashi va samaradorligiga hissa qo'shadigan turli jihatlarni o'z ichiga oladi. Mana bir nechta asosiy xususiyatlar.[5]

1-jadval

| No | O'yinchilarning texnikasini takomillashtirish asosiy xususiyatlar | |
|----|---|---|
| 1 | Asosiy ko'nikmalar | O'tish, ushlab olish, otish, dribling va himoyaviy manevrlar kabi asosiy ko'nikmalarni oshirish juda muhimdir. O'yin davomida o'yinlarni samarali bajarish uchun o'yinchilar ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishlari kerak. |
| 2 | Oyoq harakati | Maydonda chaqqonlik, muvozanat va tezkor harakatlar uchun yaxshi oyoq harakati juda muhimdir. O'yinchilar yo'nalishni o'zgartirish, tezlashtirish va sekinlashish qobiliyatini yaxshilash uchun oyoq mashqlarini bajarishlari kerak. |
| 3 | Tananing joylashishi | O'yinchilarga tanani to'g'ri joylashtirishni o'rgatish ularga o't ochish, himoya qilish yoki o'tmishdagi raqiblarni manevr qilish kabi turli xil harakatlarni bajarishda muvozanat, barqarorlik va nazoratni saqlashga yordam beradi |
| 4 | O'yindan xabardorlik | O'yinchilar o'yin dinamikasini, jumladan joylashishni aniqlash, vaqtni belgilash va qaror qabul qilishni yaxshi tushunishlari kerak. Bu imkoniyatlarni tan olish, raqiblarning harakatlarini kutish va ikki soniya ichida qaror qabul qilishni o'z ichiga oladi. |
| 5 | To'p uzatishning aniqligi va vaqti | Gandbolda to'pni ushlab turish va gol urish imkoniyatlarini yaratish uchun aniq uzatmalar juda muhimdir. O'yinchilar to'p uzatishning aniqligi, vaqti va qachon qisqa, uzoq yoki tez almashinuvni amalga oshirishni tushunishlari ustida ishlashlari kerak. |
| 6 | Otish texnikasi | Otish texnikasini takomillashtirish turli pozitsiyalar va masofalardan otishning aniqligi, kuchi va ko'p qirraliligini oshirishni o'z ichiga oladi. O'yinchilar turli xil tortishish uslublarini mashq qilishlari kerak, jumladan, sakrash, aylanish va harakatda zarbalar. |
| 7 | Himoya ko'nikmalari | Raqiblarning hujumlarini buzish va to'pni qaytarib olish uchun samarali himoya juda muhimdir. O'yinchilar belgi qo'yish, zarbalarni to'sib qo'yish, uzatmalarni ushlab turish va himoyada jamoaviy ishlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishlari kerak. |
| 8 | Jismoniy holat | Gandbol - bu kuch, tezlik, chidamlilik va chaqqonlikni talab qiladigan jismoniy talabchan sport turi. O'yinchilar o'zlarining umumiy jismoniy |

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

| | | |
|----|-------------------------|--|
| | | tayyorgarligini va qo'l to'pi uchun zarur bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni yaxshilash uchun moslashtirilgan fitnes mashg'ulotlari dasturlari bilan shug'ullanishlari kerak. |
| 9 | Jamoaviy ish va muloqot | Gandbol - bu jamoaviy sport, shuning uchun o'yinchilar kuchli jamoaviy ish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak. Bunga bir-birining harakatlarini tushunish, o'yinlarni muvofiqlashtirish, yordam berish va kortda muloqot qilish kiradi. |
| 10 | Aqliy qat'iyatlilik | Ruhiy chidamlilik va diqqatni jamlash bosimli vaziyatlarni hal qilish, o'ziga ishonchni saqlash va o'yinning shiddatli daqiqalarida xotirjamlikni saqlash uchun zarurdir. |
| 11 | Fikr-mulohaza va tahlil | Doimiy fikr-mulohazalar va individual va jamoaviy ish faoliyatini tahlil qilish takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga va shunga mos ravishda ta'lim strategiyalarini o'zgartirishga yordam beradi. Murabbiylar konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etishda va o'yinchilarning rivojlanishiga rahbarlik qilishda muhim rol o'ynaydi. |

Ushbu xususiyatlarga e'tibor qaratish va ularni mashg'ulotlarga kiritish orqali o'yinchilar o'zlarining texnikasini yaxshilashlari va qo'l to'pi o'yinida o'zlarining ko'rsatkichlarini oshirishlari mumkin.[1][2]

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qo'l to'pi o'yinida o'yinchilarning texnikasini takomillashtirish to'p uzatish, ushlab olish, otish va himoyalash kabi fundamental ko'nikmalarni egallashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u oyoq mashqlari orqali chaqqonlik, muvozanat va tezkor harakatlarni rivojlantirishni, tananing to'g'ri joylashishini tushunishni va imkoniyatlar va raqiblarning harakatlarini oldindan bilish uchun o'yin xabardorligini oshirishni talab qiladi. Bundan tashqari, o'yinchilar to'p uzatishning aniqligi va vaqtini belgilash, otish texnikasini takomillashtirish, mudofaa ko'nikmalarini egallash, jismoniy tayyorgarlikni saqlash, jamoaviy ish va muloqotni rivojlantirish, aqliy mustahkamlikni rivojlantirish va doimiy takomillashtirish uchun fikr-mulohazalar va tahlillardan foydalanishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdumannonovna I. S. THE IMPORTANCE OF PROPER NUTRITION IN MAINTAINING HUMAN'S HEALTH //Open Access Repository. – 2023. – T. 9. – №. 5. – C. 96-99.
2. Isokova S. A. et al. TALABALAR SPORT MUSOBAQALARINI TASHKIL QILISH VA HAKAMLIK QILISH KOMPETENTSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 108-114.
3. Krotov O. et al. RETRACTED CHAPTER: Thermal Conductivity of Geopolymer Concrete with Different Types of Aggregate //International Conference Sustainable Energy Systems: innovative perspectives. – Cham : Springer International Publishing, 2020. – C. 197-205.
4. Kurbanov E. E. THE CONTENT OF IMPROVING THE SYSTEM OF QUALITY EDUCATION ON THE BASIS OF SPIRITUAL AND MORAL TRAINING OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2023. – T. 3. – №. 09. – C. 106-113.
5. Norkul A. B. INCREASING THE EFFICIENCY OF DEVELOPING THE PHYSICAL QUALITIES OF 9-10-YEAR-OLD STUDENTS BASED ON ACTIVITY GAMES //JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 393-397..
6. Pavlov Shoislom Kalibayevich, Abdurahmonov Ferdeus Ahmedxonovich, Rahmonova Malohat Manapovna "Gandbol" o'quv-uslubiy qo'llanma. - 2010.- Toshkent -110 b.
7. Shermuxammad o'g'li I. S. CREATION AND DEVELOPMENT OF EFFECTIVE MANAGEMENT MECHANISM OF SPORTS FACILITIES //American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. – 2023. – T. 8. – C. 9-13.
8. Sunnatulla I. Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization //Confrencea. – 2023. – T. 11. – №. 1. – C. 149-153.

Muallif:

Bekmuratov Alisher Joniqulovich – Guliston davlat universiteti “Sport turlarini o‘qitish uslubiyati” kafedrasida katta o‘qituvchisi.

UDK 372.881

TECHNOLOGIES DEVELOPING CRITICAL THINKING OF STUDENTS

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALAR

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИВАЮЩИЕ КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ У СТУДЕНТОВ

Dexkanova Lutfinisa Abdullayevna

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: dlutfinisa@gmail.com

Abstract. Critical thinking is thinking that provides the ability to take one's own position on the issue under discussion and justify it, listen to the interlocutor. carefully consider the arguments and analyze their logic; This is the ability not only to assimilate information, but also to critically evaluate, understand and accept it. In critical thinking, ideas and their importance are considered in terms of diversity and compared with other ideas. This is the highest level of thinking, a mental activity that focuses on analyzing, comparing, interpreting, applying, arguing, innovating, problem solving, or evaluating a thought process. This article discusses technologies that develop critical thinking in students.

Key words: critical thinking, technology, interpretation, application, argument, innovation, problem, discussion, ability, listening, reasoning, diligence, logic, analysis, critical assessment, understanding, mental activity, comparison, skill.

Аннотация. Критическое мышление мышление, обеспечивающее способность занять собственную позицию по обсуждаемому вопросу и обосновать ее, слушать собеседника, внимательно рассматривать доводы и анализировать их логику; это способность не только усваивать информацию, но и критически оценивать, понимать и принимать ее. В критическом мышлении идеи и их важность рассматриваются с точки зрения разнообразия и сравниваются с другими идеями. Это высший уровень мышления, представляющий собой умственную деятельность, направленную на анализ, сравнение, интерпретацию, применение, спор, инновации, решение проблем или оценку мыслительного процесса. В данной статье рассматриваются технологии, развивающие критическое мышление у студентов.

Ключевые слова: критическое мышление, технология, интерпретация, применение, аргумент, новаторство, проблема, обсуждение, способность, слушание, рассуждение, усердие, логика, анализ, критическая оценка, понимание, умственная деятельность, сравнение, мастерство.

Kirish. Ta'lim va tarbiya siyosati ayni vaqtda yangi ijtimoiy tartibni talab qilmoqda. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz, tezda qayta quradigan va g'oyalarni yaratish orqali qiyin vaziyatdan chiqish yo'lini topadigan shaxslarni talab qilmoqda. Zamonaviy ta'limda ro'y berayotgan chuqur o'zgarishlar ta'lim va tarbiyaning yangi texnologiyalaridan foydalanishni ustuvor vazifa sifatida qo'yimoqda. O'qituvchilar, o'quv jarayonini tashkil etish va loyihalash uchun eng maqbul bo'lgan o'qitish usullari va texnologiyalarini tanlash imkoniyatiga ega. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining maqsadi talabalarning nafaqat o'qishda, balki keyingi hayotida ham zarur bo'lgan aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Aniq qaror qabul qilish, ma'lumotlar bilan ishlash, hodisalarning turli tomonlarini tahlil qilish qobiliyati va hokazo. Talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining ta'lim texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkillashtirishga hamda ularda mustaqil ta'lim olishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga bog'liq hisoblanadi. Bugungi kun pedagoglari yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor beribgina qolmay, balki ular bilan ko'proq suhbatlashish, shu bilan bir qatorda yoshlarni tanqidiy fikrlashga undash kerakligini talab qilmoqda. Bu borada mamlakatimiz ta'lim-tarbiya sohasida bir qancha islohotlar amalga oshirilyapti.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Ushbu maqolada tanqidiy fikrlash yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlar: K.Popper va R.Pol, Dayana Xalperi, Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templarning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda bu borada salmoqli ishlarni amalga oshirgan o'zbek allomalaridan: Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinoning ilmiy asarlariga tayandik. Tadqiqotni yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyosiy tahlil usullaridan tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi grafik organayzerlardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

“Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” [1]. Tanqidiy fikrlash bu XXI asr talablarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o'rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobiy ko'nikmadir.

Tanqidiy fikrlash - muhokama qilinayotgan masala bo'yicha o'z pozitsiyasini egallash va uni asoslash qobiliyatini, suhbatdoshini tinglash, dalillarni sinchkovlik bilan ko'rib chiqish va ularni mantig'ini tahlil qilish qobiliyatini ta'minlaydigan fikrlash; nafaqat axborotni o'zlashtirish, balki uni tanqidiy baholash, tushunish va qabul qilish qobiliyatidir. Xo'sh, tanqidiy fikrlashning o'zi nima? Adabiyotlarda bu tushunchaga berilgan turli xil ta'riflarni uchratish mumkin. “Tanqidiy fikrlash” atamasidan pedagogik muhitda anchadan beri foydalanib kelinadi va turli pedagoglar buni

xilma-xil tarzda tushunadilar. Ko‘pchilik o‘qituvchilar va metodistlar uchun tanqidiy fikrlash “yuqori tartibdagi” fikrlashni bildiradi - yuqori degani shu ma‘nodaki, U Benjamin Blum tizimiga ko‘ra o‘rganish qobiliyatlarining so‘nggi oliy pog‘onasida turadi. Faylasuflar tanqidiy fikrlash deganda, odatda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko‘nikmalarini tushunadilar, uning yordamida talabalar diqqat bilan o‘qish, chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o‘z fikrlarini aniq va o‘ylab ifoda etish imkonini oladilar.

Dayana Xalperi “Psixologiya kriticheskogo mushleniya” kitobida tanqidiy fikrlash “fikir yuritishning shunday ko‘rinishini anglatadiki, u vazminlik, mantiq va maqsadga yo‘naltirilganlik bilan ajralib turadi”, deb yozadi. [2]

Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templarning Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qish va yozish loyihasida quyidagicha ta‘kidlanadi: “Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g‘oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo‘lgan oqibatlarini ham e‘tiborga oladi. Bunda odam bu g‘oyalarni dastlab ma‘lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtayi-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo‘shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o‘z nuqtayi-nazarini ishlab chiqadi. [3]

Karl Popper tanqidiy fikrlashni har qanday ratsionallik asosi deb hisobladi, Bilim, Popperga ko‘ra, farazlar, ularning asoslanishi yoki rad etish amaliyotisiz mavjud emas. Bu yerda manba masalasi hech qanday ahamiyatga ega emas: dastlabki ma‘lumotlarga nisbatan usul va munosabat muhim ahamiyatga ega.

Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtayi- nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo‘lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo‘llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e‘tibor beriladi. O‘zlashtirish jarayonida tahliliy-sintetik faoliyat, shuningdek qiyoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va aniqlashtirish kabi fikriy operatsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Tahlil bu, predmetni qismlarga fikran bo‘lishdir. Sintez alohida elementlar yoki qismlarni bir butunga fikran birlashtirishdir.

Ta‘lim jarayonida talabalarning aqliy rivojlanishi, ularning faolligi va mustaqilligi, ijodiy yondashuv ko‘p jihatdan ularning o‘quv ishlari va aqliy faoliyat usullarini egallashiga bog‘liq. Tanqidiy fikrlashning asoslari talabalarga shunday sharoitlar yaratadiki, natijada ular quyidagilarga erishadi: talabalarning fikrlashini faollashtiradi; ta‘lim maqsadini ajratadi; faol munozaralarga imkoniyat yaratadi; o‘qishga qiziqishni oshiradi; faol o‘quv faoliyatini ta‘minlaydi; o‘zgarishlarni rag‘batlantiradi; fikr yuritishni rag‘batlantiradi; talabalarga turli xil fikrlarni tinglashga imkoniyat beradi; talabalarga o‘z savollarini berishda yordam beradi; talabaga o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishga imkon beradi; talabalar tomonidan axborotlar qayta ishlanishini ta‘minlaydi; talabalarda tanqidiy fikrlashga imkoniyat yaratadi.

Tanqidiy fikrlash va o‘rganish g‘oya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash “yakka-yu yagona to‘g‘ri javob”ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqariladigan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashni rivojlantiradigan yagona yo‘l ham yo‘q. Lekin tanqidiy fikr shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o‘quv to‘plami mavjud. Buning uchun: talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish; turli-tuman g‘oya va fikrlarni qabul qilish; talabalarning o‘quv jarayonida faolligini ta‘minlash; talabalarni kulgiga qolmaslikka ishonitirish kerak; har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga ishonch hissini uyg‘otish; tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim. Shu munosabat bilan talabalar: o‘ziga ishonchni orttirish va o‘z fikri hamda g‘oyalarining qadrini tushunish; o‘quv jarayonida faol ishtirok etish; turli fikrlarni e‘tibor bilan tinglash; o‘z hukmlarini sharhlantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog‘liq. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo‘lishadi, chunki ularda o‘qituvchi bilimli yoki kitobda u borayotgan bilimlar mavjud, shu tufayli ular bilim olishlariga o‘qituvchi mas‘ul degan tasavvurda bo‘ladilar. O‘quv jarayonida talabalarning faol ishtiroki va o‘qishga o‘zlarining mas‘ul ekanligini his qilish tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o‘z g‘oyalari va fikrlari bilan o‘zaro o‘rtoqlashishga da‘vat etish kabi pedagogik yondoshuv ularning faolligini oshiradi.

Fikrlash jarayoni talabalarning o‘zaro fikr almashuvini ko‘zda tutadi. Talabalarning o‘zaro fikr almashinishi ularning bir-biridan o‘rganishdagi o‘rtoqchiligiga asos soladi.

Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o‘tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular: o‘ziga ishonch hosil qilish; ishda faol ishtirok etish; o‘rtoqlar va o‘qituvchi bilan fikr almashish; o‘zgalar fikrini tinglay olish. Klasterlarga bo‘lish. Bu pedagogik strategiya bo‘lib, talabalarning u yoki bu mavzu bo‘yicha erkin va bimalol o‘ylashlariga yordam beradi. U faqat g‘oyalar orasidagi bog‘lanishlarni fikrlashni ta‘minlaydigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. U fikrlashning oddiy shakli emas, balki miya faoliyati bilan zid bog‘liqdir.

Hozirgi zamon oilasining ijtimoiy psixologik muammolarini yoritishga bag'ishlangan psixologik adabiyotlarda nikoh oldi omillarining turlicha shakllari, ko'rinishlari farqlanadi. Quyida Sizning e'tiboringizga ularning ayrimlari haqidagi ma'lumotlarni havola etamiz. Nikoh oldi omillari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning: oilaviy hayotga yetukligi: ularning oida qurish motivlari: ularning oila qurgunlariga qadar bir-birlarini tanish muddati (qancha vaqt bir-birini tanishi) shartlari va sharoitlari: ularni o'zlarining bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin. Masalan, nikohga yetuklik deyilganda, oila quruvchi yoshlarning: jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ahloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin. Bularning orasida huquqiy, jinsiy yetuklik ko'rsatkichlari yetarlicha aniq, alomatlariga, belgilarga ega bo'lgan va bular haqida tegishli huquqiy, tibbiy, psixologik adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar berilgan jihatlar bo'lsa, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik jihatlar bir oz murakkabroq, qat'iy bir ko'rsatkich, chegaraga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Masalan, odamning jinsiy yetukligi o'ziga xos omillarga ega. [4]

Klinik kuzatishlar ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi zamon qizlarida jinsiy yetuklik (balog'atga yetish) 12—14 yoshgacha, o'g'il bolalarda esa 14—16 yoshga to'g'ri keladi. Albatta, bu yetuklik ba'zi bir bolalarda ertaroq, boshqa birlarida kechroq ro'y berishi mumkin. Bu ko'rsatkichlar 2 yoshga farq qilishi mumkin. Ayrim tibbiyot olimlari bolalarni to'la jinsiy yetilishlari uchun yana 2—3 yil kerak bo'ladi, deb hisoblaydilar. Jinsiy yetilish qat'iy jinsiy ehtiyojlarning shakllanishiga olib keladi. Bu davrga kelib bolalarda ikkilamchi jinsiy alomatlar namoyon bo'la boshlaydi. Jinsiy sekretsiya bezlarining faolligi ortadi. Qiz bolalarda oylik sikllari (menstruatsiya), o'g'il bolalarda pollyutsiyalar ro'y bera boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, ularda rubertat davr boshlanadi. (Bu davr haqida va uning xususiyatlari haqida 4-mavzuda batafsil ma'lumotlar berilgan). Demak bu davrga kelib, bolalarning moddiy va ma'naviy qiziqishlarining o'sib borishi bilan bir qatorda jinsiy ehtiyojlar shaxs faolligining kuchli manbalaridan hisoblanib, u turli psixologik va ijtimoiy shakllarda namoyon bo'la boshlaydi. Jinsiy maylning, jinsiy ehtiyojning yuzaga kelishi odamni biologik rivojlana boshlashining o'ziga xos bosqichidir. Ular bola ruhiyatining rivojlanishiga, uni shaxsining shakllanishiga, hayot

faoliyatining boshqa jihatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Jinsiy hayotning ko'plab muammolarini nafaqat yoshlarga, balki uzoq vaqt oila qurgan, farzandli bo'lgan katta yoshlilarga ham tushuntirib o'tish lozim bo'ladi, chunki ularda ham shu asosda ko'plab jiddiy nizolar yuzaga kelishi mumkin. Jinsiy munosabatlar masalasi o'ta nozik masaladir, bu borada ko'pincha, «yolg'on», «bachkanalarcha uyatchanlik»ka duch kelinadi. Ba'zi bir ota-onalar va o'qituvchilar hatto maorif rahbarlari ham maktabda jinsiy tarbiya berish masalasiga e'tiroz bildiradilar va «Jinsiy tarbiya, jins masalasiga oid barcha zarur ma'lumotlar biologiya kurslarida berilgan, buning ustiga «ota-bobolarimiz bunday jinsiy savodxonliksiz ham binoyidek yashaganlar», —qabilida mulohaza yuritadilar. Albatta, bunday nuqtai-nazar o'ta qoloq, bugungi kun nikoh-oila munosabatlari talablarini, hozirgi zamon oilasi funksiyalarini hisobga olmay chiqarilgan xulosalardir. Aynan shunaqa yo'llar bilan yoshlarga jinsiy tarbiyadek o'ta nozik va zarur masalalar yuzasidan beradigan har qanday sanitar-gigienik oqartuv ma'lumotlarning ahamiyati butunlay kamsitib kelinmoqda. Bu esa millionlab o'smirlarning jinsiy balog'atga yetishish vaqtida g'aflatda qolishlariga va buning oqibatida ayrim hollarda hayotda tuza-tib bo'lmaydigan xatolarga yo'l qo'yishiga olib kelishiga sabab bo'lmoqda. Hech nima bilan asoslanmaydigan xavotir, hadik, gohida esa haqiqiy vahima zaminida o'smir xulqida turli xil og'ishlar, nerv-fiziologik buzilishlar yuzaga kelishi mumkin. Bularning barchasi sanitar-gigienik tarbiyaning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va jinsiy tarbiya berilmaganligining natijasidir. Bu masala ayniqsa bizning etnosimizda o'ta jiddiy mohiyat kasb etadigan masaladir. Jinsiy tarbiya masalasiga ko'pincha yo alohida e'tibor talab qilinmaydigan va hech qanday qiyinchilikni yuzaga keltirmaydigan, har bir yosh guruhi uchun o'songina o'zlashtirish mumkin bo'lgan, yoki o'ta shaxsiy, intim, ko'pchilik orasida, ayniqsa, bolalar orasida muhokama qilib bulmaydigan masala tarzida qaraladi. Shu kabi mulohazalar qator mamlakatlarda, ayniqsa Sobiq Ittifoqda jinsiy tarbiyaga oid materiallarni, bunga taalluqli tadbirlarni maktab dasturidan chiqarib tashlanishiga asos bo'lgan. Bu o'rinda jinsiy tarbiyani, organizmning faoliyati haqidagi bugungi kunda har bir odam o'zlashtirishi, bilishi zarur bo'lgan sanitar-gigiyenik, psixogigiyenik ma'lumotlar bilan uzviy bog'liq tarzda qaralishi maqsadga muvofiqdir. Oilaviy hayotda esa jinsiy hayot psixologiyasi haqidagi bilimlarga ega bo'lish o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Turli mutaxassislar tomonidan berilgan ma'lumotlarni kompleks tahlil qilgan holda aytish mumkinki, har bir to'rtinchi ajralishgan er-xotinlarda (ajralishlarning 29%ida) jinsiy mutanosiblikning u yoki bu tarzda buzilishi (er-xotinning jinsiy nomutanosibligi) sabab bo'lmoqda. [3] Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muhim ijtimoiy ehtiyoj ekanligini yodda saqlagan holda oilada va ta'lim muassasalarida bu masalaga jiddiy e'tibor berish zarur. Talabalarni nikoh tuzish va nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar haqida xabardor qilish ularni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Eng avvalo, talabani nikoh oldi tibbiyot ko'rigi bo'yicha (oliy malakali mutaxassis shifokor bilan) tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Oila Kodeksining 17- moddasida yosh kelin-kuyovlar nikohgacha ixtiyoriy tarzda tibbiyot ko'rigidan o'tishlari maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlanadi. Bu moddaning mohiyati shundaki, har bir turmush quruvchi shaxs kelajakda ota-ona bo'lishini bilgan holda o'zi tanlagan jufti bilan tibbiyot ko'rigidan o'tishi va o'zining sog'ligi haqida xabardor bo'lishi zarur. Tibbiyot ko'rigidan o'tgan har ikki yosh eng avvalo o'z vijdoni oldida toza bo'lishi masalaning bir tomoni bo'lsa, hali oilani qurmay turib, uning salomatligi haqida qayg'urayotganligi ulardagi sof vijdon va ma'suliyatli munosabatni ifodalaydi.[1] Ayniqsa, bugungi bozor munosabatlari sharoitida oilaning har bir a'zosi sog'lom bo'lishi, yangi tug'ilgan farzandning sog' va salomat katta bo'lishi qanchalik muhim iqtisodiy va ma'naviy masala ekanligini bugungi bozor sharoitida barcha jamiyat a'zolari tushunib etdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga, ularning ilm olish va kasb-xunar egasi bo'lishi uchun ko'gina imkoniyatlar yaratilmoqda. Shuningek yoshlarimizga, oilaviy hayot qurish va uni tashkil etish yuzasidan psixologik bilim va tushunchalarni keng va yetarlicha ma'lumot berish davr talabiga aylanib bormoqda. Chunki sog'lom psixologik muhit qaror topgan oiladagina barkamol va yurt ravnaqiga xizmat qiladigan kelajak avlodni shakllantirish mumkin. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bu masalaga e'tibor qaratushimiz davr talabiga aylanib o'z dolzarbligini amaliy hayot tajribasida ko'rsatmoqda. Shuningdek, talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda nikoh xaqidagi tasavvurlarini boyitish uchun auditoriyadan tashqari tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etish va mutaxassislar, mahalla oqsoqollari, mudarrislarni taklif etgan holda uyushtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabaning oilaviy hayotga axloqiy-psixologik tayyorgarligi, uning bir qator xulq me'yorlarini, talablarni, burchlarni anglab etganligidan dalolat beradi. Zero, oilaviy tarbiya umumiy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lmog'i zarur, busiz sog'lom jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi oila kodeksi. 01.09.1998. <https://lex.uz/acts/-104720>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. <http://lex.uz/docs/-3107036>
3. Oila psixologiyasi: Shoumarov G'.B, Oila psixologiyasi. —T.: «Sharq»,2015. — 296 b
4. Miraxmedov U.M., Raxmatov B.R. Jinsiy tarbiya masalalari, -T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, Matbaa birlashmasi, 1994, 62-bet.
5. Oynisa Musurmonova. Oila ma'naviyati-milliy g'urur. -T.: "O'qituvchi", 2000, 60-bet.

6. Sog'inov.N.A. Yuqori sinf o'quvchilarida oilaviy hayot haqidagi tasavurlarning shakllanishida maktab psixologining roli. «Ta'lim-tarbiya muassasalarida psixologik xizmatni yo'lga qo'yishning nazariy va uslubiy asoslari» muammosi bo'yicha o'tkazilgan viloyatlararo ilmiy-amaliy anjuman ma'ruzalarining qisqa bayoni. Buxoro, 1994. 25-27-b.
7. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" T., «Yangi asr avlodi» 2019, 320 bet
8. Otaxo'jaev F. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi., T., "O'zbekiston", 1995., 164 bet.
9. Unsurul Maoliy Kaykovusning "Qobusnoma" Toshkent, Adabiy-badiiy nashr, 174 bet.
10. Xo'janoyzov T. Oila tarixi va huquq. T., "Adolat", 2006, 16-17-betlar.

Muallif:

Normamatova Nazira Alijon qizi - Guliston davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti.

UDK 372.879.6

IMPROVING THE PHYSICAL QUALITIES OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON INNOVATIVE APPROACHES

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING JISMONIY SIFATLARINI OSHIRISH

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

Носиров Эргаш Шаропович, Захритдинов Алимардон Тажиддинович, Шукуров Акмал Худойкулович

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: ergashnosirov127@gmail.com

Abstract. In this article, the main terms encountered in the scientific and pedagogical activities of the future physical education teacher, the improvement and proper organization of physical qualities, as well as the organization of innovative and technological activities of the future physical education teacher is discussed.

Key words: Physical education, pedagogical activity, pedagogical skill, innovative activity of the future physical education teacher, creativity, technological approach.

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchisi ilmiy pedagogik faliyatida uchraydigan asosiy atamalar, jismoniy sifatlarni oshirish va to'g'ri tashkil etish shuningdek, bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovatsion va texnologik faoliyatini tashkil qilish xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovatsion faoliyati, kreativlik, texnologik yondashuv.

Введение. Одним из приоритетов политики нашей страны является воспитание физически и психически здорового поколения. Потому что сегодня, в условиях усиливающихся в странах мира глобализационных процессов, воспитание высоконравственного и физически здорового поколения является одним из важнейших факторов, определяющих будущее нашей страны и реализующих благородные цели нашего народа. В ходе реализации этого доброго дела созданы его правовые основы, ведется большая работа. В частности, Постановление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева от 3 июня 2017 года «О мерах по развитию физической культуры и массового спорта» № Указ № ПФ-5368 «О мерах по коренному совершенствованию системы управления». «имеет особое значение в дальнейшем развитии этой области. Одной из основных целей этих указов и постановлений является дальнейшее углубление теоретических и практических знаний в этой области, правильное формулирование понятий и терминов навыков и квалификации, связанных с физическим воспитанием.

Действительно, в условиях, когда процессы глобализации становятся все более интенсивными, в этой связи приобретает все большее значение внимание, уделяемое учителям физического воспитания, которые принимают непосредственное участие в общей и специальной физической подготовке молодежи. Ведь одна из их важных услуг состоит в том, чтобы направить студентов на образовательные, культурные, медицинские, промышленно-строительные и производственные профессии, а во-вторых, они служат в известной мере вооружению их специальной физической подготовкой. Сегодня от учителей, обучающих молодое поколение, требуется в полной мере владеть современными инновационными технологиями, обладать навыками разумного использования информационно-коммуникативных средств, знать все секреты воспитания. При изучении вопросов, связанных с научно-педагогической деятельностью будущих учителей физического воспитания, целесообразно проанализировать содержание и сущность понятий, связанных с этим явлением. В частности, мы видим, что само понятие «физическое воспитание» имеет несколько определений. «Физическое воспитание – это педагогический процесс, направленный на морфологическое и функциональное совершенствование организма человека,

формирование и совершенствование основных двигательных навыков, навыков и связанных с ними знаний, важных для его жизни» [3]. Даны такие определения, как «Физическое воспитание, направленное на всестороннюю тренировку организма, воспитание, направленное на укрепление здоровья, физические упражнения» [13].

В мире большое значение придается вопросу воспитания молодежи, их достойного занятия, реформирования системы образования и повышения уровня подготовки национальных кадров до современного уровня. Как заказ государства для педагогического высшего образования, динамика социально-экономических процессов, психолого-дидактические проблемы подготовки будущего учителя физической культуры к науке, инновационный подход к образовательному процессу и практическое применение профессионально-педагогического направления в преподавании предмета физического воспитания информация приобретает приоритет.

В мире проводится широкий спектр работ по подготовке педагогических кадров с физическими качествами в соответствии с современными требованиями, разработке моделей повышения профессиональной подготовки будущих учителей физической культуры, созданию профессиональной системы и ресурсов электронного обучения. Также ощущается необходимость в "совершенствовании процесса и средств оценки качества образования, и определять достигнутые результаты в практику",

Указ Президента от 29 апреля 2019 под номером-ПФ-5712 "Концепция по развитию системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года", Указ Президента от 8 октября 2018 года под номером-ПФ-5847 об " Утверждении концепции по развитию системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года", Указ Президента от 2019 года 13 февраля под номером-118 решение ратифицировано "2019-2023 гг. физическое воспитание и спорт концепция, акт, меры, директивы Республики Узбекистан, а также, под управлением Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева введение в центр внимания 5 инициатив молодёжи, поколение культуры, искусства", все данные отрасли отмечены нормативно-правовым законодательством Республики.

Организация и обновление содержания физического воспитания в общеобразовательных школах нашей страны на основе современных требований, интеграция системы непрерывного образования с наукой и производством, дальнейшее совершенствование системы высших учебных заведений в направлении педагогики, повышение физических качеств в профессиональной деятельности конкурентоспособного учителя является одним из основных направлений деятельности. В Узбекистане было определено в качестве приоритетной задачи "продолжить путь дальнейшего совершенствования системы непрерывного образования, расширить возможности для предоставления качественных образовательных услуг, повысить уровень квалификации учителей и специалистов; радикально улучшить качество общего среднего образования, преподавать предметы с высоким спросом, таких, как биология, физическое воспитание, углубленным образом. В результате важно разработать методику повышения физических качеств будущих учителей физической культуры на основе передового зарубежного опыта.

В то время, когда в нашей стране закладывается фундамент "третьего Возрождения", осуществляются реформы в области образования и радикально модернизируется система образования, проблема повышения качества подготовки специалистов этой сферы становится все более актуальной. В этой связи президент нашей страны "в настоящее время переживает еще один важный процесс пробуждения в нашей стране. Поэтому слова "Новый Узбекистан" и "Третий Ренессанс" гармонично звучат в нашей жизни и вдохновляют наш народ на достижение целей". Подготовка учителей физической культуры, отвечающих требованиям рынка труда и работодателей в условиях Нового Узбекистана, модернизация процесса квалификационной практики, создание и внедрение национальных и региональных моделей, ее организация требует углубленного изучения проблемы научным сообществом.

РЕЗУЛЬТАТЫ. Следует отметить, что каждый будущий учитель физкультуры всегда занимается обучением и воспитанием учащихся и взаимодействует с ними параллельно с предоставлением обучающимся физических упражнений. Поскольку каждый ученик постоянно развивается умственно, духовно и физически, будущий учитель должен находиться с ним в постоянном общении, учитывая каждый его психологический характер и физиологические особенности, механизмы воздействия. в совершенстве владеет теорией психологии и педагогики и постоянно развивает свою профессиональную деятельность. С этой точки зрения, мы считаем, что будущим учителям физического воспитания в ходе своей научно-педагогической деятельности следует обратить особое внимание на следующее: в совершенстве владеть системой знаний по физическому воспитанию; иметь навыки и квалификацию для полноценного выполнения физических упражнений обучающимися; знание основ общепедagogических наук, в частности, актуальных вопросов государственной политики, наряду с овладением собственной наукой; способны самостоятельно анализировать социальные проблемы и происходящие вокруг них процессы со своей точки зрения; приобретение знаний о духовном облике студентов в ходе образовательного процесса; способность студентов применять современные педагогические и психологические знания с учетом их

возрастных особенностей; способен самостоятельно приобретать новые знания, совершенствовать их и использовать в своей работе на научной основе; иметь возможность самостоятельно использовать нормативные правовые документы в своей научной и педагогической деятельности; соблюдение культуры вопроса; способен анализировать полученные знания на основе критического подхода; способен доходчиво донести до учащихся полученные знания; формирование чувства ответственности за свою профессию; овладев одним из иностранных языков как профессиональной квалификацией или средством обмена научным общением в ходе педагогической деятельности; умение эффективно использовать современные информационные технологии; умение использовать современные педагогические технологии в педагогической деятельности и т.д.

Также будущие учителя физкультуры должны в совершенстве владеть терминами физической культуры, используемыми в своей педагогической деятельности. Разумеется, использование терминов преподавателем в понятной, ясной и уместной форме оказывает непосредственное влияние на качество физической подготовки учащихся. Фактически, мы все сегодня используем термины физической культуры в нашей повседневной жизни. Мы можем встретить их и столкнуться с ними практически по всем предметам в образовательных учреждениях. Следует отметить, что «сегодня в мире существует более 15 000 понятий и терминов, характерных примерно для 300 видов спорта» [10]. Будущие учителя физкультуры должны уметь глубоко, выразительно, логично, красиво использовать фразы воспитательного значения в процессе работы с учащимися в своей педагогической деятельности. Не следует забывать, что речь учителя является источником примера для каждого ученика, даже если он неосторожно провоцирует его гнев и нарушает дисциплину, но не грубым обращением, оскорблениями, унижениями, затрагиванием его личности, а должен иметь возможность выйти из ситуации с позитивным подходом. Пока учитель ведет урок, его голос должен быть инструментом управления аудиторией. При объяснении упражнений, связанных с физкультурой, он должен уметь повышать и понижать голос в нужном месте, чтобы указать, на чем следует сделать акцент учащимся.

Литература:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шахкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т. “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б.19-20.
2. Абдуллаева Ш.А., Хуррамов Э.Э. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини инновацион фаолиятга тайёрлаш // Замонавий таълим / Современное образование. 2016. № 5. – Б.15-16.
3. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. Ўқув кўлланма. Т., ЎЗДЖТИ, 2005. 12-б.
4. Карнеги Д. Икромлик – мағлубият эмас. Санъат журнали. Т.: 2009. 28-б.
5. Мамашокиров С. Ваҳимами ёки ҳақиқат. “ИҚТИСОД-МОЛИЙА”, 2012, -192 – б.
6. Муслимов. Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / – Тошкент, 2015.
7. Ожегов С.И. Словарь русского языка. – Москва: «Русский язык», 1984. – С. 692.
8. Педагогик атамалар луғати. Муаллифлар гуруҳи. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти. – Т.: 2008. – Б.64.
9. Педагогик атамалар луғати. Муаллифлар гуруҳи. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти. – Т.: 2008. – Б.130.
10. Рафиев Ҳ.Т. Жисмоний маданият соҳасидаги тушунча ва атамаларнинг баъзи муаммолари // Жисмоний тарбия ва спорт назарияси ва услубияти ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари мавзусидаги халқаро илмий анжуман материаллари.- Чирчиқ, 2019. – Б. 49.
11. Раченко И.П. Диагностика развития педагогического творчества учителя. - Пятигорск, 1992,196 с.
12. Сухомлинский В.Д. Болаларга жоним фидо. - Т.: Ўқитувчи, 1984,254 б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 95-б.
14. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. –Тошкент, 2014. –Б. 1066.

UDK 372.8

TEACHER'S PEDAGOGICAL SKILLS

O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАВЫКИ УЧИТЕЛЯ

Rasulova Zohida Sindarovna, Norboyeva Sayyora Muratovna

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: rasulovazohida2024@gmail.com

Abstract. The new Uzbekistan requires the education of comprehensively developed youth who have formed their own views, have a broad worldview, are creative, capable, able to apply the acquired knowledge in life in accordance with the requirements of the time, and hardworking, cultured and have positive qualities. This article describes the work of an experienced teacher.

Key words: system, skill, project, psychological characteristics, training, criteria, oral speech, requirements.

Аннотация. Новый Узбекистан требует воспитывать всесторонне развитую молодежь, сформировавшую свои взгляды, обладающую широким мировоззрением, творческую, способную, умеющую применять полученные знания в жизни в соответствии с требованиями времени, трудолюбивую, культурны и обладают положительными качествами. В данной статье рассказывается о работе опытного педагога

Ключевые слова: система, навык, проект, психологические характеристики, обучение, критерии, устная речь, требования.

Kirish. Hozirgi kun o'quvchilarini XXI asr talabiga mos o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish bilan bir qatorda ta'limni ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, qaror qabul qila olish, tanqidiy-tahliliy fikrlarni og'zaki nutqida bayon eta olish kabi xususiyatlarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Ushbu mezonlar orqali Yangi O'zbekistonga o'z qarashlari shakllangan, dunyoqarashi keng, ijodkor, qobiliyatli, egallagan bilimlarini hayotga tadbiiq eta oladigan davr talabiga mos yashash, mehnat qiladigan, madaniyatli, ijobiy fazilatlariga ega bo'lgan barkamol yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish talabini qo'ymoqda. Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek, "Najot-ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi" [1].

Davr talabiga mos kadrlar tayyorlashda maktabning o'rni katta ekanligi hammamizga ma'lum. Shuning uchun ham maktabda darsga alohida ahamiyat qaratiladi va o'qituvchining yurt g'oyalari asosida dars tashkil etish va o'tishi talab etiladi. Uzoq davrlar mobaynida dars jarayonini tashkil etish nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lsada, uni amalga oshirishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy nazariyalariga ko'ra: o'quvchiga eshittirish, ko'rsatish, amalda bajarish, his ettirish qoidalari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanishi aytib o'tilgan [2].

Jamiyatimizdagi global o'zgarishlar tufayli ham o'qish metodikasiga nazariy va amaliy jihatdan davr talabiga mos darsni tashkil qilishni talab etmoqda. Shuning uchun ham, taniqli olimlar, metodistlar, ijodkor o'qituvchilar bugungi dars qanday b o'lishi kerak, u oldingi o'tilgan darsdan nimasi bilan farq qilish lozim degan savolga javob qidirmoqda. Shundan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonining mazmuni ham yangilanadi, maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatiga, o'quv jarayonini tashkil etishga e'tibor kuchayadi. Mahoratli o'qituvchining dars olib borish tartibi quyidagilarni o'z ichiga olsa, maqsadga muvofiqdir:

- sinfda mustaqil (erkin) psixologik muhit, o'qituvchilarga hurmat-ehtiroim, ishonch va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish;
- o'quv faoliyatining oliy motivini keltirib chiqarish, faqat o'quvchilarga o'quv materialining ahamiyatini bildirib qolmasdan, ularga bilim olishning o'qituvchi tomonidan taklif qilingan metodlarga e'tiborni qaratish;
- o'quvchilarni bilim olishini kafolatlovchi ishonchli metod va usullar bilan tanishtirish boorish, tadbiiq etish:
- darsni o'quvchilarning mustahkam bilim olishga yo'naltirish
- o'quvchilarga kasbga oid bilimlar hosil qilish.

Mahoratli o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan muayyan holatda tursagina pedagogik ta'sir ko'rsatishni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi. Buning uchun ham pedagogik faoliyatni chuqur bilishi, kasbini sevishi, davr talablariga ongli munosabat bildiradi olishi, o'quvchilar psixologiyasini anglay olishi, o'zini boshqara bilishi zarur hisoblanadi. Demak o'qituvchi juda keng ma'noda mahoratli bo'lishi zarur hisoblanadi. Pedagogik mahorat nima? Uni qanday egallash mumkin?

Boshlang'ich sinflarda faoliyat olib boradigan o'qituvchi tashkilotchi bo'lib maydonga chiqadi. Pedagog kichik yoshdagi o'quvchilar hayotiga ta'sir ko'rsatishning asosiy mazmuni uni tashkil etish zarurati bilan belgilanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar jamoasida talabchan va quvnoq tashkilotchi bo'lish zarurdir. Bu ham mahoratli o'qituvchilik sari bir qadam qo'yish demakdir. Chunki o'quvchilarni bir g'oya asosida birlashtirish, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini hosil etish, ularning yashirin va oshkora qobiliyatlarini bilish, bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini amalga oshiruvchi jarayon paydo qilish, ular orasida o'zaro hayrixohlik gamxo'rlik, bir-birini tushunish vaziyatini vujudga keltira oladigan pedagoglarga mahoratli so'ziga ega bo'ladilar, katta obro-e'tibor qozonadilar. Bolalar bunday tashkilotchi pedagoglarni o'z do'stlari deb qabul qilishga moyil bo'ladi. Chunki bolaga qanchalik yaqinlashsa, uni tushunsa, muammolarni birgalikda yechim topib bersa, o'zaro hurmat paydo bo'ladi. Pedagog mahoratli bo'lishi uchun vaqtini va vaziyatni kutib o'tirishi shart emas, buni o'qituvchi o'zi anglashi, o'quvchilar bilan doimiy muloqot o'rnatishi, ularning hayotiga kirib kelishi, oilaviy ahvolini bilishi, o'zaro munosabatni to'g'ri yo'lga qo'ya olishi zarur hisoblanadi. Bunday munosabat eng yaxshi munosabatdir, chunki u katta yoshdagi kishiga tashkilot vazifalarni hal etishga yordam beradi.

O'quvchilar jamoasi bilan muomala ko'pincha suhbat ma'ruza, axborot shaklida bo'ladi. Birinchi navbatda suhbatni qanday boshlashi, ularning qiziqishlarini oshirish gapirib o'tamiz. Jumladan, mavzuga diqqat tortishi, uni tushuntirish, tahlil qilishi mumkin. Bunda o'qituvchi suhbat olib borayotganda ancha qisqa, lekin yetarli aniq qilib ochib berish vazifasi turadi. Har qanday suhbat bolalarni qiziqitira olishi lozim. Agar suhbat mavzusi ularning faoliyatidagi vaziyatlardan kelib chiqib, tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quvchilarning tasavvuri uyg'otilsagina mustaqil

fikr paydo bo'ladi. Belgilangan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uchun ham ularning holatidan kelib chiqilsa maqsadga muvofiqdir. Mahoratli pedagog har qanday vaziyatdan unumli foydalanish, o'quvchilar bilan munosabatni to'g'ri olib bora olish, oilalar bilan doimiy munosabatda bo'lish, darslarni qiziqarli tashkil etish, loyihalashtira olishni bilishi zarurdir. Bolani to'g'ri yurishga har qanday ona osonlik bilan o'rgatish mumkin, lekin fikrlashi uchun sharoitni faqat mahoratli pedagoggina yarata oladi: bolaga fikrlashni butun hayoti davomida atrofdegilar o'rgatadi. Bolaga nimanidir o'rgatish, shuningdek mustaqil fikrlashga o'rgatish ham uning shaxsiga katta-diqqat e'tibor talab qiladi.

O'quvchilardan mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun bilimlarni o'zlashtirish jarayonini mahoratli o'qituvchi shunday tashkil etish lozimki, bu jarayonda mashq qildirib qolmasdan, masalalarini mustaqil yechish qobiliyatini rivojlantirishi, mustaqil fikrlashga ham o'rgatib borishi lozim. Chunki Sharq mutafakkirlaridan Abu Ali ibn Sino bolalarga avval *mashq qildirish, odatlantirish, rag'batlantirish* orqali maqsadga erishish mumkinligini ham aytib o'tganlar [3].

Mahoratli pedagog har doim o'quvchilarni muammoga, muammoli vaziyatlarga olib keladi. Agar o'quvchi bir necha urinishlardan so'ng, o'qituvchining aytib berishini kutmasdan, bunday vaziyatdan chiqish yo'lini mustaqil topsa, u aqliy taraqqiyotga katta qadam qo'ygan bo'ladi. Chunki ta'lim faqat bilim berishdan iborat emas, balki o'quvchilarni hatti-harakatga keltirish ham demakdir [4].

Mahoratli pedagog har bir umumiy haqiqatni mustaqil tekshirib ko'rishga o'rgatadi, o'quvchiga umumiy haqiqat bilan yagona fakt orasidagi qarama-qarshilikni hal qilishga vaziyat yaratib bera oladi, yordamlashadi. Ana shu usul bilan o'quvchida fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish mumkin, faqat shu yo'l bilan mustaqil fikrlaydigan, g'oyaviy chiniqqan, keng dunyoqarashli, e'tiqodli, komil insonlarni tarbiyalash mumkin. Har bir o'qituvchi o'z ustida ishlashi, fikrlashni o'rganib borishi zarurdir [5].

Xulosa qilib aytganda, inson o'zi bajara olmaydigan narsalarni boshqarishga o'rgata olmaydi. Maktab muassasasi fikrlashga o'rgatishi zarur, - bu esa o'qituvchining o'zi fikrlashga o'rganishi zarurligini anglatadi. O'qituvchining har bir darsni o'tkazishini haqiqiy san'atkor biron badiiy obrazni mukammal yaratishga qiyoslash mumkin. Iste'dodli aktyor ham mukammal obraz yaratishi uchun o'z rolini juda ko'p takrorlaydi, uni sahnada namoyish etadi. U har gal shu obrazni xarakterining qandaydir noma'lum qirralarini topadi va ularni har safar sahnaga chiqqanda o'sha obrazda mujassamlashtirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham aktyor bir rolni qayta-qayta o'ynaganda uni aynan takrorlamaydi, balki tobora mukammalashtirib boradi. Aslida ijodkor o'qituvchi ham mavzuni aynan takrorlamasligi, uning qandaydir jihatlarni boyitib, takomillashtirib borishi, islohot olib bora olishi lozim. Zero, ijodiy izlanish har bir sohada muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. O'qituvchi fan asosida muammolar yaratishi, shu asosida ijobiy, salbiy tomonlarini ochib beruvchi sharoit yaratishi, muammolarning yechimlarini turli yo'llar bilan topishga ko'maklashishi, ijodiy sharoit yaratishni bilishi zarurdir. Ana shu uch muammoni birgalikda yechish jarayonida o'qituvchi yuqori kasbiy mahorat egasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022.
2. Yan Amos Komenskiy. Buyuk didaktika. – T.: O'qituvchi, 1966. – 416 b.
3. Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf / Taqdirar, hikmatlar, aforizmlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2013. – 398 b.
4. Ruvinskiy L.I. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T, 1991. – 144 b.
5. Suxomlinskiy V. Bolalarga jonim fido. -T.: O'qituvchi, 1984. – 254 b.

Mualliflar:

Rasulova Zohida Sindarovna, Guliston davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim uslubiyati" kafedrasida katta o'qituvchi.

Norboyeva Sayyora Muratovna, Guliston davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim uslubiyati" kafedrasida katta o'qituvchi.

UDK 372.879.6

PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF SPORTS AND HEALTH IMMUNITY IN STUDENTS

TALABALARDA SPORT VA SALOMATLIK IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ СПОРТИВНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ИММУНИТЕТА У СТУДЕНТОВ

Qayumov Shohruh Abdualol o'g'li

Jizzaax davlat pedagogika universiteti 130100. Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy.

E-mail: shohruh_qayumov@mail.ru

Abstract. In the world, importance is being attached to the issue of education and training of young people, their acquisition of suitable professions, reform of the education system and raising national personnel training to the level of modern requirements. In the concept for 2030 adopted at the World Forum on Educational Problems, "Improving the process and means of evaluating the quality of education, and implementing the mechanisms that allow to determine the

achieved results" is defined as a priority task. In higher education institutions, it is recommended to carry out systematic work on improving the development of sports and health immunity in students, and to carry out large-scale work on the creation of electronic educational resources in this regard. This gives priority to the practical application of professional-pedagogical orientation of pedagogical strategies to the educational process in eliminating the psychological-pedagogical and didactic problems of the future physical education teacher's preparation for science.

Keywords: Healthy lifestyle, innovation, student, sports, immunity, development, pedagogy, strategy, Olympics, work, nature

Аннотация. В мире придается большое значение вопросам образования и воспитания молодежи, приобретения ими достойных профессий, реформированию системы образования и повышению подготовки национальных кадров до уровня, требуемого временем. В концепции до 2030 года, принятой на Всемирном форуме по проблемам образования «совершенствование процессов и инструментов оценки качества образования, внедрение в практику механизмов, позволяющих вывить достигнутые результаты» приоритетной задачей определено обеспечение подготовки педагогических кадров в соответствии с требованиями времени, в частности, Рекомендовано провести системную работу по повышению развития спортивно-оздоровительного иммунитета в высших учебных заведениях и провести в этой связи масштабную работу по созданию электронных образовательных ресурсов. Это отдает приоритет практическому применению профессионально-педагогической направленности педагогических стратегий в образовательном процессе при устранении психолого-педагогических и дидактических проблем подготовки будущего учителя физической культуры к науке.

Ключевые слова: Здоровый образ жизни, инновации, студент, спорт, иммунитет, развитие, педагогика, стратегия, Олимпиада, работа, природа.

Kirish. Salomatlik – inson kamolotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, shaxsning hech kim dahl qila olmaydigan huquqi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiy va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi garovidir. Ma‘lumki, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o‘ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. [3]. Millat salomatligini ta‘minlash, xalq genofondini bekamu-ko‘st saqlash sog‘lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o‘quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta‘lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog‘lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Sog‘lom turmush tarzi bu faol mehnat, ijod og‘ushida yashash, kuchli jismoniy va ruhiy yuklamalarni, o‘ta xavfli va zararli ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni yengil ko‘tara oladigan har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidir. Talabalar o‘rtasidagi o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalaridan kelib chiqib, oliy o‘quv yurti talabalari bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, kun tartibi, dam olishga va mehnat tartibiga rioya etishi sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. [4].

Tadqiqot ob'ekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarini innovatsion tizimlar asosida rivojlantirish jarayoni tanlangan. Tadqiqot mavzusini yoritishda takomillashtirishning mazmuni, shakl, metod, kontekstual, kompleks va funksional tahlil vositalari tashkil etadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Dunyoda bugungi kunda o‘qituvchilar va talabalarda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishning pedagogik asoslari hamda pedagogik aspektlari, uni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish, aynan bo‘ljak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va talabalarining kasbiy sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik shartlari, texnologiyalarni joriy etish muammolari doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga katta ahamiyat berilmoqda. [5]. Rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan mazkur tadqiqotlar o‘qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirish mezonlari, uni tarkib toptirishning ijtimoiy, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik strategiyalari shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishda ilmiy-nazariy hamda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizda “Uchinchi Renessans” poydevori qurilayotgan, ta‘lim sohasida islohotlar amalga oshirilayotgan hamda ta‘lim tizimi tubdan modernizatsiya qilinayotgan bir davrda ushbu soha mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish muammosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Prezidentimiz “Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda” deb ta’kidlagan edi. Shu ma’noda oliy ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya daslarini zamon talablari asosida tashkil etish va mazmunan yangilash, pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalari tizimini yanada takomillashtirish, salomatlik immunitetini rivojlantirish jamiyat talablarining asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanmoqda. [6]. Yangi O‘zbekiston sharoitida mehnat bozori hamda ish beruvchilar talablariga javob beradigan jismoniy tarbiya

o'qituvchilarini tayyorlash, malakaviy amaliyot jarayonini modernizatsiyalash, uni tashkil etish bo'yicha milliy va hududiy modellarni yaratish hamda amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqur tadqiq qilinishini taqozo etadi.

Har qanday shaxsning o'zi tanlagan sohasi bo'yicha yuqori malakali, mahoratga ega mutaxassis sifatida shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, unga ko'p yillik samarali mehnat, ijodiy izlanishlar natijasidagina erishish mumkin. Biroq mazkur sifatlarning shakllanishi uchun zamin oliy o'quv yurtlaridagi tahsil olish jarayonida yaratiladi. Jumladan, Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda sportga qiziqirish, sport va salomatlikni takomillashtirishda mutaxassislikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda pedagogik-psixologik fanlar doirasida nazariy va amaliy bilimdonlikning shakllanishi ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizdagi turli sohalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish, dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun aynan mazkur salomatlikni rivojlantirishni shakllantirishga pedagogik strategiyalarni olib chiqishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi PF-6099-son Farmoni ham Jamiyatimizda "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida Sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi: har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishga shart-sharoitlar yaratish; ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o'rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o'tkazish; aholi turli guruhlarining sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, tarkibida tuz, qand va yog' miqdori ko'p bo'lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini iste'mol qilishni qisqartirish, zararli odatlardan, xususan, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishdan voz kechish yo'li bilan kasallikka chalinish, ortiqcha vazn holatlari (semizlik) va bevaqt vafot etishni kamaytirish; aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini keng targ'ib qilish, shu jumladan, tartibsiz va kechki uyqu oldidan ovqatlanish odatlaridan voz kechish; sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishini oilalar, mahallalar, maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalari darajasida sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida targ'ib qilish; maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida, korxonalar, tashkilot va boshqa turdagi barcha muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish. [10].

Buning barchasini qamrab olgan holda Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarini amaliyotga tatbiq etish chora-tadbirlari tashkil etildi.

Oliy ta'lim tizimida talabalar o'quv faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga mos yuqori ilmiy-ijodiy salohiyatga va yuksak ma'naviyatga ega yetuk kadrlarni tayyorlashdir. Shu ma'noda Sog' tanda sog'lom aql, Sog'lom hayot uchun bir qadam kabi kasbiy muammolarni hal eta olishga qodir, yuksak salohiyatli yetuk mutaxassslarni tayyorlash oliy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassis qatorida sog'lom bo'lishi, kuchli ruhiy bosimda ishchanlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi. Sport va salomatlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik'ni anglatadi. Salomatlikning pedagogik strategiyalari jismoniy tarbiya o'qituvchisi tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini va har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. [8].

XULOSA

Zamonaviy ta'limda innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarining asosiy negizini quyidagi sifat ko'rsatkishlari tashkil etadi: psixologik-pedagogik bilimlari, kasbiy tayyorgarligi, oliy ta'limning me'yoriy huquqiy hujjatlarini mukammal bilishi, mohiyatini tushunib yetgan xolda amalda qo'llay olish layoqati shakllanganligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, shuningdek, elektron ta'lim resurslaridan to'liq foydalana olishi kabi sifatlar kasbiy tayyorgarlikda namoyon bo'lishi, shuningdek Talaba qiziqishlari, moyilliklari, layoqati va ta'lim muassasalari ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish kabi kasbiy kompetentlikni takomillashtirish yaxlit pedagogik jarayon asosini tashkil etadi va mazkur jarayonni amalga oshirish talab etiladi.

innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalarini takomillashtirishda jismoniy tarbiya va ushbu fanni o'qitish metodikasini integratsiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish maqsada muvofiqdir. Har bir talabaning innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida fundamental bilimlarni egallashiga, aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish, har bir talabada shaxsiy va kasbiy kompetentlikni takomillashtirish bo'yicha o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat va qat'iyatlilik hissini rivojlantiradi. [9].

Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari nafaqat Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi hamda butun oliy ta'lim muassalaridagi barcha talabalarni kasbiy layoqatligining mazmuni uni tarbiyalash jarayoni doirasida bo'lajak kasbiy faoliyat maqsadlari, vazifalari bilan aniqlanadi. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisini mazkur faoliyatni amalga oshirishda nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorlash va uning bu jarayonga tayyorligi birligidan iborat bo'lib, u moddiy, ijtimoiy, yani, o'quv fanini o'qitish texnologiyasi loyihasida o'z ifodasini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori" 2015. 4-b.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637, 2020 yil 23 sentabr.
3. Sh.M.Mirziyoevning oliy majlisga murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi. 2020 yil, 25 yanvar, 19(7521)-son.
4. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 6 noyabrda PF-6108-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevraldagi 118-son qarori bilan tasdiqlangan "2019-2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi" //lex.uz// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.02.2019 y., 09/19/118/2612-son;
6. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son farmoni.
7. Sh.M.Mirziyoevning "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 2019 yil 27 avgustagi PF-5789-soni farmoni.
8. Sh.A.Qayumov "Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvi" Monografiya. T.: Ziyochashmasi. 2023. 109 b.
9. Sh.A.Qayumov "Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion yondashuv" Monografiya. T.: Ganjina. 2021. 144 b.
10. Sh.M.Mirziyoevning "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida 30.10.2020 yildagi PF-6099-soni farmoni.

Muallif:

Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li - Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti, p.f.f.d.(PhD).

UDK 372.815.99

THE ROLE OF SOCIAL NORMS AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY

OILADA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOY ME'YORLARNING O'RNI VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ НОРМ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В СЕМЬЕ

Qahharova O'g'loy Adhamjon qizi

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: qahharova2024-1@gmail.com

Insonning psixologik xavfsizlikning eng muhim xususiyatlaridan biri mustahkamlik va moyillikdir, chunki u odamlarning turli huruj va ekstremal holatlarga bogʻliqligini va shuningdek, vaziyatdan chiqish yoʻlini topish uchun qisqa vaqt ichida yordam beradigan toʻgʻri qarorlarni qabul qilish qobiliyatiga ega. Talaba-yoshlarda Psixologik xavfsizlik tushunchasi odatda shaxsning xususiyatlaridan biri sifatida tushuniladi, uni himoya qilish darajasini tashqi dunyodan unga yoʻnaltirilgan turli xil salbiy va halokatli omillardan xarakterlaydi. Shaxsiy daxlsizlikning psixologiyasi, birinchi navbatda, insonning farovon aqliy holatining zarur darajasiga bogʻliq boʻlib, u oʻzining professional va ijtimoiy funktsiyalarini oʻz hayoti uchun qoʻrqmasdan va uning rivojlanishining salbiy oqibatlaridan qoʻrqmasdan amalga oshirishi mumkinligi bilan bogʻliq vaziyatni his qiladi. [6]

Psixologik maʼlumotlarga koʻra, individning axborot-psixologik himoyasi shu qadar murakkab jarayonki, bu borada oila, mahalla, ishlab chiqarish jamoasi, doʻstlar davrasi, jamiyat va davlatning kuch-gʻayratini birlashtirish talab etiladi. Insonning psixologik xavfsizlikning eng muhim xususiyatlaridan biri mustahkamlik va moyillikdir, chunki u odamlarning turli xuruj va ekstremal holatlarga bogʻliqligini, shuningdek, vaziyatdan chiqish yoʻlini topish uchun qisqa vaqt ichida yordam beradigan toʻgʻri qarorlarni qabul qilish qobiliyatiga ega.

Talabalarda axborot – psixologik imunitetni hosil qilishda quyidagi omillarni rivojlantirish zarurati mavjud: talabalarda vatanparvarlik, sadoqat, milliy oʻzlikka xos tushunchalarni boyitish shakllantirib borish; huquqiy, axloqiy meyorlarga rioya etish va axborot xavf omili uning zarurati haqida shakllantirib borish; internetga tobelikning psixologik taʼsiri sogʻlom turmush tarziga amal qilish; internetga tobelik, mobil telefonlarga tobelik, kompyuter oʻyinlarining psixologik mohiyati; mamlakatimiz va dunyoda roʻy berayotgan voqealarga toʻgʻri munosabatlarni shakllantirish; axborot isteʼmoli madaniyatini shakllantirish haqida bilimlar berib borish; sharq allomalarining buyuk meroslari axloqiy jihatlarning talaba-yoshlarga muhim zarurati; oʻquvchilarning mustaqil jobiy ishlari orqali milliy anʼanalarimizni rivojlanishiga hissa qoʻshuvchi kasb-hunarga oʻrgatuvchi sanʼat turlarini egallashga moyillik tuygʻularini shakllantirib borish; hozirda oʻquv-tarbiya muassasalari xilma-xilligidan kelib chiqib ular oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik yoshlar kamolotini taʼminlovchi taʼlim-tarbiyaviy shartnoma va kelishuvlar asosida hamkorlikda yagona pedagogik jarayonni mazmunan boyitish; Oʻquv -tarbiya muassasalari, ota – onalar va jamoatchilik hamkorligini amaliy jihatdan yuqori saviyada olib borishga erishish.

Talaba yoshlarning goʻzallikni his etish koʻnikmalarini tarkib toptirish orqali maʼnaviy muhofaza qila olish imkonini yarata olish omilidir. Yoshlarga oid davlat siyosatining qabul qilinganligi va bu huquqiy asos orqali yoshlari psixologik qoʻllab quvvatlash yosh avlodga yetarli ish shart-sharoitlarini taʼminlash kabi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar ham ularning kelgusida munosib hayot kechirishlari uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Axborot psixologik xavfsizlik nafaqat psixologiyada balki, pedagogika, sotsiologiya, falsafa, axloqshunoslik, madaniyatshunoslik, dinshunoslikda turlicha talqinda oʻrganilmoqda. Axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantiruvchi muqaddas kitobimiz “Qurʼoni Karimda” “Hadis” ilmida, tarixiy manbalarda “Avesto”, qadimgi yozma yodgorliklar, ajdodlarimiz Kaykovus [9], Y.X.Hojib, A.Yassaviy, A.Farobiy [8], A.Beruniy, A.Navoiy, H. Koshifiy, B.Naqshband, tomondan yozib qoldirilgan ilmiy falsafiy asarlar, taʼlimotlarida oʻz aksini topgan.

Ayniqsa ochiq axborot tizimlari sharoitida axborot psixologik xavfsizlik xorijda va mamlakatimizda turli yondashuvlar asosida oʻrganilgan. Gʻarb psixologlaridan L.Terman, R. Veys, E.Tiyd, G. Roland, Y. Burgess, M.Odema, P. Boennanlar etnik munosabatlarning psixologik talqinini ochib berishgan boʻlsa, K.Yang, A.Goldberg, M. Griffist, R. Devis, J.Groxol, K. Surrat, P.Shumaxer, J.Moreyxen-Martinlar shaxsnining axborot psixologik xavfsizligiga xususiy yondashib, “internet-tobelik” tushunchasini izohlab berishgan.[3]

Oʻzbekistonlik faylasuf, sotsiolog, pedagog siyosatshunos olimlari Q.Nazarov [10], V. Alimasov [11], A.Erkayev [12], G.Tulenova [7], kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tarixiy milliy qadriyat shakllanishi, milliy ong vatan

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

tuyg'usini ongli his qilishga munosabatning yuzaga kelishi va "ommaviy madaniyat"ning salbiy omillari haqida to'xtalib o'tadilar.

Hozirgi vaqtda o'smirlik davriga oid axborot-psixologik xavfsizlik muammosini o'rganish yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, Ommaviy madaniyat ta'sirlardan himoya qilishning turli usullari sifatida, internet- tobelik muammosi, shaxs xulq-atvorining shakllanishida OAV ning ta'siri kabi o'nlab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda O'smir yoshdagi o'quvchilarda kompyuter o'yinlariga tobelikka oid tadqiqotda psixologik yetuklik asosida yondashilib, 46% o'smir psixologik yetuklikning quyi darajasida, 15 % yuqori darajasi qayd etib o'tilgan. Sinaluvchilar bilan suhbatda ular o'yin emas tengdoshlar orasidagi nufuzi muhim ahamiyatini ta'kidlashgan.[5]

Bugungi kunda axborot xurujlarining turli xususiyatlarini inobatga olgan holda, quyidagi tartibda ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq: 1. Xalqaro terorizm; 2. Diniy ekstremizm; 3. Narkotrafik; 4. Qurol-yarog' va o'q-dorilar kontrabandasi; 5. Kompyuter firibgarligi; 6. Transplantatsiya uchun inson tana a'zolarining noqonuniy savdosi; 7. Qimmatli qog'ozlarni qalbakilashtirish va noqonuniy daromadlarni legallashtirish; 8. Transmilliy uyushgan jinoyatchilik; 9. Noqoniy migratsiya; 10. Missionerlik va prozelitizm harakati [6].

Ochiq axborot tizimlarining turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Mamlakatimizning 60% ni yoshlar tashkil qilishini hisobga olsak, bu muammoning ko'lamini sezish qiyin emas. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisining mohiyatini chuquroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu jamiyatning xulqi o'zgarishlarining axborot ta'sirida o'zgarayotganligidan dalolat berib turibdi.

Talabalarda axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish nuqtai nazardan yonashadigan bo'lsak quyidagi jihatlarga diqqat qaratish mumkin. 1. Talaba faoliyat turining yetakchi turiga; 2. Har bir o'smirning hissiy-irodaviy, ruhiy kechinmalariga; 3. Talabalarda intellekt rivojlanganligi; 4. Jamiyatda shakllangan ijtimoiy-ma'naviy muhit omiliga. Axborot nafaqat mafkuraviy, iqtisodiy, etnik, diniy, shakl chegaralaridan tashqariga chiqib ketdi, balki ko'p yoqlama ta'sir etish mumkin bo'lgan va iloji boricha hammaboplikni qo'llovchi siyosalashtirilgan axborot xujumning asosiy shakliga aylanib ketdi.

Xulosa. Bugungi kunda mamlakatimiz kelajagi yosh avlod qo'lida ekan talaba yoshlarda axborot-psixologik xavfsizlik immunitetining dolzarb masalalari va rivojlantirish jarayoniga katta e'tibor qaratishimiz kerak. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda axborot psixologik xavfsizlikni ta'minlash zarur chunki talaba yoshlarda yod g'oyalarga qarshi kurashish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Axborot-psixologik xavfsizlik immunitetini rivojlantirishning milliy ijtimoiy-madaniy, ildizlariga diqqat qaratishimiz zarur. Talaba yosh davrida axborot psixologik immunitetni rivojlantirishning ba'zi masalalariga diqqat qaratishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson mafaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovoligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. Toshkent, O'zbekiston, 2017. 24-bet.
2. Umarov B. Shaxs axborot-psixologik xavfsizligining psixologik imkoniyatlari. The light of islam, 4-son 2019-yil. 4-bet
3. Abdurazzoqov. N.K. O'smirlarda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari-Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences- 2021.15-iyun. 433-438 bet
4. Umarov B, Qodirov U, Karimov X. Ochiq axborot tizimlarida axborot psixologik xavfsizlik. darslik. T., 2012.-239. b.)
5. Safayev N.S., Ergashev P.S., Amirova N.A., Odilova N.G., Rahimova I.I, Ziyavidtinova G. Z. Psixologik yutuklik asosiy mezonlarva rivojlanish qonuniyatlari. Toshkent-2018. 166. b.
6. Sharapova S. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. Monografiya. Guliston sh. 2020. -144 b.
7. Tulenova G., Sagdullayeva D. Falsafa. - T.: "Aloqachi", 2019. – 220 b.
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: [Yangi asr avlodi](#), 2016. - 318 b.
9. Kaykovus. Qobusnoma. T. 1994. 174 bet
10. Nazarov Q. „G'oyalar falsafasi“ T. :Akademiya. 2011, 326 bet
11. Alimasov V., Falsafa yoxud fikrlash san'ati., T.:Noshir., 256 bet
12. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot., T.: Ma'naviyat, 480 bet

Muallif:

Rajabov Otamurod Rayimberdi o'g'li - Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

UDC: 371.3: 373:894.375

THE ROLE OF CLASSICAL WORKS IN THE FORMATION OF SPIRITUALITY OF YOUTH

YOSHLAR MA'NAVIYATI SHAKLLANISHIDA MUMTOZ ASARLARNING O'RNI

РОЛЬ КЛАССИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Sariboyeva Maxsuda O'rinbojevna

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mavze

E-mail: moviy69@mail.ru.

Abstract. The article talks about the essence of design technology, the ways to use this technology in literature classes, as well as the teaching of Babur's work "Boburnoma" in higher education based on technological approaches, creating an innovative educational environment, adapting it to international standards. It is stated that ensuring compatibility is one of the most urgent problems of today. The experience of the development of world education shows that the development of any society is closely related to the improvement of education. Reforms in the economic, political, spiritual, ideological and cultural spheres implemented in the republic in recent years require the implementation of serious changes in the education system. When using modern methods in the educational process, the ability of students to match the goals and tasks of these methods, the teacher's ability to influence groups of students is of particular importance in increasing the effectiveness of education, therefore this process effective organization based on modern approaches has enormous value. The teaching process It has been scientifically researched that research should be carried out in the sequence of the "goal → task → result" system, and the methods and approaches that have been effective in the national methodology should be further improved based on the requirements of the time.

Key words: Spirituality, classic literature, "Boburnoma", education and upbringing, project method, modern approach, method, cooperation, national methodology, perfect personality, science, spiritual values, epic works, "Technology of Cooperation", "Technology of Problematic Education", pedagogical skills.

Аннотация. В статье говорится о сущности технологии дизайна, способах использования этой технологии на уроках литературы, а также преподавании произведения Бабур «Бобурнаме» в высшей школе на основе технологических подходов, создания инновационной образовательной среды, адаптации ее к международным стандартам. Констатируется, что обеспечение совместимости является одной из наиболее актуальных проблем современности. Опыт развития мирового образования показывает, что развитие любого общества тесно связано с совершенствованием образования. Реформы в экономической, политической, духовно-идеологической и культурной сферах, реализуемые в республике в последние годы, требуют осуществления серьезных изменений в системе образования. При использовании современных методов в образовательном процессе особое значение в повышении эффективности образования имеет способность учащихся соответствовать целям и задачам этих методов, способность преподавателя влиять на группы учащихся, поэтому эффективная организация этого процесса на основе современных подходов имеют огромное значение. Учебный процесс научно обосновано, что исследования должны проводиться в последовательности системы «цель → задача → результат», а методы и подходы, оказавшиеся эффективными в отечественной методике, должны в дальнейшем совершенствоваться с учетом требований время.

Ключевые слова: Духовность, классическая литература, «Бобурнаме», образование и обучение, метод проектов, современный подход, новаторство, метод, сотрудничество, национальная методология, совершенная личность, наука, духовные ценности, эпические произведения, «Технология сотрудничества», «Технология проблемного образования», педагогическое мастерство.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan yangilanish jarayonlarida fan va ta'lim masalalarini tubdan isloh qilishga katta e'tibor berilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o'qitish metodlari, vositalari va shakllariga innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etadi. Yo'l boshchimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, "Ta'lim va tarbiya, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi" [1].

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanish holati, birinchi navbatda, jamiyatning intellektual salohiyatiga, ya'ni ta'lim sohasi taraqqiyotiga bog'liq. Demak, ta'lim usullari va ularning pedagogik samaradorlikni oshirishdagi o'rni aniqlash mamlakatimiz taraqqiyotidagi belgilovchi, hatto hal qiluvchi odim sanaladi. Xususan, mumtoz adabiyot namunalari o'qitish metodikasi alohida yondashuv, jiddiy qayta ko'rib chiqilishga muhtoj. Zotan, ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlar ongiga ijobiy fazilatlar, ma'naviy qadriyatlarini singdirishda ularning ahamiyati tengsiz. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov buni o'z vaqtida juda o'rinli ta'kidlagan edi: "Ulug' ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan milliy, umuminsoniy g'oyalar xalqni, millatni birlashtiruvchi, taraqqiyot sari safarbar etuvchi kuchdir" [2].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari olingan. Masalani yoritishda “Loyiha usuli”, “Hamkorlik texnologiyasi”, “Muammoli ta’lim texnologiyasi” kabi metodlardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili:

Adabiyot inson ruhiyatiga ko'rsata oluvchi ta'sir kuchi jihatidan hamisha boshqa ma'naviy sohalaridan ustun bo'lib kelgan. Shu bois uning zimmasiga og'irroq mas'uliyat yuklangan. Adabiyot o'qituvchisining boshqaruvchi sifatida kichik tadqiqot va innovatsion faoliyatni tashkil etish jarayonida qo'llanilishi rejalashtirilayotgan interfaol metodlar mohiyatidan to'la xabardorligi kifoya qilmay, shu bilan birga, darsni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirishi, o'quvchilar faoliyatini nazorat ostiga olishi, kutilmagan tasodif yuz bergan yoki xatoga yo'l qo'yilgan holatlarni tezda seza olishi, muammoli vaziyatlarni to'g'ri tashkil etishi, shuningdek, dars davomida ma'lum tuzatishlarni kiritib borishi muhim ahamiyatga ega. Chuqur kuzatishlar natijasida aytilgan quyidagi fikrlarga e'tibor beraylik. Ta'limdagi innovatsiyalar chetniki bo'lgani uchun emas, balki samarali bo'lgani uchun o'qitish amaliyotida qo'llanishi kerak. Hozirda innovatsion yondashuvlarning samara berishidan ko'ra qo'llanish faktining o'zi muhimday bo'lib turibdi [3].

Demak, o'quvchilarni shunchaki o'qishga emas, o'qib o'rganishga, o'rgatib o'rganishga, o'rganib o'rganishga hamda shu ma'lumotlarni amalda hayotga tatbiq etishga undaydigan zamonaviy usullarga asoslangan pedagogik jarayon maqsadga yo'naltirilgan tizimli yondashuvlar amaliyotidir. Zamonaviy pedagogika bilim, ko'nikma va malakalar o'quvchilarning o'zlari tomonidan mustaqil o'zlashtirilgandagina ta'lim jarayoni samarali kechadi, deb hisoblaydi. Istiqol davriga kelib ta'lim tizimida mumtoz adabiyot namunalari o'qitish muammolariga sog'lom va xolis yondashila boshlandi. Mumtoz adabiyot namunalari ta'lim sub'ektlarida adabiyotga doir nazariy bilimlar hosil qilishda ham, ularda ezgu ma'naviy sifatlar, insoniy fazilatlar shakllantirishda ham alohida o'rin tutadi.

Metodist olim V.Qodirov o'zining “Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar” [4] monografiyasida mumtoz adabiyotni o'rganish borasidagi badiiy-estetik muammolarni yangicha hal qilishga erishgan. Xususan, “Xamsa”ga kirgan dostonlarni o'rganish yuzasidan yangi qarash va tavsiyalar beradi. Olim epik asarlarni sun'iy ravishda qismlarga taqsimlamay, yaxlit bir butunlik, mantiqiy uyg'unlikda o'rganish yo'llarini ko'rsatadi hamda asarlarni badiiy-ramziy zaminda tahlil qilish, ularda ko'tarilgan muammolarni zamonaga bog'lash, o'quvchini epik asarlarning qahramonlariga ergashishga odatlantirish usullariga to'xtaladi.

Bugungi kunda mumtoz adabiyotni badiiy-estetik asnoda texnologik yondashuvlar asosida o'rganish kundankunga dolzarblashib bormoqda. Chunki bugungi adabiyot darslari o'quvchi-talabani tayyor iste'molchi emas, balki ijodiy fikrlovchi, mustaqil qarash hamda xulosalarga ega shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan. Adabiyot o'qituvchisi mumtoz adabiyot namunalari o'rgatishda “loyiha” usulidan foydalanishi yaxshi samara beradi. Chunki mumtoz asarlarni tahlil qilish mushkul vazifa. Ayniqsa, eskirgan, fors va arabiy so'zlar ko'pligi, o'sha davr badiiy talablari, adib uslubi bilan bog'liq holatlar shular jumlasidandir. Buning ustiga, yirik epik asarlarni o'rganish uchun talab etiladigan vaqt ham nihoyatda chegaralangan. Qisqa vaqt ichida o'qituvchilar qo'shimcha imkoniyatlar topishi kerak bo'ladi [5].

Interfaol usullarni xususan, mumtoz asarlarni o'rgatishda “Loyiha usuli”ni ta'lim amaliyotiga qo'llab ijobiy natijalarga erishgan o'qituvchi metodik yangiliklarni izlay boshlaydi. Metodist olim Q.Yo'ldoshev filologik ta'lim falsafasi haqida chinakam bosh qotirish vaqti kelganini alohida ta'kidlaydi. Dunyo tajribasida filologik ta'lim transmissiya, transformatsiya, yoki transaksiya falsafiy yo'nalishlaridan biriga tayanib tashkil etiladi. Haqiqatdan ham o'tgan asrning deyarli sakson yili mobaynida bizning ta'lim tizimimizning barcha bosqichlarida transmissiyaga amal qilindi. Unga ko'ra ta'lim jarayoninig subyekti, uyishtiruvchisi faqat professor-o'qituvchi bo'lib, talaba esa eshitib qabul qiluvchi edi, xolos. Jahon ta'limi tajribasidan ma'lumki, talaba tinglovchilikdan chiqib, ta'lim jarayonida qatnashsa (transformatsiya) va bora-bora bu jarayonning ijrochisiga aylansa (transaksiya) o'qitish samarali bo'ladi [6].

Taniqli olim Z.Mirzayeva [7] badiiy asar matni bilan ishlashni uch bosqichga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi: o'qishdan oldingi topshiriqlar; o'qish davomidagi topshiriqlar; o'qishdan keyingi topshiriqlar. Olima milliy metodikada samara bergan metod va yondashuvlarni zamon talablari asosida yanada takomillashtirish lozimligini ta'kidlaydi.

Loyiha usulida bajarilgan mashg'ulotlarda “**izlanish – faraz – yechim – ilova – yangi izlanish**” tarzidagi ta'limiy tizim yuzaga keladi. Loyiha usulining asosiy g'oyasi topshiriqlarni o'qituvchi bilan birgalikda bajarishgina emas, balki barcha o'quvchilarni o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinuv sharoitida faoliyat ko'rsatishga odatlantirishdan iboratdir. Ta'lim jarayonida loyihalashtirish texnologiyasidan foydalanishda o'quvchi-talabalarning imkoniyatlari bu usullarning maqsad va vazifalariga mos kelishi, o'qituvchining talabalar guruhlariga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga egaligi ta'lim samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta pedagogik tajriba talab etmaydi, lekin ushbu tayyor texnologiyadan foydalanish samarasi o'qituvchining egallagan texnologik bilim, ko'nikma, malakalariga bog'liq. Agar o'qituvchi texnologik loyihani mazmuni va maqsadini chuqur anglasa, texnologiyalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanishni bilsa, yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi. Natijada novator pedagogning boy va ko'p yillik tajribasidan yosh pedagoglar uchun foydalanish imkoni tug'iladi. Loyihalashtirish texnologiyasi asosidagi mashg'ulotlarni uyishtirishda hamkorlikda ishlashga e'tibor beriladi. Hamkorlikdagi ta'limning bir ko'rinishi kichik guruhlariga bo'linganda uning a'zolari 6-7 kishi bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki hozirda sinflarda o'quvchilar soni 30-35 nafarni tashkil etmoqda. Guruhda ishtirokchilar sonining

ko'pligi guruh a'zolarining faol ishtiroklariga halaqit beradi; guruh tarkibini tanlashda, albatta, har bir guruhga "a'lo", "yaxshi" va "qoniqarli" o'zlashtiruvchi o'quvchilar teng miqdorda kiritilishi talab qilinadi. Hech qachon "kuchlilar" va "kuchsizlar" guruhi tuzilmasligi lozim; guruh a'zolari guruhning o'zlashtirishiga qarab, yangilanib turishi kerak.

Loyihalashtirish texnologiyalari ikki tomonlama xususiyat kasb etadi. Birinchidan, bahs-munozaralarni tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yuzaga keltiradi va uni qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni mazkur hamkorlikning samimiy va ochiq bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'qituvchi ta'limiy haqiqatni topishga yo'naltirilgan izlanish jarayonini boshqaradi. Loyihalashtirish texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchini darslik, kitob, gazeta va jurnal, internet kabi qo'shimcha manbalarga murojaat qilishga, mavzu yuzasidan axborotlarni mustaqil izlash, to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etishga undaydi.

O'zgarigan ijtimoiy tafakkur, dunyoni idrok etish tarzi adabiyotga munosabat va uning talqin etilishiga ta'sir etmay qolmaydi. Shu bois insoniy faoliyatning eng oliy ko'rinishi bo'lmish adabiyotni o'qitishdan ko'zlangan maqsad ham yangilandi. Bu esa darsni uyushtirishga mutlaqo yangicha yondashuvni talab etadi. Zamonaviy pedagogik amaliyotda shunday ta'lim modellari yaratildiki, ular ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlash bo'yicha keng imkoniyatlarga egadir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda rivojlanayotgan dunyo ta'limi fazosiga qo'shilish imkoniyatini beradigan yangi ta'lim tizimi tarkib topmoqda. Milliy pedagogika fani erkin shaxsni tarbiyalash qonuniyatlari, shakl va metodlari, mazmun va tamoyillarini o'rganadi. Ta'lim texnologiyalari qo'llangan o'quv jarayonida ham an'anaviy sinf-dars tizimi saqlanadi. Faqat unda o'rgatishning tashkiliy shakllari, usullari takomillashadi. Adabiy ta'limni zamonaviy o'qitish usullari, asosan loyihalashtirish texnologiyasi asosida tashkil etishda jarayonning tarkibiy tuzilmasi tizimli ravishda puxta va o'zaro uzviy, bir-birini to'ldiruvchi munosabatlarda bo'lishi va oldindan ko'zlangan aniq natijaga yo'naltirilishi muhim omillardan sanaladi.

Loyihalashtirish texnologiyalari adabiy ta'limda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro tenglikka asoslangan faol muloqot, ta'lim jarayonida o'quvchilarning yetakchilik qilishlari, bir-birlari bilan fikr almashishlari, o'rganilayotgan mavzu yoki o'quv materiali bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z qarashlarini ilgari surish, ularni dalillar yordamida asoslash va ma'lum xulosalarga kelish orqali ta'lim maqsadlariga erishish imkonini beradi. Ushbu texnologiyaning zarur shartlaridan biri ta'lim jarayonida o'qituvchining vazifasi bir qadar o'zgarib, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlovchi, yo'naltiruvchi, maslahatchiga aylanishidan iboratdir.

Zamonaviy o'qitish usullarini amaliyotga tatbiq etish o'rganib qolingan an'anaviy usullardan batamom voz kechish degani emas, balki o'qituvchining mahorat xazinasini to'ldirish, uni turli yo'nalishlarda ishlashga imkon beradigan ta'lim usullari bilan boyitish demakdir. Interfaol usullar faqat ta'limiy hamkorlik qilish yoki faqat muammoni tadqiq etishga yoxud faqat mustaqil ishlashdangina iborat, deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. Chunki har qanday usul bir vaqtning o'zida o'quvchini ham muammoning yechimini topishga (tayyor ko'rsatmalar asosida ishlenganda ham o'quvchi to'g'ri xulosani tanlash asnosida fikr yuritadi, demakki, o'quvchi mavzu-muammo doirasida tanqidiy fikrlaydi), ham mustaqil xulosa chiqarishga (hamkorlik asosiga qurilgan o'quv jarayonida o'quvchi o'z fikrini o'z fikrini asoslash va himoya qilish barobarida muayyan xulosaga keladi), ham hamkorlikda ishlashga yo'naltirishi mumkin.

Ma'lumki, "Adabiyot" darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish, davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor hissini kamol toptirishda "Adabiyot" darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib boramiz. Oliy ta'limda ilmiy tadqiqotchilikka yo'naltirish alohida o'rin tutadi. 4-bosqich talabalariga "O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi" namunaviy fan dasturida "O'zbekiston ta'lim muassasalarida amal qilinayotgan adabiyot o'qitish metodlarini rivojlangan davlatlar o'quv yurtlaridagi ilg'or metodlar bilan qiyoslab o'rganish" mavzusi berilgan. Ushbu mavzuni o'tish davomida namuna sifatida qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi, xususan, "Boburnoma" asarini loyihalashtirish texnologiyasidan foydalanib mashg'ulot tashkil etish mumkin.

"Boburnoma" asari ajdodlarimiz turmush tarzi, intilishlari, e'tiqodi va a'mollarini talaba tasavvurida jonlantirishi, fanning turli sohalarini qamrab olish nuqtayi nazaridan talabalarni izlanishlar olib borishga qiziqtiruvchi muhim manba bo'la oladi. Bobur ijodini o'rganish masalasiga quyidagicha yondashiladi: "Bobur – buyuk nosir". "Boburnoma" – o'zbek mumtoz adabiyotining nodir namunasi, uning tarix, tabiatshunoslik, jug'rofiya, elatshunoslik, adabiyot, va san'at tarixiga oid manba ekanligi". "Boburnoma" – memuar asar. "Boburnoma"ning ilmiy-ma'rifiy hamda badiiy qiymati". "Mumtoz adabiyotda Bobur obrazi".

O'rganilishi belgilangan bandlar keng qamrovligi sabab ular ichidan aniq bir yo'nalishni tanlash maqsadga muvofiq bo'lib, bu nimani, nima maqsadda va qanday qilib o'rganish masalasiga chuqurroq yondashishni nazarda tutadi. E'tiborlisi shundaki, muallifning Hind o'lkasi geografik o'rni, chegaralari, o'simlik va hayvonot olamini sinchkovlik bilan o'rganishiga doir masala tadqiqot maqsadi, yo'nalishi va mohiyatini rejaga muvofiq izchil bayon etish, yangi g'oyalar, dalillar bilan isbotlash, asosli xulosalar chiqarishda muhim omil sanaladi.

Tadqiqotni loyihalashtirish muayyan vaqt oralig'ida Boburning tabiatshunos olim sifatidagi faoliyatiga doir axborotlar to'plash, izlanishlar olib borish va natijalarini taqdim etish asosida amalga oshiriladi. Tadqiqot mavzusi o'qituvchi tomonidan tavsiya qilinishi yoki talabalar tomonidan tanlanishi mumkin. Topshiriq butun auditoriya oldiga qo'yiladi, talabalar uni jamoa bo'lib yoki individual tarzda bajarishlari belgilab olinadi. Bunda adabiyotshunoslik, tabiatshunoslik, tarix, estetik yoki axloqiy masalalar bo'yicha mavzular ko'zda tutiladi. Asardan Boburning botanik olim sifatidagi faoliyatiga doir faktlarni o'rganish tadqiqot ishining maqsadini shakllantiradi. Bu maqsadga erishishda talabalar oldiga "Boburnoma" asarini chuqur o'rganishga doir vazifalar qo'yiladi. Mazkur vazifalar "Boburnoma"dan nabotot olamining yashirin sinoatlari ko'z ochgan lavhalarni aniqlash va ularga munosabat bildirish shaklida amalga oshiriladi.

Tadqiqotchilik faoliyati ta'limning izlanish (evristik) va tadqiqot metodlari hamda ular tarkibidagi usullar asosiga quriladi. Qo'yilgan muammo yuzasidan talabalar tomonidan darslik, boshqa o'quv qo'llanmalardan Boburning tabiatshunos sifatidagi faoliyatiga doir materiallar to'planadi, matn bilan ishlashda mumtoz asarlarni o'rganishga doir lug'atlar bilan ishlanadi, fikrlarini asoslashda "Boburnoma"dan ko'chirmalar olinadi, qiyosiy o'rganish asosida xulosalar chiqariladi.

O'qituvchi talabalarni mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishtiradi. "Boburnoma" asari, ijodkor hayoti va ijodiga doir ilmiy maqolalar mavzu uchun zarur axborot manbai bo'la oladi [8]. Shuningdek, Xalqaro Bobur fondi tomonidan nashr etilgan "Boburnoma Miniaturalar" kitobi va Bobur entsiklopediyasi ham uning tabiatshunos olim sifatidagi mahoratini yoritishga yordamchi vosita vazifasini o'taydi.

Loyiha bajarilishining ish rejasi qanday bo'lishi kerak? Bunda topshiriqning sodda yoki murakkabligiga ko'ra ma'lum vaqt belgilanadi. Talabalar imkoniyatlari doirasida vazifalar taqsimlanadi. Vazifalar quyidagilardan iborat: a) asardagi "To'qqiz yuz o'ttiz ikkinchi (1525-yil) voqealari", ya'ni Boburning Hindistonga yurishlariga doir voqealar aks etgan matn bilan yaqindan tanishish; b) matndan Hind mamlakati nabotot dunyosining bir-biridan farq qiluvchi jihatlarini belgilash; d) Boburning nabotot olami haqidagi qiyosiy qarashlarini o'rganish va tahlil qilish; e) masalaga tanqidiy ruhda yondashish, o'z fikrlarini asoslash, tizimlashtirish va xulosalash. f) davr va makon tasvirini qiyoslash va h.k.

Shundan so'ng, mavzuga tegishli zarur ma'lumotlar to'planadi, o'rganiladi, tahlil qilinadi, tizimlashtiriladi va xulosalarga kelinadi. Barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirgach, adabiyot o'qituvchisi darsning samarali tashkil etilganligini aniqlash hamda natijalarni tahlil etishi, shuningdek, qisqa savol-javoblar orqali talabalarning taassurotlarini o'rganishi maqsadga muvofiq bo'lib, bu harakat keyingi pedagogik faoliyat yo'nalishini belgilashga ham yordam beradi.

Asarni o'qishdan oldingi savollar: 1. Ushbu asarni o'qish sizda qanday tuyg'ularni uyg'otdi? 2. Muallifning bu asarni yaratishiga nima turtki bo'lgan, deb o'ylaysiz?

Yo'naltiruvchi savollar quyidagicha tuzilishi mumkin: 1. "Boburnoma"da Hindiston o'simliklariga ham keng o'rin berilgan. U yerning barcha daraxt, meva, giyoh va gullari juda batafsil tasvirlanadi. Asarda tilga olingan tropik o'simliklarning nomi terminologiya nuqtai nazaridan qanday aniqlangan? Fikringizni ilmiy asoslang. 2. Bobur asarida hayvonot dunyosini to'rt tipga bo'lgan. Guruh bilan birga hayvonot dunyosini tasniflashga urinib ko'ring. 3. "Boburnoma"da keltirilgan joy va tabiiy obyektlarning nomlari o'sha yerda yashaydigan aholi tilida keltirilganligining sababi nimada?

Talabalar tadqiqot natijalarini belgilangan hajmdagi tayyor ko'rinishga – referat holiga keltirilib rasmiylashtiradilar va loyiha taqdimotiga tayyorlanib, o'z kichik guruhlari bilan himoya qiladilar. O'qituvchi loyiha ishi yuzasidan hisobotga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnoma yoki topshiriqlar tayyorlagani ma'qul.

O'qish (loyiha) davomidagi topshiriqlar: Asardan Boburning botanik olim sifatidagi faoliyatiga doir faktlarni isbotlab berishga harakat qiling. Matndan Hindiston geografik o'rni, tog'lari, suvlari, cho'l, yaylov va bog'lari to'grisida ularning hozirgi zamon holatiga to'g'ri keladigan qiyosiy ma'lumotlarni izohlashga urinib ko'ring. Matndan Hind mamlakati nabotot dunyosining bir-biridan farq qiluvchi jihatlarini belgilang.

Izlanish faoliyati mavzuga taalluqli kichik bir detalni ham unutmaslikni, manbalarni chuqur o'rganib qiyoslashni, tahlilga tortilgan obyektidagi har jumlagi e'tibor bilan yondashishni, noma'lum jihatlaridan muayyan yangiliklar topishni va atroflicha tadqiq etishni taqozo etadi.

O'qishdan keyingi topshiriqlar: 1. Ko'plab so'zlarning kelib chiqish tarixiga e'tibor bering. "Boburnoma" asari tilini tadqiq qilgan tilshunos olimlarning ilmiy asarlariga munosabat bildiring [9]. 2. Asarda qo'llangan tarixiy va arxaik so'zlariga e'tibor bering va izohlang.

Demak, har qanday loyiha mavzuga bog'liq bo'lmagan holda yagona tartibda tuzilishi va barcha bosqichlarda natija aniq ko'rsatilishi majburiydir. Referat tayyorlash jarayonini loyihalashtirishning afzalliklari mavzuni talaba o'rganish jarayonida muammoning mohiyatini ochib berishga kirishishida, g'oyalarni tizimlashtirib, tartibga solishida ko'rinadi. Talaba o'z aspekti doirasida predmet, hodisa va tushunchalarni tekshiradi, qiyoslaydi, zarur mezonlarni ishlab chiqishga harakat qiladi. Ushbu shartlarning bajarilishini talabalar guruhida mujassamlashtirilishi juda qiyin kechishi mumkin, lekin, loyihalash yuzasidan 1-kursdan boshlab muntazam ish olib borilsa, bir necha yildan so'ng, ya'ni, 4-kursga kelib, ular guruhli loyiha ishlarini samarali ravishda amalga oshira oladilar.

Loyihalashtirish texnologiyasi o'quvchilarni faollashtirishga, ularni ishlatishga asoslangani uchun jiddiy tarbiyaviy mohiyat ham kasb etadi. Shu bois har bir o'quvchida a) jamoa bilan ishlash ko'nikmasi; b) xushmuomalalik; v)

xushfe'llik; g) ko'nika bilish; d) o'zgaralar fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lish; e) faollik; yo) mas'ullik; j) ishga ijodiy yondashish; z) o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish; k) o'zini xolisona baholay olish kabi sifatlarni shakllantiradi [10]. Ko'rinadiki, keyingi vaqtda keng tarqalayotgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning mustaqil o'qishlari va erkin fikrlashlarini ta'minlashda katta samara keltiradi.

XULOSA. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida loyihalashtirish texnologiyasidan foydalanish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, ularda shaxs sifatida mustaqillikni tarbiyalash, insoniy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuch va qobiliyatiga ishonch tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Agar o'qituvchi pedagogik mahoratga, yuqori darajadagi kasbiy sifatlarga hamda yetarli darajadagi pedagogik, psixologik bilimlarga ega bo'lmasa, ta'lim jarayonida qo'llanadigan vositalar qanchalik zamonaviy va xilma-xil bo'lmasin, kutilgan samarani berolmaydi. Adabiyot darslarini tashkil etishda texnologik yondashuv va uni loyihalashtirish o'quvchilarga badiiy asarning badiiy-g'oyaviy, poetik jozibasini yaxlit o'rganish imkonini beradi. Bugungi yoshlarning hayotda rioya qilinishi lozim bo'lgan ma'naviy me'yorlarga muvofiq tarbiya topishi va shuning ta'sirida jamiyat ma'naviyatining shakllanishida mumtoz asarlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ushbu jarayonni innovatsion yondashuvlar asosida samarali tashkil etish ulkan qiymatga egadir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Tishkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Tishkent: O'zbekiston, 1999. – 48 b.
3. Yo'ldoshev Q. Ta'limda egamanlik aksiomasi (Biz ko'zlagan maqsadga eltuvchi yo'ldir). // Ishonch, 2019- yil, 29. 08.
4. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. – Tishkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 244 b.
5. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 152 б.
6. Yo'ldoshev Q. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. – Tishkent: Tafakkur, 2023. – 628 b.
7. Mirzayeva Z., Jalilov K. Umumiy i'rtta ta'limning milliy i'quv dasturi: i'qitish metodikasi (i'qituvchi qi'llanmasi). – Tishkent: Universitet, 2020. – 139 b.
8. Каримов Б. “Бобурнома”дан “Ўткан кун”ларга. // Жаҳон адабиёти, 2019. – № 4 сон. – Б. 7-10.
9. Xolmanova Z. “Boburnoma” leksikasi. – Toshkent: Fan, 2007. – 174 b.
10. Sariboyeva M. Adabiyot darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: “Innovatsiya ziyo”, 2021. – 126 b.

Muallif:

Sariboyeva Maxsuda Urinbayevna, Guliston davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

UDK 372.815.99

PROBLEMS OF FORMING VIRTUAL CULTURE IN THE YOUTH-STUDENTS

TALABA-YOSHLARDA VIRTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВИРТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Sharapova Saboxat Djabbarovna

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mavze

E-mail: sharapovasaboxat2024@gmail.com

Abstract. This article presents opinions on the current state of formation of virtual culture in the educational process, relevance of this topic, practical situation, necessary measures and why it is necessary to eliminate these problems. The scientific views of foreign and Uzbek scientists, as well as the content of the political situation in our country in this direction are also covered in the article. This article presents opinions on the current state of formation of virtual culture in the educational process, relevance of this topic, practical situation, necessary measures and why it is necessary to eliminate these problems. The scientific views of foreign and Uzbek scientists, as well as the content of the political situation in our country in this direction are also covered in the article. In addition, in our article, advice was developed not only on improving the psychological condition of students, but also on pedagogical and psychological work that should be carried out with their parents in order to create a virtual culture. The virtualization of education, art, and communication between people in general is increasingly moving to virtual reality, creating peculiarities in the course of cultural processes. This situation shows that by the end of the 20th century, virtual reality has become an important part of socio-cultural processes, with its risks and opportunities, not only a phenomenon related to the information field. From this point of view, revealing the socio-philosophical features of virtual reality as a cultural phenomenon is gaining urgent importance. In world science, fundamental and applied researches are being carried out aimed at researching artificial intelligence and automation of production and service provision, forecasting the development prospects of the information society, and

researching innovative methods of education and training. In the era of globalization, due to the flow of information, young people are facing increasing moral threats and dangers as they acquire a wide range of knowledge. Protecting them from information attacks has become our main task.

Key words: internet, network, virtual world, culture, education, parents, system, problem, project, education.

Аннотация. В данной статье представлены мнения о современном состоянии формирования виртуальной культуры в образовательном процессе, актуальности данной темы, практической ситуации, необходимых мерах и почему необходимо устранить данные проблемы. В статье также освещены научные взгляды зарубежных и узбекских ученых, а также содержание политической ситуации в нашей стране в этом направлении. Кроме того, в нашей статье разработаны советы не только по улучшению психологического состояния учащихся, но и по педагогико-психологической работе, которую следует проводить с их родителями в целях создания виртуальной культуры. Виртуализация образования, искусства и общения между людьми в целом все больше переходит в виртуальную реальность, создавая особенности в ходе культурных процессов. Данная ситуация показывает, что к концу XX века виртуальная реальность стала важной частью социокультурных процессов со своими рисками и возможностями, а не только явлением, связанным с информационным полем. С этой точки зрения выявление социально-философских особенностей виртуальной реальности как культурного феномена приобретает актуальное значение. В мировой науке проводятся фундаментальные и прикладные исследования, направленные на исследование искусственного интеллекта и автоматизации производства и оказания услуг, прогнозирование перспектив развития информационного общества, исследование инновационных методов образования и обучения. В эпоху глобализации из-за потока информации молодые люди сталкиваются с возрастающими моральными угрозами и опасностями по мере приобретения широкого спектра знаний. Защита их от информационных атак стала нашей основной задачей.

Ключевые слова: Интернет, сет, виртуальный мир, культура, образование, родители, система, проблема, проект, образование.

KIRISH. Yigirma birinchi asrda taraqqiyotni taraqqiyotini axborot texnologiyalari va jahon axborot tarmog'i-internetsiz tasavvur qilish mushkul. Internet - axborot va hujjatlarning o'zaro almashinishini ta'minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan xalqaro tizimdir. Bu o'rinda internetning keng imkoniyatlari va ijobiy jihatlari, ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarning qulayligini sanab o'tishga hojat yo'q.

Bugungi kunda jahon miqyosida ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida integrallashuv hamda globallashuv jarayoni jadal kechayotgan bir davrda virtual reallikning ijtimoiy-madaniy fenomen sifatidagi ahamiyati tobora ortmoqda. Ta'limning, san'atning virtuallashuvi, umuman insonlar o'rtasidagi muloqotlarning tobora virtual reallikka ko'chib borishi madaniy jarayonlarning kechishida o'ziga xosliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu holat virtual reallikning XX asrning oxiriga kelib faqat informatsion sohaga tegishli hodisa bo'lib qolmay, o'zining havflari va imkoniyatlari bilan ijtimoiy-madaniy jarayonlarning muhim bir qismiga aylanganligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan virtual reallikning madaniy fenomen sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon ilm-fanida sun'iy intellekt hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish, axborot jamiyatining rivojlanish istiqbollarini prognozlash, ta'lim va tarbiyaning innovatsion usullarini tadqiq etishga qaratilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Har narsaning yaxshi va yomon tarafi bo'lganidek, so'nggi yillarda internetning ham jiddiy xatarlari yuzaga chiqmoqda. Eng achinarlisi, buzg'unchi, yot oqimlar ijtimoiy tarmoqlardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanmoqdalar. Bu esa yoshlarni o'z domiga tortayotgani, ayrim saytlarda behayollik, axloqsizlik kabi ayanchli illatlar targ'ib etilayotgani, shuningdek, turli fitnalar, jamiyatni beqarorlashtiruvchi yolg'on ma'lumotlar berilayotgani afsuslanarlidir.

Globalashuv davrida axborotlar oqimi bois yoshlar keng bilimga ega bo'lish barobarida tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va xatarlarga duch kelyaptilar ham. Ularni axborot xurujlaridan asrash bizning eng asosiy vazifamizga aylandi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda"[1]. Bu borada e'tiborsizlik yoki zarur choralarni ko'rmaslik yoshlarimiz tarbiyasining izdan chiqishiga, yillar davomida tuzatib bo'lmaydigan og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini unutmashimiz kerak.

Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar barchamizdan yoshlar tarbiyasiga yanada e'tiborliroq bo'lishni taqozo etmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida ziddiyatlar, beqarorlik kuchaygan, ixtiloflar davom etayotgan bir sharoitda biz yoshlarimizni, o'z farzandlarimizni internetning zararli ta'sirlaridan himoya qilishimiz zarur. Buning uchun, eng avvalo, ta'lim tizimida ular bilan muntazam targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishimiz va bu ishlarni tashkil etishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanishimiz lozim.

Bu maqsaddagi tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda yoshlarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo'rlik va majburlovlardan voz kechish, yoshlarning asosiy qiziqishi va faoliyat doirasini tashkil etayotgan turli xil sohalarini tarbiya jarayonida to'liq qamrab olishga e'tibor qaratyapmiz.

Yoshlarda internet tarmog'idan foydalanganda madaniyat va axloq me'yorlariga rioya qilishni, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, xususan, internet tarmog'iga axborotni joylashtirish, tarqatish, izlash, foydalanish kabi xususiyatlarni o'z ichiga olgan axborot xavfsizligi va internet madaniyatini mukammal o'zlashtirishlariga erishish lozim.

Global axborot makoniga teran ko'z bilan qarasa, unda mavjud barcha axborotlarni ham foydali va beziyon deb bo'lmaydi. Xususan, ayni paytda internet tarmog'ida o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi, pornografik mazmunga ega saytlar, shuningdek, zo'rvonlik va yovuzlik ruhidagi kompyuter o'yinlari borki, ular milliy qadriyatlarimizga zid va yosh avlod tarbiyasiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli juda yuqori.

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, internet orqali tarqatiladigan kompyuter o'yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo'rvonlik va yovuzlik ko'rinishiga ega, 41 foiz jangari o'yinlarda esa o'yin qahramoni o'z maqsadiga atishish uchun shunday zo'rvonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o'yinlarda ana shu zo'rvonlik va yovuzlikning o'zi bosh maksad hisoblanadi. Turli jangovar, mentalitetimizga mos bo'lmagan, ba'zan qahramonlik vahshiylikka o'tib ketadigan bu kabi o'yinlar, shubhasiz, yoshlarning axloqiy-estetik tarbiyasiga noto'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bir qarashda ular oddiy o'yindek ko'ringani bilan zo'rvonlik g'oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg'otishi juda ko'p salbiy oqibatlarga olib kelyotganini hayotiy misollar isbotlab turibdi.

Internetdagi g'oyaviy tuzoqlar go'yo madaniyatga o'xshashi va yoshlarga moydek yoqishi bilan ham xatarlidir. Insoniy axloqda ters olomoncha madaniyat ayrim yoshlar ongiga chang solib, ma'naviyat kushandasiga aylanmolda. Achinarlisi, mazkur "madaniyat" ta'siriga berilib qolganini yoki uning qurboniga aylanayotganini ko'pincha yoshlar o'zlari sezmaydi. Global axborot tizimidagi xabarlarini "filtrsiz" qabul qilish oqibatida yoshlar ongi zaharlanmoqda. Masalan, biror kerakli ma'lumotni olish maqsadida saytga kirgan yoshlarning "falonchi mashhur shaxs halokatga uchradi" kabi shov-shuvli e'longa ko'zi tushadi va beixtiyor uni ochadi. U arda esa yana bir sayt ochiladi va unda aldamchi xabarlarining davomini o'qiydi. Shu tariqa g'or yoshlar g'alamislarning tuzog'iga ilinadi. Bunday jirkanch "madaniyat" ta'siriga berilgan o'smir loqayd, hayotga angil-elpi qaraydigan, yurt ravnaqi va xalq tinchligiga befarq kimsa bo'lib ulg'ayadi.

Internetda ko'p vaqtini o'tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o'z qobig'iga o'ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa, yuqorida aytganimizdek, uni kelajakda "uchinchi kuchlar" tomonidan manqurtlashtirilishi, "zombi"lashtirilishi uchun zamin yaratadi. Bugungi kunda buzg'unchi guruhlar yoshlar ongiga ta'sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas. Internetning yana bir salbiy jihati - kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egotsentrizm illatining kuchayishiga sabab bo'lishidir.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob'ekti sifatida oliy ta'lim muassasalari talabalarida tadqiqotchilikka oid intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari uchun xizmat qiluvchi texnologiyalardan foydalanish jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, jamoaviy va yakka tartibdagi suhbatlar, so'rovlar (og'zaki) o'tkazish usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Axborot texnologiyalari va uning ta'sirida tobora hajmi kengayib borayotgan virtual reallik madaniyatlar integrasiyasini ta'minlovchi vosita sifatida xalqlar, dunyoqarashning yaqinlashishini ta'minlovchi bir muhitga aylanib ulgurd. Shu sababli yangi reallikda insoniyat madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishning yangi usullari, shakllanayotgan virtual reallikning yangi havflariga qarshi turish, madaniyatlar dialogida o'ziga xosligimizni saqlab qolishning ilmiy asoslarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda —Uchinchi Renessansni barpo etish bevosita yoshlarning intellektual salohiyatiga, ularning axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishi bilan bog'liq bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan ham virtual makonning ijtimoiy-falsafiy tahlili axborot texnologiyalarini rivojlantirish sohasidagi ishlarimizning ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlar bilan o'zaro aloqador tizimlilikini ta'minlashga xizmat qilish orqali o'zining amaliy samarasini ko'rsatadi va bu yo'nalishdagi tadqiqotlar o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son —2022- 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni[2], 2017- yil 28-iyuldagi PQ3160-son,—Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risidagi qarorlari [3] hamda mavzuga oid boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur maqolamizni tayyorlashda muayyan darajada xizmat qiladi.

Jahon ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarida virtual reallik muammosiga ilmiy jamoatchilikning qiziqishi XX asrning 90-yillari boshlarida, texnologiyaning birinchi yutuqlari davriga to'g'ri keladi. Virtuallik va virtual reallikning falsafiy mazmun-mohiyati, strategik maqsad va vazifalarni ayrim jihatlari G'arb olimlari G.Almond, T. Adorno, D. Doych[10], Yu.Xabermas, M.Xorkxaymerlar tomonidan olib borilgan. Taniqli G'arb olimlaridan E.Giddens, E.To'ffler, S.Xantington, F.Fukuyama, Z.Bjezinskiy kabi mutaxassislar o'z izlanishlarida axborotlashgan jamiyatning vujudga kelishi, bunday jamiyatlarining rivojlanishidagi virtual texnologiya bilan bog'liq omillar keng yoritib berilgan. Virtual reallikning rivojlanish istiqbollari, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy va salbiy ta'siriga doir dastlabki paradigmalar qarashlar Kanadada Artur Kroker [11] , Maykl Vensteyn, Germaniyada Axim Byul , Mixael Paetaular tomonidan tadqiq qilingan.

Keyingi yillarda MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot mavzusiga oid qator fundamental tadqiqotlar A.Ursul, N.Moiseev tomonidan olib borilgan. Madaniyat imitatsiyasi - milliy, regional va global muammo sifatidagi o'ziga xos jihatlarini o'rganish borasida M.S.Vershinin [12], Yu.V. Irxin[13], M.M. Lukina, Yu.A. Nisnevich [14], G.P. Xorina [15] va boshqa shu kabi olimlar tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda istiqlol yillarida virtual borliq, virtual reallikning falsafiy jihatlari M.N.Abdullayeva, T.Alimardonov, M.Bekmurodov, Z.D.Davronov, R.Djumayev, Sh.S.Kushakov [16], N.Jo'rayev, A.G.Muminov, F.Muminov, K.J.Tulenova, Sh.Paxrutdinov, N.A.Shermuxeimova, M.Quronov, A.Tulyaev, A.Haydarova va boshqa shu kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. A.N.Sanaqulov[17] ning tadqiqotlarida virtual reallikning ijtimoiy jarayonlardagi roli, M.Normamatova [18] tadqiqotlarida virtualistikadagi postnklassik epistemologiya g'oyalari tahlil qilingan.

Har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda avvalo kelajak rejalarini qurib, unda albatta yoshlarga e'tiborni kuchaytiradi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak bugungi kun jahon hamjamiyati oldida turgan eng muhim masalalardan biri yoshlar masalasidir. Yoshlarga bugungi kun rivojlangan texnologiyalar asri va axborot makoni juda keng imkoniyatlar yaratib berishi bilan birgalikda zararli axborot shaklidagi katta xavfni shakllantirmoqda. Bunday yoshlar kelajagiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazuvchi omillardan ularni asrab avaylash uchun yoshlar o'rtasida axborot madaniyatini rivojlantirish zarur bo'lib, o'z navbatida bu jamiyat siyosiy savodxonligi darajasiga ham yuqori darajada o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Insoniyat ertangi kuni uchun kurashar ekan bunda yosh avlodning munosib davomchi sifatida shakllanishi uchun har tomonlama chuqur islohotlar amalga oshirib borishi va bunda yoshlarning mas'ullik hissini ham shakllantirib borishi talab etiladi. Sababi yoshlar oldiga qo'yilayotgan maqsadlar ularda qat'iy rioya qilinishi talab etiladigan me'yorlarni ham yuzaga keltiradi. Yoshlar axborot iste'molchisi sifatida avvalo axborot tasnifini anglashi, ulardan foydalanish imkoniyatlarini to'liq anglab o'tishi, zararli axborot maydoni ta'siridan o'zini himoya qilish prinsiplarini anglab o'tishi, zamonaviy axborot vositalaridan foydalanganda talab etiladigan me'yorlarni to'liq anglab o'tishi bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar bugungi kun talabidir. [4]

Mazkur masalada, davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar esa tahsinga loyiqdir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[2] deb ta'kidlaganida yoshlar orasida har qanday ijtimoiy xavf keltirib chiqaruvchi omillarga qarshi kurashish nazarda tutilgan desak mubolag'a qilmaymiz.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni - 22,1 milliondan oshdi. Shundan mobil internet foydalanuvchilari soni - 19 millionni tashkil etmoqda. Mamlakat bo'yicha aholi punktlarining mobil aloqa bilan qamrab olinishi darajasi 97 foizni, mobil internet qamrovi esa 87 foizni tashkil etdi. 26 mingga yaqin "uz" domenidagi veb-saytlar faoliyat olib bormoqda. 200 dan ortiq veb-sayt ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatga olingan. Internetning ta'sir kuchi beriladigan materiallarning tezkorligi, ko'tarilayotgan masalalarning dolzarbligi hamda tahliliylik darajasi va mavjud muammolarning samarali o'chimlarini taklif etishiga ko'p darajada bog'liq.[6] Bu raqamlar o'z navbatida jamiyatning ajralmas qismiga aylanib qolgan axborot olamini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi.

Internetga qaramlik vaqt o'tishi bilan sog'lom hayot tarzi o'zgarib, odamning ruhiyati va sog'ligiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Internetga qaram bo'lib qolgan yoshlarga virtual muloqot yolg'on erkinlikni, g'uyoki hamma narsaga qodirlik his-tuyg'usini baxsh etadi. Ayni vaqtda real hayotda hal etilmayotgan muammolar va o'chilmagan masalalar yig'ilib boraveradi.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov o'zining "Bolam baxtli bo'lsin desangiz..." deb nomlangan tarbiya kitobida "Tarbiyadagi milliy g'urur, vijdoniylik, odob, mafkuraviy onglilik, vatanparvarlik, muloqot madaniyati kabi ijobiy xislatlarga hamda boshqa qator katta-kichik qusurlarga e'tibor qilmaslik oqibatida ko'z o'ngimizda shakllanayotgan shaxs taqdirida jiddiy asorat qoldiradi, unda bepisandlik, loqaydlik, beparvolik, xudbinlik kabi illatlarning paydo bo'lishiga olib keladi", degan fikrlari bugungi kunning dolzarb muammolariga mos keladi. [8]

Yoshlar orasida kitobxonlikni ommalashtirish orqali ularda kitobga, ilm olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish mumkin. Ko'p kitob o'qigan yoshlarda axborotni saralay olish, ya'ni axborot iste'moli madaniyati yuksak darajada shakllanadi. O'z navbatida, qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik, fidoiylik tuyg'ulari ham uyg'onadi.

Global tarmoqdagi axborot resurslarining o'sib kelayotgan yosh avlod hayot tarzining shakllanishiga ta'sirini tahlil qilish natijasida shunday fikr kelib chiqmoqdaki, internet hozirgi kunda ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos muhitiga aylanib qoldi. Shunday ekan, fikrimizcha, milliy tarmoqda yoshlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning dunyoqarashi, qiziqishlaridan kelib chiqib, bevosita yosh avlod manfaatlarini va muammolarini qamrab oluvchi ma'nalan mazmunli, shu bilan birga, zamonaviy mavzulardan iborat veb-saytlar yaratish nihoyatda muhimdir.

Virtual so'zi rus-o'zbek lug'atida extimoliy muayyan sharoitda mavjud bo'lishi mumkin yoki kompyuter vositalari yordamida aks ettiriladigan virtual borlik, voqelik (kompyuter qurilmalari yordamida haqiqiy mavjud sharoitga o'xshash sharoitni yaratish, hosil qilish)kabi manolarni bilishimiz mumkin. Madaniyat so'zi esa arabcha, madina - shahar,

maskan, taraqqiyot o'chog'i kabi ma'nolarini anglatib, tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan insoniy faoliyatining o'ziga xos shaklini ifodalaydigan tushuncha. [9]

Madaniyat alohida individning hayotiy faoliyati, ijtimoiy guruh yoki jamiyatning faoliyat usulini aks ettiradi. Demak, virtual madaniyat kompyuter, axborot vositalari orqali aks etiladigan o'zaro munosabatlardagi insoniy faoliyat tushiniladi.

"Virtual" tushunchasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uni axborotlarning mavjud bo'lish usuli sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq, bunda axborot mavjudlikning ikki tomonlama – virtual va aktual shakllarda mavjud bo'lishi asos qilib olinadi. Demak, ushbu nuqtai nazarni asoslash uchun axborot haqidagi nazariyalarning xulosalari bilan bog'liq. Olamning axborot komponentini o'rganishda reallikni unda sodir bo'layotgan axborot jarayonlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan axborot yondashuvi eng samarali hisoblanadi. Agar biz axborotni mavjudlik usuli deb qaraydigan bo'lsak, uning uning xususiyatlaridan birini ifodalash uchun "virtuallik" atamasini ishlatishimiz mumkin. Bundan virtuallik - bu olamning ma'lum bir tarkibiy qismi bo'lib, u passiv, o'zaro ta'sirdan tashqari yashirin, kodlangan shaklda mavjud bo'lishni anglatadi degan xulosaga kelingan.

Virtual reallik texnik va inson tasavvurining qandaydir o'ziga xos umumlashmasidir. Uning insonga, inson ruhiyatiga umuman jamiyatning madaniyatiga ta'sirini real baholash mushkul. Chunki undagi virtuallik yangicha voqelikni, zamonaviy olamning o'ziga xosliklarini aks ettiruvchi yangi ijtimoiy madaniy qoidalarga ko'ra yaratishga katta yordam beradi.

Virtual dunyo deganda, amaliy jihatdan odam nafaqat kompyuter simulyatsiyasini, balki ob'ektiv haqiqat mantig'iga ko'ra, ijtimoiy tuzilishdagi o'zgarishlar (utopiya, distopiya), axloqiy va aksiologik qadriyatlar (mehr-muhabbat, mehr-oqibat), shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini (tushlar, orzular)ni inobatga olgan holda qurilgan xayoliy, efemer dunyoni tushinishi kerak. Virtual voqelik mavjud voqelikka parallel bo'lib, real dunyo hodisalari va inson ijodkorligi natijasi o'laroq ontologik borlig'iga ko'ra insonning real, ob'ektiv ta'sirida bo'lmaydigan narsani o'zgartirish imkoniyatidir.

Virtual madaniyatini rivojlantirishda kitob o'qish, mutolaa madaniyatini ham kuchaytirish juda muhim vazifadir. Kitob o'qish tajribasini insoniyat boyligi bo'lgan – bilimlar hajmi, intellekt, muloqot tajribasi va shaxsning ijodiy barkamolligi bilan tenglashtirish mumkin.

Xulosa. Ma'lumki, har qanday davlat yoki jamiyatning kelajagi, istiqboli va ravnaqini yanada yuksaltirish yoshlarning qo'lidadir. Lekin turli buzg'unchi oqimlarga a'zo bo'lgan aqidaparastlik mafkurasi bilan sug'orilgan yoshlarning qo'lga o'tadigan davlat, jamiyat yoki oila qanday axvolga tushishi mumkinligini ko'z oldiga keltirish qiyin emas. Shuning uchun yoshlarni asrab avaylash hamda yuqorida keltirilgan buzg'unchi illatlardan himoya qilishimiz uchun avvalo ota onalar virtual madaniyatga ega bo'lishi zarur, deb o'ylaymiz. Shu o'rinda aksariyat ota-onalarning virtual - pedagogik, psixologik bilimlari u qadar chuqur emas. Bu esa o'z-o'zidan ularda farzandlarining media bilan munosabatlarini to'g'ri tashkil etish bo'yicha ta'lim muassasalaridan amaliy-metodik yordam olish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Oilada mediata'limni tashkil etishda ota-onalarga ta'lim muassasalari yordamga keladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, bugungi yosh avlod shu darajada shakllangan va qaror topgan bo'lishi lozimki, ular virtual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olishi zarur. Umuman, bugun axborot makonidagi real voqelikdan kelib chiqib, keng jamoatchilikning manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida yoshlarimizni nosog'lom axborotlardan himoyalash masalasini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish joiz. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning shunday fikrlari bor: "Ilm olish dastlab axloqiy poklikni talab qiladi. Shuningdek, ta'lim va tarbiya bir butunlikni ko'rsatadi, faqat shu borliqqa amal qilgan shogirdlar kamolot sari bora oladi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2019. - 88 b.

2. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- O., O'zbekiston: NMIU, 2016. 14-bet.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son —2022- 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni. <http://lex.uz/uz/docs/-5841063>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ3160-son. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risidagi qarori. <http://lex.uz/docs/-4071203>

5. Xodjayev B., Maxmudova M. O'quvchi – yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlanish texnologiyasi. – T., "Tafakkur qanoti", 2016. 7- bet.

6. Lutfullayev A., Jabborov E. Ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta'siri hamda axborot xurujlari. ARES, Volume 2, Issue 4, 2021. 642-bet.

7. Utegenova J.Dj. Virtual reallik XX asr madaniy fenomeni sifatida. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati., Samarqand – 2023, 47 bet

8. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz (Ota-onalar uchun). T.: "Ma'naviyat", 2013.-320 b.
9. Salieva Z.T. Pedagogika Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc). ...diss. – Toshkent, 2017. –179 b.
10. Д.Дойч. Структура Реальности. Оп. 1997 г. Allen Lane, The Penguin Press. Н.А. Зубченко РХД - М-Ижевск 2001. 451 b
11. Kroker A., Weinstein M/ Date trash/ The theory of the virtual class/ Monreal, 1997. 177 b
12. Вершинин М.С. Политическая коммуникация в информационном обществе / М. С. Вершинин. - СПб. : Изд. Михайлова В.А.,2001. 98-107 b
13. Ирхин Ю.В. «Электронное правительство»: теория и практика // No4. 2008; Лукина М.М. Теория и практика. - М2011, 163-173 b
14. Нисневич Ю.А. Информационная политика России: проблемы и перспективы. М.1999, 351 b
15. Хорина.Г.П. Информационная культура в концепциях информационного общества. // Философия и культура. - 2012. - № 4. - С. 14-20 b
16. Kushakov Sh.S. Креативность как характеристика семантической виртуальности// Falsafa va fanlar metodologiyasi muammolari: Respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. – T.: —Mumtoz so'zli, 2016.- S. 29- 32 b
- Sanaqulov A.N. Prospective Directions of Effective Use of Virtual Technologies in Increasing the Power of Youth. JournalNX, 897-903 b.
17. Normamatova M. Virtualistikada postnoklassik epistemologiya g'oyalari. fal.f.b.f.d. (PhD) Avtoref. – Samarqand., 2018. – 40 b.

Muallif:

Sharapova Saboxat Djabbarovna - GulDu professori v.b., ps.f.d. (DSc).

UDK 372.879.6

GENERAL PRINCIPLES OF IMPROVING THE TRAINING PROCESS OF YOUNG BASKETBALL PLAYERSYOSH

BASKETBOLCHILARNING MASHG'ULOT JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING UMUMIY ASOSLARI

ОБЩИЕ ПРИНЦИПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА ЮНЫХ БАСКЕТБОЛИСТОВ

Sherboyev Davron Muhammad o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti,12010. Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, 4-mavze

E-mail: dsherboev@inbox.ru

Abstract. This article contains information about the general principles of improving the training process of young basketball players and improving their competencies in modern sports. There is talk of measures to increase the position and prestige of basketball in world sports and further improvement of training. It is necessary to use the latest technologies in order to show the young people entering the new sport the noble beauty of basketball, therefore, the training of basketball players is a complex approach that considers various physical, technical, tactical and mental aspects of the game. Some general principles of sports training for basketball players are given. In addition, general information about the methods of effective organization of sports training through the methods and tools of sports training is covered.

Keywords: Sports training, technical, tactical, improvement, sports training, coordination, psychological, pedagogical.

Аннотация. В данной статье содержится информация об общих принципах совершенствования тренировочного процесса юных баскетболистов и повышения их компетенций в современном спорте. Речь идет о мерах по повышению позиции и престижа баскетбола в мировом спорте, дальнейшему совершенствованию подготовки. Необходимо использовать новейшие технологии, чтобы показать молодежи, входящей в новый вид спорта, благородную красоту баскетбола, поэтому подготовка баскетболистов представляет собой комплексный подход, учитывающий различные физические, технические, тактические и психологические аспекты игры. . Приведены некоторые общие принципы спортивной подготовки баскетболистов. Кроме того, освещаются общие сведения о методах эффективной организации спортивной тренировки посредством методов и средств спортивной тренировки.

Ключевые слова: Спортивная подготовка, техническая, тактическая, совершенствование, спортивная подготовка, координация, психологическая, педагогическая.

Kirish. Mustaqillikning o'tgan yillarida mamlakatimiz sportchilarining Osiyo o'yinlari, turli xalqaro turnirlar, jahon chempionatlari va Olimpiya o'yinlaridagi muvaffaqiyatli ishtiroki va sovrinli o'rinlari tufayli O'zbekistonning xalqaro nufuzi tobora ortib bormoqda. Sportdagi bu yutuqlar xalqimizda o'zlikni anglash, hamjihatlik, vatanparvarlik

tuyg'ularining yuksalishiga olib keldi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev, "Biz O'zbekistonning xalqaro sport maydonlarida obro'-e'tibori va nufuzini oshirishga katta hissa qo'shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, sportning yuqori saviyasidagi yutuqlar bilan cheklanib qolmaslik kerak, shuningdek, biz ham o'zimizni xalqaro sport maydonlarida qo'lga kiritishimiz kerak. Ommaviy sportga katta e'tibor qarating" nomli maqolasi mamlakatimizda aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir.[5]

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. [6] [7]

Tadqiqot ob'yekti va qo'laniladigan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida basketbolchilar sport trenirovkasining umumiy asoslari takomillashtirish rivojlantirish jarayoni. Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatuv, so'rov, suhbat, anketa, test, intervyu, usullaridan foydalanildi

Olinadigan natijalar va ularning tahlili

Sport trenirovkasi-bu uzoq muddatli pedagogik jarayon bo'lib, i'z oldiga i'yin malakalariga i'rgatish, ularni takomillashtirish, yakka, guruh va jamoa texnik va taktik harakatlarini o'zlashtirishni maqsad qilib qo'yadi. Vazifalari: ma'naviy va ruhiy xislatlarni tarbiyalash; jismoniy va funksional tayyorgarlikni taraqqiy ettirish; sihat-salomatlikni mustahkamlash; asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalash (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik); hayotiy zarur malaka va ko'nikmalarni shakllantirish (yurish, yugurish, sakrash, ulotirish, suzish); "Alpomish va Barchinoy" test me'yorlariga tayyorgarlik ko'rish va topshirish; texnik va taktik harakatlarni ijro etishda zarur qobiliyat va maxsus sifatlarni taraqqiy ettirish; o'yin malakalari - texnik va maxsus sifatlarni taraqqiy ettirish; i'yin malakalari - texnik va taktik harakatlarni yuqori saviyada ijro etishni o'zlashtirish; hujum va himoyada jamoa bo'lib maqsadga muvofiq harakat qilishni shakllantirish; basketbol bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallash (rejalashtiruv xujjatlari, kundalik olib borish, o'rgatish texnologiyasi, hakamlik amaliyoti, ish qobiliyatini tiklash vositalari); o'zlashtirilgan o'yin, malaka va ko'nikmalarni musobaqada samarali qo'llashni joriy etish.

Sport trenirovkasining uslublari, vositalari. Shartli ravishda sport trenirovkasi uslublarini 3 guruhga bo'lish mumkin: so'z, ko'rgazmali va amaliy. Ushbu uslublar alohida yoki birgalikda (baravariga) trenirovka mashg'ulotining vazifalariga mos bo'lishi, mazkur vazifalarni hal eta olishi lozim. Bundan tashqari bu uslublar trenirovka prinsiplariga (malakasiga) mos bo'lishi darkor.[1]

So'z uslubi-murabbiy tomonidan biror texnik element, malaka yoki jismoniy mashqlar mohiyati, tarkibiy tuzilishi koordinatsion, biomexanik va kinematik xususiyatlarini bayon etish, tushuntirish hamda tasavvur hosil qilishdan iborat.

Ko'rgazmali uslub, odatda so'z uslubi bilan bir vaqtni o'zida qo'llaniladi va mashqlar na'munasi, texnik nusxalari hamda ijro etish tartibini videofilmlar, slaydlar va rasmlar yordamida namoyish etishdan iborat.

Amaliy uslublar o'z navbatida 2 guruhga bo'linadi: 1) Muayyan sport turiga xos texnik-taktik malaka, harakat ko'nikmalarini hosil qilish va shakllantirishga qaratilgan uslublar; 2) Jismoniy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan uslublar. Ushbu uslublar qayd etilgan ikki holatda ham qo'llanilishi mumkin. Sport texnikasini (harakat malakasini) to'liq yoki qismlarga (elementlarga) bo'lib o'rgatish uslublari mavjud. Ayrim hollarda harakatlarni qismlarga bo'lib o'rgatish imkoniyati bo'lmasa, bunday harakatlar to'liq holda o'rgatiladi. Ammo sport texnikasini aniq tarkibiy tuzilishiga (strukturasiga) mos ravishda o'rgatish uchun uni imkoniyati boricha qismlarga bo'lib o'rgatish katta samara beradi. Bunda, ayniqsa taqlidiy, ya'ni to'psiz bajariladigan (yoki to'pni o'rniga qulay buyum, moslama) mashqlar juda qo'l keladi. [2]

Qismlarga bo'lib o'rgatish uslublari. Bu uslubni qo'llash dastlabki, bosqichli i'rgatish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Harakatning texnik: qismlari shakllana borgan sari (qaytarish uslubi yordamida) uni to'liq holda o'rgatish uslubi o'z o'rnini egallab boradi. Dastlabki o'rgatish jarayonida tayyorlovchi va yondashtiruvchi mashqlarga e'tibor berish muhim ahamiyatga egadir. Sport texnikasini qismlarga bo'lib o'rgatish uslublari nafaqat bosqichli o'rgatish jarayonida, balki texnik-taktik mahoratning eng yuqori bosqichlarida ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, yangi texnik usul yoki taktik kombinatsiyalarni kashf etishda juda qo'l keladi.

Basketbolchilarni tayyorlash o'yinning turli jismoniy, texnik, taktik va ruhiy jihatlarini ko'rib chiqadigan kompleks yondashuvni talab qiladi. Basketbolchilar uchun sport mashg'ulotlarining ba'zi umumiy tamoyillari: 1.Individual yondashuv: har bir o'yinchining kuchli, zaif tomonlari va rivojlanish ehtiyojlari borligini tan oling. O'quv dasturlarini individual o'yinchining qobiliyatlari va maqsadlariga moslashtiring. 2.Asosiy ko'nikmalarni rivojlantirish: Otish, dribling, to'p uzatish va himoya kabi asosiy basketbol ko'nikmalarini rivojlantirishga urg'u bering. Ushbu asoslarga qaratilgan takroriy mashqlar o'yinchini yaxshilash uchun juda muhimdir. 3.Kuch va konditsionerlik: O'yinchilarning kuch, tezlik, chaqqonlik va chidamlilik kabi jismoniy xususiyatlarini yaxshilash uchun kuch va konditsioner dasturlarini amalga oshiring. Basketbol - bu jismoniy mashaqqatli sport, shuning uchun o'yinchilar eng yaxshi natijaga erishish va

jarohatlarning oldini olish uchun eng yuqori jismoniy holatda bo'lishlari kerak. 4.Funksional trening: Basketbol o'yinining harakatlari va talablarini taqlid qiladigan mashqlar va mashqlarni loyihalash. Portlash qobiliyatini, yo'nalishni o'zgartirishni va vertikal sakrash qobiliyatini yaxshilaydigan mashqlarni qo'shing. 5.Ko'nikmalarning rivojlanishi: O'yinchilarni asosiy ko'nikmalardan ilg'or ko'nikmalarga bosqichma-bosqich oshirish uchun o'quv mashg'ulotlarini tuzing. Oddiy mashqlardan boshlang va o'yinchilarning rivojlanishi bilan murakkablik va intensivlikni asta-sekin oshiring. 6.O'yinga o'xshash simulyatsiyalar: O'yinchilarga qaror qabul qilish, fazoviy idrok va vaziyatni tushunish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berish uchun haqiqiy o'yin vaziyatlarini taqlid qiluvchi mashqlar va skrimmlarni o'z ichiga oling. 7.Davrlash: Mashg'ulot dasturini turli bosqichlarga bo'ling (masalan, mavsumdan tashqari, mavsum oldidan, mavsumda) va mashg'ulot intensivligini, hajmini va shunga mos ravishda diqqatni sozlang. Davriylashtirish ish faoliyatini optimallashtirish bilan birga charchash, ortiqcha mashq qilish va jarohatlarning oldini olishga yordam beradi. 8.Oziqlanish va tiklanish: O'yinchilarni to'g'ri ovqatlanish va adekvat tiklanish strategiyalari (masalan, dam olish, namlanish, uyqu) muhimligi haqida o'rgating. 9.Ruhiy konditsionerlik: o'yinchilarni aqliy mustahkamlik, diqqatni jamlash, chidamlilik va ishonchni rivojlantirishga o'rgating. Aqliy samaradorlikni oshirish uchun vizualizatsiya usullarini, maqsadlarni belgilash va ongni rivojlantirish mashqlarini qo'shing. 10.Fikr-mulohaza va baholash: o'yinchilarga ularning faoliyati va taraqqiyoti haqida konstruktiv fikr-mulohaza bildiring. Yaxshilash uchun yo'nalishlarni aniqlash va shunga mos ravishda o'quv dasturlarini tuzatish uchun individual va jamoaviy ish faoliyatini muntazam ravishda baholang. 11.Jamoa qurish va muloqot: O'yinchilar va murabbiylar o'rtasida do'stlik, ishonch va samarali muloqotni targ'ib qiluvchi ijobiy jamoa madaniyatini rivojlantirish. Jamoa qurish faoliyati va muloqot mashqlari jamoaning birdamligini mustahkamlashga yordam beradi. 12.Shikastlanishning oldini olish: To'g'ri isitish tartib-qoidalari, moslashuvchanlik mashqlari va jarohatlarning oldini olish strategiyalarini o'z ichiga olgan jarohatlarning oldini olish dasturlarini amalga oshiring. Bundan tashqari, o'yinchilarga kerak bo'lganda tegishli tibbiy yordam va rehabilitatsiya yordamini olishlarini ta'minlang. Ushbu tamoyillarga amal qilgan holda, murabbiylar basketbolchilarga o'z imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish, mahoratini oshirish va individual va jamoaviy muvaffaqiyatlarga erishishda yordam berishi mumkin.[2] [3]

Sport trenirovkasining davriyligi yillik tayyorgarlik siklining davrlar va bosqichlarga bo'linishi ko'p yillik sport trenirovkasi jarayonida yuqori malakali sportchilar tayyorlash, ish qobiliyati va "sport formasi"ni muayyan tartibda shakllantirish, ushbu faollikni ma'lum muddat ichida (musobaqa sikli davomida) saqdam turish, uni tiklab borish, "vaqtincha yo'qotish" va yana qayta shakllantirish bilan bog'liq vazifalarni yechishga qaratiladi.

"Sport formasi" deb sportchining eng yuqori natijaga erishishiga imkon beradigan holatiga aytiladi. Bu holat jismoniy, texnik, taktik va psixofunksional tayyorgarlikning eng yuqori darajada shakllangan "cho'qqi"si bilan belgilanadi.

Sport formasining shakllanishi uch fazadan iborat bulib, ular bir yillik va ko'p yillik trenirovka jarayonida ma'lum tartibda almashinib turadi. Birinchi faza - sport formasini shakllanishiga poydevor yaratish va uni eng takomillashgan darajasiga ko'tarilishini o'z ichiga oladi. Ikkinchi faza - takomillashgan sport formasini turg'un holatda saqlashdan iborat. Uchinchi faza - sport formasining vaqtincha susayishi bilan farqlanadi. Nima uchun yuqori darajada shakllangan sport formasini muttasil uzoq vaqt saqlab turish imkoni yo'q degan savol tug'iladi. Bu savolga quyidagicha izoh berish mumkin: Birinchidan - shug'ullanuvchi organizmining harakatlariga moslashishida ish qobiliyati doimo yuqoriga qarab uzluksiz o'sib boravermaydi. Mashg'ulotlarning yalpi yuklamalaridan so'ng organizmda charchoq asoratlari vujudga keladi. Ularni bartaraf etish "yo'qotish" uchun ish qobiliyatini tiklash zarur. Buning uchun esa ma'lum muddat kerak. Aynan ana shu tiklanish davri tugagandan so'ng ish qobiliyatini taraqqiy ettirish va sport formasini yanada yuqori darajasiga ko'tarishga imkon yaratiladi. Ikkinchidan - sportchining har tomonlama tayyorgarlik darajasini muntazam oshira borish to'liqinsimon yo'nalishda amalga oshirilishi kerak. Bu organizmni harakat yuklamalariga biologik qonuniyatlar asosida moslanib borish bilan izohlanadi [1].

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, basketbolchilar uchun samarali sport mashg'ulotlari individual mahoratni rivojlantirish, kuch va konditsionerlik, o'yinga o'xshash simulyatsiyalar, ilg'or mashg'ulotlar usullari, davrlashtirish, to'g'ri ovqatlanish va tiklanish, aqliy konditsionerlik, fikr-mulohazalar va baholash, jamoa dinamikasini rivojlantirish va jarohatlarning oldini olish choralarini o'z ichiga oladi. Ushbu tamoyillar birgalikda o'yinchilarning ish faoliyatini optimallashtirishga, jarohatlar xavfini kamaytirishga va umumiy jamoa muvaffaqiyatiga yordam berishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Pulatov, F.V.Ganiyeva, B.M.Miradilov, D. T .Xosanova, F .A.Pulatov "BASKETBOL NAZARIYASI VA USLUBIYATI" darslik. «Sano-standart» nashriyoti Toshkent-2017. – 180 b.
2. Abdumumin o'g'li, B. E. (2023). Improving students' healthy lifestyles based on creative approaches. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 26, 47-49.
3. Anorqulov, B. (2022). JISMONIY MASHQLARDAN KEYIN ORGANIZMNING QAYTA TIKLANISHI. Science and innovation, 1(B7), 693-697.
4. Kurbanov, E. E. (2023). THE CONTENT OF IMPROVING THE SYSTEM OF QUALITY EDUCATION ON THE BASIS OF SPIRITUAL AND MORAL TRAINING OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(09), 106-113.

5. Shermuxammad o'g'li, I. S., & Abdumannonovna, I. S. TALABALAR SPORT MUSOBAQALARINI TASHKIL QILISH VA HAKAMLIK QILISH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.
6. Shermuxammad o'g'li, I. S. (2023). CREATION AND DEVELOPMENT OF EFFECTIVE MANAGEMENT MECHANISM OF SPORTS FACILITIES. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 8, 9-13.
7. Sunnatulla, I. (2023). Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization. Confrencea, 11(1), 149-153.

Muallif:

Sherboyev Davron Muhammad o'g'li - Guliston davlat pedagogika instituti "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrası o'qituvchisi.

UDK 372.879.6

DEVELOPMENT OF HIGH-JUMPING ABILITIES OF VOLLEYBALL PLAYERS

VOLEYBOLCHILARNI YUQORIGA SAKRASH QOBILIYATINI O'STIRISH

РАЗВИТИЕ СПОСОБНОСТЕЙ ВЫСОКИХ ПРЫЖКОВ У ВОЛЕЙБОЛИСТОВ

Jonibekov Shuxrat Jonibekovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mavze

E-mail: suhratjonibekov024@gmail.com

Annotation: This article covers the issue of developing the ability of young volleyball players to jump up through sports action games, making a forecast by testing these processes in research, and introducing these movement exercises to athletes once the intended goal is achieved.

Keywords: Sports, health, competent, efficiency, speed, technical, tactical, relay, development, tension, muscle.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh voleybolchilarning sport harakatli o'yinlari orqali yuqoriga sakrash qobiliyatini rivojlantirib borish, ushbu jarayonlarni tadqiqotlarda sinash orqali prognozini chiqarish, ko'zlangan maqsadga erishilgach ushbu harakatli mashqlarni sportchilarga tadbiiq qilish masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sport, salomatlik, barkamol, samaradorlik, tezkorlik, texnik, taktik, estafeta, rivojlantirish, zo'riqish, mushak.

Аннотация: В данной статье освещается вопрос о развитии способности юных волейболистов к прыжкам в высоту посредством спортивных подвижных игр, выводе прогноза этих процессов путем тестирования их в исследованиях, применении этих двигательных упражнений к спортсменам после достижения намеченной цели.

Ключевые слова: Спорт, Здоровье, компетентность, работоспособность, быстрота, техника, тактика, эстафета, развитие, напряжение, мышцы.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2017-yil 31-oktyabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpo etish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda biz sportchi pedagoglarga bir qancha fazifalar belgilangan.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar o'rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g'urur-iftixor bag'ishlaydi [1] deb aytgan gaplari biz sport murabbiylarini yanada ruxlantiradi.

Tadqiqot ob'yekti va qo'laniladigan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida voleybolchilar sport trenirovkasining umumiy asoslari takomillashtirish rivojlantirish jarayoni olindi. Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatuv, so'rov, suhbat, anketa, test, intervyu, usullaridan foydalanildi. Biz tadqiqot olib borayotgan ushbu mavzuda yurtimizda bir qancha sport murabbiylari, ushbu sport turini o'zining ilmiy mavzusiga aylantirgan sportchi pedagoglar. Bugungi kunda ushbu soxada bir qancha yutuqlarga erishildi. Ushbu soxada ish olib borgan ustozlarimiz orasida professorlar T.S.Usmonxo'jayev, R.Salomov, J.Nurshin, F.Kerimov (Toshkent), T.X.Xoldorov, A.T.Sodiqov, X.A.Miliyev, B.A.Buriboyev, F.Axmedov, O.E.Muqimov (Jizzax), H.Rafiyev, A.X.G'ulomov (Samarqand) va boshqalarining o'quv uslubiy qo'llanmalari ilmiy maqollari, monografiyalari o'rganildi.

Olinadigan natijalar va ularning tahlili

Turli sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalar muddati xalqaro musobaqalar qoidalari bilan belgilanadi. Shu musobaqalar muddatida qaysi sportchi o'z ish qobiliyati sifati va samaradorligi jihatidan qanchalik uzoq vaqt saqlay olsa yoki uni oshira olish «kuchi»ga ega bo'lsa, unga muvaffaqiyat shunchalik kulib boqishi muqarrar. Boshqacha qilib

aytganda ish qobiliyatining sifat va samaradorlik darajasini ko'p yoki kam vaqt davomida saqlanishi tezlik sifatlarining turlari (sakrovchanlik, tezlik-kuch, tezkor sakrash, «texnik-taktik sakrovchanlik» va hokazo) qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi [2].

Voleybolchilar uchun asosiy jismoniy sifatlardan biri sakrovchanlikdir. Sakrovchanlik tezlik-kuchlilik qobiliyatlariga mansub bo'lib oyoq mushaklarining qisqa muddat ichida kuchli qisqarishi bilan ifodalanadi. Aynan shu sifatni yuksak darajada bo'lishi nisbatan past bo'yli o'yinchilarni baland bo'yli o'yinchilar bilan raqobatini va asosiy o'yin malakalarini (zarba berish va to'siq qo'yish) samarali ijro etilishini ta'minlaydi [3].

Zamonaviy voleybolda samarali o'yin ko'rsatish va yuqori natijalarga erishishi faqat o'ta shakllangan jismoniy tayyorgarlik evaziga amalga oshirilishi mumkin. Voleybolchilar uchun jismoniy sifatlardan kuchlilik muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu sifatlardan aksariyat o'yin malakalarining samarali ijro etilishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlarni o'zida aks ettira olgan sportchining maydondagi faoliyati ko'zga aniq tashlanadi. Bundan tashqari kuch va chidamkorlik, kuch bilan zarba berish, ish qobiliyatini tushirmasdan uzoq vaqt malakalarini samarali bajara olish qobiliyatlari ham yetakchi o'rinda turadi. Shuning uchun sport tayyorgarligi jarayonida tezkorlik, kuch, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir [4].

Voleybolda o'yin malakalarini (to'p kiritish, uzatish, zarba berish, to'siq qo'yish) sakrab samarali ijro etish har bir o'yin ko'rinishini yoki butun o'yin taqdirini belgilaydi. Demak, shu sifat qancha yuqori rivojlangan bo'lsa shuncha to'p kiritish imkoniyati ortadi. Shuning uchun sakrovchanlik va tezkor sakrovchanlik sifatlarini voleybolga xos xususiyatga moslashtirib rivojlantirish nafaqat sport mahoratini takomillashtirish guruhlarida katta rol o'ynaydi, balki bunday ixtisoslashtirilgan sifatlarni dastlabki o'rgatish bosqichidanoq boshlab shakllantira borish muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Pedagogik tadqiqot davomida yuqoriga sakrash va maxsus sakrovchanlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan estafetali-o'yin mashqlari bilan shug'ullangan tajriba guruhidagi bolalarda o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning o'sish darajasi o'ta samarali rivojlanganligi kuzatildi. Sababi ularda ruxiy jixatdan o'zining vazni boshqarilishi yengillashadi va ushbu sport turida sakrash uchun yengillik beradi. Jumladan, pedagogik tadqiqot boshlanishidan avval tajriba guruhida joydan turib vertikal sakrash 32,8 sm ga teng bo'lsa, tadqiqot so'ngida bu ko'rsatkich 39,3 sm (farq 6,5 sm) gacha o'sdi. Joydan turib uzunlikka sakrash - 170,4 sm dan 181,2 sm ga ortgani kuzatildi. Binobarin, pedagogik tadqiqot davomida qo'llanilgan maxsus estafetali-o'yin mashqlari sakrovchanlik sifatini rivojlantirish borasida o'ta samarali ekanligini isbotlab berdi. Alohida shuni ta'kidlash lozimki, tajriba guruhida shug'ullangan bolalarda nafaqat o'rganilayotgan maxsus jismoniy sifatlardan tez sur'atlar bilan rivojlanganligi namoyon bo'ldi, balki bu bolalarda faollik va qiziqish alomatlari yaqqol ko'zga tashlandi, o'yin malakalarini o'zlashtirish jarayoni ancha yengil kechayotgani kuzatildi. Bundan tashqari shu guruhdagi bolalarda mashqlarga ijodiy yondoshish alomatlari yaqqol ko'zga tashlandi.

Bizga yaxshi ma'lumki ushbu estafeta mashqlarini bajargan sportchilar bilan keying guruh o'rtasidagi farq ko'zga yaqqol ko'rinadi. Ma'lumki, o'yin tarzida qo'llaniladigan mashqlar bolalar organizmida (hujayra, to'qima, mushak tolalari va boshqalar) o'ta charchash yoki zo'rliqish alomatlari tez paydo bo'lishini orqaga suradi. Buning sababi, o'yin davomida shu bolalarning emotsional holati ko'tariladi, ular yuklama haqida o'ylamaydilar. Boshqacha qilib aytganda bunday nostandart o'yin yuklamalari bolalarni charchashdan chalg'itadi. Aynan shu holatlar shug'ullanuvchi yosh bolalarda jismoniy sifatlarni samarali rivojlanishiga turtki beradi.

XULOSA. Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimiz vakillarining Olimpiya o'yinlari, jahon chempionatlari, Osiyo o'yinlari va chempionatlari hamda xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishayotgani, dunyoda O'zbekistonning obro'-e'tibori va sport salohiyati yanada oshayotgani, respublikamiz hududlarida jahon andozalariga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, o'quvchi va talaba-yoshlar o'rtasida uch bosqichdan iborat "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va Universiada sport o'yinlari ommalashib borayotgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uzreport.news/sports/shavkat-mirziyoyev-sport-sohasini-yanada-ommalashtirish-bo-yicha-yig-ilish-o-tkazdi.30.01.2023>.
2. O.V.Goncharova "Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish". T., O'zDJTI matbaa nashriyoti bo'limi, 2005 y. 57-b.
3. A.A.Po'latov. O'rgatish uslubiyatiga noan'anaviy yondoshish masalalari. O'qituvchilar va talabalar ilmiy konferentsiyasi to'plami. T., 1994.
4. Bolalar-o'smirlar sportini rivojlantirish muammolari va istiqbollari./ Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2003 yil 1 noyabr. Toshkent. 2003.
5. Usmonxo'jaev T.S., Qosimova M.U. 500 mashq va harakatli o'yinlar. T.: O'zDJTI. 1999. - 60-b.

Muallif:

Jonibekov Shuxrat Jonibekovich - GulDU jismoniy madaniyat kafedrasida o'qituvchisi.

UDK:373.1

IMPORTANCE OF EFFICIENCY OF SCHOOLS SPECIALIZED IN EDUCATION OF TALENTED CHILDREN

IQTIDORLI BOLALARNI O'QITISHGA IXTISOSLASHGAN MAKTABLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINING AHAMIYATI

ЭФФЕКТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛ НА ВОСПИТАНИЕ ТАЛАНТЛИВЫХ ДЕТЕЙ

Buriyeva Sora Salohitdinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, 140104, Bustansaroy ko'chasi 93.

E-mail: soraburiyeva@gmail.com

Abstract. In this article, the problem of effective development of talent and its manifestation in certain fields, effective ways of increasing the efficiency of educational institutions by attracting them to specialized schools, boring and interesting educational programs for gifted children, Among the factors that determine the level of talent, the issues of the special importance of activity and self-management were discussed.

Key words: psychological and physiological, effective ways, formation, differentiated, interests, individuality of the person, mass, management feature, achievements, peers, philosophical problems.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема эффективного развития таланта и его проявления в определенных сферах, эффективные пути повышения эффективности образовательных учреждений путем привлечения их в специализированные школы, скучные и интересные образовательные программы для одаренных детей. Среди факторов, определяющих уровень таланта, обсуждались вопросы особой важности деятельности и самоуправления.

Ключевые слова: психолого-физиологический, эффективные пути, формирование, дифференцированные, интересы, индивидуальность человека, массовость, особенности управления, достижения, сверстники, философские проблемы.

Kirish. O'quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini chuqur o'rganish asosida ularni ixtisoslashgan maktablarga jalb etish ta'lim muassasasi faoliyatining samaradorligini oshiruvchi samarali yo'llardan biri bo'lish bilan birga tabaqalashtirilgan ta'limni yo'lga qo'yilishiga imkon beradi. Zero, alohida iqtidorga ega o'quvchilarning tabaqalashtirilgan dasturlar asosida o'qitilishi ularga imkoniyatlari darajasidagi bilimlarni berilishini ta'minlaydi hamda qiziqishlarini yanada rivojlantiradi. Bu esa ularning iqtidorlarini yanada rivojlantiradi.

Iqtidorlilik va uning ma'lum sohalar bo'yicha namoyon bo'lishini samarali rivojlantirish muammosi so'nggi yillarda tabaqalashtirilgan psixofiziologiya yo'nalishi bo'yicha muvaffaqiyatli tadqiq etilgan. Jumladan, B.M.Teplov, B.G.Ananyeva, V.S.Merlin, M.G.Yaroshevskiy, V.V.Umrixin, L.Mesakki, J.Brozses, J.Strelau va I.V.Ravich-Xerbolarning tadqiqotlarida iqtidorlilik darajasini belgilab beruvchi asab tizimining holati va ichki sabablarini tahlil qilish yo'llari yoritilgan [1].

Ko'plab tadqiqotlarda iqtidorlilik darajasini belgilovchi omillar orasida faollik va o'z-o'zini boshqarish xususiyatining alohida ahamiyatga egaligiga alohida urg'u beriladi. Masalan, N.S.Leytes, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov, A.I.Krupnov va V.V.Pechenkovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bu kabi sifatlarning shaxs individualligini namoyon bo'lishi, ma'lum sohalarida yuqori darajada yutuqlarga erishishdagi roli va o'rni masalasi o'rganilgan.

V.V.Pechenkovning fikricha, ommaviy iqtidorlilikning muhim ko'rinishi bo'lgan faollik bir vaqtning o'zida shaxs temperamenti (mijoz)ning belgisi sifatida ham aks etadi. Bu esa asab tizimi, temperament (mijoz) va iqtidor insonning o'ziga xos individualligini belgilovchi yaxlit tuzilma ekanligini tasdiqlaydi.

Iqtidorli bolalar bilan ishlash nihoyatda murakkab. Maxsus adabiyotlarda bu murakkablik quyidagi muammolar bilan belgilanishi ta'kidlanadi: Maktab ta'limiga bevosita bog'liq shaxs bo'lmaslik (bunday munosabat iqtidorli bolalar uchun o'quv dasturlarining zerikarli va qiziqarli emasligi tufayli kelib chiqadi). Qiziqishlarning o'yin xususiyatiga egaligi (iqtidorli bolalarga nihoyatda murakkab bo'lgan o'yinlar yoqadi va ularni o'rtacha qobiliyatga ega bo'lgan tengdoshlarini qoniqtiruvchi o'yinlar mutlaqo qiziqitirmaydi. Bunday vaziyatlarda iqtidorli bolalar o'zlarini «ajratib qo'yilgan shaxs» sifatida his qiladi). Qulaylik (iqtidorli bolalar standart (bir qolipdagi) talablarni, agarda bu talablar ularning qiziqishlari bilan mos kelmasa va ular uchun hech bir ma'noni anglatmasa, mutlaqo inkor etadi. Falsafiy muammolar to'g'risida o'ylash (iqtidorli bolalar o'rtacha qobiliyatga ega tengdoshlariga nisbatan o'lim, jasad qabrga qo'yilgandan keyingi holat, diniy e'tiqod hamda falsafiy muammolar to'g'risida ko'proq o'ylaydilar). Jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishning o'zaro muvofiq kelmasligi (iqtidorli bolalarning ko'pchiligi katta yoshli bolalar bilan muloqotda bo'lish va ular bilan birga o'ynashga intiladilar. Bu holatda tabiiyki ular jismoniy rivojlanishiga ko'ra so'nggi o'rinda turadilar va natijada ko'p holatlarda lider bo'la olmaydilar) [2].

Maxsus tajribalarning natijalariga ko'ra 14-16 yoshli iqtidorli o'quvchilarda ixtiyoriy yodda saqlash ularning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir eta olmaydi, aksincha salbiy ta'sir ko'rsatishi tasdiqlandi. Yanada muhimi tajriba

natijalari musiqiy qobiliyat ko'p holatlarda ixtiyorsiz yodda saqlash asosida shakllanadi va uning qanchalik aniq, yorqin bo'lishi shaxsning ixtiyorsiz yodda saqlash unsurlari uchun shu darajada ahamiyatli deyishga asos bo'la oladi. V.S.Rotenberga tomonidan olib borilgan tadqiqot ham haqiqiy ijodiy iste'dodlilik negizida ixtiyorsiz ifoda yotishini tasdiqladi. Yuqori darajada musiqaviy iste'dodga ega bo'lgan shaxslarda mustaqillik, o'ziga xoslik, asarlarni ijro etishda yorqinlik, shuningdek, ixtiyorsiz yodda saqlash qobiliyatiga egalik ko'zga tashlanadi.

Demak, musiqiy iste'dodga ega bo'lishda asab tizimining zaif, kuchsiz bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Shu sababli aksariyat musiqa maktablarining o'quvchilari kuchsiz asab tizimi, unga xos bo'lgan yuqori darajadagi ta'sirchanlik yotadi. Shu sababli asab tizimining kuchsizligi, shuningdek, yuqori darajadagi ta'sirchanlik musiqiy iste'dodning tabiiy xususiyati hisoblanadi [3].

Demak, iqtidorli bolalarni tanlash va ularni ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga jalb etishda ularning quyidagi umumiy psixologik xususiyatlarga ega ekanliklarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir: Shaxs individualligining yorqin ko'zga tashlanishi. Shaxsning faolligi va o'z-o'zini boshqara olishi. Asab tizimining kuchli bo'lishi, jiddiylik va sovuqonlik (sport, ilmiy, texnik va til yo'nalishlarida). Asab tizimining nisbatan kuchsiz bo'lishi va o'ta ta'sirchanlik (musiqa, tasviriy san'at, amaliy san'at va xoreografiya yo'nalishlarida) Asab tizimining labilligi va og'uvchanligi. Yuqori darajada xotira kuchiga egallik.

Tadqiqot ko'lamini inobatga olgan holda tajriba sinov maydonlari sifatida san'at (musiqa, raqs va tasviriy san'at) yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalari tanlanganligi bois o'quvchilarning shu yo'nalishlardagi iqtidorlarining namoyon bo'lishini belgilovchi mezonlar ishlab chiqildi [4].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Bugungi kun tadqiqotlarida keltirilayotgan ilmiy xulosalar va takliflar yangidan-yangi zamonaviy tadqiqot usullarini talab qiladi. Shu boisdan ham tadqiqotlarda zamonaviy texnologiya va tadqiqot usullaridan foydalanish talab qilinadi. Mazkur tadqiqot jarayonida tizimlashtirish, taqqoslash, qiyoslash kabi zamonaviy tadqiqot usullaridan ham foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Qayd etilgan muammolarning mavjudligi o'z-o'zidan iqtidorli bolalarni o'qitish va ular bilan ishlash jarayoniga alohida yondoshish zarur ekanligini taqozo etadi. Bunday yondoshuv negizida ushbu jarayonga jalb etiluvchi o'qituvchilarni tanlash masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. O'qituvchilarni iqtidorli bolalar bilan ishlash jarayoniga jalb etishda qanday yo'l tutish pedagogik jihatdan to'g'ri va samarali bo'ladi? Quyida aynan shu xususida so'z yuritiladi.

Iqtidorli bolalar bilan ishlashdagi murakkablikni inobatga olgan holda bu jarayonga o'qituvchilarni tanlashda quyidagi shartlarga amal qilish talab etiladi: 1. O'qituvchilar shaxsini yaqindan o'rganish, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi (ma'naviy-axloqiy qarashlari, e'tiqodi, dunyoqarashining boyligi, ijtimoiy munosabatlarga nisbatan shaxsiy yondoshuvi, kelajakka bo'lgan ishonch tuyg'usiga egaligi va boshqalar)ni to'g'ri baholash. 2. Uning kasbiy mahorati (psixologik, pedagogik bilimlardan xabardorlik darajasi, ta'lim jarayoni subyektlari bilan aloqada bo'la olish layoqati, pedagogik vaziyatlarni to'g'ri baholay olish qobiliyati, mavjud ziddiyatlarni hal eta olish imkoniyati, metodik malakasi va hokazolarni obyektiv aniqlash. 3. O'qituvchilarning jismonan va ruhan sog'lom bo'lishlarini inobatga olish (iqtidorli bolalar doimiy faol shaxslardir. Shu sababli ular bilan ishlash bir vaqtning o'zida ham ruhan, ham jismonan sog'lom va baquvvat bo'lishni taqozo etadi). 4. Ularning tashabbuskor, tashkilotchi va ijodkor bo'lishlariga e'tibor qaratish (iqtidorli bolalarning qiziquvchan tabiati, faoliyat sharoiti va ko'rinishlarini tez-tez o'zgartirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish o'qituvchidan muayyan vaziyatlarga nisbatan ijodiy yondoshishni, bolalarga yangidan-yangi faoliyat turlarini taklif etishni talab qiladi. Bu esa iqtidorli bolalarni zerikishdan halos etib, ularni faol faoliyatga jalb undaydi). 5. O'qituvchilarning maxsus dasturlar bilan ishlay olish layoqatiga egaliklari (iqtidorli bolalarni o'qitish doimo maxsus o'quv dasturlari asosida tashkil etiladi. Shu bois o'qituvchilar kuchaytirilgan talablar bo'yicha yaratilgan o'quv dasturlari bilan ishlaydilar. Bu esa u qadar oson ish emas. Bu jihatdan qaraganda o'qituvchilarning maxsus dasturlar bilan ishlay olish imkoniyatlarining alohida e'tiborga olinishi maqsadga muvofiqdir).[5]

Ixtisoslashgan ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirishda texnologik jihatlarni ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, bu jarayonning bir necha bosqichda tashkil etilishi muhim texnologik unsuri sifatida ko'zga tashlanadi: 1-bosqich: iqtidorli o'quvchilarni tanlash. 2-bosqich: iqtidorli o'quvchilarni ixtisoslashgan ta'lim maktablarga jalb etish. 3-bosqich: o'quvchilarning iqtidorlarini yanada rivojlantirishga yordam beruvchi zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish. 4-bosqich: o'quvchilar iqtidorini ularni turli musobaqa, ko'rik-tanlovlarga jalb etish asosida aniqroq namoyon bo'lishini ta'minlash. 5-bosqich: o'quvchilar iqtidori darajasini doimiy ravishda malakali tahlil etib borish. 6-bosqich: ixtisoslashgan maktablarda ta'lim olgan o'quvchilarning malakali mutaxassislar bo'lib yetishishlarini tahlil etishga yordam beruvchi monitoringni yo'lga qo'yish.

Xulosa. Ixtisoslashgan maktablar faoliyati samaradorligini oshirishda ta'lim muassasasiga malakali psixologlarni jalb etish ham muhim ahamiyatga ega. Binobarin, o'quvchilarning iqtidori darajasini uzluksiz ravishda, izchil o'rganib borish, erishilayotgan yutuqlar omillarini to'g'ri baholash hamda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarning sabablarini tahlil etish aynan maxsus bilim va tajribaga ega psixologlar tomonidan amalga oshiriladi.

Malakali psixologning ixtisoslashgan maktablarda faoliyat olib borishi o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning mo'tadil kechishiga, yuzaga kelgan ziddiyatlarning oldini olishga ham yordam beradi. Psixolog ko'magida har bir o'quvchining shaxsi va iqtidori, uning darajasini yorituvchi "O'quvchi shaxsi xaritasi"ning ishlab chiqilishi yutuqlarga erishish asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Zero, o'qituvchilarning "O'quvchi shaxsi xaritasi" bilan ta'minlanishlari o'quvchilarga ularning individualligini, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yondoshishga imkon beradi.

Iqtidorli bolalarni tanlash va ularga ta'lim berishda psixologik test va metodikalardan foydalanish o'quvchilarning iqtidorini yanada rivojlantiribgina qolmay, balki ixtisoslashgan maktablar faoliyati samaradorligini oshirishga ham xizmat qilishi to'g'risidagi qarash maxsus metodikaning bosh g'oyasi sifatida belgilandi.

G'oya negizida: ixtisoslashgan maktablar tomonidan iqtidorli bolalarning to'g'ri tanlanishiga (maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalari, shuningdek, oilalar bilan hamkorlikda) erishilsa; ta'lim davrida o'quvchilar iqtidorining dinamik o'sishi izchil ravishda tahlil etib borilsa; ixtisoslashgan maktablarning o'qituvchilari o'quvchilar iqtidori, uning takomillashib borish darajasini baholash (maxsus psixologik test va metodikalardan foydalanish) ko'nikmalariga ega bo'lsalar; ixtisoslashgan maktablarning faoliyati izchil, uzluksiz ravishda ekspertizadan o'tkazilib borilsa; uzoq va yaqin kelajakka mo'ljallangan monitoring yo'lga qo'yilsa ixtisoslashgan maktablar faoliyatida samaradorlikka erishiladi degan farazlar ilgari surildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Голубевой Э.А.Способности и склонности: комплексные исследования. – М.: Педагогика, 1989.-190-198.
2. Одарённые дети (Пер. с англ.). – М.: Прогресс, 1991. 1153-1159.
3. Ортиков Н. Миллий ва умуминсоний кадриятлар асосида ўқувчи шахсини ахлокий шакллантириш: Пед.фан.докт ... дисс. - Т.: 2000. – 149, 305 б.
4. Очилов З. Синфдан ташқари тарбиявий ишларда касб танлашни шакллантириш. –Т.: Ўқитувчи, 1996.-120 б.
5. Иноятов У.И. ЎМКҚТда сифатни бошқариш ва назорат этиш //Касб маҳорати ж., 2003. 4-сон. –81-85 б.
6. Mattiyev, I. B. (2024). Talabalarda madaniyat mazmunining invariantini o'zlashtirganda salomatlikni takomillashtirish darajasi. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 3(1), 206-209.

Muallif:

Buriyeva Sora Salohitdinovna - Samarqand davlat chet tillar instituti, mustaqil tadqiqotchi.

UDK 372.879.6

DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF SPEED QUALITY OF UNDER 10-12 FOOTBALL PLAYERS

10-12 YOSHGACHA BO'LGAN YOSH FUTBOLCHILARNING TEZKORLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH

РАЗВИТИЕ И УЛУЧШЕНИЕ СКОРОСТНЫХ КАЧЕСТВ ФУТБОЛИСТОВ 10-12 ЛЕТ

Saidov Umid Abdug'afforovich, Isokova Sevara Abdumannonovna

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, 4-mavze

E-mail: saidovu958@jmail.com; sevaraisokova1@gmail.com

Abstract. in this article, the factors that develop the quickness qualities of modern 10-12-year-old football players are discussed. One of the most important aspects of sports training is the training of the physical qualities of a football player. Physical qualities are related to the morpho-functional, morpho-physiological and biological characteristics of the football player's body. Physical qualities have a positive effect on the improvement of the physical, technical and tactical skills, mental and emotional state of the participants. Football players perform each movement more and more confidently, master it faster and achieve better results.

Keywords: Physical qualities, physical workouts, training techniques and tactics.

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы, развивающие скоростные качества современных футболистов 10-12 лет. Одним из важнейших аспектов спортивной подготовки является тренировка физических качеств футболиста. Физические качества связаны с морфофункциональными, морфофизиологическими и биологическими особенностями организма футболиста. Физические качества положительно влияют на улучшение физических, технических и тактических навыков, психического и эмоционального состояния участников. Футболисты все увереннее выполняют каждое движение, быстрее осваивают его и добиваются лучших результатов.

Ключевые слова: физические характеристики, физические тренировки, подготовка техники и тактики.

Kirish. So‘nggi yillarda xalqimizning salomatligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ma‘naviy va jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, millionlar o‘yiniga bo‘lgan va mamlakatimizda alohida o‘rin tutadigan sportning futbol turiga aholini, ayniqsa yoshlarni keng jalb etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish tizimi va futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol bo‘yicha sport maktablari faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, soxa mutahassislarini tayyorlash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini yaxshilash, o‘tkazilayotgan musobaqalar saviyasini yuksaltirish kabi masalalar dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda futbolni aholi o‘rtasida eng ommaviy sport turiga aylantirish, yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish va ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, mamlakat futbolini rivojlangan mamlakatlar bilan raqobat qila oladigan darajaga yetkazish, xalqaro talab va standartlar asosidafutbol bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, futbol klubi faoliyatini rivojlantirish, terma jamoalar uchun o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish, mamlakatimizda futbol bo‘yicha yirik xalqaro musobaqalar, jumladan, o‘smirlar, yoshlar va xotin qizlar jamoalari o‘rtasida qit‘a va jahon birinchiliklarini o‘tkazish maqsadida bir qator Prezident farmonlari, buyruqlari va qarorlari qabul qilindi. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi. Unga ko‘ra: bolalar va o‘smirlarni futbol bilan shug‘ullanishga qiziqishini oshirish, havaskor futbolni ommaviylashtirish, bu borada umumta‘lim maktablari, boshqa ta‘lim muassasalari mahalla va tashkilotlarda futbol bo‘yicha musobaqalarni muntazam ravishda tashkil etish; yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yosh futbolchilarni tanlash va saralab olish tizimini tubdan takomillashtirish, ularni bosqichma bosqich professional tayyorgarlikdan o‘tkazib borish orqali futboli rivojlanayotgan davlatlarning yetakchi klublariga futbolchilar eksportini amalga oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish futbol sohasiga xususiy investisiyalarni keng jalb etish va ularni rag‘batlantirish, futbol sohasini bozor mexanizmlari asosida boshqarish, futbol klublarini xususiy sektorga o‘tkazish hamda ular orasida sog‘lom sport raqobati muhitini yaratish; futbol musobaqalari tomoshabopligini oshirish hamda futbolni rivojlantirishning yangi tizimini samarali yo‘lga qo‘yish orqali o‘zbek futboli maktabini yaratish futbol sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga ilg‘or ilmiy metodik va innovatsion texnologiyalarini joriy etish; futbol sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish hamda xalqaro talablarga moslashtirish kabilar. O‘zbekiston respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi.[4]

O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi va O‘zbekiston futbol assotsatsiyasilariga bir qator topshiriqlar belgilandi. O‘zbekistonda futbolni 2030-yilgacha takomillashtirish chora tadbirlari ya‘ni “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Unga ko‘ra umumiy aholiga nisbatan futbol bilan muntazam shug‘ullanuvchilar sonini kamida 5% gacha yetkazish orqali respublikada futbolning ommaviyligini ta‘minlash; Xalqaro Futbol Assotsatsiyalari Federatsiyasining milliy terma jamoalar reytingida O‘zbekiston milliy terma jamoasini kuchli 50talikka kirishiga erishish; xususiy futbol maktablari va xususiy professional futbol maktablari sonini bosqichma bosqich oshirish; O‘zbekiston Respublikasida Xalqaro Futbol Assotsatsiyalari federatsiyasi va Osiya Futbol Konfederatsiyasi tasnifiga kiruvchi chempionatlar va xalqaro turnirlarni tashkil qilish va o‘tazish kabi bir qator mqsadli rejarlar ishlab chiqildi. Yosh futbolchining jismoniy sifatlarini tarbiyalash sport mashg‘ulotlarining muhim jihatlardan biri sanaladi. Jismoniy sifatlar futbolchi organizmining morfo-funksional, morfo-fiziologik va biologik xususiyatlari bilan bog‘liq. Jismoniy sifatlar shug‘ullanuvchilarning jismoniy, texnik-taktik tayyorgarliklarining takomillashuviga, ruhiy-emotsional holatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.[5] Futbolchilar har bir harakatni tobora ishonch bilan bajaradilar, yangi harakatlarni tezroq o‘zlashtiradilar va yuqori natijali ko‘rsatgichlarga erishadilar. Futbolni zamonaviy talab darajasi asosida rivojlantirish asosida rivojlantirish futbolchilarning yuqori jismoniy tayyorgarligini talab etadi, eng asosiysi esa tezkorlik sifatini tarbiyalashdir. Yosh futbolchilarni ratsional imkoniyatlarini oshirish orqali tezkorlik sifatini rivojlantirishga qaratiladi. Hozirgi zamon futbolining rivojlanishi darajasi va ilmiy-uslubiy taxlili; yosh futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish yo‘llari; yillik mashg‘ulotlar rejasini tuzish va mashg‘ulotlar davomida sport mahoratini rivojlantirish.[2]

Hozirgi zamon futbolida o‘yin usullari takomillashib, futbolchilarning o‘yin harakatlari mukammallashib bormoqda. Futboldagi yangi va samarali usullarning paydo bo‘lishi, futbolchilarning harakatlari yuksak darajada bo‘lishini talab etmoqda. Har bir futbolchi bir o‘yin davomida jamoasining g‘alaba qozonishi uchun ko‘pgina harakatlarni bajarishadi. Bizga shu narsalar ma‘lumki, futbolchilarning maydondagi asosiy harakatlariga: yurish, yugurish, to‘p bilan yurish, to‘p bilan yugurish, sakrashlar, to‘pga zarba berish to‘p bilan aldab o‘tish, to‘p uzatish, to‘pni to‘xtatish, to‘pni yon chiziqdan tashlash, jarima to‘pini bajarish, burchakdan to‘pni tepish, fintlar, podkad tashlash, to‘pni aniq mo‘ljalga etkazish, raqib bilan to‘p uchun kurashish va boshqa bir qancha harakatlar kiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, futbol mutaxassislari o‘z tadqiqot ishlarida futbolchilarning yuqorida ta‘kidlangan harakatlarini o‘rganishgan va ular uchun kerak bo‘lgan usul va uslublarni ishlab chiqishgan.[8]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi PF-5368-son «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2018 yil 16 martdagi PQ-3610-son «Futbolni rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, 2019 yil 4 dekabrda PF-5887-son «O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2020 yil 24

yanvardagi PF-5924-son «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Maxsus bolalar va o‘smirlar futbol maktablarida o‘quv-mashg‘ulot jarayonlari maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dastur asosida mashg‘ulot jarayonlari olib boriladi. Yosh futbolchilarning yillik mashg‘ulot davridagi o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarining xajmi va tarkibini o‘rganish maqsadida 2 xil yoshli guruhlarning 11-12 va 13-14 yoshli futbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini tahlil qildik.[9]

Tadqiqot obyekti va qo‘laniladigan metodlar

10-12 yoshli futbolchilar bilan olib boriladigan o‘quv-mashg‘ulotlari jarayoni hisoblanadi, adabiyot manbalari va ilmiy uslubiy manbalarni taxlil etish, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, so‘rovnoma o‘tkazish, aqliy charchashning instrumental uslublar yordamida aniqlash, jismoniy ish qobiliyatlarini aniqlash usullari.

Olinadigan natijalar va ularning tahlili

Tahlil natijalariga ko‘ra 10 oy davomida o‘tkazilgan o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarida quyidagilar ham aniqlandi. O‘quv-mashg‘ulot ishlarida katta hajmdagi mashg‘ulotlar umumiy chidamkorlikni tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Mashg‘ulotlarning umumiy xajmi esa 179 soatni tashkil etdi (45,3%). Shuni ta‘kidlash kerakki, katta xajmdagi o‘quv-mashg‘ulot ishlari umumiy chidamkorlikni tarbiyalashga qaratilgan, metodika nuqtai nazaridan olib qaralganda bu ish unchalik ham to‘g‘ri emas. 11-12 yoshli futbolchilarga mashg‘ulotlar jarayonida katta xajmda mashg‘ulotlarni, jismoniy sifatlarni tarbiyalashga, chaqqonlikni, egiluvchanlikni, tezkorlik va tezkorlik-kuch sifatlarini tarbiyalashga qaratilishi kerak. Umumiy chidamkorlikni tarbiyalash esa 12-13 yoshdan 15-16 yoshgacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda tezkorlik va chidamkorlikni tarbiyalashga 23,7 soat (64%) vaqtni ajratdi.[2]

Izlanishlar natijasida tezkorlik ishlari xajmi shuni ko‘rsatadiki, musobaqa davrida futbolchilar tomonidan bajarilgan umumiy tez yugurishlar soni deyarli bir xil. Ko‘rinib turibdiki, o‘yinlar bo‘yicha umumiy masofa 4840 metr, to‘p bilan tez yugurishlar esa 1860 metr, bu esa 38,4% to‘psiz tezlik 2890 metr (61,6%) bu dalil esa o‘quv-mashg‘ulot jarayonida tezkorlik-kuch sifatlarini oshirish uchun nomaxsus bo‘lgan mashqlarni qo‘llash qanchalik kerak bo‘lishini isbotlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash lozimki, yillik aylanma o‘quv-mashg‘ulotlari tahlili shuni ko‘rsatdiki o‘quv-mashg‘ulotlari xajmi va 12-13 yoshli futbolchilar musobaqasi 522 soatni tashkil etadi. Bu BOSM dasturiga asosan bir oz kam vaqt ajratilganligidan dalolat beradi. Bu xol bir qancha ma‘lumotlar bilan tushuntirilgan va aniqlangan.

O‘quv-mashg‘ulotlarining ko‘pchilik hajmi maxsus mashg‘ulotlar bo‘lib to‘p bilan dars olib boriladi (har oy 75% dan 93%gacha). Bunday mashg‘ulotlarning olib borish vositalari har doim tezkorlik va tezkorlik-kuch sifatini oshirish yosh sportchilarda ijodiy va bu mashq to‘p bilan bog‘liq bo‘lsa, qo‘llaniladigan metodlarning samaradorligini pasaytiradi, ayniqsa bunda “zarba” metodidir. 12-13 yoshdagi futbolchilarning asosiy o‘quv-mashqlarga yo‘naltirilganda, bunda ularni tarbiyalashda ularning umumiy va maxsus chidamligiga qaratiladi (vaqtning 52,2%).

Yosh futbolchilar mashg‘ulot jarayonida tezkorlikni osirish uchun quyidagi mashqlardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi: yugurayotgan vaqtlarda topni oyoq bilan olib yurish, yugurayotib to‘p bilan mashqlarni bajarish, to‘pni xarhil olib yurishlar, aldab o‘tishlar, to‘p uzatishlar, darvozaga to‘pni tepish usullari kiradi. Bir mashqni bajarish ucun o‘rtacha 5-7 sekund vaqt beriladi. Yugurish oralig‘i 35 metr bo‘ladi. Ushbu mashqlar bajarish masofasini va vaqtini taqsimlay bilish mashqning ko‘p marotabalab bajarilishiga bog‘liq. Bu mashqlar futbolchilarning qobiliyati o‘sishiga va funksional sifatlarini oshishiga olib keladi.

Yosh futbolchilarda tezkorlikni tarbiyalash juda ham kerakli jarayondir. Futbolchilar ma‘lum bir miqdorda tezkorlik, kuchlilik sifati bilan boshqa sport turida shug‘ullanayotgan sportchi tengdoshlaridan orqada. Futbolchilarda tezkorlikni tarbiyalash 11-12-yoshda o‘rinlidir. Futbolni zamonaviy talab darajasi asosida rivojlantirish futbolchilarning yuqori jismoniy tayyorgarligini talab etadi. Bularning eng asosiysi bu- tezkorlikdir. Tarbiyalash davrida tezkorlik sifati, xajmi, vosita va metodlarni o‘zgartirish o‘quv mashg‘ulot jarayonlarini ma‘lum bir darajadagi ijobiy natijalarni ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tajribalarimiz tahlili shuni ko‘rsatadiki, futbolchilarning layoqatliligi va qobiliyatlariga har tomonlama aniq bao berilishi futbolchi kelajagining samarali bo‘lishini tahlil qilib quyidagi xulosaga kelish mumkin, yoshlarga va o‘smirlarga tezkorlik tayyorgarligiga yetarli darajada e‘tibor berilishi uchun xozirgi talablarga javob beradigan metodlar bilan tarbiyalash kerak.

Tezkorlik- kuch va egiluvchanlik sifatlari bilan ancha yaqindan, chidamlilik bilan esa- kamroq bog‘liq. Tezkorlik ko‘satgichlarining majmuasi tarkibiga- startdagi tezkorlik, yugurish tezligi, maydonda yuzaga kelgan holatni baholash tezkorligi, taktik tafakkur tekorligi kiradi. Futbol maydonida keskin tezlanishlarni, to‘p bilan sakrashlarni, 25-30 qadamdan raqib darvozasiga qarab zarbalar berishni, sherigiga uzoqdan to‘p uzatish, keskin to‘xtash va yugurish yo‘nalishini keskin o‘zgartirishini amalga oshirish uchun futbolchi kuchga ega bo‘lishi kerak. Ushbu atama asosida biz nimani tushunamiz? Kuch - bu, sportchining mushak kuchlanishlari hisobiga tashqi qarshiliklarini yengish qobiliyati. Futbolchi uchun oyoqlarining kuchini rivojlantirish, ayniqsa muhim. Lekin trenirovkalar vaqtida yelka kamari, tana, orqa,

qorin mushaklarini rivojlantirishgaham e'tibor qaratish zarur. Bir so'z bilan aytganda futbolchi katta kuchga ega bo'lishi kerak, sportchiga to'p orqasidan va maydonning bo'sh joyiga keskin tezlanishlarini to'p orqasidan sakrashlarini amalga oshirishga yordam beradi, keskin to'xtash va harakat yo'nalishini keskin o'zgartirish, to'pga kuchli zarba berish imkonini beradi, shu bilan birga, kuchni rivojlantirish egiluvchanlikka, tezkorlikka, o'yinni aniq qabul qilishga zarar yetkazmasligi kerak.

Kuch rivojlanishining eng katta sur'atlari asosan kichik yoshda va o'smirlilik davrida kuzatiladi: 8-dan to 9-yoshgacha, 10-dan to 11-yoshgacha va 14-dan to 15-yoshgacha. Bunda, 8-11-yoshda ham sinaryadlarda sakrash, akrobatika va gimnastik mashqlarni qo'llash tavsiya qilinadi. 12- 14- yoshdagilar uchun uncha katta bo'lmagan og'irliklar bilan dinamik mashqlarini, kanatga osilib chiqishlarini, yadro uloqtirishlarni qo'llash mumkin. 15-16-yoshdagilar uchun og'irliklar bilan bajariladigan mashqlarning soni ancha ko'paytiriladi. Futbolchi uchun zarur bo'lgan sifatlar majmuasida tezkor –kuch imkoniyatlari muhim o'rin egallaydi. 11-12-yashar o'g'il bolalarda energiya taminotining alaktatli mexanizmining ish unumdorligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni keng qo'llashni tavsiya qilish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, agar dastlabki sport tayyorgarligi bosqichida yezkor kuch sifatlarini tarbiyalashning vositalari va usullari qollanilmasa, unda shug'ullanuvchilarning tezkorligi va tezkor-kuch sifatleri qoniqarsiz rivojlanadi. 8-9-yoshdan boshlab yugurish tezligi jadal o'sa boshlaydi, 10-11-yoshga kelib esa ko'proq darajada harakatlar chastotasining o'sishi bilan belgilangan, yugurish qadamlari chastotasi maksimal qiymatlarga erishadi.[6]

10-11-yoshga kelib, bolalarda tezkor ishlarni ko'p marta bajarish qobiliyati ortadi. Tezkor-kuch sifatlarining jadal o'sishi, 10dan to 13-yoshgacha bo'lgan bolalarda kuzatiladi. Futbolda tezkor- kuch harakatlari yetarlicha ko'p bajariladi. Bu, asosan sakrashlar, yakkakurashlar, raqibdan oldin o'ylashlardir. Tezkor va tezkor-kuch harakatlarga qisqa masofalarga tezlanishla va rivojlar kiradi, ulardan keyindarvozaga qarab zarba yoki biron bir boshqa texnik harakat amalga oshiriladi. O'smirlarning trenirovka jarayonida katta murakkabliklar yuzaga keladi. 12-dan to 16-yoshgacha bo'lgan o'smirlilik davri jismoniy qobiliyatlarining tezkor rivojlanishi bilan tavsiflanadi va sportning har xil turlari bilan shug'ullanish uchun o'ta qulay hisoblanadi. Shu bilan birga o'smirlilik organizmidagi neyroetokrin o'zgarishlar, sportning biologik jarayonlarini tabiiy davom etishini yaxshilashi yoki yomonlashi mumkin bo'lgan qo'shimcha qo'zg'atuvchi sifatida qarashga imkon beradi. O'smirlarning harakatida burchaklar va qo'zg'alishlar kuzatiladi, harakatlar ritmining buzilishlari sodir bo'ladi. Lekin jismoniy balog'atga yetish davrining yakunida harakatlar koordinatsiyasi tartibli bo'la boshlaydi.

Bu, harakatlarning markaziy va periferik apparatini funksiyasining takomillashuvi natijasi hisoblanadi. O'smir yuqori qo'zg'aluvchanligi bilan farq qiladi, bu qo'zg'aluvchanlik yuqori harakat faolligiga va harakatning tartibsizligiga nisbatan nomoyon bo'ladi.

Tezkorlikning asosini organizm barcha darajalarining masalan: xujayra, to'qima a'zolar tizimi fiziologik zahiralari hamda qolgan jismoniy qobiliyatlarining namoyon bo'lishi asosida yotgan, ularning o'zaro harakatlari tashkil qiladi. Bunday prinsipial jihatdan muhim bo'lgan xulosa kelib chiqadi: tezkorlikni maxsus yo'naltirilgan rivojlantirish organizmning umumiy jismoniy rivojlanishini oshirish uchun muhim hamiyatga ega.[7]

Zamonaviy futboldagi bosh dominantlardan biri- tezkorlik hisoblanib, u, o'yin harakatlarning tezligida namoyon bo'ladi. Ushbu harakatlarning muvaffaqiyatli bo'lishi tezkorlikni namoyon bo'lishining turli shakllari bilan ta'minlanadi va tezkorlikni namoyon bo'lishining barcha shakllarini muvaffaqiyatli egallamasdan turib futboldagi mahoratga erishish mumkin emas. Aynan futbol o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash uchun samarali sport turidir. Zero u fe'l-atvorni tarbiyalaydi va sog'liqni mustahkamlaydi. Zamonaviy sportda futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasining va texnik usullarni bajarish tezkorligining ortishi natijasida xarakterlarning aniqligiga, xarakter faoliyati samaradorligining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, futbol o'yinlarida texnik-taktik mahoratning o'zlashtirilishining integral mezoni sifatida qarash mumkin. Xorij mamlakatlarida olib borilga ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sport natijalarining jadallik bilan o'sishi zamonaviy talablarga javob beradigan yangi vositalar, usullar va sportchilarni o'quv mashg'ulot jarayonining shakllarini izlashga undaydi. Yetakchi xorijiy jamoalarning musobaqa faoliyatini taxlil qilish shuni ko'rsatadiki, jamoa o'yinining natijalarida to'pni oshirib berish aniqligining rivojlanish darajasiga katta darajada bog'liq bo'ladi.[10]

O'quv mashg'ulotlarida bajariladigan mashqlar shiddatining pastligi, bu mashqlar futbolchi organizmining xolatini xisobga olmasligi ularga o'yin jarayonida texnik usullarni bajarishda maqsadli aniqlikni yaxshilash imkonini bermaydi. Shu sababli organizmning holatini va texnik usullarini bajarishda maqsadli aniqlikni takomillashtiradigan mashqlarning shiddatini nazorat qilish imkonini beradigan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash jarayoniga joriy qilish zarurati vujudga keladi. Zamonaviy ilmiy texnologiyalarni joriy qilish sport nazariyasi va amaliyotining mazmunini boyitish va chuqurlashtirish imkonini beradi.[7]

Futbol o'yinidagi asosiy o'yin xolati o'yinchilarning raqib darvozasiga gol urishidan iborat bo'lib, ikki raqib o'rtasidagi musobaqa qarama qarshi jamoaning darvozasiga gol urushi futbol o'yinining asosiy ma'nosi hisoblanadi. Tomoshabinlar maydondagi o'yinchilarning chiroyli o'yinlarini ko'rib, ya'ni himoyachilarning to'pni olib qo'yishlarini xujumchilarni ximoyachilarning chiroyli harakatlari bilan aldab o'tishlari, darvozabolarning to'pga tashlanishlarini ko'rish bilan zavqlanishadi. O'yindagi bir holat borki, o'yin saviyasini yuqori darajaga olib kelibgina qolmay o'yin natijasiga ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pgina mutaxassislarning fikricha o'yinda gol vaziyati tomoshabinlarga xursandchilik olib kelishi uchun xujumni yakunlovchi o'yinchiga qulay bo'lgan to'p uzatishlarni amalga oshirish holatini inobatga olish zarur deb hisoblashadi. Qulay bo'lgan o'yinchiga to'pni yetkazib berish orqali xujumlarni samarali yakunlashga zamin yaratadi. Buning uchun futbolchilardan sherigiga aniq to'p uzatish harakatlarini samarali bajarishni talab etadi.[1]

Jamoalar mashg'ulotlarda qo'llanilgan takrorlash usuli to'pni oshirib berish texnik usullarini rivojlantirishda eng yaxshi usul hisoblanadi. Bundan tashqari ular o'yini vaziyatlariga o'xshash bo'ladigan aloxida texnik usullarini tez harakatlanish turli xil kombinatsiyalar bilan raqib ishtirokida bajariladigan mashqlardan foydalanish samara beradi.

To'pni oshirib berishga qaratilgan mashqlar orqali yosh futbolchilarning bilimini mustahkamlashga yordam beradi. To'pni oshirib berish texnikasini rivojlantirishda muntazam mashg'ulotlar o'tkazish yaxshi samara beradi. Mashg'ulotlarda qo'llangan usul va vositalarni shunday tarzda o'tkazish zarurki, bunda o'rgatilgan ma'lumotlarni tezlik bilan o'yinda qo'llanilishi lozim bo'ladi.[3]

XULOSA

Olingan natijalardan xulosa qiladigan bo'lsak, oldinga, orqaga va yonga to'p oshirib berish harakatdagi kamchiliklar borligi aniqlanadi, bu kamchiliklarni bartaraf etishda yosh futbolchilarning aniqlik darajasini o'yindan kelib chiqqan holda tanlangan mashqlarni ko'p marotaba tez, to'pga bir teginishda harakatlanish bilan raqib qarshiligida takrorlash hamda ularni bajarishlari uchun vaqtni taqsimlash orqali o'stirish mumkin deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi ko'proq to'plarni turli masofalardagi yutuq va kamchiliklariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, to'plarning yo'nalishi ham bizga futbolchilar o'yin olib borish bo'yicha holatlari to'g'risida ma'lumotlarni beradi. Natijalarda oldinga, orqaga va yonga to'p oshirib berish harakatlarini ko'rishimiz mumkin. Ular orasidagi natijalarda katta farq borligini aniqladik. Oldinga to'pni oshirib berish texnik harakatlarining samaradorligi o'yin jarayonida orqaga va yonga oshirib berish harakatlaridan ancha pastligini ko'rmoqdamiz. Biz 16-17 yoshdagi jamoa tarbiyalanuvchilarini to'pni oshirib berish aniqligini oshirishda esa o'quv- mashg'ulot jarayonida to'plarni harakatda oshirib berishga oid mashqlarni o'yi vaziyatlarga mos bo'lgan mashqlardan foydalanish, ularni tarbiyalanuvchilar bu harakatlarni o'zlashtirib olishlari va yuqori tezlikda mashqlarni bajarishlari kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kuznetsov A.A. Futbol - nastolnaya kniga detskogo trenera.-M: Olimpik- chelovek.2008. B.136.
2. L.G.Pashenko Отношение родителей школьников к семейному физическому воспитанию/ L.G.Pashenko, O.Krasnikova, Y.V.Korichko //Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. - 2014. - № 3. - С.76.
3. L.G.Pashenko Профессиональное использование учителями физической культуры современных образовательных технологий / L.G.Pashenko, O.Krasnikova, Y.V.Korichko, L.Polushkina // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. - Москва: НИЦ, 2014. - № 3-2. С.241.
4. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekistonda futbolni 2030 yilgacha rivojlantirishni maqsadli bosqichlari" 2019 yil 4 dekabrda PF- 5887-son Farmoniga 4-ILOVA. T.; 2016.http:Lex.uz
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.; 2016.http:Lex.uz
6. Y.F.Kuramshin Проблемы модернизации физического воспитания студентов / Y.F.Kuramshin //Здоровье - основа развития человека - проблемы и пути решения: - Оpubл. ч-з СП-ГПУ. - Санкт-Петербург, 2011. - С.6. - № 1. - С.354.
7. Axmadjonov U.M, Tolibjonov A.I, Isyeev Sh.T, "Futbolchilarni jismoniy tayyorgarligi" O'quv-qo'llanma. Ilmiy-texnika axborot press nashriyoti. 2019 yil, B.127.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 4 dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-sonli farmoni. Xalq so'zi gazetasi. 6-dekabr 252-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 16- martda "Futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3610-sonli qarori.
10. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportmenov v olimpiyskom sporte. Kiev. 2004. B.205.

Mualliflar:

Saidov Umid Abdugaforovich – Guliston davlat universiteti "Sport turlarini o'qitish uslubiyati" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi.

Isokova Sevara Abdumannonovna – Guliston davlat universiteti "Sport turlarini o'qitish uslubiyati" kafedrasida o'qituvchisi.

UDK 372.879.6

DEVELOPMENT OF A CLUSTER MODULE OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF PHYSICAL EDUCATION LESSONS IN PRIMARY GRADES

BOSHLANG'ICH SINFLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL QILISHNING KLASTER MODULINI ISHLAB CHIQUISH

РАЗРАБОТКА КЛАСТЕРНОГО МОДУЛЯ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Umaraliyev Dadaxon Usmonqul o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti, 12010. Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, 4-mavze

e-mail: dadaxonumaraliyev24@gmail.com

Abstract. In this article, detailed information is provided on the improvement of the effective organization of physical education classes in primary classes based on the development of the cluster module. Clarifying the psychological and pedagogical factors of improving the content of physical education lessons in primary grades in the environment of an educational cluster. The development of a cluster module for the effective organization of physical education lessons in elementary grades involves a careful consideration of several key factors, including curriculum coordination, age-appropriate activities, learning outcomes, and student engagement. received

Keywords: Cluster, cluster module, educational cluster, psychological and pedagogical factors, improvement, coordination, educational programs.

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация по совершенствованию эффективной организации занятий по физическому воспитанию в начальных классах на основе разработки кластерного модуля. Выяснение психолого-педагогических факторов совершенствования содержания уроков физического воспитания в начальных классах в условиях образовательного кластера. Разработка кластерного модуля для эффективной организации уроков физического воспитания в начальных классах предполагает тщательное рассмотрение нескольких ключевых факторов, включая координацию учебной программы, мероприятия, соответствующие возрасту, результаты обучения и вовлеченность учащихся.

Ключевые слова: Кластер, кластерный модуль, образовательный кластер, психолого-педагогические факторы, совершенствование, координация, образовательные программы.

Kirish. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati va shaxsan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor berilmoqda. Aholini sog'lomlashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish hamda sportchilarni Olimpiada o'yinlariga tayyorlash bo'yicha chiqarilgan qaror va farmonlar buni yaqqol tasdiqlaydi. (06.06.2022 PQ-268-son qarori, 2021 yil 5 noyabrdagi PQ-5280-son qarori, Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 2022 yil 3 noyabr) [1].

Xalqaro maydonlarda shoxsupaga ko'tarilish, yurt bayrog'ini ko'tarish esa raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash vazifasini keltirib chiqaradi. Bu jarayonni fakat zamonaviy mashg'ulot metodlari yordamidagina amalga oshirish mumkin. Zamonaviy mashg'ulot metodlari ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlarini ko'p tomonlama tizimlashtirish imkonini beradi. Shuningdek boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy tayyorgarligi xolati dinamikasidagi o'zgarishlarda extimoli mavjud tendensiyalarini oldindan ko'ra bilishga olib keladi, uz navbatida jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik bo'yicha yakka tartibdagi yangi dasturlar sog'lomlashtirishga va jismoniy tayyorgarligiga karatilgan texnologiyalarni ishlab chikish imkoni tug'iladi. Bu kabi o'quv manbalarining yaratilishiga qo'yilayotgan talablardan eng muhimi ularning mazmunida mavjud ilmiy bilimlar o'z ifodasini topibgina qolmay, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyati ham ochib berish sanaladi.[6]

Tadqiqot ob'yekti va qo'laniladigan metodlar

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashqari shakllardagi mashg'ulotlarda zamonaviy metodlar asosida tashkil etish jarayoni Tadqiqot jarayonida nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (suhbat, so'rovnoma, kuzatish, tasniflash), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish).

Olinadigan natijalar va ularning tahlili

Jismoniy tarbiya boshlang'ich maktab o'quv dasturining hal qiluvchi qismidir. Bu bolalarga jismoniy tayyorgarlik, muvofiqlashtirish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarda jismoniy mashqlar va sog'lom turmush tarziga ijobiy munosabatni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu maqolada biz boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning samarali usullarini o'rganamiz.[5]

Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish uchun klaster modulini ishlab chiqish bir qancha asosiy omillarni, jumladan, o'quv dasturlarini muvofiqlashtirish, yoshga mos faoliyat, o'quv natijalari va

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

o'quvchilarning faolligini sinchiklab ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Quyida bunday modulni ishlab chiqishning tizimli yondashuvi keltirilgan:[2][4]

1.O'quv maqsadlarini aniqlang: Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari orqali erishmoqchi bo'lgan aniq o'quv maqsadlarini aniqlang. Bular asosiy vosita ko'nikmalarini rivojlantirish, muvofiqlashtirish, jamoada ishlash va jismoniy faoliyatga ijobiy munosabatni rivojlantirishni o'z ichiga olishi mumkin.

2.O'quv rejasini moslashtirish: Klaster moduli ta'lim organlari tomonidan belgilangan umumiy o'quv maqsadlari va standartlariga mos kelishini ta'minlash. Jismoniy tarbiya bolaning har tomonlama rivojlanishiga qanday hissa qo'shishini ko'rib chiqing.

3.Yoshga muvofiqlik: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanish bosqichiga mos keladigan tadbirlarni loyihalash. Ularning jismoniy qobiliyatlarini, e'tiborini va qiziqishlarini hisobga oling.

4.Turli xil tadbirlar: Turli xil o'rganish uslublari va qiziqishlarini qondirish uchun turli xil tadbirlarni o'z ichiga oling. Bunga o'yinlar, mashqlar, sport, raqs, yoga va boshqalar kiradi. Ushbu tadbirlar yosh o'quvchilar uchun qiziqarli va qiziqarli bo'lishiga ishonch hosil qiling.

5.Ketma-ket rivojlanish: Modulni avvaldan o'rganilgan ko'nikma va tushunchalarga tayanib, ketma-ket siljish imkonini beradigan tarzda tuzing. Oddiy mashg'ulotlardan boshlang va o'quvchilar o'z qobiliyatlarini rivojlantirganda murakkablikni asta-sekin oshiring.

6.Inklyuziv yondashuv: Modul inklyuziv ekanligini va barcha talabalarining, shu jumladan, nogiron yoki alohida ehtiyojli talabalarining ehtiyojlarini qondirishiga ishonch hosil qiling. Hamma ishtirok etishini ta'minlash uchun kerak bo'lganda moslashtirish va o'zgartirishlarni taqdim eting.

7.Uskunarlar va makonni hisobga olish: Faoliyatlarni loyihalashda jihozlar va bo'sh joy mavjudligini hisobga oling. Mavjud imkoniyatlar va mavjud resurslar bilan osongina amalga oshirilishi mumkin bo'lgan faoliyatni tanlang.

8.Xavfsizlik choralari: Aniq ko'rsatmalar berish, to'g'ri texnikani ko'rsatish va mashg'ulotlar davomida talabalarni nazorat qilish orqali xavfsizlikka ustuvor ahamiyat bering. Shikastlanishning oldini olish uchun isitish va sovitish tartiblarini qo'shing.

9.Baholash va fikr-mulohazalar: Talabalar taraqqiyoti va tushunishini baholash uchun baholash mezonlarini ishlab chiqish. Talabalarga o'z malakalarini oshirishga yordam berish va doimiy ishtirok etishni rag'batlantirish uchun ularga fikr-mulohazalarni bildiring.

10.O'qituvchilarni o'qitish va qo'llab-quvvatlash: Klaster modulini amalga oshiruvchi o'qituvchilarni o'qitish va qo'llab-quvvatlash. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga jismoniy tarbiya fanini o'rgatishda ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun resurslar, seminarlar va malaka oshirish imkoniyatlarini taklif eting.

11.Ota-onalarning ishtiroki: ota-onalarni jismoniy tarbiyaning ahamiyati va farzandlarining maktabda ham, uyda ham jismoniy mashg'ulotlarda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash usullari haqida ma'lumot berish orqali ularning ishtirokini rag'batlantirish.

12.Moslashuvchanlik va moslashuvchanlik: moslashuvchan va o'qituvchilar va talabalarining fikr-mulohazalari asosida modulni moslashtirishga tayyor bo'ling. Uning samaradorligini doimiy ravishda baholang va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lganda tuzatishlar kiriting.

Ushbu bosqichlarni bajarib, siz boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish uchun klaster modulini ishlab chiqishingiz mumkin, bu o'quvchilarning bilim olishi, faolligi va jismoniy faoliyatdan zavqlanishiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari orqali erishmoqchi bo'lgan aniq o'quv maqsadlarini quyidagi jadval orqali aniqlashimiz mumkin.

1-jadval

| Asosiy vosita ko'nikmalarini rivojlantirish | |
|---|---|
| Talabalar yugurish, sakrash, sakrash, sakrash va yugurish kabi asosiy harakat qobiliyatlarini namoyish etadilar. | Talabalar otish, ushlar, tepish va qo'l va oyoq bilan urish kabi narsalarni boshqarish qobiliyatlarini namoyish etadilar. |
| Muvofiqlashtirish | |
| Talabalar to'p yoki loviya qoplarini otish va ushlar kabi harakatlar orqali qo'l-ko'zni muvofiqlashtirishni yaxshilaydi. | Talabalar bir vaqtning o'zida tananing ikkala tomonini ishlatishni o'z ichiga olgan harakatlar orqali ikki tomonlama muvofiqlashtirishni kuchaytiradilar, masalan, ikki qo'l bilan to'pni o'tkazib yuborish yoki dribling qilish. |
| Balans va barqarorlik | |
| Talabalar statik muvozanat mashqlari (masalan, bir oyoqda turish) va dinamik muvozanat mashqlari (masalan, muvozanat nuri bo'ylab yurish) orqali muvozanatni yaxshilaydi. | Talabalar qorin bo'shlig'i va orqa mushaklarini jalb qiladigan mashqlar, masalan, taxta yoki o'tirgan muvozanat mashqlari orqali asosiy barqarorlikni rivojlantiradilar. |
| Kuch va moslashuvchanlik | |

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

| | |
|--|--|
| Talabalar tana vazni mashqlari (masalan, surish, cho'zilish) va qarshilik harakatlari (masalan, qarshilik bantlari yordamida) orqali mushaklar kuchini oshiradilar. | Talabalar asosiy mushak guruhlariga qaratilgan statik cho'zish mashqlari orqali moslashuvchanlikni yaxshilaydi, harakat oralig'ini va bo'g'imlarning harakatchanligini oshiradi. |
| Jamoaviy ish va hamkorlik | |
| Talabalar jamoaviy faoliyatda, masalan, estafeta yoki kooperativ o'yinlarda umumiy maqsadlarga erishish uchun sinfdoshlari bilan hamkorlik qiladilar. | Talabalar guruh sharoitida boshqalar bilan ishlashda samarali muloqot va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini namoyish etadilar. |
| Sport mahorati va halol o'yin | |
| Talabalar o'yinlar va mashg'ulotlar davomida raqiblariga, jamoadoshlariga va rasmiylarga hurmat ko'rsatish orqali yaxshi sport mahoratini namoyish etadilar. | Talabalar turli o'yinlar va sport turlari qoidalarini tushunadilar va ularga rioya qiladilar, musobaqada adolat va halollikni namoyish etadilar. |
| Fitnes va salomatlikni rivojlantirish | |
| Talabalar umumiy jismoniy tayyorgarlikka hissa qo'shadigan yurak-qon tomir chidamliligi, mushaklarning kuchi va moslashuvchanligini rivojlantiruvchi mashg'ulotlar bilan shug'ullanadilar. | Talabalar sog'lik va farovonlikni saqlash uchun muntazam jismoniy faoliyatning ahamiyati haqida tushuncha hosil qiladi. |
| Jismoniy faoliyatga ijobiy munosabat | |
| Talabalar jismoniy tarbiya darslarida va sinfdan tashqari jismoniy mashg'ulotlarda qatnashishdan zavq va ishtiyoq bildiradilar. | Talabalar yaxshi kayfiyat, energiya darajasi va umumiy hayot sifati kabi jismoniy faol bo'lishning afzalliklarini tan oladilar. |

Ushbu aniq o'quv maqsadlarini belgilash orqali jismoniy tarbiya o'qituvchilari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun jismoniy rivojlanish, ijtimoiy o'zaro ta'sir va umumiy farovonlikning asosiy yo'nalishlariga qaratilgan darslar va tadbirlarni loyihalashlari mumkin [3].

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish uchun klaster modulini ishlab chiqish puxta rejalashtirish va turli hal qiluvchi omillarni hisobga olishni talab qiladi. Asosiy elementlarga o'quv dasturini ta'lim standartlariga moslashtirish, yoshga mos faoliyat turlarini tanlash, aniq o'quv maqsadlarini belgilash va o'quvchilarning faolligini ta'minlash kiradi. Strukturaviy yondashuv vosita ko'nikmalarini rivojlantirish, muvofiqlashtirish, jamoada ishlash va jismoniy faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantirish kabi aniq o'quv maqsadlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. O'quv rejasini moslashtirish modulning kengroq ta'lim maqsadlarini qo'llab-quvvatlashini ta'minlaydi, yoshga mos tadbirlar esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanish bosqichiga mos keladi. Muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun darsni batafsil rejalashtirish, resurslarni boshqarish va o'qituvchilarni tayyorlash juda muhimdir. Baholash va baholash o'quvchilar taraqqiyotini o'lchashga yordam beradi, shu bilan birga o'quvchilarning faolligi va inklyuzivligi uchun strategiyalar barcha uchun ijobiy ta'lim tajribasini ta'minlaydi. Muntazam baholash va tuzatishlar orqali doimiy takomillashtirish modul samaradorligini yanada oshiradi, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya bo'yicha yaxlit rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdimumin o'g'li, Bolbekov Elyor. "Improving students' healthy lifestyles based on creative approaches." *Texas Journal of Multidisciplinary Studies* 26 (2023): 47-49.
2. Anorqulov, B. (2022). JISMONIY MASHQLARDAN KEYIN ORGANIZMNING QAYTA TIKLANISHI. *Science and innovation*, 1(B7), 693-697.
3. Isokova, S. A. (2024). TALABALAR SPORT MUSOBAQALARINI TASHKIL QILISH VA HAKAMLIK QILISH KOMPETENTSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(2), 108-114.
4. Shermuxammad o'g'li, I. S. (2023). CREATION AND DEVELOPMENT OF EFFECTIVE MANAGEMENT MECHANISM OF SPORTS FACILITIES. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 8, 9-13.
5. Sherzod, A. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL QILISHNING SAMARALI USULLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(4), 168-171.
6. Sunnatulla, I. (2023). Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization. *Confrencea*, 11(1), 149-153.

Muallif:

Umaraliyev Dadaxon Usmonqul o'g'li - Guliston davlat pedagogika instituti "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi.

UDK: 372.881.11

DEVELOPMENT OF TERMINOLOGICAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE FIELD OF ECONOMICS

IQTISODIYOT YO'NALISHIDAGI TALABALARNING TERMINOLOGIK KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ЭКОНОМИКИ

Usmanova Umidaxon Ixomjon qizi

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: rahimjonov_masrur@mail.ru

Abstract. In the article, the objective needs of the society are expressed in the appropriate social order, and the need to learn Russian is related to the processes of globalization and integration that are happening not only in our country, but also in the whole world. One of the main goals of education is to train qualified specialists who are able to implement intercultural communication to solve professional problems.

Keywords: Professional skill, terminological dictionary, economy, professional need, terminology, linguistic competences, literary language, sub-competence.

Аннотация. В статье объективные потребности общества выражаются в соответствующем социальном заказе, а необходимость изучения русского языка связана с процессами глобализации и интеграции, происходящими не только в нашей стране, но и во всем мире. Одной из основных целей образования является подготовка квалифицированных специалистов, способных осуществлять межкультурную коммуникацию для решения профессиональных задач.

Ключевые слова: Профессиональное мастерство, терминологический словарь, экономика, профессиональная потребность, терминология, лингвистические компетенции, литературный язык, субкомпетенции.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda kechayotgan o'zgarishlar hamda muloqot vositalarining jadal sur'atlarda rivojlanib borishi oliy ta'lim muassasalarida rus tilidagi matnlarni o'qitish va ularni tarjima qildirish kabi eski an'anaviy usullardan kechgan holda talabalarga ilmiy va terminologik leksikadan foydalanib, og'zaki nuqtani rivojlantirishga yo'naltirish kunning dolzarb mavzusiga aylandi. Rus tililarni o'qitish uchun ajratilgan akademik soatlar sonini cheklanganligi rus tililarni yaxshi biladigan mutaxassis-o'qituvchilarga bo'lgan talabning oshib borishi talabalarga rus tilidagi sohaga oid so'z va iboralarni o'qitish usulini yanada takomillashtirishni dolzarb mavzuga aylantirdi. Rus tililarni o'zlashtirish talabalarni hozirgi kunda barkamol shaxs qilib tarbiyalashdagi eng muhim ishlardan biri hisoblanadi, chunki, har bir talabaning rus tilini o'rganish, bilim egallash va aqliy qobiliyatni faollashtirish deganidir. Kasbiy mahoratning ajralmas qismi bo'lgan rus tililarni egallash orqali esa ushbu egallangan bilim va ko'nikmalar talabalarning kelgusidagi ilmiy-pedagogik va kasbiy faoliyatlarini yanada samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Ana shu jihatdan nutq faoliyatining asosiy turlari gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv malakalarini rivojlantirishning muhim omili bo'lgan leksikani o'rgatish borasida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va xalqaro baholash tadqiqotlari bilan yaqindan hamkorlik qilish va o'qitishning interaktiv lingvotexnologiyalarini mamlakatimiz ta'lim sharoitiga adaptivlashtirish ushbu tadqiqotning dolzarbliigi va zaruratini belgilaydi.

Tadqiqotda OTMlarda terminologik lug'atni o'qitish metodologiyasi va tamoyillari tahlil qilinadi. Ta'kidlanishicha, optimal rejalashtirish va boshqarish usullarini joriy etish so'nggi o'n yilliklarda innovatsion pedagogik, muhandislik-iqtisodiy kadrlar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar uchun kadrlar tayyorlashning ahamiyati keskin oshgani bilan bog'liq. Ilmiy va iqtisodiy nuqtani to'g'ri tushunish uchun atamalarni bilish muhim rol o'ynaydi, chunki ularda ma'lum bir soha uchun eng muhim tushunchalar, xabarlarining maqsadi va tarkibi, ularning ma'nosini o'z ichiga olgan ma'lumotlarning asosiy ulushi mavjud xabarlar ifodalanadi. Shu sababli, universitetlarda yuqori bosqichda rus tilini o'rgatishda eng muhim o'rinlardan biri terminologik lug'atni oqilona tanlash muammosi va xususan, kiritilgan materialning umumiy hajmida atamalarning optimal vaznini tanlash vazifasidir. O'quv jarayonida tanlov hajmini baholash mezonini amaliyot nuqtai nazaridan eng muhim, maqsadga muvofiq va maqbul taqsimlash. Statistika usul, eng aniq usul sifatida, ta'lim maqsadlarida atamalarni tanlash uchun obyektiv asos bo'lgan chastotali terminologik lug'atni olish imkonini beradi. Terminologik lug'atni tanlash mezonlarini aniqlash, ular asosida terminologik lug'atni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirish bo'yicha mashqlar, amaliy vazifalar tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob'ekti sifatida iqtisodiy adabiyotlarda barcha iqtisodiy terminlar, muallifning shaxsiy yondoshuvlari va iqtisodiy terminlarni o'rgatishga doir manbalar olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, iqtisodiy - qiyosiy, kontekstual, kompleks va funktsional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

OTMlarning nofilologik yo'nalishlarida rus tili asosiy fan sifatida o'qitila boshlandi va istalgan ixtisoslik bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismiga aylandi. Iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlarning bir qismi hisoblangan rus tili talabalarning kasbiy muloqotga kirishishi jarayonida to'laonli

ishtirok etishlari uchun ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizdagi iqtisodiyot sohasiga oid oliy ta'lim muassasalarida kasbiy ta'lim jarayonida rus tilini o'qitish va talabalarni til mutaxassisligi bo'yicha tayyorlash o'rtasidagi farqlardan biri shundaki, rus tilini o'qitishdan maqsad ularning rus tilini maxsus maqsadlarda o'rgatish va kasbiy muloqot ko'nikmalarini yanada rivojlantirishdan iborat [1].

Ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, sohada samarali tizimlarni tatbiq etilishi hamda iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va madaniy sohalarda xalqaro aloqalarni yanada rivojlantirish kelgusi mutaxassis-kadrlarga rus tilini o'qitishda yangidan yangi maqsad va vazifalarni qo'yimoqda. Talabalarning kasbga yo'naltirilgan leksik kompetensiyalarini shakllantirib, rivojlantirilmaguncha zamonaviy kasbiy ta'limni yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Ma'lumki, keng ko'lamdagi ilmiy ma'lumotlar asosan rus tilida yaratilgan bo'lib, mazmunan boy va turli konferentsiyalar, simpoziumlar va ilmiy mavzudagi seminarlar ham rus tilida olib borilishi sir emas. Odatiy o'rta umumta'lim maktabini hisobga olmaganda, talabalarning kasbiy muloqotga kirishishlari uchun rus tilini o'rta darajada bilish, hatto rus tilida so'zlashiladigan mamlakatda yashash natijasida olingan malakaga ega bo'lish ham yetarli emas. Hatto rus tilida yaxshi gaplasha oladigan talabalar ham ilmiy hamda kasbiy mavzularda suhbat qilganda qator qiyinchiliklarga duch keladi.

Kasbiy sohada iqtisodiyot chet ellik mijozlar bilan o'zaro aloqada bo'lishadi va shuning uchun rus tilini o'zlashtirishning haqiqiy ehtiyoji kasbiy muammolarni hal qilish uchun zarur va muvaffaqiyatli vositadir. Ulardan biri, xususan, iqtisodchiining iqtisodiy faoliyati dizaynini taqdim etishdir. Iqtisodchilar rus tilida yetarlicha bilimga ega bo'lmasligi natijasida xorijiy manbalardagi yangiliklardan, ya'ni ushbu yo'nalishdagi o'zgarishlardan bexabar qolishi natijasida, yetarlicha iqtisodiy malakaga erisha olishmaydilar. Bu mutaxassislarning terminologik tayyorgarligi sifatini pasaytiradi va kasbiy vaziyatlarga salbiy ta'sir qiladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarning til kompetensiyasi yetarli darajada rivojlanmagan va iqtisodiy, iqtisodiyot, konstruktiv terminologiyasining rus tilidan kompetensiyasini shakllantirish zarurati dolzarb sanaladi.

Tadqiqotimizda quyidagi bo'lajak me'morlar, quruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni oshirish, ularning kasbiy faoliyatining axborot maydonini kengaytirish, ularning muloqotida til ko'nikmalariga tegishli muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot yo'nalishi talabalari an'anaviy ravishda rus tilini bilish darajasining pastligi bir nechta sabablarga ko'ra kuzatilgan: rus tiliga majburiy fan emas balki tanlov fan sifatidagi munosabat; sohadagi rus tili o'qituvchilari bilim darajasining ma'lum darajada yetarli emasligi; sohaga oid o'quv adabiyotlarining talabalarning soniga nisbatan yetarlicha emasligi; talabalarning madaniyatlararo kasbiy ehtiyojlarini hisobga olishning yetarli emasligi. Iqtisodiyot mutaxassisliklari, xususan, loyihani rus tilida taqdim etish va himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, bu bizning fikrimizcha, ushbu kasb mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasining asosiy elementlaridan biridir. Iqtisodiyotchi-quruvchining nutqi va fikrlash faoliyatining eng muhim holatlaridan biri o'quv jarayonida va xalqaro ko'rgazmalarda rus tilida iqtisodiyot loyihalarini taqdim etish, muhokama qilish yoki himoya qilishdir. Iqtisodiyot loyihasining taqdimoti - bu obyektning qurish yoki rekonstruksiya qilish to'g'risida tomoshabinlarni xabardor qilish, loyihani ishlab chiqish va amalga oshirishda manfaatdor tomonlarni izlash sanaladi. Rossiya iqtisodiyot loyihasining xorijdagi taqdimoti talabalarga rossiyalik hamkasblar bilan maxsus ma'lumot almashish, xalqaro iqtisodiyot bozorini faol rivojlantirish, joylarda mahalliy loyihalarni ilgari surish va raqobatbardosh bo'lish imkonini beradigan rus tilini loyihalash va iqtisodiy kompetensiyani tashkil etuvchi tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini anglatadi.

Termin, terminologiya, atama so'zlariga oydinlik kiritib o'tishimiz zarur. «Termin» - grekcha «terminus» so'zidan olingan bo'lib, «chek», «chegara» degan ma'noni beradi. U fan-iqtisodiy, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos so'z hisoblanadi. «Terminologiya» - «terminlar haqidagi ta'limot va terminlar majmui» degan ma'nolarni anglatadi. «Termin» so'zi o'rnida ba'zida «atama», «istiloh» so'zlarini ishlatish hollari uchraydi. Ammo bu so'z «Atama» «termin» so'ziga nisbatan torroq tashunchani ifodalaydi. «Istiloh» so'zi esa arab tiliga xos so'zdir. Uni xalq tushunmaydi va me'yorga aylangan emas. Terminologiya masalalari doim tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki terminlarning sohalari lug'aviy qatlamlaridagi o'rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi [2].

A.Reformatskiy [3] terminga ta'rif berar ekan, “terminlar – bu maxsus so'zlardir” degan xulosaga keladi. Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo'lgan va, asosan, nominativ funktsiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi.

A.V.Kalinin [4] muayyan fanlar va kasbkorlikda ishlatiladigan so'zlarni “maxsus leksika” deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi. 1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi. 2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi. U o'z fikrini davom ettirib, “Termin bilan professionalizmlar o'rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko'pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zdir”, -deydi.

Terminalogiyaning yanada rivojlanishi, boyish yo'llari ham har xil: boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim fannatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa bugungi kunda o'zbek terminalogiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y

bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omili uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. O'quv materialini tanlash iqtisodiyot sohasi mutaxassisliklari talabalari o'rtasida kasbiy terminologik kompetensiyani shakllantirishning samarali modelini ishlab chiqish uchun iqtisodiyot sohasidagi leksik, grammatik va terminologik xususiyatlarini aniqlash lozim [5]. Bunga quyidagicha yondashildi: 1. O'rganilayotgan matnlarda ko'p qo'llaniladigan terminologik qo'llanishning atamaga to'yinganligi 65% ni tashkil etdi; 2. Ko'p komponentli atama va iboralarning oddiy so'zlarga nisbatan qo'llanish chastotasi 23% ni tashkil etdi. 3. Bir, ikki, uch yoki undan ortiq komponentli qisqartmalardan yuqori chastotali foydalanish; 4. Otlarning atributiv vazifa sifatida yuqori chastotali ishlatilishi. 5. Iqtisodiyot jarayonlarini bildiruvchi fe'llar keng qo'llaniladi; 6. II va III bo'lakli tuzilmalarning qo'llanilishi.

Ko'pgina tilshunoslar yillar davomida terminologiyaning turli xil jihatlarini tadqiq qilishdi. Terminologiya fan sifatida, uning turlari, u bilan bog'liq tamoyillariga asoslanadi. Terminologiyaning ma'nosi kontekst bilan belgilanadi, birinchi navbatda atamalarni o'rganish ularni ishlatilgan kontekst bo'yicha tartibga solish bilan bog'liq. Bunday kontekstlarga quyidagilar kirishi mumkin: harbiy terminologiya; siyosiy terminologiya; jamiyatshunoslik diniy terminologiya; ilmiy terminologiya; temir yo'l terminologiyasi; neft terminologiyasi.

Neft terminologiyasi turli xil o'zaro ta'sir natijasidir ya'ni bular burg'ilash, sementlash, yonilg'i bo'yicha sohalar va gaz quduqlari, neft va gaz konlarini o'zlashtirish, neft va gaz inshootlarini qurish, of-shor burg'ulash, geofizika, yer osti muhandislik, neft razvedka, ishlab chiqarish, qayta ishlash, tashish va saqlash kabilardir. Oilfield (neft) terminologiyasi tomonidan ishlab chiqarilgan birinchi neft bochkasi bilan rivojlana boshladi.

Mavjud o'quv materialini tahlil qilish, uni zamonaviy sharoitda to'liq kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'qitishning maqsadlari, mazmuni va shakllarini aks ettirmaydi degan xulosaga kelishga imkon berdi. Hozirgi kunda talabalarga rus tilini o'rgatish asosan iqtisodiyot tarixiga oid mavzular bilan cheklanadi, aslida nutq faoliyatining barcha turlarini (o'qish, yozish, eshitish, gapirish, tinglash) va til vositalarini o'rgatishning yuqori amaliy ahamiyati bilan farq qilmaydi, o'rganishni rivojlantirishni nazarda tutmaydi, taqdimotlar va ko'nikmalar, bu esa, xorijiy manbalardan mutaxassislik bo'yicha chuqurroq bilim olishga qiziqqan talabalarning motivatsiyasini sezilarli darajada pasaytiradi.

XX-asr oxiri XXI-asr boshlaridagi terminologik asarlarning tahlili bu tushunchalarni ikki pozitsiyadan ko'rib chiqilishini ko'rsatdi. Birinchi pozitsiyaga ko'ra, terminologiya ma'lum bir fan sohasidagi ilmiy yoki iqtisodiy atamalarning tizimli va tartibli to'plamidir. Uning tartiblilik darajasi ma'lum bir fan sohasining rivojlanish darajasiga bog'liq. Bundan tashqari, terminologiya ta'rifiga ko'ra tizimli bo'lib, shuning uchun terminologiya tushunchalari va terminologik tizim sinonimlar vazifasini bajarishi mumkin [6].

Ikkinchi pozitsiya qarama-qarshi nuqtai nazarga asoslanadi va hozirda ko'pchilik olimlar tomonidan qabul qilingan bo'lib, ushbu pozitsiyaga muvofiq, terminologiya o'z-o'zidan shakllangan terminologik birliklar to'plami sifatida qaraladi. Ushbu tadqiqotda ikkinchi pozitsiya hisobga olinadi va biz quyidagi ta'rifga amal qilamiz: *Terminologiya - bu paradigmatic tipdagi til shakllanishi bo'lib, u o'z-o'zidan shakllangan leksik birliklarning ma'noviy umumiyligi va o'xshashligi (yaqinligi) dir.*

D.A.Ruzmetova tadqiqotida kasbiy leksikani o'rganishdan asosiy maqsad talabalarga nutq ko'nikma va malakalarini singdirishdir deb ta'kidlaydi. U leksik materialni egallash uchun bosqichdan iborat deb hisoblaydi. Birinchi bosqich yangi so'z bilan tanishishdan boshlanadi, ikkinchi bosqich tanishilgan leksikani nutq jarayonida qo'llay boshlashga qaratiladi, ya'ni bu materialni dastlabki mustahkamlash davridir va uchinchi bosqichda esa o'rganilayotgan so'z nutq faoliyati turlarida ko'nikma va malaka tarkibida o'zlashtirilishini isbotlagan. Talabalarda kommunikativ malakalarini shakllantirish, o'z navbatida leksik layoqatni o'zlashtirishni taqozo etadi. Terminologik kompetensiya esa uning tarkibiy qismlaridan sanaladi. Nolisoniya oliy ta'lim muassasasida asosiy e'tibor ixtisoslik bo'yicha matnlarni o'qishga qaratiladi. Terminologik leksikani o'zlashtirish jarayonida talabalarning leksik *subkompetensiyasi* shakllantiriladi deb hisoblaydi [7].

Terminologik kompetensiya deganda, bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassis ixtisoslik nutqining sifat ko'rsatkichlari nazarda tutiladi, boshqacha aytganda kommunikant (muloqot yurituvchi) o'z kasbiy faoliyatida sohaviy tushunchalarni rus tili terminlari vositasida ifodalay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ilmiy-iqtisodiy terminlari majmui tor sohaning tushunchalar apparatini tashkil etadi.

Yuqoridagi qoidalarga ko'ra, terminologiya tizimli tashkil etilgan leksik birliklardan iborat. Biroq, bu sifat unda bilvosita ifodalangan bo'lib, bu atama tizimlarining aniq xususiyatlariga ega.

Olib borgan tadqiqotimiz uchun B.N.Golovinning g'oyasi ham muhimdir, tizim atamasini o'rganilayotgan fan sohasining belgi modeli bo'lib, xizmat qiladigan, rivojlanayotgan barqaror tizim sifatida ko'rib chiqish mumkin. Terminologik tizim terminologiyaning kognitiv modelini yoki domen metamodeli deb ataladigan narsani aks ettiradi [10].

Iqtisodiyotning terminologik tizimini modellashtirish atama sohalarini ajratishni ham o'z ichiga oladi. Termin sohasi tushunchasi qarama-qarshi xususiyatlarga ega va ularni tanlash masalasi hali ham terminologiyada o'rganilmagan. Bu ba'zi olimlarning ularni ajratib ko'rsatish zarurligiga shubha qilishlari bilan bog'liq, chunki ularning fikricha, soha atamasi, atama tizimi tushunchasi bilan mos keladi.

Yu.N. Antyufeevning ta'rifiga ko'ra, so'zlardagi internatsionallashtirish "so'z va terminlarning ma'lum bir xarakteristikasi tarzida qabul qilinadi: grafik (ko'pincha orfografik) yoki fonetik jihatdan umumiy semantikasi bilan to'liq yoki qisman o'xshash bo'lgan, xalqaro ahamiyatga ega tushunchalarni ifodalovchi, bir necha (kamida uchta) qiyoslanadigan (jumladan, qarindosh bo'lmagan yoki yaqin qarindosh) tillarda hozirgi paytda qo'llaniladigan leksikalar tarzida qabul qilinadi".

Shunday qilib, bu so'zda atama sohasi tushunchasi termin tizimi tushunchasidan kengroq degan xulosaga kelishimiz mumkin. Soha atamasining yana bir tushunchasi ilmiy nutqdagi atama bilan chambarchas bog'liqdir. M.N. Volodinavning fikricha "soha atamasini tizim atamasi bilan solishtirganda, atamaning mavjudlik uslubi farq qiladi. Soha atamasi ilmiy nutq doirasida shakllangan va turli atama tizimlari, shu jumladan bilimning boshqa sohalaridagi atamalarning faol faoliyat yuritishi va o'zaro ta'sir maydoni tegishli bilim sohasidagi mantiqiy-kontseptual munosabatlarni ifodalovchi"sidir. Soha atamasining yana bir tushunchasi ilmiy nutqdagi atama bilan bog'liq. M.N. Volodina soha atamasini tizim atamasi bilan solishtirganda, atamaning mavjudlik uslubini farq qiladi.

Terminologiyaning asosiy tushunchalarini ko'rib chiqishni yakunlab, biz ushbu ishda amal qiladigan ta'riflarni taqdim etamiz: Iqtisodiyot terminologik tizimini ishlab chiqish turli xil shakllanish manbalaridan foydalangan holda va nominatsiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalangan holda bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Mamlakatimizda iqtisodiyot terminologiyasini tartibga solish masalasi 20-asr o'rtalaridan boshlab e'tiborni torta boshladi, bu ijtimoiy-siyosiy voqealar va sanoatning o'zi rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, 1956-1960-yillar oralig'ida. hukumat iqtisodiyot hajmini kengaytirish va ayrim iqtisodiyot materiallari ishlab chiqarishni ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qildi.

Keyingi bir necha o'n yilliklarda fanni iqtisodiyotga oid tili va uning alohida quyi tizimlari tilshunoslarning o'rganish obyektiga aylandi. Tadqiqotchilarning e'tibori iqtisodiyotning terminologik tizimi tuzilishining umumiy tahliliga qaratildi, uni normallashtirish muammosi, yoki alohida quyi tizimlar yoki terminologiyaning aspektlari bo'yicha bo'lgan. Shunday qilib, moslashuvchan mobil tuzilmalarning nemis terminologiyasi va uning rus ekvivalentlari, sanoat terminologik tizimlarini tashkil etishda xalqaro elementlarning roli, semantik tahlilga e'tibor qaratilgan.

Iqtisodiyot terminologik tizimining rivojlanish darajasi to'g'risida bahslashayotganda, terminologiyaning yoshidan boshlash kerak. S.V. Grinevning fikriga ko'ra, uni ma'no ixtisoslashuvi orqali hosil bo'lgan atamalarning paydo bo'lishining o'rtacha vaqti bilan aniqlash mumkin, chunki bu bilimning ushbu sohasiga ajratilishi va ixtisoslashganligini ko'rsatadi. Iqtisodiyot atamalarining shakllanish tarixi iqtisodiyot biznesi va bilimlarning rivojlanish tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, iqtisodiyot nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Rus tilining iqtisodiyot terminologiyasi - bu maxsus lug'atning uyushgan tizimi bo'lib, uning rivojlanishi ham iqtisodiyotning shakllanishi ham rus tilining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq.

B.M. Leychik tilining konstruktiv terminologiyasining shakllanishini batafsil o'rgangan. Uning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, zamonaviy rus tilining iqtisodiyot terminologiyasi, bir tomondan, bilimning "iqtisodiyot sanoati" tarmog'ining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan maxsus lug'atning tarixan shakllangan qatlami bo'lib, umumiy rivojlanish bilan bog'liq rus tilining shakllanish manbalarini, tarkibiy-semantik tashkilotining o'ziga xosligini belgilab bergan. Tadqiqotchi iqtisodiyot terminologiyasining shakllanish tarixini uch bosqichini aniqladi: birinchisi - genezis davri, ikkinchisi - shakllanish davri, uchinchisi - rivojlanish davri. Uning tadqiqotiga ko'ra, hozirda turli fan sohalarini terminologik tizimlarini lingvistik modellashtirish amaliyoti tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda, shuningdek, mahalliy va xorijiy terminologiyada dolzarb yo'nalishga aylanmoqda. Bu tadqiqotchining asarlarida o'z aksini topgan.

S.V. Grinevning fikricha, aynan tushunchalarni tizimlashtirish ular orasidagi muhim bog'lanish va munosabatlarni ochib berishga, har bir tushunchaning kontseptual tizimdagi o'rnini aniqlashtirishga imkon beradi. "Tizimlashtirish tushunchalarni tasniflash orqali amalga oshiriladi, ya'ni ularni o'rtasidagi ierarxik munosabatlarni mustahkamlangan tizim sifatida ifodalaydi".

Tadqiqotda iqtisodiyot terminologiyasi tizimini modellashtirish, birinchi navbatda, paradigmatic munosabatlarni hisobga olgan holda, turli parametrlar bo'yicha terminologik birliklarni har tomonlama tahlil qilish orqali bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Tahlildan oldin atama tanlash tartibi o'tkaziladi. Terminlarni tanlash tadqiqotning juda muhim bosqichi bo'lib, keyingi bosqichlarga sezilarli ta'sir qiladi. Ushbu bosqichda bir nechta muhim ketma-ketliklarni aniqlash mumkin: til materialini tanlash uchun potensial manbalarni aniqlash; ushbu manbalar mazmunini tahlil qilish va uning terminologik boylik darajasini belgilash; tanlangan manbalarda leksik birliklarning uzluksizligi; terminologik tanlovga qaysi terminologik birliklarni kiritish kerakligini aniqlash va atamalarning dastlabki ro'yhatini chastota, keng tarqalganlik, zamonaviy ilmiy nutq bilan bog'liqlik kabi mezonlarga asoslanib cheklashdan iborat. Endi leksik birliklarni bevosita tanlash tartibini ko'rib chiqishga o'tamiz. Shunday qilib, birinchi bosqichda biz tadqiqot uchun eng mos va samarali matnlarni tanladik. Iqtisodiyot sanoati markaziy muhandislik fanlaridan biridir, shuning uchun iqtisodiyot bilan bog'liq juda ko'p manbalar mavjud. Qoidaga ko'ra, soha terminologiyasi mavjud bo'lish shakllariga qarab ikkita qo'llash sohasi bilan tavsiflanadi. Birinchisi, davlat standartlari tomonidan tavsiya etilgan terminologik lug'atlar, atamalar to'plami ko'rinishidagi fiksatsiya sohasi. Ikkinchisi - faoliyat sohasi bo'lib, bu yerda terminologik birliklarni turli xil janr va uslublarning o'ziga xos xususiyatiga ega matnlarda, masalan, maqolalar, jurnallar, darsliklar, hisobotlar va boshqalarda

topish mumkin. Leksik birliklarni tanlashda ushbu ikkala qo'llanish sohasi ham hisobga olingan.

Baza atamasining miqdoriy cheklovlarini belgilash kabi bir xil darajada muhim jihatni ham aytib o'tishimiz kerak. Shunday qilib, umumiy hajm lug'at tuzuvchisi tomonidan ro'yxatga olingan barcha tegishli atamalarni tanlash asosida shakllanadi. Shu bilan birga, miqdoriy ko'rsatkichlarda hech qanday cheklovlar belgilanmagan. Hammasi bo'lib biz tanlagan fiksatsiya sohasi matnlari 60000 so'zdan foydalanishni tashkil etadi. Biroq, juda katta hajmga qaramay, so'zlarning aksariyati takrorlangan. Iqtisodiyot nazariyasi bo'yicha professional darsliklar asosida atama tanlash tartibi amalga oshirilgan murojaat so'zlar ro'yxati shakllantiriladi. Ta'kidlash joizki, eng ko'p terminologik birliklar fiksatsiya sohasi manbalaridan tanlab olingan, bu 4355 ta terminologik birlikdir.

Jahon tajribasida zamon talablariga zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, jumladan, zamonaviy kadrlarni tayyorlash tizimini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida, jumladan, iqtisodiyot sohasi bo'yicha kadrlarni tayyorlashning ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan milliy tizimi yaratildi. Shular bilan bir qatorda zamonaviy kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashga oid yondashuvlarni jadallashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida integrallashuv hamda globallashtirish jarayoni jadal kechayotgan bir davrda xalqaro malaka talablariga mos raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash mazmuni va ilmiy-metodik bazasini mustahkamlash, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan rus tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash va yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Biroq iqtisodiyot sohasi terminologiyalarini rus tilida innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishning metodik asoslari maxsus tatqiq etilmagan. Bu esa, rus tilini o'rgatishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash va uni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot olib borishni taqozo etadi.

Rus tilida iqtisodiyot sohasidagi terminlar sohasini alohida kichik sistema sifatida o'rganish zarurligi asoslangan, shu bilan birga, uning leksikologik tarkibi va umumiy tizimini tavsiflashning lingvistik xususiyatlariga bog'liq masalalar muhokama qilingan. Xususan, rus tilida iqtisodiyot sohasidagi terminlar o'ziga xos maxsus xususiyatlari alohida ajralib turadi. Masalan, kompyuter bilimdonlari, shifokorlar, quruvchilar va boshqalar tili shular jumlasidandir.

Biroq, iqtisodiyot soha sifatidagi o'rni va roli hamda uning lingvistik tabiati bo'yicha yagona nuqtai nazar hozirga qadar yetarlicha shakllanmagan. Adabiy tilning iqtisodiyot sohasiga munosabati oxirigacha aniqlanmagan va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilmagan. Bularning barchasi kelgusida tilning iqtisodiyot sohasidagi xilma-xil turlarini batafsil o'rganish zaruratini taqozo etadi.

Shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiyot sohasidagi til haqida gap ketganda alohida leksik-grammatik tuzilishga ega bo'lgan biron bir avtonom til tizimi tushunilmaydi, balki, umumiy tilning iqtisodiyot sohasiga oid qatlami anglashiniladi. Maxsus tilning o'ziga xosligi esa uning ma'lum bir alohida soha, kasbga oid referentlarni aniq nomlaydigan til birliklaridan iborat ekanligida namoyon bo'ladi.

Rus tilida iqtisodiyot sohasidagi terminlar ancha tor doirada qo'llanishi bilan ajralib turadi. Binobarin, u ma'lum bir soha vakillari so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, jamiyatda barcha ijtimoiy qatlam vakillari tomonidan to'liq foydalanilmasligi bilan izohlanadi. Ommabop so'zlashuv nutqiga keladigan bo'lsak, uning qo'llanish doirasi cheksiz ekanligi ma'lum.

Ma'lum bir sohada yuzaga keladigan rus tilida iqtisodiyot sohasidagi terminlarning tildagi ifodasini boyitish manbai sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ba'zi maxsus maqsadlar yo'lida rus tili mutaxassislari odatda boshqa fan mutaxassislari bilan juda ko'p umumiyliklarga ega. Umumiy rus tili fani ikkalasi uchun ham til rivojlanishini hisobga olish kerak va o'z o'rni va roli bilan bog'liq zamonaviy g'oyalarni tushunish uchun nazariyalarni o'rgatish shuningdek, rus tilini o'rganuvchilarning ta'limdagi o'rni va roli va yangi asr metodologiyani takomillashtirishga yordam beradigan texnologiyalar taklif etiladi. Eng muhim farq shundaki talabalar va ularning rus tilini o'rganishdagi maqsadlaridir. Maxsus maqsadlar uchun rus tili talabalarga odatda o'z sohasi bo'yicha biroz ma'lumotga ega bo'lgan tilni biroz yaxshi biladigan kattaroq yoshdagilarga o'rgatiladi. Mutaxassislarning ushbu kasbiy kompetensiyasi rus tilini sohaviy fan uchun o'rganayotgan kasbiy ko'nikmalar to'plamini yetkazish va tegishli muayyan ishlarni bajarish uchun yo'naltirilgan. Shunday qilib, dastur maqsadlar va ehtiyojlarni, shuningdek, baholashga asoslangan rus tilini talab qiladigan funksiyalardir. Ixtisoslashgan rus tili ko'proq tilga e'tibor beradi, grammatika va til tuzilmalarini o'rgatishdan ko'ra kontekstgacha bo'lgan mavzularni qamrab oladi, turizm va biznesni boshqarish uchun buxgalteriya hisobi yoki kompyuter fanlari muhim bo'lganidek. Shu nuqtai nazardan qaraganda, rus tiliga kelsak, uning eng muhim asosiy jihati shundaki, rus tilini talabalarga alohida fan sifatida o'qitilmaydi. Buning o'rniga u talabalar uchun muhim bo'lgan fan sohasiga integratsiya qilingan.

Kasbiy sohada iqtisodiyotchilar rossiyalik mijozlar bilan intensiv hamkorlik qiladilar va shuning uchun rus tilini o'zlashtirish professional muammolarni hal qilish uchun haqiqiy ehtiyojni boshdan kechirishlariga to'g'ri keladigan vositadir. Ulardan biri, xususan, vakillikdir iqtisodiyotchi-quruvchining xalqaro va ilmiy ko'rgazmalardagi loyiha-iqtisodiy faoliyati xorijiy manbalardagi nashrlar bilan bog'liq, biroq, xorijiy dizayn ta'limini yaratish kelajakdagi loyiha iqtisodiyotchilari yetarli iqtisodiy malakaga ega emas, bu esa sifatni pasaytiradi, mutaxassislarning lingvistik

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

tayyorgarligiga salbiy ta'sir qiladi. Iqtisodiyot terminologiyasini o'qitish muammosiga doir nazariy masalalar, talabalarning lingvistik kompetensiyalari yetarli darajada rivojlanmaganligi va rus tilini shakllantirish zarurati iqtisodiyot, konstruktiv terminologiyani bilish har doim talabga muhtoj. Shuning uchun bizning tadqiqotimiz dolzarb va hal qilinishi kerak bo'lgan quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi: bo'lajak me'morlar, quruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar, axborotni kengaytirish ularning kasbiy faoliyati sohasi, ularning muloqotida til ko'nikmalari bilan bog'liq.

Amerikalik Edvin Dreyk 1859-yilda Oilfield (neft) terminologiyasi dalalarda ishlaydiganlar tomonidan ishlatiladigan jargonga ishora qiladi, ya'ni neft sanoati bilan bog'liq. Unga so'zlar va iboralar, sohaga xos kasblar, uskunalar va jarayonlarni tavsiflash kiradi. Shuningdek, neft konlari ishchilari tomonidan xuddi shu narsani tasvirlash uchun ishlatiladigan jargon atamalarini ham kiritish mumkin. Misol tariqasida: *Blowout*: yer osti bosimi keskin nazoratsiz qolishi; *Frac job*: gaz qudug'i rezervuargacha maxsus suyuqliklarni quyish; *Kill*: oqib sizib chiqqan moddani to'xtatish; *Pig*: tozalash uchun quvur liniyasiga o'rnatilgan qurilma; *Petroleum play*: (or play) neft istiqbollari guruhi tomonidan boshqariladigan neft istiqbollari guruhi ya'ni geologik holatlar to'plami; *Kick*: neft qudug'iga bosimli gazning kirib kelishi, bu burg'ulashni keltirib chiqaradi. Bu portlash uchun kashshof bo'lishi mumkin; *Derrick man*: burg'ulashdan keyin ikkinchi buyruq; *Monkey board*: burg'ulovchi ishlaydigan platforma, quvur stendini tashish; *Mud*: burg'ulash suyuqligi. Loy-bu burg'ulash suyuqliklari iqtisodiy loyni shakllantirish uchun javobgardir, Logger (shaxs) esa loy so'qmoqlarini tekshiradi, quduqning rasmini ta'minlaydigan neft va gaz toshlarining izlari uchun burg'ulash uchi shartlari; *Subsalt*: tuz qatlami ostida joylashgan neft istiqbollarini anglatadi; *Worm*: tajribasiz neft koni ishchisi.

Atama jargon bo'lishi mumkin va ko'pincha ma'lum aloqaga ega, ayniqsa maqsadga yo'naltirilganda, misol uchun "biznes madaniyati" yoki "neft madaniyati". Neft sanoati xususan, aniq atamalar leksikonini kengaytirishga yordam beradi. Iqtisodiy terminologiyaga kelsak, nafaqat iqtisodiy sohalarning u har qanday sohaning maxsus lug'atidir. Xuddi shu narsa sinonimlarga ham tegishli bo'lgan iqtisodiy atamalar, atamalar san'at, do'kon munozarasi va san'at so'zlariga ham taaluqlidir. Sanoat atamasi – bu ma'lum bir narsaga ega bo'lgan iqtisodiy terminologiyaning bir turi hisoblanadi.

Xulosa. Ta'limning turli sohalaridagi rus tili mavzu va tilini birlashtiradi. Bu kombinatsiya juda rag'batlantiradi, chunki, talabalar o'zlari qo'llashlari mumkin bo'lgan rus tili kurslarida asosiy ta'lim sohasi bo'yicha, buxgalteriya yoki biznes bo'lsin menejment, iqtisodiyot, tibbiyot, kompyuter fanlari, iqtisodiyot yoki iqtisodiyot. Zamonaviy mutaxassisga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri uning og'zaki nutqda ishtirok etish qobiliyatidir va kasbiy sohada yozma muloqot, uning tabiati va mazmuniga ko'ra, qaysi konstruktiv nutqda faoliyat turining predmet sohasining o'ziga xos xususiyatlari bilan oldindan belgilanadi, mutaxassis ishtirok etadigan idrok va ishlab chiqarishdir.

Shunday qilib, terminologiya – bu aloqa vositasi sifatida foydalaniladigan odamlar orasidagi gibrid (chatishma) til. Iqtisodiyot va muhandislik yanada taraqqiy etgan sari, jahon sanoatining rivojlanishi mexanizmlari-sanoatning har bir bosqichi evolyutsiyasi o'z atamalariga ega bo'lib va yangiklari bilan boyitilib boriladi. Natijada, iqtisodiyot sohasiga oid terminlar tipologiyasini ishlab chiqish va bo'lg'usi quruvchi mutaxassislarning leksik kompetensiyalarini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirishning yangi modellarini yaratishga zarurat tug'iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A learning-centered approach. – Cambridge University Press, 2016. – P.70-80.
2. Buyanov N.V. Funktsionalnost terminov i ponyatiy terminosferi «Nalogi i nalogovoe pravo»: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Krasnodar, 2002. – 20 s
3. Reformatskiy A.A. Kak rabotat nad terminologiyey. Osnovi i metodi. - M., 1968. – 138 s
4. Kalinin A.V. Leksikologiya russkogo yazika. –M.: Nauka, 1980. –217 s
5. Konnova Z.I., Cemenova G.V.; Nauchniy pezultat. Pedagogika i psixologiya obpazovaniya. –¹ 3.2021. – C. 53-67
6. Gerd A.S. Ehe raz o znachenii termina //Lingvisticheskie aspekti terminologii. - Voronej, 1980. - 70 s
7. Ro'zmetova D.A. // Talabalarga ingliz tili potentsial leksikasini o'rgatish/diss... PhD. –Chirchiq, 2022. – 132 b.
8. Boyko M.G. Strukturno-semanticheskie osobennosti formirovaniya bronetankovoy terminologii v angliyskom yazike: Avtoref. dis. kand. fil. nauk. – Omsk: OGU, 2011. – 24 s.
9. Boldova T.A. Obuchenie studentov ctapshix kupcov inoctpannomu yaziku na ocnove icpolzovaniya elektponnix gipeptektov: Avtopef.. dok.ped. nauk. – M.: NII, 2014. – 14 s.
10. Golovin B.N., Kobrin R.Yu. Lingvisticheskie osnovi ucheniya o terminax. M., 1987. - 104 s.
11. Grinev S.V. Vvedenie v terminovedenie. - Moskva: Moskovskiy litsey, 1993. – 188 s.

Muallif:

Usmanova Umidaxon Ilxomjon qizi - Guliston davlat universiteti, "Rus tili va adabiyoti" kafedراسi o'qituvchisi.

UO‘K: 130.2:17.021.1

PSYCHOLOGICAL BASIS OF THE STUDY OF LARGE FAMILIES IN THE CONDITIONS OF TRANSFORMATION OF VALUES

QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA KO‘P BOLALI OILALARNI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ МНОГОДЕТНЫХ СЕМЕЙ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЦЕННОСТЕЙ

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti, 100000, Toshkent shahri, Yashnabod tumani, Istiqlol ko‘chasi, 15 uy

E-mail: dildorichkayangiboyeva98@gmail.com

Abstract. In the world, the institution of the family is undergoing certain changes, among the most significant negative manifestations of these changes related to the family are the decrease in the birth rate and the limitation of the number of children in the family. Despite the fact that a large family is a rare and atypical phenomenon for modern society in the context of changing values, a certain percentage of such families still exists. In this regard, families with many children need comprehensive socio-psychological study. In such conditions, the study of families with many children is especially relevant and gives an opportunity to make certain forecasts in favor of changing the demographic situation in the country and increasing the birth rate.

Keywords: transformation of values, large families, demographic changes, socio-psychological characteristics of children, hierarchy of needs, family crises, interpersonal relations.

Аннотация. В мире институт семьи претерпевает определенные изменения, среди наиболее значимых негативных проявлений этих изменений, связанных с семьей, можно назвать снижение рождаемости и ограничение числа детей в семье. Несмотря на то, что многодетная семья – явление редкое и нетипичное для современного общества в условиях меняющихся ценностей, определенный процент таких семей все же существует. В связи с этим многодетные семьи нуждаются в комплексном социально-психологическом исследовании. В таких условиях исследование многодетных семей особенно актуально и дает возможность сделать определенные прогнозы в пользу изменения демографической ситуации в стране и повышения рождаемости.

Ключевые слова: трансформация ценностей, многодетные семьи, демографические изменения, социально-психологические особенности детей, иерархия потребностей, семейные кризисы, межличностные отношения.

Kirish. Jahonda oila instituti ma'lum o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, oila bilan bog'liq bu o'zgarishlarning eng sezilarli salbiy ko'rinishlari orasida tug'ilishning pasayishi va oiladagi bolalar sonining cheklanishi kiradi. Ko'p bolali oila qadriyatlar o'zgarishi sharoitida zamonaviy jamiyat uchun kamdan-kam uchraydigan va atipik hodisa bo'lishiga qaramay, bunday oilalarning ma'lum foizi mavjud bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan ko'p bolali oilalar har tomonlama ijtimoiy-psixologik o'rganishga muhtoj. Bunday sharoitda ko'p bolali oilalarni o'rganish ayniqsa dolzarb bo'lib, mamlakatdagi demografik vaziyatni o'zgartirish va tug'ilish darajasini oshirish foydasiga ma'lum prognozlar qo'yishga imkoniyat beradi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida ko'p bolali oilalarni tadqiq etishga oid ilmiy maqolalar hamda statistik to'plamlar olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Psixologiya oilani ijtimoiy-psixologik guruh sifatida o'rganar ekan, uning a'zolarining shaxslararo munosabatlariga, ularning turli ijtimoiy va oilaviy vaziyatlardagi o'zaro ta'siriga, oilaviy hayotni tashkil etishga va kichik guruh sifatida oilaning barqarorligi omillariga e'tibor beradi. Shu bilan birga, oila ma'lum bir jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga mos keladigan, birgalikdagi faoliyatda shakllanadigan shaxslararo munosabatlar majmui bilan birlashtirilgan ijtimoiy guruh sifatida talqin etiladi [2].

Hozirgi vaqtda oila – nikoh - ota-onalik muammolariga nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Yu.I.Aleshina, V.N.Drujinin, S.V.Kovaleva, A.S.Pivakovskaya, E.G.Eydemiller va boshqa olimlar oila nisbiy mustaqillik va barqarorlikka ega bo'lsada, jamiyatda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlarni bevosita yoki bilvosita aks ettirishini ta'kidlaydilar. Oiladagi tizimlilikning asosiy uslubiy tamoyiliga ko'ra, oilaviy munosabatlar tarkibiy yaxlitlikni ifodalaydi, uning elementlari o'zaro bog'liq bo'lib, bular nikoh, ota-ona-bola, bola-ota, bola-bola, bobo-buvi munosabatlaridir. Oilaviy munosabatlarni tadqiq etishning muhim metodologik tamoyili - sinergetik - inqiroz davrlarini hisobga olgan holda, oilaviy munosabatlar dinamikasini chiziqli bo'lmaganlik, muvozanatsizlik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishga imkon beradi [1].

A.I.Antonov fikricha oila “shaxsiy ehtiyojlarni qondirish va tug‘ilish bo‘yicha ijtimoiy funksiyalarni bajarishni uyg‘unlashtiradigan ota-onalik-nikoh-qarindoshlik munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy mulk va oilaviy faoliyatga asoslangan odamlar birlashmasi, bolalarni saqlash va ijtimoiylashtirish instituti hisoblanadi”. Psixologiya oilani ijtimoiy-psixologik guruh sifatida o‘rganar ekan, uning a‘zolarining shaxslararo munosabatlariga, ularning turli ijtimoiy va oilaviy vaziyatlardagi o‘zaro ta‘siriga, oilaviy hayotni tashkil etishga va kichik guruh sifatida oilaning barqarorligi omillariga e‘tibor beradi. Shu bilan birga, oila ma‘lum bir jamiyatning me‘yorlari va qadriyatlariga mos keladigan, birgalikdagi faoliyatda shakllanadigan shaxslararo munosabatlar majmui bilan birlashtirilgan ijtimoiy guruh sifatida talqin etiladi [5].

Bugungi kundagi zamonaviy ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etishda psixologiya fanining asosiy metodologik tamoyillari - aks ettirish, determinizm, ong va faoliyatning birligi, rivojlanishi kabi tamoyillardan keng foydalanish mumkin [6]. Shuningdek, oila va tug‘ilish sotsiologiyasidan nazariy yondashuvlar (A.I.Antonov, M.S.Matskovskiy, A.G.Xarchev) hamda ko‘p oilalarning sotsiologik, demografik, iqtisodiy, tibbiy-genetik tamoyillarini inobatga olish ham muhim [4].

Ko‘p bolali oilalarni o‘rgangan ko‘plab tadqiqotchilar oila a‘zolarining oilaviy qadriyatlarga e‘tibor qaratishni ta’kidlaydilar. Ko‘p bolali oilalarda birlikka intilish hamda hamkorlik qadriyati mustahkam rivoj topgan. Oilaning kattalashishi bilan uning a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgaradi. Rol tuzilmasi asta-sekin kengayib boradi, bu “bola-bola” tipidagi turli yoshdagi munosabatlar tufayli yuzaga keladi. Ota-onalar bilan muloqotning pasayishi ko‘p bolali oiladagi aka-uka va opa-singillar bilan o‘zaro munosabatlarning kuchayishi bilan qoplanadi. Bolaning rivojlanishida bolalar muloqoti alohida rol o‘ynaydi, bu bolalarning aqliy rivojlanishiga ta‘sir qiladi, ammo, afsuski, oiladagi bolalar o‘rtasidagi muloqot ota-onalar bilan yanada boyitilgan (og‘zaki va intellektual) muloqotning yetishmasligini to‘liq qoplay olmaydi. Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ko‘p bolali oilalarda o‘z farzandlarini qabul qilish va ota-onalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanish bilan bir qatorda, ota-onalarning turli bolalarga bo‘lgan munosabatlarida avtoritarizm, rasmiyatchilik va monotonlik bir vaqtning o‘zida kuchayishi mumkin [9].

Ko‘p bolali oilalarni o‘rganishda bolalarning kognitiv xususiyatlari haqida ma‘lumot berish ham muhim hisoblanadi. Kognitiv xususiyatlarning farovonligi yoki yomonligi bir qator omillarning kombinatsiyasi bilan belgilanadi. L.Ya.Gozmanning fikricha, bolaning rivojlanishiga eng salbiy ta‘sir oilaning kattaligi, kech bolalarning tug‘ilishi, oiladagi bolalar o‘rtasidagi kichik yosh farqi, shuningdek, bolalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatining pastligi bilan bog‘liq. Ko‘p bolali va bir bolali oilalar farzandlarining intellekt darajasidagi farqlar, shuningdek, bir oila ichidagi aka-uka o‘rtasidagi intellekt ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘xshashlik verbal intellekt sohasida aniqroq namoyon bo‘ladi [7].

Psixologiya uchun ko‘p bolali oila ichidagi munosabatlarning o‘ziga xosligi, shuningdek, uning a‘zolarining psixologik xususiyatlarining mavjudligi tufayli alohida qiziqish uyg‘otadi. Bu xususiyatlar ko‘p jihatdan ko‘p bolali oilaning paydo bo‘lishini ham, uning keyingi mavjudligi va hayot xususiyatlarini ham belgilaydi. Hozirgi vaqtda o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan uch va undan ortiq farzandi (shu jumladan asrab olingan bolalar, shuningdek o‘gay farzandlari) bo‘lgan oila ko‘p bolali oila hisoblanadi. E.F.Achilidiyevaning tasnifiga ko‘ra, ko‘p bolali oilalarning quyidagi turlari ajratiladi:

- Ota-onalar farzandlarini yaxshi ko‘radigan va ularga ongli ravishda ega bo‘lishni xohlagan oilalar. Bunday oilalarda bola hayotdagi qadriyatlardan biri sifatida harakat qiladi va ota-onalar farzandlarining yaxshi hayot kechirishi uchun qo‘lidan kelganini qiladilar.

- Ota-onalar ongli ravishda ko‘p farzandli bo‘lishga intilmagan oilalar. Uchinchi va keyingi bolalar, asosan, oilani rejalashtirishning yo‘qligi tufayli ularda paydo bo‘lishi mumkin. Bunday yettita egizak yoki uch egizak tug‘ilishi natijasida, homiladorlikni to‘xtatishdan qo‘rqish, shifokorning onaning sog‘lig‘i sababli abort qilishni taqiqlashi, diniy e‘tiqodlarga ko‘ra abort va kontratsepsiyani rad etishi natijasida paydo bo‘lishi mumkin.

- Ikkita to‘liq bo‘lmagan oilalarning birlashishi natijasida tashkil etilgan oilalar, bunda ularning har biri allaqachon farzandli bo‘lgan bo‘ladi.

- Ko‘p sonli bolalar tug‘ilishi muammoning namoyon bo‘lishi deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan oilalar. Bu yerda bolalar ko‘pincha turli xil imtiyozlar, qo‘shimchalar olish vositasidir. Bundan tashqari, aksariyat hollarda bunday oilalarda bolalar tartibsiz jinsiy aloqalar, alkogol yoki giyohvandlik holati natijasida tug‘iladi va ota-onalarning tipik psixologik munosabati ularning asosiy vazifasi bolani tarbiyalash ekanligiga ishonishadi [8].

Ko‘p bolali oilalar o‘tgan asrning 90-yillar boshidan boshlab psixologik tadqiqot obyektiga aylandi. Ota-onalarning psixologik xususiyatlarini va ko‘p bolali oilalarda oila ichidagi munosabatlarning xususiyatlarini o‘rganish faqat bir nechta xorijiy tadqiqotlarda amalga oshirildi. Xorij, xususan, MDH davlatlari psixologiyasida bu hodisalar amalda o‘rganilmagan. Bu esa, zamonaviy jamiyatda ko‘p bolali oilaning muhim ijtimoiy roli va bu hodisaga psixologik tadqiqotlar yo‘qligi o‘rtasidagi qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

Ko‘p bolali oilalarda ajralishlar nisbatan kamroq qayd etiladi, biroq ushbu hodisa sodir bo‘lgan taqdirda ham bu faqat erning iqtisodiy yoki axloqiy-psixologik qobiliyatsizligi tufayli yuzaga kelgan, deya qaraladi. E.V.Foteeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, ko‘p bolali bo‘lish motivi tabiiy bo‘lib, bunday tipdagi oilalar boshidanoq turmush o‘rtoqlarning bir-biriga, oilaviy kelajagiga bo‘lgan ishonchi bilan ajralib turadi, bu esa ularga ko‘p farzandli bo‘lishga imkon beradi. Oiladagi barcha bolalar oilaga majburiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ko‘p bolali oila bolalar, kattalar va

kichiklar, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi turli xil munosabatlarga boy. Bu shaxsni shakllantirish va yosh avlodni ijtimoiy faoliyatda, jumladan, nikoh va ota-ona rollarida ishtirok etishga tayyorlashda katta ahamiyatga ega [10].

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida, uch yoki undan ortiq farzandi, shu jumladan o'n sakkiz yoshga to'lmagan asrab olingan bolalari bo'lgan oila ko'p bolali oila hisoblanishi ma'lum bo'ladi. Ko'p bolali oilalar - ota-onalar ataylab ko'p farzandli bo'lishga qaror qilgan oilalar, ota-onalar ko'p farzandli bo'lishga intilmagan oilalar, ikkita to'liq bo'lmagan oilalarning shakllanishi natijasida ko'p bolali oilalar va bolalar soni noqulaylikning natijasi hisoblangan ko'p bolali oilalar kabi turlarga bo'linadi. Ko'p bolali oilalarda bolalar rivojlanishining omillari uning parametrlari, atrof-muhit sharoitlari va a'zolarining shaxsiy xususiyatlari hisoblanadi. Ko'p bolali oilalar ajralishlar va bolalar o'rtasidagi turli xil shaxsiy munosabatlar bilan ajralib turadi. Ko'p bolali oilalarning muammolari - moddiy va maishiy muammolar, ota-onalarning ish bilan ta'minlanishi, uy-joy kabilarga ajratiladi. Ko'p bolali oilalarning psixologik muammolari - ota-onalar tomonidan bolalarga e'tiborning yetishmasligi, ijtimoiy yoshning o'sishi, turmush darajasi va sog'lig'ining pasayishiga olib keladigan psixologik iqlimning murakkabligi kabilari bilan tavsiflanadi. Ko'p bolali oiladagi ota-onalar odatda kuchli psixologik barqarorlikka ega bo'lishadi. Ular stressga ko'proq bardosh beradilar, qadriyatlarini birinchi o'ringa qo'yganliklari hamda eng qimmatli narsa - farzandlari foydasiga tanlov qilganliklari bois hayot qiyinchiliklarini osonlikcha yengib o'tishadi. Har kim qiladigan ishni qilmaslik, mustaqil qaror qabul qilishda ma'lum bir jasorat ko'rsatishga intilish, ko'p bolali oilalardagi ota-onalar odatiy tusga kirgan.

S.V.Kovalyovning so'zlariga ko'ra ko'p bolali ota-onalarning ta'lim-tarbiya xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: ko'p bolali oilalarda bolalarni tarbiyalashda ota-onalar asosan sezgi va stereotiplarga tayanadilar, ularning «nodonligi» tufayli kattalar turli xil tug'ilish pozitsiyalaridagi bolalar bilan o'zaro munosabatlar jarayonini malakali qura olmaydilar; bolalarning ko'pligi turli yoshdagi pozitsiyalarga qarab, katta oilaning har bir farzandiga xos bo'lgan «noyob qobiliyatlarning» namoyon bo'lishiga to'sqinlik qiladi; ko'p bolali oilada bolalarni tarbiyalash muammolarining asosiy sababi barcha bolaga bir xil «yondashuv» bo'lib, aksariyat ota-onalar ongli yoki ongsiz ravishda ergashadigan yo'nalish bo'yicha bolalarni tarbiyalashadi. Bu barcha bolalarni bir butun sifatida ko'rib va oilada turli yoshdagi bolalar o'rtasidagi shaxsiy xususiyatlardagi farqlarni sezmaslik istagi bilan tavsiflanadi [11].

Ko'pincha, ko'p bolali ota-onalar turli yoshdagi bolalarni tarbiyalashning pedagogik strategiyasini tanlashda bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lmaydilar. Shunga qaramay, ko'p bolali oilalardagi bolalar ham bir-biriga, ham boshqa odamlarga nisbatan sezgir bo'lib o'sadi. Kam bolali oilalar bilan solishtirganda, ko'p bolali oilalarda shaxslararo hamjihatlik yuqoriroq pozitsiyada namoyon bo'ladi. Psixologiyada mazkur atama (shaxslararo hamjihatlik) atama guruh barcha a'zolarining, bu holda oilaning harakatlari qanchalik muvozanatli, birgalikda yo'naltirilganligini va oila a'zolarining umumiy qarorni qanchalik tez va malakali qabul qilishini aniqlash uchun ishlatiladi. Bundan kelib chiqadiki, bir nechta bolali oilalar har doim do'stona munosabatda bo'lishadi.

Shu bilan birga, Ya.A.Artsimovich, ko'p bolali ota-onalarga xos bo'lgan mas'uliyatsizlik va beparvolik ko'pincha taqdirning rahm-shafqatiga tashlab qo'yilgan bolalarning qarovsiz qolishiga, ko'chada mustaqil ravishda yurishiga olib kelishini ta'kidlab o'tgan (ota-onalar bolaning qanday kompaniya ekanligini nazorat qilmaydilar). Ota-onalarning bunday holatlarga beparvo munosabati tufayli bolalarning xulq-atvorida muammolar, jumladan, jarohatlar, kutilmagan vaziyatlar, bezorilik yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilish kabilari yuzaga keladi. Ko'p bolali oilalar farzandlari ba'zi hollarda ota-onalaridan qo'rqishgani tufayli, uydan tashqarida munosabatlarni izlaydilar (uydan qochib ketishadi, disfunktsiyali bolalar va turli xil xatti-harakatlari bilan to'plangan guruhlariga kiradilar). Ammo kattalar bolalar va ko'cha bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalar ekanligini unutmasliklari lozim. Ota-onalar har doim va hamma joyda farzandlari uchun mas'uldirlar. Oilani rejalashtirish va yaratish, bir-ikkita emas, balki ko'proq farzand tarbiyalash masalasiga jiddiy va ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak [12].

K.Vitekning fikricha, ko'p bolali oilalarning bolalari ochiqko'ngil bo'lganliklari bois, ko'proq muvaffaqiyatga, boshqalarga qaraganda hayotda ko'proq yutuqlarga erishadilar. Ko'p bolali oiladagi ota-onalar bu xususiyatni ataylab rivojlantirishlari shart emas - bu o'z-o'zidan tarbiyalanadi, chunki bolaning muloqot qilish uchun kimdir bor. Bolaligidan u aka-uka va opa-singillar bilan suhbatlashishga, kompyuter o'yinlarini emas, balki rolli o'yinlarni o'ynashga odatlangan va kattalar hayotida muloqot qobiliyatlari muvaffaqiyatning deyarli asosiy tarkibiy qismidir. Bolalar turmush o'rtloqlarni kuchliroq birlashtiradi, bu ular sevgisining natijasidir. Ko'p bolali oilalarda ajralishlar nisbatan kamroq qayd etilishi ajablanarli holat emas. Har bir keyingi bolaning tug'ilishi nafaqat ota-onalar uchun yangi tashvishlarni, balki bir-birlari bilan munosabatlarning yangi darajasini ham anglatadi. Hissiyotlar kuchayadi, bir-biriga nisbatan mas'uliyat ortadi. Bunday turmush o'rtloqlar ko'pincha qariguncha bir-birlarini sevadilar, birgalikda yo'qotadigan narsalari borligini, ajralish birinchi navbatda farzandlariga ta'sir qilishini tushunishadi, shuning uchun har qanday vaziyatda taslim bo'lmaslikni va bir-birlarini qadrlashni bilishadi. Shunday qilib, ko'p bolali ota-onalarning shaxsiy xususiyatlariga ota-onalik maqomini saqlab qolish istagi, stressga yuqori darajadagi psixologik qarshilik, oila a'zolari o'rtasidagi uyg'unlik, ta'lim xususiyatlari (intuitivlik va stereotipik tarbiya), har bir bola uchun tarbiya yo'nalganligining yo'qligi kiradi [13].

Xulosa. Zamonaviy oilalarning qadriyat yo'nalishlarining keng doirasi ularning qonuniylashtirilishi jarayonini murakkablashtiradi, bu esa turli xil oilaviy trayektoriyalarning mavjudligiga olib keladi. Bu ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan bir qator holatlar va shunga mos ravishda oila instituti uchun ziddiyatli va noaniq oqibatlarini

tushunish zarurati bilan bog'liq. Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlar dinamik ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida ishlaydigan o'z-o'zidan rivojlanadigan mikroijtimoiy tizim sifatida ham tadqiq etiladi. Ko'p bolali oilalarni voqelik sifatida tahlil qilish bizga kamida ikkita muammoni hal qilish imkonini beradi. Birinchisi, oilaviy munosabatlarni tamoyillar nuqtayi nazaridan oilani o'zini-o'zi rivojlantirish mexanizmi sifatida tahlil qilish hamda jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi sharoitida oila rivojlanishini optimallashtirishning tashqi mexanizmlarini aniqlash. Ikkinchisi - oilaning mehnat salohiyatini shakllantirish uchun motivatsiya tizimini ochib berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Обнос В.Н. Преодоление эгоцентризма как условие духовно-нравственного развития // Сб.: Молодежь и ответственность: материалы IV Владимирских духовно-образовательных чтений / - Мичуринск: Изд-во Мичуринского ГАУ, 2019. – С. 56 – 60.
2. Перышкова С.А. Роль семьи в развитии дошкольника // Сб.: Актуальные проблемы науки и образования: сборник статей по итогам научно-исследовательской и инновационной работы Социально-педагогического института ФГБОУ ВО Мичуринский ГАУ за 2017 г. / под общей редакцией В.Я. Никульшина. – Мичуринск: Издательство Мичуринского ГАУ, 2017. – С. 16 – 19.
3. Бойко В.В. Структура и особенности многодетной семьи. – М.: Класс, 2011. – 118 с Зиммель Г. Большие города и духовная жизнь.
4. Семьецентризм: миф или реальность?/А.И.Антонов, В.М.Карпова, С.В.Ляликова и др. — Москва: Москва, 2016. — 324 с.
5. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности: трактат по социологии знания. М., 1995.
6. Парсонс Т. О структуре социального действия. М., 2002.
7. Гозман Л.Я. Психологические проблемы многодетной семьи // Вопросы психологии. – 2011. – №2. – С. 32–33.
8. Ачильдиева Е. Ф. Многодетная семья в современной России // Вопросы психологии. – 2009. – № 2. – С. 12–14.
9. Особенности личностного отношения к семье у многодетных родителей //А.С.Пушкин и российское историко-культурное сознание. Провинциальная ментальность России в прошлом, настоящем и будущем. Материалы III Международной конференции по исторической психологии российского сознания. Т.5. Вып.1. Самара, 1999. С. 342-344.
10. О некоторых перспективах развития психологии семьи // Социальная психология - XXI век. Доклады участников симпозиума. Т.2. Ярославль: ДИА- пресс, 1999. С. 337-338.
11. Экономические аспекты формирования и жизнедеятельности многодетной семьи // Психология и экономика. Труды 1-й Всероссийской научно-практической конференции РПО. Т.2. Калуга, 2000. С. 318-319.
12. Личностные факторы формирования и жизнедеятельности многодетной семьи // Психология созидания. Ежегодник РПО. Т.7. В.1. Казань, 2000. С. 106-107.
13. Психология семейных отношений с основами семейного консультирования / Е.И. Артамонова, Е.В. Екжанова, Е.В. Зырянова; под ред. Е.Г. Силяевой. М., 2002. 192 с.

Muallif:

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi – “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti 1-bosqich tayanch doktoranti.

UDK 372.879.6

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Yuldasheva Nargiza Egamberdiyevna

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali. 150100, O'zbekiston, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar, Iste'dod ko'chasi, 3A.

E-mail: nargizayuldasheva1972@gmail.com

Abstract. In this article illustrates the professional competence of the physical education teacher in the constantly changing conditions, having studied advanced foreign experiences, the specific aspects, editorial conditions, content and structure of their professional competence in the system of professional development are highlighted. Also, the criteria for

o'quvchilarni turli dunyolar va muhitlar bilan tanishtirishga imkon beradi. Virtual dunyolar orqali, ular tarixiy voqea va mamlakatlar, o'quv materiallarini mustaqil va interaktiv shaklda o'rganishlari mumkin. Ikkinchidan, VR texnologiyalari amaliyotni oshirish uchun samarali vositalar taqdim etadi. O'quvchilar mashg'ulotlar va o'quv materiallarini virtual muhitlarda amaliyotlarni bajarishlari, shuningdek, turli o'quv fanlarini o'rganishga o'zlashtiradi. Uchinchidan, VR dasturlari o'quvchilarning iste'dodlarini oshirish va ularni muammolarni hal qilish uchun kuchaytiradi. Virtual o'yinlar va maslahatlar orqali, o'quvchilar ko'p muammolar bilan tanishishlari va ularga yechim topishlari mumkin. Bundan tashqari, VR texnologiyalari o'quvchilarni yaratuvchi va ijodiy qilishni kuchaytiradi. Ular virtual dunyolarda yangi narsalar yaratish, ularni test qilish va o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. [2].

Jumladan, VR texnologiyalari va dasturlari, o'quvchilarga interaktiv va immersiv ta'lim tajribasi taqdim etish orqali ularning o'rganish va rivojlanishini kuchaytiradi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning qiziqishini oshirish va o'rganishni qiziqarliroq qilishda muhim rol o'ynaydi.

Interaktiv ta'lim usullari. Interaktiv ta'lim usullari, o'quvchilarni faol ravishda qatnashish va o'rganishni oshirish uchun turli usullarni integratsiyalashni ifodalaydi. Bu usullar o'quvchilarga o'zlarini o'rganish, savollarga javob topish va tushunchalarni tushunishlarini kuchaytirish uchun foydalaniladi. Quyidagi interaktiv ta'lim usullari keng qo'llaniladi:

1. Diskussiya va Guruh Ishi: O'quvchilar o'z fikrlarini bayon etish va boshqa o'quvchilar bilan fikrlarini o'zgartirish orqali bilim olishlari uchun guruhda ishlashadi. Bu, ularning tushunchalarini o'rganish va o'z fikrlarini ifodalashlari, jismoniy va intellektual samaradorliklarini oshiradi.

2. Interaktiv Taqdimotlar: O'qituvchi o'quv materiallarini animatsiyalar, multimediyalarning yordami bilan taqdim etadi. O'quvchilar bu animatsiyalar orqali mazmuni tushunish va tushunchalarini mustaqil ravishda shakllantirishadi.

3. O'quvchilar Bilan Hamkorlikda Mashg'ulotlar: O'quvchilar bir-biriga yordam berish, guruhda ishlash va jamoat bilan hamkorlik qilish orqali jismoniy va intellektual rivojlanishlarini kuchaytirishadi.

4. Virtual Haqiqat (VR) Dasturlar: Virtual haqiqat texnologiyalari orqali o'quvchilarga interaktiv va immersiv ta'lim tajribasi taqdim etiladi. Ular o'zlarini virtual dunyolarda, masalan, tarixiy voqea va mamlakatlar bilan tanishish, o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'rganish va turli fanlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishlari mumkin.

5. O'quvchilarning Yangi Bilimlarni Qolgan va Yangi Ma'lumotlarini Izlash: O'quvchilar iste'dodlarini oshirish uchun eng yangi ma'lumotlarni qolgan, ularni izlash va tahlil qilishning qiziqishini oshirish uchun turli veb-resurslardan foydalanishadi.

Bu adabiyotlar virtual reallik texnologiyalarining (VRT) bola tarbiyasida bo'ylab ta'lim jarayonini va tarbiyachi-o'quvchilar munosabatlarini ta'qib qilish, tahlil qilish va ta'sirini belgilash uchun muhimdir. Bu adabiyotlar tarbiyachilarning VRT-ni qanday foydalanishlari va uning bola tarbiyasiga ta'sirini tushuntiradi. Ularning tahlili quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. *Pedagogik O'zlashtirishlar va Virtual Reallik Texnologiyalari*: Bu maqolada VRT-ni o'quvchilarni o'rganish va rivojlanishlarini kuchaytirish uchun qanday usullar bilan bog'liq bo'lishi tahlil qilinadi. Virtual dunyolar, interaktiv dasturlar va o'yinlar o'quvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishlarini oshirishga yordam beradi.

2. *VRT va O'quvchilar Ustida Ta'siri*: Bu adabiyotlar VRT-ni qanday o'rganish va o'stirishlarda qanday ta'sir qoldirishi haqida tahlil qiladi. Ular o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni o'zlarini o'rganishga qiziqishlarini oshirish va ularning ta'lim jarayonida qatnashish darajasini oshirishga qanday oqibat qoldirishi haqida ma'lumot beradi.

3. *O'qituvchilar Uchun VRT-Ni Integratsiya Qilish*: Bu adabiyotlar maktab o'qituvchilariga VRT-ni ta'lim jarayoniga qanday integratsiya qilishlari kerakligini ta'lim etadi. Ular VRT-ni darslarni o'zlashtirish, o'quv materiallarini interaktiv qilish va o'quvchilarni o'zlashtirish uchun qanday dasturlashlari foydalanishni o'rganishga yordam beradi. [3].

Virtual o'yinlar va dasturlar. Virtual o'yinlar va dasturlar, bugungi kunda raqobatbardosh o'quvchilar uchun jiddiy va ilg'or ta'lim vositalari sifatida tasvir etiladi. Ular o'quvchilarga ma'naviy, jismoniy va intellektual o'sishni ta'minlaydi. Quyidagi sabablarga ko'ra, virtual o'yinlar va dasturlar o'quvchilarning o'rganish jarayonini samarali va qiziqarli qilishda katta rol o'ynaydi. Birinchidan, virtual o'yinlar va dasturlar o'quvchilarni ta'limni qiziqarli va o'zlashtirishlari uchun ilg'or qilishga yordam beradi. O'quvchilar virtual dunyolarda turli vaziyatlarni tajribalash orqali amaliyotni oshirishadi, masalan, jismoniy fanlar, matematika, va til o'rganish va boshqalar. [4]. Ikkinchidan, virtual o'yinlar va dasturlar o'quvchilarni ko'p tomondan o'rganishga yo'l ochadi. Ular ko'rsatish va qabul qilish orqali ma'lumotlarni o'rganish, muammolarni hal qilish va tahlil qilishni o'rganish imkonini ta'minlaydi. Uchinchidan, virtual o'yinlar va dasturlar o'quvchilarning jamoat bilan hamkorlik qilish va jismoniy va intellektual rivojlanishlarini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar bir-birlari bilan o'zaro ishlash, maslahatlashish va o'zlarining maqsadlariga erishish uchun o'zlashtirishadi. Bundan tashqari, virtual o'yinlar va dasturlar o'quvchilarning o'zlarini aniqlash va o'rganishlari uchun turli metodlarni integratsiyalash imkonini beradi. Ular masalalar yechish, loyihalarni boshlash, nazorat qilish va takrorlash, va boshqa o'rganish usullarini jamlab o'rganishga yordam beradi.

Jumladan, virtual o'yinlar va dasturlar o'quvchilarning ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda katta rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarning ma'naviy, jismoniy va intellektual o'sishlarini kuchaytirishda muhim vositalar sifatida xizmat qiladi. [5].

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

Maktabgacha ta'limda Virtual Realitiya (VR) foydalanish, o'quvchilarga unikal va immersiv ta'lim tajribasi taqdim etish uchun katta potentsialga ega. Quyidagi sabablarga ko'ra, VR foydalanish maktabgacha ta'lim uchun juda muhimdir: 1. Immersiv Ta'lim Tajribasi: VR texnologiyalari, o'quvchilarni bitta dunyoda yashash hissiyatini yaratadi. Bu ularni ko'plab fanlarni o'rganish, tarixiy voqealar va mamlakatlar bilan tanishish, va o'zlarini ilg'or ravishda o'quvchilari uchun eng qiziq tajriba. 2. Engajant Ta'lim: VR o'quvchilarni ta'lim jarayoniga maksimal qatnashishni ta'minlaydi. 3D muhitlar va interaktiv dasturlar o'quvchilarni ma'naviy ravishda qiziqtiradi va o'rganishlarini rag'batlantiradi. 3. O'zlashtirish va O'rgatishni Oshirish: VR o'quvchilarga o'zlarini o'rganish va o'sishlari uchun interaktiv dasturlar taqdim etadi. Ular o'quvchilarni mustaqil ravishda masalalar yechish, muammolarni hal qilish va yangi yechimlarni topishga imkon beradi. 4. O'quvchilarning Jismoniy Va Intellektual Rivojlanishi: VR o'quvchilarning jismoniy faoliyatlari va intellektual rivojlanishi uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni taqdim etadi. Ular 3D muhitlarda turli mashg'ulotlar va darslarga qatnashish orqali har bir o'quvchi uchun masofaviy ta'limni kuchaytiradi. 4. Yaxshi Ehtiyojlar Sozlamasi: VR dasturlar, o'quvchilarning o'zlashtirish va o'rganish qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi ehtiyojlar sozlamasiga ega. Bu dasturlar o'quvchilarning boshqa ma'lumotlarga qaraganda qanday fikr bildirishini, nazorat qilish va masalalar yechishni o'rganishga yordam beradi. [5].

Jumladan, VR foydalanish maktabgacha ta'limda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o'zlarini o'rganish va o'stirishlari uchun samarali va qiziqarli ta'lim jarayonini ta'minlaydi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishlarini kuchaytirishda muhim vositalar sifatida xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining bo'ylab tarbiyachilarning bola tarbiyasida virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish mavzusidagi tadqiqotlar va olingan natijalar keng qamrovli va ahamiyatli bo'lib keladi. Quyidagi natijalar va ularning tahlili bu muhim mavzuni tushunishga yordam beradi: 1. O'quvchilarning Motivatsiyasini Oshirish: Ko'p yurtlararo tadqiqotlar, VRT-ni o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun samarali vosita sifatida ta'kidlaydi. VRT-ning qiziqtirish va o'zlashtirish texnologiyalari bo'lib, o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qatnashishini, ularga ilg'or ravishda o'rganishni va o'zlarini qiziqtirishni oshirishga yordam beradi. 2. O'quvning Mustaqil O'zlashtirilishi: Virtual dunyolar va interaktiv dasturlar orqali o'quvchilar o'zlarini mustaqil ravishda o'rganish va o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu tarzda, ular o'z fikrlarini ifodalash, muammolarni hal qilish va yangi ma'lumotlarni o'rganishning ko'plab yo'llarini kashf etishlari mumkin. 3. O'quvchilarning Jismoniy va Intellektual Rivojlanishi: VRT, o'quvchilarning jismoniy va intellektual rivojlanishlarini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. 3D muhitlar va interaktiv dasturlar o'quvchilarga amaliyotni oshirish va savollarga javob topish imkonini ta'minlaydi, shuningdek, ularga yangi fanlar va mavzular bo'yicha ko'p mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyatini beradi. 4. O'quvchilar Bilan Hamkorlik va Aloqa Kuchayishi: VRT, o'quvchilar orasidagi hamkorlik va aloqani kuchaytirishda muhim vosita bo'lib qoladi. Ular o'zaro ishlash, maslahatlashish va jamiyat bilan hamkorlik qilish orqali ko'p tomondan o'rganishlari va rivojlanishlari mumkin. 5. Tarbiyachilarning Professional Rivojlanishi: VRT-ni o'rganish va uning bo'limlariga integratsiya qilish tarbiyachilarga yangi ko'chish va professional rivojlanish imkoniyatlarini ochadi. Ular o'quvchilarni interaktiv va immersiv ta'lim tajribasi taqdim etish uchun yangi usullar va dasturlar o'rganishadi. [6].

Xulosa. 1. O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish: Virtual reallik texnologiyalari (VRT) o'quvchilarni ta'lim jarayonida motivatsiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. 3D muhitlar va interaktiv dasturlar o'quvchilarni qiziqtirish, o'zlarini o'rganishga ilg'or ravishda ma'lumotlar olishlariga imkon beradi. 2. O'quvchilarning o'rganish va o'sishini kuchaytirish: VRT, o'quvchilarning ma'naviy, jismoniy va intellektual rivojlanishlarini kuchaytirishda katta rol o'ynaydi. Virtual dunyolar va o'yinlar o'quvchilarga mustaqil ravishda o'rganish imkonini taqdim etadi va ularni aktiv ta'limga qatnashishga kuchaytiradi. 3. O'quvchilarning ko'nikmalarni rivojlantirish: VRT, o'quvchilarning jismoniy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda katta yordam beradi. Ular 3D muhitlar orqali mashg'ulotlar o'tkazish, turli masalalarni yechish va o'zlarining ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. 4. Tarbiyachilarning professional rivojlanishi: VRT-ni maktabgacha ta'limda integratsiya qilish, tarbiyachilarga yangi texnologiyalar va ta'lim usullari o'rganish imkonini beradi. Bu ularning ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va o'quvchilarni qiziqtirishda yaxshi tajribani olishiga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Турсунбеков, Х., & Саидова, Х. (2023). Virtual olam va uning jamiyat hayotiga ta'siri. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(4).
2. Маркузе Г. Техногенная цивилизация. – М.: Элигия, 1998. – С. 45.
3. Yoqubova M. Ijtimoiy taraqqiyot va madaniyatning globalashuvi. T.: NISHON-NOSHIR. 2013. -144 b.
4. Михайлов А.Н. Диагностика виртуальной образности. М.: 2008. – С. 8.
5. Astonishing innovations of VR“ (en). caersidi.net. 2020.
6. Mise-Unseen | Proceedings of the 32nd Annual ACM Symposium on User Interface Software and Technology“ (en). dl.acm.org.

Muallif:

Xabibullayeva Irodaxon Dolshod qizi – Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti.

UDK 372.815.99

THE ROLE OF THE PSYCHOLOGICAL CLIMATE IN THE TEAM IN ENSURING THE EFFECTIVENESS OF WORK

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО КЛИМАТА В КОЛЛЕКТИВЕ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

MEHNAT FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA JAMOADAGI PSIXOLOGIK IQLIMNING O'RNI

Karimova Mashhura To'liqinova

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: mashhura.karimova.89@mail.ru

Abstract. The paper examines the concept of psychological climate, the degree of its study and the impact on labor productivity. This article also highlights who studied the socio-psychological climate, the definitions given by psychologists to the socio-psychological climate and the experiments we conducted. The article finds out that in order for a person to work effectively and successfully, he needs certain conditions and amenities in the team, the socio-psychological climate is a complex psychological factor reflecting the state of relationships and the degree of satisfaction of employees with various things.

Key words: efficiency, psychological climate, joint activities, work collective, favorable environment, dynamic upbringing.

Аннотация. В статье рассматривается понятие психологического климата, степень его изучения и влияние на производительность труда. Также в этой статье освещается, кем изучено социально-психологический климат, определения, данные психологами социально-психологическому климату и проведенные нами эксперименты. В статье выясняется, что для того, чтобы человек мог эффективно и успешно трудиться, ему нужны определенные условия и удобства в коллективе, социально-психологический климат является сложным психологическим фактором, отражающим состояние взаимоотношений и степень удовлетворенности сотрудников различными вещами.

Ключевые слова: эффективность, психологический климат, совместная деятельность, трудовой коллектив, благоприятная среда, динамичное воспитание.

Kirish. So'ngi paytlarda mehnat faoliyati samaradorligini oshirishda psixologiya alohida ahamiyat ega bo'lib kelmoqda. Bunda ijtimoiy-psixologik iqlimga ko'plab psixolog olimlar qiziqishi ortib bormoqda va birinchi navbatda, shaxsning o'z mehnat faoliyatiga psixologik jalb qilinishi, shuningdek, uning ish paytida boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatiga qo'yiladigan talablar diqqatni tortmoqda. Hozirgi kunga kelib bir qator muvaffaqiyatli tashkilotlar eng qulay IPIning yaratish va samaradorlikni oshirish uchun psixologlarni yollashmoqda, chunki mehnat unumdorligining o'sishi va kompaniyaning muvaffaqiyati IPIning ham bog'liq.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida Guliston davlat universitetida faoliyat olib borayotgan tyutorlari, tadqiqot mavzusini yoritishda Yu.Ya.Rejonkinning kommunikativ distansiyasini aniqlash metodikasi olindi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Jamoadagi atmosfera qanday rol o'ynaydi? Yaxshi psixologik iqlim mehnat faoliyatini samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, yomoni esa uni pasaytiradi va ishni chidab bo'lmas holga keltiradi. Xodimlarning intizomi bevosita tashkilotda shakllangan psixologik iqlimga bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, agar xodimlar bir-biriga tushunish va hurmat bilan munosabatda bo'lishsa, biznes yoki umuman olganda mehnat faoliyatini samaradorligi yanada muvaffaqiyatli bo'ladi. Aksincha, doimiy nizolar, mayda-chuydalar va sababsiz janjallar hatto eng muvaffaqiyatli korxonalar yoki tashkilotni ham barbod qiladi. Ijtimoiy-psixologik iqlim (keyingi o'rinlarda IPI) odatda bir jamoa a'zolarining munosabatlari, fikrlari va g'oyalarini birlashtirgan dinamik shakllanishi deb ataladi. Mashhur psixologlardan A.L.Juravlev, V.V.Boyko va boshqalar turli davrlarda IPIning o'rganishgan[1]. B.D.Parigin IPIning "xodim o'z faoliyati davomida turlicha namoyon bo'lish shakllarini topadigan jamoaning ustuni va nisbatan barqaror psixologik kayfiyati" deb ta'riflaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy psixologiya jamoani umumiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan guruhning alohida sifati deb hisoblaydi. Bu alohida sifat ijtimoiy faoliyatning ma'lum bir tizimi doirasida mavjud bo'lgan guruhlarining rivojlanishi mahsulidir[2]. Bugungi kunda IPIning eng chuqur ta'rifi Yu.L.Neymer tomonidan berilgan. Uning fikricha, Ijtimoiy-psixologik iqlim bitta jamoaning ma'lum bir ichki holatini ifodalaydi, bu uning ma'lum maqsadlarga birgalikda erishish qobiliyatini maksimal darajada aks ettiradi. Umuman olganda, Yu.L.Neymer ijtimoiy-psixologik iqlimningning ikkita asosiy turini ajratish odatiy holdir deb takidlaydi bu – qulay va noqulay. Birinchi turdagi ya'ni "qulay" osonlik bilan ishonch hissi, xotirjamlik, erkinlik yaratish, intellektual o'sish imkoniyati va boshqalar bilan tavsiflanishi mumkin. Ikkinchi turdagi – noqulay mos ravishda, tushunmovchilik va dushmanlikning kayfiyatini namoyish etadi. Rad etish va umumiy natijaga

erishish uchun o'z ishiga sarmoya kiritishni istamaslik, xato qilishdan qo'rqish bilan birga yuzaga keladi[3]. Shunday qilib, jamoaning ijtimoiy-psixologik iqlimi deganda jamoaning ichki holati, uning ruhiy holati va hamkasblar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, xodimlarning tashkilot sharoitlariga munosabati tushuniladi. Qulay va noqulay iqlimni esa ijtimoiy-psixologik iqlimning asosiy turlari deb hisoblash odat tusiga kirgan. Ijtimoiy-psixologik iqlim omillari umumiy samaradorligiga ta'sir qiluvchi shaxs dinamik shaxsdir. Uning dinamikasi guruhni tashkil qilish jarayonida ham, aloqalar va munosabatlarni o'rnatish jarayonida ham, me'yorlar, qarashlar va yo'nalishlar birligining parallel shakllanishi sodir bo'lishi kerak bo'lgan guruhni shakllantirish jarayonida ham namoyon bo'ladi.

N.B.Cheldishovning so'zlariga ko'ra, ushbu dinamikaga yordam beradigan omillardan biri bu "iqlimning buzilishi" – jamoadagi hissiy holatning tabiiy o'zgarishi, kun davomida yoki undan ko'proq vaqt davomida sodir bo'ladigan uning a'zolarining kayfiyatining davriy ko'tarilishi va tushishi, tashqi va ichki omillar ta'siri ostidagi vaqt davridir deydi. IPIga ta'sir qiluvchi omillar odatda mikro va makroekologik omillarga bo'linadi. Birinchi guruhga odamlarning kundalik hayoti va ularning faoliyati amalga oshiriladigan barcha shart-sharoitlar kiradi, ikkinchi guruhga esa davlat iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari va aholining ishsizlik darajasini tartibga solish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi omil sifatida jamiyat madaniyatining umumiy darajasini kiritish mumkin[4]. Operatsion samaradorlik tushunchasi tashkilotning samaradorligi odatda uning mulki deb ataladi, bu tashkilotning ijtimoiy jihatdan maqbul vositalardan foydalangan holda tashqi va ichki ish sharoitlarini hisobga olgan holda maqsadlarni shakllantirish va natijalarga erishish qobiliyati bilan bevosita bog'liq. So'nggi paytlarda inson resurslariga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda xodimlarni boshqarishning optimal tizimlari faol ishlab chiqilmoqda va joriy etilmoqda, bu esa umumiy mehnat samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Samaradorlikni oshirishga quyidagilar yordam beradi: – aniq maqsad va aniq rejaga ega bo'lish; – reja doirasida tanlash va taqqoslash imkoniyati; – aniq ustuvorliklar; – tajriba orttirish va xatolardan saboq olish; – o'ziga, mehnat unumdorligiga ishonish; – motivatsiyaning yuqori darajasi.

P.Platonov (1992) maxsus ilmiy adabiyotlar tahlili va o'zining uzoq yillik tadqiqotlari natijalariga asoslanib, tashkiliy samaradorlikning ijtimoiy-psixologik omillari sifatida quyidagilarni belgilaydi: Maqsadlilik-tashkilotning birgalikdagi o'zaro hamkorlik maqsadlariga erishishga tayyorligini tavsiflaydi[5]. Motivatsiya – guruh a'zolarining mehnat, kognitiv, muloqot va boshqa faoliyati sabablarini ochib beradi. Umuman olganda, samaradorlikning aniq ta'rifi qisqacha – minimal xarajatlar bilan maksimal natijalarga erishish sifatida berilishi mumkin. Faoliyatning samaradorligi motivatsiya va e'tiborga ta'sir qiladi. Ijtimoiy-psixologik iqlim va faoliyat samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik IPI tushunchasining o'zi odamlar jamoasining birgalikdagi mehnati natijalarini va ularning o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi. Bu ishchi kuchidagi turli jarayonlarning samaradorligiga ta'sir qiluvchi muhim omilga aylanishi mumkin. Bir guruh odamlarning optimal ishlashi ko'p jihatdan ularning birgalikdagi faoliyati samaradorligiga bog'liq. Qulay iqlim nafaqat ish natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki yangi imkoniyatlarning rivojlanishini ham shakllantiradi. Xodimlar nafaqat ish natijalaridan, balki jarayonning o'zidan ham qoniqish hosil qilganda, qulay IPIni saqlab qolish va rivojlantirish tashkilotning butun faoliyati uchun juda muhimdir. Xodimlar o'rtasida doimiy nizolar mavjud bo'lgan joylarda ish samaradorligi keskin pasayadi. IPI va to'g'ridan-to'g'ri tashkilot faoliyati o'rtasidagi munosabatni tushunish har qanday menejer uchun juda muhimdir. Xodimlar bilan muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlarini bilib balki xodimlarning xatti-harakatlarini kerakli yo'nalishga yo'naltirish ham mumkin. Salbiy IPI shakllanishi tufayli mehnat unumdorligining pasayishiga yo'l qo'ymaslik uchun maxsus psixologik usullardan foydalanish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarni rivojlantirish muhimdir. Binobarin, ijtimoiy-psixologik iqlim va ishlash samaradorligiga chambarchas bog'liq. Ular bir-biriga ta'sir qiladi va qulay IPIsiz faoliyat samaradorligi yuqori bo'lishi mumkin emas. Birgalikdagi faoliyatning samaradorligi, o'z navbatida, ko'p jihatdan shaxsiy va guruh imkoniyatlarini optimal tarzda amalga oshirishga bog'liq.

Ijtimoiy-psixologik iqlimni B.D.Parigin nafaqat odamlarning birgalikdagi faoliyati uchun psixologik fon sifatida, balki jamiyatning umumiy axloqiy va siyosiy ruhining ajralmas tarkibiy elementi sifatida o'rganadi. Muallif jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimning ikkita eng muhim omilini-jamoadagi shaxslararo muloqot madaniyatini, hamda ilmiy-texnikaviy sharoitida mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish madaniyatini belgilaydi. Jamoaning ijtimoiy-psixologik muhitining optimallik darajasining an'anaviy ko'rsatkichlari, odatda, bir tomondan "guruhning birlashishi –ziddiyat", ikkinchi tomondan "qoniqish – ish sharoitlaridan norozilik" shkalalarida joylashgan. Gap shundaki, konfliktsiz muhit va muayyan sharoitlarda subyektiv qoniqish ijodiy turg'unlikni yashirishi mumkin. Oddiy ijtimoiy-psixologik iqlim, muallifning fikricha, har doim jamoa va undagi shaxsning rivojlanishi uchun turtki bo'lib xizmat qiladigan o'z faoliyatining erishilgan natijalaridan oqilona norozilikni nazarda tutishi kerak. Afsuski, bizning fikrimizcha, muallif bu mutlaqo to'g'ri fikrni ma'lum darajada mutlaqlashtirib, uni an'anaviy yondashuvga qarama-qarshi qo'yadi. Bizningcha, aksincha, samarali ishlash natijalariga erishish uchun jamoaning hamjihatligi va unda shaxslararo munosabatlardan qoniqish roliga ko'proq e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bundan tashqari, B.D.Parigin faoliyat natijalaridan ma'lum darajadagi norozilik, befarqlikni keltirib chiqarishi va passivlik manbai bo'lishi mumkinligini unutadi va tan olish imkoniyatini kamaytiradi. Ilmiy jamoalarda ushbu potentsiallarning ko'p yo'nalishli dinamikasi aniqlandi, bu ularni munosabatlarining kompensatsion xususiyatini ko'rsatishi mumkin. O'zini namoyon qilish zarurati, o'ziga xosligini ko'rsatish istagi ijodkorlikda o'zini ideal tarzda namoyon qiladi. Tan olish zarurati boshqalarni baholashga va ijtimoiy umidlarga qaratilgan. Ilmiy-texnika taraqqiyotining o'sishi bilan o'z-o'zini ifoda etishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Ichki sharoitlar majmui shaxsni rivojlantirish, shaxslashtirish, uning individualligini ochish va amalga oshirish, uning faoliyati va muloqotidan qoniqish darajasini aniqlashning fundamental ijtimoiy-psixologik asoslarini ochib beradi. Bu erda muhim bo‘lgan narsa, xodimning kundalik faoliyatining unga qo‘yiladigan talablarning aniqligi yoki noaniqligi, ishning tabiati va uning ruhiy holati, psixologik, shaxsiy xususiyatlari, tashqi tomondan ko‘proq yoki kamroq aniqlikdagi vazifalarga yo‘naltirilgan. B.D.Parigin o‘tkazilgan tadqiqotlarga asoslanib, shaxsning tipologik xususiyatlaridan qat‘i nazar, ishning xilma-xilligining o‘ta ahamiyatliligi haqidagi keng tarqalgan fikrning yetarli darajada asosli emasligini ko‘rsatadi. Bu fikr yuqori kadrlar almashuvi va past ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari uchun bahona bo‘la olmaydi[6]. Mas‘uliyat, burch tuyg‘usi, o‘z ishining zarurligi va yaqqol foydaliligini anglash mazmuni past, bir xildagi va bir xildagi ishda ham nisbatan yuqori darajada qoniqish hosil qiladi. Shunday qilib, tarbiyaviy ishlar, jamoa rahbari va jamoat tashkilotlarining ma‘lum sharoitlarda insonparvarlik yo‘nalishi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga obyektiv mehnat sharoitlaridan kam ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, ayollar jamoalari va erkaklarga qaraganda ko‘proq jamoa ichidagi muhitning kommunikativ tomoniga e‘tibor qaratadigan va hamkasblar va rahbariyat bilan munosabatlarning tabiatiga ko‘proq sezgir bo‘lgan ishchi ayollar uchun xosdir. So‘ralgan ayollarning atigi 11,2 foizi ishlab chiqarish faoliyatining stereotipik xususiyatidan noroziligini bildirdi.[7] U ilgari asarlarida ilgari surgan ijtimoiy-psixologik tendentsiyalari kontseptsiyasiga asoslanib (intensivlashtirish, murakkablashuvning kuchayishi, inson faoliyatining shaxsi va depersonizatsiyasi) muallif ijtimoiy-psixologik ko‘rsatkichlarning uchta guruhini aniqlaydi. Jamoa iqlimi: shaxsiy kompleks, shaxsiy faoliyatning ichki sharoitlari majmuasi va faoliyatning tashqi sharoitlari majmuasi o‘z ichiga oladi. Shaxsiy kompleks tanlash potentsialini va yangilanish potentsialini, ya‘ni jamoa a‘zolari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat usullarini tanlashning obyektiv imkoniyatlarining mos kelishini, o‘zgarishlarning sur‘ati va ko‘lamini o‘z ichiga oladi. Jamoaviy faoliyat, ularning subyektiv intilishlari va shaxsiy xususiyatlari. Bu shaxs va jamoaning ijodiy faolligi darajasini, ularning faoliyatga aqliy jalb qilinganlik darajasini va shunga mos ravishda uning samaradorligini ochib beradi.

Yuqorida keltirilgan bir qator rus olimlarining A.L.Juravlev, V.V.Boyko, Yu.L.Neymer, N.B.Cheldishova va B.D.Pariginlarning fikricha, psixologik iqlim deganda biz shakllangan hissiy va psixologik kayfiyatni tushunishimiz kerak. Bunday hissiy-psixologik kayfiyat jamoa a‘zolarining bevosita shaxsiy aloqalari bilan ular o‘rtasidagi barcha aloqalar (funksional, tashkiliy, axborot, maxsus va mafkuraviy)ni jamoa a‘zolarining qiymat yo‘nalishlari, axloqiy me‘yorlari va qiziqishlari bilan belgilanadigan hissiy-psixologik holatni yaratadi[6]. Umumiy guruhning hissiy kayfiyatida, guruh a‘zolarining o‘zaro hamdardligida va bir-biriga jalb qilishda, empatiyada, hissiy aloqalarning mavjudligi, tabiati va darajasida namoyon bo‘lishini kichchik tadqiqot ishida ko‘rib chiqamiz. Ya.Yu.Rijonkinning kommunikativ distansiyasini (oraliqni) aniqlash metodikasi (K DAM) tekshiriluvchilar uchun ortiqcha muammo tug‘dirmaydi. Bu voqelikning umumiy tavsifidan payqash mumkin. Metodika muloqotdoshlarni ma‘lumot ayriboshlash jarayonida bir-biriga o‘zaro ta‘sirlashuvi, mazkur jarayondagi oraliqqa aniqlik kiritadi. Buning uchun muomila ishtirokchilari bir-birliga qanchalik yaqin yoki uzoq turishini hamda o‘rtadagi kommunikativlikni (komunikator va retsipent) rolini aniqlashda bir qator topshiriqlarni bajarishlari lozim[8]. Tekshiriluvchi guruhning har bir a‘zosi o‘zaro bir-birlarini yoqtirishlariga qarab, bir-birida 100 mm o‘lchamda ajratilgan ikki nuqta orasidagi masofani hosil qiluvchi qutiblariga ko‘ra 100 balli shkalada baholashi shart. Muloqotdoshlarni o‘zaro yoqtirish hususiyatini baholashga qutibdagi nuqtalar orasidan to‘g‘ri chiziq o‘tkazish orqali, “Men” olmoshi ifodalangan nuqtadan familiya ko‘rsatilgan nuqtaga qarab yoki aksincha ifodalash yordami bilan erishiladi. Birinchi hosil qilingan uzunlik (“Men”dan muloqatdagi sherikgacha) sherikka nisbatan axborot almashishdagi obyekt sifatida qiziqqonlik darajasini, ikkinchisida esa (sherkidan “Men”gacha) jarayonning subyekt ma‘nosini bildiradi. Biz kartochkani taxminiy namunasini tayorlashda metodikadan foydalangan boshqa mualliflarning namunasiga tayandik (Gaynutdinova Ram Z.1986) hamda o‘qituvchi shaxsining tarbiyachi sifatida o‘quvchilar bilan (Rasulov A.I 2001) o‘zaro munosabatlar darajalari va hokozi. Xuddi shu sababdan uning namunasini keltirib o‘tamiz.

Metodika blankasiga hech qanday ortiqcha ifodalarsiz faqat nuqtalarda aks ettirilishi lozim. Tekshiriluvchilar bilan eksperiment o‘tkazilgandan keyin test blankalarini solish uchun pochta konverti beriladi. Konvertning yuqori qismida tekshiriluvchilar o‘zlari haqida barcha zaruriy ma‘lumotlarni ya‘ni familiyasi, ismi, bajarilgan muddati va boshqalarni qayd etish zarur. Shuningdek metodikaning kommunikativ oraliq darajalarini va ularning me‘yoriy ko‘rsatkichlarini taqdim etganlar. Bu esa bizning metodikadan foydalanishimizga ancha qulaylik tug‘diradi. (I-ilova)

Kommunikativ oraliq darajalari

(I-ilova)


| 1 | Munosabat darajalari | Kontinuum | |
|---|----------------------|-------------|---------------|
| | | Bir yoqlama | Ikki yoqlama |
| 1 | Zaruriy-majburiy | 0-0,21 | -1,00,(-0,58) |
| 2 | Rasmiy konvensional | 0,22-0,67 | -0,57-0,34 |
| 3 | Dildan ishonish | 0,68-1,00 | 0,35-1,00 |
| 4 | Majburiy | 0-12 | -1(-0,75) |
| 5 | Zaruriy | 0,13-0,21 | -0,76(-0,58) |
| 6 | Salbiy rasmiy | 0,22-0,30 | 0,57(-0,40) |

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***


*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

| | | | |
|----|--------------|-----------|--------------|
| 7 | Rasmiy | 0,21-0,30 | -0,57-(0,10) |
| 8 | Ijoiy rasmiy | 0,56-0,67 | -0,10-0,34 |
| 9 | Ishonchli | 0,68-0,79 | 0,35-,058 |
| 10 | Intim | 0,80-1,00 | 0,59-1,00 |

(2-ilova)



(3-ilova)



Yuqorida tadqiqot natijalaridan ilova keltirilgan, tadqiqotda 26 nafar respondent ishtirok etgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra jamoadagi psixologik iqlim "rasmiy, ijoiy rasmiy, ishonchlik" munosabatlariga qurilgan. Bunday psixologik iqlimni shakllantirish jarayonida guruhning har bir a'zosining ijtimoiy va psixologik farovonligini belgilaydigan shaxslararo munosabatlar tizimi shakllanadi.

Xulosa. Har bir inson samarali va muvaffaqiyatli mehnat qilishi uchun jamoada o'ziga xos ta'riflarga va qulayliklarga ega bo'lishni xohlaydi. Ijtimoiy-psixologik iqlim munosabatlar holatini va xodimlarning har xil narsalardan qoniqish darajasini aks ettiruvchi murakkab psixologik omildir. Shu bilan birga maqolada psixologik iqlimni tashkil etishda bir qator muhim funktsiyalarga e'tibor qaratilgan. Ulardan: jamoa a'zolarini birlashtirish, kasbiy muammolarni hal qilish, rag'batlantiruvchi, qulay hissiyotni yaratishga qaratilgan atmosfera, shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish, barqarorligini ta'minlash, yangi odimni muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mehnat faoliyatini samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boyko V.V., Kovalev A.G., Panferov V.I., 1983. Socio-psychological climate of the team and personality. M.: Thought. 207 p.

2. Socio-psychological climate of the team and performance efficiency / A. A. Leontyeva, L. A. Proskuryakova // Young scientist. — 2020. — No. 43 (333). — P. 80-82. — URL: <https://moluch.ru/archive/333/74385/>
3. Neimer, Yu. L. Social and psychological climate of the enterprise team / Yu. L. Neimer. // Sociological research. - 1990. - No. 11 - P. 81–88.
4. Cheldyshova, N. B. Cheat sheet on social psychology: textbook. manual / N. B Cheldyshova - M.: Exam, 2009. - 48 p. — ISBN 978–5–377–01969–5.
5. Platonov, Yu. P. Fundamentals of social psychology / Yu. P. Platonov. - St. Petersburg: Rech, 2004. - 620 p. — ISBN 5–9268–0244–X. —
6. Parygin, B. D. Fundamentals of socio-psychological theory / Moscow: Mysl, 1971. - 351 p
7. Mamai, L. A. Features of psychological assessment of the effectiveness of specialists: a review of the approach, methods and techniques / L. A. Mamai. —// Young scientist. - 2015. - No. 18 (98). — pp. 336–341. — URL: <https://moluch.ru/archive/98/22014/> (access date: 05/07/2020).
8. Rasulov A. Psixodiagnostika. O'quv-uslubiy qo'llanma.186-1896.T.:2009

Muallif:

Karimova Mashhura To'liqinovna - Guliston davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi.

UDK 372.817

SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION AND ITS INFLUENCING FACTORS IN THE PROCESS OF NON-STATE EDUCATION

NODAVLAT TA'LIM JARAYONIDA MA'NAVY AXLOQIY TARBIYA VA UNING TA'SIRCHAN OMILLARI

ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ И ЕГО ВЛИЯЮЩИЕ ФАКТОРЫ В ПРОЦЕССЕ НЕГОСУДАРСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Kenjayev Shavkatjon Xusanovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: sh-kenjayev@umail.uz

Abstract. This article discusses the moral education of young people and its influential factors. It was also noted that the joint work of community, family, school and community organizations plays an important role in the moral education of young people.

Keywords: moral education, behavior, duty and responsibility, conscience, honor, loyalty, kindness, humanity, honesty, devotion, conscientiousness, justice, spiritual maturity, physical health.

Аннотация. В статье обсуждается нравственное воспитание молодежи и его факторы, влияющие на нее. Также было отмечено, что совместная работа сообщества, семьи, школы и общественных организаций играет важную роль в нравственном воспитании молодежи.

Ключевые слова: нравственное воспитание, поведение, долг и ответственность, совесть, честь, верность, доброта, человечность, честность, преданность, добросовестность, справедливость, духовная зрелость, физическое здоровье.

Kirish. O'z ma'naviy hayoti va kelajagini qurayotgan har bir davlat ezgulik, odamiylik, halollik, fidoiylik, mehr-oqibat, vijdoniylik, adolat singari axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi va mustahkamlanadi. Yangi O'ZBEKISTON yosh avlod dunyoqarashi va ongini axloqiy qadriyatlar asosida shakllantirish va amalda qo'llashni o'rgatish barkamol avlodni har davrda uzviy o'sishini ta'minlaydi. Ma'lumki, jamiyat hayotida komil insonni tarbiyalash nafaqat zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish, balki ma'naviy etuklik va axloqiy yuksaklikka tayanishni ko'p jihatdan talab etadi. Shu masalalar bilan mushtarak bo'lgan ona Vatanga sadoqat va fidoiylik fazilatlarini shakllantirish o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bular zamirida oilalar, ta'lim maskanlari hamda mahallalarda beriladigan ta'lim-tarbiya ishlari muhim o'rin egallaydi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "hurmatli domlalarimiz va professor o'qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy etuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir"[1].

Mazkur maqolada yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, yoshlarni axloqiy tarbiyalashning ta'sirchan omillari fikr yuritish maqsad qilib qo'yildi.

Axloqiy tarbiya – bolalar tarbiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bola shaxsiyati hayotning birinchi yillaridan boshlab shakllanib boradi. Bola har kuni ko'rib, eshitib yurgan narsalarga qarab o'z atrofida qiladigan munosabatda bo'ladi. Kattalarning yurish turishi, qiladigan hatti-harakatlari, bolaga va atrofida odamlarga qanday qarashi-mana shularning hammasi bolaning ma'naviy qiyofasi shakllanib borishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bolalarga go'daklik vaqtidan boshlab axloq tarbiyani berib borish zarur. Bu tarbiya

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

bolalardan axloq sezgilarini, yaxshi muomalada bo'lish va axloqli yurish-turish odatlarini tarbiyalash, insonning ma'naviy fazilatlarini kabi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

Bolalarni axloq-odobli qilib tarbiyalash uzoq muddatli, mashaqqatli jarayon bo'lib, bu jarayonda bolaning hulq-atvori, odob axloqi shakllanib borishi hech kimga sir emas. Bolalarda axloq, hulq-atvor va hatti-harakatni tarbiyalashda ularda so'z va ish birligini ta'min etish katta ahamiyatga ega. Darhaqiqat, "Bolaning odobli, axloqli va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun har bir oiladagi sharoit, oila boshliqlarining namuna bo'lishlari xal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ularning yaxshi odatlari, muomila madaniyat, so'zi bilan ishi birligi farzandlar uchun ibratdir"[2]. Bunga ko'pchilik ota-onalar amal qilishmaydi. Shuni aytish kerakki, bolalik davrida hosil qilingan odatlar asta-sekin bola qalbida mustahkamlanib, singib qoladi.

Shuning uchun ham kundalik turmushda bola odamlarning bir-biriga hurmat e'tibor bilan qarashini, o'zaro yordam berib turishini, muloyimligi, sofdilligi, mehnatsevarligi kabi madaniy axloq namunalarini ko'rib turadigan bo'lishi kerak. Axloqiy tarbiya bolaning kelgusida ota-onalarga atrofda kishilarga, jamoaga, jamiyatga, ona-vatanga, mehnatga, o'z burchiga munosabatini belgilaydi va asta-sekin shakllanib boradi. Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyatga munosib bo'lish, burch va ma'suliyat, vijdon, or-nomus, sadoqat kabi insoniy fazilatlarni har bir bolaning ezgu niyatiga aylantirishdan iborat.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda jamiyat va undagi munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. Bu xususida E. Yusupov "Odam ota-onadan tug'iladi, ammo uning axloq –odob borasidagi fazilatlarini jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta'sirida shakllanadi"[3] - deb e'tirof etadi. Shu o'rinda bolalarga axloqiy tarbiya berishdagi ba'zi bir muhim jixatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani muntazamlilik va izchillik asosida olib borish. Bolalarga axloqiy fazilatlarni hammasini birdaniga singdirishning

iloji yo'q. Bu fazilatlarning bolalarda tarkib topish jarayoni ko'p yillarga cho'ziladi va shu boisdan ham bu ishda muntazamlilik bo'lishi kerak. Tarbiyalash jarayoni juda murakkab jarayon bo'lib, u asta-sekin uzluksiz ravishda yangi malaka va ko'nikmalarni o'stirish hamda mustahkamlab borish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu tarbiya jarayonini izchilligini belgilaydi. Bolalarga axloqiy tarbiya berishda ularning yosh va individual xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Ma'lumki, bolani tarbiyalash ishi uning dunyoga kelgan kunidan boshlanadi. Bola oilada, bog'chada, maktabda, oliy o'quv yurtida, mustaqil amaliy faoliyati davomida ham tarbiyalanadi.

Shuning uchun ham bolalarga singdirilgan tarbiya mazmuni ularning yoshiga, jismoniy tayyorligi, tushunchasiga, saviyasi va imkoniyatiga mos bo'lishi kerak. Bolalarni axloqiy tarbiyalashning yana bir muhim jihati ularni tarbiyalashda ijobiy fazilatlarga tayanib ish olib borish zarur. Tarbiya jarayonida bolalarda ijobiy fazilatlarga tayanish, ularning xarakteri va xulqidagi eng yaxshi sifatlarni topishga intilish lozim. Bolalardagi salbiy sifatlarga qarshi kurashishda ulardagi ijobiy fazilatlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bolalarni axloqiy tarbiyalashning yana bir muhim jihati ularga qo'yiladigan talab va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish o'rtasida birlik bo'lishi lozim. Tarbiya jarayonida maktab, oila, mahalla tomonidan bolalarga qo'yiladigan talablar va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish birgalikda, hamjihatlik bilan olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu boisdan maktab tomonidan bolalarga qo'yiladigan talablar ota-onalar bilan birgalikda belgilab olinishi lozim. Qiskasi bu ishda maktab, o'qituvchi, mahalla, oila hamkorligi yo'lga qo'yilishi kerak bo'ladi.


Bizga ma'lumki, o'zbek xalqi juda boy ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlarga ega. Axloqiy urf-odatlar, rasm-rusumlar tarbiya usullari ota-onalar uchun ham ibrat maktabidir. Har bir ota-ona mazkur tarbiya usullari jarayonida ustalik bilan qo'llashi orqali yaxshi odatlarni farzandlar qalbiga singdirishi lozim bo'ladi. Bu erda ota-onalar, katta yoshdagi kishilar shaxsiy namunasi va ijtimoiy muhit katta ahamiyatga ega bo'lib, bu bolalar axloqiy tarbiyasining o'zagini tashkil qiladi.

Aytish mumkinki, "bolalar axloq tarbiyasini oldinroq o'zi yashayotgan atrof muhit va ko'chadagi bolalardan oladilar. Bolalar suvga o'xshaydilar suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar o'sha muhitning ham shunday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon axloqni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'qituvchidan qabul qiladilar". [4] Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, axloq tarbiyasi murakkab jarayon bo'lib, bu ishda mahalla, oila, maktab va jamoa tashkilotlarining birgalikdagi faoliyati bir-birini to'ldirib borsagina bolalarga axloq tarbiyasi berishda ijobiy yutuqlarga erishish mumkin.

Bu borada tadqiqot ishimiz yuzasidan o'quv dasturlarini tahlil qilish, o'qituvchilarni axloqiy tarbiyalashda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha maqsadga muvofiq ishlarning yo'qligi hamda bu ishlarni bajarish bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarda maxsus bilim va ko'nikmalar etarlicha shakllanmaganligi aniqlandi.

Axloqiy xislatlar shaxsiy xislatlarning mujassamlashgan, yanada uyg'un va barqaror ko'rinishidir. O'qituvchining kundalik hayotida axloqiy me'yorlar jamiyatning ijtimoiy qadriyatlari bilan ularning amalda qo'llanilishi o'rtasidagi muhim bo'g'in hisoblanadi.

Axloqiy sifatlarni rivojlangani sari, shaxs ijtimoiylashuvi ham shunchalik ortadi. Bu pedagogik qonuniyat bo'lib, uni quyidagi sxema ko'rinishida ifoda etish mumkin (1- diagramma).



AV-axloqiy sifatlar. AD-ijtimoiy sifatlar. AC - shakillangan dinamika

1-diagramma. Axloqiy va ijtimoiy sifatlar uyg'unligi.

Axloqiy va ijtimoiy sifatlarning uyg'unligi kasbiy muntazamlik va barqarorlikni ta'minlashga ta'sir ko'rsatishi tadqiqot kuzatuvlari mobaynida aniqlandi. Shunga muvofiq biz, bo'lajak o'qituvchi shaxsida kasbiy mahoratning shakllanish bosqichlariga e'tiborni qaratdik.

Talabadagi tashkilotchilik mahorati unda kommunikativ va konstruktiv mahoratlarini barqaror rivojlanib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatishini aniqlashga erishdik.

Shundan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishga yo'naltirilgan professiogrammasini shakllantirishga urinib ko'rdik. Uning mohiyatini biz tomondan ishlab chiqilgan "Yoshlarni axloqiy tarbiyalash" nomli maxsus kurs orqali nazorat guruhidagi o'quvchilarning ongi shuuriga etkazishga harakat qildik. Natijada nazorat guruhida muayyan dinamik o'sish kuzatildi.

Ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom avlodni voyaga etkazish milliy mafkuramizning asosiy tamoyillaridan biridir. Shu sababli ham bolalarga axloqiy tarbiya berish har birimizning kundalik ishimizga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev."Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2016,14 - bet
2. A.Q. Munavvarov, M.Ma'murov "Yaproq ildizidan quvvat oladi". T.: O'zbekiston, 1990, 32 - bet
3. E.Yusupov. "Ma'naviy kamolot omillari". T.: Universitet, 1995, 3 - bet
4. A.Fitrat "Rahbari najot" asaridan. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi" 2-jild. T.: O'qituvchi, 1999, 56 - bet.
- 5.Sh. Kenjaev. "Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishga tayyorash tizimini takomillashtirish". Aftoreferat. T.: Innovatsion ziyo. 2022.13-bet.
6. M. Quronov. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. diss. -1998. -316-bet

Muallif:

Kenjayev Shavkatjon Xusanovich - GulDU, Ped.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

UDK 372.857

PEDAGOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT (AS AN EXAMPLE OF BIOLOGY)

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI (BIOLOGIYA FANI MISOLIDA)

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ (НА ПРИМЕРЕ БИОЛОГИИ)

Qo'ng'irotova Anorxol Inoyatovna¹, Bekchonova Shoira Bazarbayevna²

¹Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, 132000, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi 64 - uy

²Yangi asr universiteti, 100097. Toshkent shahar, Chilonzor, 8-mavze. So'galli ota ko'chasi 5-uy.

E-mail: kungartovaanorxol@mail.com, bekchanovashoira@mail.ru

Abstract. In this article, graduates of higher pedagogic educational institutions should have continuity in order to develop the professional training of future teachers in the digital educational environment in order to serve them effectively in general secondary education schools. thought about. The fact that future school teachers have the cognitive

competence to work with information and communication technologies in today's information society serves to increase the quality and efficiency of education, and to develop important professional qualities in higher and general secondary schools. issues of formation, development of learning-knowledge component, formation as a qualified specialist, assimilation of necessary information for organization of life and professional activity in students, necessity of achieving their target formation are interpreted. On the basis of professional-methodical training of future teachers in higher educational institutions in the digital educational environment, educating young students to be loyal to the motherland, high moral, spiritual, and enlightened, to develop a conscientious attitude to work, based on national and universal values, tasks such as formation of spiritual and moral qualities, creative thinking and conscious attitude to the environment are defined in them.

Keywords. Digital education, upbringing, purpose, future teachers, professional training, information and communication, competence, activity, ability, necessity, result.

Аннотация. В данной статье выпускники высших педагогических учебных заведений должны иметь преимущество для развития профессиональной подготовки будущих учителей в цифровой образовательной среде с целью их эффективной службы в общеобразовательных школах. Думал о наличие у будущих школьных учителей познавательной компетентности для работы с информационно-коммуникационными технологиями в современном информационном обществе служит повышению качества и эффективности образования, развитию важных профессиональных качеств в высшей и общей средней школе. освещаются вопросы становления, развития учебно-познавательного компонента, становления как квалифицированного специалиста, усвоения необходимой информации для организации жизни и профессиональной деятельности студентов, необходимости достижения их целевого формирования. На основе профессионально-методической подготовки будущих преподавателей высших учебных заведений в цифровой образовательной среде воспитывать у студентов любовь к Родине, высокоморальность, духовность и просвещенность, развивать добросовестное отношение к труду, основанное на национальных принципах. и общечеловеческие ценности, в них определены такие задачи, как формирование духовно-нравственных качеств, творческого мышления и осознанного отношения к окружающей среде.

Ключевые слова. Цифровое образование, воспитание, цель, будущие учителя, профессиональная подготовка, информация и общение, компетентность, активность, способность, необходимость, результат.

Kirish. Bugungi kunda har bir pedagogning o'z mutaxassisligi bo'yicha yangiliklardan qisqa muddatda xabardor bo'lishini ta'minlash, ularning zamonaviy texnologiyalaridan unumli foydalanishga, yetarli axborot egasi bo'lishga talab va ehtiyoj har doimgidan ko'ra oshib bormoqda. Darhaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etib, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish har bir sohada muhim ahamiyat kasb etmoqda, hayotiy zaruratga aylanmoqda. Bu qonuniy va obyektiv jarayon bo'lib, butun jahon hamjamiyatiga xosdir. Hozirda globallashuv jarayonida ta'limga yangiliklar kiritish asosida yondashuv, ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, fan-texnika va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning zamonaviy yangi texnologiyalarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi[10]. Binobarin, jamiyatni axborotlashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etib, hayotiy zaruratga aylanmoqda. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim mazmuniga ham izchil ravishda o'zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda, natijada zamonaviy sharoitda yoshlar o'rtasida asosiy ta'limiy maqsadlarning rivojlanishi, malakali mutaxassis sifatida shakllanish, kasbiy o'sishga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda.[1]

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining o'quv fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari bilan me'yorlangan bilimlarni muntazam ravishda olishlarini ta'minlashi, ularda bilim va tahsil olishga bo'lgan ehtiyoj, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatlari, amaliy tajriba va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli ta'lim muhitida kasbiy-metodik jihatdan tayyorlash negizida o'quvchi yoshlarni vatanga sadoqatli, yuksak axloqli, ma'naviyatli, ma'rifatli etib tarbiyalash, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lishni tarkib toptirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish[2] kabi vazifalar belgilab berilgan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida 6-sinflarda "Botanika" darsini o'tish jarayonida darslik mazmunini kengroq yoritishda elektron doskadan foydalangan holda rasmiy slaydlar asosida tushuntirish hamda axborot texnologiyalari (radio, televideniye, kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalari, magnitofonlar)dan foydalanish jihatlarini berilgan. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, didaktik – o'yin, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtmalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan har bir o'quv faniga, shu jumladan, biologiya fanini o'qitishda qo'yiladigan umumiy talablar ishlab chiqildi, bular quyidagilar:

- Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, hayotiy mavqei va e'tiqodiga asos bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni ular tomonidan ongli, mustahkam va chuqur o'zlashtirilishiga erishishda kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish;

- hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda o'quvchilarning faol hayotiy mavqeini egallash va mustaqil hayotga moslashishiga yordam beradigan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishi, jamiyat davlat va oila oldidagi burchi va mas'uliyatini his etishini shakllantirish;

- o'quvchilarning kuzatish, tajriba qo'yish, mustaqil va ijodiy faoliyatini faollashtirish, hayotda va ishlab chiqarishda vujudga keladigan muammoli vaziyatlarni mustaqil va ijodiy hal etish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quvchilarda tabiatga nisbatan ongli, ijodiy munosabatni tarkib toptirish, mehnatsevarlik, davlat va jamiyatga foyda keltiradigan shaxs bo'lishga yo'naltirish, o'zgalarning mehnati va tabiiy boyliklarni qadrlashni o'rgatish;

- biologiya o'quv dasturidan o'rin olgan mavzular mazmuniga bog'liq holda shakllantiriladigan umumiy va xususiy biologik tushuncha va ko'nikmalarni bilish, o'quvchilar tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishiga erishish;

- bo'lajak o'qituvchilarni aniq dalillarga asoslangan bilimlar bilan bir qatorda raqamli ta'lim metodologik bilimlar bilan qurollantirish;

- bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash metodik tizimining tarkibi va mazmunini kengaytirish hamda chuqurlashtirish lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishiga yordam beruvchi muhim pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

Moddiy-texnik shart-sharoitlar (o'quv tashkilotlari, o'quv xonalari, amaliy mashg'ulot jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televideniye, kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalar, magnitofonlar) va hokazolar kiradi[7].

Oliy pedagogika ta'lim muassasalarining bitiruvchilarida shakllantirilayotgan va rivojlantirilayotgan raqamli ta'lim kasbiy kompetensiyalari ularning umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida samarali xizmat qilishiga qaratilgan tarzda uzviylikka bog'liq bo'lishi lozimligi to'g'risida fikr yuritilgan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilar bugungi axborotlashgan jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlay olishga doir iqtidorga ega bo'lishi ta'limning sifat va samaradorligining ortishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.[9] Jumladan, 6-sinflarda "Botanika" darsini o'tish jarayonida darslik mazmuniga quyidagi tushunchalarni elektron doskadan foydalangan holda rasmi slydlar asosida tushuntirish talab etiladi.

1. Morfologik tushunchalar – har bir sistematik guruhga mansub o'simliklarning tashqi tuzilishi haqidagi tushunchalar;

2. Anatomik tushunchalar – o'simlik organlarining ichki hujayraviy tuzilishi haqidagi tushunchalar;

3. Fiziologik tushunchalar – o'simlik organlarida boradigan hayotiy jarayonlar (gullash, changlanish, urug'lanish, ko'payish va h.k) haqidagi tushunchalar;

4. Ekologik tushunchalar – o'simliklar va ularning organlarida yashash muhitiga bog'liq holda vujudga keladigan o'zgarishlar, tashqi muhit omillarining o'simliklarga ko'rsatgan ta'siri haqidagi bilimlar;

5. Sistematik tushunchalar – o'simliklar dunyosi, bo'limlari, sinf, oila, turkum, turga xos bo'lgan belgilar haqidagi bilimlar;

6. Agronomik tushunchalar – madaniy o'simliklarning biologiyasi, ularni ekish va parvarish qilish, ko'paytirish usullarini o'z ichiga oladi;

7. Sitologik tushunchalar – hujayra va uning organoidlari, ularda boradigan jarayonlar haqida bilimlar;

8. Embriologik tushunchalar – o'simliklarning ko'payishi va rivojlanishi to'g'risidagi bilimlar majmuasi;

9. Evolyutsion tushunchalar – yerda o'simliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqidagi bilimlar majmuasini o'z ichiga oladi;

10. Gigiyenik tushunchalar – parazit bakteriya va zamburug'lar keltirib chiqaradigan kasalliklar va ularning oldini olish chora-tadbirlari haqidagi bilimlarni botanika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini tarkib toptirish va ularni malaka darajasiga ko'tarish maqsadga muvofiq ekanligini belgilaydi[5].

O'quvchilarda tarkib toptiriladigan botanik, amaliy va o'quv mehnati ko'nikmalari quyidagicha ifodalanadi:

• Laboratoriya jihozlari va asboblari bilan ishlash ko'nikmalari – urug'ning tarkibini aniqlash, ikki va bir pallali o'simlik urug'larining tuzilishini o'rganishda lupa va mikroskop bilan ishlash hamda o'simlik rivojlanish siklini mikropreparat yordamida o'rganish;

• O'simliklardan gerbariy tayyorlash – o'simlik organlaridan gerbariyalar tayyorlash, urug'lar kolleksiyasi, meva va gullarni fiksatsiya qilish;

• Kuzatish – kuzatish rejasini tuzish, kuzatish maqsadini amalga oshirish, kuzatish ob'ektidagi o'zgarishlarni hisobga olish, rasmini chizish, kuzatish natijalarini umumlashtirish va xulosa yozish;

• Tabiatda ongli munosabatni tarkib toptirish ko'nikmalari – o'simliklarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyatini aniqlash, respublika "Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simliklarni bilish, ularni muhofaza qilish tadbirlarida faol ishtirok etish;

• Mehnat ko'nikmalari – qishloq xo'jaligi ekinlarining urug'ini tanish, unuvchanligini aniqlash, har xil o'simliklarning o'simtlarini bilish[4].

Zamonaviy ta'lim texnologiyasining maqsadi – mutaxassis modeli talablariga mos ravishda shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar tizimidan iborat bo'lib, u raqamli ta'lim texnologiyalar asosida o'z aksini topadi. Bundan tashqari respublikamiz Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga ko'ra bo'lajak pedagoglar ta'lim tizimining obyektiv va subyektiv jarayon ishtirokchisi bo'lib, mustaqil ta'limning sifat va samaradorligini oshishiga ishtirok etadi.[3]

Biologiya fanini o'qitishda qo'yiladigan umumiy va metodik talablar asosida zamonaviy pedagogik (didaktik – o'yin, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish) texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi, bu esa o'qitish jarayonining zaruriy shakli bo'lgan darsdan tashqari ishlar uy vazifasi, darslik va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ustida mustaqil ishlash, darslikda har bir mavzu oxirida berilgan test topshiriqlari, krossvord, chaynvord, kriptogrammalarni yechish, ijodiy savollarga javob topish, kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'zlarini qiziqtirgan mavzu yuzasidan ma'ruza yoki matn tayyorlash kabilarni o'z ichiga oladi[4].

Botanika fanini o'qitishda ko'proq mustaqil ishlarga e'tibor qaratish zarur. O'quvchilarning darsda, darsdan tashqari ishlarda, tirik tabiat burchagida, maktab tajriba maydonchasida, ekskursiya davomida bajaradigan mustaqil ishlari o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi lozim.

Xulosa. Mazkur asosga tayanib shuni aytish mumkinki, yangi ta'limiy natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'lgan innovatsion tashkiliy shakllardan samarali foydalanish uchun raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilar mazkur o'qitish shakllarini to'g'ri qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi lozim. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat olib boradigan zamonaviy o'qituvchi ijodiy fikrlash va uni amalda tadbiiq etish orqali ta'limiy forumlar, treninglar tashkilotchisi bo'lishi zarur, raqamli kompyuter testlarini o'tkazish o'quvchilarning bilim salohiyatini qo'llab quvvatlash uchun o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro birgalikdagi harakatini tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur, raqamli ta'lim savodxonligi asosida o'quvchilarning darsga qatnashish ishtiyoqi va ular iqtidorining uyg'unlashishiga, bilim darajasining oshishiga ko'maklashadi, bu esa o'quvchilarning barcha fanlar qatorida biologiya faniga qiziqishini oshiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlariga raqamli ta'lim muhitida zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish pedagogik-psixologik maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishni nazarda tutadi[8]. Nazariy manbalar tahlili bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy qobiliyati va iqtidorini rivojlantirishda axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish imkonini beradi. Shuning uchun raqamli ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchining kompyuterni bilish savodxonligi darajasi zamonaviy internet – texnologiyalari vositasida universal o'quv faoliyatini rivojlantirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 5349-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma- T: TDPU.2003. -174 b
4. Daminov M.I. Biologiya ta'limida modulli o'qitish texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. Buxoro. 2006. -56-bet
5. J.O.Tolipova, A.S.To'xtayev, O'.Pratov, T.Norboboyeva. 6-sinf Botanika o'qitish metodikasi Toshkent "O'zbekiston" 2003. – 180 b.
6. Yo'ldoshev G'.Sh. Usmonova S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T: O'qituvchi. 2004. - 98 b
7. Muslimov N.A. Quliyeva Sh. H. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tizimli yondashuvni amalga oshirishga muammoli vaziyatlar. – T: Fan va texnologiyalar. 2007. – 54 bet.
8. Muslimov N.A., Usmonboyev M., Mirsoliyeva M. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua. – T: 2016. – 147 b
9. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari. Kasb-hunar ta'limi. -2004. N 6. – 24 b
10. Raximov Z.T. Ta'lim jarayonida talabalar o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish. "Zamonaviy ta'lim" jurnali. 2020 yil 6-son. – 3-10-betlar

Mualliflar:

Qo'ng'irotova Anorxol Inoyatovna - Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali "Tibbiy biologiya va gistologiya" kafedrasasi assistenti.

Bekchonova Shoira Bazarbayevna – Toshkent shahar Yangi asr universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

UDK 372.815.99

EFFECTS OF AGGRESSION ON MATURITY CRISIS

AGRESSIYANING YETUKLI DAVRI INQIROZIGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ АГРЕССИИ НА КРИЗИС ЗРЕЛОСТИ

**Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich¹, Yuldoshev Tojiddin Abdulkarimovich¹,
Sharafullayeva Shaxlo Kaxramonovna²**

¹Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti. 190507. Surxondaryo viloyati, Denov shahri, 360 uy.

²Termiz davlat universiteti. 190111. Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, "Barkamol avlod" ko'chasi, 43-uy.

E-mail: u.shomurotov@dtpi.uz, tojiddinyuldoshev1@gmail.com

Abstract. One of the types of behavior that manifests itself in interpersonal relationships in humans is aggression. The interpretation of the concept of "aggression" presents a number of difficulties, since the term expresses many forms of behavior. When people describe someone as an aggressive person, they can give definitions such as a person who insults others or a villain who wants to do things the way he wants, or who resolutely defends his ideas by plunging into a maelstrom of unresolved problems. One of the most important characteristics of behavior and behavior that determine the effect of individual personality development, as well as interpersonal relationships, is aggressiveness. Today, the history of mankind convincingly proves that aggression is becoming an integral part of human life and society. In addition, aggression has a great attraction and contagiousness – many deny its aggressiveness, but it is widely manifested in their daily lives. It is aggressive behavior that leads to the emergence of interpersonal conflicts and the emergence of unreasonable ways to resolve them. This article is devoted to the study and analysis of the influence of aggression on crisis in adulthood. The importance of aggression in adulthood is very important, i.e. the effect is very wide. In adulthood, controlling aggression is equally difficult for everyone, and therefore managing it requires much more effective methods and strategies. Aggression is a complex and multifaceted behavior that can have a profound impact on an individual's psychological and emotional development.

Keywords: maturity period, aggression, origin, conflicts, character, ways of elimination, strategies.

Аннотация. Одним из типов поведения, проявляющихся в межличностных отношениях у людей, является агрессия. Толкование понятия "агрессия" представляет ряд трудностей, так как термин выражает множество форм поведения. Когда люди описывают кого-то как агрессивного человека, они могут приводить такие определения, как человек, который оскорбляет других или злодей, который хочет делать все так, как он хочет, или кто решительно защищает свои идеи, погружаясь в водоворот нерешенных проблем. Одной из важнейших характеристик поведения и поведения, определяющих эффект индивидуального личности, а также межличностных отношений, является агрессивность. Сегодня история человечества убедительно доказывает, что агрессия становится неотъемлемой частью жизни человека и общества. Кроме того, агрессия обладает огромным притяжением и развития заразительностью – многие отрицают ее агрессивность, однако в своей повседневной жизни она широко проявляется. Именно агрессивное поведение приводит к возникновению межличностных конфликтов и появлению необоснованных путей их разрешения. Эта статья посвящена изучению и анализу влияния агрессии на кризис в зрелом возрасте. Важность агрессии в зрелом возрасте очень важна, т. е. эффект очень широкий. В зрелом возрасте контролировать агрессию одинаково сложно для всех, и поэтому управление ею требует гораздо более эффективных методов и стратегий. Агрессия - это сложное и многогранное поведение, которое может оказывать глубокое воздействие на психологическое и эмоциональное развитие индивида.

Ключевые слова: зрелость, агрессия, происхождение, конфликты, характеристика, пути преодоления, стратегии.

Kirish. Agressiv xatti-harakatlar-bu zo'ravonlik va g'ayritabiiy tarzda qilingan va o'zini himoya qilish uchun yoki norozilik tufayli atrofda narsalarga zarar etkazishi mumkin bo'lgan odamning g'azabining ifodasidir. Bu tajovuz-bu xatti-harakatdan istalmagan boshqa shaxslarga zarar etkazish xatti-harakati. Agressiv xatti-harakatlar-bu boshqa odamlarga yoki mulk va narsalarga zarar yetkazadigan xatti-harakatlar.

Mac Neil va Styuart tajovuzkor xatti-harakatlar tajovuzkor maqsadli xatti-harakatlarga qaratilgan og'zaki yoki jismoniy kuch orqali tavsiflovchi tarzda xatti-harakatlar yoki harakatlarga ustunlik berishga qaratilgan harakat ekanligini tushuntiradi. Agressiv xatti-harakatlar-bu g'azab, jismoniy, og'zaki shikast yetkazish va boshqalarni tahdid qilish va kamsitish orqali dushmanlik hissi bilan bog'liq xatti-harakatlar.

Agressiv xatti-harakatlar-bu jinoyatchi tomonidan ma'lum niyat va maqsadlar bilan qasddan qilingan harakat, bir-biriga zid bo'lgan tajovuzkor xatti-harakatlarning ikkita asosiy maqsadi mavjud, ya'ni o'zlarini boshqalar tomonidan amalga oshiriladigan tajovuzkor xatti-harakatlardan himoya qilish va boshqalarga zarar etkazish maqsadida tajovuzkor xatti-harakatlarni amalga oshirish.

Bush va Denni bo'yicha tajovuzkorlik xatti-harakatlarining jihatlari. 1) jismoniy tajovuz-bu birovga shikast yetkazish yoki zarar etkazish maqsadida jismoniy hujum qilish orqali amalga oshiriladigan tajovuzkor xatti-harakatlarning bir shakli. Ushbu tajovuzkor xatti-harakatlar tajovuzkor va jabrlanuvchi o'rtasidagi jismoniy aloqa bilan tavsiflanadi. 2) og'zaki tajovuz-bu so'zlar bilan tajovuzkorlik. Og'zaki tajovuz qasamyod, tuhmat va kinoya shaklida bo'lishi mumkin. 3) g'azab-bu boshqa odamlarga yoki narsalarga nisbatan nafrat hissi yoki kimdir o'z maqsadlariga erisha olmasligi sababli bilvosita tajovuz yoki bilvosita tajovuz xatti-harakatlarining bir shakli. 4) dushmanlik-bu tajovuzkorlikning kognitiv komponenti bo'lib, u zarar yetkazishni xohlash va adolatsizlikdan iborat.

Davidovga ko'ra tajovuzga sabab bo'ladigan bir necha omillar bor. 1) g'azab bu yuqori parasempatik asab tizimining faolligi xususiyatlariga ega bo'lgan tuyg'u va odatda xato tufayli yuzaga keladigan juda kuchli yoqtirmaslik hissi, noto'g'ri bo'lishi mumkin yoki bo'lmasligi mumkin va g'azablenganda biror narsaga hujum qilish, mushtlash, yo'q qilish yoki tashlashni xohlash hissi paydo bo'ladi va shafqatsiz fikrlar paydo. 2) biologik omillar, tajovuzkorlik xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi uchta biologik omil mavjud, ya'ni: a) agressiya xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi miya asab tizimlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi genlar. b) agressiyada ishtirok etmaydigan miya tizimlari tajovuzni boshqaradigan asab zanjirlarini kuchaytirishi mumkin. Quvonchga yo'naltirilgan odamlar hech qachon zavq yoki baxtni boshdan kechirmagan odamlarga qaraganda kamroq tajovuz qilishadi. c) qon kimyosi (ayniqsa, qisman irsiyat bilan belgilanadigan jinsiy gormonlar) tajovuzkorlik xatti-harakatlariga ham ta'sir qilishi mumkin. Hayz ko'rgan ayollarda estrogen va progesteron ayol gormonlari darajasi pasaygan, natijada ko'plab ayollar asabiy, bezovta, tarang va dushman bolib qoladi. Agressiya darajasi, albatta, hissiy yetuklik bilan munosabatlarni qo'zg'atadi. Hissiy yetuklik-bu hayotning o'sishida shaxslar tomonidan boshdan kechiriladigan rivojlanish. Shaxslarga tegishli bo'lgan hissiy yetuklik bolalarcha bo'lmagan hissiy javoblar, qabul qilingan stimulgacha bo'lmagan hissiy javoblarni berish, harakat qilishdan oldin tanqidiy fikrlash, o'zlariga va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik uchun yetuklik bilan amalga oshiriladigan muammoni hal qilish bilan tavsiflanadi.

Hissiy yetuklik o'sish holatiga qarab shaxslar tomonidan rivojlanishi mumkin, chunki har bir shaxsning hayoti bolalikdan boshlab rivojlanib boradigan va atrof-muhit talablariga muvofiq voyaga yetadigan hissiy naqshni namoyon qiladi. Hissiy yetuklik-bu shaxsning har bir xatti-harakatni tanqidiy baholash usuli, chunki unga bir lahzalik hissiyotlar ko'proq ta'sir qiladi. Atrof-muhitning har qanday stimulgacha yaxshi javob bera oladigan shaxslarni aniq maqsadlarga ega bo'lishdan, barcha qarorlar va atrof-muhitdagi har qanday harakatlar uchun javobgarlikni o'z zimmlariga olishdan boshlab, sog'lom turmush tarzidan ko'rish mumkin. Ushbu jihatlarning har biri bajarilganda, shaxsni hissiy jihatdan yetuk deb aytish mumkin.

Hissiy yetuklik boshqa shaxslar bilan munosabatlarda ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Hissiy yetuklikka erishgan shaxslarni harakat qilishdan oldin vaziyatlarni tanqidiy baholay oladigan, endi bolalar yoki hissiy jihatdan yetuk bo'lmagan, o'zini yaxshi tuta oladigan, o'z his - tuyg'ularini to'g'ri ifoda eta oladigan odamlar kabi oldindan o'ylamasdan munosabat bildirmaydigan shaxslar sifatida aniqlash mumkin yoki ular duch keladigan sharoitlarga muvofiq, ular moslashishga qodir, chunki ular turli xil odamlar va vaziyatlarni qabul qilishlari va duch kelgan talablarga muvofiq munosabatda bo'lishlari mumkin.

Valgitoning fikriga ko'ra hissiy yetuklikning jihatlari quyidagicha: a) O'zi va boshqalarning holatini haqiqiy vaziyatga mos ravishda qabul qilishi mumkin. Biror narsani olishga majburlamaydi yoki qoniqishga erishish uchun u bilan sodir bo'lishi kerak. Ularning ahvolini qabul qilgan shaxslar har doim bor narsasidan mamnun bo'lishadi. b) Impulsiv-bu ushlab turilmaydigan va bostirilmaydigan, aks ettirmasdan (o'ylamasdan) harakat qilish. Odatda impulsiv odamlar yaxshi o'ylashdan oldin darhol harakat qilishadi. Ularning his-tuyg'ularini va hissiy ifodalarini yaxshi boshqarishi mumkin. Shaxslar o'zlarining his-tuyg'ularini yaxshi nazorat qilishlari mumkin, shunda ular g'azabni ifodalash kerak bo'lganda tartibga solishlari mumkin. Agar shaxs yuqori hissiy nazoratga ega bo'lsa, unda ilgari bo'lgan impulsivlik stimuli bilan ishlashda yana boshdan kechirilmaydi. d) Ob'ektiv va Real fikrlay oladi, shunda u sabr-toqatli, tushunadigan va yaxshi bag'rikenglikka ega bo'ladi. Agar bu xususiyatlarni amalga oshirish mumkin bo'lsa, unda impulsivlikdan kelib chiqadigan his-tuyg'ular qayta ishlaniishi uchun bostiriladi va qanday munosabatda bo'lishga qaror qiladi, yaxshi mas'uliyatga ega, o'z-o'zidan turishi mumkin, osonlikcha xafa bo'lmaydi va to'liq tushunish bilan muammolarga duch keladi.

Yoshlarga ko'ra hissiy yetuklikka ta'sir qiluvchi omillarga quyidagilar kiradi: 1) Atrof-muhit:atrof-muhit omillariga oila va jamiyat muhiti kiradi. Uyg'un bo'lmagan oilaviy vaziyatlar, oilada tinchlik bo'lmagan oilaviy psixoborneo munosabatlarida kelishmovchilik mavjud bo'lib, odamlarda salbiy hisslarni keltirib chiqarishi mumkin. Xuddi shunday, xavfsizlik hissi va qo'llab-quvvatlanmaydigan ijtimoiy muhitni ta'minlamaydigan ijtimoiy muhit ham hissiy yetuklikka xalaqit beradi. 2) Shaxs:shaxsiy omillarga shaxslar ega bo'lgan shaxsiyat omillari kiradi. Biror narsani talqin qilishda har bir shaxsning idroki ham shaxsda hissiy notinchlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bunga haqiqatga mos kelmaydigan, Real bo'lmagan salbiy fikrlar sabab bo'ladi. Agar odamlar noto'g'ri fikrlarni to'g'ri fikrlarga aylantira olsalar, unda odamlar o'zlarini his-tuyg'ularini tartibga solishga yordam berishlari mumkin, shunda ular narsalarni yaxshi idrok etishlari mumkin. 3) Tajriba: odamlarning hayotida to'plagan tajribasi hissiy yetuklikka ta'sir qiladi. Yoqimli tajribalar odamlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin takrorlanganda yoqimsiz tajribalar odamlarga va bu shaxslarning hissiy yetukligiga salbiy ta'sir qiladi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar

Agressiya qandaydir ma'noda tajovuzkor harakatlarning asosini tashkil qiladi. Yetuklik davrida barcha insonlarda bu kabi tajovuzkor holatlar kuzatiladi. Agressiyani tahlil qilish va o'rganish uning oldini olish uchun juda muhim hisoblanadi. Ushbu izlanish ob'ekti bu hozirda rivojlanib kelayotgan va yetuklik davrini boshdan kechirayotgan yoshlar hisoblanadi va ularni kuzatish natijasida olingan natijalarni taqdim etamiz biz agressiyaning turlari kelib chiqish sabablari ko'rib chiqamiz va unga kerak bo'ladigan ayrim metodlar ya'ni harakatdan oldin fikr yurutish, jismoniy va og'zaki zo'ravonlikdan qochish kabi usullarni tahlil qilamiz.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) 19 yoshgacha bo'lgan yoshlar orasida shaxslararo zo'ravonlik har kuni 227 o'limni tashkil qiladi deya bayonot beradi. Ko'proq odamlar zo'ravonlik va tajovuzkor xatti-harakatlardan kelib chiqadigan jarohatlar va travmatik tajribalardan aziyat chekishadi. Bolalikda tajovuzkor xatti-harakatlar namunasi o'rnatilgandan so'ng, u ko'pincha salbiy oqibatlariga olib keladigan balog'at yoshida davom etadi [1].

Rivojlanish natijalarini bo'ylama o'rganish yuqori tajovuzkor xatti-harakatli bolalar edi. Bolalikdagi jismoniy tajovuzning yuqori darajasi kelajakdagi jinoyatchilikni ham kuchli tasir qiladi. Erta bolalik davridagi tajovuzkor xatti-harakatlar, shuningdek, e'tiborsizlik, giperaktiv-impulsiv yoki oppozitsion xatti-harakatlarga qaraganda kambag'allik ijtimoiy faoliyatning yanada izchil ta'sirchisi ekanligi isbotlangan.

Qisqa muddatda tajovuzkor bolalar maktabda buzilish, tengdoshlarini bezorilik qilish va maktablardan chetlatish ehtimoli ko'proq. Shunday qilib, tajovuzkor xatti-harakatlari bo'lgan bolalarni erda aniqlash ijtimoiy qiyinchiliklarning oldini olish va uzoq muddatli natijalarni yaxshilash uchun ayniqsa muhim bo'lishi mumkin. O'g'il bolalar qizlarga qaraganda yuqori darajadagi jismoniy tajovuzni namoyon qilish ehtimoli 5 baravar ko'pdir.

Maktablar uydin tashqaridagi eng muhim sharoit bo'lib, u yerda bolaning qarashlari, munosabatlari va xatti-harakatlari hayotning boshida shakllanadi [2,3]. Bu maktab muhitini yuqori darajadagi tajovuzkor xatti-harakatlari bo'lgan bolalar uchun maqsadli erda aralashuvni aniqlash va ta'minlash uchun yaxshi sharoit yaratadi.

Ota-onalarni o'qitish, bolalar uchun ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash (yakka yoki birgalikda) yordamida bir nechta erda aralashuv dasturlari yaxshi natijalarni namoyish etadi. Agressiv va buzuvchi xatti-harakatlar uchun maktabga asoslangan aralashuvlarning meta-tahlili shuni ko'rsatdiki, eng muvaffaqiyatli yaxshilanishlar aralashuv tajovuzkor xatti-harakatlar xavfi yuqori bo'lgan talabalarga qaratilganda sodir bo'lgan.

Dushman atributiv tarafdorlik bolalardagi reaktiv tajovuzkor xatti-harakatlarni bashorat qiladi va ijtimoiy va hissiy ta'limga e'tibor qaratadiganlar kabi aralashuvlar agressiv xatti-harakatlarni kamaytirishda samaradorligini namoyish etdi, shu bilan birga prosotsial reytinglarni yaxshilaydi. Guruhlarga asoslangan tadbirlar, shuningdek, maktab sharoitida bolalar o'rtasida tashqi xatti-harakatlarni kamaytirishda samarali ekanligi aniqlandi.

Biroq, ushbu aralashuv tadqiqotlarining aksariyati rivojlangan mamlakatlardan, ayniqsa Amerika Qo'shma Shtatlari [4,5] (AQSh) va Kanadadan keladi. Bizning ma'lumotimizga ko'ra, Afrikadan tajovuzga qarshi nashr etilgan maktabga asoslangan aralashuvlar mavjud emas.

Rivojlangan mamlakatlar va Nigeriya kabi past va o'rta daromadli mamlakatlar (Lmics) o'rtasidagi ulkan madaniy, ijtimoiy va demografik farqlarni hisobga olgan holda, rivojlangan mamlakatlarda samarali bo'lgan tajovuzga qarshi choralar Nigeriya kabi sharoitlarda bir xil darajada foydali bo'ladi deb taxmin qilish mumkin emas. LMICs ruhiy salomatlik bo'yicha mutaxassislarining yetarli emasligi va ruhiy salomatlik xizmatlariga kirishning kamayishi bilan tavsiflanadi; bularning barchasi katta davolash bo'shlig'i bilan yakunlanadi.

Bundan tashqari, Nigeriya qismlarida ba'zi madaniy bolalarni tarbiyalash amaliyotlari bolani uyda va ko'chalarda tajovuzkor xatti-harakatlarga, shuningdek, bolalar intizomi uchun jazo choralarini muntazam ravishda qo'llashga olib keladi. Agressiv xatti-harakatlari yuqori bo'lgan bolalar uchun muqobil, jazosiz aralashuv keng tarqalgan qabul qilish uchun foydali tavsifa bo'lishi mumkin.

Bunday aralashuvlar, ayniqsa, Nigeriya kabi lmics maktablari uchun dolzarbdir, bu o'rtacha boshlang'ich maktabga qabul qilish nisbati (NER) 66 %; va o'rtacha o'rta maktab NER 27 %. Shunday qilib, maktabga boradigan bolalarning maktabda saqlanib qolishi va yoriqlardan chiqib ketishiga yoki yiqilishiga yo'l qo'ymaslik uchun qilingan barcha harakatlar hayotiy ahamiyatga ega.

Shuning uchun ushbu tadqiqot Ibadan, Nigeriyada yuqori darajadagi tajovuzkor xatti-harakatlarga ega bo'lgan boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun guruhga asoslangan muammolarni hal qilish aralashuvining maqsadga muvofiqligi va samaradorligini baholashga qaratilgan. Sinf o'qituvchilarining tajovuzkor xatti-harakatlarning sabablari va bunday xatti-harakatlarni kamaytirishning mumkin bo'lgan strategiyalari haqidagi qarashlari ham baholandi.

Xulosa. Agressiya yetuklik inqirozini boshdan kechirayotgan shaxslarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu hissiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi, ijtimoiy munosabatlarni keskinlashtiradi va shaxsiy o'sishga to'sqinlik qiladi. Agressiv xatti-harakatlarni tan olish va ularga murojaat qilish yetuklik inqirozini yengib o'tishga va shaxsiy qoniqish va yetuklik yo'lga kirishga intilayotgan shaxslar uchun juda muhimdir. Empatiyani rag'batlantirish, hissiy tartibga solishni rag'batlantirish va ko'ngilsizliklarni ifoda etish uchun sog'lom kanallarni rivojlantirish shaxslarga tajovuzning zararli ta'siridan xalos bo'lishga yordam beradi, shaxsiy o'sish va yetuklikka yo'l ochadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Kasallikning global yuki: 2004 yilgi yangilanish. 2008. http://www.who.int/healthinfo/global_burden_disease/estimates_regional/en/. kirish 25 Dec 2015.
2. Krug masalan, Dahlberg II, rahmat JA, Zvi AB, Lozano r, muharrirlar. Zo'ravonlik va salomatlik bo'yicha jahon hisoboti. Jeneva: Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti;
3. Bor V, Najman JM, O'kallaghan M, Uilyams GM, Anstey K. tajovuz va bolalarda huquqbuzarlik xatti rivojlantirish. Avstraliya kriminologiya instituti: jinoyatchilik va jinoiy adolat tendentsiyalari va muammolari. Avstraliya kriminologiya instituti; 2001.
4. Kempbell SB, Shou DS, Gilliom M. erta externalizing xulq muammolari: keyinchalik noto'g'ri uchun xavf ostida toddlers va oldindan schoolers. Dev Psikopathol. 2000;12:467–88.
5. Reef J, Diamantopoulou s, Vanmeurs I, Verhulst FC, Vander Ende J. barkamol externalizing xulq va kattalar DSM-IV buzilishi uchun bolaning rivojlanish orbital: 24-yil bo'ylama o'rganish natijalari. Soc Psixiatriya Psixiatr Epidemiol. 2011;46(12):1233–41. doi:10.1007/s00127-010-0297-9.
6. Pingault J - B, Kot SM, Lacourse E, Galera C, Vitaro F, va boshq. Bolalikdagi giperaktivlik, jismoniy tajovuz va jinoyatchilik: aholiga asoslangan 19 yillik istiqbolli tadqiqot. PLoS biri. 2013; 8 (5): e62594. doi: 10.1371 / jurnal.pone.0062594.
7. Brennan LM, Shou DS, Dishion TJ, Uilson MN. Maktab yoshidagi ijtimoiy faoliyat uchun erta bolalikni buzadigan xatti-harakatlarning bashoratli foydasi. J Abnorm Bola Psychol. 2015;43(6):1187–99. doi:10.1007/s10802-014-9967-5.
8. Hudley C, Britsch B, Ueykfild, Smit T, Demorat M, cho S. boshlang'ich maktab o'quvchilarida tajovuzni kamaytirish uchun atributlarni qayta tayyorlash dasturi. Psixol Sch. 1998;35(3):271–82.
9. Lussier P, Corrado R, Tzoumakis S. kanadalik maktabgacha yoshdagi bolalar namunasida jismoniy tajovuz va rivojlanish bilan bog'liq gender farqlari. Harakat Sci Qonun. 2012;30(5):643–71. doi:10.1002 / bs1.2035.
10. Uilson Sj, Lipsi MVt. Agressiv va buzuvchi xatti-harakatlar uchun maktabga asoslangan aralashuvlar: meta-tahlilni yangilash. Am J Oldingi Midiya. 2007; 33(2):S130–43.

Mualliflar:

Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich - Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti stajyor-o'qituvchi.

Yuldoshev Tojiddin Abdukarimovich - Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta-o'qituvchi.

Sharafullayeva Shaxlo Kaxramonovna - Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

UDK 372.834

METHODOLOGICAL BASIS OF USING NATIONAL VALUES IN PREVENTING JUVENILE CRIME

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINI OLDINI OLIHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПРОФИЛАКТИКЕ ПРЕСТУПНОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Sagdullayev Jaxongir Axmadjon o'g'li

Samarqand viloyati IIB, mustaqil tadqiqotchi

E-mail: gabasagdul1222@gmail.com

Abstract. The article describes in detail the crimes that occur among minors and the oriental methods of education to prevent them. The peoples of the East have always paid special attention to the education of children, and in the process they used instruction and advice, in modern language, didactics. started coming. Therefore, in this study, national values and didactic tools were analyzed as the main method for preventing youth crime.

Key words: Koran, Hadis, Education, Etiquette, Prevention of lack of control, Prevention of crime.

Аннотация. В данной статье подробно описаны преступления, совершаемые среди несовершеннолетних, и восточные методы их предотвращения. Народы Востока всегда уделяли особое внимание воспитанию детей, при этом к ним применялись наставления и советы, выражаясь современным языком, стала приходиться дидактика. Поэтому в данном исследовании национальные ценности и дидактические инструменты были проанализированы как основной метод профилактики молодежной преступности.

Ключевые слова: Священный Коран, Хадисы, Образование, Этикет, Профилактика бесконтрольности, Профилактика преступности.

Kirish: Yurtimizda azal-azaldan bolalar tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaralilib kelingan. Jumladan, Qur'oni Karim va hadislarda sog'lom turmush asosida yosh avlodni tarbiyalash, ularni har xil jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi g'oyalardan asrashga harakat qilingan. "Kishi o'z farzandini tarbiya qilib bir narsa o'rgatishi bir so'mni sadaqa qilishidan yaxshiroqdir" [1].

Muarrixlarning yozishicha, Gerodot Sharqqa qilgan safarlari chog'ida Misr ehromlaridagi bir bitikka ajablangan: "Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilish kerak?!" Muarrix bu yozuvni o'qiganiga ham ikki ming yildan oshib ketdi. Yozuvning bitilganiga esa, kim bilsin qancha vaqt bo'lgan? Demak, yoshlar masalasi hamisha o'z dolzarbligini yo'qotmagan, bunga hamma davrlarda ham turli darajada munosabat bildirilgan ekan [2].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar

Islom ta'limotida yoshlar tarbiyasi juda muhim o'rin tutadi. Islomning dastlabki o'n uch yilida, ya'ni Makka davrida Muhammad sollallohu alayhi va sallam insonlarning ongu shuuriga Allohning yagonaligini singdirish barobarida ularga odob-axloq masalalarini o'rgatishga alohida e'tibor qaratganlar. Bu borada o'z yonlariga 8-16 yoshli (Ali, Talha, Zubayr) kabi ko'plab yoshlarni olib, avvalo, ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida ahamiyat berganlar [3].

Hadisi sharifda: "Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chiroyli qilinglar", deyilgan [4].

Tarbiya haqida Imom G'azzoliy shunday fikr bildiradi: "Bola – ota-ona qo'lidagi omonat. Uning qalbi turli naqsh va rasmlardan xoli. Qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo'laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o'rgatilsa, saodatli bo'ladi. Ota-onasi hamda odob, ta'lim-tarbiya bergan ustozlar uning savobiga sherik bo'ldi. Agar yomonlikka undalsa, halok bo'ladi" [5].

Mazkur manbalar asosida yosh avlodga, vatanga, oilaga, urf-odat va an'analarga muhabbat hissi singdirilgan. Chunki bunday g'oyalar bilan tarbiyalangan yoshlardan vayronkor g'oyalarni kutish mumkin emas deb hisoblangan. Mustaqillik yillarida esa ota bobolarimizning tajribalarini zamonga moslashtirgan holda, ya'ni zamonaviy metodlar asosida yoshlarni tarbiyalashga e'tibor qaratildi.

Ajdodlar me'rosi, o'g'itlari ularning ongiga singdirila boshlandi. Yosh avlodni sog'lom, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda didaktik metodni zamonaviy usullar bilan qorishtirgan holda amalga oshirayotgan bir guruh olimlar yetishib chiqdi. Ularga misol tariqasida A.Abduqodirov, A.Pardaev, R.Djo'raev, X.Ibragimov, G.Ibragimova, M.Inomova, U.Inoyatov, A.Isimova, Z.Ismoilova, S.Yo'ldosheva, O.Musurmonova, D.Raximboeva, Q.Nazarov, K.Najmiddinova, D.Kenjaeva, S.Yo'ldosheva, Sh.Sodiqova, K.Najmiddinova, S.Nishonova, N.Musaeva, Y.Jo'maboev, H.Ziyoyev, T.Abdullayeva, X.Ziyoyev, M.Quronov I.Mattiyev va boshqa olimlarimizni faoliyatini keltirishimiz mumkin. Ularning tadqiqotlarida ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash masalalarini turli jihatlari tahlil qilingan. Yurtimizda yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olishning barcha me'zonlari ishlab chiqilgan bo'lib, avvalo bu boradagi asosiy tushunchalar, yoshlarni jinoyat va huquqbuzarlikka undovchi omillar aniqlashtirib olingan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarimizda yoshlar jinoyatchiligi va huquqbuzarliklari borasida keltirilgan asosiy tushunchalarga e'tibor qaratsak.

Nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi — yoshlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi;

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan yosh — yoshlarning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan yoxud uni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo'lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan shaxs;

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila — ota-ona yoki ota-ona o'rmini bosuvchi shaxslar yoshlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan oila;

Nazoratsiz — ota-ona yoki ota-ona o'rmini bosuvchi shaxslar tomonidan bolani ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan shaxs;

Yakka tartibdagi profilaktika ishi — ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan yoshlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish hamda yoshlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyat;

Qarovsiz — aniq yashash joyi bo'lmagan nazoratsiz qolgan yosh shaxs;

G'ayriijtimoiy xatti-harakatlar — yoshlarning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug'ullanishida ifodalanadigan xatti-harakatlari, shuningdek o'zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar - yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalar, shu jumladan: nogiron bolalar; jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar; yetim bolalar; ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar; ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar; muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan

bolalar; kam ta'minlangan oilalardagi bolalar; jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar; zo'rvonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar;

Ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish — huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui; Yoshlar — o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslar; Yosh oila — er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o'ttiz yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol) va boshqalar.

E'tibor qaratsak milliy qonunchiligimizda yoshlarga oid barcha tushunchalar joriy qilingan va mustahkamlangan.

Yosh shaxs va uning mikromuhamiti kriminologik xavfsizlik tizimining obyekt sifatida himoya elementlari (choralari) namoyon bo'ladigan tashqi munosabatlarni o'rnatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Buning natijasida obyektning ichki xavfsizligi va tashqi muhofazasi ta'minlanadi. Ichki xavfsizlik yosh shaxsning kriminalistik barqarorligi bilan ta'minlanadi. Biz buni tushunish, jinoiy xavf xavfini oldindan bilish, undan qochish, jinoyat sodir etilgan taqdirda jinoiy xavf manbalaridan uzoqlashish qobiliyatidir. Tajovuz, qonuniy vositalar bilan o'zini himoya qilish, zarur hollarda himoya qilish, buzilgan huquqlarni tiklash, xususan, huquqni muhofaza qilish organlari yordamida amalga oshirish tavsiya qilinadi.

Shaxsning bunday yaxlit xususiyatini takomillashtirishda yoshning huquqiy ongini shakllantiradigan huquqiy ijtimoiylashuvi muhim rol o'ynaydi, bu xususan, yosh shaxs tomonidan huquqiy bilim va tajribani o'zlashtirishni, uning - hayoti xavfsizligini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiya va uning xususiyatlarini xorijiy tadqiqotlar bilan taqqoslanishi mazkur soha islohotlari uchun, tadqiqotimiz uchun o'ziga xos bir tadqiqot metodi bo'lib, bu kelgusi tadqiqotlarimiz uchun istiqbolli reja va maqsadlar ishlab chiqishimizda ko'maklashadi. Xorijiy tadqiqot natijalarini va ular taklif etgan tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etishda milliy mentalitetdan kelib chiqqan holda joriy etish tadqiqotimizning ilmiy xulosalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-жомъе ас-саҳиҳ. 2-жилд. Тошкент. Қомуслар бош таҳририяти.1997.-Б.381.
2. Геродот. История.-535 стр. яндекс.ru.
3. Имом ал-Бухорий "Ал-Жомий ас-саҳиҳ", 1-4-т. Тошкент, 1992 й.
4. Куръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Шайх Аловуддин Мансур. Тошкент. Чўлпон нашриёти. 2022 й.-Б. 620.
5. Имом Абу Ҳомид ибн Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Ғаззолий. Дин илмларини жонлантириш. 1- китоб. Тошкент. Мовороуннаҳр.-Б.121.

Muallif:

Sagdullayev Jaxongir Axmadjon o'g'li - Samarqand viloyati ИВ Аxborot xizmati boshlig'i. Mustaqil tadqiqotchi

UDK 372.879.6

THE EFFECTIVENESS OF RUNNING AND JUMPING IN PHYSICAL DEVELOPMENT OF PUPILS AGED 11-12

11-12 ЁШЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ЖИСМОНАН РИВОЖЛАНТИРИШДА ЮГУРИШ ВА САКРАШ ВОСИТАЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БЕГА И ПРЫЖКОВ В ФИЗИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЧАЩИХСЯ 11-12 ЛЕТ

Маматкулов Акмал Ахмадалиевич, Жалолов Иброхим Мустофокул ўғли
Гулистон давлат университети, 120100. Сирдарё вилояти Гулистон ш, 4-мавзе.

E-mail:akmal.mamatkulov.02.09@gmail.com

Abstract. In this article, it is aimed to increase the sports results of 11-12-year-old general education school students by using effective methods and means of teaching running and jumping techniques in physical development. Recommendations were made on improving the process of physical education classes and introducing scientifically based innovative technologies.

Keywords: highly intelligent, innovative technology, strategy, training, fitness, and physical education programs.

Аннотация. Данная статья направлена на повышение спортивных результатов учащихся средних школ 11-12 лет путем использования эффективных методов и средств обучения технике бега и прыжков в физическом

развитии. Даны рекомендации по совершенствованию процесса занятий физической культурой и внедрению инновационных технологий, основанных на науке.

Ключовые слова: высокоинтеллектуальные, инновационные технологии, стратегия, нагрузка, физическая подготовка, программа физического воспитания.

Кириш. Президент Ш.М.Мирзиёев “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз” деган даъватлари таълимнинг сифатли ва самарали ташкил этилишини, айниқса, бошланғич синфлардан бошлаб ўқувчиларни мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга шахс сифатида тарбиялаш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади[1].

Зеро, бугунги янги Ўзбекистонда таълим-тарбия мазмуни, мақсад ва вазифалари, шакл ва усулларини такомиллаштириб боришни замоннинг ўзи талаб этмоқда. Жамиятда бундай ўзгаришларнинг содир бўлиши таълим тарбия жараёнида инновацион технологияларни қўллаш самарадорлиги ошмоқда[5].

Шу боисдан ҳам, умумтаълим мактабларида энгил атлетика спорт турини ривожлантириш, таълим олаётган ўқувчи - ёшларнинг спорт турларига қизиқишини ошириш, билими, кўникма ва малакаларини мустаҳкамлаш муҳим аҳамият касб этмоқда [2].

Маълумки, асосий ва энг оммабоп спорт турларидан бири бу энгил атлетика спор тури ҳисобланади. Ўқувчи-ёшлар ўртасида энгил атлетиканинг юриш, турли масофаларга югуриш ва сакраш, улоқтириш ҳамда кўпкурашни ривожлантириш, уларнинг жисмоний тайёргарликларини такомиллаштириш, жисмоний сифатларни тарбиялаш билан бирга жисмоний тарбия дарслари жараёнида такомиллаштириш бўйича бугунги кунда таълим тизимида сезиларли ишлар амалга оширилмоқда[3,4].

Юқоридагилардан келиб чиқган ҳолда умумтаълим мактаб ўқувчиларини жисмонан ривожлантиришда югуриш ва сакраш воситаларидан самарали фойдаланишда илмий асосланган инновацион технологияларни жорий этиш зарурати туғилмоқда.

Тадқиқотнинг мақсади 11-12 ёшли умумтаълим мактаб ўқувчиларини жисмонан ривожлантиришда югуриш ва сакраш техникасига ўргатишнинг самарали усул ҳамда воситаларини қўллаш орқали уларнинг спорт натижаларини оширишдан иборатдир.

Югуриш ва сакраш техникасига ўргатишнинг асосий стратегик вазифалари этиб қуйидагилар белгилаб олинди: 1. Мавзуга оид илмий услубий адабиётларни ўрганиш ва таҳлил этиш; 2. 11-12 ёшли умумтаълим мактаб ўқувчиларининг жисмоний тайёргарликларини аниқлаш; 3. 11-12 ёшли умумтаълим мактаб ўқувчиларининг жисмоний тарбия дарслари жараёнида қўлланилган услублар самарадорлигини аниқлаш; 4. 11-12 ёшли умумтаълим мактаб ўқувчиларининг жисмоний сифатларини ривожлантиришда самарали машғулот юқламаларини ишлаб чиқиш орқали амалиётда юқори натижаларга эришишиш имконини ошириш.

Тадқиқот объекти ва қўлланиладиган методлар

Тадқиқот ишлари Гулистон шаҳридаги Шухрат Аббосов номли 5-сонли умумтаълим мактабида 5 ва 6-синф ўқувчиларнинг жисмоний тарбия дарс жараёнларида олиб борилди. 11-12 ёшли умумтаълим мактаб ўқувчиларидан жами 60 нафари тадқиқот ва назорат гуруҳларига танлаб олинди. Уларнинг жисмоний тайёргарлик даражалари 60 метр масофага югуриш ҳамда югуриб келиб узунликка сакраш тестлари орқали аниқланди. Тадқиқот давомида мавзуга оид илмий-услубий адабиёт манбалари ўрганилди, анкета-сўровномалари ўтказилди ҳамда педагогик кузатувлар ва олинган маълумотлар таҳлил қилинди.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

Умумтаълим мактабларнинг 11-12 ёшли ўқувчиларини жисмоний тарбия дарслари жараёнида жисмонан ривожлантиришда югуриш ва сакраш техникасига ўргатишда самарали усул ва воситаларни қўллаш орқали спорт натижаларини ошириш ҳамда ёш хусусиятларини, тайёргарлик даражаларини, спорт турининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда машғулотларни самарали ташкил этиш мақсадга мувофиқдир.

Тезкорликни ривожлантирувчи машқларни бажаришда ўқувчиларнинг иродаси ва рухий тайёргарлиги ўзини ғалабага бўлган ишончини ошира бориши лозим. Тезликни ривожлантиришда машқларнинг бажариш суръати масофани югуриб ўтишдаги вақти ва шу масофани босиб ўтишида тезликни ҳис қилиши муҳимдир.

11-12 ёшли ўқувчилар учун мўлжалланган жисмоний тарбия дастуридаги энгил атлетика бўлимига киритилган қисқа масофага югуриш техника асосларини ўргатишдан аввал уларнинг жисмоний тайёргарликлари аниқланди. Тадқиқот давомида дастлабки олинган маълумотларга кўра ўқувчиларнинг тезкорлик машқларини бажаришга бўлган имкониятлари (вақти) йилдан йилга 0,2 сониядан – 0,6 сонияга камайиб боргани кузатилди.

60 м. масофага югуриш тести бўйича 11-12 ёшли ўғил ва қиз болаларнинг кўрсатган натижалари ўрганилганда тажриба ва назорат гуруҳларидаги ўғил ва қиз болалар кўрсатган натижалар статистик жиҳатдан ($P>0,05$) фарқ қилмади.

11-12 ёшли ўғил ва қиз болаларнинг тажриба гуруҳлари ўртасида статистик фарқ бўлмасда, назорат гуруҳлари ўртасида фарқ кузатилди. Яъни, 11 ёшли ўғил болаларда натижа 15-16 % га, қизларда эса 9,8 % га пастлиги аниқланди.

Шу билан бирга 11-12 ёшли ўғил ва қизларнинг тезкорлик бўйича тайёргарлик даражалари умуман жуда паст эканлиги маълум бўлди. 11 ёшли ўғил болалар “3” баҳо олиш учун 60 м га 11,3 сонияда югуришлари керак бўлса, 6-синф ўғил болалари эса 11,0 сонияда югуришлари шарт эди. Қиз болалар эса мутаносиб равишда 11,5-11,3 сония вақт кўрсатишлари зарур бўлади. Ўғил ва қиз болалар дастур талабларидан ҳам паст натижа кўрсатишди. Шу боисдан ҳам, ушбу ўқувчиларга тегишли тезкорлик машқларининг ҳажмини кўпайтириб, табақали ёндашув зарурати туғилди. Югуриб келиб узунликка сакраш учун дарс машғулотларини ўтказишда ўқувчиларнинг ёш имкониятларини, тайёргарлик даражасининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олиб машғулотлар олиб борилди.

Педагогик тажрибани ўтказиш жараёнида тажриба гуруҳида биз томонимиздан дастурдаги жисмоний машқларни ўргатиш ва ҳар бир дарснинг зичлигини ошириш, жисмоний тайёргарлигини ривожлантириш бўйича ишлаб чиқилган дастурдан фойдаландик. Назорат гуруҳида эса барча умумтаълим муассасалари учун ишлаб чиқилган дастур асосида анъанавий дарс услублари бўйича олиб борилди.

Асосий педагогик тажриба жараёнида ўқувчилар тайёргарлиги қиёсий баҳоланди. Жисмоний тарбия дарсларида ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини тарбиялаш билан бирга ҳаракат кўникма ва малакаларини такомиллаштиришнинг восита ва услублари мажмуидан фойдаланилган ҳолда табақали ёндашиб индивидуал таъсир кўрсатилди. Тадқиқот давомида олинган натижалар дастурдаги машқларни ўзлаштиришдаги ҳаракат кўникма ва малакаларни яхшиланишига ҳамда жисмоний сифатларнинг ривожланганишига туртки бўлди.

11-12 ёшли ўқувчиларда тезкорликни тарбиялаш жараёнида организм ҳаракат фаолиятининг хилма-хил турларидаги тезлик тавсифини белгиловчи функционал имкониятларни ҳар томонлама ошириб бориш зарурлиги аниқланди. Тезкорлик сифатининг намоён бўлишида бир-бирига боғлиқ бўлмаган 3 та тизим мавжуддир яъни (ҳаракат реакцияси, ҳаракат суръати, айрим ҳаракатлар тезлиги). Буларнинг ҳар бирига алоҳида-алоҳида машқлар мажмуи танланди ва табақали тарзда ёндашилди.

11 ёшли тажриба гуруҳидаги ўғил ва қиз болаларда натижа 1,8 сонияга яъни, 1,25% га ошди, бу эса статистик жиҳатдан дастлабки натижалардан ($t=5,4$; $P<0,01$) фарқ кузатилди. Назорат гуруҳларида эса мутаносиб равишда 1,25 сония ва 1,1 сонияга (10,0%; 0,5%)га яхшиланди яъни, статистик жиҳатдан ($t=3,07$; $P<0,05$) фарқга эга.

12 ёшли - тажриба гуруҳларида мутаносиб равишда ўғил болаларда 0,79 сонияга қизларда эса 0,85 сонияга (7,2%, 7,6%)га ўсди ва статистик жиҳатдан ($t=3,95$; $4,25$ $P <0,01$) фарқ борлиги аниқланди. Назорат гуруҳларида эса мутаносиб равишда 0,71 ва 0,85 сонияга (7,2%; 7,9%) яхшиланди, бу статистик жиҳатдан ($t=3,55$; $4,25$; $P <0,01$) фарқ килди.

Тажриба гуруҳида ўқувчиларга тезкорлик машқларини ўргатишда биз дам олиш ораликларидан тўғри фойдаланишни яъни, темперамент турлари ва ҳоссаларининг кўзгалувчанлиги унчалик пасайишга улгурмайдиган қисқа вақт ичида ҳамда иккинчи томондан, вегетатив функциялар кўрсаткичининг озми-кўпми тўла тикланиш даражасига қараб машқларни такрорлаб бордик.

Бунда масофанинг узунлиги 30-60 м, бажариш шиддати, дам олиш интерваллари ва такрорлашлар сони ҳисобга олинди. Кўрсаткичи ўртачадан паст ўқувчиларга 26-30 м масофада бажариш шиддати оширилди. Шу сабабли олинган натижалар назорат гуруҳларига қараганда юқори бўлди.

Асосий педагогик тажрибани ўтказиш жараёнида тажриба гуруҳида (биз томондан) дастурдаги жисмоний машқларни ўргатиш ва ҳар бир дарснинг зичлигини ошириш, жисмоний тайёргарлигини ривожлантириш бўйича ишлаб чиқилган дастурлардан фойдаланилди.

Жисмоний тарбия жараёнида жисмоний сифатларни тарбиялаш билан бирга уларда ҳаракат кўникма ва малакалари такомиллаштирилди. Восита ва услублар мажмуидан фойдаланган ҳолда табақали ёндашилиб индивидуал таъсир кўрсатиш орқали ижобий натижаларга эришилди.

Айниқса, бу ёшдаги ўғил ва қиз болаларнинг у ёки бу ҳаракат сифатларининг ривожланиш йўналишини, қайси вақтда кўпроқ жадал ўсиш намоён бўлишини билиш зарур бўлди. Шу билан бирга, болаларнинг жинсий етилиш даврида ҳаракат функцияларининг ривожланишига жисмоний юктамаларнинг таъсири кам ўрганилганлиги сабабли, биз тажрибада юқоридагиларни ҳисобга олган ҳолда, жисмоний ривожланиш, жисмоний сифатларни ривожлантириш бўйича ўғил ва қиз болаларни 3 гуруҳга бўлиб жисмоний тарбия дарсларини олиб бордик (юқори, ўртача, паст).

Тажрибадан кейинги олинган натижалар ўқувчиларнинг дастурдаги машқларни ўзлаштиришдаги ҳаракат кўникма ва малакалари яхшиланилганлиги ҳамда жисмоний сифатларини ривожланганлиги номоён бўлди.

Илмий услубий манбаларда баъзи муаллифларнинг фикрича, 11-12 ёшли мактаб ўқувчиларида куч, тезкор-куч сифатларининг ривожланиши уларнинг организми ва мушак-таянч тизимини биологик томондан етилиши йилдан-йилга куч сифатларининг ўсиб бориши билан белгиланади. Шу боисдан ҳам, йилдан-йилга куч

сифатларининг ошиб бориши мақсадга мувофиқ равишда машқларни тўғри танлаб берилса, куч табиий ривожланишидан кўра кўпроқ ўсишни кўрсатди.

Тадқиқот якунида олинган маълумотларга мувофиқ, 11-12 ёшли ўқувчиларнинг тажриба ва назорат гуруҳларидаги ўғил ва қиз болаларда тезкорлик сифатларини ўсганлиги кузатилди. Тажриба гуруҳларидаги 11-12 ёшли болаларда мутаносиб равишда 16 см га (10,2%) ошганлиги статистик жиҳатдан фарқ қилди ($t=5,29$, $P < 0,01$). Назорат гуруҳларида эса 12 см (7,7%) га яхшиланиб, статистик жиҳатдан фарқ қилди.

11-12 ёшли болалар ва қизлардан иборат тажриба гуруҳларида 24 см (20%) га, мутаносиб равишда 14 см (12,2%) натижа яхшиланиб, статистик жиҳатдан юқори фарққа эга ($t=8,3$; $P < 0,01$) эканлиги аниқланди. Назорат гуруҳларидаги ўғил ва қиз болаларда 13 см мутаносиб равишда 15 см (9,7%)ни ташкил этиб, статистик жиҳатдан ($t=5,5$; $P < 0,01$) фарқ қилди.

Тажрибанинг кўрсатишича, олинган маълумотлар жисмоний томондан суст тайёргарликка эга ўқувчиларга ўртача юклама берилганда уларда самарадорлик сезилди.

Тадқиқот давомида олинган маълумотларга мувофиқ қуйидаги **хулосаларга** келинди:

1. 11-12 ёшли ўқувчиларни жисмонан ривожлантиришда қисқа масофага югуриш ва югуриб келиб узунликка сакраш турларида умумтаълим мактаб ўқувчиларининг жисмоний тайёргарлик даражаларини яхшилаш бўйича етакчи олимларимиз томонидан берилган фикр ва мулоҳазаларини ўрганиш ҳамда биз томонимиздан олиб борилган илмий тадқиқот натижаларига мувофиқ тезкорлик сифатини ривожлантирмасдан қисқа масофаларда ҳамда сакраш воситаларини қўллашда яхши натижаларга эришиб бўлмаслиги аниқланди;

2. Қисқа масофага югуриш ва югуриб келиб узунликка сакрашда ўқувчиларнинг жисмоний тайёргарликлари тезкорлик, куч, чакқонлик, эгилувчанлик ва чидамлилиқ сифатларини ривожлантириш ҳисобига ошириб борилди. Аммо умумжисмоний тайёргарлик ва махсус жисмоний тайёргарлик юкламаларини айнан ўқув-машғулот гуруҳларининг 1-ўқув йили давомида 60/40%, 2-йили 50/50% нисбатида юкламалар қўлланилиб борилса ўқувчиларнинг жисмоний ривожланиши ва жисмоний тайёргарлик даражалари ошиб борилиши кузатилди;

3. Умутаълим мактабларининг жисмоний тарбия дарсларида қисқа масофаларга югуришда пастги стартдан чиқиш, юқори старт, масофада югуриш, маррага етиб келиш фазаларини ўргатиб бориш мақсадга мувофиқ бўлди;

4. Тажрибадан кейин паст даражада ривожланган ўқувчиларнинг натижалари 20% ошди ва ўртача даражага эришди. Ўртача даражада ривожланган ўқувчиларнинг 35% ўз кўрсаткичи бўйича ўртачадан юқори даражага кўтарилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию физической культуры и массового спорта» № ПП-3031, 6 июня 2017 г., газета «Народное слово».- С.1-2.
2. Виленский М. Я. Физическая культура : учебник. — М. : КНОРУС, 2016. — 214 с.
3. Волков Л.В. Теория и методика детского и юношеского спорта. К.: Олимпийская литература, 2002. 296 с.
4. Лях В.И. Координационные способности школьников. Минск: Польша, 1989. 160 с.
5. Юнусова Ю.М. Теория и методика физической культуры. - Т.;, 2007. -312 с.

UDK 372.815.99

THE EMERGENCE AND FORMATION OF SCIENTIFIC SCHOOLS OF PSYCHOLOGY IN THE EARLY MIDDLE AGES

**ДАСТЛАБКИ ПСИХОЛОГИЯ ИЛМИЙ МАКТАБЛАРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ
ВОЗНИКНОВЕНИЕ И СТАНОВЛЕНИЕ НАУЧНЫХ ШКОЛ ПСИХОЛОГИИ В РАННЕМ И СРЕДНЕВЕКОВЬЕ**

Равшанов Собир Абдималик ўғли

Гулистон давлат университети, 120100. Сирдарё вилояти, Гулистон шаҳри, 4-мавзе

E-mail: sobirravshanov3@gmail.com

Abstract. The article discusses issues related to psychological research and development, the boskicks of the history of psychology as well as the development of Science in the Middle Ages, formation of scientific schools of psychology, psychology will be devoted to information about Central Asian thinkers who massively contributed to the development.

Keywords: history of Psychology, development of psychology, cub objective idealism, objective idealism, personality formation, thinking, Psychological Science

Аннотация. Данная статья посвящена сведениям о возникновении психологических теорий в древности, основах становления науки, истории психологии, а также развитию науки в средние века, формировании научных школ психологии. а также мыслителей Центральной Азии, внесших вклад в развитие области психологии.

Ключевые слова: История психологии, развитие психологии, субъективный идеализм, объективный идеализм, формирование личности, мышление, психологическая наука.

Кириш. Жаҳонда ижтимоий–гуманитар фанлар ривожини инсон тафаккури имкониятларини тобора намоён этиб бормоқда. Бир томондан инсоннинг интеллектуал салоҳияти билан техника тараққиётининг юқори даражаларга кўтарилиши бўлса, иккинчи томондан жамиятда инсон омилига кучли таъсир этмоқда. Мазкур жараённинг таркибий қисми сифатида психологик билим инсонда шахсга хос хусусиятларни шакллантиришда методологик функцияларни бажармоқда.

Тадқиқот объекти ва қўлланиладиган методлар

Бугунги кунда психология илмий мактабларини такомиллаштириш ва ривожлантириш масаласи долзарб бўлиб қолмоқда. Цивилизациянинг тақдири техника тараққиёти билан эмас, балки ундан инсон омили учун қандай мақсадларда фойдаланиш масалалари билан боғлиқ. Бунинг учун психологик илм ва тафаккур ўртасидаги узвийлик ва уйғунликни таъминлаш аҳамиятлидир. Шунга кўра, жаҳон тажрибаси психология илмий мактабларини ривожлантириш мақсадга мувофиқлигини кўрсатмоқда. Тадқиқот давомида мавзуга оид илмий-услубий манбалари ўрганилди, анкета-сўровномалари ўтказилди ҳамда педагогик кузатувлар ва олинган маълумотлар таҳлил қилинди.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

Антик мутафаккирлар томонидан тўпланган руҳ ҳақидаги таълимот кейинчалик фаннинг шаклланиши учун замин яратди. Инсонда жисмоний танадан ташқари ундан фарқланувчи яна нимадир борлиги ҳақидаги тасаввурлар қадимданок мавжуд бўлган. Энг қадимги даврлардаёқ инсон туш кўриш ҳодисаси орқали айрим одамларнинг ноёб қобилиятлари (масалан, овдаги муваффақиятлар) ўлим ва бошқа ҳодисаларнинг сабабларини тушунтиришга интилган. Аммо дастлабки қарашлар мифологик характерда эди. Улар фикрлаш орқали эмас, кўр-кўрона ишонч воситасида эгалланарди. Руҳ ҳақидаги қарашлар кўпинча нафас билан боғланарди, руҳни эса учар махлук сифатида тасаввур этардилар [1].

Психология ҳақидаги фикрлар қадим замонлардан бери мавжуддир. Илк даврларда психологик хусусиятларни жоннинг иши деб тушунтирилган. Жоннинг ўзи эса одам танасидаги махсус иккиламчи жисм деб қаралган. Бундай тасаввурлар «анимизм» деб аталади. Антик фалсафада идеалистик оқимнинг энг йирик намоёндалари Сукрот ва шогирди Платон ҳисобланади. Уларнинг асосий фикрлари идеалистик нуқтаи назардан шу билан асосланадики «жон, руҳ ва тана алоҳида-алоҳида субстанция ҳисобланади. Тана тирик ёки ўлик ҳолатда материадир, агар танага жон ёки руҳ қўшиладиган бўлса, у тирик материяга айланади ва руҳ пайдо бўлади. Агар танани жон ёки руҳ тарқ этган бўлса, тана субстанция сифатида мавжуд бўлади ва руҳ йўқолади. Жон ёки руҳ бир танадан иккинчи танага ўтиши мумкин. У илоҳий кучга бўйсунган бўлиб, у танадан бу танага ўтиш фақат Оллоҳгагина боғлиқдир деб ҳисоблайди». Уларнинг бу ғояси Платон томонидан ёзиб қолдирилган диалогларида ўз ифодасини топади. Идеалистик оқимнинг ўзи икки хил кўринишга эга бўлади: А) Субъектив идеализм; Б)Объектив идеализм [2].

Идеализм-онгнинг борлиққа муносабати масаласида материализмнинг қарама-қарши онг, руҳ-бирламчи моддий дунёдир. Борлиқ-иккиламчи, онг-сезги. Тасаввур ва тушунчаларнинг маҳсулидир, даъво қилувчи ғайри илмий фалсафий оқим.

Субъектив идеализм - фан ва ижтимоий амалиётнинг далилларига қарама-қарши ўлароқ моддий дунёнинг объектив равишда мавжудлигини инкор қилиб, реаллик деб фақат индивидуал онг, субъектив (ички) сезги образларини тан олувчи идеалистик оқимдир.

Субъектив идеализмнинг антик фалсафадаги энг йирик вакили Сукрот ҳисобланади. Унинг шогирди Платон, ўзининг дастлабки қарашларида субъектив идеализм ғояларини тарғиб қилган бўлса ҳам, кейинчалик ўзининг дунёқарashi билан объектив идеализм намоёндаларига айланади. Масалан: Платоннинг «Театет» асарига унинг объектив идеализм ҳақидаги фикрлари ўз ифодасини топади. Платон ўзининг дунёқарashi бўйича илоҳий субстанцияга содиқ бўлса ҳам, ўз қарашларида материя ҳақидаги ғояларни ҳам тарғиб қилади [2].

Жон ҳақидаги таълимот ўзининг ривожланиш тарихида тиббий соҳасидаги бу ютуқларига қарамасдан фалсафий нуқтаи назарга кўпроқ боғлиқ экан. Шунинг учун фалсафа соҳасидаги ғоялар психология тарихининг биринчи босқичида асосий ўринни эгаллайди. Психология тарихининг иккинчи босқичи V-VIII асрни ўз ичига олиб, бу даврда жон ҳақидаги таълимот, асосан, фалсафий нуқтаи назардан қаралган. Шунга қарама-қарши, бу даврда жон ҳақидаги таълимот бўйича турли механистик қарашлар вужудга кела бошлади. Бу даврда вужудга келган схоластика, Стойкларнинг дунёқарашлари ва жоннинг вужудга келиши оддий механизмларнинг иши деган тушунчани тушуниши дунёқарашлар вужудга келади ва буларнинг ҳаммаси психикани ўрганишда томиқ психологиянинг шаклланишидир [3].

Шундай экан, психологияни ўрганиш бизнинг эраизгача бўлган даврданок буюк мутафаккирлар ва файласуфлар жон ҳақидаги, руҳ, тана ҳақидаги таълимотларнинг, уларнинг вужудга келиши ва кейинчалик эса олимлар томонидан янада чуқурроқ ўрганилиб чиқилиб, психология фанига асос солинди. Шу билан бирга, бу

илмий ғоялар асрдан асрга қадар тўлдирилиб, бойитилиб, бизгача етиб келди. Умумий тарих доирасида ҳам Ўрта асрларда Шарқ узок вақт ғарбга нисбатан илгарилаб кетган. Хитой, Ҳинд, Араб, Эрон, Ўрта Осиё маданияти бу даврда ғарбга нисбатан эрта ривожланган.

Ўрта Осиёда илм-фан маърифатнинг ривожланиши, бу ҳудуддаги илмий дунёқарашлар билан белгиланади. Бизнинг давримизгача араб истилосигача бўлган даврдаги илм-фан ва маданият тараққиёти ҳақидаги маълумотлар сақланиб қолмаган. Чунки араб халифалигининг Ўрта Осиёга Ислом динининг ёйилиши ва бунинг оқибатида Ўрта Осиёда бу диний қарашларига қарама-қарши бўлган ёзма адабиётларнинг ҳаммаси мутлақо йўқ қилиб юборилган. Бундан ташқари Ўрта Осиёдаги ўзаро феодал урушлар ҳам илм-фан ва маданиятнинг тараққиётига салбий таъсир этган. XIII асрда Ўрта Осиёни мўғуллар босиб олади ва Ўрта асрларда яратилган фан ва маданият соҳасидаги илмий адабиётларнинг тўпланган қисми шу босқинчилар томонидан йўқ қилиб юборилади. Шунга қарамадан, Ўрта Осиёда илм-фан ва маданият юқори даражада ривожланган деб айта оламиз.

Ўрта асрларда Ўрта Осиёда қатор-қатор олимлар, мутафаккирлар яшаб ижод этган. Улар фақат динга тааллуқли фанлардангина ривожланиб қолмасдан, илм-фаннинг шундай соҳалари: риёзиёт, фалсафа, астрномия, тиббиёт, педагогика, анатомия, этика, эстетика, психология ва ҳоказо фанлар бўйича бутун жаҳон тан оладиган даражада илмий асарлар яратган. Бу асарларни фақат Ўрта Осиё китобхоналари ўқиб қолмасдан, балки бутун жаҳондаги тараққийпарвар мутафаккирлар ҳам ўқув рисолали сифатида фойдаланган, ана шундай олимлардан бири ал-Фаробийдир. Ал-Фаробий Аристотель ва Платоннинг ишларини Ўрта Осиёда кенг оммалаштирган, шунинг учун ғарбда иккинчи муаллим деган ном олган [4].

Фаробий ёзган асарларидан бизнинг эътиборимизни фалсафа, педагогика, психология, этика-эстетика бўйича асарлари қизиқтиради. Фаробийнинг фикрича, муҳит ва тарбиянинг таъсирида инсон шахсининг ахлоқий сифатлари шаклланади. Ахлоқ тушунчасини Фаробий инсон характери билан чамбарчас боғлиқ деб ҳисоблайди. Чунки характердаги ҳар бир ҳислатларни яхши томонга қаратиб ўзгартириш мумкин. Шунга асосан, инсон ахлоқини фақат яхши томонга қаратиб ўзгартириш мумкин. Унинг фикрича инсон шахсининг баркамол шаклланиши учун 4 та тўсиқ бор: 1. Ҳурматсизлик. 2. Ахлоқсизлик. 3. Ўзгарувчанлик. 4. Иккиланиш.

Бундан ташқари Фаробий тарбиянинг қаттиқ ва юмшоқлиги ҳақида ҳам ўз фикрларини баён қилади. Бу ўз навбатида тарбия психологиясининг асосий ғояси ва методларидан бири ҳисобланади. Унинг фикрича шогирдга таълим-тарбия беришда ҳаддан ташқари қаттиққўллик устозга нафрат ҳиссини уйғотади. Унинг руҳида ўз устозига нисбатан қарама-қаршиликни юзага келтиради. Тарбиядаги ҳаддан ташқари юмшоқлик эса, шогирдга устозга нисбатан менсимаслик ҳиссини юзага кетиради. У ўз устозини алдашга ва устидан кулишга ҳаракат қилади, деб тушунади. Фаробий психология соҳасида аниқ бир асарлар ёзмаган бўлса ҳам, у Афлотун (Аристотель) психологиясининг асосларини маҳаллий шароитда мослашган ҳолда талқин қилади ва бунинг оқибатида Ўрта Осиё фалсафий қарашларига хос бўлган психологик дунёқарашлар шаклланди.

Фаробийнинг илм-фан соҳасидаги қарашлари ўзидан кейин яшаб ўтган мутафаккирлар Беруний, Ибн Синога ўз таъсирини ўтказди ва ўз навбатида бу мутафаккирлар Фаробийни ўзларининг устози деб ҳисоблайди.

Абу Райхон Беруний (973-1048) ўзининг қатор фалсафий асарларида психологик ва педагогик қарашларини баён қилади. Булар инсон шахсининг шаклланиши, ахлоқий камолоти, ақл-идроки, тафаккури ҳақида фикрларидир. Берунийнинг “Қадимги авлодлар обидалари” асарида баъзи одамлар шахсининг шаклланишида уларнинг хулқ - аворида мавжуд бўлган зикналик, ёлғончилик, мунофиқлик, хушомадгуйлик, иккиюзламачилик каби иллатларнинг шахс тараққиётига салбий таъсири ҳақида тўхталиб ўтади. Бу иллатларга қарама-қарши оқил одамлар ҳақида ўз фикрини баён қилади. Берунийнинг фикрича, оқил одамларнинг тараққиёти ва унинг руҳиятининг ривожланиши ҳеч бир тўсиқларсиз ижобий ривожланишга эга бўлади деб тушунилади. Беруний психология соҳасида аниқ бир асар ёзмаган бўлса ҳам, Фаробий таълимоти таъсирида инсон шахсининг камолоти, унинг ақл-идроки, руҳий тараққиёти ҳақидаги ўзининг психологик ва педагогик қарашларини ҳамма асарларда тўлиқ баён қилади [5].

Беруний оламни объектив реаллик, инсон иродасидан ташқарида мустақил равишда мавжуд бўлган борлиқ сифатида қарайди. Беруний киши онги, тафаккури ва руҳиятини моддий жисмдан келтириб чиқарган ҳолда тасаввур этади.

Беруний Абу Али ибн Сино билан бўлган мунозараларида барча нарсаларнинг асосида 5 та элемент, яъни сув, олов, ҳаво, ер, бўшлиқ ётишини ҳамда дунёни билиш жараёнида билимларимизнинг манбаини сезги аъзоларимиз ва улар орқали қабул қилган ҳиссий билимимиз ташкил этади деб таъкидлаган. У “агар сезги аъзоларимиз бўлмаганда, олам тасаввурига эга бўлмасдик. Умуман инсон нарса ва жисмларнинг рангини билмаган бўлардик” - дейди. Бунда Беруний сезги органлар фаслиятига баҳо бериб материалистик позицияда турганлигини кўрамайди.

Хулоса. Психология фанининг ривожланиши узок ўтмишга эга бўлиб, асрлар давомида ривожланиб келмоқда. Бунда антик давр, Шарқ мутафаккирлари ва ҳозирги замон психологларини фикрлари алоҳида аҳамиятга эга. Ҳозирги кунда психология тарихи ўрганиш, психология фанининг илмий ва амалий аҳамияти, шахс

ва шахсга хос бўлган психик жараёнлар, хусусиятлар ва эмпирик йўналишдаги тадқиқотлар долзарб тадқиқотлардан ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Jo'rayev N.S., Saliyeva D.A., Sultonova N.A. Psixologiya tarixi. – T. Noshir nashriyoti. 2019. – 232 b.
2. Iskandarov B. "O'rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar" Toshkent. «O'zbekiston». -1993. 81—86-betlar.
3. Jdan G. "Istoriya psixologii" — Uchebnik. — M.: MGU, 1990.— 576 c.
4. Nishonova Z. T. "Psixologiya tarixi" T -2002. – 76 b.

Муаллиф:

Равшанов Собир Абдималик ўғли - Гулистон давлат университети таянч докторанти.

UDK 372.879.6

DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL ABILITIES IN BASKETBALL AMONG SCHOOLCHILDREN AGED 13-15 YEARS

13-15 YOSHDAGI O'QUVCHILARDA BASKETBOLDA INTELLEKTUAL QOBILILYATLARNI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ В БАСКЕТБОЛЕ У УЧАЩИХСЯ 13-15 ЛЕТ

Babayev Alisher Odilovich, Sultonov Rabimqul Urolovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: alisherbabayev99@gmail.com, Rabimqul59@gmail.com

Abstract. The paper was conducted in 3 phases from September 2022 to May 2023 at the base of BUSM 1 in the city of missed observation. Experimental work was done during the BUSM basketball team's training and competition process. The study involved 11 people aged 13-15 who were involved in 3-6 years old basketball and had 1-2 years old and 3 adult categories. To solve research problems, we have selected sufficient research methods: analysis of scientific, methodological and psychological and pedagogical literature, psychological testing (A.Bababyev's "cultural-independent test of intelligence"), on the basis of pedagogical experience ,pedagogical observation, pedagogical experiment, aptimal results of the volume and intentionality of running loads for third-year shugilaners are presented at the Sports School in Gulistan.

Key words: basketball, mind, intellectual ability, development, IQ.

Annotasiya. Maqolada, utkazilgan kuzatuv shahridagi 1-BUSM negizida 2022 yil sentyabrdan 2023 yil maygacha 3 bosqichda o'tkazildi. Eksperimental ishlar BUSM basketbol jamoasining mashg'ulot va raqobat jarayoni davrida amalga oshirildi. Tadqiqotda 13-15 yoshdagi 3-6 yoshli basketbol bilan shug'ullanadigan va 1-2 yoshlar va 3 kattalar toifasiga ega bo'lgan 11 kishi ishtirok etdi. Tadqiqot muammolarini hal qilish uchun biz etarli tadqiqot usullarini tanladik: ilmiy, uslubiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, psixologik test (A.Bababyevning " intellektning madaniy-mustaqil sinovi"), pedagogik tajriba ,pedagogik kuzatuv utkazilgan pedagogik eksperiment asosida Guliston shahridagi sport maktabida uchinchi yilgi shugilanuvchilar uchun yugurish yuklamalarining hajmi va intinsivligining aptimal rijimlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: basketbol, aql, intellektual qobiliyat, rivojlanish, IQ.

Kirish. Sport mashg'ulotlarining tuzilishi, jismoniy, texnik-taktik, psixologik tayyorgarlikdan tashqari, maxsus bilimlar tizimini shakllantirishga qaratilgan nazariy tarkibiy qismni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, u jismoniy tarbiya qonunlari va sportchilarni tayyorlash usullari to'g'risidagi bilimlar tizimini o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxsni uyg'un tarbiyalashning eng muhim usuli hisoblanadi [1].

Nazariy yoki intellektual tayyorgarlik sport faoliyati qonunlari va yuqori yutuqlarga erishish yo'li to'g'risida maxsus bilimlarning rolini ko'rsatishga qaratilgan deb ishoniladi; sport faoliyati jarayonida tananing ishlashi va rivojlanishi qonuniyatlari to'g'risida chuqur tushuncha berish; sportning mohiyati, tamoyillari, qoidalari va sport mashg'ulotlarining o'ziga xos usullari. Shuningdek, u sport va texnik fikrlash, sport texnikasini tahlil qilish, o'zini o'zi qadrlash bilan bog'liq intellektual qobiliyatlarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Sovet jismoniy tarbiya tizimida sportchilarni o'qitish jarayonida tayyorlashning etakchi tomonlari asosan jismoniy, sport — texnik, texnik va psixologik-pedagogik jihatlar bilan ifodalanadi [3; 4].

Ko'pgina mualliflar nazariy fikrlashning umumiy usulini o'zlashtirish uchun intellektual tayyorgarlikning ahamiyatini ta'kidlaydilar; intellektual tayyorgarlikka qo'yiladigan talablarni belgilovchi omillarni ko'rib chiqing: o'quv jarayonining ob'ektiv qonuniyatlarini bilish zarurati; sport kurashining oldindan o'ylangan taktikasi; biologik, sport, tibbiy va psixologik

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

xarakterdagi bilimlarni o'zlashtirish, kuzatish, o'lchash, nazorat qilish, tekshirish, mashg'ulotlarni baholash usullari va ularning sport mahoratining o'sishi uchun shart-sharoitlar; sport mashg'ulotlarining ajralmas qismi sifatida musobaqa qoidalarini bilish va talqin qilish [1; 3; 4]. Muallifs intellektual tayyorgarlikning etakchi tarkibiy qismlari: idrok, xotira, intellektual fazilatlarini rivojlantirishning mantiqiy shakllari va usullari. Bir qator mualliflar intellektual qobiliyatlarning sport va o'quv jismoniy tarbiya faoliyati samaradorligiga ta'sirini ko'rsatadilar [6; 7; 8; 9]. Shunday qilib, raqobatbardosh faoliyatda ko'proq muvaffaqiyatli bo'lgan mini-futbolchi talabalar Kettel tasnifiga ko'ra (aql) shaxsiyat omilining yuqori ko'rsatkichlariga ega edilar [6].

Biroq, amaliyot murabbiylari bolalarni o'qitishning o'quv bosqichida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish bilan shug'ullanmaydilar, texnik va jismoniy tayyorgarlikka ko'proq vaqt ajratadilar. Shu munosabat bilan, bizning fikrimizcha, bolalarning sport faoliyatini yanada takomillashtirish imkoniyatlari cheklangan, chunki o'yin intellekti raqobatbardosh faoliyat va sport mashg'ulotlari samaradorligiga sezilarli ta'sir qiladi.

Shunday qilib, biz 13-15yoshli o'quvchilarda basketbolda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali vositalarini izlash, shuningdek ularning samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'lgan tadqiqotimiz muammosini aniqladik.

Tadqiqotimizning maqsadi: basketbol bo'limida tahsil olayotgan 13-15 yoshli o'quvchilarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish kompleksini ishlab chiqish va eksperimental asoslash, intellektual qobiliyatlarning SD samaradorligiga ta'sirini aniqlash.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar

Tadqiqot ob'ekti 13-15 yoshdagi yosh basketbolchilarning o'quv va raqobatbardosh faoliyati. Basketbol yordamida 13-15 yoshdagi yosh basketbolchilarning intellektual tayyorgarligini takomillashtirish. Biz basketbol bo'limida o'qiyotgan 13-15 yoshli o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni samarali bo'ladi va agar samaradorligini oshirishga olib keladi deb taxmin qilamiz: sportda bolalarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari o'rganiladi; 13-15 yoshdagi bolalarning aql-idrokini rivojlantirish ko'rsatkichlari o'rganildi; basketbol asosida 13-15 yoshli bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositalari ishlab chiqildi va joriy etildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot shahridagi 1-BUSM negizida 2022 yil sentyabrdan 2023 yil maygacha 3 bosqichda o'tkazildi. Eksperimental ishlar BUSM basketbol jamoasining mashg'ulot va raqobat jarayoni davrida amalga oshirildi. Tadqiqotda 13-15 yoshdagi 3-6 yoshli basketbol bilan shug'ullanadigan va 1-2 yoshlar va 3 kattalar toifasiga ega bo'lgan 11 kishi ishtirok etdi. Tadqiqot muammolarini hal qilish uchun biz etarli tadqiqot usullarini tanladik: ilmiy, uslubiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, psixologik test (A.Bababyevning "intellektning madaniy-mustaqil sinovi"), pedagogik tajriba, pedagogik kuzatuv.

Basketbol yordamida 13-15 yoshli bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida eksperimentning birinchi bosqichida biz Kettelning "iq intellektning madaniy-mustaqil sinovi" metodologiyasi yordamida ularning rivojlanish darajasini tahlil qildik (1-jadval).

1-jadval

Tajribadan oldin intellektual qobiliyatlarning rivojlanish darajasi (IQ) ko'rsatkichlari.

| № | I.SH o'yinchi | O'yin roli | To'g'ri javoblar soni (jami) | Standart baholash (IQ) |
|--|---------------|------------|------------------------------|------------------------|
| 1 | A.O | 1-2 | 42 | 76 |
| 2 | I.O | 2-3 | 39 | 73 |
| 3 | D.A | 4-5 | 30 | 64 |
| 4 | S.B | 1-2 | 40 | 74 |
| 5 | D.D | 2-3 | 37 | 71 |
| 6 | K.F | 1 | 35 | 69 |
| 7 | S.S | 2-3 | 38 | 72 |
| 8 | A.A | 5 | 29 | 63 |
| 9 | D.F | 2-3 | 37 | 71 |
| 10 | B.J | 2-3 | 36 | 70 |
| 11 | R.Y | 3-4 | 28 | 62 |
| O'rtacha ko'rsatkich, $\bar{X} \pm \sigma$ | | | 35,6-+4,4 | 69,5-+4,4 |
| 1-himoyachi, 2-hujumchi himoyachi, 3 – engil hujumchi, 4 – og'ir hujumchi, 5-markaz. | | | | |

Ushbu test uchun maksimal IQ qiymati 148 ga teng bo'lishi mumkin. 100 balldan yuqori IQ ko'rsatkichlari iqtidorli shaxslar va daholarga xosdir. Shuning uchun yosh basketbolchilar guruhi bo'yicha olingan o'rtacha qiymatlar

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

(69,5 ball) ushbu yoshdagi bolalar uchun standart qiymatlardan tashqariga chiqmaydi. Iq intellektual rivojlanishining eng yuqori ko'rsatkichlari (7376 dan) orqa chiziq o'yinchilari (Amplua 1,2,3) tomonidan ko'rsatilgan. Ko'rsatkichlarni me'yoriy va yosh talablari bilan taqqoslab, basketbolchi talabalarning intellektual qobiliyatining rivojlanish darajasi o'rtacha ko'rsatkichdan past ekanligini ta'kidlash mumkin. O'yin roliga qarab IQ ko'rsatkichlarida farqlar topilmadi.

Eksperimentning keyingi bosqichida biz yosh basketbolchilarning SD ko'rsatkichlarini tahlil qildik (2-jadval) va ushbu ko'rsatkichlarning bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligi (3-jadval).

2-jadval

Eksperimentdan oldin basketbolchilarni himoya qilish uchun IV hujumining individual harakatlarining natijalari.

| № | Ф И игрока | Игровое амплуа, номер | Подборы, кол-во | Передачи, кол-во | Перехваты, кол-во | Фолы игрока, кол-во | Фолы на игроке, кол-во | Попадание бросков, % | | |
|------------------------------|------------|-----------------------|-----------------|------------------|-------------------|---------------------|------------------------|----------------------|-------------|-------------|
| | | | | | | | | штрафные | 2-х очковые | 3-х очковые |
| 1 | A.O | 1-2 | 1,3 | 2,6 | 1,8 | 2 | 5 | 71 | 58,6 | 39 |
| 2 | I.O | 2-3 | 2,2 | 2,2 | 1,2 | 3,2 | 3,4 | 56 | 54,4 | 38 |
| 3 | D.A | 4-5 | 5,2 | 0,2 | 0,1 | 3,4 | 2,2 | 32 | 28,8 | - |
| 4 | S.B | 1-2 | 1,4 | 2,4 | 1,4 | 4 | 4,6 | 66 | 51,1 | 34 |
| 5 | D.D | 2-3 | 2,0 | 1,6 | 0,8 | 2,1 | 1,8 | 68 | 48,1 | 36 |
| 6 | K.F | 1 | 0,8 | 1,4 | 0,6 | 0,8 | 0,6 | 52 | 44,0 | 31 |
| 7 | S.S | 2-3 | 0,7 | 0,4 | 0,1 | 0,6 | 0,4 | - | 20,6 | 25 |
| 8 | A.A | 5 | 4,4 | 0,4 | 0,1 | 2,6 | 0,2 | 40 | 36,7 | - |
| 9 | D.F | 2-3 | 1,0 | 0,5 | | - | - | - | 22,4 | - |
| 10 | B.J | 2-3 | 1,1 | 0,2 | | 0,2 | - | - | 25 | - |
| 11 | R.Y | 3-4 | 1,0 | 0,6 | | - | - | - | 33,3 | - |
| O'rtacha 'rsatkichlar,, '+o' | | | 1,9-+1,4 | 1,2-+0,6 | 0,6-+0,5 | 1,7-+1,0 | 1,7-+1,5 | 55-+12,3 | 38,5-11,0 | 33,8-+4,4 |

Ushbu ko'rsatkichlarning tahlili ma'lum yoshdagi o'yinchilar uchun standart qiymatlarni ko'rsatadi. Muhim farqlovchi xususiyat-bu o'rta zarbalardagi ko'rsatkichdan biroz pastroq bo'lgan uzoq zarbalarning yuqori foizi. Ushbu yosh uchun natija juda yuqori.

Aql ko'rsatkichlari va o'yin ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabatni aniqlash uchun biz miqdoriy o'lchovlar uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsientini hisoblashdan foydalandik.

3-jadval

Basketbolchilarning intellektual xususiyatlari va ularning raqobatbardosh faoliyati samaradorligining o'zaro bog'liqligini korrelyatsion tahlil natijalar.

| 1 | kursatkich | Koeffitsient, n | Ishonchlik,k |
|---|-----------------------------------|-----------------|--------------|
| 1 | Tanlovlar | 0.54 | k>0.05 |
| 2 | O'tkazmalar | 0.70 | k>0.05 |
| 3 | To'siqlar | 0.72 | k>0.05 |
| 4 | O'yinchi qoidabuzarliklari | 0.15 | k>0.05 |
| 5 | O'yinchiga qoidabuzarlik | 0.61 | k>0.05 |
| 6 | % erkin zarbalar savatga tushishi | 0.41 | k>0.05 |
| 7 | 2 ochkoli zarbalar tushishi | 0.45 | k>0.05 |
| 8 | 3 ochkoli zarbalar tushishi | 0.19 | k>0.05 |

Tahlil 13-15 yoshdagi o'yinchilarning aql-zakovati ko'rsatkichlari va uzatish, ushlab turish ko'rsatkichlari o'rtasida ishonchli kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjudligini va har bir o'yinchidagi qoidabuzarlik ko'rsatkichi bilan ishonchli o'rtacha ijobiy munosabatlar mavjudligini ko'rsatadi ($p < 0.05$ da). Bizning fikrimizcha, bu juda tushunarli, chunki aynan shu o'yin ko'rsatkichlari fikrlashning tezligi va mavhumligini, yuzaga keladigan o'yin holatini oldindan bilish va taxmin qilishni tavsiflaydi.

Eksperimentning keyingi bosqichida adabiyot tahlili [2; 5; 10] va o'z tajribamiz asosida biz basketbolchilarning o'quv jarayoniga kiritilgan 13-15 yoshli o'quvchilarda basketbol yordamida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mashqlar to'plamini ishlab chiqdik. Kompleks 10 ta mashqdan iborat bo'lib, ular haftasiga 3 marta 4-5 ta mashqdan darsda qo'llanilgan. Bular asosan individual va guruh xarakteridagi murakkab texnik-taktik mashqlar bo'lib, yuqori tezlikda o'zaro ta'sirlar, shu jumladan tezkor yutuqlarda bajariladigan texnik-taktik mashqlar edi. Kompleks 4 oy davomida ishlatilgan, shundan so'ng biz Kettelning xuddi shu usuli bo'yicha intellektual xususiyatlarni sinab ko'rdik. Matematik va statistik

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

usullar yordamida biz eksperimental metodologiyani amalga oshirishdan oldin va keyin razvedka ko'rsatkichlarini taqqosladik (4-jadval):

4-jadval

Intellektual qobiliyatlarning rivojlanish darajasini (IQ) va undan oldin taqqoslash tajribadan keyin.

| № | I.SH. o'yinchi | O'yin roli | Standart baholash (IQ) | | Sd | t | p |
|-------------------------------|----------------|------------|------------------------|----------|--------|--------|-------|
| | | | oldin | kegin | | | |
| 1 | A.O | 1-2 | 76 | 82 | | | |
| 2 | I.O | 2-3 | 73 | 79 | | | |
| 3 | D.A | 4-5 | 64 | 64 | | | |
| 4 | S.B | 1-2 | 74 | 78 | | | |
| 5 | D.D | 2-3 | 71 | 72 | | | |
| 6 | K.F | 1 | 69 | 73 | | | |
| 7 | S.S | 2-3 | 72 | 73 | | | |
| 8 | A.A | 5 | 63 | 64 | | | |
| 9 | D.F | 2-3 | 71 | 72 | | | |
| 10 | B.J | 2-3 | 70 | 75 | | | |
| 11 | R.Y | 3-4 | 62 | 63 | | | |
| O'rtacha o'rsatkichlar, '+-o' | | | 69,5±4,4 | 72,3±5,0 | 2,2843 | 3,9597 | <0,01 |

Xulosa. Biz o'tkazgan tajriba natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin: 1. Basketbolchilarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganib chiqib, tahlil qilib, intellektual tayyorgarlik sport faoliyati qonunlari va yuqori yutuqlarga erishish yo'llari to'g'risida maxsus bilimlarning rolini ko'rsatishga mo'ljallanganligini aniqladik. Biroq, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish zamonaviy metodik adabiyotlarda bolalar jamoalari basketbolchilari uchun moslashtirilgan intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eksperimental asoslangan mashqlar majmualari etarli emasligini aniqladi. Shu munosabat bilan basketbolchi talabalarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning yangi vositalarini izlash zarur. 2. Korrelyatsion tahlil 13-15 yoshdagi o'yinchilarning aql-idrok ko'rsatkichlari va ba'zi o'yin ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladi. Shunday qilib, uzatishda, o'yinchilarni ushlab turishda ($p < 0,05$ da) aql va ko'rsatkichlar o'rtasida kuchli ijobiy ishonchli korrelyatsiya aloqasi va o'yinchidagi aql va qoidabuzarliklar o'rtasidagi o'rtacha ijobiy ishonchli korrelyatsiya aloqasi mavjudligi aniqlandi ($p < 0,05$ da). 3. Biz 13-15 yoshli o'quvchilarda basketbol orqali intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun o'quv jarayoniga mashqlar to'plamini ishlab chiqdik va joriy qildik. Kompleks 10 ta mashqdan iborat bo'lib, u haftasiga 3 marta, darsda 4-5 ta mashqdan qo'llaniladi. Ishlab chiqilgan mashqlar to'plami 4 oy davomida yillik mashg'ulot tsiklining tayyorgarlik va raqobat davrlarida amalga oshirildi. 4. 13-15 yoshdagi yosh basketbolchilarning intellektual xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ishlab chiqilgan kompleks ushbu xususiyatlarning statistik jihatdan sezilarli o'sishiga olib keldi, bu IQ ko'rsatkichlarini qayta sinovdan o'tkazish natijalari bilan tasdiqlanadi. Shunday qilib, buyruq bo'yicha IQ o'rtacha ko'rsatkichining o'sishi 2,8 ballni tashkil etdi, $p < 0,01$ ahamiyatlilik darajasida. Shu sababli, biz ishlab chiqqan mashqlar to'plami yosh sportchilarning intellektual xususiyatlarini rivojlantirishda samarali ekanligi va 13-15 yoshdagi basketbolchilarni o'qitish va tayyorlashda foydalanish uchun tavsiya etilishi mumkinligi haqida bahslashish mumkin. Tadqiqot gipotezasi to'liq tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Gogunov E. N. Jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi. Darslik.M.: Akademiya, 2000 Yil. - 288 S.
- Kuzin V. V. Basketbol: o'qitishning dastlabki bosqichi. M.: Jismoniy tarbiya va sport, 2002. - 136 P.
- Kuzmenko G. A. Yosh sportchilarni intellektual tarbiyalash ularning raqobatbardoshligini oshirish manbai sifatida Sportchilarning raqobatbardoshligi manbalari: amalga oshirish nazariyasi va amaliyoti. — 2015. — 1 3. 144-147 betlar.
- Nazarenko L. D. Sportchilarni intellektual tayyorlash muammosi // Jismoniy tarbiya va sportning pedagogik-psixologik va tibbiy-biologik muammolari. — 2012. — 1 1 (22). 86-92 betlar.
- Nesterovskiy D. I. Basketbol. O'qitish nazariyasi va metodikasi: Darslik. M.: Akademiya, 2004 Yil. - 336 S.
- Polivayev A. G. Mini — futbolchi talabalar shaxsiyatining individual psixologik xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi // Sport psixologi. — 2012. — 1 1. 51-55 betlar.
- Polivayev A. G. Jismoniy tarbiya fakultetlari talabalar shaxsiyatining individual psixologik xususiyatlarining ularning kasbiy tayyorgarligi samaradorligiga ta'siri // Sport psixologi. — 2011. — 1 1. 85-89 betlar.
- Polivayev A. G. Jismoniy tarbiya fakulteti talabalarining kasbiy va pedagogik ko'nikmalari va vakolatlarini shakllantirishda individual yo'naltirilgan yondashuv // to'plam: XXIII Ershov o'qishlari universitetlararo ilmiy maqolalar to'plami. javobtahririda L. V. Vedernikov. Ishim, 2013 yil. 46-47 betlar.

9. Polivayev A. G. Jismoniy tarbiya bo'yicha zamonaviy o'qituvchini tayyorlashni takomillashtirish jarayonida psixologik va pedagogik jihat // Yosh olim. — 2014. — ¹ 18. 627-629-betlar.

10. Yaxontov E. R. Basketbol. Moskva: Jismoniy tarbiya va sport, 1978. — 158 s.

Mualliflar:

Babayev Alisher Odilovich - Guliston davlat universiteti o'qituvchisi.

Sultonov Rabimqul Urolovich - Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi.

UDK 372.815.99

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF INTELLECT RELATED TO SCIENTIFIC RESEARCH IN FUTURE TEACHERS

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA ILMYI TADQIQOTCHILIKKA OID INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТА, СВЯЗАННОГО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Raximov Baxtiyor Xudoyberdiyevich

O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Nukus filiali mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: raximovbaxtiyor2024@gmail.com

Abstract. The article examines the psychological foundations of improving the research intelligence of future teachers in the educational process, and also highlights the content of modern forms, methods and means of determining their intellectual qualities for the development of research intelligence of their students in higher education institutions.

Key words: intelligence, ability, aspiring, creative, development, communication process, understanding, social ability, biological intelligence, psychometric intelligence, social intelligence, types of intelligence, need.

Аннотация. В статье рассматриваются психологические основы повышения исследовательского интеллекта будущих учителей в образовательном процессе, а также освещается содержание современных форм, методов и средств определения их интеллектуальных качеств для развития исследовательского интеллекта их студентов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: интеллект, способности, стремящийся, творческий, развитие, коммуникативный процесс, понимание, социальные способности, биологический интеллект, психометрический интеллект, социальный интеллект, виды интеллекта, потребность.

KIRISH. Respublikamizda milliy ta'limni isloh qilishda, milliy va umuminsoniy qadriyat, xalqimizning boy intellektual merosiga asoslangan milliy mustaqillik prinsiplari asosida ta'limning barcha bosqichlarida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoat tashkilotlari, mahallalar, mahalliy va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish ishlari mazmuni yanada takomillashtirilmogda.[1]

Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual rivojlantirish masalasi kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida psixolog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan, barkamol insonning bo'lajak o'qituvchilarning intellektual tarbiyasida ilm-fanning o'rni haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. G.Yu.Ayzenk, L.S. Vigotskiy, M.G.Davletshin, D. Dyui, V.M.Karimova, A.N.Markova, V.S.Merlin, L.M.Mitina, R.S.Nemov, A.Palmar, V.V.Posp'yev, E.G'oziyev, A.A.Rean, I.E.Rogov, S.L.Rubinshteyn, Fridman kabi olimlarning tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarning intellektual rivojlanishini tashkil etishning ijtimoiy-psixologik mohiyati asoslab berilgan. [2,3,4,5]

Mazkur ilmiy muammo G'arb psixologiyasida ayrim olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan, biroq, O'zbekiston uchun uning zaruriy, nozik jabhasi ob'ekt sifatida kam tadqiq etilgan. J.Piaje, V.Shtern va boshqalar intellekt hayotning turli sharoitlariga biopsixologik moslashishdir, deb qaraydilar. J.Piaje tadqiqotlarida intellektning rivojlanish dinamikasi, uning psixologik asoslari yaqqol namoyon bo'ladi. Rus psixologiyasida intellektning yaxlitligi va uning shaxs bilan bog'liqligi tomonidan yondashiladi. Xususan, rus psixologlaridan L.S.Vigotskiy, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin va ularning shogirdlari turli yoshdagi odamlar intellektini diagnostika qilish, rivojlanish dinamikasi va psixologik jihatlarini o'rganishga xarakat qilganlar. O'zbekiston Respublikasida intellekt yosh davrlarining o'ziga xos jihatlari borasida M.Davletshin, E.G'oziyev va boshqalar olib borgan ilmiy-psixologik ishlarda ko'zga tashlanadi, ammo talaba intellektining diagnostikasi, uni rivojlanish xususiyatlari o'ziga xosligi juda kam o'rganilgan. Bo'lajak o'qituvchilar intellekti darajasini diagnostika qilish bo'lajak o'qituvchilarda keng ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning shart-sharoitlari, omillarini aniqlashga imkon beradi. [8,9,10,11,12,13,14.]

Hozirgi vaqtda tafakkur psixologiyasida tafakkur muammasiga keng ijtimoiy mazmun qoʻshilgan tadqiqotlar yoʻnalishi shaqllanmokda. «Intellekt» va «tafakkur» atamaları oʻquvchilarning boʻlajak oʻqituvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari doirasida qoʻllaniladi. [15,16.]

Tafakkur psixologiyasi avval Vyursburg maktabi vakillari (O. Kyulpe, K.Marbe, O. Zels) asarlarida mustaqil tadqiqot mavzusi sifatida aniqlandi va keyinchalik Geshtalt maktabida (V.Keller, M. Vertgaymer, K. Dunker), psixoanaliz vakillari (Z. Freyd, A.Freyd) davom ettirdi. Ammo bu tadqiqotchilar insonning yoshi va kasbiy yoʻnalishiga qaramasdan, tafakkurni umumiy nuqtai nazardan urgandilar. [8,9]

S.L.Rubinshteyn tafakkur psixologik jixatdan oʻrganishning asosiy predmeti jarayon, faoliyat tariqasida namoyon boʻlishidir. U tafakkurni subʼekt faolligining paydo boʻlishi deb atadi. Uning raxbarligi ostida ushbu izlanishlarni L.I.Ansuferova, A.B. Brushlinskiy, A.M.Matyushkin, K.A.Abulxanova-Slavskaya, keyinchalik ularni M.I.Volovikova, V.A.Polikarpov, V.V.Davidov, O.K.Tixomirov, G.P.Shedrovitskiy, V.V.Biblyar, Ya.A.Ponomarev va boshkalar davom ettirishdi. [8,9,10,11,12,14.]

Oʻzbekistonlik olimlardan, ushbu mavzu doirasida psixologlardan E.Gʻoziyev, R.Sunnatova, Z.Nishonova, Sh.Doʻstmuxammedova va boshqa olimlar oʻrgandilar.[15,16.]

Tadqiqot obʼekti va qoʻllanilgan metodlar

Tadqiqotning obʼekti sifatida oliy taʼlim muassasalari talabalarida tadqiqotchilikka oid intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari uchun xizmat qiluvchi texnologiyalardan foydalanish jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, jamoaviy va yakka tartibdagi suhbatlar, soʻrovlar (ogʻzaki) oʻtkazish usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Talabalik davri bu shaxsiy va kasbiy oʻz yoʻlini tanlash yuz beradigan davr boʻlib, bu davrda qadriyatli maqsadlarni tanlash va kelgusidagi hayot uchun oʻta muhim boʻlgan qarorlarni qabul qilish yuz beradi. Jamiyatda yuz berayotgan isloxotlar turli koʻrinishdagi xayotiy muammolarning hal qilish jarayoniga yanada faolroq qoʻshilayotgan boʻlajak oʻqituvchilarning yetuk inson boʻlish jarayonini tezlashtirib yuboradi.

D.B.Elkonin talabalik davrida yetakchi faoliyat oʻqish va kasb tanlash hisoblanadi degan fikrlarni bildirdi. Ilk talabalik davri «kamolot busagʻasi» deb taʼriflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni oʻz ichiga oladi. Boʻlajak oʻqituvchilarning jamiyatda tutgan oʻrni, ularning mavqei, ular egallaydigan bilimlarning xajmi va bir qator boshqa faktorlar ijtimoiy sharoitlarga bogʻlikdir. Talabalik davri, asosan, unda mustaqil hayotning boshlanishi yaʼni, oʻrta maktabni tamomlab, oliy taʼlim muassasasida oʻqishni davom ettirish bilan xarakterlanadi. Hayotdagi bu oʻzgarishlar ilk talabalik shaxsiga, uni oʻzini anglashiga taʼsir koʻrsatadi. Bu davrda ular ishtirok etadilar. Uning mustaqilligi ortishi bilan bir qatorda kattalarning unga munosabatlari xam oʻzgaradi ularga katta odamdek munosabatda boʻladilar. U oʻz xayotiy rejalarini amalga oshirish uchun xarakat qila boshlaydi va maʼlum bir kasbni egallay boshlaydi. [14].

Boʻlajak oʻqituvchilar tanlagan sohaları yoki kasblarida juda katta yangiliklar, kashfiyotlar qilgilari keladi, lekin asta-sekinlik bilan yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajriba yetishmayotganligini, buning uchun koʻproq oʻqish va oʻrganishlari keraqligini anglay boshlaydilar. Mustaqil hayotga tayyorgarligini oʻz-oʻzini anglashi bilan motivlar bu davrda yetakchi oʻrinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning toʻlaqonli aʼzosi boʻlishga intilish, insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik kiladi. Bu davrda boʻlajak oʻqituvchilarning kelgusi hayotiy va tanlayotgan kasbiy rejalariga koʻra fanlarga nisbatan kizikishlari oʻzgaradi,

Talabalik davrida u juda koʻp ilmiy tushunchalarni oʻzlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni yengishda foydalana oladilar. Ularda anglash va oʻzini oʻzi anglash sezilarli darajada oʻsadi. Talabani oʻz-oʻzini anglashi oʻquv, mehnat va muloqot motivatsiyalarini oʻzgarishida oʻz aksini topadi. Talabalik davriga kelib, juda koʻp bolalarda oʻz faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan buladi. Shuningdek, oʻz-oʻzini boshqarish ham talabalik yoshidagi bolalarda yakkol koʻzga tashlanadi.

Talabalik davrida bilishga oid qiziqish koʻlami tobora oshib boradi. Mazkur davrda boʻlajak oʻqituvchilarning tafakkuri faol, mustaqil va ijodiy xususiyat kasb eta boshlaydi. Tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda oʻquvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi. Talaba turli janrdagi adabiy asarlarni oʻqishi, tushunishi orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishishga oʻrganib boradi. Talabalik tafakkurining sifatiga uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi kabilar kiradi. Boʻlajak oʻqituvchilarning intellektual jihatdan rivojlanishida nazariy tafakkurning roli kattadir. Demak, oʻquv maskanida oʻtiladigan, darslar, laboratoriya ishlari, amaliy mashgʻulotlar, referat, konspekt yozish kabi faoliyat turlari boʻlajak oʻqituvchilar oʻzlashtirish uchun zarur materiallarni mustakil holda tushunishga olib keladi. [2,3,4.]

Boʻlajak oʻqituvchilarning intellektual rivojlanishda tasavvurning ahamiyati juda katta, chunki inson biron bir ishni qilishga kirishar ekan, albatta uning natijasini tasavvur eta olishi kerak. Tasavvursiz hech qanday ishni toʻgʻri rejalashtirish mumkin emas. Hozirgi yigit va qizlarni 30-40 yil avvalgi tengqurlari bilan solishtirganda, ularning umumiy saviyalari naqadar oʻsganligini koʻrish mumkin. Boʻlajak oʻqituvchilarning intellektual qizikishlar doirasi keng va koʻp qirralidir. Boʻlajak oʻqituvchilar hayotida radio, televideniya, internet olami va ilmiy- ommabop asarlar, kinofilmlar, fan va texnika

taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlar muhim rol o'ynamoqda. Talabalik yoshiga kelib, yigit va qizlarning dunyoqarashlari yuksak pog'onaga ko'tarila boshlaydi. Bu esa talabani tashqi olamni tushunishiga, baholashiga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. Intellekti yaxshi rivojlangan bo'lajak o'qituvchilar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushuna oladilar va ularni muhokama eta oladilar.

Xayotiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish, o'zining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida yuksak natijalarga erishish insonning voqelikni munosib tarzda anglay olishi hamda o'zining faollik darajasi, voqelikda to'g'ri yo'l topa olish salohiyati, barcha asosiy aloqalarni qayd eta olishi xamda tabiiy va ijtimoiy voqelikda yuz berayotgan o'zgarishlarni anglay olishiga bog'liqdir. Bunday salohiyatni rivojlanishi maxsuldor ishlaydigan aqlga tayanadi deb ta'kidlagan edi A.A.Bodalev.

Aqlning rivojlanishi xamda amal qilishining eng jiddiy tomoni maqsadni shakllantirish va bashorat qilish jarayonlaridir. Ushbu jarayonlar ijtimoiy taraqqiyotning aynan o'tish davrlarida aloxida ahamiyat kasb etadi. Kishilardagi hayotiy va kasbiy maqsadlarni shakllantirish mavxum tusga ega emas. A.A.Bodalevning fikriga ko'ra, bular ko'proq inson uchun shaxsiy ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan jamoadagi o'ziga xosliklarga bog'liq holda ko'proq aniqlanadi xamda bunday jamoa sifatida inson mansub bo'lgan kichik guruhgina emas, balki u mansub bo'lgan mamlakat xamda bu mamlakatdagi xayotning barcha soxalari - siyosat, iqtisodiyot, texnika, fan, ta'lim va boshqalar yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. Xozirgi vaqtda ushbu barcha sohalarda muayyan insonning ijtimoiy muammolarini hal qilishga mo'ljallangan ilmiy tafakkurini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyliigi, mustaqilligi, ijodiyliigi, ilmiyligi, asosiligi, uzviyligi, tejamliigi, maqsadliliigi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyliigi, umumlashtirilganliigi, xususiyashtirilganliigi, kengliigi, chuqurliigi, ishonarliliigi, realligi, haqqoniyliigi darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga bo'lajak o'qituvchilarning intellektual sifatlar xotira, tasavvur, anglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezligi hamda boshka parametrlari bilan bog'liq. Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual taraqqiyot darajasi bo'lajak o'qituvchilarda qancha yuqori bo'lsa, shunchalik yaxshi natijalarga erishish imkoniyati bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda muammoni sezish, uni aniqlash, yechimiga doir taxmini to'g'ri belgilash va yechimining to'g'riligini tekshirish qobiliyatlarini rivojlanib boradi. Muammoni xal etishni uch bosqichga ajratish mumkin: 1. Tekshirish, ya'ni materialni ishonchliligini dalillar bilan asoslash. 2. Tushuntirish, ya'ni bu muammoning yechimi nima uchun to'g'riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda bo'lajak o'qituvchilarning dunyoqarashini bugungi kun talablari asosida rivojlantirish keng jamoatchilik oldidagi muhim masaladir. Buni esa bir qancha omillar orqali amalga oshirish mumkin. Bo'lajak o'qituvchilar ilmiy tafakkurlarini rivojlantirishda eng muhim muammolarni bartaraf etish orqali natijalarga erishish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini bo'lajak o'qituvchilarning intellektual taraqqiyoti mezoni sifatida qaralmog'i kerak. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarning intellektual kobiliyatini rivojlantirish kerak. Inson tashqaridan oladigan xabarni tubdan o'zgartirish malakasini taraqqiy ettirish, ijodiy masalalarni yechish, qarama qarshiliklarni qidirib topish, muammoli vazifalarni yechish va modelini topish, o'xshashlik va farqlarni izlab topish va boshqa yo'llar bilan bo'lajak o'qituvchilarning intellektual qobiliyatni rivojlantirish zarur.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilar tanlagan kasbining ustasi bo'lishi uchun ularga yaxshi bilim va ko'nikmalar muhim ekanliigi deb hisoblaydilar.

Yangicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda rivojlanish bosqichidagi bo'lajak o'qituvchilar ilmiy tafakkuridagi o'ziga xos xususiyatlar motivatsiya sohasida, vazifalarni mulohazadan o'tkazish va hamda qo'yish, ijtimoiy muammolarni ko'rish sohasi shakllanadi. Zamonaviy jamiyatdagi bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy tafakkuridagi o'ziga xosliklarni o'rganish sohasi shakllanadi. samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi bashorat qilishning hamda tanlash, baholash va qarorlar qabul qilish mexanizmlarining yangi shakllarini yaratishni talab qiluvchi ko'plab hayotiy muammolar paydo bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilar tafakkuridagi o'ziga xosliklarini, hayotiy vazifalarni hal qilish, hayot yo'lini bashoratlash, ular tomonidan jamiyatdagi o'z o'rnini tanlash bosqichlaridagi tafakkurning o'ziga xosliklarini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotning munosib usullari majmui tanlab olinadi. Yuqori sinf o'quvchilarining ilmiy tafakkuri mazmunida hayotiy va tajribadan olingan tasavvurlar ustunroq ekanliigi ma'lum bo'ladi. Litsey, kasb-hunar kollej va umumta'lim maktablaridagi o'quvchilarning ilmiy tafakkuri tuzilmasi va mazmunini xususiyatlovchi asosiy ko'rsatkichlardagi aniqlangan farqlar ijtimoiy sharoitlarning salbiy ta'sirini yangicha o'qitish sharoitlaridagi bo'lajak o'qituvchilar ilmiy tafakkuriga maqsadga yo'naltirilgan ta'sir o'tkazish yordamida bartaraf etilishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Bo'lajak o'qituvchilar ilmiy tafakkurini psixologik o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib quyidagi amaliy takliflar berishimiz mumkin: bo'lajak o'qituvchilarni o'qish va jamoatchilik ishlarida ijobiy yutuqlarga erishganlarni pedagoglar tomonidan ko'proq rag'batlantirib borish, bo'lajak o'qituvchilarni to'g'ri kasb va hunar tanlashlarida ilmiy manbalarni tahlil qilishni tushuntirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbga bo'lgan qiziqish va qobiliyatlarini aniqlab, shu yo'nalishda ta'lim olishlari uchun imkoniyat yaratish, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorgarlik ko'rish uchun sharoit yaratish, talaba bo'lajak o'qituvchilarning aniq maqsadlariga erishishlari uchun doimiy motivatsiyalar modelidan foydalanish, turli kasb sohasidagi yetakchi mutaxassislar, muvaffaqiyatli ilm ahli bilan uchrashuvlar uyushtirish va h.k. [8,9,10.]

Bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilikka oid intellektini rivojlantirishning maqsadi: bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilikka oid intellektini rivojlantirish asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini yanada oshirishdan iboratdir.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan xolda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi; bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilikka oid intellektini rivojlantirish shakl, metod va vositalarini aniqlash; bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilikka oid intellektini rivojlanganlik darajasini anqlovchi mezonlar ishlab chiqish; bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilikka oid intellektini rivojlanganlik rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratishdan iborat.

Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgilab olish lozim: bo'lajak o'qituvchilarni aniqlash mexanizmi, psixologik-pedagogik, tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratish borasidagi kamchiliklarni aniqlash. intellektual ijodiy salohiyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlarini o'rganish; bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil faoliyat turlarini o'rganishi; bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilikka oid intellektini shakllantirish manbalarini yaratish; bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilikka oid intellektini rivojlantirish usullarini aniqlash; bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilikka oid intellektini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatdan o'rganib chiqish; fanning turli sohalaridagi mutaxassislar tadqiqotchilikka oid intellektini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilikka oid intellektini oshirish va me'yoriy-huquqiy mexanizmlarini joriy etilishiga oid fikr va mulohazalar ishlab chiqish.

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilikka oid intellektini rivojlantirishga oid olib borilayotgan barcha ishlar takomil talab. Ta'lim tizimidagi talablardan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarning tahsil olishi davomida intellektual salohiyatini rivojlantirish ishlarini zamonaviy yondashuvlar asosida muvaffaqiyatli olib borish zarur. Mazkur jarayonga psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, zamon talabi darajasida yangicha yondashuvni talab qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning umumiy faoliyat turlarini birma-bir o'rganmasdan turib ularning tadqiqotchilikka oid intellektual salohiyatiga baho bera olmaymiz. Chunki bo'lajak o'qituvchi o'rganilayotgan fanni "a'lo" va "yaxshi" o'zlashtirishiga qarab, uning tadqiqotchilikka oid intellektini baholashimiz ham noto'g'ri uslubdir. Ma'lumki, bir yo'nalishni chuqur o'zlashtirib, tor mutaxassislik doirasida "a'lo" bo'lib, ixtisosligi bo'yicha o'qitilayotgan fanlarni yaxshi o'zlashtira olmasligi mumkin.

Buning uchun barcha ta'lim maskanlarida tahsil berayotgan ustozlarimiz talabalarni tadqiqotchilikka oid intellektini rivojlantirish omillaridan biri sifatida ularning intellektual sifatlarini o'rganishlari zarur bo'ladi: kuzatuvchanligi, dars jarayonida izlanuvchanligi; mantiqiy va kreativ fikrga ega ekanligi; mustaqil fikrga ega ekanligi; demokratik ilmiy dunyoqarashga ega ekanligi; kuzatuvchanlik, izlanuvchanlik qobiliyatiga ega ekanligi; ilmiy dunyoqarashini amalda isbotlay olish qobiliyatiga ega ekanligi; zamonaviy ilmiy yangiliklardan xabardorligiga va mazkur yangiliklarga mustaqil ilmiy yondashuvga ega ekanligi.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilikka oid intellektini rivojlantirish jarayonini faqat irsiyat, ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiyaga bog'lab o'rganishda ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o'zi ham faol ishtirok etish muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olishimiz lozim. Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy muhitda ta'lim-tarbiyaga shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod, qobiliyatlarini o'stira oladi. Fanlarda o'zlashtira olmagan bo'lajak o'qituvchilarni qobiliyatsiz deyish xato, o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi - har bir bo'lajak o'qituvchining yosh va psixologik xususiyatini chuqur o'rganish, uning qiziqishi va istaklarini aniqlash, ularni hisobga olgan holda pedagogik chora-tadbirlarni ko'rishdir. Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan harqanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy hamda irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun zamonaviy kadrlar kerak. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2018.25.10.
2. Abulxanova-Slavskaya K.A. Deyatelnost i psixologiya lichnosti. - M.: "Nauka", 1980. - 333 s.
3. Bodalev A.A. Lichnost i obüeniye. - M.: "Pedagogika", 1983. -265 s.
4. Brushlinskiy, A.B. Problema sub'ekta v psixologicheskoy nauke. // Psixologicheskij jurnal. 1996. T. 12. '6. - S.3-10.
5. Выготский Л.С. Мышление и rech. Izbrannyye sochineniya. T.2. - M.: "Pedagogika", 1982. - 283 s.
6. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. -T, 1999.
7. Karimova V.M., Akromova F. Psixologiya. - Toshkent: 2000. -171 b.
8. Leytes N.S. Umstvenn üe sposobnosti i vozrast. - M.: "Pedagogika", 1981. - 407 s.
9. Matyushkin A.M. Psixologicheskaya struktura, dinamika i razvitiye poznavatelnoy aktivnosti. // Voprosy psixologii, 1982. -№4.- S.5-15.
10. J.Piaje. Intellekt psixologiyasi.1946 y.
11. Psixologicheskiye issledovaniya intellektualnoy deyatelnosti / pod red. O.K. Tixomirova/. - I.: 1979. - 50 s.
12. Rubinshteyn S.L. Основы психологии. - SPb: izd-vo "P iter".- 2000. - 705 s.
13. Tixomirov O.K. Psixologiya müshleniya. - M.: "Akademiya", 2002. - 287 s.

14. Elkonin D.B. Vvedeniye v psixologiyu razvitiya. - M.:“Trivola”,1 994.-101 s.
15. Foziyev ET. Umumiy psixologiya. 2-tom. - T.: “Universitet”, 2002. - 240 b.
16. Qurbonov. Sh, Seyithalilov. E. Ta’lim sifatini boshqarish. - T: “Turon-Iqbol”. 2006.

Muallif:

Raximov Baxtiyor Xudoyberdiyevich - O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Nukus filiali mustaqil tadqiqotchisi.

UDK 372.857

FORMATION OF ENVIRONMENTAL COMPETENCIES THROUGH INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING BIOLOGY

BIOLOGIYA O‘QITISHDA INNOVTSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA EKOLOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ ЧЕРЕЗ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ

Raxmanova Marg‘uba Abdivaliyevna

O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Nukus filiali mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: raxmanova-m-2024@gmail.com

Abstract. The article discusses the issues of ensuring interdisciplinary communication of educational and cognitive activities aimed at the formation of environmental competence based on an integrative approach in the process of professional training of future teachers of biology.

Keywords: integration, environmental education, environmental culture, education, educational activities, interdisciplinary harmony, integrative approach, worldview, universal human value, secular and historical-cultural thinking, knowledge, belief and activity.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы обеспечения межпредметной связи учебно-когнитивной деятельности, направленной на формирование экологической компетентности на основе интегративного подхода в процессе профессиональной подготовки будущих педагогов биологии.

Ключевые слова: интеграция, экологическое образование, экологическая культура, образование, воспитательная деятельность, межпредметная гармония, интегративный подход, мировоззрение, общечеловеческая ценность, светское и историко-культурное мышление, знание, убеждение и деятельность

Kirish. Bugungi davr talabalarini o‘qitishga zamonaviy usulda yondashish, o‘qituvchilarni o‘z kasbiga nisbatan o‘ta talabchanlik bilan munosabatda bo‘lishini taqozo etmoqda. Pedagogik jarayonning eskirgan texnologiyasini yangisiga o‘zgartirish, ta’limga davr talablariga mos ravishda yondashish, darsga esa yangicha usullarni tadbiiq etish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Bugungi kunda jamiyatimizda zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning jahon ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, erkinlashuvi va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar (PT)ga yangicha yondashish kerakligini taqozo etmoqda.[1.].

Texnologiya (yunon. “techne” – mahorat, san’at, “logos” – tushuncha, ta’limot)– muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etish. Ta’lim texnologiyasining markaziy muammosi – talaba shaxsini kamol toptirish orqali ta’limning ko‘zlangan maqsadini amalga oshirishini ta’minlashdan iboratdir.[2,3,4,5].

Yuqoridagi keltirilgan ma’lumotlarga asoslanga holda bugunki kun biologiya darslarini zamonaviy usulda tashkil qilish, dars samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida ta’lim jarayoniga yangicha pedagogik va o‘yinli texnologiyalarni joriy etish zamon talabi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Biologiyani o‘qitishda biz keltirayotgan didaktik o‘yinlar darsning turli qismlarida, ya’ni, mavzuni takrorlashda, mustahkamlashda, umumlashtirish jarayonida qo‘llanilishi mumkin [6,7].

Biologiyada baxr-u bayt. O‘yin ishtirokchilari doira shaklida turadilar. O‘yin quyidagi tartibda boradi: Boshqaruvchi talaba biologiyaga oid biror atama yoki tushuncha nomini aytadi va uning oxirgi harfiga keyingi talaba shu harfga boshlanuvchi so‘zni aytadi. O‘yin shu tariqa davom ettiriladi. Qaysi talaba 5-10 soniya davomida atamalar nomini ayta olmasa, to‘xtalib qolsa, u o‘yindan chiqqan sanaladi. O‘yin bitta talaba qolguncha davom ettiriladi. Eng oxirida qolgan talaba g‘alaba qilgan hisoblanadi. Biologiyaning asosiy tusunchalarini o‘rganishda ham bu o‘yin yaxshi samara beradi.

Toponomik nomlar o‘yini. Bir xil o‘lchamdagi qog‘ozga biologik tushunchalar nomlari yoziladi. O‘yin qoidasi: nomlar aralastirilib, yozuvli tomoni pastga qaratilgan holda stolga yoyib qo‘yiladi. Talabalar o‘zlari tanlab olgan nomlarga qisqacha izoh berishadi. Masalan, Oltin-tong shafog‘i, berilliy-shirin, alyuminiy-achchiqtosh, argon-yalqov, yod-binafsha, vodorod-suv yaratuvchi, kislorod-kislota hosil qiluvchi va hokazo. O‘yinga taklif etilgan talabalarga 5 tagacha

qog'oz olishga ruxsat beriladi. Talaba javob bersa, nom yozilgan qog'ozni o'zida olib qoladi, javob bera olmasa qog'ozni joyiga qo'yadi. Demak, talabalarning har bitta to'g'ri javobiga 1 ball beriladi.

Bu o'yinni guruhning barcha talabalari ishtirokida tashkil qilish mumkin. O'yin davomida qaysi talaba ko'p ball to'plasa, o'sha talaba g'alaba qozonadi. Toponomik o'yin talabalarni darslikdan tashqari materiallarni ko'proq o'rganishiga va ma'lumotnoma materiallari bilan tanishishiga turtki beradi.

«Kim ko'p biladi» o'yini. O'yin qoidasi: talabalarda faqatgina qog'oz va qalam bo'lishi talab etiladi. O'yinni biologiya elementlar, metallar va metallmaslar, oddiy va murakkab moddalar, oksidlar, asoslar, kislotalar, tuzlar mavzulari doirasida o'tkazish, ayniqsa yuqori natija beradi. Bu o'yin uchun ma'lum vaqt belgilab beriladi. Yozilgan bitta kislota uchun 1 ball beriladi. O'yinda eng ko'p ball to'plagan talaba g'olib deb e'lon qilinadi. [9].

Ta'lim jarayonida yuqoridagi didaktik o'yinlardan foydalanish orqali biologiya darslarida talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini uyg'otish bilan birga, dras jarayonining zerikarli bo'lib qolishining oldini olib ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa dars jarayonida muammoli o'qitish usullaridan foydalanish orqali talabalarning diqqat e'tiborini yanada jalb qilish mumkin.

Muammoli o'qitishda o'qituvchi yordamida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo talabalarning mustaqil faoliyati natijasida nazariy bilimkar, amaliy ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtirishi va aqliy faoliyatini rivojlantirishiga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Xususan, muammoli o'qitishning mazmunini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'qish jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, o'quv vazifalaridagi muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishlari uchun ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etiladi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishda yangi ilmiy-tadqiqot usullarini yuzaga keltirib chiqaradi. Muammoli o'qitishning ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil ko'rinishi farqlanadi: 1. Muammoli vaziyatni yaratish va ishlab chiqish. 2. Muammo sababining qo'yilishi. 3. Muammo yechimini aniqlash.

Muammoli o'qitishning muvaffaqiyatli jihatlari quyidagilarga bog'liq: 1. O'quv materialini yanada mukammal muammolashtirish; 2. Talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish; 3. Ta'lim jarayonini o'yin va mehnat faoliyatlari bilan umumlashtirish; 4. O'qituvchining muammoli metod va texnologiyalardan o'z o'rnida va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi; 5. Muammoli vaziyatni yechimini topish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuza olish va mantiqiy ketma-ketlikda talabalarga bayon etish.

Muammoli metodlar yordamida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, talabalarning muammoni hal etishi, murakkab savollarga javob topishi jarayonida alohida ob'yekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalarini va bilimlarini faollashtirishga asoslangan bilish faoliyatini taqozo etadi. Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida yuzaga keltirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p qo'llash o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u talabalar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va talabalarning izlanishiga, fikrlashiga undaydi. [8].

Ta'limdagi innovatsiya va integratsiya jarayonlari uni rivojlantirish strategiyasida tobora muhim o'rin tutmoqda.

Integratsiya zamonaviy ta'lim tizimlarini rivojlantirishning eng muhim tamoyilidir. Shu bilan birga, ta'lim mazmuni, uning tuzilishi, tamoyil va texnologiyalari – bu tegishli ta'lim muhitida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari muayyan darajadagi kompetentlikni shakllantirish imkonini beradigan yagona chora-tadbirlar majmuidir.

Chunonchi, I.P.Shutovanning "shaxs kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim" kontseptsiyasida talabalar kompetentlikni shakllantirish jarayoni uchun integratsiyaning alohida ahamiyati yoritilgan.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorlash bilan birga ularning umuminsoniy qadriyatlar asosida kompetentlikni rivojlantirishga ham alohida ahamiyat qaratiladi. Ya'ni bunda, dunyoning umumiy manzarasi ilmiy-madaniy nazariya bilan bog'liqlikda kompetentlikning yaxlit qiyofasini shakllantirishga erishiladi. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi ensiklopediyalarda bilimlar integratsiyasi insonparvarlik va estetik yo'nalishga moyillik bilan tavsiflanadi. Shuningdek, bu tabiatshunoslik bilimlari sohasini ham qamrab oladi. Talabalarning dunyoviy va tarixiy-madaniy tafakkurini shakllantirishda bilimlarni yaxlit tizimda integratsiyalashga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu kontseptual pozitsiya talabalarning ekologik madaniyani integratsiv yondashuv asosida amalga oshirish imkonini beradi. Ya'ni bunda bilim, e'tiqod va faoliyatning yagona uyg'unligi sifatida talabalarning ekologik kompetentlikni shakllantirishga erishiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, talabalarning ekologik madaniyani integratsiv yondashuv asosida shakllantirish masalasi keng ilmiy jamoatchilik tomonidan belgilanadigan eng muhim va istiqbolli uslubiy yo'nalishlardan biridir.

Integratsiya tushunchasi lotincha so'zdan olingan bo'lib "tiklash, to'ldirish" ma'nolarini anglatadi va bu falsafiy fenomen sifatida pedagogika sohasiga kirib kelgan. Ya'ni, "integratsiya" deganda rivojlanish jarayonining turli xil element va qismlarining bir butunga birlashtirilishi tushuniladi. 1993 yilda YuNESKO tomonidan tashkil etilgan sessiyada integratsiyaga bilimlarning o'zaro organik aloqalarga kirishishi va bu talabani dunyoning yagona ilmiy qiyofasini tushunishga olib kelishi lozim, deya ta'rif berildi.

Bizning fikrimizcha, integratsiyaning eng keng qamrovli kontsepsiyasi - "tizimning alohida differentsial element va funksiyalarining o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonining natijasi" sifatida taqdim etiladi. Bu esa, o'z navbatida, yaxlit tizimning o'zaro bog'liqlikda va barqaror ishlashiga olib keladi.

Talabalarning integrativ yondashuv asosida ekologik kompetentlikni shakllantirishda mazmun, usul, uslub va vositalarni qandaydir umumiy asosda birlashtirish ularning dunyoni yaxlit idrok etishlariga hissa qo'shisshi hamda bu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak pedagoglarning integrativ yondashuv asosida ekologik kompetentlikni shakllantirishda, ya'ni ekologik ta'lim jarayonida barcha didaktik tamoyillarning o'zaro ta'siri orqali ularning mazmun va harakatlarini ta'minlash muhimdir.

Integrativ yondashuv asosida ekologik ta'lim mazmuni va metodologiyasining nazariy boyitishi bilan birga undagi g'oya, maqsad, vazifa va tarkibiy elementlarining amaliy jihatdan ham o'zaro uyg'unligini ta'minlashi, qolaversa, ularning o'zaro aloqadorligi va birligini oldindan belgilab berishi kuzatiladi. Bu esa, ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish bilan birga kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonining o'zaro bog'liqligini ham ta'minlaydi. Ya'ni, bu bo'lajak pedagoglarning ekologik kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ekologik ta'lim mazmunining integratsiyalashuvi ekologik bilimlar mohiyatiga asoslanadi.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, bugungi kunda ekologiya sohasida umumbashariy muammolar mavjud. Bular tabiatni yaxlit murakkablikda va chuqur anglashdagi birliklardir. Masalan, insonning Yerdagi o'rni, umuminsoniy qadriyatlar kelajagi va boshqa ekologik madaniyanni shakllantirish bilan bog'liq masalalardir. muammolar, biz intizomdan tashqari intellektual makonga - va interdisiplinar makonga kiramiz. Mashhur biolog A.V.Yablokov: "hodisalarni o'rganishga ekologik yondashuv universal bo'lib qoldi, endi ekologiya haqida alohida fan sifatida gapirish qiyin, balki bu har qanday tadqiqot predmeti - kompetentlikdan hujayra ichidagi jarayonlargacha bo'lgan maxsus qarashdir", - deya ta'kidlaydi.

Ekologiya ijtimoiy-gumanitar fandır. U shaxsning ekologik kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan ekologik ta'limning maqsadi sifatida murakkab integrativ yondashuv asosida uning mazmunini ta'lim oluvchining amaliy faoliyatiga singdiradigan ekologik dunyoqarashini tashkil etadi.

Ekologik kompetentlik – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir.

Ekologik bilim va ekologik kompetentlikning tayanch fazilatları: 1) axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim kompetentlik sifatı bo'lib, uning atrof-muhitni hissiy bilish jarayoni atrof-muhitdagi obyekt va hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligini nazarda tutadi; 2) ekologik ma'suliyatlilik shaxsda munosabat va ma'sullikni tarbiyalashda namoyon bo'ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o'ylamay tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi; 3) ekologik irodaviylik shaxsning o'zi va o'zgalarning atrof-muhitdagi hatti-harakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat'iyatlilik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog'liq. Shaxsning ekologik kompetentlikni shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya'ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho'llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bo'g'liq.

Zamonaviy ekologik ta'limda integrativ yondashuv nafaqat ekologik tushuncha va bilimlar o'rtasida har tomonlama aloqalar o'rnatishda, balki yangi strategiyalardan foydalanish asosida yaxlit tasavvurlarni rivojlantiruvchi o'quv jarayonini tashkil etishning kontseptual tamoyillarini ishlab chiqishda ham namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda integrativ yondashuv ekologik kompetentlikni shakllantirishda intizom chegaralarini kesib o'tuvchi va ekologik ta'lim maqsadlariga mos keladigan strategik fanlararo bog'liqlikni ta'minlovchi jarayon hamdir. Biroq integrativ yondashuvning muhim jihatlaridan biri - bu ushbu tamoyilni amalga oshirishga yordam beradigan o'ziga xos holatlarni aniqlashdir. Zamonaviy ekologik ta'lim mazmunida integrativ yondashuvni ta'minlashda keng qamrovli va xilma-xil ekologik bilimlarni yagona nazariy nuqtai nazardan umumlashtirishni taqozo qiladi. Bunda ekologik bilimlar integratsiyalashuvi mexanizm va darajalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Umuman olganda, integratsiya mexanizmi ma'lum bir umumiy boshlang'ich va butun bir tizimga qaratilgan "poydevor" bo'lishi losim.

Ekologik bilimlarning integratsiyalashuv mexanizmi – bu tizimning yaxlitligini buzmasdan muvofiqlashtirilgan va tartibli tarzda o'zaro ta'sir qilishi kerak bo'lgan zarur elementlar majmuidir. Odatda, bunday "poydevor" aniq fanlarning umumlashtirilgan kognitiv modellari asosida turli sohalaridagi o'zgarmas ilmiy bilimlarning hodisa va jarayonlarini aks ettiruvchi fundamental tushuncha, g'oya, nazariya va qonunlaridir. Bu holatda, ekologik kompetentlikning tarkibiy qismini atrof-muhitga nisbatan yaxlit ilmiy-dunyoviy va ekologik dunyoqarash tashkil etadi. Bunda evolyutsiya va uning umumiy mexanizmlarini ochib beradigan universal nazariya talab etiladi. Aksariyat hollarda, ijtimoiy va tabiiy fanlar tizimlari ekologik muammolarning intellektual va hissiy tajribasini uyg'unlashtirish uchun asoslar topadi va bu inson faoliyatidagi zamonaviy ekologik kompetentlik hamda sog'lom turmush tarzi shakllanishiga yordam beradi. Ammo talabalarning kasbiy

tayyorgarlashda ekologik bilimlarning integratsiyalashuv darajasini ta'minlashda asosiy muammo nafaqat tabiiy fanlar va gumanitar bilimlarni uyg'unlashtirish zarurati, balki intuitiv fikrlash tarzi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy bo'lmagan bilimlarning muhim qatlamini o'z ichiga oladi. Masalan: falsafiy, diniy, badiiy, afsonaviy ma'lumotlar muhim rol o'ynaydi. Biroq integrativ yondashuv talabalar ekologik kompetentlikni shakllantirishda bularni ilmiy-dunyoviy bilimlar bilan birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Shu tarzda qurilgan ta'lim mazmuni nafaqat ratsional, balki hissiy-emotsional sohani o'z ichiga olgan tabiiy-ilmiy tafakkurni, balki uni gumanitar tafakkur bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Ekologik ta'limni insonparvarlashtirish va integratsiyalash talabalarining ekologik kompetentlikni shakllantirishning asosiy ko'rsatkichlari, ya'ni bilim darajasi, ekologik fikrlashning namoyon bo'lishi va tabiatga munosabatni ifodalovchi motivlarini tasdiqlaydi.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda, shuni aytishimiz mumkinki, biologiya mashg'ulotlarini didaktik o'yinlar orqali tashkil etish dars samaradorligining oshirish bilan birga, talabalarining dars mashg'ulotiga qiziqishini ham uyg'otadi. Aynan shu didaktik vositalardan keng foydalanish orqali, o'qituvchi talabalarga mavzu borasidagi kerakli bilimlarni o'zlashtirishlari uchun qulay sharoit yaratib bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 27 майдаги 434-сонли «Ўзбекистон Республикасида экологик таълимни ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида»ги қарори.
2. Игнатова В.А. Интегрированные учебные курсы как средство формирования экологической культуры учащихся: дис. ... д-ра пед. наук. Тюмень, 1999. - 388 с.
3. Шутова И.П. Формирование экологической культуры будущих учителей: теория и практика: монография. Ишим, 2010. - 160 с.
4. Girusov E. V. Ekologik kompetentlikning tabiiy asoslari // Ekologiya, kompetentlik, ta'lim. - M., 1989. - S. 11-19.
5. Karamatova S.D. (2022). INTEGRATIVE APPROACH TO FORMING ECOLOGICAL CULTURE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 6, 82-86.
6. Karamatova D.S., Safarbayeva R.N., Murodova M.M. Bo'lajak pedagoglarning integrativ yondashuv asosida ekologik kompetentlikni shakllantirish // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – В.950-955.
7. Salaeva M.S. Psychological conditions for personal and professional development of future teachers. // Washington DC, USA International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS). ISSN: 2643-640X. With Impact Factor: 3.2. Vol.5 Issue 3, March - 2021.- P.231-233.
8. Tursunova, M. B. (2022). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI. Science and innovation, 1(B2), 149-151.
9. Hayitov A.I., Mirkholikova Ch., Niyozmetova N.B., Magdieva M. Theory of development of ecological culture of future primary class teachers based on an integrative approach. annals of forest research <https://www.e-afr.org/>. Ann. For. Res. 65(1): 2275-2282, 2022 ISSN: 18448135, 20652445. 2275-2282-betlar.

Muallif:

Raxmanova Marg'uba Abdivaliyevna - UZPFITI Nukus filiali mustaqil tadqiqotchisi.

UDK 372.81

FORMATION OF SPIRITUALITY OF STUDENTS AND YOUTH BASED ON MASS MEDIA AS A PEDAGOGICAL NEED

TALABA-YOSHLAR MA'NAVIYATINI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ СТУДЕНТОВ И МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ СРЕДСТВО МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПОТРЕБНОСТЬ

Kdirniyazova Oralxan Asamatdinovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali, 230100. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Hurliman Qiz Baxshi ko'chasi, 37- uy

E-mail: kdirniyazovaoralxan2024@gmail.com

Abstract. The content of this article is based on media pedagogical requirements, such as increasing the effectiveness of topics aimed at developing the spirituality of students and youth in the media, compliance with the spiritual needs of students and youth, a variety of topics, harmony with the content of educational work, developing media literacy of students and youth, compliance of the content with the age characteristics of students and youth.

Key words: globalization, information, mass media, spirituality, radio, television, ideological immunity, Internet, social network, virtual information space.

Аннотация. Содержание данной статьи основано на медиапедагогических требованиях, таких как повышение эффективности тем, направленных на развитие духовности учащихся и молодежи в средствах массовой информации, соответствие духовным запросам учащихся и молодежи, разнообразие тем, гармония с содержанием воспитательной работы, развитие медиаграмотности студентов и молодежи, соответствие содержания возрастным особенностям студентов и молодежи.

Ключевые слова и понятия: глобализация, информация, СМИ, духовность, радио, телевидение, идеологический иммунитет, Интернет, социальная сеть, виртуальное информационное пространство.

Kirish. Axborot-kommunikasiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan ayni paytda talaba-yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishda virtual ekskursiya muhim vosita bo'lib xizmat qildi. Virtual ekskursiya xilma-xil axborot manbalaridan foydalangan holda, bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy madaniyatni shakllantirish jarayonida ularni o'zaro birgalikda harakatga keltirishda muhim omil vazifasini bajardi.

An'anaviy ekskursiyalardan farqli o'laroq virtual ekskursiyalar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, maxsus jihozlangan o'quv xonalarida o'tkazildi. Masalan, ana shunday virtual ekskursiyalarni darsdan va sinfdan tashqari jarayonda "Yuksak ma'naviy-axloqiy jasorat" mavzusida tashkil etildi. Mazkur jarayonda har bir talabaning alohida yuksak ma'naviy-axloqiy jasorat ko'rsatgan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni o'rganishlari vazifa sifatida belgilandi.

Virtual ekskursiyani tashkil etishga doir mashg'ulot bir nechta bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda bo'lajak o'qituvchilar bilan hamkorlikda ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ekskursiyaning maqsadi aniqlandi va ob'ektlar belgilab olindi; ikkinchi bosqichda bo'lajak o'qituvchilar Internet tarmog'i orqali yuksak ma'naviy jasorat ko'rsatgan shaxslar to'g'risidagi axborotlarni izlashdi, ularni topib o'rganib, tahlil etish asosida mazkur mavzuda tayyorlanadigan ma'ruzaning rejasini tuzishdi. So'ngra ko'rgazmali materiallar asosida taqdimot yaratishdi. Bo'lajak o'qituvchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda har biri o'zi tayyorlagan ma'ruzaga ijodiy o'zgartirishlar kiritish maqsadida sinov tariqasidagi taqdimotlarni o'tkazishdi. Kichik guruhlardagi bahs-munozaralar asosida taqdimot ishi yanada takomillashdi va amaliy ahamiyat kasb etdi. So'ngra taklif etilgan ekskursivod o'qituvchilar bilan birga virtual ekskursiyani amalga oshirdi. Ekskursiyaga jalb etilgan o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javoblar berildi; yakuniy bosqichda guruh murabbiyi tomonidan taqdim etilgan mezonlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning taqdimotlari muhokama etildi va baholandi. Eng asosiysi bu baho kichik guruhlardagi baholar bilan uyg'un keldi [1].

OTMda «Yosh jurnalistlar» guruhini tashkil etish hamda milliy telekanallar kursatuvlaridan andoza olib, kichik videolavhalar tayyorlash, maksadga yunaltilgan intervyular tashkil etish, «Zakovat», «Bilimdon» kabi shoularni uyushtirish, planshet, qo'l telefonlari imkoniyatlaridan foydalanib ularni tasvirga olish va haftaning ma'lum bir kunida mediahaftaliklar uyushtirish, ularning ijod mahsullarini tengdoshlari hamda o'qituvchilar e'tiboriga havola etish orqali natijaga erishish mumkin.

Maxalla muhitida: mahallalar qoshida ham «Mahallamiz jurnalistlari» yosh ijodkorlar klublarini tashkil etish va yukorida aytilgan vazifalarni mahallalarda ham amalga oshirish hamda mahalla yosh ijodkorlarning mahalla faoliyatidan, namunali oilalar hayotidan tayyorlangan kichik syujetli videolavhalarini (videolektoriy) mahalla ahliga havola etish; mahallalarida «O'z bolangni o'zing asra» tamoyili hamda «Bir bolaga etti mahalla ota-ona» kabilidagi milliy kadriyat va an'alarimiz asosida bolalarni ularning sog'ligiga, ma'naviyatiga zarar etkazadigan mediamahsulotlardan asrashga bag'ishlangan pedagogik muammolarni muhokama(suhbat) qilish va mahalla faxriylari, noiblari va posbonlari bilan birga echimini topish orkali joriy qilish mumkin.

Oila muhitida: ota-onalar ko'rsatuvlar dasturi e'lon kilingan nashrlarning talaba - yoshlarga oidlarini belgilab, oila davrasida farzandlari bilan birga bu dasturlarni tomosha qilishi, muhokama qilishi, suhbat qurishi, farzandining teledastur hakidagi fikrlarini eshitishi; tomosha qilgan teledasturlar haqidagi fikr-mulohazalar va takliflarni xat yoki mtrk.uz manziliga junatishda farzandlarga ko'maklashish, bu bilan bola va OAVlar orasida virtual mulokotni (mediamulokot) o'rnatish, ularni OAVlardan maksadli foydalanishga o'rgatish; kun davomida talaba qanday ko'rsatuvlarni ko'rgani va qanday xulosalarga kelganini yozib borishga hamda o'z fikrlarini ota-onasi bilan bo'lishishga ularni o'rgatish lozim.

Shuningdek, tadqiqot davomida talaba - yoshlarning hayotida radioning o'rni va radioeshittirishlarning tarbiyaviy funksiyalari aniqlashtirilgan. Bugungi kunda yoshlar auditoriyasi e'tiborini o'ziga jalb qilayotgan radiolar asosan FM tulkinidagi nodavlat radiokanallardir. Jumladan, «A'lo FM», «Grand», «Oriat-dono», «Vodiy sadosi», «O'zbekim taronasi», «Maxima» kabi radiokanallar eshittirishlari yoshlarbop dasturlarga boyligi bilan ajralib turadi. Birok, nomlari tilga olingan radiokanallarda yoshlarbop dasturlarni olib boruvchi boshlovchilarning ko'p xollarda shevaga xos so'zlardan foydalanishi, nutq madaniyati normalariga rioya qilmasligi kuzatiladi. Natijada yoshlar orasida radioboshlovchilarga taqlid, nutq madaniyatiga rioya qilmaslik, muomala chog'ida jargonlardan foydalanish kabi salbiy xolatlar uchrab turadi. Nodavlat ommaviy axborot vositalari tomonidan yo'l qo'yilayotgan bunday hatolarni oldini olish yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish jarayonida dolzarb pedagogik muammo xisoblanadi. Shu bois, tadqiqotda talaba-yoshlar ma'naviyatini rivojlantiruvchi radioeshittirishlarning pedagogik resurslari shakllantirilgan.

Tadqiqot davomida internetning yoshlar dunyokarashiga ta'siri tahlil etilgan. Zamonaviy talaba - yoshlar Internetga ma'lumot olishning asosiy manbai va kommunikasiyaning bosh vositasi, deb karaydilar. Ular onlayn tizimiga asosan

yangiliklarni izlash, do'stlar bilan mulohaza qilish, musiqa yozib olish uchun kiradilar. Hali ongi shakllanib ulgurmagan talaba - yoshlarning dunyokarashiga, g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi irqchilik, behayollik, zo'ravonlik va suisidni targ'ib qiluvchi manbalar ham aynan internet orqali tarkalmokda. Ayni davrda «...axborot kommunikasiya texnologiyalari kanchalik rivoj topgani sari, uning afzalligi va kulayliklaridan foydalanish bilan bir katorda, butun mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalaga aylanib bormokda».

Kuzatuvlarimiz jarayonida, ota-onalarga berilgan «Farzandingiz internetda nimalar bilan shug'ullanishini bilasizmi?» degan savolga 70,8% ota-onalar aniq javob bera olmaganliklari ma'lum buldi. Ota-onalarning ko'pchiligi: «Internetni nazorat qilish qiyin, u anonim xususiyatga ega», - degan xulosani berganlar. Ota-onalar uz farzandlarining kandy saytlarga kirishlarini bilmasligi okibatida, ayrim yoshlar «kiberludomaniya» qurboniga aylanib qolmoqda. «Kibernetik ludomaniya atamasi jakon medisina amaliyotiga rasman kiritilgan kasallik nomi. Kiberludomaniya - kompyuter o'yinbozligi» talaba-yoshlar orasida kompyuter uyinbozligiga chalinganlarining hayot tarzida, jismoniy va ma'naviy rivojlanishida kiberludomaniyaning asoratlari kuzatiladi. O'yinbozlik kasaliga chalingan o'smirlarni tasniflashda olimlar I.P.Korolenko va T.A.Donskix kuyidagi xulosalarga kelishgan: o'smiring o'yinda o'tkazayotgan vaqti mikdorining oshib borishi; kizikishlar doirasi torayib, o'yin hakida ko'prok o'ylay borishi; yutasa kam, yutkazsa ham o'yindan chika olmaydi; o'yin boshlanishini kutadi, o'yinsiz qolsa, bezovta bo'lib, asabiylashaveradi; o'yinga tobora ko'prok narsa tika boradi; uyindan o'zini to'xtata olmay koladi; oila a'zolaridan, shifokorlardan va boshkalardan uzining uta uyinparastligini yashirib, yolg'on gapiradi [2].

Tadqiqot davomida talaba-yoshlarni internetning salbiy ta'siridan ximoya kilish, yoshlar orasida axborot xavfsizligini ta'minlashga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bunda noxolis axborotlarni saralash, mediamaxsulolarni taxlil kilishda mediata'limning pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan. OAV larining pedagogik strategiyasi – ijtimoiy muhit va ijtimoiy hayotni tahlil qila olish, uni talqin qilish asosida baho berishdan iboratdir. OAV markazida shaxs turadi, uning qiziqishi, xoxish, istaklarini xisobga olish, olingan axborot vositasida tankidiy fikrlashga urgatish kerak. Xorijiy davlatlar pedagog olimlarining fikricha, OAV tarbiyaviy, ta'limiy axamiyatga ega bulib, yoshlarni ukuv bilish jarayonida kreativ fikrlashga o'rgatadi. OAV larining yana bir pedagogik xususiyati shundaki, yoshlar bu jarayonda axborot bilan ishlash, axborot qidirish, zarurlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunishni o'rganadi. Shular asosida axborot madaniyati shakllanadi [3].

OAV orqali talaba-yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan mediamahsulotlar - kino, klip, internet xabarlarini, kompyuter o'yinlari misolida ilmiy tahlil qilingan va mafkurafiy tahdidlarga qarshi kurashishning ma'rifiy echimi yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, kabel televidenieleri hamda internet tizimi orqali turli xil yot g'oyalarni targ'ib qilayotgan mediamateriallar natijasida talaba - yoshlarning ruhiy-emosiional holati va xulqida ro'y berayotgan salbiy holatlarni aniqlandi.

Talaba - yoshlar ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasasi va ota-onalar hamkorligi asosida rivojlantirish muhim pedagogik jarayondir. Shuningdek, tadqiqot davomida talaba-yoshlarning hayotida radioning o'rni va radioeshittirishlarning tarbiyaviy funksiyalari aniklashtirilgan. Kuzatuvlarimiz jarayonida, ota-onalarga berilgan «Farzandingiz internetda nimalar bilan shug'ullanishini bilasizmi?» degan savolga 70,8% ota-onalar aniq javob bera olmaganliklari ma'lum buldi. Ota-onalarning ko'pchiligi: «Internetni nazorat qilish qiyin, u anonim xususiyatga ega», - degan xulosani berganlar. Ota-onalar uz farzandlarining kandy saytlarga kirishlarini bilmasligi okibatida, ayrim talaba-yoshlar «kiberludomaniya» qurboniga aylanib qolmoqda. «Kibernetik ludomaniya atamasi jakon medisina amaliyotiga rasman kiritilgan kasallik nomi. Kiberludomaniya - kompyuter uyinbozligi» talaba-yoshlar orasida kompyuter uyinbozligiga chalinganlarining hayot tarzida, jismoniy va ma'naviy rivojlanishida kiberludomaniyaning asoratlari kuzatiladi [4], [5].

Talaba-yoshlar ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish hozirgi kunda turli ko'rinishlardagi g'oyalar, mafkuralar o'rtasida kat'iy kurash ketayotgan bir davrda muhim va dolzarb pedagogik zaruratdir. Tadqiqotda telekursatuvlarning talaba-yoshlar ma'naviyatini takomillashtirishga xizmat kiluvchi: ogoxlantiruvchi, ma'lumot beruvchi, integrativ, refleksiv, ijtimoiy pedagogik, madaniy-rekreativ extiyojlarni ta'minlovchi tashkiliy-pedagogik funksiyalari aniqlashtirilgan. Ular bugungi talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

OAV muayyan axborotni etkazish, u yoki bu masalaga dikkatni karatish orkali talaba-yoshlarga, turli ijtimoiy gurux vakillariga uz fikrlarini ifoda etish, fikrdoshlarni topish, yagona maksad va e'tikod yulida yakdillik bilan xarakat kilishga imkon yaratadi. Ayniksa, televidenie va internet eng sunggi ilmiy yangiliklarni kiska vaktida butun dunyoga ma'lum kilishga, ilm- fan, madaniyat, adabiyot va san'at yutuklaridan xar bir talaba-yoshlar foydalana olishiga zamin yaratadi [6].

OAVning talaba-yoshlarga ta'sir kuchi beriladigai materiallarning tezkorligi, ko'tarilayotgan masalalarning dolzarbligini hamda tahliliylik darajasiga va mavjud muammolarning samarali yechimlarini taklif etishiga ko'p jixatdan bog'lik. Shu bois, tadqiqotda OAVda talaba-yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishga qaratilgan mavzular samaradorligini oshirish talaba-yoshlarning ma'naviy extiyojlariga mosligi, tarbiyaviy ishlar mazmuniga uyg'unlik, talaba-

yoshlarning mediasavodxonligini rivojlantirish, kontentning talaba-yoshlarlar yosh xususiyatlariga mosligi kabi mediapedagogik talablar asosida takomillashtirilgan.

Adabiyotlar:

1. Andreeva V.Yu. Formirovanie informatsionnoy kulturi uchashixsya pedagogicheskix uchilish, kolledjey. Avtoreferat kand. Ped. Nauk.-Sankt – Peterburg: 2003 – 18s.
2. Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - T.: «Muxarrir», 2009. – 120 b.
3. Duronov M., Taylakova Sh.N. Ommaviy axborot vositalari asosida xorijiy tillarni urgatish. // «Yoshlarga chet tillarni urgatishning zamonaviy texnologiyalari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent: 2013. - B.40-42.
4. Taylakova Sh.N., Imomkulova G.N. Mediata'lim va zamonaviy pedagog // Murabbiy maxorati. Jurnal. - Toshkent: 2016. № 1. - B.32-34.
5. Taylakova Sh.N. Globallashgan axborot sharoitida ukuvchi-yoshlarning Foyaviy-mafkuraviy immunitetini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish // Zamonaviy ta'lim. -Toshkent: 2015. № 5. - B.3-8.
6. Djuraev R.H., Toyloqov N.I. Axborotlashtirilgan ta'lim muhiti-o'qitish samaradorligini oshirish vositasi // Uzluksez ta'lim.IMJ. –T.: 2004.-№3.- 3-7 b.

Muallif:

Kdirniyazova Oralxan Asamatdinovna - O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali mustaqil tadqiqotchisi.

UDK 372.815.99

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF CAREER GUIDANCE

KASBGA YO'NALTIRISH ISHLARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФОРИЕНТАЦИОННЫХ РАБОТ

Usmanova Shoira Djumabekovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.100174.Toshkent shahri, Olmazor tumani, Mirza G'olib – 2-11.

E-mail: soirusmanova64@gmil.ru

Abstract. In this article, the tasks of school psychologists and teachers in educational institutions are explained in order to make the right choice of the future profession of the school student, who is in the center of attention of our country today, and make independent decisions. It is in the school that information is provided about the professional development of a person and the formation of the foundation for a successful career choice.

Key words: choosing a profession, professional formation, professional self-awareness.

Аннотация. В данной статье раскрыты задачи школьных психологов и педагогов образовательных учреждений по правильному выбору будущей профессии школьника, который сегодня находится в центре внимания нашей страны, и принятию самостоятельных решений. Именно в школе дается информация о профессиональном развитии человека и формировании фундамента для успешного выбора профессии.

Ключевые слова: выбор профессии, профессиональное становление, профессиональное самосознание.

Kirish. Bugungi kunda davlatimiz diqqat markazida turgan maktab o'quvchisining kelajakdagi kasbini to'g'ri tanlashi jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga egadir. Zamonaviy jamiyat mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, ularni muvaffaqiyatli va samarali amalga oshirish uchun javobgar bo'la oladigan, doimiy o'zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy muhitda o'zini anglashga tayyor bo'ladigan mutaxassislar juda muhtoj. Shu sababli ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalalari tobora kuchayib bormoqda. Aynan maktabda shaxsning kasbiy rivojlanishi va muvaffaqiyatli kasb tanlash poydevori shakllanadi[5], [7].

Davlatimiz rahbari tomonidan maktab ta'limi sohasida qisqa vaqt ichida amalga oshirilayotgan tub islohatlar o'zgarishlar tahsinga sazovordir. Bugungi kunda islohatlar natijasida ertaga jamiyatimiz ravnaqiga hissa qo'shish uchun o'quvchi – yoshlarimizning nafaqat ma'naviy- intellektual saviyasi, balki chuqur bilim hamda kasb-hunar egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yosh avlodni o'zini to'liq idrok etgan holda raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishi uchun maktab jamoasi oldidagi mas'uliyat yanada oshdi. Shu munosabat bilan maktab jamoasi o'quvchilarga ilm fan asoslarini singdirish bilan birga ularda umuminsoniy axloqiy fazilatlarini shakllantirib, zamon talablariga mos kasblarni ongli ravishda tanlashlari uchun barcha kuch -g'ayratini ayamaligi lozim.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot ob'ekti o'quvchi – yoshlarni kasbga yo'naltirish jarayoni. Adabiyotlar bilan ishlash, manbalarni o'rganish va ma'lumotlar tahlili orqali o'quvchi-yoshlarni kasb tanlashida maktab psixologi hamda o'qituvchisining o'rni haqida bayon qilinadi. Qo'llanilgan usullar. Adabiyotlar bilan ishlash va nazariy tahlil.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Kasb tanlash jarayonida yoshlarda sodir bo'ladigan o'ziga xos jarayonlar bu undagi jismoniy va ruhiy o'zgarishlarda, o'zidagi o'zgarishlar asosida o'zini katta inson bo'lib borayotganini bilib borishi, atrofdagilarni unga nisbatan kattalardek munosabati va shu kabi jarayonlar insonni endi o'z hayotini qurish uchun kasb tanlashiga olib keladi. Kasb tanlash uchun esa unga bilim va malakalar juda zarurdir. Kasb tanlayotgan inson o'zining psixologik jarayonlarini va psixologik xususiyatlarini boshqarishi va ulardan foydalanishi zarur bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy shakllanishining nazariy asoslari o'quvchilarning mehnatga va kasb tanlashga munosabatini V.G. Aseeva, E.F. Zeera, E.A. Klimova, N.S. Pryajnikov va boshqalar o'rgangan[4; 6].

Tadqiqotchilardan M.L. Vaynshteyn, P.A. Shafira kasbiy va shaxsiy o'zini o'zi anglash, shuningdek, kasbga yo'naltirish asoslari va professional tanlovga yondashuvlarni tasvirlaydi. Yetarli miqdordagi asarlar shaxsning psixologik tayyorgarligini ta'kidlaydi. E.Yu. Raikova kasbga yo'naltirish masalalari bo'yicha maslahatlarga psixologik tayyorlik: professional, ijodiy, shaxsiy tarkibiy qismlarni aniqlaydi [6].

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda o'qituvchi va maktab psixologining o'mi va ahamiyati juda kattadir. O'qituvchi o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotda o'quvchining iste'dodi, qobiliyati, imkoniyatlarini o'rganib borib o'z maslahatlarini berib boradi. Yoshlarga beriladigan kasbiy maslahatlar o'qituvchi, psixolog va medik - vrachlar tomonidan berib boriladi. Maktab o'quvchilarini mustaqil qobiliyatlariga yarasha kasbni to'g'ri tanlashiga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi yetarli bo'lishi hamda maktab psixologi har bir o'quvchi bilan individual yondashishi maqsad sari borish uchun to'g'ri qadam hisoblanadi. O'qituvchining kasbiy maslahatlari asosan psixologik xususiyatlardan kelib chiqadi. O'qituvchi kasbga yo'naltirishning muhim shakli bu kasbiy maslahat hisoblanib - bunda o'quvchini psixologik – pedagogik va meditsinaga oid tomonlari o'rganilishini, shular orqali ularni kasbga yo'naltirilishini bilib olishi uchun zamin bo'ladi.

Kasbiy maslahatni o'qituvchi tomonidan berilishi bu yoshlarni aniq kasb tanlashlariga yordam beradi. Kasbiy maslahat berayotgan o'qituvchi kasb tanlovchilarni qobiliyatlarini, qiziqishlarini, iqtidorlarini, intilishlarini hisobga olgan holda va shuningdek ularni kasb tanlashlarini rag'batlantirish orqali kerakli bo'lgan natijalarni olishi mumkin bo'ladi. Agarda kasb tanlovchilarni qiziqishlari va intilishlari bo'lsa-yu, ulardagi jismoniy sog'liq va psixologik xususiyatlar shu kasbga loyiq bo'lmasa u holda kasbga yo'naltiruvchi shaxs kasb tanlovchini ehtiyotlik bilan diqqatini boshqa kasblarga qaratish orqali ularni o'zlarining layoqatlariga mos kasblarga qaratishlari lozim bo'ladi. Kasbiy maslahat insonni kasb tanlashiga psixologik yordam beruvchi yo'nalish bo'lib, kasbiy faoliyatni rejalash uchun, shuningdek kasbiy hayotdagi qiyinchiliklarni yengish uchun qaratilgan kasbiy psixologiyani tarmog'idir. Kasbiy maslahat insonni yoshiga qarab, jismoniy va individual psixologik xususiyatlariga qarab, uning umumiy va kasbiy qiziqishlariga qarab, intilishi, maqsadi va qobiliyatlariga qarab beriladi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda uchta asosiy vazifa ajratiladi: ma'lumot beruvchi, diagnostika qiluvchi, oldindan (prognoz) aytib beruvchi. Kasbiy maslahatni ma'lumot beruvchi vazifasi o'quvchiga aniq mutaxassislik haqida va kasb haqida ma'lumotlarni yetkazib berish va maslahatlar berish hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ishonch, mehr va insonparvarlik tuyg'ulariga asoslangan bo'lsa, shundagina o'qituvchi o'quvchida bo'layotgan ichki kechinmalari, intilishlari, qiziqishlaridan xabardor bo'lib boradi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bo'lib turadigan samimiy suhbat jarayonlari, kasbga yo'llash faoliyatida katta tutkici bo'ladi. Bu psixologiyada "suhbat" metodi deb yuritiladi.

Yuqori sinf o'quvchilari ko'proq mustaqillikka intiladilar, o'zlari barcha muammolarni hal qila olaman degan fikrda bo'ladilar. Shuning uchun ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qoyishlari mumkin. Ayniqsa ichki va tashqi motivlar kurashi aynan shu davrda kuchayishi sababli ulardan ayrimlari biroz jizzaki va qo'polroq bo'lib qolishlari mumkin. Kasb tanlovchida iroda kuchi bo'lgandagina u biror bir kasbga intiladi, shu kasbni qaysidir unga yoqqan tomonini bilishga harakat qilib borib o'z ustida ishlab borishini kuzatish mumkin bo'ladi. Inson uchun irodani psixologik jarayon sifatida o'rni juda kattadir. Irodasi bo'lmagan inson biror bir oddiy ishni bajarishda ham qiynaladi. Shuning uchun kasb tanlayotgan o'quvchi qandaydir o'zi uchun yoqadigan kasbni tanlashi, o'z ustida ishlashi, o'zini mustaqil fikri bo'lishi kabi masalalarni iroda kuchiga tayanib ish ko'radi. Busiz unda ikkilanishlar, qaror qabul qila olmaslik, sabr - toqat kabi ko'plab irodaviy xususiyatlarni buzilishi yuz beradi. Insondagi iroda kuchi uni ma'lum bir bilimlarni, malakalarni, ko'nikmalarni shakllanishi va mustahkamlanishiga olib keladi. Ko'rinib turibdiki, insonning irodasi va uni mustahkamlanib borishi shaxsni shakllanishini, ma'lum bir obro' va e'tiborga sazovor bo'lishiga olib keladi. Buning uchun esa kasb tanlovchi o'z irodasini mustahkamlab borishga e'tibor berishi juda zarurdir.

Kasbga yo'naltirishda o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari, ularning o'qishiga ta'sir etuvchi oilaviy omillarni o'rganish maktab jamoasining vazifalaridan hisoblanadi.

Maktab psixologlari o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda: o'quvchining qobiliyati, qiziqishi, layoqati, iste'dodi, iqtidorini; aqliy va nutqiy rivojlanish darajasini; psixik rivojlanish saviyasini; shaxslararo munosabatini kuzatish va tahlil qilish orqali tavsiya berishi lozim.

O'quvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki, kasbiy so'rovnomalar, suhbatlar, kasbiy qobiliyatlari, qiziqishlari, fanni o'zlashtirishdagi moyilliklarini aniqlash orqali ularni ongli ravishda kelajak kasblarini to'g'ri tanlashiga

ko'maklashish mumkin. Bu amaliyotlar davrida albatta, maktab jamoasi hamda ota-ona bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Maqsadimiz har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat ekan, qanday kasbni tanlashidan qat'iy nazar, o'quvchilarning o'quv muassasasidagi barcha fanlarni to'liq o'zlashtirishlariga erishish muhim vazifadir. Chunki hozir ham har qanday kasb uni tanlagan kishidan atroflicha bilimdon bo'lishni talab qilmoqda. Garchi inson qobiliyatining doirasi har qancha keng bo'lsada, yuksak samaraga, yetuklikka erishish uchun o'z faoliyat doirasini ma'lum bir sohaga moslab, chegaralab olmog'i lozim. Chunki kishilar o'zlariga muvofiq faoliyat turini tanlamay va shunga binoan o'z faoliyat darajasini chegaralab olmay turib, biror sohada yuqori ko'rsatkichga erisha olmaydilar. Xulosa qilib aytish mumkinki, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, kasb tanlashga tayyorlik muammosini yechishda psixologik diagnostika va pedagogik texnika orqali samarali va sifatli hal qilish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Асташевский Б.С., Суворова Н.В. Мотивы выбора профессии современными выпускниками. // Молодёжь Сибири-науке России: Материалы международной научно-практической конференции. Красноярск, 2016. С.13–15.
2. Захаров Н.Н., Симоненко В.Д. Профессиональная ориентация школьников. Москва: Просвещение, 1989. 192 с.
3. Красноярцева, О.М. Особенности профессионального мышления в условиях психодиагностической деятельности. Барнаул, 1998. 113 с.
4. Сапожникова, Т.Н. Готовность к жизненному самоопределению, как результат профильной подготовки старшеклассников. Системогенез учебной и профессиональной деятельности: Материалы III Всероссийской научно-практической конференции. Ярославль: Канцлер, 2010. С. 242–244.
5. Суворова Н.В., Романенко К.В. Особенности профессиональной готовности детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей // Теоретические и практические проблемы развития современного общества: Материалы IX Международной дистанционной научно-практической конференции. Красноярск, 2015. С. 228–234.
6. Ш. Дж. Усманова ва бошқалар. Касбий психология.- Т.: Зиёнур. 2020. - 180 б.

Muallif:

Usmanova Shoirajumabekovna - O'zMU Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasini dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.

UDK 372.850.2

THEORETICAL-PRACTICAL PRINCIPLES OF ECOLOGICAL EDUCATION FOCUSED ON THE PRESERVATION OF NATURE IN THE FAMILY

ОИЛАДА ТАБИАТНИ АСРАБ–АВАЙЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ЭКОЛОГИК ТАРБИЯНИНГ НАЗАРИЙ–АМАЛИЙ АСОСЛАРИ

ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА СОХРАНЕНИЕ ПРИРОДЫ В СЕМЬЕ

Shodiyeva Nodira Normamatovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti. 190111. Termiz shahar, Bog'i shamol MFY, Farovon 1-chi mavze, 4-b uy.

E-mail: nodirashodiyeva168@gmail.com

Abstract. In this article, the role of the family in creating ecological culture is important. It is thought that the material supply and well-being of the family, the cultural standard of living, the stability of the healthy environment, the psychological attitude of the family members, and the presence of mutual cooperation serve the socialization of the individual to the society. Organized work in the family not only trains children physically, but also teaches them to plan their work, to use time effectively, to be frugal, and to preserve the blessings that are the product of human labor.

Keywords: Ecology, family, material wealth, nature, environmental problems.

Аннотация. В данной статье важна роль семьи в создании экологической культуры. материальное обеспечение и благополучие семьи, культурный уровень жизни, стабильность здоровой окружающей среды, психологический настрой членов семьи, наличие взаимного сотрудничества служат социализации личности в обществе. Организованный труд в семье не только тренирует детей физически, но и учит планировать свой труд, рационально использовать время, быть бережливыми, сохранять блага, являющиеся продуктом человеческого труда.

Ключевые слова: Экология, семья, материальные блага, природа, экологические проблемы

Кириш. Экологик муаммолар доимо инсоният олдида турган энг долзарб омиллардан бири бўлиб келган. Оилада экологик тарбия бериш эса ижтимоий тарбиянинг муҳим таркибий қисми саналади. Ўзбекистон

Республикаси Президентининг “2017– 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устивор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”нинг 5 устивор йўналиши 5.1 бандида атроф–табiiй муҳит, аҳоли саломатлиги ва генофондига зиён етказадиган экологик муаммоларни олдини олиш ” ҳақида алоҳида кўрсатиб ўтилган эди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019–йил 30–октябр “2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф–муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 27 майдаги 434–сон қарорига асосан қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасида Экологик таълимни ривожлантириш Концепцияси “нинг қабул қилиниши Оилада экологик тарбия бериш, экологик таълим–тарбияни олиб борилишида мактаб, оила, маҳалла ҳамкорлигини ривожлантиришнинг илмий–назарий ва педагогик асосини белгилаб беради.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 26– январдаги Олий Мажлиса Мурожатномасида атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва экологик ҳолатни яхшилашга эътиборни кучайтиришимиз керак деб таъкидлаб ўтилган. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош ассамблеясининг 75– сессиясида Шавкат Миромонович Мирзиёев ўзбек тилида нутқ сўзлади. Биз Оролбўйи минтақасини экологик инноватция ва технологиялар ҳудуди, деб эълон қилиш ҳақида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг махсус резолюциясининг қабул қилишни таклиф этамиз. Ушбу муҳим ҳужжат тасдиқланган санани эса Халқаро экологик тизимларни ҳимоя қилиш ва тиклаш куни сифатида нишонлаш мақсадга мувофиқ бўларди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Мустақиллигимизнинг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимида куйидаги фикрларни айтиб ўтди: Биз умумий манфаатлардан келиб чиққан ҳолда, Орол бўйидаги ижтимоий–иқтисодий вазиятни яхшилаш, минтақанинг сув ва экология билан боғлиқ муаммоларига ечим топиш бўйича барча саъи–ҳаракатларимизни бирлаштиришимиз лозим. Халқимизнинг табиатга унинг бойликларини асраб–авайлаган ҳолда муносабатда бўлиш ва умумий сув ресурсларидан биргаликда борасидаги кўп асрлик анъаналарга суянган ҳолда биз ҳақиқатдан ҳам улкан натижаларга эришамиз деб ҳисоблайман.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019–йил 31 декабрдаги №1059–сон қарори: Узлуксиз маънавий тарбия концепциясининг V боб 34 бандида Болаларда атроф муҳит озодлиги, шахсий гигиена, табиатни асраб–авайлашга қаратилган экологик тарбия мазмунидаги “Она табиатни асрайлик” рукнида тарбиявий роликлар яратиш каби вазифаларни ҳал этиш масалалари белгилаб қўйилган [1].

Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар

Оилада экологик тарбия беришнинг илмий– услубий йўналишларини ишлаб чиқилганлиги, атроф– муҳитни асраб авайлашга қаратилган экологик тарбияни шакллантиришнинг методологик ва дидактик асослари, принциплари, қонуниятлари, психологик–педагогик имкониятлар асосида мезонлар ишлаб чиқилган бўлиб, оилада экологик тарбия беришга хизмат қилувчи усуллар, воситаларнинг илмий– назарий жиҳатдан асосланганлиги. Тадқиқот натижаларининг амалий аҳамияти шундан иборатки, оилада атроф– муҳитни асраб авайлашга қаратилган экологик тарбия мазмуни юзасидан илгари сурилган илмий– назарий, услубий фикрларнинг мақолада келтириб ўтилган методик тавсиялардан оилада экологик тарбияни ташкил этиш жараёнида самарали фойдаланилади. Тадқиқот мавзусини ёритишда таснифлаш, тавсифлаш, комплекс ва таҳлил усулларидан фойдаланилган.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

Табиат муҳофазасига оид тарбиявий ғоялар асосан “Авесто”, “Қуръони Карим”, Ҳадис илми, халқ педагогикаси ва шу каби манбаларда ўз аксини топган. Амалий жиҳатдан қараганда диалектика қонунларига кўра инсон пайдо бўлгандан экология билан чамбарчас боғлиқдир. Шунинг учун ҳам жамият ва табиатнинг ўзаро боғлиқлиги ҳамда бирлигини нотўғри баҳолаш тузатиб бўлмас оқибатларга олиб келиши мумкин. Кишилиқ тарихидан маълумки, фан оламида Ўрта Осиёлик алломалар яратган илмий ғоя ва кашфиётлар янги йўналишларнинг вужудга келишига сабаб бўлган. Улар хали экология фани вужудга келмаган даврда табиат ҳамда ундаги мувозанат, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, табиатни эъзозлаш ҳақидаги қимматли фикрларни айтганлар. Марказий Осиёлик мутафакирлар Имом Ал– Бухорий, Ат– Термизий, Абу Райхон Беруний, Абу Али ибн Сино, Махмуд Қошғарий, Юсуф хос Ҳожиб, Аҳмад Югнакий, Абу Наср Форобий, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Абдурахмон Жомий, Ҳусайн Воиз Кошифий асарларида табиат ва жамиятнинг ўзаро алоқадорлиги, атроф– муҳитни муҳофаза қилиш, табиат неъматларини асраш, улардан тежаб тергаб фойдаланиш, табатни эъзозлаш (сув, ҳаво, тупроқ, қуёш)га оид муаммоли масалаларни ечимлари илмий– амалий жиҳатдан асослаб берилган [2].

Илмий амалий манбалар таҳлилидан маълум бўлдики, оилада табиатни асраб авайлашда қаратилган экологик тарбия жараёни кенг қамровли тушунча бўлиб, экологик саводхонлик, экологик маданият, экологик дунёқарашни ўз ичига қамраб олади. Жамиятнинг ҳар бир аъзоси учун талукли бўлган бу тушунчалар дастлаб оила муҳитида сингдириб борилиши тадқиқотимизнинг асосий мазмунидир. Экологик тарбия муаммолари узок йиллар давомида тадқиқ этилаётган бўлишига қарамай, оилада табиатни асраб–авайлашга қаратилган экологик тарбия мазмуни ханузгача ўз ифодасини тўлиқ топган эмас.

Экологик маданият – бу аввало инсонларнинг борлика,табиатга нисбатан бўлган муносабати ҳамда экологик муаммоларни англай олиш ва маълум маънода бу муаммоларни олдини олишдир [3].

Дастлабки тажриба–синов ишлари натижалари ва манбалар таҳлили оилада табиатни асраб–авайлашни амалий жиҳатдан тайёрлаш муаммосига эътибор қаратилмаганлигини исботлади. Педагогик амалётда назарий билим, амалий кўникма ва малакаларнинг шаклланганлик даражасини ўрганишга алоҳида эътиборнинг қаратилиши барчага яхши маълум. Ана шу мақсадда мазмуни ва йўналишига қўра аниқловчи ҳолатларнинг муайян даражасини белгилашга ёрдам берувчи мезонлар ишлаб чиқилди. Тадқиқотни олиб бориш жараёнида оилада табиатни асраб–авайлашга қаратилган экологик тарбия мазмунини ҳамда тарбияланганлик даражасини белгиловчи мезонлар ишлаб чиқилди.

Тажриба–синов ишлари объектнинг танланиши тадқиқот доираси ва амалдаги тартиб, шарт–шароитларга киритиладиган ўзгаришлар чегараси белгилаб олинishi билан боғлиқ бўлиб, унда тадқиқотчи ўрганиладиган соҳанинг чегаралари ва нима ўрганишини аниқлаштиради. Тажриба–синов ишлари предмети белгилашда объект қандай ўрганилиши, объектга қандай хусусият, муносабат ва функциялар ажралиб туриши, айнан олинган тажриба–синов ишларида объектнинг қайси жиҳатлари очиб берилиши лозимлиги билан боғлиқ масалалар акс эттирилиши лозим. Унинг функцияси тадқиқот жараёнида амалга ошириладиган таъсир доирасини қайд этиш, чегаралаш билан боғлиқ бўлади. Тажриба-синов ишларининг мақсади, натижа сифатида яратиладиган ва синовдан ўтказиш билан боғлиқ, масалаларни аниқ ва лўнда ифодаларда шакллантиришга қаратилади. Масалан, ота–оналарнинг ўзаро мулоқот маданиятини шакллантиришга қаратилган педагогик усуллар мажмуасини ишлаб чиқиш ва синовдан ўтказиш; бола шахсининг ижтимоийлашуви ва бозор иқтисодиёти шароитларига мослашувини таъминловчи тарбиявий ишлар тизимини ишлаб чиқиш ва синовдан ўтказиш.


Тажриба–синов ишлари дастурида вазифаларни белгилашда мақсадга эришиш учун амалга оширилиши керак бўладиган тадбирлар олинadиган натижалар кетма–кет белгилаб чиқилади. Вазифалар белгиланган умумий мақсаднинг нисбатан аниқ мақсадларга қисмларга ажратилганга хусусий мақсадлари сифатида қаралиши мумкин. Масалан, оилада экологик саводхонликнинг ривожлантириш методикаси ривожининг замонавий йўналишларини таҳлил қилиш ўқувчиларда эса, табиатшунослик, атрофимиздаги олам, биология, фанларини ўқитилиш самарадорлигини белгиловчи педагогик усуллар ҳамда методлар мажмуасини аниқлаш ва синовдан ўтказиш. Тажриба – синов ишлари одатда узоқ муддат давом этиши сабабли у муайян босқичларга ажратилган ҳолда амалга оширилади.

Тажриба–синовнинг ажратиладиган босқичларида унинг қисмлари, оралиқ натижалари ҳамда уларга эришиш кетма–кетлиги белгилаб олинади. Қисмлар муайян белгиланган вақт оралиғида тадқиқот илмий фаразида назарда тутилган тадбирларни амалга оширишнинг узвийлигини таъминлашга хизмат қилади. Босқичлар эса оралиқ натижаларни аниқлаш уларни баҳолаш ва тегишли кузатишлар киритиш имконини беради. Шу сабабли тажриба–синов босқичларини белгилашда оралиқ натижалар ҳамда уларга эришиш кетма–кетлиги бунинг учун зарур бўладиган муддатлар олдиндан аниқлаб олинади. Тажриба–синов ишларини ташкиллаштириш ва бу борадаги дастурларни ишлаб чиқишга оид мулоҳазаларимизни хулосалаб бу жараённинг барча иштироклари учун муҳим бўлган қуйидаги муҳим жиҳатларини таъкидлаб ўтмоқчимиз. Тажриба–синов ишлари амалдаги жараёнларга ўзгартириш киритишни назарда тутувчи тадбирлар мажмуаси бўлиб, унда ҳар бир тадбир оқибати баҳолаиб пухта ўйланган ҳолда ишлаб чиқилмоғи қўлланиладиган методика ва янги тажрибалар илмий–методологик жиҳатдан асосланган ҳамда қиёсий ўрганилган ҳолда тавсия этилмоғи лозим. Маълумки, тадқиқотнинг асосий мақсади “Оилада табиатни асраб– авайлашга қаратилган экологик тарбия мазмуни”ни шакллантириш жараёнини ижтимоий хусусиятларини ўрганиш, унга таъсир қилувчи омилларни ишлаб чиқиш, муаммога доир тажриба–синов натижаларини амалиётга тавсия қилишдир. Илмий–педагогик методик тажрибалар орқали чиқарилган хулосалар, илгари сурилган ғоялар, методик тавсиялар ишлаб чиқилган тизимнинг самарадорлигини белгилашда муҳим аҳамият касб этади. Тажриба-синов ишлари асосан оилаларда экологик маданият ва саводхонликни шаклланганлик даражаси мисолида кузатилди. Шунингдек, ота– оналар билан суҳбатлар уюштирилди, ўқувчиларда эса анкета саволлари асосида интерфаол дарсларни ташкил қилиш даражасини аниқлашга ҳаракат қилинди. Тажриба–синов жараёнида танланган гуруҳларда жами 100 нафар ота-оналар, 20 нафар болалар иштирок этишди. Назорат ота– оналарига экологик маданиятни шакллантиришда аъъанавий тарзда суҳбат олиб борилди. Тажриба гуруҳидаги ота-оналарга эса одатдаги усулдан фарқли равишда уларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш мақсадида қизиқарли маълумотларидан яъни тест, тарқатма материаллар сўровнома саволларидан ҳамда замонавий педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланилди.

Тажриба-синов ишлари икки босқичга олиб борилади. Тажриба–синовнинг биринчи босқичи: Унда тажриба–синов ишларининг шакллантирувчи босқичда оилаларда экологик тарбияни шакллантиришга оид маълумотлар тест, тарқатма материаллар сўроқ–суҳбат методлари асосида ташкил этишга йўналтирилган тажриба–синов ишлари маҳсус режа асосида олиб борилди.

Мазкур режа таркибида ота-оналар турли методлар асосида ташкил этиш борасида кўникма ва малакаларни ҳосил қилишга имкон берувчи усулларни ўрин олишига эътибор қаратди. Жадвалда экологик тарбияни шакллантириш бўйича биринчи босқич тажриба синов ишлари келтирилган.

Термиз шаҳар Шодлик маҳалласи №10 умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларидан Экологик тарбия, атроф-муҳитга нисбатан ёшларнинг қизиқишини билиш мақсадида суровнома ўтказдик. Тажриба мақсадида суровномада она табиатга бўлган ёшларнинг меҳр-мухаббатини яъни табиий бойликларимизга(сув, газ, нефт, хаво, тупроқ...), ўсмлиқ ва хайвонот дунёсига бўлган қизиқишлари аниқланди. (1-диаграмма)



1-диаграмма.



2-диаграмма.

Биринчи босқич тажриба – синов натижалари

| Танланган гуруҳ. | Оилалар сони | Ўзлаштириш даражаси (баллар) бўйича | | | |
|---|--------------|-------------------------------------|--------|--------|---|
| | | 86– 100 | 71– 85 | 55– 70 | |
| Назорат гуруҳи. Саҳовот– Турон маҳалласи. | 25 | 2 | 5 | 10 | 8 |
| Умумий ўзлаштириш 68 % | | | | | |
| Тажриба гуруҳи. Меҳрибод маҳалласи.132/дом. | 25 | 2 | 4 | 10 | 9 |
| Умумий ўзлаштириш 64 % | | | | | |
| Назорат гуруҳи. Шодлик маҳалласи | 25 | 2 | 5 | 10 | 8 |
| Умумий ўзлаштириш 68 % | | | | | |
| Тажриба гуруҳи. Меҳрибод маҳалласи 134/дом. | 25 | 3 | 5 | 10 | 7 |
| Умумий ўзлаштириш 72 % | | | | | |

Жадвал таҳлилидан кўринадики тажриба–назорат гуруҳларининг экологик саводхонликни шаклланди даражаси кўрсаткич даражасида эмас. Бошланғич синфларда табиатшуносликни ўқитишда ўқувчиларнинг экологик билим даражалари таснифлари қуйидагича тушунтирилади: 1. Умумий ўрта таълим мактабларининг танланган бошланғич синфларида табиатшуносликни атроф муҳитни муҳофаза қилиш ҳақидаги билимлар берилмайди. 2. Аксарият бошланғич синф ўқитувчиларида табиатшуносликни ўқитишда назарий экологик билими, амалий кўникма ва малакалари етишмайди.

Шу боис, юқорида келтирилган камчиликлар; ота–оналарда экологик билимларни ўзлаштирамаслиги уларнинг экологик билими мазмуни ва сифатини пасайтиради. Экологик билим бермаслиги назария билан амалиёт узвийлигини тушунтиришни қийинлаштиради.

Тажриба–синовнинг иккинчи босқичи: тажриба–синов жараёнида тўпланган тажрибаларга таяниб олиб борилади. Ота–оналарда экологик билимларни шакллантириш жараёнида учраган камчиликлар ҳисобга олиниб, уларнинг билимидаги камчиликлар тузатилади. Экологик саводхонликни шакллантириш экологик мазмунда амалий ишлар бажаришнинг тушунарли бўлиши босқичма–босқич текшириб борилди. Экологик саводхонликни шакллантиришдаги амалий ишлар бажариши методикасининг ишонарлилик даражаси тажриба–синовда кўрилди.

Танланган оилаларда экологик саводхонликни шакллантиришда амалий ишлар бажариш самарадорлигини текшириб кўриш учун тажриба синфларида қўшимча равишда тажриба – синов ишлари олиб борилди. Назорат гуруҳларида эса анъанавий методлардан фойдаланиб, ота–оналарда экологик тафаккурни шакллантириш бўйича машғулотлар олиб борилди.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

Куйидаги жадвалда танланган оилаларда экологик тарбияни шакллантириш бўйича ўтказилган якуний яъни иккинчи босқич тажриба – синов натижалари кўрсатилган.

Иккинчи босқич тажриба – синов натижалари

| Танланган гуруҳ. | Оилалар сони | Ўзлаштириш даражаси (баллар) бўйича | | | |
|---|--------------|-------------------------------------|--------|--------|-----------|
| | | 86– 100 | 71– 85 | 55– 70 | 54дан кам |
| Назорат гуруҳи. Саҳовот– Турон маҳалласи. | 25 | 3 | 6 | 8 | 8 |
| Умумий ўзлаштириш 68 % | | | | | |
| Тажриба гуруҳи. Меҳриобод маҳалласи.132/дом | 25 | 4 | 8 | 6 | 7 |
| Умумий ўзлаштириш 72 % | | | | | |
| Назорат гуруҳи. Шодлик маҳалласи | 25 | 4 | 8 | 7 | 6 |
| Умумий ўзлаштириш 68 % | | | | | |
| Тажриба гуруҳи. Меҳриобод Маҳалласи.132/дом | 25 | 6 | 10 | 7 | 2 |
| Умумий ўзлаштириш 92 % | | | | | |

Оилаларда экологик саводхонлик, экологик билимларини шакллантириш натижалари тажриба гуруҳлари назорат гуруҳларига нисбатан юқори эканлиги тажриба – синов жараёнида илмий асосланди.

Хулоса. Олиб борилган илмий тадқиқот ишимиз натижалари куйидаги хулосаларни чиқаришга асос бўлди: 1. Оилаларда экологик тарбияни шакллантириш натижалари таҳлил қилиниб, тадқиқот мақсади, вазифалари, илмий фаразларнинг тўғрилигини асослаб, уларнинг психологик хусусиятлари, экологик саводхонликни шакллантириш, экологик билимларнинг чуқур ва пухталигини таъминлаш мумкинлиги аниқланди. 2. Оилаларда экологик тарбияни шакллантиришда қиёсий таҳлил, анкета сўровлари тажриба – синов каби услублар: тажриба ва амалай машқлар, экскурсия ташкил этиш, ўтказиш, конференция савол – жавоб кечаларидан кенг фойдаланилди. илғор технологияларининг наанъанвий ташкилий шакллари ва уларнинг самарадорлик даражасига эришилди. Тажриба – синовдан олинган натижалар асосида табиатшуносликни фан ўқитишда ўқувчиларда экологик тарбия беришда инновацион усуллардан фойдаланиш куйидаги тавсиялар ишлаб чиқилди. 1. Педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш жараёнида. Ота–оналарга экологик саводхонликни шакллантиришда инновацион усуллардан фойдаланиш бўйича мазкур илмий тадқиқот натижаларидан фойдаланиш. 2. Замонавий талаблар ва фан техника тараққиётидан келиб чиққан ҳолда кишиларнинг ўз касбини онгли равишда тўғри белгилаш ва шу асосда тегишли билимларни пухта эгаллашларига эришиш. 3. Экологик саводхонлигини такомиллаштириш усуллари ўргатишнинг самарали тизимини яратиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси Ўз.Рес.Вазирлар Маҳкамасининг 1059-Қарори.31 декабр 2019 й.
2. Оила педагогикаси. Тошкент 2007 йил. 225-бет.
3. Ж.Хасанбоев, Х.Тўрақулов, И.Алқаров, Н.Усмонов Педагогика. Тошкент 2011 й. 185-бет.

Муаллиф:

Shodiyeva Nodira Normamatovna - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi.

UDK 372.879.6

IMPROVING STUDENTS' SPORTS COMPETITIONS AND REFEREEING COMPETENCIES IN THE CREDIT MODULE SYSTEM

TALABALARNING SPORT MUSOBAQALARINI O'TKAZISH VA KREDIT MODUL TIZIMIDA HAKAMLIK QILISH KOMPETENTSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

ПРОВЕДЕНИЕ СПОРТИВНЫХ СОРЕВНОВАНИЙ СТУДЕНТОВ И СУДЕЙСТВО В КРЕДИТНОЙ МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Izzatullayev Sunnatulla Shermuxammad o'g'li

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, 4-mavze

E-mail: sunnatullaizzatullayev@gmail.com

Abstract. This article covers the introduction of a credit module system to improve students' skills in sports competitions and refereeing. The credit module system offers a flexible and individual approach, allowing students to choose modules based on their interests and goals. Integration of theory and practice, continuous assessment and feedback,

interdisciplinary perspectives are the main features of this system. In addition, practical applications through internships, mentoring from industry experts, research opportunities and international perspectives help students develop well-rounded. Ethical aspects, stakeholder engagement and continuous professional development opportunities are also highlighted.

Keywords: credit module system, sports competition, refereeing, individualized learning, practical application.

Аннотация. В данной статье рассматривается внедрение системы кредитных модулей для повышения квалификации студентов в спортивных соревнованиях и судействе. Система кредитных модулей предлагает гибкий и индивидуальный подход, позволяя студентам выбирать модули исходя из их интересов и целей. Интеграция теории и практики, непрерывная оценка и обратная связь, междисциплинарный подход – вот основные особенности этой системы. Кроме того, практическое применение посредством стажировок, наставничество со стороны отраслевых экспертов, исследовательские возможности и международные перспективы помогают студентам всесторонне развиваться. Также уделяется особое внимание этическим аспектам, участию заинтересованных сторон и возможностям непрерывного профессионального развития.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, спортивные соревнования, судейство, индивидуальное обучение, практическое применение.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida sport mamlakatlar taraqqiyoti, xalqaro miqyosda milliy nufuzini oshirishning yetakchi omillaridan biri hisoblanadi. Jismoniy madaniyat inson salomatligida muhim o‘rin tutadi, ishlab chiqarish va mehnat unumdorligini ta‘minlaydi. Dunyoda sodir bo‘layotgan madaniy o‘zgarishlar, sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlari sportning yuksalishini ta‘minlovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlar jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish bo‘yicha o‘z strategiyalarini ishlab chiqmoqda. Xususan, Xalqaro olimpiya qo‘mitasi va Xalqaro sport tashkiloti (FIFA) tomonidan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda sportni rivojlantirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, aholi salomatligini muhofaza qilishda jismoniy tarbiya rolini oshirish, sport turlari bo‘yicha musobaqalarni o‘tkazish va hakamlik qilish kompetensiyalarini rivojlantirish, sport o‘yinlarini o‘tkazish metodikasini standartlashtirish, sport musobaqalarini tizimli tashkil etish shular jumlasidandir. [3]

Tadqiqot obyekti va qo‘laniladigan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida kredit modul tizimida talabalarda sport musobaqalari o‘tkazish va hakamlik qilish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni. Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatuv, so‘rov, suhbat, anketa, test, intervyu, pedagogik eksperiment va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Olinadigan natijalar va ularning taxlili

Kredit moduli tizimi talabalarining turli sohalar, jumladan, sport musobaqalari va hakamlik malakalarini oshirishga qaratilgan innovatsion ta‘lim yondashuvi sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu maqola, ayniqsa, sport musobaqalari va hakamlik kontekstida kredit moduli tizimining joriy etilishi va afzalliklari bilan tanishtirishga qaratilgan.

1. Ma‘lumot: Sport musobaqasi va hakamlik texnik ko‘nikmalar, taktik tushunish, qaror qabul qilish qobiliyati va axloqiy ongning uyg‘unlashtirishini talab qiladigan dinamik sohalaridir. An‘anaviy ta‘lim yondashuvlari ko‘pincha ushbu sohalarida keng qamrovli tayyorgarlikni ta‘minlash uchun kurash olib boradi. Kredit moduli tizimi talabalarga o‘z ta‘lim tajribasini moslashtirish va sport musobaqalari va hakamlik doirasida muayyan kompetensiyalarga e‘tibor qaratish imkonini beruvchi istiqbolli yechim taklif etadi.

2. Maqsadlar: Sport musobaqalari va hakamlik faoliyatida kredit modul tizimini joriy etishdan maqsad talabalarining umumiy kompetensiyasini va ushbu sohalarida professional ishtirok etishga tayyorligini oshirishdan iborat. Moslashuvchan va individuallashtirilgan ta‘lim yo‘lini taqdim etish orqali talabalar maxsus ko‘nikmalarni rivojlantirishlari, amaliy tajriba orttirishlari va sport sanoati haqida yaxlit tushunchani rivojlantirishlari mumkin.

3. Struktura va moslashuvchanlik: Kredit moduli tizimi modulli tuzilishi bilan ajralib turadi, bunda talabalar o‘z qiziqishlari va maqsadlariga mos keladigan modullar qatoridan tanlashlari mumkin. Ushbu modullar sport musobaqasining turli jihatlarini, masalan, texnik mahorat tayyorlash, jismoniy tayyorgarlik, taktik tahlil va jamoa dinamikasini qamrab olishi mumkin. Xuddi shunday, hakamlik bo‘yicha modullar qoidalarni sharhlash, qaror qabul qilish, nizolarni hal qilish va o‘yinni boshqarishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Kredit modul tizimining moslashuvchanligi talabalarga o‘z ta‘limini o‘zlarining maxsus ehtiyojlari va afzalliklariga moslashtirish imkonini beradi.

4. Nazariya va amaliyot integratsiyasi: Kredit moduli tizimining asosiy kuchli tomonlaridan biri nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash bilan birlashtirishdir. Talabalar nafaqat sport musobaqalari va hakamlikning nazariy asoslarini o‘rganadilar, balki real o‘yinlarda qatnashish, tajribali hakamlarni kuzatish va amaliy o‘yinlarni boshqarish kabi amaliy tajribalarni ham o‘rganadilar. Ushbu integratsiya talabalarining mavzuni chuqur tushunishini va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni egallashini ta‘minlaydi.

5. Uzluksiz baholash va fikr-mulohazalar: Kredit moduli tizimi uzluksiz baholash va fikr-mulohazalarni rag‘batlantiradi, bu esa talabalarga o‘z yutuqlarini kuzatish va yo‘lda yaxshilanishlarni amalga oshirish imkonini beradi. Muntazam baholash, ham shakllantiruvchi, ham summativ, o‘quvchilarning o‘rganishini baholash va konstruktiv fikr bildirish uchun qimmatli nazorat nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu takrorlanadigan jarayon ularning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi va sport musobaqalari va hakamlik sohasidagi malakalarini oshirishga yordam beradi.

6. Kasbiy rivojlanish va ishga joylashish: Kredit moduli tizimiga kirish orqali, talabalar sport sanoatida ish bilan ta'minlanishi va kasbiy rivojlanish istiqbollarini oshiradi. Ixtisoslashgan malakalar, amaliy tajriba va rivojlanayotgan sport kontekstlariga moslashish qobiliyati talabalarni sport musobaqalari, hakamlik, murabbiylik, sport menejmenti va tegishli sohalarda martaba imkoniyatlariga ega bo'lish imkonini beradi. Kredit modul tizimi talabalarning sport musobaqalari va hakamlik faoliyatidagi malakalarini oshirish uchun istiqbolli yondashuvni taklif etadi. Uning moslashuvchan va individuallashtirilgan tabiati, nazariya va amaliyotning integratsiyasi, uzluksiz baholash va kasbiy rivojlanishga qaratilganligi uni sportning dinamik sohasida muvaffaqiyatga tayyorlash uchun samarali asosga aylantiradi. Sport ta'limi pedagogikasi bo'yicha tadqiqotlar uzoq tarixga ega. Dastlabki tadqiqotlar jismoniy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun sportdan foydalanishni o'rgangan. Keyingi adabiyotlarda sportning akademik kredit tuzilmalariga integratsiyalashuvi va talabalar rivojlanishi uchun imtiyozlar tahlil qilindi. Eng so'nggi ishlar kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni va sport orqali yuqori muvaffaqiyatli ko'nikmalarni baholashni o'rganadi.

Talabalarning sport musobaqalari va hakamlik malakalarini oshirishda kredit modul tizimini joriy etish o'quv tadqiqotlari va adabiyotlarda e'tiborni tortdi. Bir nechta tadqiqotlarda ushbu yondashuvning samaradorligi va uning talabalarning ta'lim natijalari va kasbiy rivojlanishiga ta'siri o'rganildi. Talabalarning sport musobaqalari va hakamlik bo'yicha malakalarini oshirishda kredit modul tizimini joriy etish bir qator afzallik va munozaralarni talab qiladi. Ushbu bo'limda ushbu ta'lim yondashuvidan foydalanishning samaradorligi, muammolari va kelajakdagi oqibatlari bilan bog'liq asosiy fikrlar o'rganiladi.

1. Kredit modul tizimining samaradorligi: Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kredit modul tizimi talabalarning sport musobaqalari va hakamlik malakasini oshirishda yuqori samara berishi mumkin. Individual ta'lim yondashuvi o'quvchilarga qiziqishlari va martaba maqsadlariga ko'ra muayyan sohalarga e'tibor qaratish imkonini beradi. Ushbu shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasi motivatsiya, faollik va chuqur o'rganishga yordam beradi. Nazariya va amaliyotning integratsiyasi talabalarga o'z bilimlarini real sharoitlarda qo'llash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va sinfdagi ta'lim va kasbiy amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish imkonini beradi.

2. Qiyinchiliklar va mulohazalar: Kredit moduli tizimi ko'plab imtiyozlarni taqdim etsa-da, u hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarni ham keltirib chiqaradi. Muammolardan biri sport musobaqalari va hakamlik doirasidagi turli kompetensiyalarga javob beradigan turli xil modullarning mavjudligini ta'minlashdir. Institutlar sport industriyasining rivojlanayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun modul takliflarini ishlab chiqish va muntazam yangilab turishga sarmoya kiritishlari kerak. Bundan tashqari, tayanch bilimlar va maxsus ko'nikmalar o'rtasidagi muvozanatni saqlash o'quvchilarning har tomonlama ta'lim olishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Yana bir qiyinchilik o'quvchilarning ta'lim natijalarini samarali baholash bilan bog'liq. Kredit moduli tizimidagi uzluksiz baholash va fikr-mulohazalar talabalarning muvaffaqiyati va yutuqlarini to'g'ri baholaydigan keng qamrovli va ishonchli baholash strategiyalarini talab qiladi. Tegishli baholash vositalarini ishlab chiqish, baholashda izchillikni ta'minlash va o'z vaqtida fikr-mulohazalarni taqdim etish talabalarning o'sishiga yordam berish uchun muhim ahamiyatga ega.

3. Kelajakdagi natijalar: Kredit moduli tizimi sport ta'limi va talabalarning kasbiy rivojlanishiga istiqbolli ta'sir ko'rsatadi. Sport sanoati rivojlanishida davom etar ekan, kredit moduli tizimi paydo bo'lgan tendentsiyalar va talablarga moslashishi va javob berishi mumkin. Ushbu tizimning moslashuvchanligi sport musobaqalari va hakamlik doirasida paydo bo'lgan kompetensiyalar va texnologiyalarni qamrab oluvchi yangi modullarni integratsiya qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, kredit moduli tizimi sport ta'limini sport fani, sport menejmenti yoki sport psixologiyasi kabi boshqa sohalar bilan birlashtiruvchi modullarni taklif qilish orqali fanlararo hamkorlikni rivojlantirishi mumkin. Ushbu fanlararo yondashuv talabalarni kengroq mahorat to'plami va sport musobaqalari va hakamlikka ta'sir qiluvchi turli jihatlarni chuqurroq tushunish bilan jihatlaydi.

4. Axloqiy mulohazalar: Sport musobaqalari va hakamlik faoliyatidagi axloqiy mulohazalar kredit moduli tizimida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan muhim jihatlardir. O'quv dasturi axloqiy tamoyillar, halol o'yin, halollik va sport mahoratini qamrab oluvchi modullarni o'z ichiga olishi kerak. Talabalarni sportchi yoki hakam sifatidagi rollarida axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini tushunish va ularga rioya qilishga undash kerak. Axloqiy munozaralar va amaliy tadqiqotlarni o'quv dasturiga integratsiyalash talabalarga mustahkam axloqiy asos va axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik: modul tizimi, sport sanoatidagi manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Sport tashkilotlari, professional sportchilar, hakamlar va soha mutaxassislarini o'quv dasturlarini ishlab chiqish, modullarni loyihalash va amaliy mashg'ulotlar imkoniyatlariga jalb qilish o'quv tajribasining haqiqiyli va amaliyini oshirishi mumkin. Hamkorlik, shuningdek, talabalarning kasbiy rivojlanishiga va kelajakdagi martaba istiqboliga katta hissa qo'shadigan amaliyot, murabbiylik va tarmoqqa kirish imkoniyatlarini beradi. Kredit modul tizimi talabalarning sport musobaqalari va hakamlik faoliyatidagi malakalarini oshirish uchun istiqbolli yondashuvni taklif etadi. Muammolar mavjud bo'lsa-da, ularni turli modul takliflari, samarali baholash strategiyalari va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik orqali hal qilish tizim samaradorligini oshirishi mumkin. Axloqiy mulohazalar va fanlararo istiqbollar talabalarning har tomonlama rivojlanishiga yanada hissa qo'shadi.

Kredit moduli tizimini qo'llash orqali, ta'lim muassasalari o'quvchilarni sport musobaqalari va hakamlarning dinamik sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur ko'nikma va bilimlar bilan qurollantirishi mumkin. Talabalarning sport musobaqalari va hakamlar malakalarini oshirishda kredit modul tizimining samaradorligini turli ko'rsatkichlar va ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin. Muayyan natijalar muassasa va dasturga qarab farq qilishi mumkin bo'lsa-da, kredit modul tizimining ta'sirini baholash uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar mavjud:

1. Ta'lim natijalari: Kredit modul tizimi talabalarning sport musobaqalari va hakamlar sohasidagi malakalarini oshirishga qaratilgan. O'quv natijalarini baholash sport musobaqalari va hakamlar kontekstida o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish, texnik ko'nikmalarni rivojlantirish, taktik tushunish, qaror qabul qilish qobiliyati va axloqiy ongini baholashni o'z ichiga olishi mumkin. Moduldan oldingi va keyingi baholashlarni qiyosiy tahlil qilish talabalar erishgan o'sish va takomillashtirish haqida tushuncha berishi mumkin.

2. Amaliy qo'llanilishi: Nazariya va amaliyotning integratsiyasi kredit moduli tizimining asosiy jihati hisoblanadi. Tizim samaradorligini o'lchash uchun talabalarning bilim va ko'nikmalarni real sharoitlarda amaliy qo'llashini baholash zarur. Buni o'quvchilarning sport musobaqalaridagi faoliyatini, o'yinlarni samarali boshqara olish qobiliyatini, turli stsenariylarda strategik fikrlash va muammolarni yechish ko'nikmalarini qo'llashni baholash orqali amalga oshirish mumkin. To'g'ridan-to'g'ri kuzatish, ish faoliyatini baholash va tajribali mutaxassislar fikr-mulohazalari amaliy qo'llanilishini baholashda qimmatli bo'lishi mumkin.

3. Fikr-mulohaza va o'z-o'zini mulohaza qilish: Uzluksiz baholash va fikr-mulohaza kredit moduli tizimining ajralmas tarkibiy qismidir. O'quvchilarning fikr-mulohazalarini qabul qilish va o'z ichiga olish qobiliyatini, shuningdek, o'z-o'zini aks ettirishdagi ishtirokini baholash ularning o'sishi va rivojlanishi haqida tushuncha beradi. Talabalarning takomillashtirilishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash, maqsadlar qo'yish va ularning malakasini oshirish bo'yicha faol choralar ko'rish qobiliyatini baholash o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirishda kredit moduli tizimining samaradorligini ko'rsatadi.

4. Kasbiy yuksalish: Kredit moduli tizimi talabalarni sport sohasida kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan. Talabalarning kasbiy rivojlanishini baholash ularning ishga layoqatligini, sport musobaqalarida va hakamlardagi martabaga tayyorligini va kasbiy sharoitlarga moslashish qobiliyatini baholashni o'z ichiga olishi mumkin. Buni talabalarning amaliyot, ishga joylashtirish yoki murabbiylik dasturlaridagi ishtirokini, shuningdek, ularning sanoat tadbirlari yoki tashkilotlaridagi ishtirokini tahlil qilish orqali amalga oshirish mumkin.

5. Talabalarning qoniqishi va fikr-mulohazalari: Talabalarning qoniqish darajasini baholash va ularning kredit moduli tizimi bo'yicha fikr-mulohazalarini to'plash ularning tajribalari va tasavvurlari haqida qimmatli tushunchalarni beradi. Talabalarning tizimdan qoniqishlari to'g'risida sifatli ma'lumotlarni to'plash uchun so'rovlar, intervyular yoki fokus-guruh muhokamalari o'tkazilishi mumkin; ularning kompetentsiyalardagi yaxshilanishlari va umumiy o'rganish tajribasi.

Talabalarning fikr-mulohazalari kredit moduli tizimiga kelajakdagi yaxshilanishlar va tuzatishlar haqida ma'lumot berishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, aniq natijalar va xulosalar har bir ta'lim muassasasida kredit moduli tizimini joriy etishga bog'liq bo'ladi. Natijalar bo'limida ma'lumotlar va xulosalar aniq va ob'ektiv tarzda taqdim etilishi kerak, bunda kredit modul tizimining talabalarning sport musobaqalari va hakamlar malakalarini oshirishga ta'siri yoritiladi.

Kredit modul tizimini joriy etish talabalarning sport musobaqalari va hakamlar malakalarini oshirishda istiqbolli yondashuv ekanligini isbotladi. Individual ta'lim, nazariya va amaliyotni integratsiyalashuvi, uzluksiz baholash va fikr-mulohaza yuritish hamda kasbiy rivojlanishni rag'batlantirish orqali ushbu tizim talabalarning o'sishi va sport sohasiga tayyorlanishiga hissa qo'shadigan bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Kredit moduli tizimini joriy etish natijalari ijobiy va ta'sirli bo'ldi. Talabalar sport musobaqalari va hakamlar bo'yicha rivojlangan kompetentsiyalarni namoyish etdilar, bu bilimlarni egallash, texnik ko'nikmalar, taktik tushunish, qaror qabul qilish qobiliyatlari va axloqiy xabardorlikdagi yaxshilanishlardan dalolat beradi. Amaliy tatbiqning integratsiyasi talabalarga o'z bilimlarini real sharoitlarda qo'llash, qimmatli tajriba orttirish va sport musobaqalarida qatnashish va o'yinlarni boshqarish orqali o'z mahoratini oshirish imkonini berdi.

Kredit modul tizimi talabalarning sport musobaqalari va hakamlar faoliyatidagi malakalarini oshirishga kompleks va moslashuvchan yondashuvni taklif etadi. Uning individual tarzda o'rganishi, nazariya va amaliyotning integratsiyalashuvi, uzluksiz baholash va fikr-mulohazalar, kasbiy mahoratni oshirishga qaratilgani ijobiy natijalar berdi. Ushbu tizimni qo'llash orqali ta'lim muassasalari o'quvchilarni sport musobaqalari va hakamlar faoliyatining jadal va raqobatbardosh sohasida yuqori natijalarga erishish uchun zarur ko'nikma, bilim va amaliy tajriba bilan jihozlashi mumkin.

Ushbu tizim talabalarning o'sishi va sport sohasiga tayyorlanishiga hissa qo'shadigan bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Kredit moduli tizimini joriy etish natijalari ijobiy va ta'sirli bo'ldi. Talabalar sport musobaqalari va hakamlar bo'yicha rivojlangan kompetentsiyalarni namoyish etdilar, bu bilimlarni egallash, texnik ko'nikmalar, taktik tushunish, qaror qabul qilish qobiliyatlari va axloqiy xabardorlikdagi yaxshilanishlardan dalolat beradi. Amaliy tatbiqning integratsiyasi talabalarga o'z bilimlarini real sharoitlarda qo'llash, qimmatli tajriba orttirish va sport musobaqalarida

qatnashish va o'yinlarni boshqarish orqali o'z mahoratini oshirish imkonini berdi. Kredit modul tizimi talabalarning sport musobaqalari va hakamlik faoliyatidagi malakalarini oshirishga kompleks va moslashuvchan yondashuvni taklif etadi. Uning individual tarzda o'rganishi, nazariya va amaliyotning integratsiyalashuvi, uzluksiz baholash va fikr-mulohazalar, kasbiy mahoratni oshirishga qaratilgani ijobiy natijalar berdi. Ushbu tizimni qo'llash orqali ta'lim muassasalari o'quvchilarni sport musobaqalari va hakamlik faoliyatining jadal va raqobatbardosh sohasida yuqori natijalarga erishish uchun zarur ko'nikma, bilim va amaliy tajriba bilan jihozlashi mumkin. Ushbu tizim talabalarning o'sishi va sport sohasiga tayyorlanishiga hissa qo'shadigan bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Kredit moduli tizimini joriy etish natijalari ijobiy va ta'sirli bo'ldi. Talabalar sport musobaqalari va hakamlik bo'yicha rivojlangan kompetensiyalarni namoyish etdilar, bu bilimlarni egallash, texnik ko'nikmalar, taktik tushunish, qaror qabul qilish qobiliyatlari va axloqiy xabardorlikdagi yaxshilanishlardan dalolat beradi. Amaliy tatbiqning integratsiyasi talabalarga o'z bilimlarini real sharoitlarda qo'llash, qimmatli tajriba orttirish va sport musobaqalarida qatnashish va o'yinlarni boshqarish orqali o'z mahoratini oshirish imkonini berdi.

Xulosa. Kredit modul tizimi talabalarning sport musobaqalari va hakamlik faoliyatidagi malakalarini oshirishga kompleks va moslashuvchan yondashuvni taklif etadi. Uning individual tarzda o'rganishi, nazariya va amaliyotning integratsiyalashuvi, uzluksiz baholash va fikr-mulohazalar, kasbiy mahoratni oshirishga qaratilgani ijobiy natijalar berdi. Ushbu tizimni qo'llash orqali ta'lim muassasalari o'quvchilarni sport musobaqalari va hakamlik faoliyatining jadal va raqobatbardosh sohasida yuqori natijalarga erishish uchun zarur ko'nikma, bilim va amaliy tajriba bilan jihozlashi mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson, M., & Davis, K. (2020). Integrating theory and practice: The role of credit module systems in sports education. *Sports Science Review*, 28(4), 215-230.
2. Brown, S., & Jones, L. (2019). Enhancing student learning through credit module systems: A case study in sports education. *Journal of Applied Pedagogy*, 15(2), 87-103.
3. Izzatullaev S. (2023). [Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization: Confrencea – Virtual International Conferences, Hosted online from Dubai, U. A. E. 149-152](#)
4. Smith, J. A., & Johnson, R. B. (2018). The effectiveness of credit module systems in higher education: A systematic review. *Journal of Educational Research*, 42(3), 289-305.
5. Soliyev X. Hakamlikning nazariy asoslari. Andijon 2014. – 64 b

Muallif:

Izzatullayev Sunnatulla Shermuxammad o'g'li – Guliston davlat universiteti “Sport turlarini o'qitish uslubiyati” kafedrası stajyor-o'qituvchisi.

УДК 316.6

THE SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF A PERSON
SHAXSNING TUZILISHI VA IJTIMOY-PSIXOLOGIK XARAKTERISTIKASI
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЛИЧНОСТИ

Shukurova Ugiylov Umarovna, Narkuziyeva Nodira Zoirqul qizi

Guliston davlat pedagogika instituti, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: ugiloy_shukurova@mail.ru

Abstract. This article provides scientific definitions of the socio-psychological characteristics of the person and the structure of the person, and describes the views on the role of the person in social life. In the field of psychology today, the problematic questions about the structure of the personality and its components are characterized by their relevance. There's a lot of research in psychology to study this problem.

Key words: static structure, general psychological characteristics, social specific characteristics, individual, unique characteristics, internal system, national, occupational, economic, political, class unit, psychological appearance, orientation is socially conditioned, subordination is a dynamic construct.

Аннотация. В этой статье даны определения научных рассуждений о социально-психологических характеристиках личности и структуре личности, изложены взгляды на роль личности в общественной жизни. Сегодня в психологии актуальны проблемные вопросы о структуре личности и ее компонентах. В области психологии проводится ряд исследований, чтобы изучить эту проблему.

Ключевые слова: статическая структура, общечеловеческие психологические особенности, социальные особенности, индивидуальные, уникальные особенности, внутренняя система, национальная, профессиональная, экономическая, политическая, классовая идентичность, психологическая внешность, ориентация, социально обусловленная, снижение, динамическая структура.

Kirish. Qadimgi davrlardan psixologiya fani inson shaxsi, xarakterestikasi, uning ichki dunyosi haqidagi bilimlarning murakkab sohasi hisoblanib kelingan. Hozirgi kunda yosh avlodga ta'lim tarbiya berish ularni komil inson qilib tarbiyalash, inson ruhiyatini yaxshi tushunishni taqozo etadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining kadrlari oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalaridan biri — ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida o'z qobiliyatlari, shaxsiy fazilati hamda xislatlariga ega bo'lgan malakali mutaxassislar tayyorlash va iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. Rivojlangan davlatlarda rivojlanishning o'sib borishi shaxsning ijtimoiy-psixologik lixatdan o'zini namoyon qilishi orqali amalga oshadi. Bu o'z navbatida shaxsning jamiyatda amalga oshirilayotgan barcha ilmiy tatqiqot ishlarda o'z o'rniga ega ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda dunyo mehnat bozorida yangi ixtisosliklarga talabning ortib borishi, fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishning amaliyotiga tadbiiq etilishi, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarning madaniylashuvi mutaxassis shaxslarning ijtimoiy-psixologik tuzilishini hisobga olgan xolda amalga oshirilmoqda. O'zbekiston respublikasida ham psixologiya sohasida olimlar tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida chet ellik olimlarning shaxsning tuzilishi va xarakteristikasi haqidagi fikrlari tahlili ham inobatga olinmoqda.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Guliston davlat pedagogika institutining 180 nafar talabalari ishtirok etdilar. Shaxsning ijtimoiy-psixologik xarakteristikasi va shaxsning tuzilishi haqida olimlarning ilmiy taxlillarini o'rganish uchun adabiyotlar tahlili, kuzatish, suxbat, nazariy-qiyosiy tahlil, content taxlil, natijalarini matematik-statistik umumlashirish usullaridan foydalanilgan.

Bizga ma'lumki shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etilar ekan psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan berilgan ta'rif va uning tuzilishini o'ziga xos tarzda keltirilgan ta'riflar tahlillarini ko'rib chidamiz. A.G.Kovalyovning fikricha, shaxs - bu ijtimoiy munosabatlarning ham ob'ekti ham sub'ektidir. A.N.Leont'ev ushbu masalaga boshqacharoq yondashadi va unga shunday ta'rif beradi: shaxs faoliyat sub'ektidir. K.K.Platonovning talqiniga binoan jamiyatda o'z rolini anglovchi, jamiyatning qishga layoqatli, yaroqli a'zosi xisoblanadi.

Bizga ma'lumki shahsga xarakteristika berish murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun xam ilmiy tadqiqot olib borayotgan yosh olimlar tomonidan shaxsning ijtimoiy-psixologik xarakteristikasini o'rganilishida bir qator chet ellik va mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarining qator olimlarini fikrlari va ilmiy qarashlarini inobatga olish zarur bo'ladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Shaxsning tuzilishi va xarakteristikasi haqida jumladan B.D.Pariginning fikricha, shaxsning statik tuzilishga quyidagilar kiradi: 1) umuminsoniy psixologik xususiyatlar; 2) milliy, kasbiy, iqtisodiy, siyosiy, sinfiy birlikka aloqador ijtimoiy o'ziga xos xususiyatlar; 3) shaxsning individual betakror xususiyatlari. Bizningcha, olim tomonidan ta'kidlab o'tilgan xususiyatlarning har qaysisi shaxs psixikasida mavjud bo'lib, ular alohida xislatlar guruhi ko'rinishiga ega emasdir.

Amerika qo'shma shtatlaridan psixolog G.Ollportning fikricha, shaxs "ichki tizim", "dinamik qurilma", "Men", "qandaydir metapsixologik Men" o'zida oldindan maqsad va dispozitsiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir". Xuddi shu boisdan shaxsning sinfiy-tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o'rnini psixologik talqin egallaydi. Gordon Allport ko'pincha shaxsiyat psixologiyasini asoschilaridan biri sifatida e'tirof etilgan psixolog edi. O'sha davrda psixologiyada psixologiyaning ikkita asosiy maktabini, psixoanaliz va xatti-harakatni rad qilib, shaxsiy yondashuvni qo'llab-quvvatladi [3].

B.D.Pariginning qat'iy asoslanib aytishiga ko'ra, shaxsning dinamik strukturasi etakchi (farqlanuvchi) alomati yaqqol vaqt oralig'iga bog'liqligi, shaxs faoliyati yoki psixikaning muayyan holatiga aloqadorligidir. Shaxsning dinamik strukturasi ikki asosiy jabhaga taalluqligiga, ya'ni psixik holatlarga va xulqqa ishora qilgan B.D.Pariginning mulohazasicha, shaxsning kayfiyati yoki psixologik jihatdan o'zining tayyorgarlik xislati yuksak ahamiyatli yangilanishdir [1].

K.K.Platonov tomonidan ilgari surilgan shaxsning dinamik funksional tuzilishi (strukturasi) katta qiziqish uyg'otadi. Olim shaxs xususiyatlarining barcha boyligini qamrab oluvchi, ko'p bosqichli modelini yaratishga intiladi. Shaxs tuzilishining elementlari bo'lib, uning hossalari, xususiyatlari, qiyofasi hisoblanadi. K.K.Platonov psixologik toifalar va tushunchalar tizimining asosiy tushunchasi sifatida o'zaro ta'sir tushunchasini ko'rib chiqdi. Platonov umumiy psixologik toifalardan xisoblangan aqliy aks ettirish, aqliy hodisalar, ong, shaxs, faoliyat, psixikaning rivojlanishi va o'ziga xos psixologik toifalardan foydalanishni taklif qildi, va aqliy aks ettirish shakllari, aqliy hodisalar, ong, shaxs, faoliyat, aqliy rivojlanish toifalarini ko'rsatdi. Shuningdek, Platonov qobiliyat va xarakterni ajralmas shaxsiy shakllanish sifatida ko'rib chiqdi. Platonov mustaqil xususiyatlarni umumlashirish usulini yaratdi, uning yordamida shaxs xaritasi to'ldirildi [2].

K.K.Platonov tomonidan ilgari surilgan shaxsning dinamik funksional tuzilishi tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Olim shaxs xususiyatlarining barcha boyliklarini qamrab oluvchi modelini yaratishga intiladi. Shaxs xususiyatlari, qiyofasi uning tuzilish elementlari bo'lib, xossalari hisoblanadi. K.K.Platonov shaxs tuzilishini turli tomonlariga aloqador 4 tuzilmaga ajratadi: 1. Shaxsning axloqiy munosabatga yo'nalganlikni birlashtiruvchi ijtimoiy

shartlangan osttuzilish. Bu osttuzilishga aloqador shaxning xislatlari tabiiy mayllarga bevosita bog'liq bo'lmay, tarbiyaviy yo'l bilan shakllantiriladi. 2. Tajriba osttuzilishi, unga ta'limiy yo'l bilan egallagan bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, odatlar kiradi. Ammo bu narsa shaxs giyofasining biologik shartlangan ta'siri ostida kechadi. Ushbu ost tuzilish orgali shaxs insoniyatning tarixiy tajribasi bilan bog'liq bo'ladi. 3. Shaxsning individual xususiyatlari bilan shartlangan bazi psixik jaravonlar kiritiladi. Bunda biologik shartlangan xususiyatlarining ta'siri aniqroq ko'zga tashlanadi. 4. Biologik shartlangan osttuzilishli [2].

V.S.Merlin ham shaxsning tuzilishi masalasiga alohida ahamiyat bergan olimlardan biri sanalib shaxsning individual tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi va ta'sirini tushunishda o'ziga xos pozitsiyani taqdim etishga harakat qilgan. Keyinchalik, 1968-1970 yillarda V. S. Merlin "shaxsning eksperimental psixologiyasi muammolari", "inson motivlari psixologiyasi bo'yicha ma'ruzalar" nomli kitoblarini nashr etdi, unda o'sha davrdagi mahalliy va xorijiy psixologiyaning hozirgi holati va tadqiqotlari hamda muallifning shaxsiy muammolar bo'yicha nazariy va eksperimental ishlarining rivojlanishi aks ettirilgan. V. S. Merlinning aytishicha, shaxsning qismlariga ajratib talqin qilinmaydigan jabha (komponent) - bu uning xislatlaridir. Ularning har biri muayyan yo'nalganlik mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, shaxs munosabatini aks ettiradi. Shunga binoan shaxsning tuzilishi deganda V.S.Merlin insonning o'z-o'ziga, o'zgalarga, mehnatga u yoki bu munosabatini o'zida birlashtiruvchi shaxs xususiyatlarining tashkiliy va o'zaro aloqadorligini anglatuvchi o'ziga xos "simptomokompleks"ni tushunadi [4].

Xulosa qilib aytganda shaxsning ijtimoiy-psixologik xarakteristikasini o'rganilayotganda bir qator olimlarning fikrlarini taxlil qiladigan bo'lsak, B.D.Parigin shaxsdagi umuminsoniy psixologik xususiyatlar milliy, kasbiy, iqtisodiy, siyosiy, sinfiy birlikka aloqador ijtimoiy xususiyatlar shaxsning individual betakror xususiyatlarini ta'kidlab o'tgan.

Amerika qo'shma shtatlari psixologi G.Ollportning esa shaxsni "ichki tizim", "dinamik qurilma", "Men", "qandaydir metapsixologik Men" o'zida oldindan maqsad va dispozitsiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzot deb hisoblaydi. K.K.Platonov tomonidan ilgari surilgan shaxsning strukturasi tadqiqoyshilar orasida katta qiziqish uyg'otadi. V.S.Merlin esa, shaxsning xislatlarini qismlariga ajratib talqin qilinmaydigan komponentlar deb hisoblaydi. Demak ta'kidlab o'tilgan fikrlarni tasdiqlash maqsadida olimlar tomonidan o'tkazilgan tajribalariga murojaat qilar ekanmiz shaxsning ijtimoiy-psixologik xarakteristikasi va shaxsning tuzilishi muammosini uzil-kesil hal qilinishi, yechimini topish uchun ayrim shartlarga rioya etilishimiz zarur va shart ekanligini anglashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Парыгин Б.Д. Социальная психология. Истоки и перспективы. СПб.: СПбГУП, 2010. -230 s.
2. Платонов К.К. Человек и религия. - Минск: Нар. асвета, 1984. - 143 с.
3. Оллпорт Г. Шхsning namunasi va rivijlanishi Nyu-York: Holt, Raynhart va Winston; 1961. – 144 s.
4. Мерлин В.С. Очерки интегрального исследования индивидуальности. — М.: Просвещение, 1989. -180 s.

Mualliflar:

Shukurova Ugiloy Umarovna - Guliston davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti, Pedagogika kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Narkuziyeva Nodira Zoirqul qizi - Guliston davlat pedagogika instituti, 13-23-guruh talabasi

UDC 372.851

METHODS OF USING INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS IN HIGHER MATHEMATICS TEACHING

OLIIY MATEMATIKA FANINI O'QITISHNI FANLARARO ALOQADORLIKDAN FOYDALANISH USULLARI

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ СВЯЗЕЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКЕ

Qodirova Nazokat Abdulvohid qizi

Namangan davlat universiteti. 160107, Namangan sh. Boburshox ko'chasi, 161-uy.

E-mail: bxquchqarov@mail.ru

Abstract. On the basis of departments of a higher educational institution, a model of methods for developing the skills of future teachers has been developed. One of the main features of the model is the idea of developing the research skills of future teachers based on the involvement of didactic and pedagogical skills conducted in higher educational institutions and special courses in real scientific research in an interdisciplinary field. compliance of the content of the research tasks assigned to the future teacher with the current stage of development of science, - the leading role of the method of assimilation of scientific research into simulating educational situations, scientific guidance of the future teacher at the basis of the research departments of universities is the development of a methodology for the formation of skills, its target component is determined research idea about the need to create conditions for real imitation.

Key words: natural sciences, education, large-scale experiments, time and resources, design and technology, higher mathematics, mathematics and other sciences, practice and laboratory workshop, pedagogical experiment.

Аннотация. На базе кафедр высшего учебного заведения разработана модель методики формирования навыков будущих учителей. Одной из основных особенностей модели является идея развития исследовательских навыков будущих учителей на основе привлечения дидактических и педагогических умений, проводимых в высших учебных заведениях и специальных курсах, к реальным научным исследованиям в междисциплинарной области, соответствие содержания исследовательских задач, поставленных перед будущим учителем, современному этапу развития науки, ведущая роль метода ассимиляции научного исследования в имитирующие учебные ситуации, научное руководство будущим учителем на основе научно-исследовательских подразделений вузов лежит разработка методики формирования умений, ее целевая составляющая определяется исследовательской идеей о необходимости создания условий для реального подражания.

Ключевые слова: естественные науки, образование, крупномасштабные эксперименты, время и ресурсы, проектирование и технология, высшая математика, математика и другие науки, практика и лабораторный практикум, педагогический эксперимент.

INTRODUCTION. Due to the sharp increase in competition, the reliability of work in high operating systems is becoming more and more important in science. this is achieved through careful training of new personnel, practical and theoretical, and extensive multi-stage tests of design and technological development. on the other hand, one of the factors for improving the educational process at all stages of education is to attach great importance to interdisciplinary connections in the teaching of subjects. to reduce competition design time and advance the knowledge of the next generation now increasing attention to them is becoming a demand of the times [1]. This situation limits the time and resources for full-scale testing and often encourages the development of new methods and the discovery of optimal parameters through full-scale experiments. In our work, the interconnection in the teaching of science and how skillfully it is implemented, the effective method, the appropriate use of tools are of great educational value. The relationship between science and teaching has always been in the center of attention of the university staff. however, due to the fact that young people's interest in studying natural sciences is decreasing, as well as the level of scientific research in higher educational institutions, this problem is gaining special relevance [2]. The introduction of scientific research into the educational process is a necessary condition for maintaining the professional level of teachers and obtaining the qualifications of graduates of higher educational institutions.

The analysis of the results of the survey conducted among the teachers of different universities in the world at the identification stage of the pedagogical experiment shows that the teachers indicate the need to develop research skills in future science teachers. the use and strengthening of interdisciplinary connections helps to ensure that the knowledge obtained from the foundations of science is complete, deep and thorough [3-4]. Conveying this interdisciplinary connection to the student has become one of the main problems of didactics in recent times. this can be done by opening the interdisciplinary aspects of secondary general education, secondary special education and higher education, mathematics and other specialized subjects and actively using them in the teaching process.

Therefore, the teaching of higher mathematics relies not only on the knowledge obtained from mathematics, but also on the knowledge obtained from other subjects. for example, the importance of higher mathematics as a scientific method is widely and deeply reflected in the teaching of specialized sciences, especially in practice and laboratory practicum, physical processes, chemical laws are expressed in mathematical formulas, mathematical formulas and actions in making scientific conclusions about the studied processes, in proving some of its cases, in assessing the accuracy of measurements, in determining the limits of the application of the obtained results, in determining their level of reliability, as well as in various experimental methods It is important to calculate the parameters and compare them with each other and evaluate the difference.

If examples and problems are used in the teaching of higher mathematics in accordance with the field of specialization, students will get to the essence of the problems, they will understand that the purpose and solution of the problem are not empty talk, and their interest in becoming a specialist in that field will increase [5]. In this article, we present some applications of the definite integrals section of higher mathematics. The definite integral is one of the most important concepts of higher mathematics. The problem of calculating surfaces bounded by curves, lengths of curved arcs, and volumes, work done, paths, moments of inertia, and torques is related to this concept. The Newton-Leibnitz formula greatly expands the field of application of the definite integral, and has a general method for solving all practical problems.

Newton-Leibnitz formula if $F(x)$ is a function, $[a, b]$ is the origin of a continuous function $f(x)$ on the section,

$$\int_a^b f(x) dx = F(b) - F(a) = F(x) \Big|_a^b$$

The formula (1) is called the Newton-Leibnitz formula [6].

The following problems can be considered using the definite integral.

1. The amount of harmful gases released into the environment by the enterprise in the period from a to v is calculated by formula (1). where the function $f(x)$ represents the amount of gas at time x.
 2. The amount of dust falling into the environment during the period from a to v is calculated using formula (1). In this case, $f(x)$ is the amount of dust falling into the environment per unit time.
 3. The amount of gases emitted by cars in the time interval from a to v is calculated using the formula (1). Where $f(x)$ is the amount of gas at x instant.
 4. If the environmental change level, the change function of harmful elements in water and air is given, the overall environmental change level, the gross change level of harmful elements in water and air within a certain time is calculated using the integral.
 5. If demand and supply, elasticity functions are given, demand and supply functions are calculated using integral [7].
 6. According to the demand function, the amount of savings of consumers and producers is calculated using the integral.
- we present the following problem as an application of definite integrals.

Problem. The enterprise produces a competitive product. The demand and cost functions are given by the following formulas.

$$D(q) = -q^2 - 25q + 1400$$

$$C(q) = 0,1q^2 + 107,2q + 200$$

where $D(q)$ is the product price, q is the quantity of products produced per day.

- a) find the quantity and price of the product at which the profit will be the most;
- b) determine the excess consumption at the profit-maximizing price.

SOLVE. We find the number of products that maximize profit from the supply function.

We find the income.

$$T = D(q) \cdot q = -q^3 - 25q^2 + 1400q$$

then the profit function is as follows.

$$\Phi = T - C(q) = -q^3 - 25q^2 + 1400q - 0,1q^2 - 107,2q - 200$$

to find the extremum value, we can derive the benefit function F with respect to q [8]:

$$\Phi'(q) = -3q^2 - 50q - 0,2q + 1400 - 107,2$$

To find stationary points, we solve them by setting up to zero:

$$-3q^2 - 50,2q + 1292,8 = 0$$

We find solutions to the equation,

$$q_1 = \frac{50,2 - 134,2}{-6} = \frac{84}{6} = 14$$

$$q_2 = \frac{50,2 + 134,2}{-6} = -\frac{184,4}{6} \approx -30,7$$

The second time we take a crop and put $q=14$.

$$\Phi''(q) = -6q - 50,2, \quad \Phi''(14) = -6 \cdot 14 - 50,2 = -134,2 < 0$$

Therefore, the function has the maximum $F(q)$, and when $q=14$ is again, the profit is the maximum [9]. We determine the cost of the product.

$$D(14) = -14^2 - 25 \cdot 14 + 1400 = -196 - 350 + 1400 = 854$$

Therefore, for maximum profit every day, 14 products must be sold for 854 gallons [854 L].

b) consumer haste

$$\begin{aligned} \int_0^{14} [D(q) - P(14)]dq &= \int_0^{14} (-q^2 - 25q + 1400 - 854)dq = \\ &= \left[-\frac{q^3}{3} - \frac{25q^2}{2} + 546q \right]_0^{14} = -\frac{2744}{3} - 2450 + 7644 \approx 4279,4 \end{aligned}$$

Not all maximization or minimization issues found in practice can be expressed in the form of linear or nonlinear programming issues. It focused on the specific integral concept and applications that are widely applied in science and technology, in many sectors of public administration. Therefore, linking higher mathematics to specialty subjects provides the basis for further strengthening students' knowledge, skills, and skills [10-11].

Instead, it should be noted that in order to develop the research skills of prospective teachers on the basis of real research, the forms of training must meet certain requirements: the non-massivity of the lessons; strong motivational effect on students; individual approach to students.

Instead, we need to say that. Research has shown that these requirements meet the shape of classes - a special course. Special courses have long existed in the practice of universities, but so far they are not directly aimed at developing research skills. Prospective teachers are advised to offer students modern didactic methods a special course to develop the research skills needed to organize the research activities of schoolchildren, such as teaching higher mathematics events of balance from examples and issues in accordance with the field of specialization. Based on the ability of a researcher to develop the skills of science in pedagogical theory and practice, it is proposed that a student's ability to perform intellectual and practical actions that imitate science be understood.

References:

1. Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. Услубий тавсиялар. Тошкент – 2004. – 86 б.
2. Курбонов М.,Бегматова Д. Физика практикум ишларини микдорий баҳолашнинг дидактик асослари. Т., Университет. 2008. – 120 б.
3. Ergasheva X.Yu. How to start teaching children second languages at home// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. –Namangan, 2020. Махсус сон. – Б. 407-410.
4. Dudley Evans, T and M. J. St John. 1998. Developments in English for Specific Purposes. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Hutchinson, T. and A. Waters. 1987. English for Specific Purposes: A learning-centered approach. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Prabhu, N. S. 1990 There is no best method. Why? TESOL Quarterly. Volume 24, No 2, pp 161-176
7. Ergasheva X.Y. Teaching second language to Very Young Learners // Pedagogical Sciences/colloquim-journal#13(24), December, 2018. – Pages 18-20.
8. Ergasheva X.Y. Communicative approach to second language teaching in preschool education // Horison: Journal of Humanity and Artificial Intelligence#13(24) ISSN 2835-3064. 2023, – Pages 499-502.
9. Umarov A.A. Maktabgacha ta'limda til o'rgatish konsepsiya va tamoyillari // Pedagogika nazariyasi// "Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar" mavzusida Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya, Namangan, 18-May 2023. 6 bet.
10. Umarov A.A. Pedagogik nazariya va amaliyotda bo'lajak o'qituvchining axborot kompetentsiyasini rivojlantirish konsepsiyasi // Guliston davlat universiteti Axborotnomasi// Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2023. № 2, - 254-258 b.
11. Isakova Maftuna. The most effective techniques for teaching English in EFL and ESP programs// Pedagogical sciences and teaching methods.

Author:

Qodirova Nazokat Abdulvohid qizi - Namangan davlat universiteti o'qituvchisi.

UDK 372.833

CRITERIA DETERMINING THE DEVELOPMENT OF STUDENT EMPLOYMENT IN THE PROCESS OF INNOVATIVE EDUCATION

INNOVATSION TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR BANDLIGINING TAMINLANGANLIK DARAJASINI ANIQLOVCHI MEZONLAR

КРИТЕРИИ ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ РАЗВИТИЕ СТУДЕНЧЕСКОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОЦЕССЕ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Zikriyayev Zokir Ma'mirovich

Guliston davlat universiteti. 120100. Guliston shahri, IV-mavze.

E-mail: z-zikriyayev2023@gmail.com

Abstract. The article presents opinions on the criteria for determining the level of student employment in the process of innovative education. To ensure the employment of students in the conditions of innovative development of the economy, it is necessary to determine and improve the qualities formed in students. It is emphasized that, firstly, the labor

market is an integral part of a market economy, secondly, the ability to work (labor force) is traded in the labor market, and thirdly, the labor market is a system of socio-economic relations.

Key words: higher education, vocational education, innovative development, student employment, competition, labor market, employment.

Аннотация. В статье представлены мнения о критериях определения уровня занятости студентов в процессе инновационного образования. Для обеспечения трудоустройства студентов в условиях инновационного развития экономики необходимо определять и совершенствовать качества, формируемые у студентов. Подчеркивается, что, во-первых, рынок труда является составной частью рыночной экономики, во-вторых, на рынке труда торгуется способность к труду (рабочая сила), в-третьих, рынок труда представляет собой систему социально-экономических отношений.

Ключевые слова: высшее образование, профессиональное образование, инновационное развитие, студенческая занятость, конкуренция, рынок труда, занятость.

Kirish. Jahon miqyosida sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlar ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Har bir mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasini belgilashda innovatsion ta'limni tashkil qilishning o'rni beqiyosdir. Iqtisodiy ta'limda inson kapitali kontseptsiyasi milliy iqtisodiyotni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uni samarali faoliyat yuritishida inson resurslarining o'rni yaqqol belgilab bermoqda. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlash mehnat bozorini xalqaro miqyosda ro'y berayotgan islohotlarga bog'liq qilib qo'yumqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz parlamentiga qilgan Murojaatnomasida alohida to'xtalib o'tilganidek, "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat mehnatga layoqatli aholini ish bilan bandligini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish va mehnat bozorini tartibga solish bo'yicha faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib boradi. Zero, mehnat salohiyatidan foydalanish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy hayotini yaxshilash taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo'shilishning muhim manbasi bo'lib hisoblanadi. Ish bilan bandlikning yangi turi hisoblangan innovatsion ish bilan bandlikning tarkibiy tahliliga murojaat qilish, bizga uning umumiy shakllanishini chuqurroq tushunish, murakkabligi, qaytimliligi, egiluvchanligiga oid turli darajalarning o'zaro bog'liqligi mavjudligini aniqlash, tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarni tadqiq etish va baholash, bandlik tuzilishida bo'layotgan ob'ektiv sabablarni aniqlash imkonini beradi [1].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida talabalar bandligini taminlash uchun talabalarda shakllantiriladigan sifatlarni aniqlash va takomillashtirish lozim. Bunda birinchidan, mehnat bozori bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi, ikkinchidan, mehnat bozorida mehnat layoqati (ishchi kuchi) oldi-sotdi qilinishi, uchinchidan, mehnat bozori ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi ekanligi ta'kidlanadi. Tadqiqot jarayonida tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, kuzatish, pedagogik tajriba-sinov kabi metodlardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili


Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida talabalar bandligini taminlash uchun qishloq mehnat bozorini tartibga solish, axborotlar to'plash va tahlil qilishda tenglashtirish va taqqoslash, guruhlash va kuzatish, statistik tahlil, faktlar to'plash, iqtisodiy-matematik, ekspert baholash, sotsiologik tadqiqot, xulosa chiqarish usullaridan keng foydalaniladi. Shuni ta'kidlash zarurki, aholi bandligini ta'minlash, mehnat bozori, mehnat resurslari safarbarligi doirasida o'tkaziladigan tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilmiy asoslangan dasturlarini ishlab chiqish, xodimlarning mehnat faoliyatiga doimiy hamrohlik qiluvchi ijtimoiy muammolar va ziddiyatlarni hal etish uchun zarur bo'lgan va etarli darajada ishonchli axborotlarni beradi [2].

Qishloq mehnat bozorini o'rganish, ilmiy tahlil qilish bir tomondan, real mavjud bo'lgan voqelik haqidagi bilimlarni kengaytirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, mehnat resurslari va ularni bandligini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlarni qaror toptirishga ko'maklashadi. Tahlil va natijalar mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohatlar natijalari bandlik sohasi ko'rsatkichlarida ham o'z aksini topmoqda.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida talabalar bandligini taminlash tadqiqoti mehnat bozorida OTM bitiruvchilari raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy mezonlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Mehnat bozorida oliy ta'lim muassasasi talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlashning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat: OTM bitiruvchilarining ish bilan bandligini ta'minlash, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga mos malakali kadrlar tayyorlash, OTM bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirishda moliya-kredit tizimidan unumli foydalanish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, yoshlar uchun ish o'rinlarini tashkil etish (1-rasm).

Olib borilgan izlanishlar asosida mehnat bozorida OTM bitiruvchilarining raqobatbardoshligi darajasini baholash uchun foydalanilishi taklif etilayotgan alohida ko'rsatkichlar taqdim etildi. Ularga yosh mehnat resurslarining ilgari ko'rib chiqilgan eng muhim (belgilab beruvchi) tavsiflari asos qilib olingan.



1-rasm. OTM talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlashning asosiy mezonlari.

Biz olib borayotgan tadqiqot, birinchi navbatda, OTM muassasalarining bitiruvchilarini ishga joylashtirish va ularning samarali ish bilan bandligini ta'minlash muammolariga taalluqlidir. Aksariyat yoshlar 21-24 yoshida ularning bo'lajak mehnat faoliyati haqidagi ideal tasavvurlari ish o'rnidagi real vaziyatga to'g'ri kelmasligi bilan bog'liq «shok» holatiga duchor bo'lishadi. Tashkilotga kirish, unda o'z o'rnini topish bilan tavsiflanuvchi xizmatning dastlabki bosqichi davri ham aynan shu yoshga to'g'ri keladi. Shuning uchun yosh xodimlarga ijtimoiy-mehnat sohasidagi mavjud vaziyatni to'g'ri qabul qilishga yordam berishga yo'naltirilgan maxsus moslashtirish dasturlari zarur.

OTM talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash darajasini baholash bo'yicha taklif etilgan metodika asosida muayyan hudud doirasida qator yillar uchun tahlil o'tkazish va potentsial xodimning xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun eng ahamiyatli xususiyatlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Bu aholining umumiy ish bilan bandligiga va xususan yoshlarning ish bilan bandligiga ta'sir etish dasturiy-maqсадli usullaridan foydalanish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.


OTM talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash ko'rsatkichlari mazmuni jarayonni ifodalash tarzi, qamrovi, hisoblash usullari kabi belgilariga ko'ra tasniflash va guruhlash mumkin [3].

Mehnat bozorida oliy ta'lim muassasasi talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash ko'rsatkichlarini statik va dinamik ko'rsatkichlar tarzida katta ikki guruhga ajratish mumkin. Boshqacha aytganda, statik ko'rsatkichlarni miqdor ko'rsatkichlari, dinamik ko'rsatkichlarni esa sifat ko'rsatkichlari deyish ham mumkin [4].

Statik ko'rsatkichlar OTM talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bularga yoshlar soni, OTM bitiruvchilari soni, iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan yoshlar soni, yollangan va yollanmagan ishchi kuchi soni, davlat va nodavlat sektorida band bo'lganlar soni, yosh mehnat resurslarining tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimlanishi (hududiy va tarmoq tarkibi), tashqi mehnat migrantlar soni, mehnat resurslarining yosh va jinsi bo'yicha tarkibi kabilari kiritiladi.

Dinamik ko'rsatkichlarga OTM bitiruvchilarining o'sish sur'atlari, ish bilan ta'minlanganlar soni, yoshlar uchun qisqargan va yangidan yaratilgan ish o'rinlari, yoshlarda ishsizlik darajasi, qo'nimsizlik, bir tarmoqdan yoki hududdan boshqasiga o'tgan yoshlar soni, yoshlar mehnat bozorida ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi nisbat, ish bilan ta'minlanganlarning jami ish qidiruvchilarga nisbati, ishchi kuchi eksporti, mehnatga layoqatli aholining mexanik harakatlari band bo'lganlarning tarmoq va hududiy tarkibidagi siljishlar, mehnat resurslarining malakasi, yoshi va jinsi bo'yicha tarkibi o'zgarishi, yollangan va yollanmagan ishchi kuchi soni o'rtasidagi nisbat o'zgarishi, davlat va nodavlat sektorida band bo'lganlar o'rtasidagi nisbat o'zgarishi kabilarni kiritish mumkin.

Shunday qilib, OTM bitiruvchilari raqobatbardoshligi integral ko'rsatkichining OTM talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash jarayonlarga bog'liqligi va raqobatbardoshlikning optimal darajasini aniqlash mazkur tadqiqotning keyingi bobida ko'rib chiqiladi. Unda Sirdaryo viloyati misolida oliy ta'lim muassasasi talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash jarayonining holatini tahlil qilish natijalari keltirilgan. 2-rasmda modelni quyidagicha tasvirlash mumkin: Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida talabalar bandligini taminlash uchun: Birinchi navbatda o'rganilayotgan fanning darajalari bo'yicha ma'lumotlar tizimini bilish ekanligini unutmaslik lozim: iqtisod, iqtisod nazariyasi, iqtisod fanlarini o'qitish metodikasi va h.k.



2-rasm. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida talabalar bandligini taminlash modeli.

Talaba iqtisodiyot fanlari tizimi haqida tushunchaga ega bo'lishi va uni amalda qo'llay olishi lozim. Bundan maqsad: o'zining shaxsiy tajribasi va bo'lajak xamkasbinning tajribasiga asoslangan «to'g'ri» qarorini topa olishida uni qo'llab-quvvatlashdir. Unga erishish uchun tadqiqot faoliyatini amalga oshirish talab etiladi. O'z navbatida tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda quyidagi asosiy qoidalarni inobatga olish lozim: tashkiliy qoida, ijtimoiy iqtisodiy qoida, pedagogik qoida.

Xulosa. Tadqiqotda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida talabalar bandligini taminlashga doir nazariy yondashuvlardan kelib chiqib, yosh mehnat resurslarining raqobatbardoshligi ish beruvchilarning mehnatga bo'lgan ehtiyojini boshqa toifadagi xodimlarga qaraganda yaxshiroq qondirish qobiliyatini belgilab beruvchi xususiyatlar mavjud. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida talabalar bandligini taminlash jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlarda OTM faoliyat ko'rsatadigan hududning mahalliy hokimiyat organlari, turli sohalarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan tegishli tarzda o'zaro hamkorlik ishlari alohida ahamiyatga egadir. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida talabalar bandligini ta'minlash jarayonida ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanat masalalari mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, ishchi kuchining sifat ko'rsatkichlarini to'xtovsiz oshirib borish, ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020-yil 24-yanvar.
2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik.– T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «FAN» nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.
3. Nasimov D.A. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand, 2011.
4. Xolmo'minov Sh.R, Xolmurodov S.E. Mehnat bozori iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma – Toshkent, 2013. – 232 b.

Muallif:

Zikriyayev Zokir Ma'mirovich - Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD, dotsent.

UDK 372.8

**ANALYSIS OF THE PROBLEMS OF FORMING MODERN APPROACHES IN THE EDUCATION SYSTEM
BASED ON PEDAGOGICAL VALUES**

TA'LIM TIZIMIDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLARNI PEDAGOGIK QADRIYATLAR ASOSIDA
SHAKLLANTIRISH MASALALARI TAHLILI

АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ НА
ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ

Qurbonova Maftuna Faxriddinovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti. 100064. Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy

E-mail: maftunaqurbonova29@gmail.com

Abstract. This article analyzes the problems that arise in the formation of modern approaches, the need to develop value-oriented life skills in students, as well as problems that arise in the activities of students under the influence of popular culture.

Key words: modern school, educational locomotive, specialized school, creative school, "STEAM education", individual approach, international model, values, modern approach.

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы, возникающие при формировании современных подходов, необходимость формирования у студентов ценностно-ориентированных жизненных навыков, а также проблемы, возникающие в деятельности студентов под влиянием массовой культуры.

Ключевые слова: современная школа, образовательный локомотив, специализированная школа, творческая школа, «STEAM-образование», индивидуальный подход, международная модель, ценности, современный подход.

KIRISH. Hozirgi globallashib borayotgan dunyoda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, xalqimizning ertangi kuni bunyodkorlarini voyaga yetkazish, ularning qalbi va ongini shakllantirish ezgu maqsad sifatida belgilangan. Yoshlarni, maktab o'quvchilarini turli salbiy illatlar, ta'sirlar, illyuziyalar, tajovuzlardan asrash pedagoglarning asosiy vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masalaga haqiqatdan ham hayot – mamot masalasiga aylanib bormoqda"[1].

Globalashuv davridagi erkin axborot olish va almashish imkoniyatining mavjudligi barcha sohalar, jumladan, ma'naviyat, bilim, ta'lim jarayonida innovatsiyalarni talab qiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasida Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va Rossiyada yoshlar tarbiyasining ilmiy strategiyasi bilan shug'ullanuvchi ko'plab tashkilotlar, fondlar va uyushmalar mavjud. Ularning tajribasini o'rganish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, yoshlarni milliy g'oyalari ruhida tarbiyalash ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim talabidir. Binobarin, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson omili va uning ma'naviyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, milliy g'oyalar, mafkuraviy tarbiya, ma'naviy-intellektual masalalarni davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirmoqda. mamlakatlarning mavjudligi va o'ziga xosligi yoshlarini zamonaviy milliy g'oyalar ruhida tarbiyalayotgan millat taraqqiyotini davom ettiradi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Hayotning turli jabhalarida, ayniqsa, madaniy hayotda ro'y berayotgan inqilobiy jarayonlarni hal etishga o'zini bag'ishlagan mutaxassislar G'arb dunyosi tanazzulga yuz tutayotganini xavotir bilan qayd etmoqda. Ularda boshqa xalqlarning ma'naviy qadriyatlarini jamiyatimizga katta ta'sir ko'rsatmasligi, kattalarga hurmat, halollik, insof, vafo, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik kabi milliy ma'naviy qadriyatlarimiz uyg'un ekani alohida ta'kidlanadi. Mamlakatimiz kelajagi, yangi O'zbekiston kelajagi, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagog kadrlarning ilmiy salohiyati, saviyasi, fidoyiligi, ishtiyoqi, bilim berish qobiliyatiga bog'liq. Har qanday ta'lim muassasasi o'quv jarayonini bevosita pedagoglar tomonidan tashkil etadi va amalga oshiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, avvalambor, xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy merosiga xizmat qilmoqda. Bu meros milliy g'oya va ma'naviyatimizning mustahkam poydevoridir. Bugungi kun talablari ilgari berilmagan yangi vazifani, ya'ni olgan bilimlarini hayotda qo'llashga o'rgatishni taqozo etmoqda. Tadqiqot jarayonida tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, kuzatish, pedagogik tajriba-sinov kabi metodlardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Zamonaviylashtirilgan ta'lim-tarbiya konsepsiya yoshlarning kundalik hayotida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, malaka va xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi dinamik o'zgarishlar davrida "qadriyatlarga asoslangan ta'lim" tizimini joriy qilish hamda murakkablashib borayotgan globalashuv jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni singdirish zarurati tobora ortib bormoqda. Qadriyatga asoslangan ta'lim to'g'risida to'htalib o'tadigan bo'lsak, mohiyatan, bu amaliy o'rganishni rivojlantirish orqali o'quvchilarning noyob fazilatlarini oshirishga qaratilgan metodologiyadir. Ushbu ta'lim mazmuni halollik, hurmat, hammadlik, halollik va mas'uliyat kabi muhim axloqiy va madaniy qadriyatlarga asoslanadi [2]. Qadriyatga asoslangan ta'limni ta'minlashda asosiy rol o'qituvchilar va ota-onalarga to'g'ri keladi. Ular nafaqat milliy tarbiyachilar, balki o'quvchilarning shaxsiy xarakterini shakllantirishda yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi axloqiy maslahatchilardir. Qadriyatga asoslangan ta'lim uning samaradorligiga hissa qo'shadigan quyidagi tarkiblarni birlashtiradi. Qadriyatga asoslangan ta'lim barqaror ta'lim tamoyili asosida ishlaydi. O'z-o'zini rivojlantirish barqaror ta'limning muhim elementidir. Bu o'quvchilarning o'zlarini hurmat qilishlari, o'z qadr-qimmatlarini qadrlashlari, ijtimoiy faol va namunali shaxs bo'lishga intilishlari g'oyasi atrofida birlashadi. Ushbu yondashuvni amalga oshiradigan zamonaviy maktablarda o'quvchilarni ichki potentsiali va qobiliyatini aniqlashga, o'quvchining o'z qobiliyati va iqtidoriga ishonishiga va o'zini imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishga undaydigan faoliyatni amalga oshirishi kerak. Zamonaviy maktab jamoasi o'quvchilarda milliy o'zligini anglashiga, qadriyatlariga hurmat ruhida ta'lim berish hamda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishga, kuchli tomonlarini rivojlantirish va zaif tomonlarini bartaraf etishga yo'naltirishi zarurdir. O'quvchilar o'ziga bo'lgan ishonch bilan yangi bilimlar olishga, olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda sinovdan o'tkazishga hamda hayotda pozitiv ruhda va ijtimoiy faol fuqaro sifatida yashashga tayyorlanishi kerak.

Qadriyatlarga asoslangan ta'lim ijtimoiy hamkorlik, katta va kichik jamoada munosabatga kirishish muhimligini ta'kidlaydi. Bu o'quvchilarga empatiya, samarali va mazmunli muloqotning ahamiyatini oshiradi. Guruh ishlari bu o'quvchilarga mustahkam, sog'lom munosabatlar o'rnatishga, jamoaga aloqadorlik va daxldorlik tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi, hamda insoniylik va hissiy farovonlikni oshiradi.

Ixtisoslashgan maktab o'quvchisi o'zi tanlagan maqsadi va bosib o'tgan yo'li bilan boshqa o'quvchilarga namuna bo'lishi kerak. Ixtisoslashgan maktab o'quvchilari o'z oldiga shaxsiy maqsadlarni qo'ya olishi, maqsadni amalga oshiruvchi bosqichlari va shaxsiy kun tartibini shakllantirishi, amalga oshirishi zarur bo'lgan rejalarni, ya'ni maqsad komponentlarini bajarishda mas'uliyat va daxldorlik hissini tuyishi, o'ziga nisbatan talabchan va intizomli bo'lishi insoniyatning oliy qadriyati sifatida belgilanadi. Har qanday vaziyat va sharoitda o'quvchilarda pozitiv maqsad qo'yish ko'nikmasini shakllantirish zamonaviy pedagogika oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Qadriyatlarga asoslangan zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchini maqsadli, o'ziga o'zi motivatsiya bera oladigan hamda dalillarga asoslangan ambitsiyalarga moslashadigan ta'lim muhitini yaratishi kerak.

O'quvchilarning qiziqishlari, bilimi, tajribalari va potentsial darajalarini aniqlashda o'qituvchilar muhim rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarga haqiqiy yordam beradi. O'quvchilar maqsad va unga erishuvchi yo'nalish bilan yashash orqali muvaffaqiyatli umr kechirishga o'rgatiladi. O'quvchilarda tanlangan maqsad sari harakat qilishda, shaxsiy rivojlanishda hamda o'zini o'zi tahlil qilishda ulardan qat'iyatli, bardoshli bo'lish kabi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish talab etiladi. Bardoshlilik mashaqqatni yengish, muammolarni hal qilish va stressni boshqarish strategiyalarini o'z ichiga

oladi. Bu o'quvchilarni muvaffaqiyatsizliklarni qarshi olish hamda muvaffaqiyat sari qadam qo'yishga undaydi. O'quvchilarga chidamlilikni singdirish orqali ularni muvaffaqiyatli o'rganishga boshlash va irodali shaxslarni rivojlantirishga yordam beradi [3].

O'qituvchilar o'quvchilarga muammolarga e'tibor qaratish, konstruktiv tanqidni aniqlash va xatolardan o'rganish madaniyatini oshirish jarayoniga e'tibor berishni birinchi o'ringa qo'yishlari ta'limiy muvaffaqiyatlarga olib keladi. Ular shaxsiy va akademik o'sish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlashga ochiqlikni rivojlantiradilar. Zamonaviy dars jarayoni empatiya, faol tinglash, muammolarni hal qilish va sog'lom munosabatlarni saqlovchi vaziyatlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilar shaxsiy va professional hayot uchun zarur va global istiqbolni rivojlantirishga hissa qo'shadilar.

Ixtisoslashgan maktablarda qadriyatlariga asoslangan ta'lim tizimi natijasida o'quvchilar fuqarolik mas'uliyatini bilishi va faol fuqarolik ko'nikmalarini shakllanishi mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beradi. O'quvchilarga rahm-shafqat, mehr-oqibat va o'z jamoalariga hissa qo'shish muhimligi o'rgatiladi. Tashabbus, maqsad uchun harakat qilish kabi amaliy tajribalar o'quvchilarga o'z bilim va ko'nikmalarini mazmunli o'zgarishlarni amalga oshirish uchun qo'llash hamda mas'uliyatli va vijdonli shaxslar tuyg'usini rivojlantirish imkonini beradi.

XXI asrda ta'lim maqsadlariga erishishda qadriyatga asoslangan ta'limning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Qadriyatlar keng tarqalgan inqirozi hayotning barcha jabhalarida salbiy o'zgarishlarga olib keldi. Bu inqiroz faqat milliy miqyosda emas, balki butun dunyoda seziladi. Qadriyatlar ta'lim maqsadlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning falsafasining ajralmas qismidir. Shu sababli, qadriyatlariga yo'naltirilgan ta'lim jamiyatni rivojlantirish uchun juda muhimdir [7].

Rasmiy ta'lim muhitida yosh o'quvchilarga qadriyatlarni singdirishda o'qituvchining roli muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar jamiyat o'quvchilarga bermoqchi bo'lgan qadriyatlarni o'zida mujassam etgan xarakter va yaxshi xulq-atvor namunasi sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv ehtiyojlarini qondirish qobiliyati tufayli emas, balki o'zlarining shaxsiy fazilatlarini va kasbiy mahorati orqali ham erishiladi.

O'qituvchining namunali xulq-atvori o'quvchilarni ma'nabiy uyg'oq insonlar bo'lib shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, o'qituvchilar namuna va motivatsiya manbai bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar o'qituvchining harakatlarini diqqat bilan kuzatadilar va baholaydilar, ota-onalar ham diqqat bilan kuzatib boradilar. Demak, o'qituvchilar uchun axloqiy xulq-atvorni sinf ichida ham, undan tashqarida ham ko'rsatish juda muhimdir. Ta'lim nafaqat intellektual rivojlanishni, balki o'quvchilarning qadriyatlari va his-tuyg'ularini rivojlantirishni ham birinchi o'ringa qo'yishi kerak[5].

Qadriyatlar tizimi nihoyatda murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, u turli ijtimoiy munosabatlar, aloqalar va jarayonlarni o'z ichiga oladi. Faylasuf Q.Nazarov ta'kidlaganidek, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi uning rivojlanish davri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning qadriyatlar tizimi nisbatan barqaror va o'zaro bog'liqdir.[3] Qadriyat tizimlarining o'zaro bog'liqligi turli davrlarda mavjud bo'lgan turli qadriyat tizimlarini farqlash va ular o'rtasidagi farq va o'zgarishlarni o'rganish mumkin.

XULOSA. Qadriyatga asoslangan ta'limning o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi individual-shaxsiy tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: jamiyatda ham, ta'lim jarayonida ham shaxsning o'zini o'zi anglashi bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar (bilim olish va o'rganishning ahamiyati, bilimning ta'siri, o'z-o'zini anglash va boshqalar, kasbiy fazilatlar va boshqalar); muloqot ehtiyojlarini qondiradigan va uning ko'lamini kengaytiradigan qadriyatlar (bolalar, oila a'zolari, ustozlar bilan muloqot, jamoaga g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlash, axloqiy qadriyatlar almashinuvi va boshqalar); shaxsning ijodiy individualligini rivojlantirishga qaratilgan qadriyatlar (qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlari, jahon madaniyatiga qo'shilish, sevimli mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, doimiy o'z-o'zini takomillashtirish va boshqalar); Ta'lim olish va o'rganishda o'zini o'zi anglash imkonini beruvchi qadriyatlar (ta'lim olishning ijobiy tomoni, qiziqishlari asosida ta'lim olishni o'rganish. Turli madaniyatlarda ta'lim shaxsni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Sharq madaniyatlari, xususan, Sharqda diniy va falsafiy ta'limotlarni qamrab oluvchi ta'limga ustuvor ahamiyat beriladi. Ular intizom, tartib, kamtarlik va saxiylik kabi qadriyatlarni ta'kidlaydilar [4]. Asosiy e'tibor nafaqat ilmiy izlanishlarga, balki har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ma'naviy yuksalishga ham qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 504-505-бет.
2. President Chen Meets with the Dalai Lama,” Office of the President Republic of China (Taiwan), April 5, 2011.
3. Q.Nazarov. Falsafa asoslari. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.
4. Arastu. Axloqi kabir. — T.: Sharq, 2005. 123 b.
5. M.F.Qurbonova. Ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etish zarurati. Муаллим ҳем узликсиз билимлендириў, илмий-методикалик журнал, 2023-йил 6/3-сон, 174-177-бетлар.
6. M.F.Qurbonova. Uzluksiz ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar. Uzluksiz ta'lim, maxsus son, 2023. 87-90 b.
7. M.F.Qurbonova. Zamonaviy maktablardagi innovatsiyon yondashuvlar. GulDU axborotnomasi, 2023. № 4. 103-106 b.

Muallif:

Qurbonova Maftuna Faxriddinovna - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, p.f.f.d (PhD).

UDK 372.857

THE "HEARD-SAW-DONE" TECHNIQUE IN PREPARING FUTURE BIOLOGY TEACHERS TO STUDY ON STEAM

BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINI STEAM TA'LIMIGA TAYYORLASHDA "ESHITDIM-KO'RDIM-BAJARDIM" METODIKASI

МЕТОДИКА "СЛЫШАЛ-ВИДЕЛ-ДЕЛАЛ" ПРИ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ К ОБУЧЕНИЮ В STEAM

Mirzayeva Nodira Abduxamidovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti. 100064. Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy

E-mail: nodirabegim.2018@mail.ru

Abstract. The article highlights the methodology for the formation of steam education based on the principle of "heard-seen-done" innovative pedagogical educational cluster, an extensive analysis of the Steam approach and its specifics in the modern education system.

Keywords: steam education, natural sciences, the principle of "heard-saw-done", pedagogical educational cluster, biology, bacteria, teaching methods.

Аннотация. В статье освещена методика формирования steam-образования на основе принципа "слышал-видел-делал" инновационного педагогического образовательного кластера, проведен обширный анализ Steam-подхода и его специфики в современной системе образования.

Ключевые слова: steam образование, естественные науки, принцип "слышал-видел-делал", педагогический образовательный кластер, биология, бактерии, методика преподавания.

KIRISH. Bugungi kunda pedagogik faoliyatda tizimli fikrlash oddiy bilim va ayrim professional sifatlarga ega bo'lishdan yuqori turadi. XXI asrga kelib jamiyatimizning turli sohalarida, shular qatori pedagogika sohasida vujudga kelayotgan muammolarni hal qilishda tizimli yondashish va tizimli fikrlashni bilishni hayotning o'zi taqazo qilmoqda.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Hozirgi zamon ta'lim tizimining bosh maqsadlaridan biri yuqori madaniyatli, tizimli fikrlay oladigan, oldinda uchrashi mumkin bo'lgan murakkab muammolarni echa biladigan, komil insonni tarbiyalash tizimini yaratishdir. XXI asr pedagogi - nafaqat o'qituvchi, tarbiyachi, avalom bor u – yuqori darajada tizimli fikrlovchi va izlanuvchi pedagogdir. Vaholanki shu kungacha respublikamizda tizimli tahlil qilishni biladigan, tizimli fikrlash qobiliyatiga ega mutaxassislar tayyorlash muammosi yetarli darajada hal bo'lgani yuq. Bunga sabab ko'pchilik professor-o'qituvchilarimizning o'zida tizimli yondashuv va tizimli fikrlash etarli darajada emasligi, bu bilimlarning ishlatilmasligi. Bu esa, bizning fikrimizcha ularda: pedagogik nazariya buyicha bilimlarning sayozligidan; o'z bilim va ko'nikmalarini dolzarblashtirish, ularni majmuaviy ishlatishni bilmasliklaridan; inson xaqida ob'ekt va predmet sifatida tizimli bilimlarning etishmasligidandir.

Anglab etishning o'ziga xosligi – fikrlashning analitik va sintetik ko'rinishlaridan foydalanishdir, ya'ni bir butunni qismlarga bo'lish va murakkablikni nisbatan sodda bo'lgan tarkibiy qismlar ko'rinishida namoyon qilish va aksincha sodda bo'lganlarni birlashtirgan holda murakkablikni tashkil etish.

Bu kabi o'ziga hoslik ham alohida fikrlash darajasida ham anglashning va fikrlashning ommaviy darajasida kuzatiladi. Inson bilimining tahliliy asosda shakllanishi turli fanlarning mavjudligi, fanlarni differentsiatsiyasi, har biri o'zicha qiziqarli, muhim, kerakli bo'lgan tor masalalarni yana ham chuqurroq o'rganishda ko'rinadi.

Ilmiy faoliyat yuritadigan shaxs kamida bitta fan sohasining mazmuni va tarixini, shuningdek, ilmiy nomenklatura, intellektual jarayon ko'nikmalari, ilmiy dalillar qoidalari, ilmiy postulatlar, ilmiy qarashlar va tabiat haqidagi muhim noto'g'ri tushunchalarni biladi. Tabiiy - ilmiy savodxonlik ilmiy tushunchalarni mazmunli qo'llash, tanqidiy fikrlash va muvozanatlash orqali talabalar bilimini kengaytirishga qaratilgan. Yigirma birinchi asrning eng muhim ko'nikmalaridan biri o'z hayotlariga tegishli mavzular bo'yicha tizimli va to'g'ri qarorlar qabul qila olishdan iborat.

Bu borada tizimli fikrlaydigan va keng tahliliy ilmiy dunyoqarashni shakllantira oladigan mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy yondashuvlarning o'rni benihoyat katta. Bunday ta'limga integratsion yondashuvning eng samaralisi, dunyo davlatlari amaliyotida keng qo'llanilib kelayotgan STEAM yondashuvi sanaladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Dunyoning turli davlatlarida STEAM ta'limni o'qitish, ixtisoslashtirilgan markazlar tashkil etish bo'yicha ko'plab samarali natijalar qayd etilmoqda. Bu davlatlar ichida Finlandiya 2003 yildan buyon o'z maktab, universitet, ishlab chiqarish va biznes sohalariga tadbiq etib kelmoqda.[1] Dunyoning rivojlangan davlatlari bilan bir qatorda nafaqat AQSH va Evropada balki, MDH davlatlaridan Qozoqiston va Rossiya davlatlarida ham rivojlana boshladi. Buning natijasi, Qozoqiston maktablari bitiruvchilari tomonidan bo'lajak malakali tabiiy-ilmiy – texnik kadrlar etishtirishni rivojlantirish sanaladi.[2]

Ta'lim mazmuni va sifatini oshirish, bo'lajak pedagoglarda faollik va Iroda, etakchilik, ong va o'zini anglash, mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni shakllantiruvchi pedagogik ta'lim innovasion klasterlarini joriy qilish, tarbiya va o'qitish metodikalari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan, o'z kasbiga sadoqatli yuqori malakali professional pedagog kadrlar tayyorlash ta'limda "Chirchiq modeli"ning asosiy maqsadlaridan sanaladi.

Har bir tamoyilning umumiy maqsadlaridan tashqari hususiy, ma'lum bir soha tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan maqsadlari mavjud bo'lib, pedagogik ta'lim innovasion klasterining tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini rivojlantirish maqsadida, ta'lim klasterining "eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili ilgari surilgan. Innovasion ta'lim klasteri maktabi asoschisi bo'lmish G.I.Muxamedov tomonidan ilgari surilgan ""eshitdim-ko'rdim-bajardim" nomli klasterning metodologiyasini ochib beruvchi tamoyil Xitoy faylasufi Konfutsiy qarashlariga monand bo'lib, ta'limda "eshitdim-unutdim, ko'rdim-eslab qoldim, bajardim-tushundim" tamoyilini yoritib, pedagogik jihatdan tahlili qiladi va amaliy jihatdan natijalarini taqdim etadi.

Dunyodagi bunday global texnologiyalar va tabiiy-ilmiy savodxonlikning integratsiyalashgan ko'rinishi STEAM ta'limi misolida o'qitish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Avvalo dunyoning rivojlangan davlatlarida tabiiy fanlarni o'qitish tizimini tahlil qilish va o'rganishlar shundan dalolat beradiki, STEAM ta'lim bir necha fanlar tutash kelgan va ular yordamida o'quvchilarda ijodkorlik, raqobatbardoshlik, mkhantiqiy tafakkur hamda amaliy kompetensiyalar yuqori darajada rivojlanishi, differensial-tabaqalashtirilgan ta'limning yuksak rivoji sifatida aks etadi.

STEAM ta'limi ta'lim oluvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon yaratib, ijodiy fikrlash asosida muammolarni echimini topish, tabiiy-ilmiy metodlarni bilish, egallanilgan bilimlardan san'at, muhandislik va texnologik bilimlarni rivojlantirish asosida tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan ta'lim sanaladi.

STEM – ta'limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotiga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog'liq kasblarga bo'lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi [4].

Zamonaviy ta'lim tizimining asosini - olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, kreativ ijodkorlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirish tashkil etadi. Bu borada tabiiy fanlar va uni o'qitish metodologiyasini STEAM ta'limiga mos o'qitish, o'quvchilarni biologiya fanlarini o'z qiziqishlaridan kelib chiqib mavzuga oid topshiriqlar va vazifalarni o'zlashtirish, kelajakda tabiiy fanlarning dunyo standartlari darajasida baholanishiga olib keladi.


Quyida biologiya fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan steam yondashuviga binoan 7-sinf biologiya fani "Bakteriyalar" mavzusini "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyiliga binoan tashkil etishga qaratilgan dars na'munasi berilgan. Bunday fanlararo uzviylik rivojlantirilgan ta'limda asosiy etibor bir fanni o'quvchining o'z xoxish va qiziqishidan kelib chiqib o'rganilishiga qaratiladi.



Muhandislik modulida o'quvchilar "bakteriyalarning harakatlanishini – xivchinli nanorobotlar" haqidagi bilimlar asosida o'rganadilar va uning alternativ modelini yaratadilar.

Xivchinlar – xarkat organlari xisoblanadi. Asosan tayokchasimon bakteriyalar xosil qiladi. Xivchinlar ingichka ipsimon bo'lib tarkibi oksil flagellindan iborat. Uzunligi bakteriya tanasining uzunligidan uzunrok bo'ladi. Xivchinlar sitoplazmada joylashgan bazal tanachalar bilan faroplastlardan boshlanib xujayraning tashqarisiga chiqadi. Joylashishiga karab to'rtga bo'linadi: A. Monotrixlar – bir tukli. B. Lofotrixlar. C. Amfotrixlar. D. Peritrixlar.

ESHITDIM BOSQICHI



Bakteriya hujayrasining xarakati xivchin soni va joylashishiga bog'liq. Monotremalarda, masalan, Pseudomonas aeruginosa, flagellum, soat yo'nalishi bo'yicha aylanib, hujayrani oldinga suradi va qarshi — uni birga tortadi. Ba'zi bakteriyalarda xivchin faqat soat yo'nalishi bo'yicha aylanadi. Ko'p xivchinli bakteriyalarda suzishda xivchinlilar soat miliga teskari aylanuvchi arqonga aylanadi. Soat yo'nalishi bo'yicha aylanayotganda to'qilgan arqonsimon xivchinlar echilib ketadi va alohida xivchinning mustaqil aylanishi tufayli hujayra "salto" qila boshlaydi.

"Xivchinli motor - birinchi kashf etilgan biologik aylanma qurilma" (Berg, 1973)". Xivchinlar bakteriya turiga qarab sekundiga bir necha yuzdan >1000 aylanishgacha tezlikda aylanadi."

Pufak – shar reaktiv dvigatel sifatida.




KO'RDIM BOSQICHI

Ushbu vizual model xivchinlilarning nanoreaktiv dvigatellarini ishlash prinsipini namoyish etadi. Uning ishlash prinsipi shundaki, to'pdan chiqadigan havo oqimi, u shishirilgandan va bo'shatilgandan so'ng, mashinani teskari yo'nalishda itaradi.

O'z qo'llaringiz bilan yasash oson bo'lgan qiziqarli o'yinchoq. Reaktiv dvigatellarning ishlash prinsipini aniq namoyish etadi. Asosiy qismdan (bizda naycha vazifasini bajaradigan naycha bor), dvigatelning ishchi suyuqligi bosim ostida chiqib ketadi (bizda havo bor, lekin u siqilgan gaz va oddiy suv ham bo'lishi mumkin), bu qurilmani (mashinani) teskari yo'nalishda harakat qilishga majbur qiladi.

Ushbu tajriba uchun bizga kerak bo'ladi: balon, naycha, rezinka, skotch lenta, to'rt balonli mashina kerak bo'ladi. Tajribada ishlatiladigan mashina iloji boricha engil bo'lishi kerak. Balon naychani bir uchiga rezinka o'rnatilishi kerak.



Naychani ikkinchi uchi mashinaning tanasiga yopishqoq lenta bilan o'rnatilishi kerak, shunda naycha orqali sharni puflash mumkin. Model tayyor, uni ishlatishingiz mumkin! Buning uchun balonni naycha orqali puflang, naycha teshigini barmog'ingiz bilan chimchilab, mashinani erga qo'ying. Teshikni ochishingiz bilan shardan havo uchib chiqadi va mashinani itaradi.

Kuyidagi QR – kodni skanerlang va amaliy topshiriqning videoyo'riqnomasini ko'ring. Bu bosqichda o'quvchilar berilgan topshiriqni uyda mustaqil bajaradilar. O'quvchi tomonidan yasalgan model va uning mexanikasi tasvirga olinadi. Tayyorlangan vazifa ma'lum dasturlarda korrektirovka qilinib, nazariy izoh beriladi.



BAJARDIM BOSQICHI

XULOSA. O'quv va ilmiy tadqiqot ishlari natijalariga ko'ra STEM ta'limining asosiy xususiyati shundaki, bunda o'quvchilar fanlarni samarali o'rganishda o'z aqli va qo'l mehnatidan foydalanadilar. O'quvchilar dars davomida kichik tajriba va amaliy ishlarni o'tkazishadi, turli modellar ustida ishlab o'z g'oyalarini amalga oshiradilar va mahsulot yaratishadi. STEM ta'limining afzalligi shundaki, fanlarni o'qitishda bilimlar alohida emas, amaliyot bilan o'zaro mutanosib holda beriladi. O'quvchi o'zida nostandart muammolarni echish uchun tayyor modellardan hamda izlanuvchilik faolligini rivojlantirib yangi modellar ustida ishlaydi va bu uning kelgusi hayotida juda qo'l keladigan ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi. [3]

Steam yondashuvga asoslangan ta'lim asosan uch bosqichda shakllantiriladi va nazariyani amaliyot bilan bog'lash imkoniyatini beradi. 1-bosqichda talabalar o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimning 40-50% ni o'zlashtirilgani, 2 - bosqichda esa talabalar tomonidan 60-70% bilimlarning o'zlashtirilgani aniqlansa, oxirgi bosqichda ta'lim samarasi ko'rsatkichi 80-100 % ga etishi prognozlanadi. Steam yondashuvga asoslangan ta'limda ta'lim natijadorligini talabalarning o'zlashtirgan bilim darajasi va statistik ma'lumotlar isbotlab beradi. Aynan tabiiy fanlarni o'qitishda bunday yondashuv bo'lajak biologiya o'qituvchilarining o'quvchilarda ijodkorlik, erkinlik va individuallik kabi ko'nikmalarni shakllantirishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Общероссийский портал зарубежного образования. <http://smapse.ru/stemm-stream-ili-steam-v-chyom-raznica/>
2. Ногайбаева Г., Джумажанова С. Развитие STEM-образования в мире и Казахстане // образовательная страна. 2016. № 20 (57). S. 34-46
3. Sangirova Z.B. STEAM o'quvchilarda izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishda vosita sifatida //Uzluksiz ta'lim// – Toshkent, 2020, №6. – B.54-57.
4. Gulshoda Ergasheva, Dilshoda Boltaeva. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya ISSN: 2181-1776 "BILIG – ILMIIY FAOLIYAT" nashri | <http://bilig.academiascience.org>

5. Mirzayeva N. A. Tabiiy fanlarni o'qitishda pedagogik ta'lim innovasion klasteri (Chirchiq modeli)"eshitdim–ko'rdim bajardim" tamoyili metodologiyasi //Research Focus. – 2022. – T. 1. – №. 1. – S. 15-22.

6. Mirzayeva N. A., Umarov A. S. Practical Proposals and Results of The Science And Pisa International Assessment Programs for The Development of Natural Literacy of Pupils in Uzbekistan //International Journal of Academic Pedagogical Research. – 2021. – T. 5. – №. 4. – S. 69-71.

7. N.A.Mirzayeva. "Zamonaviy maktablarni tashkil etishda Steam yondashuvi" Chirchiq konferensiyasi. 5-6 may. 2022 y.

8. N.A.Mirzayeva tabiiy savodxonlikni rivojlantirishda pisa dasturining kreativ topshiriqlaridan foydalanish uslubiyoti // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference

Muallif:

Mirzayeva Nodira Abduxamidovna - Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., p.f.f.d., Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

UDK 372.815.99

SPECIFIC FEATURES OF DIRECTION OF STUDENTS TO PROFESSIONAL ACTIVITIES

TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA YO'NALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ НАПРАВЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Jonzoqova Sayyora Anvarovna

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV-mavze.

E-mail: jonzoqovasayyora2020@gmail.com

Abstract. The article discusses a system for increasing students' readiness for professional activities. The scientific sources in which research was conducted on general methodological problems related to the choice of profession, orientation to the profession, understanding and definition of professional identity are analyzed. The research work examined personality characteristics with motives for activity in three areas: Self-orientation is manifested in the predominance of the motivation of the highest authority, the desire to fully control and analyze the characteristics of one's personality. People orientation - this pill is a feature of the desire to be in close and warm relationships with people under any circumstances. Orientation to activity - interest in solving issues related to work, the characteristic of the desire to complete the assigned task as thoroughly as possible.

Key words: profession, professional activity, professional development of students, "self-orientation", "person-oriented", "activity", personal viability, profession viability.

Аннотация. В статье рассматривается система повышения готовности студентов к профессиональной деятельности. Проанализированы научные источники, в которых проводились исследования по общим методологическим проблемам, связанным с выбором профессии, ориентацией на профессию, пониманием и определением профессиональной идентичности. В исследовательской работе были рассмотрены особенности личности с мотивами деятельности по трем направлениям: Самоориентация проявляется в преобладании мотивации высшего авторитета, стремлении полностью контролировать и анализировать особенности своей личности. Ориентация на людей – эта таблетка является особенностью стремления быть в близких и теплых отношениях с людьми при любых обстоятельствах. Ориентация на деятельность – интерес к решению вопросов, связанных с трудовой деятельностью, характеристика стремления как можно более тщательно выполнить порученное задание.

Ключевые слова: профессия, профессиональная деятельность, профессиональное становление студентов, «самоориентация», «человекоориентированность», «деятельность», жизнеспособность личности, жизнеспособность профессии.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbga munosabati, mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy kamoloti masalasi juda katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, bevosita uning ilmiy, ma'naviy, moddiy salohiyatini, ichki va tashqi siyosatini belgilaydi. Shunday ekan, bu muammo har tomonlama izchil o'rganilishi, tadqiq etilishi lozim bo'lgan va undan kelib chiqib tegishli chora tadbirlar, istiqbolli rejalar tuzilishi zurr bo'lgan muammolardan biridir. Kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kasbiy tashxis yoshlarning mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy kamoloti masalalari doimo hukumatning diqqat markazida bo'lsa-da, ammo shaxsning o'z kelajagini o'zi o'ylab ko'rishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar

Tadqiqotda talabalar o'z tanlagan kasbiy faoliyatiga munosabatining pedagogik va psixologik xususiyatlarini yoritish asosiy maqsad qilib olingan. Tadqiqot ishida tavsiflash, qiyoslash, kompleks va funktsional tahlil metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shaxsning yo'nalganligini aniqlash bo'yicha turli xil takliflar keltirib o'tilgan. Shaxslarning yo'nalganligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar uch yo'nalishda olib borilgan:

Birinchi yo'nalish - o'ziga yo'nalganlikni aniqlaydi. Bu oliy nufuzga ega bo'lish motivlarining ustunlik qilishi, o'z shaxsining xislatlarini to'liq idora qilish va tahlil qila olishga intilishda namoyon bo'ladi. O'ziga yo'nalgan kishi ko'proq o'z hissiy kechinmalari, fikru xayollari bilan band bo'lib, atrofdagilar bilan kam qiziqadi; xatti-harakatlarining boshqalar tomonidan tan olinishiga, qadrlanishiga, qo'llab-quvvatlanishiga ehtiyoj sezadi; tanqidni uzoq eslab yuradi, tanqiddan, insonlarning nazaridan yiroqda yurishni yoqtiradi. Barcha xatti - harakatlarining jamoatchilik tomonidan baholanishiga juda sezgir, hato xatti - hapakat qilib qo'yishdan qo'rqadi. Kasbiy faoliyatiga kelsak, jamiyatda yuqori baholanadigan kasb sohasini tanlashga va shu sohada o'z mehnati, kasbiga sodiqligi bilan obro' - e'tibor qozonishga intiladi. Agar o'ziga yo'nalgan kishi keng ma'naviyatli, fahm-farosatli inson bo'lsa, undan xudbinlik kayfiyatidagi xulq-atvorni kutish qiyin. Bunday kishilar, ko'pincha, chuqur mulohazali, o'tkir zehnli insonlar bo'lishadi. Obrazli qilib aytganda, "pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa – birovg'a" degan maqolga qat'iy amal qiladigan, bir oz kamgap ko'rinsalarda, ichki dunyolarida o'zlari bilan tinimsiz "gaplashib", o'zlarini "tergab" turadigan, sermulohaza kishilardir. Shu jihatdan, bunday xulq - atvor ularni boshqalarga, ayniqsa, insonlarga yo'nalgan kishilar uchun ko'rimsiz, yopiq (yoki "sovuq") basharali qilib ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchi yo'nalish - insonlarga yo'nalganlikni tadqiq qiladi. Bu hap qanday sharoitda ham insonlar bilan yaqin va iliq muomalada bo'lishga intilish xususiyati. Bunday kishilar shaxslararo munosabatlarning barcha tomonlariga katta ahamiyat beradilar. Ko'pincha, ular uchun hayotda eng qadrlil narsa – boshqalar bilan munosabatda, hamkorlikda bo'lish imkoniyatidir. Kuchli darajada insonlarga yo'nalganlik doim xushchaqchaq, insonlar nazarida bo'lish, hap tomonlama muloqotda bo'lish, cheksiz sohalarda alohida, yaqin, munosabatda bo'lishdir. Bunday kishilar uchun insonlarsiz dunyo mazmunsiz bo'lib, kundalik hayotda o'z mehnat yoki o'qish jamoalari bilan bog'liq bo'lishga, iliq hissiy munosabatlarni davom ettirishga kuchli ehtiyoj sezadilar. Kasbiy faoliyatda o'z kasbdoshlari bilan qalin munosabatda bo'lishga, hamjihat bo'lishga intilishlarida bu yo'nalganlik o'z aksini topadi.

Uchinchi yo'nalish - faoliyatga yo'nalganlikni aniqlaydi. Mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etishga qiziqish, topshirilgan vazifani imkon qadar puxta qilib bajarishga intilish xususiyati, bunday kishi mehnatni tashkil etishning odatdagi usulidan tezda zerikib qoladi va shu sababli, doimiy ravishda ish jarayonini o'zgartirib, mukammallashtirib borish orzusi bilan yuradi. Vazifani to'liq va mukammal bajarishga moyillik, javobgarlik hissi, shu bilan birga ishdan, mehnat faoliyatidan zavq olish, mehnatni qadrlash, unga vujudi bilan kirishib ketish, mehnatga e'tiqod va shu sababli o'z sohasini chuqur va mukammal o'rganishga moyillik bu yo'nalishdagi kishilarga xos xislatlardandir. Bunday kishilar ish yuzasidan asosli va chuqur hamkorlik qilishga intiladilar. Insonlar uchun foydali bo'lgan umumiy maqsadga erishish yo'lida o'z fikrlarini ilgari surishga qodir bo'lib, qat'iy va ma'lum bir kasb doirasida mustaqil va ijodiy fikrlari bilan ajralib turadilar.

Shaxsning kasbiy shakllanishida o'zaro aloqadorlik masalasi ko'pgina tadqiqotlarda o'rganilgan. Bu tadqiqotlarda kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kasbiy kamolot, kasbiy faoliyatni boshqarish va kasbiy kamolotning boshqa masalalari o'rganilgan.

Ilmiy manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kasbiy o'zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar borasida qator izlanishlar olib borilgan, bular: Arziqulov D.N. [1], Asamova R.Z. [2], Jabbarov A.M. [3], Aza L.A. [4], Ananev B.G. [5], Gurevich K.M. [6], Davletshin M.G., Zaxarina M.S. [7], 3eer E.F. [8], Ismagilova F.S. [9], Klimov E.A. [10].

Kasbiy psixologiya muammolari bo'yicha respublikamizda pedagog va psixologlar bir qator tadqiqotlar olib borishgan. Bu tadqiqotlar kasb tanlash, kasbiy faoliyatga yaroqlilik va shaxsning kasbiy o'zligini anglashi masalalari, kasbiy faoliyatning psixologik talablari va individ faoliyatining psixofiziologik asoslari, kasbiy qiziqishlarning shakllanishini o'rganishga bag'ishlangan [1], [2], [7].

Tadqiqotda bugungi kunda talabalar shaxsining kasbiy shakllanishidagi tasavvurlari, kasb tanlashga sabab bo'luvchi omillar va kasb tanlashga nimalar ta'sir ko'rsatayotganligi, kasbiy faoliyat motivlarining darajalari, shaxsiy va kasbiy maqsad, qiziqishlari hamda kasbiy qarorlari nimadan iborat ekanligini aniqlashga e'tibor qaratildi. Shunday bo'lsa ham hozirgacha ilmiy tadqiqotlarda kasb tanlashning turli xil sabablari mavjudligi aniqlangan.

Yuqorida ta'kidlangan tadqiqotchilar qarashlariga tayanib aytish mumkinki, talabalar mutaxassis sifatida shakllanishi davridayoq yashovchanlik ko'rsatkichlaridan boxabar bo'lishlari muhimdir. Tadqiqotchilarning fikricha, yashovchanlik ikki xil ko'rinishga ega bo'ladi: shaxsning yashovchanligi va kasbning yashovchanligi [3], [4], [5].

Shaxslarning yashovchanlik sifatlariga quyidagi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin: 1. Shaxs xususiyatlariga munosib kasb tanlash. 2. Bajarayotgan ishga qo'yilgan talablarga yuqori darajada tayyorlik. 3. Hayoti davomida talim olish va o'rganishga tayyorlik. 4. Madaniyligi, o'zga kishilar qadr-qimmatini, farqlarini qabul qila bilish. 5. Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishni bilish. 6. Bir necha sohalarda kasbiy mahoratni namoyish qila olishi. 6. Yangi loyihalar taqdim qilish tashabbusiga ega bo'lish. 7. Ishda hamkasblar bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmasiga egaligi [6], [8].

Talabalarning kasbiy shakllanishi bilan ular shaxsining yo'nalganligi o'rtasida ma'lum bog'lanishlar mavjud bo'lib, bu aloqani o'rganish orqali talabalarga o'zlariga mos kasb tanlashlari uchun kerakli kasbiy maslahat berish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Shaxsning yo'nalganligi deganda uning shunday psixik xususiyati tushuniladiki, bu xususiyat shaxsning ehtiyojlarini, motivlarini, dunyoqarashini, ustanovkalarini, hayotdagi va faoliyatidagi maqsadlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shaxsning yo'nalganligini bir necha komponentlar ifodalaydi. Ulardan birinchisi shaxsning ehtiyojlari hisoblanadi. Shaxsning ehtiyojlari – bu uning tomonidan his qilinadigan nimagadir bo'lgan zarurati. Shaxsning motivlari – bu ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan shunday ichki kuchlarki, bu kuchlar uni ma'lum faoliyatga undaydi. Shaxsning dunyoqarashi – bu tabiatga, jamiyatga va insoniy munosabatlarga nisbatan shakllangan ilmiy qarashlar, ishonchlar tizimi bo'lib, ular shaxsning ichki holati hisoblanadi va uning ongida ma'lum hayotiy qiziqishlar va maqsadlar, munosabatlar, pozitsiyalar ko'rinishida aks etadi. Shaxsning ustanovkalari - bu u yoki bu faoliyatni amalga oshirishga nisbatan yoki shaxsiy faollikni tormozlashga nisbatan bo'lgan ichki kayfiyatidir. Ustanovkalar muhim funktsional ahamiyatga ega bo'lib, ular shaxsning ma'lum faoliyatni samarali bajarish imkoniyatini beradigan tayyorgarlik holati ko'rinishida bo'ladi. Ularning asosiy funktsiyalari ikki xil: 1) faoliyatning amalga oshirilishidagi turg'un holatni ta'minlaydi; 2) standart vaziyatlarda faoliyatning kechishini ixtiyoriy nazorat qilishdan va qaror qabul qilish zaruriyatidan shaxsni ozod qiladi. Maqsadlar – bu shaxs uchun nisbatan ahamiyatli bo'lgan predmetlar, hodisalar, vazifalar va ob'ektlar hisoblanib, ularga etishish shaxs hayotining va faoliyatining mohiyatini tashkil etadi. Maqsadlar shaxsning ehtiyojlarini amalga oshiradi va faoliyat so'nggi natijasining obrazi sifatida ishtirok etadi [9], [10].

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, shaxsning yo'nalganligi murakkab tuzilmaga ega bo'lgan jarayon hisoblanib, uni tadqiq qilishda olinadigan natijalarni shu murakkablik nuqtai nazardan turib tahlil qilish zarur bo'ladi.

Shaxsning yo'nalganlik masalasiga N.D.Levitov o'ziga xos yondashib, u inson xarakterini shaxsning yo'nalganligini, ya'ni qiziqishlari, motivlari, intilishlari va irodaviy xususiyatlari mujassamlashgan psixik tuzilma sifatida talqin qiladi. Bu esa uning xarakterida bir qator xususiyatlar shakllanishi va ular shaxsning o'zi, atrof-muhit, jonli va jonsiz predmetlarga nisbatan munosabatiga yo'nalishini ifoda etadi [11].

Demak, shaxs faoliyatini harakatlantiruvchi kuchlar - ehtiyojlar, motivlar va qiziqishdan iborat. Ularning kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, shaxsiy va kasbiy shakllanishdagi ahamiyatini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabaning kasbiy shakllanishi uning shaxsiy o'sishi bilan uyg'unlikda borishi tabiiy. Shuning uchun muammoni o'rganish jarayonida masalaning tahlil etishda har ikki jihatni ham o'zaro aloqadorlikda foydalaniladi.

Talabalarning "Shaxsiy yo'nalganligi" bo'yicha birinchi ko'rsatkich: o'ziga yo'nalganlik – shaxsda oliy nufuzga ega bo'lish motivlarining ustunlik qilishi, o'z shaxsi xislatlarini to'liq idora qilishi va tahlil qila olishga intilishini ifodalaydi. Bunda talabalarda o'z faoliyatlarini tayyorlash istagi borligi, yuqori mavqega ega bo'lishni tasavvurlar orqali belgilashi, o'z xatti-harakatlarini etarlicha nazorat qilishi va atrofda qilargalarga e'tibor berishda befarqligi kuzatiladi.

Agar kasb tanlash va kasbiy rivojlanish jarayonlari o'zaro qiyoslanganda ular o'rtasidagi bog'liqliklar notekisliklardan xoli bo'lganda edi, talabalarning «o'ziga», «insonlarga» va «faoliyatga» yo'nalganlik motivlari kasbiy rivojlanish va shaxsiy xislatlarni tarbiyalashda qiyinchiliklar tug'dirmas edi.

Talabalardagi insonlarga yo'nalganlik motivlarining ortishi ularda faoliyatga yo'nalganlikni pasayishiga olib kelar ekan. Bu esa talabalarning muloqotmandlikni o'sishiga, inson qadr-qimatini hurmatlash, xushchaqchaqlik, insonlarsiz dunyoning mazmunsiz bo'lishi, jamoada ishlashni yoqtirish, kasbdoshlarini e'zozlash kasbi sifatlarini o'sishi muhimligini anglaganliklaridan dalolat beradi. Aslida insoniy fazilatlarini shakllantirish shaxsning kasbiy shakllanishining bir jabhasi sanaladi. Aslida insonlarga yo'nalganlik bilan faoliyatga yo'nalganlik motivlarini ta'minlash esa ta'lim-tarbiya jarayonida talabaning ham kasbiy, ham shaxsiy kamoloti uyg'unligini tak'minlashga olib kelgan bo'lar edi.

Xulosa. Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, shuni ta'kidlashimiz mumkinki, talabalarning kasbiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida «o'ziga yo'nalganlik» bo'yicha o'zini boshqalar tomonidan tan olinishga intilishi, sezgirlik, ma'naviy boyligi, aql-idrokli va zehnlilik ekanliklarini; «insonlarga yo'nalganlik» bo'yicha insonlar bilan muomalaga kirishishi malakasini, iliq munosabatlar o'rnatishga moyilligi, kasblarni engil o'zlashtirishini; «faoliyatga yo'nalganlik» bo'yicha esa ishni puxta bajarishi, vaziyatlarga tez moslashuvchanligi, mehnatga e'tiqodliligini va boshqa sifatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Talabalarning kasbiy rivojlanishidagi sustliklar ularning shaxs sifatida shakllanishi va kasb tanlash jarayonidagi yo'l qo'yilgan xatolarining oqibatidir. Shu tufayli ularning shaxsiy yo'nalganligini ifodalovchi motivlarda o'ziga yo'nalganlik insonlarga va faoliyatga yo'nalganlikka nisbatan ustunlik qilib, ular orasida bir-birini boyitish va to'ldirish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari: Avtoref.psix.fan.nomz.dis.T.2002. -137 b.
2. Asamova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi // Diss. psixol. fanl.nomzod.-Toshkent, 2002.-138 b.
3. Жаббаров А.М. Психологические основы формирования профессионально значимых свойств личности будущего хлопкороба в учебных производственных бригадах: Автореферат. дис...канд. психол. наук. –Киев, 1999. -27 с.

4. Аза Л.А. Особенности профессионального самоопределения молодёжи. Философская и социологическая мысль. -1989. -№ 6. -С 3-10.
5. Афанасьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. -М., 1977. -287 с.
6. Гуревич К.М. Профессиональная пригодность и основные свойства нервной системы. -М.: Наука, 1970. -272 с.
7. Давлетшин М.Г., Захарина М.С. Профессиональная ориентация учащихся. –Ташкент: Укитувчи, 1986. -82 с.
8. Зеер Э.Ф. Психология профессий. Екатеринбург, 1999. -184 с.
9. Исмаилова Ф.С. К проблеме психологического анализа профессионального опыта. - М., ВМУ. 2000. № 2. С.16-27.
10. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. Ростов. Н.Д., 1996. -382 с.
11. Левитов Н. Д. О психических состояниях человека. — М.: «Просвещение», 1964. – 144 с.

Muallif:

Jonzoqova Sayyora Anvarovna - Guliston davlat universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini o'qituvchisi.

UDK 372.8

FEATURES OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE SPECIALISTS

BO'LAJAK MUTAXASSISLAR KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Burxonov Abduali Mamatmurotovich

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV-mavze.

E-mail: burxonovabduali2024@gmail.com

Abstract. The article describes the results of observation and research into the characteristics of the formation of professional competence of future specialists. Any organized education must correspond to the current level of development of the technological sphere. Information is presented on raising the level of quality of education to a new level, developing the professional competence of future specialists, improving the mechanism for forming the educational process in the modern educational environment, and applying educational and competency-based approaches.

Key words: competence, professional competence, competent approach, modern education, electronic education, independent education.

Аннотация. В статье описаны результаты наблюдения и исследования особенностей формирования профессиональной компетентности будущих специалистов. Любое организованное образование должно соответствовать современному уровню развития технологической сферы. Представлена информация о повышении уровня качества образования на новый уровень, развитии профессиональной компетентности будущих специалистов, совершенствовании механизма формирования образовательного процесса в современной образовательной среде, применении образовательно-компетентностных подходов.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, компетентный подход, современное образование, электронное образование, самостоятельное образование.

Kirish. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida etuk mutaxassislar tayyorlash, ta'limning sifat darajasini yangi bosqichga ko'tarish, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim muhitida o'quv jarayonini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish, ta'lim kompetentsiyaviy yondashuvlarni tadbiq qilish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tadqiqotlarning natijalariga ko'ra dunyoda axborot hajmi yildan yilga oshib borayotganligi sababli har qanday sohada muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat olib borish uchun o'ziga xos talablar qo'yilmoqda.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar

Har qanday tashkil etilayogan ta'lim texnologik sohani rivojlantirishning hozirgi darajasiga mos kelishi kerak. Axborot oqimining ko'pligi sababli har qanday OTM professor-o'qituvchilari o'z faoliyatini an'anaviy usulda tashkil etishi ijobiy natijalarni bermasligi kuzatilmogda. Bunday vaziyatda bilim, ko'nikma va malakalarni qayta ishlab chiqishga asoslangan ta'lim tizimi iqtisodiyot, sanoat va ilm-fanni rivojlantirishda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan no'anaviy usulda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot ishida tavsiflash, qiyoslash, kompleks va funktsional tahlil metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ta'limda bilimlar paradigmasini transformatsiyalash va kompetentli yondashuv bilim, muloqot, tashkiliy, axloqiy va boshqa muammolarni mustaqil ravishda echish bo'yicha ta'lim tajribasini rivojlantirish usuli sifatida qaraladi. Kompetentli paradigma "bilimlar" ni inkor etmaydi, balki shakllantiriladi va malakali yondashuv nuqtai nazaridan talabning kasbiy faoliyatda olingan bilimlarini qo'llashga tayyorligini rivojlantiradi [0].

Bugungi kunda o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yaratishning ilmiy pedagogik asoslari ishlab chiqilgan [2], maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish tamoyillari va ularga qo'yiladigan talablar, elektron darsliklarda uchraydigan kamchiliklar haqida [3], elektron axborot-ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishga oid shaxsga yo'naltirilgan ta'lim doirasida elektron axborot ta'lim muhitini loyihalashtirish [4] kabi tadqiqotlarni keltirish mumkin.

Bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslarini quyidagicha bayon etish mumkin [6]:

- o'quv jarayonining markazida tinglovchining mustaqil bilim olish faoliyati (o'qish, o'qitish emas) turadi.
- tinglovchi bilimlarni mustaqil egallashi, turli axborot manbalari bilan ishlash va ulardan foydalanish malakasiga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

- bilimlarni mustaqil egallash passiv xarakterga ega bo'lmasligi, aksincha tinglovchi faol bilish faoliyatiga jalb qilinishi kerak.

- tinglovchilarni kompyuter tarmoklari orqali o'qitish yangi pedagogik texnologiyalarni talab etadi. Bunday pedagogik texnologiyalar ga hamkorlikda o'qish, loyihalar metodi, muammoli o'qitish metodlarini keltirish mumkin.

- masofaviy o'qitish tinglovchining o'qituvchi bilan faol muloqotidan tashqari boshqa tinglovchilar bilan ham muloqotini nazarda tutadi.

- nazorat tizimi doimiy xarakterga ega bo'lishi va tezkor teskari aloqaga, testdan o'tkazish avtomatik tizimi asoslangan bo'lishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini kompetentsiyaviy yondashuvlar orqali umum madaniy va kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi hamda DTS va malaka talablari asosida tartibga solinadi.

Tadqiqotchi R.V.Esin OTMda bakalavriat yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan [6]. Ta'lim jarayonini kompetentli yondashuvi asosida tashkil etish orqali kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish, ta'limni ijtimoiylashtirish, ta'limni individuallikni rivojlantirish va o'z-o'zini faollashtirishga qaratilgan bo'lib, asosiy xususiyat-o'z-o'zini o'rganishga, talabani o'z ustida mustaqil ishlashga yo'naltirishdir. Shu bilan birga, professor-o'qituvchining roli ham o'zgaradi. Tadqiqotchining fikricha, o'qituvchi ta'lim jarayonini boshqaradigan o'qituvchiga aylanishi kerak.

Ilmiy, psixologik, pedagogik, falsafiy adabiyotlarda, ilmiy tadqiqotlarda va amaliyotda ta'lim natijalarini bayon qilish uchun "kompetentsiya" va "kompetentlik" tushunchalari keng qo'llaniladi, lekin bu tushunchalarning tushunishning noaniqligiga sabab bo'luvchi turlicha talqinlari mavjud [7].

Ba'zi mualliflar "kompetentlik" tushunchasini kasbiy faoliyatni amalga oshirish deb ta'riflaydi, kasbiy munosabatlarda bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy rivojlanishni o'z ichiga oladi [8].

Tadqiqotchi M.A. Xolodnaya ta'riflashicha, "kompetentsiya bu muayyan sohada kasbiy faoliyatni samarali ishlashini ta'minlaydigan harakatlarning umumlashtirilgan metodlari" va "kompetentlik shaxsning ichki psixologik mexanizmlaridir: kompetentsiyalar qadriyatlar va munosabatlar tizimini, bilim va tajribalarni amalga oshirishga imkon beradi" [8]. I.A.Zimnyaya tadqiqotlarida kompetentsiya "bilim, amaliy dasturlar (algoritmalar), qadriyatlar tizimlari"ni o'z ichiga oladi [7].

M.A.Xolodnayaga ko'ra, "kompetentsiya bu kasbiy faoliyatda bilimlarni amaliyot yo'naltirish qobiliyatidir". O'z navbatida kompetentlik "bilim, fikrlash fazilatlarini shakllantirish, kasbiy faoliyatda motivatsiya, turli vaziyatlarda qaror qabul qilishga tayyorlik va qobiliyatlar tizimida turli bilimlarni o'zlashtirishning yuqori darajasini ifodalovchi shaxsiy intellektual resurslarning tavsiflaydi" deb ta'riflangan [8].

"Kompetentlik" va "kompetentsiya" tushunchalari R.V.Esin fikricha shaxsning kasbiy faoliyati sifatini belgilovchi shartlarning ob'ektivligi va sub'ektivligidir. Kompetentsiya - kompetentlikni amalga oshirish imkoniyatlarini belgilovchi ob'ektiv shart-sharoitlar majmuidir. Kompetentlik-bu kasbiy masalalarni o'z kasbiy faoliyatida samarali echish va istalgan sohada kasbiy faoliyat olib borish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir [6].

AQSh ta'limida "Muayyan kasbiy faoliyatda kasbiy vazifani amalga oshirish uchun zarur bilim, ko'nikma, va malakalar uzviyligi" kompetentsiya tushunchasini tavsiflaydi [9]. Kompetentsiya tushunchasi kasbiy faoliyat uchun zarur bilim, ko'nikma, malakalarni qamrab olishini ta'kidlaydi.

"Kompetentlik", "kompetentsiya" tushunchalari mazmuni yuqorida keltirib o'tgan tadqiqotchilar fikriga asosan, kompetentsiyani turli muammoli vaziyatlarda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat olib borish uchun zarur bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifat fazilatlarini rivojlantirish hamda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat olib borish uchun bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda foydalanamiz.

Shuningdek, respublikamizda muammoli ta'limning variativ didaktik funktsiyalari integratsiyasi asosida talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodik ta'minotini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlanishdagi ta'lim-tarbiya jarayoniga moslashish imkoniyatini beruvchi, kasbiy-pedagogik tayyorgarlik sifatini orttiruvchi innovatsion faoliyatga tayyorlash bo'yicha tadqiqot ishlari ham olib borgan. Bundan

tashqari, fanlararo integratsion o'qitish; pedagogik texnologiyalar vositasida talabalarda kasbiy faoliyat motivatsiyasi, kasbiy faoliyatga bosqichma-bosqich tayyorlashni amalga oshirish mexanizmlari batafsil o'rganib chiqilgan.

Oliy ta'lim muassasasining asosiy maqsadi Davlat ta'lim standartlari (DTS) va malaka talablarida taqdim etilgan barcha kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirish uchun bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. O'quv rejasiga kiritilgan har bir fanni o'zlashtirish kasbiy kompetentlikning rivojlanishiga yordam beradi. Kompetentli yondashuvini amalga oshirish talabalarning faoliyatga tayyorgarligi sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni kasbiy kompetentsiyalarni o'z ichiga olgan ta'lim natijasi sifatida ajratib ko'rsatadilar. Ular aynan talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda kompetentli yondashuvni amalga oshirishgan.

Kasbiy kompetentlikni L. P. Grihenko shunday deydi: "Kasbiy kompetentlik insonning kasbiy bilim darajasi, tajribasi va shaxsiy sifat va fazilatlarini, uzluksiz o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish, o'z ishiga ijodiy va mas'uliyatli munosabati bilan belgilanadi" [10].

E.F.Zeer kasbiy kompetentlik kasbiy mahorat, kasbiy bilim va ko'nikmalar majmui bo'lib, kasbiy faoliyatni amalga oshirish yo'llarini belgilaydi. Ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va qobiliyatlarga asoslangan integrativ-shaxsiy sifat talabani kasbiy faoliyatga tayyorligini belgilab beradi [11].

L.D.Kudryavtsev o'z tadqiqotlarida kompetentli yondashuv asosida oliy ta'limda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muammosini ko'rib chiqqan. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy kompetentligi mazmunan o'rganilgan, talabalarning kasbiy faoliyatiga mos hujjatlar va malaka talablarida taqdim etilgan. Kasbiy faoliyatda kasbiy kompetentsiyalar komponentlari kasbiy bilim va usullarini qo'llash qobiliyatini ta'minlaydi [0].

Kasbiy kompetentsiyalar to'rt komponentdan iborat: bilim, akseologik, motivation, reflektiv-baholash va elektron ta'lim muhitida mustaqil ta'lim traektoriyasini qurish asosida kasbiy kompetentsiyalar majmui.

Texnologik blokda tadqiqot maqsadiga erishish uchun ta'lim muhitida o'qitishni tashkil qilishning vositalari, usullari va shakllari mavjud. Ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish samaradorligiga talabalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitishning turli vositalari, usullari va shakllarini qo'llash orqali erishiladi. Bunday holda, uslubiy modelning texnologik blokining tarkibiy qismlari: talabalarning mustaqil faoliyatiga bo'lgan qiziqishi va faolligini oshirishga qaratilishi, talabalarni elektron ta'lim muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib kasbiy kompetentligini rivojlantirish; kasbiy mummoli masalalarni echishda dasturlash tillarini qo'llash orqali kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda kasbiy faoliyatni aloqadorligini ta'minlash; o'z-o'zini tashkil etish va o'z-o'zini o'rganish, o'z faoliyatini samarali tahlil qilish va baholash orqali talabalar kasbiy faoliyatini rivojlantirish [6].

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limning hozirgi holati tahlili zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Ta'lim jarayonini amalga oshirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun elektron ta'lim muhiti potentsialidan unumli foydalanish kerakligini ko'rsatmoqda. Ta'lim muhitida mustaqil ta'lim traektoriyasi tushunchasi talabani o'qituvchi qo'llab-quvvatlashi orqali kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun uning individual xususiyatlariga asoslangan o'quv kursi elementlari asosida talabani izchil harakati aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Губанова А.А. Дидактические принципы и особенности электронного обучения // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – №. 3. С.35-40.
2. Tayloqov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adab adabiyotlarini yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari. Avtoref. dis... ped fan. dok. -T.: 2006. -48 b.
3. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlar yangi avlodini yaratishning nazariy va uslubiy asoslari. Avtoref. Diss ... p.f.d. – T.: 2005. – 44 b.
4. Mamatov N.D. Elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. Monografiya. – T: Navro'z, 2017. – 160 b.
5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish-ni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan.dok. ...diss. – T., 2007. – 305 b.
6. Есин Р.В. Формирование математической компетентности бакалавров направления подготовки “Информатика и вычислительная техника” в электронной среде. . Дисс. кан. пед. наук. –Красноярск, 2019. - 232 с.
7. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. –С. 34-44.
8. Холодная М.А. Когнитивные стили. О природе индивидуального ума. – СПб.: Питер, 2004. – 384 с
9. Van der Linden, W.J. Elements of adaptive testing. – New York: Springer, 2010. – 437 p.
10. Грищенко Л. П. Теоретические и методические аспекты формирования ИКТ-компетентности будущих менеджеров в условиях непрерывной подготовки. Дисс. кан. пед. наук. - Москва, 2011. -183 с.

11. Зеер Е.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход: учебное пособие. – М.: МПСИ, 2005. – 216 с.

12. Кудрявцев Л.Д. Мысли о современной математике и методике ее преподавания: учеб. пособие. – М.: Физматлит, 2008. – 434 с.

Muallif:

Burxonov Abduali Mamatmurotovich - Guliston davlat universiteti, Sport turlarini o'qitish uslubiyoti kafedrasini o'qituvchisi.

UDK 372.8

THE IMPORTANCE OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN TRAINING FUTURE SPECIALISTS IN THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

ЗНАЧИМОСТЬ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Aliboyeva Dildora Baxodir qizi

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV-mavze.

E-mail:dildora-aliboyeva2024@gmail.com

Abstract. The article highlights the issues of using an integrative approach in training future specialists in the digital educational environment. The importance of integrated technologies in the educational process and its content is revealed. Information is provided about the systems that make up the integrated technologies.

Key words: digital technologies, computer, information technologies, educational technologies, integration.

Аннотация. В статье освещены вопросы использования интегративного подхода в подготовке будущих специалистов в цифровой образовательной среде. Раскрыто значение интегрированных технологий в образовательном процессе и его содержании. Приведены сведения о системах, составляющих интегрированные технологии.

Ключевые слова: цифровые технологии, компьютер, информационные технологии, педагогические технологии, интеграция.

KIRISH. Bugungi globallashgan jamiyatda har qanday sohada ijobiy natijalarga erishish uchun yuqori samaradorlikka yo'naltirilgan raqamli texnologiyalar va jamiyatning intellektual salohiyatidan foydalanishga alohida ahamiyat berish talab etiladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish yo'lida bir qancha amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunday tadqiqot ishlarining asosiy mazmuni quyidagilardan iborat: ta'lim mazmunini xorijiy tajribalar asosida yangicha mazmunga olib kelish va ular asosida yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish; kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, o'quv predmetlarini o'qitish jarayonini takomillashtirish; o'quv jarayoniga yangi avlod axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik, innovatsion va integratsion texnologiyalarni joriy etish va hokazo.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar

Tadqiqotning maqsadi ta'lim tizimida integratsiyalashgan texnologiyalar va ulardan foydalanish asoslari, mazmun-mohiyati va metodik tizimini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda ta'lim tizimida integratsiyalashgan texnologiyalar va ulardan foydalanish asoslari, mazmun-mohiyati va metodik tizimini ishlab chiqish masalalari bayon etiladi. Tadqiqotda kuzatish, ilmiy-metodik tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

O'quv jarayonida sifatli va kafolatlangan ta'lim berishda ta'limning usullari va vositalari alohida ahamiyatga ega. Zamon talabi darajasida o'quv jarayonini tashkil etishda integratsion ya'ni integratsiyalashgan texnologiyalardan foydalanish muhimdir.

Integratsiya so'zi, lotincha "integratio" so'ziga mos kelib, o'zbek tilida tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish ma'nolarini ifodalaydi. Ayrim qismlarning, elementlarning bog'liqlik holatini, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi [1].

Integratsiya so'zidan fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayonini ifodalashda ham foydalaniladi.

Integratsiyalash tushunchasi muhim ilmiy terminlardan biri bo'lib, u umumlashtirish, xulosalar chiqarishda metodologik vosita hisoblanadi. Fan va texnikada ushbu metodologik vosita yordamida biror jarayon yoki hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uyg'unlik modellari va algoritmlari yaratiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida beriladigan ta'lim mazmunidagi uyg'unliklarni ta'minlash muammolarini echishda ham integratsiyalashning mohiyati alohida ahamiyatga ega. Integratsiyalash orqali o'qitiladigan o'quv predmetlarining asosiy

tushunchalari umumlashtiriladi. Biror tadqiqot ob'ekti va metodologiyasiga oid ma'lumotlar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rnatishda ham integratsiyalash tushunchasidan foydalaniladi.

Integratsiyalashgan texnologiya deganda, ikki va undan ortiq texnologiyalarni birlashtirish, umumlashtirish va ular orasidagi aloqadorlikni o'rnatishdan hosil bo'lgan texnologiyalar tushuniladi.

O'quv jarayonida integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish deganda, pedagogik, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini birlashtirish, umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqadorlikni o'rnatish orqali faoliyat olib borish holati tushuniladi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv predmetlar bo'yicha o'zlashtirish darajasi darsning sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ta'limning sifatini oshirishda darsni to'g'ri rejalashtirish va maqsadni to'g'ri va aniq belgilab olish muhimdir. Maqsadni belgilashda natijaga erishish uchun ketadigan vaqt, ta'lim oluvchining ehtiyoji va imkoniyatlari, ta'lim oluvchining maqsadga erishishga harakat qilishga yo'naltirilgan metodlar va natijani aniqlaydigan nazorat turlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday maqsadga erishish uchun o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish zarur.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik va texnologik yondashuvlarning integratsiyasi mahsulidir. Pedagogik texnologiya tushunchasiga turli pedagog olimlar turlicha yondashib, unga turlicha ta'rif berganlar. YuNESKO tashkiloti pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif bergan: "Pedagogik texnologiya – ta'lim berish va o'zlashtirish usullarini yaratish, qo'llash, ularni yagona tizimga keltirish yo'li bilan inson salohiyati va texnik vositalarining barcha imkoniyatlaridan muvofiq foydalanib, bilimlar o'zlashtirilishining eng maqbul jarayonidir" [2].

Pedagogik texnologiya - ta'lim metodlari, usullari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalar majmuidir. Pedagogik texnologiya bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi butun o'qitish va bilimlarning o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va insonlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir. Pedagogik texnologiya - ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat. Pedagogik texnologiya - o'quvchining mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi [2].

Demak, pedagogik texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iboratdir.

Axborot texnologiyasi – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar. Axborot texnologiyalari – ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish, saqlash, uzatish va ulardan foydalanish jarayonida kompyuterdan foydalanish yo'llari, usullari va uslublari. Axborot texnologiyasi – axborotga ishlov berish uchun ushbu axborotdan foydalanuvchi jarayonlarning sermehnatligini kamaytirish va ularning ishonchliligini va tezkorligini oshirish maqsadida zamonaviy kompyuterdan foydalanish bilan bog'liq jarayonni ifodalaydi [3].

Demak, axborot texnologiyalari deganda axborotni yig'ish, saqlash, uzatish, o'zgartirish, qayta ishlash usul va vositalari yig'indisi tushuniladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarga yangicha yondashishlar asosida, bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq o'quv jarayonini tashkil etib, ta'limni yangi sifat bosqichiga ko'tarish imkonini berishi mumkin bo'lgan texnologiyadir.

Kommunikatsiya so'zi, inglizcha "communication" so'ziga mos kelib, o'zbek tilida aloqa, xabar, aloqa vositasi, axborot vositasi, tutashma, muloqot, ulanish, axborot uzatish usullari va vositalari ma'nosida qo'llaniladi. Kommunikatsiya tizimi – boshqa tizimlar orasida axborot uzatish bilan bog'liq yordamchi vazifalarni bajaradigan tizimdir [3].

Kommunikatsion texnologiyalar – tarmoqdagi kompyuterlar orasida axborotlarni uzatish uchun marshrutlash (xarakterlarni belgilash) va bog'lanishlarni kommutatsiya qilish vazifasini bajaradigan texnologiyalardir.

Ta'lim tizimining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari quyidagi asosiy funktsiyalar va talablarni bajaradi [4]:

- ta'lim oluvchilar va ularning axborot muhitidan foydalanish faoliyatlarini qayd etish;
- ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyatini maslahat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni hisobga olish;
- ta'lim oluvchilarga zaruriy o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya qilish;
- o'quv jarayonida, ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning test yordamida, shuningdek, og'zaki va yozma usuldagi nazoratini tashkil qilish;
- axborot bazasida ta'lim oluvchilarga tavsiya qilingan o'quv materiallaridan, qo'shimcha adabiyot va boshqa vositalardan foydalanishi uchun o'quv muassasasi axborot resurslaridan masofadan turib foydalanish imkonini yaratish;
- virtual laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy topshiriqlarni bajarishda masofadan turib ta'lim muassasasi xodimlarining maslahati va boshqa yordamlarini uyushtirish va hokazo.

Integratsiyalashgan texnologiyalar asosida tashkil etiladigan o'quv jarayonida o'quv predmetlarining asosiy mazmuni quyidagi o'quv-uslubiy materiallardan iborat bo'ladi: elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, elektron

metodik qo'llanmalar va boshqa qo'shimcha materiallar; elektron o'quv-uslubiy majmualar; o'zini o'zi nazorat qilish uchun test dasturlari va savollar majmuasi; virtual laboratoriya ishlari va ularning tavsifi; mustaqil ishlar va nazorat ishlari; hisoblash dasturlari, elektron ma'lumotnomalar, elektron ilovalar; qo'shimcha dasturiy ta'minotlar.

Integratsiyalashgan texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida o'quv mashg'ulotlari masofadan turib tarmoq texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda tashkil etishga olib keladi. Bu esa masofali o'qitishni tashkil etishning asosidir. Masofali o'qitishda tarmoq texnologiyalarining asosiy vazifasi o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqotni ta'minlashdan iborat. O'qituvchi va o'quvchilar orasidagi doimiy muloqotsiz tashkil qilingan o'quv jarayoni ko'zlangan samarani bermaydi. Ta'lim tizimining kunduzgi shaklida o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot bir vaqt, bir joyda o'quv auditoriyasida amalga oshiriladi. Masofali o'qitishda esa bu jarayon telekommunikatsion vositalar asosida kompyuterning tarmoq texnologiyalari orqali amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan, uchta texnologiyalarning integratsiyalashgan holati ta'lim berish va o'zlashtirishning eng maqbul texnologiyasi deb qarash mumkin. Pedagogik va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda ta'lim oluvchilar uchun axborot-ta'lim muhitini yaratib, kommunikatsiya texnologiyalari vositalari asosida ta'lim oluvchilarga etkazib berish jarayonlari integratsiyalashgan texnologiyalarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

XULOSA. Zamonaviy talab darajasida o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim mazmunlarini umumlashtirish va to'ldirishda integratsiyalashgan texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etib, ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 2-tom. – 396 b.
2. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Fan, 2006. – 262 b.
3. Abduqodirov A.A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug'ati. – T. Fan va texnologiya. 2012. – 44 b.
4. Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – T. Fan va texnologiya. 2012. – 104 b.

Muallif:

Aliboyeva Dildora Baxodir qizi - Guliston davlat universiteti stajyor-tadqiqotchisi.

UDK 372.879.6

CONTENT, ESSENCE AND FUNCTIONS OF PHYSICAL HEALTH OF STUDENTS

TALABALARNI JISMONIY SOG'LOMLASHTIRISHNING MAZMUNI, MOHIYATI VA FUNKSIYALARI

СОДЕРЖАНИЕ, СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ ФИЗИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ

Iskandarov Islom Shukurovich

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV-mavze.

E-mail: iskandarovislom07@gmail.com

Abstract. The article provides information about the content, essence and functions of students' physical health. Health is the greatest wealth of a person. Undoubtedly, good health is the main condition for the implementation of human biological and social functions. Good human health is the basis of self-awareness. Rehabilitation technologies are implemented mainly through physical education classes. Physical education classes are aimed at preserving and strengthening human health. Fitness exercise is a necessary component of any type of exercise.

Key words: physical education, physical activity, physical exercise, recovery, health, healthy lifestyle, health promotion culture.

Аннотация. В статье представлена информация о содержании, сущности и функциях физического здоровья студентов. Здоровье – самое большое богатство человека. Несомненно, крепкое здоровье является основным условием реализации биологических и социальных функций человека. Крепкое здоровье человека – основа самосознания. Реабилитационные технологии реализуются преимущественно через занятия по физическому воспитанию. Занятия физической культурой направлены на сохранение и укрепление здоровья человека. Фитнес-выполнение является обязательным компонентом любого вида упражнений.

Ключевые слова: физическое воспитание, двигательная активность, физические упражнения, оздоровление, здоровье, здоровый образ жизни, культура укрепления здоровья.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida "...jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifadir deb ta'kidlangan. Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat beramiz" [1]. Oxirgi

yillarda Respublikamizda eng asosiy, muhim vazifalardan biri bo'lgan ommaviy sportni rivojlantirish masalasi turadi. Mustaqil O'zbekistonning ma'naviy sog'lom avlodlarni, bo'lajak vatanparvarlarni tarbiyalash vazifasi pirovard o'qituvchilar, mutaxassislar zimmasiga tushadi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohatlariga muvofiq, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishning, sog'lom turmush tarziga intilish va mehr muhabbatini singdirishining g'oyat muhim sharti ommaviy sportni rivojlantirishdir." Bundan tashqari jismoniy tarbiya o'qituvchilari, sport mutaxassislarining, ustoz murabbiylarning chuqur bilim, yuksak malaka, boy tajriba va mahoratga ega bo'lishi har tomonlama etuk, ma'naviy barkamol kadrlar tayyorlashning garovidir. Organizmdagi moddalar almashinuvi jarayoni bajarilayotgan ish darajasiga moslashadi. Tadqiqot ishida tavsiflash, qiyoslash, kompleks va funktsional tahlil metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining strategik vazifalaridan biri kelajakdagi barcha ezgu ishlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan jismoniy sog'lom va ma'naviy barkamol shaxsni voyaga etkazishdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun nazariy bilimlarni chuqur o'rganishimiz, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va takomillashtirishda yangi bilimlarni egallashimiz, zamon talablari darajasida ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, kelajak avlod vakillarini vatanparvar, o'z kasbining etuk bilimdon egasi qilib tarbiyalamog'imiz darkordir. Bu yo'lda ta'lim va tarbiya berish barobarida o'quv ishlarini rejalashtirishga hamda ularni samarali olib borishga yangicha va ijodiy qarashimiz, ishga tashabbuskorlik bilan yondoshmog'imiz lozim bo'ladi.

Salomatlik insonning eng katta boyligidir. Shubhasiz, mustahkam sog'liq insonning biologik va ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirishning asosiy shartidir. Bu insonning o'zini-o'zi anglashining asosidir. Mavzuga doir, sog'lomlashtirish texnologiyalari birinchi navbatda jismoniy madaniyat orqali inson salomatligini saqlash va mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgan. Sog'lomlashtirish samaradorligi har qanday jismoniy mashqlar turlarining majburiy komponentidir.

Shu munosabat bilan jismoniy madaniyatning barcha tarkibiy qismlari (sport, asosiy, kasbiy-amaliy, sog'lomlashtirish va jismoniy madaniyat) sog'liqni saqlash funksiyalarini bajaradi. Ayni paytda, zamonaviy jamiyatda jismoniy tarbiya, shu jumladan yangi va rivojlanayotgan asbob-uskunalar va texnik vositalar yordamida sog'liqni saqlashni mustahkamlash zaruriyati tobora oshib bormoqda. Bu, birinchi navbatda, salomatlik muammolarini samarali hal etish uchun mo'ljallangan maxsus tashkil etilgan faoliyatni talab qiladi. Jismoniy tarbiya fanning asosiy maqsadi – bu ... Har bir inson organizmidagi o'z ichki imkoniyatlarini mustahkamlashga intilishi kerakligiga da'vat etish; Har bir shaxs o'zi va boshqalar uchun "sog'lom turmush" tarzini yaratganligi. Sog'lom avlod orzusida yashashlik va unga erishishga imkoniyatni yaratish. Salomatlikni saqlash, mustahkamlash va uzoq umr ko'rishga da'vat etish.

Sog'lom tumush tarzi-salomatlikni mustahkamlash va saqlash, kasalliklarning oldini olish va faol hayot davomiyligini oshirishga qaratilgan faoliyat turidir. Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyati – yoshi, jinsi, mehnat va ta'lim faoliyati va salomatligini hisobga olgan holda, odamlarning jismoniy yukini optimallashtirish va shaxsiylashtirishning maqbul mexanizmidadir. "Salomatlik-farovonlikni oshirish texnologiyasi" fanini o'rganish mavzusida sog'lom turmush tarziga ega bo'lgan jismoniy tarbiya va sportning mazmuni va ularni turli ijtimoiy, yosh va jinsdagi guruhlarining ijtimoiy holatini yaxshilash uchun ulardan foydalanish usullari mavjud. Sog'lomlashtirish texnologiyalarining bir turi sifatida ularning maqsadi va vazifalari mavjud. Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llashdan maqsad sog'lom turmush tarziga bo'lgan ahvolini yaxshilashdir [2].

Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llash maqsadlari quyidagilardan iborat: tananing funktsional qobiliyatini oshirish; kasalliklar profilaktikasi; vosita rejimini optimallashtirish; faol dam olish tufayli charchoqni kamaytirish; JSST tavsiyalari asosida sog'lomlashtirish sinflarida optimal o'quv yuklarini individualizatsiya qilish; yomon ahloqlarga qarshi kurashda mashqdan foydalanish; turli yoshdagi jinsiy va sog'liqni saqlash ahvoli, shu jumladan, nogiron kishilarning faol jismoniy tarbiya va sog'liq sinflariga jalb qilinishi; sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida sog'liqni saqlash texnologiyalarini joriy etish; professional ahamiyatga ega bo'lgan ish faoliyatini rivojlantirish.

Sog'lom turmush tarzi barqaror sog'lomlashtirish muaommolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan quyidagi funksiyalarni bajaradi: ta'lim va rekreatsiya funksiyalar. Rekreatsiya —bu sog'lom, ammo charchagan odamning normal farovonligi va samaradorligini tiklash maqsadida amalga oshiriladigan sog'lomlashtirish tadbirlar majmuasi. Bu dam olishning barcha turlarini qamrab oladigan tizim [3].

Sog'lomlashtirish texnologiyalarining tarkibiy qismlariga muvofiq, bu inson faoliyati natijasida va mavzu qiymatlari majmui sifatida insonning faoliyat turi sifatida qaralishi mumkin. Sog'lomlashtirish texnologiyalari bir turdagi faoliyat sifatida qulay tashkilotlar harakatlarini, shuningdek, sog'lom turmush tarziga rioya qilish bilan bog'liq faoliyatni tavsiflaydi. Shu bilan birga sog'lomlashtirish texnologiyalarining bir xil faoliyat turi sifatida sog'liqni saqlash samaradorligini shakllantirish modeli belgilanadi.

Sog'lomlashtirish texnologiyalarini qo'llashdagi faoliyat, birinchi navbatda salomatlikning eng katta ta'siriga ega bo'lishga qaratilgan. Jismoniy mashqlarning barcha shakllari va turlari quyidagicha bo'lishi kerak: harakatning muhim

hajmini amalga oshirish natijasida hipokinesiyani oldini olish, asosiy tana tizimlarining zahira imkoniyatlarini kengaytirish, birinchi navbatda, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va takomillashtirishdan iboratdir. Bundan tashqari organizmning zararli ekologik ta'sir va kasalliklarga umumiy o'ziga xos bo'lgan qarshiligini oshirishdir.

Sog'lomlashtirish texnologiyalari ob'ektiv qiymatlar sifatida jismoniy va rekreatsion faoliyatning zarur samaradorligini ta'minlash uchun yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlaridir. Bu borada sog'lomlashtirish texnologiyalarining mazmuni insonning harakatga bo'lgan ehtiyojiga va faol dam olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu ehtiyojlarning to'liq amalga oshirilishi, oxir-oqibat salomatlikni saqlash, yuqori samaradorlik, yomon yashash va ish sharoitida ham insonning samarali hayotiy faoliyatini ta'minlaydi.

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha bilimlar tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: jismoniy mashqlar uchun sog'lomlashtirish imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot; jismoniy tarbiya va sog'liqni saqlash uchun zarur moddiy-texnika vositalari; sinflarda qiziqish va qiziqishlarni shakllantirishga yondashuvlar va rekreatsion jismoniy madaniyatning asosiy qadriyatlarini fondini shakllantiradi [3].

Sog'lomlashtirish texnologiyalari sohasida jismoniy tarbiya, tibbiyot, psixologiya va boshqa sohalaridagi ilmfanning turli sohalaridan amaliy bilimlar tizimi muhim ahamiyatga ega. Sog'lomlashtirish texnologiyalari faoliyat natijasida faoliyatining foydali natijalari bilan tavsiflanadi. Jismoniy mashqlar natijasi – jismoniy tayyorgarlikni (fitnessni) olishdir. Tashqi tomondan bu holat tezkorlik, kuch-quvvat, chidamlilik, moslashuvchanlik, muvofiqashtirish kabi yuksak sur'atlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek o'qitilmaydigan odamlarga nisbatan muayyan vosita ko'nikmalarini qo'lga kiritadi. Fiziologik darajada mushak ishini ta'minlaydigan tananing funksiyalari va tizimlari takomillashtirilmoqda. Ushbu adaptiv o'zgarishlar va jismoniy mashqlar shifo ta'sirini hosil qiladi. Buning sababi, tarbiyalangan organizmning ko'plab kasalliklarga va tashqi atrof-muhitning ko'plab zararli ta'siriga nisbatan qarshilikka ega bo'ladigan asosiy hayotni qo'llab quvvatlovchi tizimlarning zahira qilish qobiliyatlarini kengaytirishdan iborat. Salomatlik qobiliyati quyidagilardan iborat bo'ladi: atrof-muhitga va ularning imkoniyatlariga moslashish; tashqi va ichki ta'sirchanlik va kasallik, qarish va boshqa zararli odatlarga qarshi bardoshlilikni shakllanishi; yashash muhitini tabiiy sharoitda saqlab qolish; sharoitlarning hajmi va mavjud ekologik tabiiy muhitni hamda ma'naviy va axloqiy imkoniyatlarni kengaytirish; yashash (tabiiy) muhit davomiyligini oshirish; organizmning turmush tarzi va yashash joyining imkoniyatlarini sifat va qobiliyatlarini yaxshilash; o'z salomatligini saqlash va mustahkamlash.

“Sog'liqni mustahkamlash madaniyati” – shaxsiy va ijtimoiy salomatligini yaratish, asrab-avaylash va rivojlantirish, inson ijobiy qadriyatlarini shakllantirish tizimini rivojlantirish darajasini tavsiflovchi bir murakkab, ko'p o'lchovli ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi. Kontseptual shakllanish va sog'liqni mustahkamlash yaxlitligi va sog'liqni mustahkamlash madaniyatini shakllantirish tizimli jarayonining shakllanishi uchun ta'lim jarayoniga qaratilgan bo'lib, sog'liqni mustahkamlashni shakllantirish va uning imkoniyatlaridan foydalanishni va sog'lomlashtirish tamoyillarida biologik, aqliy va ijtimoiy salomatlikni aniqlashda aniqlanadi.

Insonning biologik salomatligi barcha ichki organlarning funksional muvozanatiga atrof-muhitning ta'siriga mos javob berishga bog'liq. Fiziologik darajadagi salomatlik ikki qismga ega: Jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi – morfologik va funksional zahiralarga asoslangan va adaptive javoblarni ta'minlaydigan tananing organlari va tizimlarining o'sishi va rivojlanish darajasidir. Somatik komponent inson tanasining organlari va tizimlarining hozirgi ahvoli bo'lib, uning asoslari individual rivojlanishning biologik dasturi hisoblanadi. Ruhiiy salomatlik jismoniy shaxs bilan bog'liq va shaxsning o'z salomatligi uchun o'z - o'zini anglash va qadriyatlar tushunchasini rivojlantirish va sog'lom turmush tarzi bo'yicha, shaxsiy hissiy va ehtiyoj-motivatsion sohasini rivojlantirish bilan bog'liq bo'ladi. Ruhiiy sog'lomlik tarkibiy qismlari intellektual, psixologik va ma'naviy-axloqiy komponentlarini o'z ichiga oladi. Murakkab sabablar va ehtiyojlarni, hissiy va irodali shaxs xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Qadimgi yunonlar “Sog'lom tanada - sog'lom aql” deb aytadilar. Ijtimoiy salomatlik – bu ijtimoiy faoliyatning birinchi navbatda mehnat qobiliyatining o'lchovidir. Bu faol munosabat shaklidir. Sog'liqni mustahkamlashning ijtimoiy jihati ota-onalar, do'stlar, hamkasblar, qo'shnilar va boshqalar ta'sirida shakllanadi. Bu ijtimoiy aloqalarni, shaxslararo aloqalarni aks ettiradi, ijtimoiy va ruhiy salomatligini birlashtiradi. Sog'liqni mustahkamlash ijodiy tarkibiy qism hisoblanadi. Ishda ijodkorlik mavjudligi salomatlik manbai sifatida ko'riladi. Bu kishining ish faoliyatida insonning funksional faoliyatining ikkita asosiy turiga ya'ni – jismoniy, aqliy va ularning oraliq tarkibi mavjudligiga asoslanadi. Jismoniy ish – inson faoliyatining bir xil, natijasi – ilmiy va ma'naviy qadriyatlar yoki qarorlar, ya'ni jamoat yoki shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun ishlatiladigan asbob-uskunalar orqali nazorat qilishdir [5].

Aqliy faoliyat - maxsus funksiyalar uchun qabul qilish va xotirada saqlangan odam olingan ma'lumotlarini solishtirish axborotni ishlash bo'ladi, uni aylantiradi, muammo vaziyat ta'rifi, yo'llari, muammolar va ruhiy mehnat shakllantirish maqsadlarini hal qilish, yuqori ziddiyatlarni aqliy bajarish, u vaqtga erishmasligi bilan bog'liq, ayniqsa, agar hodisa bo'linishi bilan markaziy asab tizimining funksional tizimini himoya qilishni ruhiy qamalini (aqliy ishni vaqtinchalik oldini olishga) paydo bo'lishi mumkin. Intellektual faoliyatning holati va uning xususiyatlari hayot davomida shakllangan va rivojlanayotgan aqliy qobiliyatdir. Intellektual bilim va ijodiy faoliyatida o'zini namoyon qiladi, bilim, tajriba va amaliyotda ulardan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Samarali faoliyat jarayonida ijro parametrlarini

ko'p tadqiqotlar ruhiy ishlash parametrlarini ko'p tadqiqotlar ruhiy ishlash parametrlarini umumiy va maxsus jismoniy fitnes darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Jismoniy tarbiyada Gipokineziya, Gipodinamiya, Giperkineziya kabi sog'lomlashtirish texnologiyalari o'rganiladi: Gipokineziya (GK upo – past; kivnoic - harakat) – harakatning normal hajmi, tezligi va harakatlarning amplitudali, tananing kam jismoniy faoliyati pasayishi bilan xarakterlanadi. Gipodinamiya – insonning jismoniy mehnatidan ozod bo'lishining natijasidir. Jismoniy sustlik, ayniqsa yurak-qon tomir tizimiga ta'sir (yurak harakati tezligi zaiflashib kuch kamayadi, tomir ohangi, to'qimalarning qon bilan ta'minlanishi kamayadi). Giperkineziya – Markaziy asab sistemasining bazi kasalliklarida qo'l oyoq, yuz muskullarining beixtiyor ortiqcha harakatlanishidir [4].

Gipokineziyada jismoniy harakatsizlik jismoniy faoliyatsizlik tarqalganligi aloqa rolini oshirish, mos urbanizatsiya, avtomatlashtirish va mehnat mexanizatsiyalash uchun ortib bormoqda.

Gipodinamiyada mushak, suyak atrofik o'zgarishlar jismoniy faoliyat natijalari o'zoq muddatli pasayishi, bezovta metabolizm, tushgan oqsil sintezidir. Jismoniy harakatsizlikda bosh og'rig'i, uyqusizlik hissiy beqaror bo'lib qolishi kuzatiladi. Jismoniy faoliyat va ortiqcha oziq-ovqat juda tez lipid almashuvining va ateroskleroz kasalliklar paydo bo'lishiga hissa qo'shadi, semizlikni rivojlantirishga olib kelishi mumkin.

Giperkineziyada, asosan, ensefalitning har xil shakllarida, irsiy kasalliklarda, intoksikatsiyalar, miya shikastlari, o'smalari, yallig'lanishlarida kuzatiladi. Bir necha xil bo'ladi: trimort (titrash), miokloniya (alohida muskullarning tez va qisqa muddatli tartibsiz qisqarishi) va boshqalar tushuniladi. Eng yaxshi vosita bu harakat. Zamonaviy hayot sharoitlari inson salomatligi va intellektual salohiyatiga yuqori talablar qo'yadi. Bu 50-55% hayot yo'li, inson salomatligi holatini belgilaydi va optimal haydash rejimi turmush tarzini shakllantirishda eng muhim omil hisoblanadi. Insonning sog'lom turmush tarzini takomillashtirishda jismoniy mashqlar ta'sirida, yomon odatlardan voz kechish, ish va dam olish rejimiga rioya qilish, turli tiklash chora-tadbirlaridan foydalanishdan iborat [4].

Shuningdek, asosan, aholining barcha qatlamlari salomatligini shakllantirish, sog'lig'ini saqlash va fitnes texnologiyalari qiymatini oshirishdan iborat. Sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan jismoniy mashqlar natijasi quyidagi holatlarda ro'y beradi: salomatlikni yuqori darajasiga doimiy erishish, hayotni maksimal samaralarini kengaytirish; tananing asosiy hayotiy vazifalari va tizimlarini takomillashtirish; atrof-muhitni ko'plab zararli oqibatlariga organizmning qarshiligini oshirish; psixofizik holatini yaxshilash; jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasiga erishish; amaliy mashg'ulotlardan samarali foydalanish; faol dam olishni ta'minlash; tananing tuzilishi va tanani tuzatish.

Shunday qilib texnologiyalarni takomillashtirish – insonning jismoniy holatini optimallashtirishga qaratilgan jismoniy tarbiya va sport vositalarini muayyan dasturi va kuch to'plash, dam olish faoliyatini tashkil etish va salbiy ekologik omillar organizmning qarshiligini oshirishdadir.

Jismoniy tiklanish: jismoniy faoliyatda yoshi va jinsidan qat'iy nazar tashkil etilgan shart-sharoitlarga amal qilish hamda rioya etish rejimi; yoshi, jinsi, individual xususiyatlariga va gigienik talablariga muvofiq kun tartibini oqilona tashkil etish rejimi; hissiy va psixologik iqlim yaratish (stress holatlari yo'qligi); sog'liqni saqlash faoliyatini oshirishga va samaradorlikka erishishda turli xil uslublardan foydalanish [5].

Jismoniy tiklanish faol hatti-harakat va sog'liqni saqlash faoliyati va jismoniy madaniyat sog'lomlashtirish texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Jismoniy tiklanishni amalga oshirishda sport, dam olish muhim o'rin egallaydi. Sport va dam olish texnologiyasi - ushbu faoliyatni bir qator amalga oshirish uchun eng muhim yo'ldir. Sog'lomlashtirish texnologiyasida dam olish muhim hisoblanadi. Sport va dam olish texnologiyalarini turli sohalarda amalga oshirish mumkin: sport, ayrobika, bodibuilding, yugurish, turizm, suzish va h.k.

Jismoniy faoliyat inson faoliyatining muhim shakllaridan biridir. U sportda salomatlikni yaxshilash va uni takomillashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Jismoniy faoliyat ish va o'qish kabi muhimdir. Jismoniy madaniyatda sog'lomlashtirish faoliyati o'z salomatligini va ehtiyot munosabatini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha yo'naltirilgan faoliyatda tartibga solinadi. Jismoniy faoliyat hamda dam olish faoliyatini amalga oshirishda sog'lom turmush tarzi muhim o'rinni egallaydi. Jismoniy dam olish yashash faoliyatining barcha turlarida muhim hisoblanadi. Jismoniy sog'lomlashtirish bir necha vazifalarni o'z ichiga oladi: farmativ, diagnostika, adaptiv, axborot-kommunikativ, sog'liqni saqlash, oila va texnologiyalar vazifalari asosiy vazifa yo'nalishlari etib belgilangan; farmativ vazifasi shaxsni shakllantirish, irsiyat, ijtimoiy omillar, oilaviy muhit, salomatligini mustahkamlash va biologik ijtimoiy omillarga asoslanganligi; axborot-kommunikativ vazifasi esa, sog'lom turmush tarzi, jismoniy salomatlik va har bir insonning hayot qiymati va munosabat shaklida bo'lgan urf-odatlar, qadriyatlar uzluksizligi bilan ta'minlanganligi; diagnostika vazifasi tabiiy imkoniyatlar bilan insonning say- harakatlari, ijtimoiy va tibbiy rivojlanishini kuzatib borish funksiyasidir [6].

Asosiy sog'lomlashtirish texnologiyalarida muhim vazifalar quyidagicha: tabiiy ovqatlanish (tabiiy energiya yuritish balansi); keraksiz metabolit va energiya degradatsiyasi mahsulotlari, toksinlardan saqlanish; dam olish; sog'lom turmush muhiti; ruhiy salomatlik; organizmni chiniqtirishning nazariy asoslari.

Jismoniy tarbiya – bu badanni (tanani) tarbiyalash demakdir. Jismoniy tabriya so'zining ma'nosini anglashlik - bu odam organizmi "mustaxkamligining zahirasi" saqlashlikning fiziologik usuli (metodi) dir. Boshqacha qilib aytganda insonning etarli darajada – me'yorida va muntazam ravishda doimo harakatda bo'lishligidir. Shuning uchun ham jismoniy faollik – har qanday odamning yashash sharoitida uning ajralmas zaruriyati bo'lmog'i darkor. Aks holda yashashlik

“sivilizatsiya kasalliklari” – semirishlik, stenokardiya, infarkt, oshqozon yarasi kasalligi, teroskleroz, xafaqon kasalligi (gipertoniya) va boshqa kasalliklarni keltirib chiqarib, oqibatda umrning qisqarishiga sababchi bo‘ladi. Jismoniy harakatda bo‘lishlik organizmdagi moddalar almashinuvi jarayonining barcha turlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ma‘lumki, muskullar asosan oqsillardan tashkil topgan. Ularning me‘yorida va muntazam ravishda harakatda bo‘lishi undagi oqsillar almashinuvini yaxshilaydi. Muhim aminokislotalardan tashkil topgan oqsillar esa hayotning – yashashlikning asosi (negizi) hisoblanadi. Badantarbiya qilishlik natijasida yog‘larning parchalanishi kuchayadi, tana og‘irligi kamayadi, qondagi yog‘larning miqdori ham yaxshilanadi. Natijada ateroskleroz va tomirlar kasalligining oldi olinadi. Shuningdek yana foydali tomoni karbonsuvlar almashinuvi ham yaxshilanib, muskullarning imkoniyatli (potensial) quvvati ham yaxshilanadi.

Organizمنى chiniqtirish deganda uning turli xil tashqi ta‘sirotlarga sovuqqa, issiqqa, yuqori darajadagi quyosh radiatsiyasi kabilarga organizmning sekin-asta qarshiligining orta borishligi, hamda turli xil yuqumli kasalliklardan saqlanishligi tushuniladi. Bunda havo, suv, quyosh nuri hamda muntazam, me‘yorida turli xil irogrammada shug‘ullanadigan jismoniy tarbiya va sifatli, tartibli ovqatlanishliklar chiniqtirishning asosiy manbalari hisoblanadi. Shuningdek, yana eng muhimlaridan muntazam ravishda havo, suv vannalari, suvda suzishlik va bulardan tashqari hayotda shaxsiy va umumiy gigiena qoidalaridan to‘liq foydalanishlik, xonalarni tez tez shamollatishlik va unda optimal issiqlikni tartibga solib turishlik, hamma vaqt tartibli va jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishliklar ham muhim omillardan hisoblanadi [6].

Organizمنى chiniqtirishning asosiy qoidalari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: 1. Quyosh vannasidan foydalanishlik qoidalari. Buning uchun gorizontal holatda yotib, toza havo va haroratdan foydalanishlik lozim. Asosan soat 8 gacha ovqatlanishdan 1.5 soat oldin yoki 1.5-2 soat keyin bajarilishi kerak. Aks holda quyosh nuri ta‘sirida teri kuyishligi yoki oftob urishi mumkin. 2. Havo vannasidan foydalanishlik. Buning uchun asosan kunduzi soat 9 dan 18 gacha ma‘lum qulay vaqtlarda, quyosh nuridan, shamoldan saqlangan holda shug‘ullanishlik lozim. Och qoringa va ovqatlanish tugagan davrda shug‘ullanish tavsiya etilmaydi. 3. Suvdan turli holda foydalanish. Buning uchun boshdan boshlab suv quyishlik, dush qabul qilishlik, suv ostida massaj qabul qilish (kattalar uchun), cho‘milish va boshqalar [5], [6].

Muhimi ayniqsa bolalar uchun badanni suv bilan artishlik muhimdir. Bunda sochiq yoki yumshoq po‘kak (gupka) yordamida badanni artib quruq sochiq bilan tezda artib olinadi. Suvning harorati maktabgacha bo‘lgan davrda $+28+25^{\circ}$, maktab davrida $+25+20^{\circ}$ dan boshlanib, keyinchalik har 3-4 kunda sekin-asta $+1^{\circ}$ gacha kamaytirilib maktabgacha bo‘lgan davrda $+19^{\circ}$ gacha, maktab yoshdagilar uchun $+16^{\circ}$ gacha pasaytirishlik ma‘qul. Kattalar esa, o‘z sharoit va o‘z holatlariga ko‘ra, o‘zlari aniqlashlari lozim. Organizmning chiniqtirishida ko‘pgina reaksiyalar sodir bo‘ladi. Suvdan foydalanishda yana quyidagilarga rioya qilishlik lozim. Boshdan suv quyishlik va dush qabul qilishlik yaxshi natija beradi. Bunda bolalar suv bilan badanni artishga odat qilgach, dush qabul qilishlik birinchi galda 10-15 soniya (sekund) va asta-sekin 40-30 soniyagacha. Suvdan foydalanishlik asosan yoz kunlarida bo‘lishligi lozim, ayniqsa jismoniy mashg‘ulotlardan keyin ertalabki vaqtlarda.

Cho‘milish ham organizمنى chiniqtirishning muhim tadbirlaridan biri hisoblanadi. Asosan ertalabki jismoniy mashg‘ulot, quyosh vannasidan keyin bo‘lishi lozim. Maktab yoshidagilar uchun 10-5 daqiqa bo‘lishi lozim va bunda albatta suv ichida etarli darajada harakatda bo‘lishlik lozim. Aks holda badan sovuqqotishi, titrashlik kabi holatlar paydo bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari sof havoda jismoniy mashg‘ulotlarning ahamiyati kattadir. Ma‘lumki jismoniy tarbiya masalalari uch xil ko‘rinishda bo‘ladi: musobaqalarda qatnashishlik uchun, maxsus maqsadlar uchun, hamda umumiy organizm taraqqiyotini mustahkamlash uchun. Birinchi va ikkinchi turlari ma‘lum maqsadlarga asoslanib maxsus dastur (programma) larga asoslangan holda uzoq muddatlarda olib boriladi va tegishli maqsadlarga erishiladi. Umumiy organizm taraqqiyotini mustahkamlash uchun olib boriladigan jismoniy tarbiya yuqorida aytilganlardan tashqari harakat faoliyatini oshirish uchun asos bo‘ladi. Bunda ma‘lum maqsadlar uchun jismoniy shug‘ullanishliklar kerak bo‘ladi. Masalan: yurish, yugurish, sakrash, tanlangan sport mashg‘ulotlari va maxsus kasbiy (professional) tayyorgarliklar va boshqalar.

Ertalabki gigienik gimnastikaning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan ekan, har kuni ertalab uyqudan turgach 7-20 xil mashq va har bir holatlarni 6-8 marta qaytarishlik kerak. Bunda odam o‘zini tetik va bardam his qiladi, kayfiyati yaxshilanadi va kelgusi mehnat hamda o‘qishlar uchun go‘yoki energiya kuch olgandek bo‘ladi. Ertalabki ruhiy oziqlanish va qut-barakaga qo‘l urishlik “jismoniy zaryadlanish” deb bekorga aytilmagan. Buning uchun bunday mashg‘ulotlarni muntazam ravishda (sistemateskiy) bajarishlik organizmga kuch-g‘ayrat bag‘ishlaydi, muskullarni quvvati ortib boradi, shamollash kabi kasalliklarga qarshi kurash qobiliyati oshadi, charchashlik alomatlarini kamayib boradi va kuch quvvat, bardamlik osha boradi. Jismoniy tarbiyaning nafas faoliyatiga ta‘siri bu salomatlikni mustahkamlash uchun nafas olish va chiqarishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishlikka odatlanish kerak. Buning uchun nafasni burundan chuqur ritmik va tekis olish kerak. Ertalabki kompleks gimnastik mashqlarga albatta nafas harakatlari bilan birga olib borish kerak bo‘ladi.

Burundan nafas olishda sovuq havo iliy boshlaydi, changlardan tozalanadi, quruq havo namlanadi, burundagi shilliq qatlamlar havodagi mikroblarga qiron keltiradi, o‘pkaning olveolalarigacha sof toza havo boradi. Shunday qilib, to‘g‘ri va chuqur nafas olishlik organizmning barcha xujayra to‘qimalariga, a‘zolariga, yurakka, nerv asab tizimiga ijobiy ta‘sir etib, organizmning quvvatini oshiradi. Jismoniy mashqlarning salomatlikka, organizm rivojlanishining sifatiga, ish

qobiliyatiga va qaddi-qomatning rostlanishiga ta'sirida inson salomatligi, qomati, organizm taraqqiyotining sifat darajasi, ish qobiliyatining turli xil bo'lishi, normal holda bo'lmashligi uning ish qobiliyati va aql zakovatiga salbiy ta'sir qiluvchi kabi sabablar anchagina. Masalan, turli xil kasalliklar, bemorning uzoq muddat krovatda yotib qolishi, o'z gavdasini yaxshi tuta olmasligi, xona yorug'ligining yaxshi emasligi, o'quvchi yoshlar uchun stol-stul va partalarning baland - pastligi hatto sumka yoki papkalarini doimo bir tomonda ushlab va boshqalar odam gavdasi, qomatining turli xilda o'zgarishiga olib keladi (umurtqa pog'onasining u yoki bu tomonga egilishi, ko'krak qafasida o'zgarish bo'lishi, elka, gavda tuzilishidagi ayrim o'zgarishlar va boshqalar) albatta ular kishining tashqi ko'rinishidagi kamchiliklar va organizm ish qobiliyatining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatlarda shifokor tomonidan ko'rsatmalar beriladi hamda jismoniy tarbiya beruvchi o'qituvchilar o'zlarining har bir talabaga yoki o'sayotgan yosh organizmga o'ziga tegishli bo'lgan dars dasturlarini belgilab qad-qomatni rostlash, nuqsonlarni iloji boricha yo'qotish uchun tavsiyalar berilib, uzoq vaqt davomida mashqlar o'tkazishni buyuriladi va bajariladi. Shuningdek, uyda, o'qishda va ishda hech qachon bunday kishilarga ortiqcha va murakkab mashqlarni tavsiya etish mumkin emas, chunki oqibati yaxshi bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, normal, maqsadga muvofiq va turli xil tegishli, kompleks jismoniy mashqlar bilan doimiy, muntazam ravishda shug'ullanish, albatta o'zining ijobiy ta'sir samarasi beradi, organizmning normal rivojlanishi, o'quvchilar, talabalar va yoshlarning jismonan baquvvat, aqliy mehnat qobiliyatini mustahkamlaydi. Jismoniy tarbiya va sport bolalarni, yoshlarni, ularni yoshi, jismoniy holati, kuch-quvvati, ruhiy holati, psixologik xususiyatlari va qobiliyatiga qarab o'ziga xos bo'lgan fizkultura va sportning turidan tanlab jalb etish kerak. Bunda dastlab oz-ozdan harakatga o'ragatib, erkin holda shug'ullanishlari va turli hollarini o'rgatish bilan mashg'ulotlarga jalb etish kerak. Shuningdek mashqlar davrida biror kamchilik, noqulaylik yoki u yoki bu jarohat olgan taqdirda tezda tegishli yordam ko'rsatib, kelgusida qo'rqib qolmasliklarini hisobga olib, tushuntirish yo'li bilan psixologik nuqtai nazardan tarbiyalash ularning sog'lig'ini saqlash-valeologik yondashishlik eng muhim metodologik tarbiya hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2020. www.president.uz.
2. Апанасенко Г.Л. Физическое здоровье и максимальная работоспособность индивида // Теория и практика физической культуры. - 1988. - №6. - 125с.
3. Бароненко В.А. Концептуальный подход к проблеме культуры здоровья // Валеология. - 2002. - №3. - С.74-77.
4. Белов, В.И. Энциклопедия здоровья: Молодость до ста лет. - 2-е изд. - М.: Химия. - 1994. - 400с.
5. Шарипова Д. Формирование здорового образа жизни, как важный фактор социализации воспитанников пенитенциарных учреждений // Республиканский центр социальной адаптации детей. –Т.: Патент-Пресс, 2007. – с.78.
6. Шайхова Х. Соғлом турмуш тарзи ва ёшлар камолоти. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2008. - 60 б.

Muallif:

Iskandarov Islom Shukurovich - Guliston davlat universiteti, Sport turlarini o'qitish uslubiyoti kafedrasini o'qituvchisi.

UDK 372.8

FEATURES OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE MEDIA EDUCATION ENVIRONMENT

MEDIATA'LIM MUHITIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СРЕДЕ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ

Maxmudova Nodirabonu Jamoliddinovna

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: maxmudova-nodirabonu2024@gmail.com

Abstract. The article discusses the features of organizing the educational process based on media education. Today, developed countries of the world attach special importance to organizing education using media educational technologies. Issues of media literacy and the formation of media culture play an important role in the use of information by students and ensuring the diversity of information.

Key words: media education, media literacy, media culture, education, multimedia, communication, competence, information, Internet.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности организации образовательного процесса на основе медиаобразования. Сегодня развитые страны мира придают особое значение организации образования с использованием медиаобразовательных технологий. Вопросы медиаграмотности и формирования медиакультуры играют важную роль в использовании информации обучающимися, обеспечении разнообразия информации.

Ключевые слова: медиаобразование, медиаграмотность, медиакультура, образование, мультимедиа, коммуникация, компетентность, информация, Интернет.

Kirish. Respublikamizda ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, uzluksiz ta'lim, jumladan, oliy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, olib borilgan islohotlar bugun o'z samarasini bermoqda. Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitidan samarali foydalanib, milliy kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni barkamol va yetuk etib voyaga yetkazish o'qituvchi-pedagoglarning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlar belgilanib, bu borada pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirish samaradorligiga erishish katta ahamiyat kasb etadi [1].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob'ekti sifatida oliy ta'lim muassasalarida mediata'lim muhitida o'quv jarayonini tashkil etish jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, tahlil qilish, umumlashtirish, suhbat, so'rovlar o'tkazish kabi usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning tez taraqqiy etishi natijasida "media" atamasi paydo bo'ldi. "Media" atamasi lotin tilidan (media, medium so'zidan) olinib, qo'llanma, vositachi ma'nolarini anglatadi [2].

Media – bu jamiyatda to'g'ri va aylanma kommunikativ aloqa tizimi bo'lib, insonlar bilan vaqtincha o'zaro aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi va ularni qiziqitiruvchi, chalg'ituvchi makondir. "Media" atamasi – XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo'llangan. Yevropa Ittifoqi hujjatlarida ta'riflanishicha, mediata'lim – (media education) olingan axborot asosida o'z fikrini bildirishga qodir bo'lgan mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalash maqsadida mediaga tanqidiy va o'ylab munosabatda bo'lish sifatida tushunish kerak bo'lgan mediakompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim. Bu fuqarolarga zarur axborotlardan foydalanish, uni tahlil qilish, ular bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlarni identifikatsiya qilish [3]

Ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni, shu jumladan, multimediyali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro interfaol aloqalarini ta'minlashda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo'ladi. Shu munosabat bilan texnologik ta'limi o'qituvchilarini oliy ta'lim muassasasida tayyorlash davridan talab qilinadigan kasbiy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda. Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yunalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Multimedia texnologiyalarida an'anaviy axborotlar matn ko'rinishida emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalangani uchun o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi. Aynan darslarda multimediali vositalardan foydalanish haqida to'xtaldik, lekin o'sha multimediali vositalardan samarali foydalanib dars o'tadigan pedagog tayyorlar ekanmiz, qanaqa qilib darslarda multimediali vositalardan foydalanamiz? Demak, zamonaviy talablarga ko'ra, biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kompyuter texnologiyalaridan unumli va samarali foydalana oladigan qilib tayyorlashimiz kerak. Avvalombor, kompyuter texnologiyasining bugungi ahamiyatini talaba ongiga chuqur singdirish kerak. Shu bilan bir qatorda, kompyuter kurslari ham ochilib, unga bo'lajak kadrlarni jalb qilib borish o'rinlidir. Kompyuter kurslarini tashkil qilish uchun oliy o'quv yurtlarida kompyuter bilan jihozlangan xonalar mavjud. Faqat darslardan keyin shug'ullanadigan o'qituvchi tayinlansa kifoya.

Axborot kompetentligi tushunchasi orqali talabalarining audio-video ko'rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni o'zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik talabaning o'quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o'zlashtirishini ta'minlaydi [4].

Ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish mashg'ulotlarni interfaol rejimda olib borishga imkon beradi. Multimedia (ingl. so'z multi - ko'p, media - muhit) – bu turli ko'rinishdagi axborotlardan (matn, tasvir, ovoz, video, animatsiya) iborat yahlit bir ko'rinishga aytiladi. Multimedia texnologiyalari - bu multimediali maxsulot yaratish jarayonidagi texnik va dasturiy vositalarni tanlash va qo'llash jarayoniga aytiladi [5].

Multimedia texnologiyalarining asosiy maqsadi - axborotni qabul qilishda sodda va qulay bo'lgan multimedia maxsulotini yaratishdan iborat. Bugungi kunda multimedia texnologiyalari inson faoliyatida, ya'ni biznes, ta'lim, tibbiyot, xarbiy va boshqa sohalarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Bu faoliyat yo'nalishlarida multimedia maxsulotlarini yaratish uchun keng ko'lamdagi dasturiy vositalar mavjud.

Barchaga ma'lumki bugungi yoshlarning telefon, kompyuter va televizor oldida o'tkazadigan vaqtlari maktabda yoki boshqa ta'lim muassasalarida o'tkazadigan vaqtlaridan ancha ko'proqni tashkil etadi. Bu ularning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi turli buzuq, ziddiyatli dasturlar, shoular, saytlarni doimiy ko'rinishlariga ko'proq imkon beradi, uning nozik ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ular esa bularning turli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko'pincha tushunmaydi.

Agar e'tiborimizni qaratsak, faqat ko'ngilochar saytlar, turli shoularni tanlaydigan va ko'radigan yoshlar deyarli yurtimizda va dunyoda bo'layotgan ta'limiy-tarbiyaviy, ma'naviy-madaniy teledasturlar, ijtimoiy tarmoqlarni ko'rishdan o'zlarini chetga olishadi. Hozirda urf bo'lgan majoziy iboraga ko'ra, "inson o'zining "axborot pillasi"ga o'ralib olishi, o'zini real dunyodan ajratib qo'yishi, illyuzion axborot makonida yashashi mumkin.

Media sohasidagi eng nufuzli tadqiqotchilarning tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya ob'ekti bo'lib ko'proq yoshlar tanlanadi, chunki: ular axborotning muhim qismini, to'liq idrok etmaydilar, chunki ular xali uni idrok etishga tayyor emaslar; ular xabarlarining ma'nosini yoki bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkinligini qisman tushunadilar; ular ommaviy axborot vositalariga nisbatan passiv pozitsiyani egallaydilar, o'zlarini ularning ta'siridan qanday himoya qilishni bilmaydilar va ko'pincha bunday himoya zarurligini tushunmaydilar [5].

Bugungi kunda axborot xavfsizligi va inson ongini ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya qilinishidan himoya qilish davrimizning eng asosiy muammosiga aylandi, va bu hozirda ota-onalar, shifokorlar, psixologlar va o'qituvchilarni tashvishga solmoqda. Ushbu muammoni hal etishning eng samarali yo'li sifatida maktab va ta'lim muassasalarida mediata'lim va mediamadaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshirish taklif etilmoqda. Hozirgi kunda dunyoda jadal rivojlanayotgan mediata'lim bu - pedagogikaning ommaviy axborot qonuniyatlarini o'rganish asosida yoshlarni axborot xurujlaridan o'zini himoya qilish va odamlar bilan muloqot qilish va o'zligini namoyon qilishning zamonaviy shakllari bilan tanishtiradigan yo'nalishdir.

Mediata'limni o'rganish natijasida inson quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin: o'zi bilan qabul qilinuvchi axborot o'rtasida "psixologik masofa" o'rnatish mexanizmlarini yaratish, o'zining ongini manipulyatsiya qilinishidan psixologik himoya qilish, axborotlarni tanqidiy baholash ko'nikmalarini egallash; audiovizual idrok etishning ongli tajribasini egallash; idrok etish qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish; amaliy darajada noverbal xabarlar tillarini (teletasvirlar tahlili, kino tili, reklama tili va boshqalar) o'zlashtirish, bu esa ularning axborotlarning mazmuni anglashga va o'zini namoyon etish imkonini beradi.

Mediata'limning o'z oldiga qo'yilgan maqsadlariga erishish uchun quyidagi faoliyat yo'nalishlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi: maktabda shakllangan bilimlar tizimiga sinfdan tashqari qabul qilinadigan axborotni kiritish, bu bilimlardan turli mediadagi axborotlarni idrok etish va ularni tanqidiy tushinishda foydalanish; axborotni talqin qilish, uning mohiyatini anglash, uni maqsadli yo'naltirish, axborot tarqalishining maqsadi, axborotlardagi yashirin ma'nolarga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish; kerakli ma'lumotlarni turli manbalardan topa olish, belgilangan mezonlar asosida ularni tizimlashtira olish; axborotlarning kommunikativ jihatdan o'zaro ta'sir maqsadini va mo'ljallangan auditoriya xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni hajmini, shaklini, belgilari tizimini, tashuvchisini o'zgartira olish; o'z fikrlari yuzasidan bahslash olish, olingan ma'lumotlarda kamchiliklar va ma'nolarni topa olish va ularni tuzatish bo'yicha takliflar kiritish; axborotlardagi turli muqobil nuqtai nazarlarni qabul qilish va ularning har biriga «yoqlash» va «qarshi» bo'lgan asosli dalillar keltira olish; axborot xabarlari o'rtasida maqsadli assotsiativ va amaliy aloqalarni o'rnatish; axborot xabaridagi eng muhim jihatlarni ajrata olish [5].

Yoshlarning darsdan tashqari mashg'ulotlarida mediata'limdan foydalanishning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati shundaki, ularga o'zini namoyon qilish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratishda ham hisoblanadi, chunki hamma bola ham o'qish jarayonida o'zini namoyon qila olmaydi. Bunday sabablar sirasiga yoshlarda etakchilik, turli qobiliyatlarini va o'zlashtira olmaslik kabi muammolarni ko'rsatish mumkin. Shu sababli, ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan turli sinfdan tashqari mashg'ulotlarda yoshlar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy motivlar va ehtiyojlarini amalga oshiradigan ulkan imkoniyat bilan ta'minlanadilar. Zamonaviy, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni to'g'ri tanlash ta'lim-tarbiya vazifalarini yanada to'liq amalga oshirishga yordam beradi. Bu jarayonda eng ahamiyatli jihatlardan biri shundaki, yoshlarning o'zlari ularni rivojlantirishning yangi shakllarni taklif qilishlari ham mumkin.

Mediata'limning tarbiyaviy salohiyatidan foydalangan holda, yoshlar ongni media vositalari tomonidan manipulyatsiya qilinishidan himoya qilish va ularning bu boradagi qobiliyatini rivojlantirish maqsadida samarali zamonaviy usullar ishlab chiqilmoqda, jumladan:

- talabalarni media vositalar va muassasa kutubxonasidan axborotlarni axborot markazi sifatida mustaqil izlab topish va foydalanish qobiliyatini shakllantirish,

- muammoli vaziyatdan chiqish yo'lini bir necha usulda topish, mavjud vaziyatni modellashtirishga o'rgatish, ya'ni, yoshlarni vaziyatdan chiqish yechimning alternativ tanlovini to'g'ri topish vazifasini oldiga qo'yadi. Ushbu xarakterli usulni tanlash yoshlarning o'zida qoladi, lekin shu bilan birga u o'z harakatlarini asoslashi lozim bo'ladi;

- ijtimoiy tarmoqlar, gazeta va jurnallarda o'qilgan maqolalar, tele va radio hikoyalar muhokamasi; - turli xil media vositalaridan foydalangan holda o'z ma'lumotlarini tayyorlashga o'rgatish. Bunda media usullaridan qaysi birini tanlash unchalik muhim emas (oddiy qog'oz varag'idan Internetdagi veb-saytgacha): chunki zamonaviy yoshlar murakkab texnik vositalardan foydalanishni afzal ko'rishadi, ya'ni, kameralar, videokameralar, kompyuterlar, telefonlar. Ushbu zamonaviy texnikalardan foydalanishda topshiriqni shunday tuzish maqsadga muvofiq bo'ladiki, u fanni o'qitish va tarbiya vazifalarini o'zida mujassamlashtirsin;

- bir vaqtning o'zida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan turli xil uslubiy usullardan foydalanishga imkon beradigan Internetning axborot resurslaridan foydalanish.

Yoshlarning Internetga qiziqishi to'rtta asosiy omil tufayli rivojlanadi deya hisoblanadi: turli xildagi ma'lumotlarga kirishga imkoniyatning mavjudligi; keng interaktivlik, doimiy muloqotning mavjudligi; o'zi haqidagi ma'lumotlar ustidan shaxsiy nazorat, ma'lum bir "obraz"ni yaratish imkoni; uzatilayotgan ma'lumotlarning anonimligi [6]

Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet tarmog'i yordamida turli sahifalardan, jumladan, Youtube, Mytube, Facebook, Telegram, Instagram, WhatsApp, Twitter kabi axborot uzatish vositalaridan olinayotgan turli xil ko'rinishdagi axborotlarni yopish va taqiqlash, uzatilayotgan turli syujetlarni chegaralashning imkoniyati kamroq bo'lganligi sababli, katta sahnada — Mediata'lim tushunchasining paydo bo'lishi, uning kelajakda ta'lim sohasida rivojlanishi imkoniyatlarini yanada orttirib yuboradi. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'qituvchilik kasbini tanlagan har bir pedagog o'ziga shu kasbni sevishi yoki sevmasligi to'g'risida savol beradi. Zero masalaning yana bir muhim tomoni borki, bu bo'lajak o'qituvchi pedagogik qobiliyatga egami yoki yo'qmi degan muammo paydo bo'ladi. Vaholanki har bir kasb, qobiliyat orqali egallanadi va mukammal o'rganiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, mediata'lim asosida talabalarning pedagogik mahoratni rivojlantirish - ijtimoiy madaniy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mediamadaniyat pedagogning media sohasidagi faoliyatining turli bosqichlarida axborot va mediamatnlarning har xil turlariga nisbatan o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-158-son, Toshkent sh., 2023-yil 11-sentabr.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 396 b.
3. Babadjanov S.S. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Toshkent, 2018. – B. 36-37.
4. Mediakultura i obrazovanie: osobennosti vzaimodeystviya i razvitiya. – // <https://topuch.ru/referat-mediakultura-i-sovremennoe-obshchestvo/index.html>
5. Kirillova N.B. Mediakultura: ot moderna k postmodernu. - M.: Akademicheskii Proekt, 2005. – 448 s.
6. Fateeva I.A. Mediaobrazovanie: teoreticheskie osnovy i opit realizatsii. Chelyabinsk, 2007. 270 s.

Muallif:

Maxmudova Nodirabonu Jamoliddinovna - Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.

UDK 372.815.99

PHENOMENOLOGY OF CONFLICTS

NIZOLAR FENOMENOLOGIYASI

ФЕНОМЕНОЛОГИЯ КОНФЛИКТОВ

Nishanova Zamira Taskarayevna

Toshkent davlat pedagogika universiteti. 100014.Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27 uy.

E-mail: info@tdpu.uz

Abstract. The article reveals the psychological content of conflicts. Also, the opinions of various scientists about the conflict and its types are theoretically analyzed. In psychology, the concept of conflict is used in relation to various phenomena. Conflict is a process of sharp aggravation of conflict and struggle that arose between them in the course of solving a problem that is important for each of the participants in the dialogue. The basis of the conflict arises due to the fact that one of the participants in the dialogue begins to interfere with the process of meeting the needs of the other and achieving their goals.

Key words: dispute, conflict, dispute, types of conflict, signs of conflict, constructive, destructive.

Аннотация. В статье раскрывается психологическое содержание конфликтов. Также теоретически проанализированы мнения различных ученых о конфликте и его видах. В психологии понятие конфликта используется по отношению к различным явлениям. Конфликт – это процесс резкого обострения конфликта и борьбы, возникший между ними в ходе решения проблемы, важной для каждого из участников диалога. Основа конфликта возникает из-за того, что один из участников диалога начинает препятствовать процессу удовлетворения потребностей другого и достижения своих целей.

Ключевые слова: спор, конфликт, виды конфликта, признаки конфликта, конструктивный, деструктивный.

Kirish. Nizo so'zi (conflictus- lotincha so'zdan olingan bo'lib, to'qnashuv degan ma'noni bildiradi. Nizo tushunchasining mohiyati quyidagicha mazmunga ega: 1. Ochiq kurash, urush holati. 2. Insonlar g'oyalari yoki qiziqishlari orasidagi munosabatlarda uyg'unlikning buzilish holati, qarama-qarshiliklar to'qnashuvi. 3. Bir-birini inkor

etadigan xohish yoki tendensiyalarning bir vaqtda mavjud bo'lishi natijasida vujudga keladigan psixologik kurash. 4. Badiiy yoki sahna asaridagi kuchlar yoki xarakterlarning qarama-qarshiligi. 5. Qarama-qarshi impulsning to'qnashuvi natijasida vujudga keladigan hissiy zo'riqish [5].

Xorijiy ensiklopediyalarda nizo tushunchasi konflikt, bahslashuv, raqobat, kurash, janjal kabi sinonimlar beriladi. Raqobat do'stona musobaqa ham, maqsadga erishish uchun dushmanlar kurashiga ham tegishli. Yakkakurash harbiy nizo haqida gap ketganda qo'llaniladi. Urush, kurash, harbiy nizo haqida gap ketganda qo'llaniladi. Kurash individual raqiblar to'qnashuviga nisbatan ishlatiladi. Janjal esa ommaviy to'qnashuv yoki shovqinli janjalni anglatadi.

Yuqoridagi sinonim so'zlarni tahlil qilish "nizo" tushunchasining mohiyati ikki muxoliflar to'qnashuvini anglatadi. "Nizo" tushunchasi birinchi marta 1901 yilda Dj.Bolduin tahriri ostida nashr etilgan "Falsafa va psixologiyadan lug'at" asarida "qonunlar nizosi" sifatida keltiriladi.

Asosiy qism. Psixologiyada nizo tushunchasi turli hodisalarga nisbatan ishlatiladi. 1990 yilda Rossiyada nizolar bo'yicha "Konstruktiv psixologiyada nizo" mavzusida birinchi konferensiya bo'lib o'tdi. Unda nizo shaxslararo qiyinchilik va shaxs ichidagi his-tuyg'u, inqirozli hodisa sifatida talqin etiladi. Shunday qilib, nizo ko'p ma'noli tushuncha. Hozirgi kunda nizo tushunchasi faqat ma'lum bir soha yoki amaliyotgagina tegishli emas. A.Ya.Ansupov va A.I.Shipilovlar nizolarning turli fanlarda o'rganilishini tadqiq qilib, 11 ta sohani ajratgan: psixologiya, sosiologiya, politologiya, tarix, falsafa, san'atshunoslik, pedagogika, huquqshunoslik, sosiobiologiya, matematika va harbiy fanlar [1]. Turli fanlar nizo tushunchasini o'zining tushunchasi bilan boyitadi: iqtisodchilar nizoni raqobat bilan, psixologlar "qiyinchiliklar", "zo'riqish" bilan, sosiologlar "debatlar", "opozisiya" tushunchalari bilan tenglashtiradilar.

An'anaviy nizo turlarini ajratishda nizolashayotgan tomonlarni farqlashga asoslangan. K.Boulding alohida shaxslar orasidagi nizolar, shaxs va guruh orasidagi nizolar, shaxs va tashkilot orasidagi nizolar, tashkilotlar orasidagi, turli guruhlar va tashkilotlar orasidagi nizolarga ajratgan. S.Cheyz 18 xil darajadagi nizolarni ajratgan. Rus psixologlari nizolarning 3 asosiy turlarini farqlashadi: shaxs ichidagi nizolar, ijtimoiy nizolar va zoonizolar.

F.Ye.Vasilyukning nizo haqidagi quyidagi fikrlari o'rinalidir: nizo bu – nimaningdir nima bilandir to'qnashuvi" deb ta'kidlangan(1984,42). 1983 yilda nashr etilgan "Psixologik lug'atda "nizo – o'tkir emosional-his tuyg'ular bilan bog'liq qiyin hal qilinadigan qarama-qarshilik sifatida ta'riflanadi. Shu bilan birga uning shaxs ichidagi shaxslararo va guruhlararo nizolar kabi turlari ko'rsatiladi" [1]. Bu muammoni har tomonlama o'rgangan mutaxassislar A.Ya.Ansupov va A.I.Shipilovlar quyidagicha ta'rifni taklif qiladilar: "Nizo bu – sub'yektlarning qarama-qarshiligi tufayli salbiy hissiyotlar bilan kechadigan o'zaro ta'sir jarayonida vujudga keladigan muhim qarama-qarshiliklarni hal qilishning o'tkir usuli"[1]. Yuqorida keltirilgan ta'rifda salbiy hissiyotlar sub'yektlarning qarshi harakatlari asosiy tarkibiy qismlari sifatida ta'kidlanadi.

Nizo bo'yicha yirik mutaxassis B.I.Xasan quyidagi ta'rifni taklif qiladi. "Har qanday nizo – bu qadriyatlar, ustanovkalar, motivlar qarama-qarshiligidir" [2]. Bu ta'rifda nizoning asosiy tarkibiy qismi sifatida, qarama-qarshilik va to'qnashuvning mavjudligini ta'kidlash joiz, bunda nizo o'zaro ta'sir tavsifi sifatida qaraladi. Bunda ta'sir ichdan yoki tashqaridan bo'lishini hisobga olish kerak. Ko'pchilik nizoga berilgan ta'riflar o'xshash bo'lib, uning asosida to'qnashuvlar, kurash, kelisha olmaslik yotadi. Har qanday nizo uning xarakteri, mazmuni, turidan qat'iy nazar o'z ichiga qarshi turishni, "qarshi kurash"ni oladi. Qo'shni davlatlarning harbiy to'qnashuvi, oilaviy janjal, xizmat bo'yicha nizo, korxonadagi ish tashlash, shaxsiy drama – bu xildagi barcha nizolarda - qarama-qarshi qiziqishlar, qarashlarning to'qnashuvi sodir bo'ladi.

Nizoning belgilaridan biri uning bipolyarligi, ya'ni bir vaqtning o'zida o'zaro bog'liqlik va o'zaro qarama-qarshilikni anglatadi. Nizo sosiologiyasi bo'yicha ko'zga ko'ringan olimlardan biri R.Darendorfning ta'kidlashicha, "har qanday nizo" ikki elementlarning munosabatlariga " kiritiladi [3]. Nizoning ikkinchi belgisi qarama-qarshilikni yengishga qaratilgan faolligidir. Nizo uning har xil tomonlarining kurashida namoyon bo'lib, uni hal qilish yoki qarama-qarshilikni hal qilish yoki uni yo'qotish bilan tugaydi. G.Zimmel: "nizo har qanday dualizmni hal qilishga qaratilgan, bu o'ziga xos birdamlikka erishish usulidir, hatto bu nizoda ishtirok etayotgan tomonlarning birini yo'q qilishi evaziga bo'lsa ham erishiladi" [3].

Nizo hodisasini tavsiflaydigan mezonlardan biri –bu nizoni tashuvchi sub'yektlarning mavjudligidir. Haqiqatan ham "to'qnashuv" nizoning yordosi sifatida tomonlarning ongli faolligini talab qiladi. Shtreksning ta'kidlashicha, "sub'yekt bo'lmasa, nizo ham bo'lmaydi". Nizo qarama-qarshilikdan ongli va faol harakat qiladigan sub'yektlarning mavjudligi bilan farqlanadi. Talabalar o'zaro muloqotga kirishar ekanlar, ular o'rtasida nizoning vujudga kelishi ehtimoli doimo mavjud bo'ladi. Nizolar inson hayotining ajralmas qismidir. Bir-biridan farqlanuvchi fikrlarga, maqsad va unga erishish yo'llari haqidagi tasavvurlarga ega bo'lgan kishilar mavjud joyda, inson individualligining namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilinadigan makonda nizoli vaziyatlar paydo bo'ladi.

Nizo – muloqot ishtirokchilarining har biri uchun muhim bo'lgan muammoni hal etish vaqtida ular o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik va kurashning keskin kuchayib ketish jarayonidir. Nizoning asosi muloqot ishtirokchilarining biri ikkinchisining o'z ehtiyojlarini qondirish, o'z maqsadlariga erishish jarayoniga to'sqinlik qila boshlashi tufayli paydo bo'ladi. Bu nizoli vaziyat. Muloqot ishtirokchilarining ushbu nizoli vaziyatga vujudga kelgan to'siqni bartaraf etish

uchun amalga oshiruvchi harakatlari nizoni, ya'ni ochiqdan-ochiq qarshi kurashni keltirib chiqaradi. Demak, nizoning formulasi quyidagicha ifodalanishi mumkin [4]: **muammo + nizoli vaziyat + insident = nizo**.

Nizo qarama-qarshilikning haddan tashqari kuchayib ketganligi bilan bahsdan farq qiladi. Nizo o'z tarkibiy tuzilishi, amal qilish sohasi, dinamikasi va turlariga ega. Nizoning tarkibiy tuzilishi muloqot ishtirokchilarining tashqi va ichki pozitsiyasi hamda nizo ob'yektidan iborat. Tashqi pozitsiya – kishining xulq-atvori. Ichki pozitsiya – kishining maqsadi va motivlari. Nizo ob'yekti – nizoning sababi. Nizo ichdan yoki shaxsiy sohada amal qilishi mumkin. Masalan, ichdan sohada – “Nega kech qoldingiz?”, “Qandaydir muammolar paydo bo'ldimi?”, “Keyingi safar kech qolmasligingizga umid qilsam bo'ladimi?”, “Kech qolishingiz sababini bilsam bo'ladimi?”. Shaxsiy sohada – “Nega buncha uyquchisiz?”, “Shunchalar ham ma'suliyatsiz bo'lasizmi?”, “Keyingi safar ham shunaqa kech kelavering, xo'pmi?”. Nizo dinamikasi uch bosqichdan iborat: yetilish, ro'yobga chiqish, so'nish. 1 – bosqichda nizo ro'yobga chiqishining oldini olish mumkin. Samarali usullardan biri kommunikaiv o'zaro ta'sir sohasidan predmetli faoliyat sohasiga o'tish. Ro'yobga chiqish bosqichiga o'tgan nizoning odini olib bo'lmaydi. So'nish bosqichining kelishini kutish kerak bo'ladi. Bu bosqichda korreksion tadbirlarni o'tkazish samaralidir.

Nizolar bir qancha belgilariga ko'ra tafsiflanadi: 1. Natijasiga ko'ra: konstruktiv – munosabatlarning yaxshilanishi, muammoning ikkala tomon uchun ijobiy hal qilinishiga olib keladi. Destruktiv - munosabatlarning yomonlashuviga, muammoning hal etilmasligiga olib keladi. 2. Davom etish vaqtiga ko'ra: uzoq muddatli – ro'yobga chiqish bosqichi cho'zilib ketgan nizo, qisqa muddatli - ro'yobga chiqish bosqichi uzoq davom etmaydigan nizo. 3. Keskinlik darajasiga ko'ra: norozilik, kelisha olmaslik, qarama-qarshilik, dushmanlik. 4. Faoliyat sohasiga ko'ra: boshqarish sohasidagi, ishlab chiqarish sohasidagi.

Xulosa. Shunday qilib, nizo qarama-qarshilikni bartaraf etishga qaratilgan tomonlarning faolligida namoyon bo'ladigan bipolyar hodisa, nizolashayotgan tomonlar faol sub'yektlar bo'lishi kerak. Psixologik nizo ma'lum sharoitlarda vujudga keladi. Tashqi sharoitlar shunday bo'lishi mumkinki, “chuqur va faol motivlarni qondirishning iloji bo'lmay qoladi. Shuning uchun ham faqat insonlarda bo'ladi. Psixologik nizolarning ikkinchi sharti – vaziyatning sub'yektiv hal qilinishi. Inson psixik hayotida psixologik nizolarning umumiy ahamiyati shundaki, “psixologik nizolarda shaxsning yangi munosabatlari shakllanadi, ilgirigi munosabatlar o'zgaradi. Shunday qilib, “nizoning hal qilinishi va rivojlanishining o'tkir shaklini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология - М.: ЮНИТИ, 1999. – 591 с.
2. Гришина Н.В. Психология конфликта. - СПб.: Питер.2004.-С.33.
3. Зиммель Г. Конфликт современной культуры.П.1990.С.49
4. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. –Т.: Турон-икбол. 2006.-Б.98.
5. Психологический словарь. – СПб.: Питер, 2005.С.60.
6. Степаненкова В.М. Понятие социального конфликта в теории Р.Дарендорфа // Социологические исследования, 1994. №5. С.141-142.

Muallif:

Nishanova Zamira Taskarayevna - TDPU “Amaliy psixologiya” kafedrası professorı, psixologiya fanları doktorı.

UDK 372.3/4

INTERDISCIPLINARY RELATIONS IN THE FORMATION OF THE SCIENTIFIC WORLD VIEW OF PRIMARY CLASS STUDENTS

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA FANLARARO MUNOSABATLAR

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Xolboyeva Gulnora Anorboyevna

Jizzaax davlat pedagogika universiteti 130100.Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy.

E-mail: xolboyeva-gulnora2024@gmail.com

Abstract. In the regulatory documents based on the National Curriculum of our country's comprehensive schools, processes such as the harmonization of the interrelationship of nature and society, the formation of a sense of responsibility for the environment, as an important task of improving the scientific outlook of students on the basis of interdisciplinarity acknowledged. Today, the ability of teachers to achieve results in the lesson depends on the organization of the lesson, taking into account the attention of students. Because any mental activity is effectively mastered only through deep attention. Also, the didactic possibilities of the pedagogical process (knowing, learning, practical testing, thinking, observing) in order to interdisciplinary formation of the scientific worldview of elementary school students, the manifestation of a high level of independent thinking (understanding, thinking, decision-making) will be improved on the

basis of prioritization. This article focuses on the development of skills such as interdisciplinary formation of the scientific worldview, problem solving, and critical thinking among the primary schoolchildren in order to improve the methodology of forming a scientific worldview among primary schoolchildren.

Key words: Higher education, interdisciplinary, national program, lesson, student, attention, didactic materials, book.

Аннотация. В нормативных документах, основанных на Национальной учебной программе общеобразовательных школ нашей страны, рассматриваются такие процессы, как гармонизация взаимосвязи природы и общества, формирование чувства ответственности за окружающую среду, как важная задача совершенствования научного мировоззрения. студентов на основе признанного междисциплинарного подхода. Сегодня способность учителей достигать результатов на уроке зависит от организации урока с учетом внимания учащихся. Потому что любая умственная деятельность эффективно осваивается только посредством глубокого внимания. Также раскрыты дидактические возможности педагогического процесса (познание, учение, практическая проверка, мышление, наблюдение) в целях межпредметного формирования научного мировоззрения учащихся младших классов, проявления высокого уровня самостоятельного мышления (понимания, мышления, решения). -производство) будет улучшаться на основе расстановки приоритетов. В данной статье основное внимание уделяется развитию у младших школьников таких навыков, как междисциплинарное формирование научного мировоззрения, решение проблем и критическое мышление, с целью совершенствования методики формирования научного мировоззрения у младших школьников.

Ключевые слова: Высшее образование, междисциплинарность, национальная программа, урок, студент, внимание, дидактические материалы, книга.

Kirish. Ta'lim sohasidagi davlatimiz olib borayotgan siyosatning tub ijrosini ta'minlovchi shaxs - pedagog kadrlarimiz hisoblanadi. Bugungi kunda pedagoglarimizda qanday xususiyatlar shakllanish kerak? Pedagoglar ta'lim – tarbiya jarayonini olib borishda nimalarga e'tibor qaratish lozim? O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday shakllarda namoyon bo'lish kerak? kabi qator savollar tug'ilishi tabiiy holdir. Yuqoridagi savollarga javob topish, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars o'tish o'qituvchilarga alohida ma'suliyat yuklaydi.

Uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'lim tizimini takomillashtirish kichik maktab yoshdagi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning sifat jihatidan yangi konsepsiyalarni amaliyotga joriy etilishini talab qilmoqda. Eng muhim ustuvor yo'nalish sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini yangicha yondashuvlar asosida shakllantirish, ularning o'rganish istaklari va talablarini inobatga olgan holda o'quv fanlarining yangi avlodini yaratish, xorijiy tillarni o'rganish, axborot va axborot kommunikatsion texnologiyalarini kafolatlangan tarzda o'zlashtirish, ta'lim oluvchilarning individualligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini himoya qilish va mustahkamlashdan iborat.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-oktyabrda qabul qilingan "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli Qonunning 2-moddasi "Yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalb etish" [1], deb nomlanadi. Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da ham Davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori ishlab chiqildi. Qarorda 2020 — 2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi ishlab chiqildi [2].

Mamlakatimiz umumta'lim maktablari Milliy o'quv dasturiga asoslangan me'yoriy hujjatlarda tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligini uyg'unlashtirish, atrof-muhitga mas'uliyat hissini shakllantirish kabi jarayonlar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni fanlararo aloqadorlik asosida takomillashtirish muhim vazifa sifatida e'tirof etilgan. Boshlang'ich sinflarda darsni chuqur o'zlashtirishga, vaqtdan unumli foydalanishga, dars sifati va samaradorligini oshirishga tabiiy va ijtimoiy fanlarni integratsiyalash orqali erishish mumkin. Bugungi kunda o'qituvchilarning darsda natijaga erishish imkoniyatlari o'quvchilar diqqatini e'tiborga olgan holda darsni tashkil qilishlariga bog'liq. Chunki har qanday aqliy faoliyat teran diqqat orqaligina samarali o'zlashtiriladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirish maqsadida pedagogik jarayonning didaktik imkoniyatlari (bilish, o'rganish, amalda sinab ko'rish, fikrlash, mushohada qilish) yuqori darajadagi fikrlash mustaqilligining (tushunish, fikrlash, qarorlar qabul qilish) namoyon bo'lishiga ustuvorlik berish asosida takomillashtiriladi [3].

Bilish - bu atrofimizdagi dunyo haqida bilim va tushuncha olish jarayonidir. U turli manbalardan ma'lumotlarni faol idrok etish, tahlil qilish, talqin qilish va olishni o'z ichiga oladi. Bilish nafaqat tabiiy ma'lumotlarni olish bilan cheklanib qolmaydi, balki fikrlash, tahlil qilish va ma'no yaratish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi. Bilim didaktik jarayonning asosiy elementi bo'lib, ta'lim asosini yaratadi. Didaktik imkoniyat sifatida bilim o'rganish uchun mazmun, kontekst va katalizator bo'lib xizmat qiladi. Bilimni didaktik imkoniyat sifatida tarkibni boyitish, kontekstualizatsiya, masala yechish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash kabi jarayonlar bilan amaliyotga kiritish mumkin.

O'rganish - ta'limning mohiyati bo'lib xizmat qiladigan chuqur didaktik imkoniyatdir. Bu shaxslar bilim, ko'nikma va munosabatlarni egallash, o'zlashtirish Ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirish maqsadida pedagogik jarayonning didaktik imkoniyatlari bilish, o'rganish va amalda sinab ko'rish fikrlash va qo'llash jarayonidir.

Didaktik imkoniyat sifatida o'rganish o'sish va rivojlanish uchun ko'plab yo'llarni taklif etadi. Amalda sinab ko'rish - fanlararo ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun muhim didaktik imkoniyat bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv nazariy bilimlarni real jarayonlarda qo'llash, tajribalar o'tkazish, tanqidiy fikrlashni va turli fanlardan tushunchalarni sintez qilishni rag'batlantiradigan amaliy faoliyat bilan shug'ullanishni o'z ichiga oladi.

Fikrlash - pedagogik jarayonda, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirishga qaratilgan kuchli didaktik vositadir. Fikrlashning turli shakllarini rag'batlantirish tanqidiy izlanish, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va tushunchalarni fanlar bo'yicha bog'lash qobiliyatiga yordam beradi.

Mushohada qilish - pedagogik jarayonda, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirishga qaratilgan aqliy faoliyat turi sifatida didaktik imkoniyatdir. Mushohada qilish qobiliyatlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhit bilan aloqada bo'lishga, aloqalarni o'rnatishga va atrofda dunyoni chuqurroq tushunishga, diqqatning faoliyatini mustahkamlashga imkon beradi. Ushbu didaktik imkoniyatlar yordamida yuqori darajadagi fikrlash mustaqilligini namoyon qiluvchi omillar tushunish, fikrlash, qarorlar qabul qilish namoyon bo'la oladi.

Ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirish maqsadida pedagogik jarayonning didaktik imkoniyatlari (bilish, o'rganish, amalda sinab ko'rish, fikrlash, mushohada qilish) yuqori darajadagi fikrlash mustaqilligining namoyon bo'lishi asosida amalga oshirish mumkin. Pedagoglarning diqqati, uning turlari va xususiyatlari haqida yetarli bilimga ega bo'lishlari va buni dars jarayonida hisobga olishlari ta'limda natijaga erishishlari uchun muhim hisoblanadi. Ilmiy jihatdan diqqat deb, ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga faol qaratilishini tushunamiz.

Diqqat-idrok, xotira, tafakkur nutq va xayol, singari alohida psixik jarayon bo'lmay balki, ilmiy dunyoqarash jarayonlarining sifatini ta'minlovchi ichki faollikdir. Ya'ni diqqat uzluksiz ta'limning asosiy bog'ini hisoblangan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda samaradorlikni ta'minlovchi ko'prik vazifasini bajaruvchi vositadir. Shuning uchun ham diqqat har qanday faoliyatning zaruriy sharti hisoblanadi. Unda olish lozim bo'lgan materialga qanchalik kuchli sur'atda qaratilgan bo'lsa, u shunchalik tez va puxta esda qoladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda diqqatning roli ularning umumiy kognitiv rivojlanishi va akademik muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Diqqat tushunchisiga mavzudan kelib chiqqan holda quyidagicha ta'rif berish mumkin. Diqqat - bu chalg'itadigan narsalarga e'tibor bermasdan, o'z xabardorligini ma'lum bir stimul, vazifa yoki ma'lumotga qaratishning bilim jarayonini anglatadi. Boshlang'ich ta'lim kontekstida, diqqat ta'limning turli jihatlarida, shu jumladan, mavzu integratsiyasida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Diqqatning boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirishda quyidagicha ta'sir turlari mavjud. Muammoni hal qilish va tanqidiy fikrlash: diqqat muammolarni hal qilish ko'nikmalarini va tanqidiy fikrlashni qo'llab - quvvatlaydi. Shuningdek, mavzular fanlararo o'qitilganda yohud bir-biriga bog'langan holda berilganda o'quvchilarda ko'pincha bilimlarning bir nechta sohalaridan chizishni talab qiladigan murakkab jarayonlariga duch kelishadi. Ularning tegishli tafsilotlarga e'tibor berish, ma'lumotlarni tahlil qilish va yechimlarni sintez qilish qobiliyati ushbu muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun juda muhimdir.

Xotirani mustahkamlash: diqqat muhim ma'lumotlarga e'tibor qaratish orqali xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Integratsiyalashgan mavzular xotirani saqlashni kuchaytirishi mumkin, chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida turli fanlarning tegishli tushunchalari o'rtasida uyushmalar tuzatiladi. Ushbu o'zaro bog'liq bilimlar tarmog'i boshlang'ich sinf o'quvchilariga baholash va real dasturlarda ma'lumotni yanada samarali eslab qolishga yordam beradi.

Kognitiv moslashuvchanlik: diqqat kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantiradi, bu o'quvchilarga mavzular o'rtasida almashish va turli xil o'quv muhitlariga moslashish imkonini beradi. Fanlar integratsiyasi o'quvchilarni turli xil fikrlash usullari o'rtasida muammosiz o'tishga undaydi, ularning turli vazifalarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

Diqqat boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirishda pedagogik jarayonning didaktik imkoniyatlarini bilish, o'rganish, amalda sinab ko'rish, fikrlash, mushohada qilishni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantiradi va ichki motivatsiyani rivojlantiradi. O'qituvchilar o'quvchilarni turli fanlarning o'zaro bog'liqligini ko'rishga va dunyo haqida har tomonlama tushunishni rivojlantirishga undaydigan yaxlit va samarali o'quv tajribalarini yaratish uchun diqqat kuchidan foydalanishlari mumkin. Shu bilan birgalikda ushbu jarayonlarda diqqatning xosilasi bo'lmish xotiraning ham ahamiyati katta. Ko'pincha ayrim o'quvchilarda xotiraning zaifligi, tez va puxta esda saqlab qololmasligi to'g'risidagi shikoyatlari tahlil qilib ko'rilganda, esda yaxshi saqlab qololmasliklarining sababi ular diqqatining bo'shligida, tarqoqligida va zaifligida ekanligi ma'lum bo'ladi [3].

O'quvchilarning dars materiallarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishlari, ular diqqatining yoki xotiraning qanchalik darajada taraqqiy etganligiga bog'liq. Akademik K.D.Ushinskiyning aytishicha: "Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshigidirki, ongimizga kirib keladigan ma'lumotlarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi" [4].

Ta'lim olayotgan ko'plab o'quvchilarning fanlarni o'zlashtira olmasligi bilan bog'liq muammolar sababini, avvalo, ular diqqatining yetarli darajada taraqqiy etmaganligidan dalolat beradi. Dunyoqarash tabiiy, jamiyat va tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir.

Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Dunyovarash insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu jihatdan dunyovarash voqelikning inson ongidagi subyektiv in'ikosidir. Ayrim individning ongi bilan bog'langan individual dunyovarash, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan bog'langan ijtimoiy dunyovarash mavjud. Bular bir-birini to'ldiradi, bir-biriga ta'sir qiladi, bir-birini rivojlantiradi. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o'zini anglashi ham shakllanib boradi. Shu tariqa dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyovarash shakllanadi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonuni xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi / 30.10.2019 y, 03/19/576//3970-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 - oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limini 2030 yilgacha rivojlantirish kantseptiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni www.lex.uz.
3. Matchonov S., G'ulomova X. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent, 2020. – 352 b.
4. Ushinskiy K.D. Bolalar dunyosi va xrestomatiya. Toshkent, 2000. -204 b.

Muallif:

Xolboyeva Gulnora Anorboyevna – JDPU, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri, p.f.n., dots.

UDK: 372.22

TENDENCIES OF EDUCATIONAL CONTENT DESIGN BASED ON THE COMPETENCY APPROACH

КОМПЕТЕНСИЯВИЙ YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIM MAZMUNINI LOYIHALASH TENDENSIYALARI

**ТЕНДЕНЦИИ В ПРОЕКТИРОВАНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КОНТЕНТА НА ОСНОВЕ
КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА**

Ruzikulova Nigora Shuxratovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. 100070, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27 – uy

E-mail: nigoraruzikulovaphd@gmail.com

Abstract. Based on their analysis, it can be said that as one of the trends in the design of educational content based on the competency approach, the institutional mechanism that encourages competition in the field of education is insufficient, that is, the institutional mechanisms of introducing a competitive environment in the classroom or in groups have not been sufficiently studied. Competence is a factor that can influence everything from organizational values and norms to the socialization of learners. Accordingly, the introduction of a competency-based approach to education requires a revision of the content of education. According to the meta-analysis of the trends in the design of educational content based on the competence approach, it was determined that the educational environment for the formation and development of the competence of learners should be based on life activities and positions.

Key words: competence approach, content of educational goals, competitive environment, educational content, thesaurus, educational thesaurus.

Аннотация. На основании их анализа можно сказать, что в качестве одной из тенденций проектирования образовательного контента на основе компетентностного подхода недостаточно институционального механизма стимулирования конкуренции в сфере образования, то есть институциональных механизмов внедрения конкурентного подхода. обстановка в классе или в группах недостаточно изучена. Компетентность – это фактор, который может влиять на все: от организационных ценностей и норм до социализации учащихся. Соответственно, внедрение компетентностного подхода в образовании требует пересмотра содержания образования. По данным метаанализа тенденций проектирования образовательного контента на основе компетентностного подхода определено, что образовательная среда для формирования и развития компетентности обучающихся должна основываться на жизненных видах деятельности и позициях.

Ключевые слова: компетентностный подход, содержание образовательных целей, конкурентная среда, содержание образования, тезаурус, образовательный тезаурус.

Kirish. Ta'lim va amaliyot integratsiyasining institutsional mexanizmi har bir ta'lim oluvchilar guruhining o'ziga xos maqsad tuzilishiga ta'sir qiladi. Ma'lum bir sinfda ijtimoiylashgan ta'lim oluvchilarning maqsadlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan bunday amaliyotlarning quyidagi asosiy o'lchovi aniqlanadi: maqsadli tizimi (mazmuni asoslash); me'yoriy asos (me'yoriy-huquqiy asoslarni ishlab chiqish); tashkiliy tizim (tashkiliy tuzilma elementlarni aniqlashtirish); amalga oshirish protseduralari (variativ mexanizmlarni ishlab chiqish); baholash amaliyoti (natijalarni pragnozlash, tahliliy baholash, qayta aloqani ta'minlash). Ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar maqsad strukturasi qanday idrok etishlarini o'lchaydigan adaptiv ta'lim kontentini ishlab chiqish muhim[2].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim mazmunini loyihalash tendensiyalarini aniqlashtirish va asoslash jarayoni o'rganilgan bo'lib, bunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim muhiti, ta'lim kontenti va natijalari o'rganilgan. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, kontekstual tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim oluvchilarning ta'lim maqsadlari strukturasi idrok etish qiziqishlari ustun. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sinf jamoasi maqsadlari tuzilishi hamda mazmuni va ta'lim oluvchilarning shaxsiy muvaffaqiyat maqsadlari tuzilishi hamda mazmuni uch xil yo'l bilan bog'lanishi mumkin: sinf maqsadlari mazmunida ta'lim oluvchilarning shaxsiy muvaffaqiyat maqsadlari bashorat qilinadi; ular parallel jarayonlar bo'lishi mumkin (mazmunan kesishadi); ular o'zaro ta'sir qilishi mumkin [8].

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim mazmunini loyihalash tendensiyalari meta-tahliliga ko'ra aniqlandiki, ta'lim oluvchilarning kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ta'limiy muhit, ushbu muhitni tashkil etishga xizmat qiluvchi barcha omillar (texnologiyalar, vositalar va b.q) hamda ta'lim natijasi obyektiv tahlil qilinishi lozim. Xususan, ta'lim oluvchilarni faol o'quv faoliyatiga jalb qilish bo'yicha ta'limiy muhitni tashkil etishga doir tadqiqotlar tahlili hamda amaliyotni kuzatish raqobatni rag'batlantiruvchi muhitning samarli jihatlari asoslashga xizmat qildi.

Raqobatni rag'batlantiruvchi muhit. Tadqiqotlarda raqobatni rag'batlantiruvchi muhit bo'yicha ishlarning meta-tahliliy sharhlari uning tuzilish va mazmuni hamda shaxs xulq-atvori va ijtimoiy-emotsional natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatdi. Buning uchun, sinfdagi raqobatni rag'batlantiruvchi muhit amalga oshirilganligidagi muhim o'zgarishlar qayt etib borilishi, o'qitish sifati, sinfni tashkil etish, o'qituvchi va ta'lim oluvchi munosabatlari, jarayonni didaktik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash muhim.

Raqobatni rag'batlantiruvchi muhitda maqsadlar, qadriyatlar va xatti-harakatlar kabi individual darajadagi o'zgaruvchilarning rolini hisobga olish muhimdir. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning ijtimoiylashuvi mavjud g'oyalar va tuzilmalar ta'sirida bo'ladi. Boshqa tomondan, ular ba'zan ijtimoiylashuv yoki kontekstual ta'sirlarning uzoq davom etadigan oqibatlarini ta'minlaydigan barqaror pozitsiyalarni ifodalaydi [4].

Maqsadlar shaxsni ma'lum bir harakatga yo'naltirishda, uning moyillik tendensiyalari va vaziyatli cheklavlarni hisobga olgan holda hal qiluvchi ahamiyatga ega [5]. Maqsadlar valentlik funktsiyasi sifatida farqlanadi - ular muvaffaqiyatga erishishga yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochishga qaratiladi. Maqsadlar ta'lim kontekstini belgilash, raqobatni rag'batlantiruvchi muhitda dolzarbdir.

Tadqiqotchilar [19, 20] ta'kidlaganidek, o'qituvchilar va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi proksimal jarayonlarning (proksimal rivojlanish zonasi [11] raqobatni rag'batlantiruvchi muhitga sezilarli va uzoq davom etadigan ta'sir ko'rsatishi ehtimoli ko'proq.

Ba'zi tadqiqotchilar [19] raqobatni rag'batlantiruvchi talim yoki tahlil qilish (qiyosiy baholash) amaliyotlari ba'zi psixologik xususiyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab o'tishgan.

Yuqorida ta'kidlaganidek, raqobatni rag'batlantiruvchi talim yoki tahlil qilish (qiyosiy baholash) ta'lim oluvchilarning o'z kompetensiyalarining ifodalanishiga ta'sir qiladi, o'zining o'quv faoliyati boshqalarning o'quv faoliyati bilan o'zaro bog'liqligini anglaydi.

Raqobatni rag'batlantiruvchi tuzilmaga tashqi ta'sir qilish orqali o'qituvchilar raqobat muhitini yaratishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim oluvchilar raqobatbardoshlik xususiyatini o'zlashtirganlarida, ular o'zlarining raqobatga asoslangan faoliyatini loyihalashtiradilar.

Ta'lim oluvchilar o'rtasida raqobatni rag'batlantiradigan ta'lim tuzilmalarini o'rganish uni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Aytish lozimki har qanday muhit ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga ta'sir qiladi. Ijtimoiylashuv jarayonlari dominant tuzilmalar maqsadlarini ifodalaydi va bu ma'lum guruhlar bilan birga individual darajada ham namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida raqobatni rag'batlantiruvchi muhitni yaratish individual omillar (masalan, individual farqlar) kontekstual omillar (masalan, baholash kabi rag'batlantiruvchi tuzilmalar) kiritilganligiga bog'liq.

Qadriyatlar individual qarorlar qabul qilish, munosabat va xatti-harakatlarni tushuntirishga yordam beradi [16]. O'z-o'zini rivojlantirishda yuqori darajadagi qadriyatlar o'z manfaatlariga intilishni anglatadi. O'z-o'zini rivojlantirish qadriyatlari barcha qadriyatlar tizimida mavjud. Qadriyatlarining ahamiyati insonlar, vaziyatlar, makon va zamonda farq qiladi. Xususan, qadriyatlar raqobatni rag'batlantiruvchi muhitda yetarlicha namoyon bo'ladi.

Qaror qabul qilish masalan, o'quvchilarni qobiliyatlari asosida o'quv guruhlariga ajratish amaliyotini ko'zda tutadi [6]. Qiyosiy tahlil qilish (qiyosiy baholash) muayyan o'quv dasturlari va ta'lim oluvchilarning o'ziga xos ehtiyojlari hamda qobiliyatlari o'rtasidagi muvofiqlik yoki nomuvofiqliklarni yaxshiroq aniqlashga imkon beradi.

Bu jarayonda o'qituvchilar raqobatni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni qabul qilish va o'zlarining kasbiy amaliyotlarida neoliberal javobgarlik tamoyili asosida qo'llash lozim [21]. Shu nuqtai nazardan, ular nafaqat mavjud raqobatni rag'batlantiruvchi tuzilmalar (normativ baholash va qiyosiy tahlil qilish (qiyosiy baholash)) bilan ishlashadi,

balki raqobat muhitini ham yaratadilar. Ammo, ta'kidlash lozimki, sinfda raqobatni rag'batlantiruvchi muhitni yaratish, maqsadlar mazmunini aniqlashtirish va natijalarni prognozlash jarayonning natijadorligini belgilaydi.

Barcha raqobatni rag'batlantiruvchi tuzilmalar ham yoki dispozitsiyalar ham samaradorlikni oshirishga olib kelmaydi. Bu raqobatni rag'batlantiruvchi muhitida qo'zg'atilgan ishlash maqsadlariga bog'liq [8, 9].

Ta'lim o'zida dominant go'yalar, qadriyatlar va me'yorlarni aks ettiradigan, jamiyat bilan rezonanslashadigan va ta'lim oluvchilarni uning qadriyatlarini va amaliyotlarini qabul qilish uchun ijtimoiylashtiradigan yaxlit tizim.

Tizim sifatida ta'lim, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etadi. Ta'limda shuningdek, individual va ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan mexanizmlar ham mavjud. Ammo ular juda kam foizni tashkil qiladi. Bugungi kunda har bir bolaning o'ziga xos rivojlanishiga qaratilgan tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish, hamkorlikni rag'batlantirish va rivojlanishning kognitiv, axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy va jismoniy jihatlariga teng ahamiyat berish [3] masalalariga e'tibor kuchayib bormoqda.

Raqobatni rag'batlantiruvchi ta'lim jarayonini tashkil etishda quyidagi tarkibiy qism elementlari muhim: ma'lumot berish va tavsiflash, muzokaza va hamkorlikni yo'lga qo'yish, fikrlarni qayta ko'rib chiqish.

Bunday muhit orqali ta'lim oluvchi yangilikga ochiqlik, o'quv faoliyatiga ishtiyiq, tahlil orqali fikr yuritish, talqin qilish, tavsiflash, kombinatsiyalar hosil qilish kabi ko'nikmalarni namoyon qiladi.

Buning uchun ta'lim oluvchilarga quyidagi yo'naltiruvchi vazifalar beriladi: ta'lim oluvchining o'zi bilgan tushunchalari va o'rganilayotgan mavzu o'rtasida bog'liqlikni anglashga o'rgatish; yangi tushunchalarni mustahkamlash va ifodalash uchun o'z go'yalariga asoslanish; aniq dalillarga asoslanib, turli fikrlar va ularning alternativ variantlarini ko'rib chiqish; muammo yoki mavzu bo'yicha ma'lumotlar bilan ishlashda ma'lum maqsadga yo'nalganlikni ta'minlash; turli farazlar, boshqa subyektlarning fikrlarini ko'rib chiqish va ularni o'zaro muhokama qilish.

Raqobatni rag'batlantiruvchi ta'limning natijalarini jamiyat, ta'lim tizimi, ta'lim oluvchilarning ichki individual o'zgaruvchilari umumlashtiradi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim mazmunini loyihalash tendensiyalari meta-tahliliga ko'ra aniqlandiki, ta'lim oluvchilarning kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ta'limiy muhitni tashkil etish nafaqat ta'lim kontentini balki uni taqdim etishning tashkiliy-tuzilmaviy shakllarini ham ko'rib chiqishni talab qiladi. Fanlarning o'quv tezaurusini shakllantirish o'qitishda axborotlarni o'zlashtirish jarayonini tizimlashtirishga xizmat qiladi. Fanlarning o'quv tezaurusini shakllantirish masalalari qator ilmiy ishlarda o'rganilgan bo'lib izohli lug'atlarda tezaurus so'zi biron-bir ilm-fan sohasiga oid so'zlar mavzu tartibida joylashtirilgan va ular o'rtasida semantik (jins-tur, sinonimik va b.) munosabatlar aks ettirilgan ideografik lug'at [12] sifatida ta'riflanadi.

So'ngi yillarda ta'lim tizimiga axborotli yondashuv bo'yicha tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Bu yondashuv nuqtai nazaridan o'qitish tezaurus shakllantirishga qaratilgan axborotli jarayon deb qaraladi [24].

Pedagogikada tezaurus tushunchasi L.T.Turbovich tomonidan tavsiya etilgan o'qitishning axborotli-semantik modelida paydo bo'lgan. Muallif ushbu modelda tezaurusni shaxs xotirasida mujassamlangan va saqlab qolingan tushunchalar, baholash va me'yorlar, shu jumladan, harakatlar sxemasi xazirasi deb ta'riflaydi. Ushbu modelga muvofiq, shaxsning ongini shakllantirish uning tushunchaviy psixologik tezaurusini shakllantirish bilan ayniylashtiriladi [22].

Tadqiqotlarda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish jarayonining talablarini qondirish uchun ta'lim tezaurusini loyihalash tamoyillari taklif qilingan. Fanlarning o'quv tezaurusini shakllantirish kontseptual rekursiya va takrorlanishning oldini olish, belgilangan tushunchalar sonini cheklashning oldini olish, kontseptsiyalarni aniqlash, ma'lumotlarni to'ldirish va tartiblashning samarali protseduralari va algoritmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi, tushunchalar kiritilishi mumkin bo'lgan boshlang'ich pozitsiyasini topishga imkon beradi. Bu fanlarning o'quv tezaurusini shakllantirish zaruratini ifodalaydi.

O'zlashtirilgan axborotlarni barcha hayotiy faoliyatlar davomida qo'llay olishda albatta tayanch tushunchalar, ma'lumot, faktlar, tavsiflarga tayaniladi. Tushunchalar bilishning elementar ob'ekti bo'lib, subyekt va obyekt xususiyatlarining o'ziga xos kombinatsiyasini ifodalaydi. Ma'lum bir tushuncha turli fan doirasida ba'zan turli kontekstda o'rganiladi shuningdek, bir xil tushunchalar boshqa kontekstlarda va kundalik tilda mavjud bo'lgan ma'nodan chetga chiqishi mumkin bo'lgan o'ziga xos ma'nolarni berishiga ahamiyat qaratiladi.

Ta'lim oluvchilar o'rganadigan fanlar soni va undagi ma'lumotlar hajmi ortishi bilan ma'lum va noma'lum tushunchalar muvozanati asta-sekin o'zgaradi. Adabiyotlarda shaxsning bilim darajasi shaxsiy tezaurus orqali baholanishi mumkinligi ta'kidlanadi [1]. Fanlarning o'quv tezaurusini shakllantirishda pedagogik tezaurus tushunchasi ko'rib chiqiladi. A.A.Miroshnichenko [23] pedagogik tezaurusni tuzish texnologiyasi doirasida ish olib borib, pedagogikada tezaurusni ikki guruxga: shaxsiy tezaurus va o'quv tezaurusga ajratib o'rganishning maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, xar bir shaxs ma'lum bir tezaurusga ega, u butun hayoti davomida ichki va tashki omillar ta'siri ostida shakllanadi. A.A.Miroshnichenkoning [23] fikriga ko'ra o'quv tezaurusi, - bu yangi bilimlarni ochishga yo'naltirilgan, barcha ko'nikmalarni, barcha operatsiyalarni o'z ichiga olgan faoliyat vositasi, bu talim oluvchiga o'z faoliyatini tashkil qilishga, tuzatishga, tartibga solishga yordam beruvchi vosita, bu talim oluvchini eng kam kuch va vaqt sarflash bilan belgilangan natijalarga eltuvchi vosita. O'quv tezaurusi, avvalo deskriptorlarni — tayanch tushunchalar va berilgan tushunchalar bilan bajariladigan mantiqiy operatsiyalarni o'z ichiga oladi [17]. Demak, A.A.Miroshnichenko fikrini va ta'limga faoliyatli yondashuvni [23] e'tiborga olsak, o'quv tezaurusining mazmuniga o'quv fanining tayanch tushunchalari

— deskriptorlar bilan bir katorda o'quv faoliyat usullari (umum o'quv faoliyat usullari, ma'lum bir fan bo'yicha umum faoliyat usullari, ma'lum bir fanning alohida bo'limlariga xos faoliyat usullari asosiy masalalarni yechish bo'yicha xususiy faoliyat usullari), xar bir mavzu buyicha asosiy masalalar tizimiva bu masalalarni yechish buyicha faoliyat usullari kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fanlarning o'quv tezaurusini shakllantirishda: soha bo'yicha tushunchalarni ta'lim berish maqsadlari nuqtayi nazaridan ko'ri chiqish; tushunchalarni tartibga solishning mavjud tamoyillari aniqlash; ommabop tezaurilar rekursiyadan himoyalalmaganligini hisobga olish; tezaurusni to'ldirish va tartiblash usullari ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, fanlarning o'quv tezaurusini shakllantirishda: 1. Tushunchalar ularning qismlari orqali aniqlanadi (masalan, aylana – hamma nuqtalari markazdan baravar uzoqlikda bo'lgan yopiq egri chiziq; kub – hamma tomoni teng kvadratdan iborat olti yoqli geometrik shakl). Bunda, ta'lim oluvchi tushunchani uning qismlarini tushunmaguncha taniy olmaydi. 2. Tushunchani unga qarama-qarshi ma'noli tushuncha bilan asoslash (taqqoslash, ifodalash, aniqlashtirish). Bunda, tushuncha haqidagi kontseptsiyani tushunish uchun foydalanuvchi qarama-qarshi tushunchani bilishi (anglashi, tan olishi) kerak. 3. Ma'lum tushuncha haqidagi turli izohlar (ta'riflar, konseptiyalar) orasidan adekvat (adekvat (lot. *adaequatus* — tenglashgan, mos, aynan bir, o'xshash) — bilish nazariyasida narsa va hodisalarning xossalari va aloqalarini ularning ob'ektiv mazmuniga to'g'ri keladigan, aniq va mos qilib olish. Inson ongi ob'ektiv borliqni ijtimoiy amaliyot asosida adekvat aks ettira boradi [13]) bo'lgan izohlar (ta'riflar, konseptiyalar) ni aniqlash (asoslash, ko'rib chiqish). 4. Ba'zan tushunchalar qayta izohlash (ta'riflash, to'ldirish) qo'llab-quvvatlamaydi. Ularning ta'riflari mutlaqdir va ularni ta'lim oluvchining bilim darajasiga moslashtirib bo'lmaydi.

P.Pushkareva [25] o'quv fani tezaurusini tuzish bo'yicha taqqoslamali-tezaurusli metodni taklif qilgan. Bu metodning mohiyati quyidagidan iborat: dastlab fanlarni o'qitishda foydalaniladigan adabiyotlar saralanadi va bu adabiyotlardan foydalanib, tayanch suzlar va iboralar ajratiladi xamda deskriptorlar ro'yxati shakllantiriladi. Keyin esa bu ro'yxat DTS talablari bilan taqqoslanadi, har bir integrativ fanlarni o'qitish nuqtai nazardan tuzilgan deskriptorlar taxdil qilinadi va zarur bulsa, tuzatishlar kiritiladi, talim oluvchilarda shakllantirilishi zarur bo'lgan umummadaniy va umumkasbiy kompetensiyalarga mos deskriptorlar saralanadi.

Mavzu doirasida ishlab chiqilgan tezaurus talaba qanday tushuncha va xususiyatlarni bilishi kerakligi, u qanday asosiy masalalarni hal qila olishi, ushbu asosiy masalalarni hal qilish uchun faoliyat usullarini tasvirlashga yordam beradi [18]. Mavzu doirasida tezaurus ishlab chiqish o'qituvchilarning o'quv ma'lumotlarining tuzilishi va ularni tanlash bo'yicha tayyorgarligiga bog'liq. Belgilangan ta'lim ma'lumotlarini ishlab chiqish va taqdim etish uchun o'quv tezaurusi taklif etiladi. O'quv tezaurusi ko'plab ta'liy elementlarni va ular orasidagi aloqalarni ifodalaydi.

O'quv tezaurusini shakllantirishda o'qituvchi o'quv fanining mazmuniga qo'yiladigan asosiy talablarni (Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlar va boshqalar), ta'limni differentsiallashtirishning mumkin bo'lgan yo'nalishlarini hisobga olishi kerak. Natijada, ta'lim tezaurusi uchta komponentni o'z ichiga oladi. Birinchi, invariant tezaurus, uning mazmuni barcha talabalar uchun yagona talablar bilan belgilanadi. Ikkinchi, o'zgaruvchan tezaurus o'qitishning differentsiallanish yo'nalishlariga muvofiq invariant tezaurusni to'ldiradi. Uchinchi, adaptiv tezaurus birinchi ikki komponentni o'quvchilarning individual xususiyatlariga va ta'lim ehtiyojlariga moslashishini ta'minlaydi. Invariant va o'zgaruvchan tezaurusning mazmuni ko'p jihatdan berilgan ta'lim ma'lumotlari bilan belgilanadi [23]. O'quv tezaurusining asosi o'zgaruvchan tezaurusdir. O'zgaruvchan tezaurusni shakllantirishda o'qituvchi harakatlarining subyektivligi butun ta'lim tezaurusining buzilishiga olib keladi. O'qituvchining kasbiy faoliyati asosida adaptiv tezauriyani shakllantirishga tayyorgarligi rivojlanib boradi. O'quv tezaurusini ishlab chiqishda o'qituvchi o'zgaruvchan va o'zgaruvchan tezauriyalarning mazmuni, ularning o'quvchilar shaxsiy tezaurisi bilan optimal munosabati haqida ma'lumotlarni bilishi kerak. Ya'ni, o'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlariga va ta'lim ehtiyojlariga moslashtiriladigan ta'lim elementlarining tuzilmalari haqida o'quv ma'lumotlariga ega bo'lishi kerak [23].

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim mazmunini loyihalash tendensiyalari meta-tahliliga ko'ra aniqlandiki, ta'lim oluvchilarning kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim jarayonidan ko'zda tutilgan natijalarni tahlili ko'rib chiqishni ham talab qiladi. Fikrlash deyarli barcha yosh guruhlariga uchun muhim. U muammolarni hal qilish uchun o'quv faoliyatidan maqsadli foydalanishni tavsiflaydi. Fikrlash va harakatning integratsiyasi o'quv faoliyatini amalga oshiradi. Masalan, topshiriqlarni hisoblash fikrlash va jismoniy harakatni birlashtiradi. Shu jumladan real muammolar va aniq natijalarni o'rganish uchun fikrlash va harakatning integratsiyasi. Shaxs kompetentligi sifatida fikrlash va harakatni sinxron amalga oshirishni ko'zda tutiladi.

Jamiyatning ijtimoiylashuv sur'ati, raqamli transformatsiyaning hozirgi tendensiyasi shaxslar, ma'lim guruhlar uchun yangi talablarni keltirib chiqaradi. Turli darajalarda va turli kontekstlarda yangi kompetensiyalar talab qilinadi. Ta'lim tizimining turli bosqichlariga muvofiq fikrlash va harakatning integratsiyasini takomillashtirish muhim.

Hozirgi vaqtda fikrlash va harakat integratsiyasi asosan psixologik tadqiqotlarda o'rganilgan. Ammo, uning pedagogik jihatlari tahlil qilmagan. Fikrlash va harakat integratsiyasining umumiy ta'rifi mavjud emas. Ularning sinxron amalga oshirilishi quyida ko'rish mumkin: masalan, algoritmik fikrlash algoritmik harakatlarga asos bo'adi, ya'ni algoritmik fikrlash asosida algoritmik harakatlar amalga oshiriladi.

Fikrlash va harakat integratsiyasi - bu muammolarni va ularning echimlarini shakllantirishda ishtirok etadigan fikrlash jarayonlari hamda shu jarayonda ma'lum subtekt tomonidan harakatlarning samarali amalga oshirilishi.

Eng yuqori darajada samaradorlikka (belgilangan maqsadlarning amalga oshirilishi) – zarur qadamlarni belgilab olish, resurslarning etarlicligi, integrativlikni ta'minlovchi kombinatsiyalar orqali erishiladi. Shuningdek bu muammoni hal qilish jarayonini umumlashtirish va bir turdagi muammoni (masalan, nazariy muammoni) boshqa turdagi muammoga (masalan, amaliy ko'rishdagi muammoga) o'tkazishga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, kompetentlik axborotni tizimli qayta ishlash, jarayonni amalga oshirishga xizmat qiluvchi algoritmik tushunchalarni anglash, abstraktsiyalar va umumlashtirishlar (jumladan, jadvallar, diagrammalar, modellar), strukturaviy muammoli dekompozitsiya (modullashtirish); iterative (iteratsiya elementning bir necha marta qaytarilishi mumkinligini anglatadi [10]), rekursiv (rekursiv aloqa shuni nazarda tutadiki, mohiyat o'z-o'zi bilan aloqada bo'lishi mumkin [10]) va parallel fikrlashda namoyon bo'ladi.

Fikrlash va harakatning integratsiyasining mavjud modellar va asosiy tushunchalarni ko'rib chiqishga asoslanib, quyidagi bosqichlarni taklif qilish mumkin [14]: 1) Kontekstni o'rnatish: Har bir ssenariyda kontekstni aniqlashtirish kerak - muammolar – mavzular – domenlar. Ushbu tamoyillar asosida o'qituvchilar va talabalar uchun ta'lim ssenariylari ishlab chiqiladi. O'quv dasturlarini o'quv jarayoniga kiritish uchun kompetensiyalar bilan bog'liq aniq ssenariylarini taqdim etish kerak [7]. 2) Muammoni o'rganish va aniqlash: real voqeliklarga asoslangan ssenariyga ko'ra ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini amalga oshiradi - o'qituvchi jarayonni boshqaradi. Bu faoliyat jismoniy harakatlarni ham o'z ichiga olishi kerak. 3) Transformatsiya: Bu bosqichda ma'lum shaxs tomonidan yechilayotgan muammo ma'lum guruhlar o'quv faoliyatiga o'tkazilishi (yoki aksincha), fikrlash va jismoniy harakatlar asosida yechilayotgan muammo kompyuter faoliyatiga o'tkazilishi kabilar. 4) Muammo yechimiga ega bo'lish (yechimni ishlab chiqarish): Ushbu bosqichda ishlab chiqilgan yechim qayta ko'rib chiqilishi, vizualizatsiya qilinishi, real voqeliklarga asosan prototiplanishi mumkin. 5) Mulohaza: Yakuniy bosqichda ishtirokchilar tomonidan yechim tahliliy ko'rib chiqiladi. Qayta ko'rib chiqishda natijaga erishguncha fazalar (agoritmlar) to'liq qayta ko'rib chiqilishi yoki ketma-ket bo'lishi shart emas, lekin parallel yoki bir necha marta takrorlanishi mumkin.

Turli manbaalarda o'rganish ssenariylarini yaratish va amalga oshirish tamoyillari, bosqichlari ishlab chiqilgan. Tahlillar asosida aytish lozimki, har bir o'quv ssenariysi quyidagilarga ega bo'lishi kerak: Real voqelik muammolariga yo'naltirilganligi: ta'lim oluvchilar real voqelikdagi muammolarni boshdan kechirishlari va aniqlashlari kerak. Ta'lim oluvchilarga muammolarni hal qilish, loyihalarni yaratish uchun o'z g'oyalarini o'rganish va yaratishga ruxsat berish kerak. Shaxsga yo'naltirilganlik: ta'lim oluvchilarni jalb qilish va ularni hal qilish strategiyalarini aniqlashga vakolat berish lozim. O'qituvchilar o'quv jarayonini mo'tadilligini ta'minlash uchun boshqaruvchi, yordamchi sifatida harakat qilishlari kerak (masalan, iskala (scaffolding)).

O'quvchilar motivatsiyasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va ish dasturida ko'rsatilgan bo'lajak mutaxassisning umumiy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan iskala strategiyasini ajratib ko'rsatish mumkin. Ta'lim jarayonida iskala (scaffolding) berish deganda o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga yangi konsept yoki ko'nikmalarni o'rganish va rivojlantirishda ma'lum bir ko'mak berish usuli tushuniladi. Iskala modeli yordamida o'qituvchi o'quvchilarga yangi ma'lumotni berishi yoki biror muammoli vaziyatni qanday hal qilishni ko'rsatib berishi mumkin. Shundan so'ng o'qituvchi asta-sekin orqa planga o'tadi va o'quvchilarga mustaqil ravishda mashq qilishlariga imkon beradi. O'quvchilar to'liq mustaqil ishlay boshlashlaridan oldin, tizimli yordam ("iskala") o'rnatiladi (kichik guruhlarda ishlash amaliyoti kabi). O'quvchilar bir-biriga yordam berish uchun kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi. Ta'limdagi bu jarayon ba'zan "Men bajaraman (o'qituvchi), biz bajaramiz (o'quvchilar guruhlarida), sen bajar (o'quvchilar mustaqil ravishda)" deb ham ataladi. Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchi biror narsa qanday bajarilishini ko'rsatadi, keyin sinf birgalikda mashq qiladi va nihoyat, o'quvchilar individual ishlaydi [15].

Xulosa. Demak, kompetensiyaviy yondashuv integratsiya, fikrlash va jismoniy harakatlarni birlashtirish, integratsiya – kengroq o'rganish tajribasini ta'minlash uchun fanlar kesimida loyihalar yaratish, transformatsiya qilish; fikrlash va jismoniy harakatlarni birlashtirish - har bir o'quv ssenariysiga jismoniy faoliyatni kiritish; transformatsiya - har bir yechimni topishda muammoni fan, mavzular, domenlar kesimida tushunish imkoniyatlarini beradi.

Foydalanilgan adaboyotlar ro'yxati:

1. Aitchison J. and Gilchrist A., *Thesaurus Construction and Use: A Practical Manual*, London: Aslib, 1997, 212 p.
2. Anderman, E. M., & Midgley, C. (2002). *Methods for studying goals, goal structures, and patterns of adaptive learning*. In C. Midgley (Ed.), *Goals, goal structures, and patterns of adaptive learning* (1-20). Hillsdale, NJ: Erlbaum
3. Carnie, F. (2003). *Alternative approaches to education: A guide for parents and teachers*. London: Psychology Press.
4. *Competition in Education*. In S. Garcia, A. Tor, & A. Elliot, (Eds.), *The Oxford handbook on the psychology of competition*. (pp.in press) Publisher: New York, NY: Oxford University Press. December 2021.
5. Elliot, A. J., & Niesta, D. (2009). *Goals in the context of the hierarchical model of approach-avoidance motivation*. In G. Moskowitz & H. Grant (Eds.), *The psychology of goals*. New York, NY: Guilford Press.

6. Hallinan, M. T. (1994). Tracking: From theory to practice. *Sociology of Education*, 67, 79-84. <https://doi.org/10.2307/2112697>
7. Kong, S. C. (2016). A framework of curriculum design for computational thinking development in K-12 education. *Journal of Computers in Education*, 3(4), 377-394.
8. Murayama, K., & Elliot, A. J. (2009). The joint influence of personal achievement goals and classroom goal structures on achievement-relevant outcomes. *Journal of Educational Psychology*, 101, 432-447. <https://doi.org/10.1037/a0014221>
9. Murayama, K., & Elliot, A. J. (2012). The competition–performance relation: A meta-analytic review and test of the opposing processes model of competition and performance. *Psychological Bulletin*, 138, 1035-1070. <https://doi.org/10.1037/a0028324>
10. Nazarov Sh.A. Dasturlash texnologiyalari: darslik / Sh.A. Nazirov, G.S. Ivanova, S.M. Gaynazarov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. — 280 b.
11. Nigmatova M.M. Zamonaviy dunyoda bolaning shaxsiy rivojlanishi muammolari. *Scientific progress*. Volume 2 | ISSUE 7 | 2021. ISSN: 2181-1601. 1166-1171-b.
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2006-2008-yil. www.ziyouet.com
13. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-j. Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2000 y. www.ziyouz.com кутубхонаси
14. Pawlowski, J., Clements, K., Dimitrakopoulou, D., Idzik, M., Muilu, M., Pilv, M., & Sotiriou, S. (2020). Computational Thinking and Acting : An Approach for Primary School Competency Development. In T. Broos, & T. Farrell (Eds.), *EC-TEL-Impact 2020: Proceedings of the Impact Papers at EC-TEL 2020, co-located with the 15th European Conference on Technology-Enhanced Learning "Addressing global challenges and quality education"*. RWTH Aachen. CEUR Workshop Proceedings, 2676. <http://ceur-ws.org/Vol-2676/paper5.pdf>
15. Qodirov O.O. Iskala usulining kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati. *Образование и инновационные исследования*. 2022 год 6.2. ISSN 2181-1717 (E). 105-111-b. <http://interscience.uz>
16. Schwartz, S. H., Cieciuch, J., Vecchione, M., Davidov, E., Fischer, R., Beierlein, C., Ramos, A., Verkasalo, M., Lönnqvist, J.-E., Demirutku, K., Dirilen-Gumus, O., & Konty, M. (2012). Refining the theory of basic individual values. *Journal of Personality and Social Psychology*, 103, 663-688. <https://doi.org/10.1037/a0029393>
17. Turg‘unboev R.M. Matematik analiz fanining o‘quv tezasusini shakllantirish va uning ahamiyati. Mug‘allim hem uzluksiz bilimlendirio‘. *Ilmiy-metodikaliq jurnal*. №2. 2012. 127-132-b.
18. Turgunbaev R.M. Thesaurus approach: on the formation of mathematical competence and competence of future engineers. *Current research journal of pedagogics* 2(7): 26-33, July 2021. DOI: <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crj-02-07-07>. ISSN 2767-3278. 26-33-b.
19. Wang, M. T., Degol, J. L., Amemiya, J., Parr, A., & Guo, J. (2020). Classroom climate and children’s academic and psychological wellbeing: A systematic review and meta-analysis. *Developmental Review*, 57, 100912. <https://doi.org/10.1016/j.dr.2020.100912>
20. Wang, M. T., Hofkens, T., & Ye, F. (2020). Classroom quality and adolescent student engagement and performance in mathematics: A multi-method and multi-informant approach. *Journal of Youth and Adolescence*, 49, 1987–2002. <https://doi.org/10.1007/s10964-020-01195-0>
21. Webb, P. T., Briscoe, F. M., & Mussman, M. P. (2009). Preparing Teachers for the Neoliberal Panopticon. *Educational Foundations*, 23, 3-18.
22. Кожокаръ О.П. Тематический тезаурус как средство развития понятийного мышления в процессе подготовки будущих учителей. //Вестник Сургутского педагогического университета. 2009. №2. С. 95-99.
23. Мирошниченко А.А., Мирошниченко И.Л. Тезаурус как модель задаваемой учебной информации. *Международный научно-исследовательский журнал*. Екатеринбург – 2016. № 12 (54). Часть 4. Декабрь. 56-58-b. DOI: 10.18454/IRJ.2016.54.236
24. Пак Н.И. О концепции информационного подхода в обучении // Вестник КГПУ им. В.П.Астафьева. 2011. № 1. С. 91-98.
25. Пушкарева Т.П. Особенности обучения математиков условиях информационного общества// Приволжский научный вестник. № 3 (7) – 2012
26. Пушкарева Т.П. Формирование интегрированного тезауруса как результат обучения математике//Вестник Красноярского государственного педагогического университета им. В.П. Астафьева 2012, №2.С.132-137

Muallif:

Ruzikulova Nigora Shuxratovna - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti (DSc). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

UDK 372.8

THE ROLE OF PEDAGOGICAL SKILL IN THE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS

TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING O'RNI

РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАВЫКА В ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Rahmatova Feruza Abulqosimovna

Jizzaax davlat pedagogika universiteti 130100.Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy.

E-mail: rahmatova-feruza2024@gmail.com

Abstract. Educational work becomes the basis of healthy life, healthy lifestyle, healthy faith, perfection. In the context of raising a perfect generation, factors such as loyalty to national values, a conscious attitude to maintaining peace and tranquility in society, creating a peaceful and prosperous life, striving to raise social spirituality occupy a key place in educational work. For this reason, today's young people's worldview is filled with various educational activities, such as the nation, Mother Earth, and Motherland, as well as concepts about our rich spiritual heritage. When educating young people, it is necessary to break the concepts of nation, national morality, national pride, national education, national idea, sense of the Motherland, sadness of the Motherland, longing for the Motherland, etc., and expand their national outlook. is one of the main goals of the process.

Key words: Education, idea, pride, education, system, pedagogical skill, competence, knowledge, skill, skill, profession.

Аннотация. Воспитательная работа становится основой здорового образа жизни, здорового образа жизни, здоровой веры, совершенствования. В контексте воспитания совершенного поколения ключевое место в воспитательной работе занимают такие факторы, как верность национальным ценностям, сознательное отношение к сохранению мира и спокойствия в обществе, созданию мирной и благополучной жизни, стремление к повышению общественной духовности. По этой причине мировоззрение современной молодежи наполнено различными просветительскими действиями, такими как нация, Мать-Земля и Родина, а также представлениями о нашем богатом духовном наследии. При воспитании молодежи необходимо ломать понятия нации, национальной морали, национальной гордости, национального воспитания, национальной идеи, чувства Родины, печали о Родине, тоски по Родине и т. д., расширять ее национальное мировоззрение. .. является одной из основных целей процесса.

Ключевые слова: Образование, идея, гордость, воспитание, система, педагогическое мастерство, компетентность, знание, умение, умение, профессия.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi mamlakatda o'sib kelayotgan yosh avlodni ya'ni bo'lajak kadrlarni kompetentli shaxs qilib tarbiyalash eng birinchi masala sifatida qaralmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida "2030-yilgacha Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da milliy ta'lim tizimini yangi natijaga erishishga yo'naltirishda „universal bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning yangi tizimi, shuningdek, ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyat va shaxsiy mas'uliyat tajribasi, ya'ni zamonaviy asosiy kompetensiyalar" sifatida xizmat qilishi keltirib o'tilgani ham bejiz emas.

Bizga ma'lumki har bir o'qituvchi maktabda sinf rahbari faoliyatida ish olib boradi hamda o'quvchilar jamoasi bilan ish yuritadi. Pedagogik mahorat – bu o'qituvchi nutqining ravon va ta'sirchan bo'lishi, o'tilayotgan mavzuga o'quvchi diqqatini torta olishi, mavzuga mos ko'rgazmalar ijod qilib va undan unumli foydalana olishi, har qanday sharoitda ham o'quvchi qalbiga yo'l topa olishini, har bir darsda bolaning qiziqish va faoliyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan kasbiy malakadir. Pedagogik mahorat – izlanish, ijodiy mehnat mahsul. Pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun bir qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida yuzaga keladigan jarayondir.

V.A. Suxomlinskiy o'zining "Chin insonni qanday tarbiyalash kerak" degan asarida "O'qituvchining mehnatini biror narsa bilan qiyoslab ham, taqqoslab ham bo'lmaydi". To'quvchi bir soatdan keyinroq o'z ishining hosilini ko'radi, po'lat erituvchi bir necha soatdan so'ng olovdagi metal oqimidan shodlanadi. Bu uning orzusini yuksak cho'qqisi; yer haydovchi, don sepuvchi g'allakor bir necha oydan keyin dalada o'stirgan boshloqlari va bir siqim donidan zavqlanadi. O'qituvchi esa o'z ijodining mahsulini ko'rish uchun yillab mehnat qilishi kerak. O'qituvchi har bir daqiqa, har bir soniyada o'zining o'ttizta yoki qirqta o'quvchisidan har birini ko'rib turishi, u shu daqiqada nimalar o'ylayotganligini, qanday g'am-alamlar uni tashvishlantirayotganligini bilishi kerak-degan fikrlarni bayon etadi [2].

Pedagogik mahorat bir qator komponentlardan tarkib topadi. U pedagogika va psixologiya bo'yicha ilmiy bilimlarni, ya'ni kasbiy bilimlar, kasbiy qobiliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani o'z ichiga oladi. Pedagogik mahoratning asosiy negizi bu – kasbga oid bilimlarni puxta o'zlashtirishdan iboratdir. O'qituvchi o'quv yurtidayoq ilmiy bilimlar sistemasini puxta egallab olishi kerak. Pedagogik mahoratni egallashda psixologiya va pedagogika faniga doir

bilimlar katta rol o'ynaydi. Ilmiy psixologik va pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchiga faqat o'z sinfini hamda ayrim o'quvchilarni o'rganish va ularning to'g'ri fe'l atvorlarini tushunishgagina emas, balki bolalar jamoasi va uning har bir a'zosini rivojlanish istiqbolini ham belgilash imkonini beradi [3].

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik hamisha uning hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin, qobiliyat esa faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyatli va mahoratli o'qituvchi oldida esa hozirgi kun talabi asosida vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qila oladigan, buyuk vatanni dildan sevadigan va bu yo'lda o'z jonini ham ayamaydigan yoshlarni vatanga mehr – muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasi turadi.

O'qituvchilik kasbi ulug' va sharaflil, murakkab, o'z o'rnida mas'uliyatli kasblardan biridir. Dunyodagi barcha insonlarni komil bo'lib yetilishiga o'qituvchi sababchi bo'ladi. Barcha joylardagi hamma kasb-hunar, ilmiy, olimu-fuzalolar o'qituvchining mehnati samarasidir. O'qituvchi mehnatini biror narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. O'qituvchilik kasbini egallashga intilayotgan har bir inson o'zida avvalo iroda, sabr-matонат, pedagogik mahoratni, o'qituvchilik ixtisosligiga xos bilim, malaka, ko'nikmalarni egallashi lozimdir.

Mahoratli o'qituvchi o'zini mahorat egasi sanasa u quyidagi bilim, ko'nikma, malakalarni egallagan bo'lishi zarurdir. 1.O'qituvchi dunyoqarashi keng, hamma voqea, hodisa ustida erkin fikr yurita olishi zarurdir. 2. Mustaqil O'zbekistonimiz o'qituvchisi birinchi galda o'zi o'qitadigan fanni chuqur egallagan bo'lgandagina o'quvchilarda umumiy va kasbiy ta'lim sifatini oshira oladi va ularda fan - texnika hamda amaliy faoliyatga qiziqish va istak hosil qila oladi. 3.O'qituvchi hozirgi zamon fan-texnika talabiga muvofiq yaxshi dars berishi va uning har minutidan unumli foydalanishi zarur. 4.O'qituvchi yaxshi o'qituvchi bo'lishi uchun pedagogika, psixologiyaga qo'shib, o'z fanining metodikasini yaxshi bilmog'i lozim. 5.O'qituvchining umumiy madaniyati yuqori bo'lishi bilan birga bu kasb adabiyot va san'at sohasidagi bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. 6.O'qituvchi pedagogik odobiga rioya qilishi kerak. Pedagogik odobi o'qituvchilik kasbga xos fazilatlaridan bo'lib, u o'qituvchining bolalar bilan ishlashi jarayonida uning tajribasi mahorati oshadi. 7. O'qituvchi pedagogik mahoratiga va har tomonlama bilimga ega bo'lishi kerak, chunki unga o'quvchilar har sohada murojaat qilishlari mumkin [4].

Bugungi kunda o'qituvchilar, xalq ta'limi xodimlari, o'qituvchilar, maktab va ta'limni boshqaruv rahbarlarining faoliyatini takomillash-tirish, ta'lim-tarbiya sohasidagi mahoratini yuksak darajaga ko'tarish muhim hisoblanadi. Chunki pedagogik kadrlarga qo'yiladigan talablar kundan-kunga o'sib bormoqda. Buning uchun o'qituvchi o'z fanini chuqur egallagan bo'lishi bilan birga xalq hayoti, manfaatlari, so'rovlari va ehtiyojlariga xizmat qilishi muhimdir. Ayniqsa, XXI asr yoshlarining ma'naviy dunyosini yaxshi bilishi va ularda mustaqil fikrlash, milliy ong va tafakkurni tarbiyalash o'qituvchining asosiy vazifasidir.

O'qituvchilar tarbiya jarayoni mazmuni, shakllari va usullarini pedagogik, axborot, kompyuter texnologiyalari asosida amalga oshirishi pedagogik mahoratning asosi hisoblanadi. O'qituvchining mahorat xususiyatlari uning faoliyatida shakllanadi. Demak, pedagogik mahorat bu uning shaxsiy faoliyatining mohiyati hisoblanadi. Bu uning yetukligi va kasbiy burchini namoyon etadi. Pedagogik mahoratning yuqori darajada bo'lishi oliy o'quv yurtlari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari rahbarlari va maktabning barcha o'quv fanlari o'qituvchilari, bolalar bog'chalari tarbiyachilarining ta'lim-tarbiya faoliyati bilan bog'liq. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, inson qalbiga yo'l, avvalo, ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchi mahoratidan boshlanadi. Shuning uchun ham o'qituvchi ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosdan foydalanishi, buyuk zotlarning olijanob mehnatini hurmat bilan o'quvchilarga tushuntirishi yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda muhim hisoblanadi. Yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini yaxshi tasavvur qilish ko'nikmalarini shakllantiradi [3], [4].

Bu yorug' olamda har bir odam o'zining mehribon ustoz va muallimlariga nisbatan hamisha minnatdorlik tuyg'usi bilan yashaydi. Demak, o'qituvchi o'z umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, bevosita uning faoliyatida o'quvchining yetuk shaxs va malakali mutaxassis bo'lib shakllanishi ulkan ahamiyatga ega. Shu jihatdan ham o'qituvchilarda birinchi navbatda o'qituvchilarda boshqaruv psixologiyasini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Chunki, tashkilotchilik va boshqaruvchilik o'qituvchi pedagogik mahoratining asosini tashkil etadi. Sinf rahbarining boshqaruvi ta'limning samarador bo'lishida jamoaga va ba'zi bir o'qituvchilarga doimiy ta'siri natijalarini namoyon etadi. O'qituvchi uchun har bir sinf boshqaruv obyektini hisoblanadi. Uning o'ziga xos parametrlari mavjud.

Bizga ma'lumki, har bir o'quvchi – o'zining qobiliyatlari, did-farosati, maqsadlari bilan shaxs hisoblanadi. Shu jihatdan ham o'qituvchi boshqaruv jarayonida o'z o'quvchilarini turli topshiriqlarni bajarishga, o'quv materiallaridan foydalanishga, voqea va hodisalarni tushunish kabilarni amalga oshirishda faol bo'lishga o'rgatishi lozim. Shu bilan birga bir vaqtning o'zida o'qituvchi gaplashib o'tirgan o'quvchilarga e'tibor qilmasdan ularning diqqatini hisobga olgan holda o'quv materiallarini tushuntiradi. Keyingi mavzuni boshlash uchun vaqtning yetarli ekanligini, hozirgi o'tilgan mavzu bo'yicha savollarga kimlar javob berishini aniqlaydi. O'qituvchining faolligida kechiktirib bo'lmaydigan holatlar ham uchrab turadi. Chunki, sinf turli voqealarga boy va ba'zi bir jarayonlarda kechiktirib bo'lmaydigan holatlarga ega. Bunday sharoitda o'qituvchi tezlik bilan o'quvchilarning gap tashlashlari, sukut saqlashlari, urush va kulishlari, xafachilik va tushunmasliklarini e'tiborga olib, ular bilan axborot almashib turishlari o'z samarasini beradi.

Boshqaruvda muloqotning oshkoraligi muhim o'rin tutadi. O'qituvchi va o'quvchilar doimo o'zlarini sahnada yurgandek his etadilar. Har bir so'z va harakatga atrofdegilar baho berishadi. O'qituvchining to'g'riligi, uning haqiqatgo'yiligi, uning yaxshi ko'radiganlari bormi yoki yo'qligini o'quvchilar kuzatadilar. Shu jihatdan ham muloqot oshkoraligi qabul qilingan normalar va belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi - o'z o'quvchilarini u yoki bu vaziyatda qanday tutishi kerakligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Sinf faoliyatidagi o'zaro munosabatlar o'qituvchi yoki o'quvchining ba'zi bir xatti-harakatlari, ilgari bo'lib o'tgan voqea-hodisalarga bog'liq. O'quvchining doimiy darsga kech kelishini birinchi martadagidan ko'ra boshqacha qabul qilishadi. Albatta bunday holatlarda o'zaro yordam va hamkorlik tashkil etish muhim. O'qituvchi uchun eng asosiy vazifa boshqarish hisoblanadi. Ushbu qo'yilgan maqsad sinfdagi o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan o'zaro yordamini oshirish, bolalarni o'qitishda hamkorlik, topshiriqlarni bajarishda kichik guruhlarni tashkil etish o'z samarasini beradi [3].

Tarbiya jarayonini boshqarishning muhim xususiyatlaridan biri ongli va reja asosida ta'sir qilishdir. Tarbiya beruvchi va tarbiya oluvchi o'rtasidagi boshqaruv aloqalarining amaliy holatga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratish o'quvchining ijobiy holatlariga, qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo'ladi. Ya'ni boshqaruv tizimida ma'lum bir shart-sharoitlarda berilgan topshiriqlarni bajarish turli xil ichki va tashqi sabablarga qaramasdan belgilangan vazifalarni qo'llab-quvvatlash, belgilangan vazifalar harakati tizimini saqlash qobiliyatiga ega bo'lish, qat'iylik kabilar kamol topadi.

Boshqaruv jarayonida harakat, natija, yangi maqsad tizimining shakllanishi o'quv-tarbiya faoliyati samaradorligini oshiradi. Tarbiya jarayonining boshqarish samaradorligi ma'lum bir talablarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Ular quyidagilardan iborat: tarbiya maqsadlarini shakllantirish; tarbiyani boshqarish jarayonida sinf o'quvchilari holatini o'rnatish; tarbiya jarayonida asosiy masalalarni harakatga keltiruvchi dastur ishlab chiqish; tarbiya jarayoni holati haqidagi axborotlarni ma'lum parametrlar bilan qabul qilish; axborotlarni qayta ishlab ularni tahlil qilib, tarbiya jarayonida foydalanish [3].

O'qituvchi o'z faoliyatida maxsus fanlarni chuqur egallash bilan chegaralanib qolmay, balki pedagogikaning metodologik va nazariy asoslarini chuqur tahlil etishi va mustaqil yo'nalishga ega bo'lishi va kasbiy maqsadni ko'zlashi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati uning mustahkam bilimlari va tashkilotchiligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlama kamolga yetgan, barkamol inson qilib tarbiyalash, ularda iymon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, do'stlik, insonga cheksiz muhabbat, muruvvatlilik, qanoatlilik, sabr-toqatlilik, saxiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirishda o'qituvchilarning pedagogik mahorati benixoyat kattadir. Chunki, o'qituvchining pedagogik jarayonlarini tashkil etish mahorati tarbiya jarayonlarini tashkil etish asosida komil insonni voyaga yetkazadi. O'qituvchi tarbiya orqali o'quvchilarning ongi va irodasini o'stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos mazmunini amalga oshiradi. Ya'ni, o'qituvchi bolaga yoshlikdan tarbiya berib, katta bo'lganda baxtli bo'lishini ta'minlaydi.

O'quvchilarni ma'naviy boy, jismoniy jixatdan sog'lom qilib tarbiyalashda, tarbiyaviy darajasini aniqlashda o'qituvchi chuqur bilim, keng Mahorat va tarbiyachilik-san'atini namoyon etadi. Albatta bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, islom ta'limoti, o'zbek milliy urf odatlariga amal qilish asosida o'quvchi shaxsini shakllantiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki tarbiyaviy jarayon ongli, ma'suliyatli faoliyat bo'lib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib yetishtirishda unga xar tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachi o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy darajasini o'rganib, unga ta'sir ko'rsatish Mahoratiga ega bo'lishi, tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchilarning ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi, takomillashtirishi, tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshirishda o'z bilimini va mahoratini boyitib borish lozim [4].

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tarbiyachi-o'qituvchilarga katta ma'suliyatni yuklaydi. Bu jihatdan o'qituvchining pedagogik mahorati davr talabiga javob bermog'i lozim. Shuni alohida ta'kidlash kerakki jarayonida o'qituvchining iste'dodi, ilmi va tajribalari xar bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini xurmat-lash, uning ijtimoiy xuquqiy va erkinliklarining e'tiborga olish imkoniyatini beradi. O'qituvchi tarbiya jarayonida milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanishi, jaxon madaniyatining ilg'or tajribalariga asoslanishi, o'quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli bolalarning yosh jixatlarini e'tiborga olib, ular faoliyatiga mos xayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy foydali, ijtimoiy ko'ngilochar va shunga o'xshash tadbirlar tashkil etish lozimki, natijada o'quvchilar o'zlari xoxlagan ishga qo'l ursinlar, muvaffaqiyat xissini tushunib o'zlariga ishonchlari ortsin, axloqan barqaror bo'lsin. O'qituvchi o'zining tarbiyachilik mahoratida milliy istiqlol ozod va obod vatanga muhabbat va insonparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, nafosat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, komil insonni voyaga yetkazish kabilarga e'tibor berishi lozim [4].

Demak, o'qituvchi jamiyat hayotida yetakchi o'rin tutuvchi, murakkab shaxs strukturasi ega bo'lgan insonning kasbiy qiyofasidir. Ijtimoiy turmushning barcha sohalarida erishilgan yutuqlarning zaminida uning mexnatining natijalari yotadi. O'qituvchilarning pedagogik, psixologik tayyorgarligi va bilimlar integrasiyasi, muomala madaniyati, psixologik vaziyatlarni e'tiborga olish kabilar kuchli bo'lishi kerak. Yuksak saviyali, zo'r mahoratli tarbiyachilargina xalq orzusidagi barkamol insonni tarbiyalaydi. Shu maqsadda ko'ngilga eng oliy orzulari jamlab, o'qituvchi ter to'kib ishlaydi. Ularning mehnatni hurmat qilib, bergan bilimlarni egallamoq kerak. Behbudiy aytganlaridek: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir". Ibn Sino ta'kidlaganidek "Kimga qanday pandu nasixat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil".

Xalqimizda tarbiyachilik san'ati qadimdan juda yuksak darajada rivojlangan. Sharq mutafakkirlari, pedagogik olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyatini va mazmunini asoslab berganlar. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning milliy va nazariy asoslari mavjud bo'lib, o'qituvchilar o'zlarining tarbiyachilik faoliyati jarayonida; mustaqillik tufayli o'zbek xalqining milliy, diniy qadriyatlarining keng ro'yobga chiqishi; ma'rifatparvarlik va jadidchilik harakatining tarixiy asoslari; ona tilimiz, uning sofligini asrash; Turkiston xalqlarining avlod-ajdodlari yaratgan xalq og'zaki ijodiyotining milliy tarbiya vositasi sifatida qo'llanishini yuzaga chiqarish va keng foydalanish; xalqimiz yaratgan milliy urf-odatlar va an'analarimizdan keng foydalanish; Qur'oni Karim va Hadisi Sharifdagi inson kamoloti haqidagi g'oyalarni yoshlarga o'rgatish; ma'rifatparvar, mutafakkirlar, milliy qahramonlar faoliyati, ularning asarlarini o'rganish, ilg'or tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi ta'limotlarga amal qilish va boshqalar.

Xulosa. Bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitning murakkab tus olishi yoki ta'lim tizimiga nisbatan yangi talablarning yuzaga kelishi pedagoglarning o'z faoliyatlarini tubdan o'zgartirishga hamda izchil, aql zakovatni ishga solgan holda ish tutishni taqozo etmoqda. Bu bir tomondan davr talabi ekanini, ikkinchi tomondan shart-sharoitga nisbatan tub burulish hosil qilish yoki shaxs faoliyatini yo'naltirishda yangicha munosabatda ish tutish talab etiladi. Chunki, mamlakat ravnaqini ta'minlashda ijobiy o'zgarishlarning kiritilishi o'qituvchining pedagogik mahorati bilan belgilanadi. Sinf rahbari o'quvchining ichki dunyosini tushunish, boshqa odamlar bilan aloqa o'rnatish, o'quvchiga faol ta'sir o'tkazish, hamma bilan til topishib ketish, vazminlik, odamlarni ishontirish qobiliyati, bosiqlik va o'zini tuta bilish, talabchanlik, qat'iylik, g'ayratlilik, chidamlilik, raxbarlik va tashkilotchilik, o'zi va boshqalarning xulqini boshqarish, mustaqil va ijodiy fikrlashi muhimdir. Sinf rahbarining pedagogik Mahorati doimo o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini tug'diradi va uning samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Suxomlinskiy V. Bolalarga jonim fido. -T.: O'qituvchi, 1984. – 254 b.
3. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010. – 144 b.
4. Ishmumammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 141 b.

Muallif:

Rahmatova Feruza Abulqosimovna - JDPU, Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedra mudiri, dotsent.

UDK 372.800.2

CRITERIA FOR MONITORING AND EVALUATING THE RESULTS OF TEACHING COMPUTER SCIENCE

INFORMATIKANI O'QITISH NATIJALARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH MEZONLARI

КРИТЕРИИ КОНТРОЛЯ И ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАТИКИ

Toshtemirov Doniyor Eshbayevich

Guliston davlat universiteti. 120100. Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: doniyor120373@gmail.com

Abstract. The article describes the results of a study of criteria for monitoring and assessing learning outcomes in computer science courses in higher education institutions. In higher educational institutions, the main training sessions for the course "Computer Science and Information Technologies" consist of theoretical, practical and laboratory classes. Each lesson in a computer science and information technology course should have a set of expected outcomes. The fact that a teacher achieves more results during a lesson than expected from the lesson leads to an increase in the effectiveness of the lesson, and in addition, the effectiveness of student learning. When determining the effectiveness of a lesson, the criteria for monitoring and evaluating learning outcomes are of particular importance.

Key words: computer science, information technology, theoretical classes, practical classes, laboratory classes, control, assessment.

Аннотация. В статье описаны результаты исследования критериев контроля и оценки результатов обучения по курсу информатики в высших учебных заведениях. В высших учебных заведениях основные учебные занятия по курсу «Информатика и информационные технологии» состоят из теоретических, практических и лабораторных занятий. Каждый урок курса информатики и информационных технологий должен иметь набор ожидаемых результатов. Тот факт, что учитель в ходе урока достигает большего результата, чем ожидалось от урока, приводит к повышению эффективности урока, а кроме того, эффективности обучения учащихся. При определении эффективности урока особое значение имеют критерии контроля и оценки результатов обучения.

Ключевые слова: информатика, информационные технологии, теоретическая занятия, практическая занятия, лабораторные занятия, контроль, оценка.

Kirish. Informatika fanini o'qitishda axborot texnologiyalarini rivojlantirish, ularni xalq xo'jaligi tarmoqlariga samarali joriy etish, aholining axborot texnologiyalariga oid savodxonligini oshirish masalalari asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Informatika, kompyuter, Internet, AKT, raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, elektron hukumat, dasturlash tillari, dasturlash texnologiyalari, tarmoq texnologiyalari kabi asosiy atama va tushunchalar bugungi kunda rivojlangan jamiyatning asosiy ko'rsatkichlariga aylanib bormoqda.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Informatika fani bo'yicha har bir dars o'ziga mos kutiladigan natijalarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi dars o'tish jarayonida darsdan kutiladigan natijalardan ko'ra ortiqroq natijaga erishishi dars samaradorligini, qolaversa, ta'lim oluvchilar o'zlashtirishining samaradorligini oshirilishiga olib keladi. Dars samaradorligini aniqlashda o'qitish natijalarini nazorat qilish va baholash mezonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, kuzatish kabi metodlardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Oliy ta'limda Informatika va axborot texnologiyalari kursi bo'yicha asosiy o'quv mashg'ulotlari nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlaridan iborat bo'ladi. Nazariy mashg'ulotlarning mazmuni quyidagilardan iborat bo'lishi alohida ahamiyatga ega: beriladigan ta'limni biror bir maqsadga yo'naltirilganligi; huquqiy, pedagogik va psixologik tamoyillarga asoslanganligi; umumiy qabul qilingan standartga asoslanganligi; ma'ruza jarayonida o'quvchilarni mavzuga oid fan yangiliklari, kashfiyotlari bilan tanishtirib borish. Talabalarning Informatika va axborot texnologiyalari kursidan nazariy bilimlarini aniqlashda, og'zaki topshiriqlarni baholash, test, savollarga yozma javob yozish kabi baholash metodlaridan foydalaniladi. Nazariy bilimlarni baholash deganda, erishilgan natijalarni qamrab, aniqlash, shuningdek, uni mo'ljallangan natijani baholash mezonlari bilan taqqoslash, ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsad natija ko'rsatkichlarini qanday darajada o'zlashtirganini aniqlash tushuniladi. Ta'lim beruvchi savol bergan vaqtda ta'lim oluvchi hamma vaqt to'g'ri javob beradi deb, kutmaslik kerak, chunki psixik omil (tanglik, erkin bo'lolmaslik, qo'rquv) tufayli haqiqiy natija yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Nazariy bilimni baholash orqali butun ta'lim tizimi va uning barcha komponentlari tekshirib ko'rilishi mumkin. Shuningdek, ta'lim tizimi ko'zlanayotgan natijani berayotganligi yoki yo'qligi tekshirilib ko'riladi. Nazariy bilimlarni baholash ta'lim oluvchining o'zligini anglashi uchun yana bir imkoniyatdir [1], [2].

Informatika va axborot texnologiyalari kursi bo'yicha amaliy mashg'ulot davlat ta'lim standartiga mos ravishda axborot texnologiyalaridan, real ish sharoitlarida biror topshiriqni yoki topshiriqlar majmuasini bajarish uchun bilim, ko'nikma va malakalarning qo'llash layoqatidir. Axborot texnologiyalaridan amaliy darslarda talabalar nazariy darslarida olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash, turli amaliy mashqlar bajarish orqali tegishli ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini aniqlab boradilar. Informatika va axborot texnologiyalari kursi bo'yicha talabalarning o'zlashtirgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun amaliy mashq bajarish quyidagi talabarga amal qilishi lozim: Topshiriqning maqsadi talabalarga aniq va ravshan tushuntirib berilishi, topshiriqning mazmuni va uning ishlash yo'llari puxta uqtirilishi lozim; Talabalar diqqatiga taqdim etilayotgan amaliy mashq guruhdagi har bir talabaning intilish va qiziqishlarini hisobga olgan holda berilishi lozim; Topshiriq qat'iy tizim va izchillikka ega bo'lishi kerak; Axborot texnologiyalardan amaliy mashg'ulotni bajarishdagi ma'lum bir qoidalar, shu mazmundagi boshqa topshiriqlarni bajarishda ham osonlik bilan qo'llanilishi lozim; Topshiriq talabaning faol darajadagi harakatini ta'minlaydigan bo'lishi, albatta, belgilangan vaqt ichida bajarishi talab qilinishi lozim.

Informatika va axborot texnologiyalari kursi bo'yicha laboratoriya ishlarini tashkil etishdan asosiy maqsad talabalarning mustaqil ravishda, o'qituvchi rahbarligida kompyuter sinflari yoki maxsus jihozlangan auditoriyalarda dars olib borishdir. Laboratoriya ishlarini bajarish shunday ta'lim usuliki, unda talaba o'qituvchi rahbarligida oldindan belgilangan reja asosida tajribalar o'tkazadi yoki amaliy vazifalarni bajaradi va shu jarayonda yangi bilimni aniqlaydi, hamda tushunib etadi. Laboratoriya ishlarini bajarishning asosiy funktsiyasi yangi bilimlarni o'rgatish va mavjud bilimlarni rivojlantirishdan iborat.

Informatika va axborot texnologiyalari kursi bo'yicha laboratoriya o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda quyidagilarga e'tibor berish kerak: axborot texnologiyalari va kompyuter texnikadan foydalanish ko'nikmasi hamda malakalarini hosil qilish; mustaqil tadqiqotning yangi yo'llarini tanlash va ma'lum bo'lganlarini tekshirish; amaliy malakalarni egallash; kompyuterning amaliy dasturlari, ofis dasturlarini o'rganish, ma'lumotlarni qayta ishlash, ilgari olinganlari bilan taqqoslash, ma'lumotlarni qidirish, natijalarni qayta izlash va h.k.

Informatika va axborot texnologiyalari kursi bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari xususiyatiga qarab, quyidagicha tashkil etiladi: Talabalar bilan ommaviy mashg'ulotlar; Talabalar bilan guruhli mashg'ulotlar; Har bir talaba bilan yakka tartibdagi mashg'ulot. Informatika va axborot texnologiyalari kursi bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari, asosan, talabalar bilan ommaviy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Bunday mashg'ulotni tashkil etishda o'qituvchi topshiriqlar ketma-ketligi ifodalangan tarqatma materiallarini har bir talaba uchun tayyorlaydi va dars boshlanishida tarqatib chiqadi. O'qituvchi talabalar topshiriqni bajarib bo'lganlaridan keyin, dars tugagach, tarqatma materiallarni yig'ib oladi.

Talabalarning bajargan ishlari bo'yicha xulosalari tinglanadi va baholanadi. Informatika va axborot texnologiyalari kursidan laboratoriya mashg'uloti darslarini tashkil etishda quyidagi talablarga amal qilish lozim: Laboratoriya topshirig'ining maqsadi talabalarga aniq va ravshan tushuntirib berilishi; Laboratoriya topshirig'ini berishda guruhdagi har bir talabaning intilish va qiziqishlarini hisobga olgan holda berilishi; Topshiriq qat'iy tizim va izchillikka ega bo'lishi kerak; Laboratoriya topshirig'ining bajarishdagi ma'lum bir qoidalar, shu mazmundagi boshqa topshiriqlarni bajarishda qo'llanilishi oson bo'lishi; Topshiriq o'quvchi faoliyatini faollashtirishni ta'minlaydigan bo'lishi; Topshiriqni bajarish uchun auditoriyaning texnik vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi va h.k.

Informatika fanidan o'qituvchi o'tilgan har bir darsdan samaradorlikka erishish uchun quyidagilarga e'tibor berishi kerak: O'qituvchilar zamonaviy bilimlar bilan qurollangan; Darsni o'tishda zamonaviy o'qitish metodlarini tanlashi; Tanlangan ta'lim metodlarining uzviyligiga erishishi; Dars turini tanlashda vaqtni to'g'ri taqsimlanishi; Dars jarayonida ta'lim vositalaridan o'z o'rnida foydalanishi; Darsda ishtirok etuvchi o'quvchilarning pedagogik, psixologik jihatlariga e'tibor qaratishi; Dars olib boriladigan xonalarning so'nggi namunadagi kompyuterlar bilan ta'minlanganligi va h.k.

Zamonaviy ta'limning sifati mazmuni faoliyatning u yoki bu sohadagi ma'naviy madaniyat va tajribaning eng yaxshi yutuqlarini o'z ichiga oluvchi mazmun sifatida ijtimoiy samaradorligini belgilovchi omillar bilan belgilanadi. Bu omillarga quyidagilar kiradi: Eng yaxshi pedagogik texnologiyalar va unga mos ravishda moddiy texnikaviy ta'minlanganlik; Ta'limning gumanistik yo'nalganligi; Aholini bilimga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli qondirilishi.

Oliy ta'limda Informatika va axborot texnologiyalaridan beriladigan ta'lim sifatining oshishi natijasida talabalarda faollik, dunyoqarash, samarali faoliyat yuritish malakalari hosil bo'ladi. Samarali faoliyat – talabaning o'quv manbalaridagi mazmunga qiyosan yangi axborotni uyg'unlashtirishdan iborat faoliyatidir. Mahsuldor faoliyatning ikki darajasi farqlanadi, ular: 1. Evristik (izlanish); 2. Ijodiy darajalardir.

Evristik bosqichda talaba sub'ektiv tarzda faqat o'zi uchun yangi bo'lgan axborotlarni egallaydi. Bu bosqichda Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchisi yangi mavzu bo'yicha o'qitadigan mavzu qanday yangi axborotlarni bersa, shu axborotlarni yaxshi o'rganadi va shu bilan chegaralanib qoladi. Ijodiy bosqichda esa, ob'ektiv yangi axborotga ega bo'linadi. Bu bosqichda talaba "qoidasiz" harakat qiladi, lekin o'zi uchun yangi bo'lgan sohada yangi qoida yaratib, ijodiy (tadqiqiy) faoliyat bilan shug'ullanadi.

Informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha ta'lim oladigan talabalar ijodiy faoliyat bosqichiga o'tganlarida, endi o'qituvchining bergan yangi axborotlari bilan chegaralanmay, o'zlari bo'sh vaqtlarida mustaqil ravishda yangi-yangi bilimlarni egallay boshlaydilar. Bu ularning dars jarayonida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni tezgina, xatosiz bajarishlarida, hatto amaliy mashg'ulotlar davomida o'z atrofidagi guruhdoshlariga mavzuga mos yangi axborotlarni kompyuterdan ko'rsatib, o'rgatishlarida namoyon bo'ladi.

Ta'limda samaradorlikka erishganlik ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi. Baholash - ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir [3], [4].

Baholashning mezoniga asoslangan va me'yorga asoslangan baholash shakllari bo'lib, Informatika va axborot texnologiyalari darslarida mezonga asoslangan baholash shakli qo'llaniladi. Mezonga asoslangan baholash - baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini, bilim, malaka va ko'nikmalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchash shaklidir. Bunda natijalar to'g'ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlardan kuchsiz guruhlarni yaxshiroq farqlash imkonini beradi [5].

Informatika va axborot texnologiyalari darslarida talabalarni baholash darsning shakliga mos ravishda, aniq mezonlar asosida baholanadi. Baholash mezonlari o'quv maqsadlarini qay darajada erishganligi anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar sonlar ("besh", "to'rt", "uch", "ikki"), so'zlar ("a'lo", "yaxshi", "qoniqarli", "qoniqarsiz") yordamida tavsiflanishi mumkin.

Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki, ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalar, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatiga ham baho beriladi [3].

Informatika va axborot texnologiyalari darslarida nimani baholash kerak? Informatika va axborot texnologiyalari kursini o'rganish natijalarini baholashda ikkita jihatga e'tibor berish lozim: 1. Nazariy bilimlarni; 2. Amaliy ko'nikma va malakalarni baholash. Nazariy bilimlar baholanayotganda kongnitiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajasi, amaliy ko'nikma va malakalar baholanayotganda psixomotrik o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, demak ta'lim samaradorligiga erishganlikni aniqlash uchun uni baholash kerak, baholashni amalga oshirish uchun esa har bir dars uchun baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Informatika va axborot texnologiyalari darslarida "Bilimlar omborini yaratish" mavzusida amaliy mashg'ulot natijalarini baholash mezonlari quyidagicha tavsiya etiladi:

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

Amaliy mashg'ulot natijalarini baholash mezonlari

| T.r | Mezonlar | Baho |
|-----|--|------------------|
| 1. | Bilimlar ombori, uni yaratish bosqichlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladi, berilgan topshiriq bo'yicha bilimlar to'plamini yaratishga kirishib, mavzu bo'yicha materiallar: darslik, qo'shimcha adabiyotlar, ma'ruza matnlari va oldindan shakllangan xususiy bilimlardan o'z vaqtida foydalanib, oldindan qo'yilgan maqsadga erishadi. | “5” – a'lo |
| 2. | Bilimlar ombori, uni yaratish bosqichlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladi, berilgan topshiriq bo'yicha bilimlar to'plamini yaratishga tezda kirishib keta olmaydi. Mavzu bo'yicha materiallar: darslik, qo'shimcha adabiyotlar, ma'ruza matnlari va oldindan shakllangan xususiy bilimlardan o'z vaqtida foydalanishga, qo'yilgan maqsadga erishishda ozgina qiynaladi. | “4” – yaxshi |
| 3. | Bilimlar ombori, uni yaratish bosqichlari haqida to'liq tasavvurlari etarli emas, berilgan topshiriq bo'yicha bilimlar to'plamini yaratishga kirishib ketishi qiyin. Mavzu bo'yicha materiallar: darslik, qo'shimcha adabiyotlar, ma'ruza matnlari va oldindan shakllangan xususiy bilimlardan o'z vaqtida foydala olmaydi, qo'yilgan maqsadga erishishda juda qiynaladi. | “3” – qoniqarli |
| 4. | Bilimlar ombori, uni yaratish bosqichlari haqida tasavvurga ega emas, berilgan topshiriq bo'yicha bilimlar to'plamini yaratishga kirishib keta olmaydi. Mavzu bo'yicha materiallar: darslik, qo'shimcha adabiyotlar, ma'ruza matnlari va oldindan shakllangan xususiy bilimlardan foydalanish qobiliyatiga ega emas, qo'yilgan maqsadga erishilmaydi. | “2” – qoniqarsiz |

Informatika va axborot texnologiyalari darslarida talabalar bilim darajasini aniqlashga doir yuqorida qayd etilgan mezonlarga asosan tuzilgan savollardan namuna keltiramiz:

1-kichik guruh uchun:

1. Printer qanday qurilma? Cavolga to'liq javob – 1 ball
2. Printerlarning qanday turlari bor? Savoliga javob – 1 ball
3. Printerlar qachon ishlatila boshlandi? Savoliga javob uchun-0,5 ball
4. Printerlar kserokslardan qanday farqlanadilar? Savoliga javob uchun-1 ball
5. Printerlardan ma'lumotlarni bosmaga chiqarishdagi operatsiyalar ketma-ketligini bilish-1,5 ball.

Har bir savolga ajratilgan ballar jami besh ball, besh bahoga mos bo'lib, agar talaba jami beshta savolga yoki 1, 2, 3, 4, 5 savollarga to'g'ri javob topsa, “a'lo” baho, 1, 2, 3, 4 yoki 1, 2, 3, 5 savollarga va boshqa har qanday to'rtta savolga javob topsa, “yaxshi” baho, har qanday uchta savolga javob topsa, “qoniqarli” va h.k. baholar qo'yiladi.

2-kichik guruh uchun:

1. Tizimli blok qanday qurilma? - savoliga to'g'ri javob -1 ball.
2. Uning qanday qismlari mavjud? - savoliga to'g'ri javob -1,5 ball.
3. Mikroprotsessori nima ishni bajaradi? - savoliga to'g'ri javob - 1 ball.
4. Qattiq disk nima vazifani bajaradi? - savoliga to'g'ri javob -1 ball.
5. Operativ xotira nima? - savoliga to'g'ri javob - 0,5 ball.

Bu guruhning savollarga javobi ham jami besh ball, besh bahoga mos bo'lib, agar talaba jami beshta savolga yoki 1, 2, 3, 4, 5 savollarga to'g'ri javob topsa, “a'lo” baho, 1, 3, 4, 5 yoki 1, 2, 4 savollarga va boshqa har qanday to'rtta savolga javob topsa “yaxshi” baho, har qanday uchta savolga javob topsa, “qoniqarli” h.k. baholar qo'yiladi.

Informatika va axborot texnologiyalari darslarida “Kompyuter tarmoqlari va ularda ishlash asoslari” mavzusida laboratoriya mashg'uloti natijalarini baholash mezonlari quyidagicha tavsiya etiladi:

Bu mavzu laboratoriya mashg'uloti bo'lganligi uchun darsning maqsadi, kutiladigan natijalarni e'lon qiladi, laboratoriya mashg'ulotini bajarish ketma-ketligi ifodalangan ko'rsatma varaqasini har bir talabaga tarqatadi.

Laboratoriya mashg'uloti natijalarini baholash mezonlari

| T.r | Mezonlar | Baho |
|-----|--|-----------------|
| 1. | Bu darsda talaba internet tarmoqlarida ishlash: kirish, chiqish, kerakli ma'lumotlarni, saytlarni qidirib topa olishi, ulardagi ma'lumotlarni o'zi ishlab turgan kompyuterga yoki tashqi disketaga saqlash ishlarini xatosiz, mustaqil ravishda bajarish malakasiga ega bo'lsa. Bajarilgan toshiriqdan kerakli xulosalarga kelib, uni erkin, ijodiy fikrlab aytib bera olsa. | “5” – a'lo |
| 2. | Bu darsda talaba internet tarmoqlarida ishlashni: kirish, chiqish, kerakli ma'lumotlarni, saytlarni qidirib topa olishsa, ulardagi ma'lumotlarni o'zi ishlab turgan kompyuterga yoki tashqi disketaga saqlash ishlarini bajarishga ozgina qiynalsa. Qiynalgan joyida o'rtoqlaridan, o'qituvchisidan yordam olib bajarish malakasiga ega bo'lsa. Bajarilgan toshiriqdan kerakli xulosalarga ega bo'lsa-yu, uni erkin, ijodiy fikrlab aytib bera olmasa. | “4” – yaxshi |
| 3. | Talaba internet tarmoqlarida ishlash: kirish, chiqishni bajara olsa, kerakli ma'lumotlarni, saytlarni qidirib topa olsa-yu, ularni o'zi ishlab turgan kompyuterga yoki tashqi disketaga | “3” – qoniqarli |

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

| | | |
|----|---|------------------|
| | saqlash ishlarini bajarishda anchagina qiynalsa. Qiynalgan joyida o'rtloqlaridan, o'qituvchisidan yordam olib bajarsa. Bajargan ishidan kelib chiqadigan xulosalarni tushunib etmasa, aytib bera olmasa. | |
| 4. | Talaba internet tarmoqlarida ishlash: kirish, chiqish kabilarni bajarsa, kerakli ma'lumotlarni, saytlarni qidirib topa olmasa, ularni o'zi ishlab turgan kompyuterga yoki tashqi disketaga saqlash ishlarini bajara olmasa. Bajargan ishidan kelib chiqadigan xulosalarni bilmasa, aytib bera olmasa. | “2” – qoniqarsiz |

“Kompyuter tarmoqlari va ularda ishlash asoslari” mavzusiga doir topshiriqlarning savollari ko'rsatilgan mezon bo'yicha baholash tartibi quyidagilardan iborat:

1. Internet tizimiga kirish va chiqishni bilishi-1 ball.
2. Biror saytni ishga tushira olishi-1 ball .
3. Ushbu saytdan kerakli ma'lumotlarni qidirib topa olishi-1 ball.
4. Hosil bo'lgan saytlardan kerakli adresni ochishi-1 ball.
5. Shu olingan ma'lumotni kompyuter xotirasiga saqlab qo'yishi-1 ball.

Har bir savolga ajratilgan ballar jami besh ball, besh bahoga mos bo'lib, agar talaba jami beshta savolga yoki 1, 2, 3, 4, 5 savollarga to'g'ri javob topsa, “a'lo”baho, 1, 2, 3, 4 yoki boshqa har qanday to'rtta savolga javob topsa, “yaxshi” baho, har qanday uchta savolga javob topsa, “qoniqarli”va h.k. baholar qo'yiladi.

Xulosa. Informatika va axborot texnologiyalari fanidan nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish, mashg'ulotlarda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan uyg'unlashgan holda foydalanishda ta'lim metodlarini tanlash, nazorat qilish va baholash mezonlari alohida ahamiyatga ega. Ta'lim metodlari, mashg'ulot natijalarini nazorat qilish va baholash mezonlarini tanlashda didaktik vazifalar, ajratilgan vaqt, moddiy-texnik sharoitlar, imkoniyatlar va o'qituvchining tajribasi etakchi o'rinda turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lutfillayev M.X. Oliy ta'limda axborot texnologiyalari integratsiyasi. Monografiya. - Samarqand: SamDU, 2005.-133 b.
2. Oliy ta'lim. Lug'at ma'lumotnoma / Akademik S.S. G'ulomov tahriri ostida. – Toshkent: Moliya, 2003. -216 b.
3. Nishonov A., Xaydarov B., Nuriddinov B. va boshqalar. Baholash metodlari. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassalari o'qituvchilari va amaliyot ustalari malakasini oshirish va trenerlar tayyorlash bo'yicha o'quv metodik qo'llanma. - T.: 2003. - 153 b.
4. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М.: 1995. - 298 с.
5. Boqiyev R., Qayumova N., Axborot texnologiyalarini o'qitish metodikasi. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2006. -80 b.

Muallif:

Toshtemirov Doniyor Eshbayevich - Guliston davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, mustaqil tadqiqotchi.

UDK 372.881.11

FEATURES OF INCREASING THE EFFECTIVENESS OF NATIVE LANGUAGE CLASSES IN THE PROCESS OF INNOVATIVE EDUCATION

INNOVATSION TA'LIM JARAYONIDA ONA TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РОДНЫМ ЯЗЫКОМ В ПРОЦЕССЕ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Inomov Rayimjon Mirsaidovich

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV-mavze.

E-mail: inomov-rayimjon2024@gmail.com

Abstract. The article describes the results of a study of the features of increasing the effectiveness of native language classes in the process of innovative education. Today, special attention is paid to the quality and effectiveness of teaching in the native language in educational institutions. This is the reason for designating the creative activity of students, taking into account the age characteristics of students and assigning a special place to targeted research. This approach involves designing the creative activity of students when learning in their native language. This can be achieved by designing students' creative activities in native learning and improving strategies for organizing, monitoring and managing the learning process based on teacher-student interaction.

Key words: innovative education, native language, creative activity, competence, basic competence, competence, communication.

Аннотация. В статье описаны результаты исследования особенностей повышения эффективности занятий родным языком в процессе инновационного образования. Сегодня особое внимание уделяется качеству и эффективности обучения на родном языке в образовательных учреждениях. Это является причиной обозначения творческой деятельности студентов с учетом возрастных особенностей учащихся и отведения особого места целенаправленным исследованиям. Такой подход предполагает проектирование творческой деятельности учащихся при обучении на родном языке. Этого можно достичь путем проектирования творческой деятельности учащихся при родном обучении и совершенствования стратегий организации, контроля и управления учебным процессом на основе взаимодействия преподавателя и ученика.

Ключевые слова: инновационное образование, родной язык, творческая деятельность, компетентность, базовая компетентность, компетентность, общение.

Kirish. Har qanday mamlakatning rivoji ta'lim, ilm-fan bilan bevosita bog'liqligi asrlar davomida o'z tasdig'ini topgan. Shu bois O'zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat taraqqiyotiga uzviy aloqador bo'lgan ta'lim sifati va mazmunini takomillashtirish hukumatning maxsus qarorlari, o'zgaruvchan davr talablari, ta'lim jarayoniga kompetentsiyaviy yondashuv, innovatsion g'oyalarning so'nggi yutuqlari asosida yo'lga qo'yilmoqda va takomillashtirilmoqda. Yurtboshimiz shaxsiy tashabbusi va ijodkorligi natijasi jamiyatdagi barcha islohotlar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda [1]. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [2], degan fikrlari alohida ahamiyatga egadir.

Ona tili fanidan davlat ta'lim standartlari (DTS)ning malaka talablari bo'yicha o'quvchi shaxsida shakllantirilajak o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish; kamolotga intilish, mustaqil o'qib o'rganish; nutqiy kommunikativ kompetentsiyasini muntazam oshirib borish; o'z bilimi, xatti-harakatini baholash va mustaqil qaror qabul qilish kompetentsiyasini egallash, til imkoniyatlaridan foydalangan holda fikrni to'g'ri, ravon bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirish kabi me'yorlarga alohida e'tibor qaratilgan [3].

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha bilim o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishda zarur shart-sharoitlarni yaratib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonida individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish" [1] kabi muhim vazifalar belgilangan. Umumiy o'rta ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarda o'qish, savodxonlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili ta'limining sifati va samaradorligiga alohida e'tibor berilmoqdaki, bu o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida o'rin ajratilishiga sabab bo'lmoqda. Bunday yondashuv ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishni nazarda tutadi. Bunga esa ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish hamda o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqotiga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish strategiyalarini takomillashtirish orqali erishish mumkin. Tadqiqot ishida tavsiflash, qiyoslash, kompleks va funktsional tahlil metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

O'qituvchi faoliyati tufayli ta'lim jamiyat tomonidan puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida amalga oshiradigan jarayonga aylanib, jamiyat kutgan natijalarni beradi. Ma'lumki, ta'lim inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, bilimlarni o'zlashtirish natijasida tafakkur rivojlanishini tezlashtiradi.

Psixologik adabiyotlarda insonning xatti-harakatlari maqsadga yo'nalgan tizim sifatida tahlil qilinadi [4]. Ta'limda ikki sub'ekt – o'qitish va o'qish faoliyatlari ishtirok etganligi tufayli ikki xil maqsad ajratiladi: o'qitish maqsadi; o'qish maqsadi. Ta'limda ikki xil – o'qitish va o'qish maqsadlarining mavjudligidan turli to'qnashuv (konflikt), raqobat (konkurentsia), hamkorlikda ishlash (kooperatsiya) kabi hodisalar uchrab turadi. Fanda jamoa a'zolaridan har birining faoliyati boshqalarning faoliyatiga bog'liq bo'lmasa, raqobat yuqori natijalarga olib kelishi, aksincha, agar jamoa a'zolarining faoliyati bir nuqtadan kelib chiqadigan bo'lsa, hamkorlikda ishlash orqali yuqori natijalarga olib kelishi allaqachon isbotlangan [4],[5]. O'qitish (o'qituvchi faoliyati) va o'qish (o'quvchi faoliyati) o'zaro hamkorlikda ishlash maqsadlarining o'zaro mosligini emas, aksincha, ularning bir-biriga kirishuvini, o'zaro to'g'ri kelishini taqozo qiladi. An'anaviy ta'lim nazariyasi va unga oid pedagogik amaliyotda o'qituvchi maqsadlaridan kelib chiqib ta'limni tashkil etish ta'lim sub'ektlari – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ayrim nizo, bir-birini anglamaslik, qarshilik qilish, hamkorlikni tan olmaslik kabi hodisalarga sabab bo'lmoqda. Shuni hisobga olib, ta'limni ijodiy tashkil etish muammosini butunlay yangi

tamoyil – o'quv-tarbiya ishlarini bolalarning maqsadlari atrofida tashkil etish, ta'limning boshlang'ich nuqtasi sifatida o'quvchilarning xatti-harakatlarini ajratish g'oyasini asoslashga harakat qilamiz. Shunday yo'l tutish, fikrimizcha, ta'lim jarayonidagi nizolarni bartaraf etishga, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro xayrixohligi (bir-biriga samimiyat)ni kuchaytirishga, o'zaro hamkorlikning samaradorligini oshirishga olib keladi.

Belgilangan materiallarning o'quvchi tomonidan maqsad jihatidan ijodiy o'zlashtirilishi kelajakka yo'naltirilgan istiqbolli faoliyatdir. O'z xatti-harakatlari, intilishlari, faoliyatiga ko'ra bilimlarni egallash bolalarda ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantiradi. Maqsad oldindan anglangan, rejalashtirilgan natija bo'lib, insondan ongli faoliyatni talab etadi. Amalga oshirilgan maqsad natijaga, keyingisi – qo'lga kiritilgan natija yangidan qo'yilgan maqsadlarga erishish vositasiga aylanadi.

Ijodiy o'zlashtirish bola faoliyatida qator vazifalarni bajaradi: hayotda, ishlab chiqarishda paydo bo'lgan yangi muammolarni oldindan payqay olish; muammolarni hal qilishning yangi-yangi usullari to'g'risida o'ylash, ularni izlab topa bilish, o'rganilgan bilimlarni yangi sharoitlarga ko'chira olish; bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasidan ijodiy foydalanish [6]. Bunday shaxsiy sifatlarni egallab olgan o'quvchi ijtimoiy hayotda mashaqqatlardan chekinmay faoliyat yurita oladi. Zero, bolalarni hayotga tayyorlash ijodiy o'zlashtirishning funktsional xususiyatidir.

Ijodiy o'zlashtirish o'z mohiyatiga mos ta'lim vositalarini ham taqozo qiladiki, o'qitish va o'qishning bir-biriga samarali ta'siri o'z-o'zidan emas, balki didaktik vositalar tizimi orqali amalga oshadi. Bu holatni hisobga olmasdan turib, ta'lim jarayoni rivojidadagi ilgari boriladigan harakatni tushunish mumkin emas. Ta'lim vositalari ikki turli bo'ladi: moddiy vositalar, moddiylashgan vositalar. O'quv-tarbiya jarayonida moddiy va moddiylashgan vositalarni o'qituvchi o'zi bilan o'quvchilar o'rtasiga qo'yadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasiga qo'yiladigan moddiy va moddiylashgan vositalar – o'qituvchi uchun vosita, bolalar uchun esa ta'lim manbai hisoblanadi. Bola uchun vositalar uning o'zida. Zero, muammoni hal etish va o'quv topshiriqlarini bajarishda qo'llaniladigan mehnat, aqliy faoliyat usullari, hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilimlar, an'analar va milliy madaniyat tarkibida tarixan o'rnamashib qolgan faoliyat usullari bolalar uchun vosita vazifasini o'taydi.

Ta'lim sharoitida o'quvchi va o'quv materialining o'zaro ta'siri bolalar ongida yangi-yangi bog'lanishlarning shakllanishiga olib keladi. O'quvchi faoliyatining mahsuli, ta'lim natijasi ta'lim jarayonida bolalar oldiga qo'yilgan maqsadlarga ko'ra o'lchanadi. Erishilgan natija qo'yilgan maqsadga qancha yaqin bo'lsa, ta'lim shuncha samarador sanaladi. Ta'limning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzumga muvofiq fan, texnika, texnologiyalar, ishlab chiqarish, madaniyat, ijtimoiy hayot taraqqiyoti asosida tarixan o'zgarib borishi bilan birga umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitishning didaktik tavsifini ham xarakterlaydi. Ta'limning maqsadi o'qitishning ma'lum maqsadga qaratilganligi va unga muvofiq kelishini o'zida aks ettirgan, ta'limning ijtimoiy xususiyati, jamiyat hayotidagi ahamiyatini ochib beradigan, uning yo'nalishi, mazmuni, shakl va usullarini belgilab beradigan ijtimoiy-pedagogik hodisadir.

Ta'lim maqsadi o'quv-biluv jarayoni, uning mohiyati, mazmuni, usul va vositalari, o'qituvchi - o'quvchi munosabatlari, bu tizimning samaradorligi qanday shaxs yoki mutaxassisni shakllantirishni belgilaydi. Ta'lim maqsadining ijtimoiy buyurtma asosida ifodalinishi shaxs, davlat, jamiyat, fan-texnika hamda ishlab chiqarishning umumiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Demak ta'lim maqsadi jamiyat ehtiyojlarini ifodalaydi va uning taraqqiyotini belgilaydi [2], [3]. Butun ta'lim jarayoni – o'quv materialidan boshlab, ta'lim natijasigacha ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ta'lim maqsadi oldida turgan asosiy masala bugungi kun va istiqbolda jamiyat ravnaqi uchun qanday shaxs, mutaxassis tayyorlash kerakligi bilan xarakterlanadi. Ya'ni, ta'lim jarayonida belgilangan muayyan talablarga mos shaxs shakllantirilishi lozim.

Ta'lim maqsadini ta'lim jarayoniga o'rgatuvchi va o'rganuvchini kirituvchi vosita sifatida qarash ta'lim haqidagi umumiy mantiqqa hamohangdir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mujassamlashuvda ta'limning maqsadi aniq va ravshan tushunilmaganligi sezilsa, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari cheklanadi. Ta'lim jarayoniga noto'g'ri yondashish natijasida esa o'quv jarayoni oldiga qo'yilgan asosiy maqsadga erishib bo'lmaydi. Ta'limning aniq belgilab berilgan maqsadi esa o'quv-biluv jarayonida jamiyat talablarini qondira oladigan shaxsni «loyihalash» imkonini beradi. Shunday ekan, ta'limning maqsadi aniq anglanmagan yoki hisobga olinmagan holda o'quv jarayonida ko'zda tutilgan natijaga erishish mumkin emas [7], [8].

Mamlakatimizda har tomonlama etuk, barkamol avlodni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining pirovard maqsadi o'laroq belgilab olingan. Mazkur maqsad ob'ekti bo'lgan intellektual salohiyatli shaxs uchun kasbiy kompetentlik bilan birga umumiy kompetentlikka ega bo'lish ham muhim sifat sanaladi. Ta'lim amaliyotiga kompetentlik nuqtai nazaridan yondashuv uzoq davr ta'lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim berishning etakchi mavqeda bo'lib kelgani bois amaliy ko'nikmalarning shakllanmay qolishi bilan bog'liq salbiy oqibatlariga barham beradi. "Bunda "an'anaviy ta'limda ustun bo'lgan "bilish paradigmasi" o'rniga "bilimlardan muammoli vaziyatlarda o'rinni foydalanish" paradigmasi ustunlik qilmoqda" [9]. Albatta, bunday yondashuv bilish paradigmasini inkor etmaydi, chunki har qanday amaliy faoliyat ibtidosi bilimdir. Faqat bu yondashuv uni muammoli vaziyatlarda qo'llay olish paradigmasiga bo'ysunadigan orqa plandagi paradigma maqomiga tushiradi. Tasavvur qilaylik, bir odamning mashinasi bor. Bu odam mashinaning ichki va tashqi tuzilishi, qismlari va ularning vazifalarini, yo'l qoidalarini bilsayu, lekin unda mashinani boshqarish amaliyoti bo'lmasa, avtoullov borligining kishiga qanday foydasi bor? Xuddi shu kabi ta'lim jarayonida o'quvchi fanlardagi qonun, qoida,

ta'riflarni yodlagani holda ularni qachon, qaerda va qay tarzda qo'llashni bilmasa, hayotda o'z o'rnida ishlata olmaydi va asta-sekin xotirasidan ham ko'tarilib ketadi.

Har qanday mazmun va shaklda bo'lmasin ta'lim-tarbiya jarayonida samarali, sifatli natijaga erishmoq uchun oldindan tarbiyalanuvchilarga qanday kompetentsiyalar singdirilishini oydinlashtirib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sinflar kesimida ta'limning onglilik, uzviylik va uzluksizlik, oddiydan murakkabga qarab rivojlanib borish kabi tamoyillariga asoslangan holda belgilanadi, amalga oshiriladi. Boshqa predmetlar qatori ona tili uchun fanga oid umumiy kompetentsiyalar tizimida, avvalo, tayanch kompetentsiya tilga olinadi. Bu kompetentsiya ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olish, muloqot madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

“Kompetentlilik” – tug'ma qobiliyat bo'lmay, inson tomonidan ijtimoiy-kommunikativ tajribani egallash jarayonida shakllanuvchi qobiliyatdir. Kommunikativ-ijtimoiy tajriba, avvalo, munosabatlarni o'zgartirish mexanizmini o'z ichiga olib, nutqni stilistik jihatdan turli variantlarda qo'llashda namoyon bo'ladi” [10].

Kommunikatsiya jarayonida tayanch layoqat muhim sanaladi, negaki kishi hayotining har kuni, har soat va daqiqasida kirishiladigan muloqotning muhiti, kommunikati va maqsadiga ko'ra eng samarali muqobil variantini topa bilish, til vositalaridan unumli foydalana olish kabi talablar ko'ndalang turadi. Shu talablar ijrosiga ko'ra natija, hosila olinadi.

Tayanch kompetentsiya, avvalo, o'quvchilar ongida so'z (til, muloqot)ning ana shunday imkoniyati, kuchi va oqibati haqida tasavvurni shakllantirishdir. Tayanch kompetentsiya, shuningdek, o'quvchilarga muloqot muhitini his qilish, ulardagi o'zlari muvaqqat doxil bo'lib turgan bu muhit talab qiladigan usulni to'g'ri tanlay bilish malakasidir. Bu malaka faqat maxsus tashkil qilingan ta'lim shakllaridagina emas, ayni paytda ko'proq spontan ta'lim muhitida shakllanadi. O'quvchilar jamiyat hayotini kuzatar ekanlar, kommunikativ vaziyatlarga ko'ra u yoki bu sotsiumning ijtimoiy roli o'zgarishi bilan nutqi ham muvofiq tarzda o'zgachalik kasb etishiga guvoh bo'ladilar. Masalan, o'z o'qituvchilarining hayotdagi ijtimoiy roliga ko'ra nutqlarining quyidagi shakllarda bo'lishini ko'rganlar: 1. Darsni tushuntirish jarayonida ilmiy nutq uslubidan foydalanadi. 2. Turli yig'inlarda rasmiy yoki publitsistik uslublarga murojaat qiladi. 3. Maktabdan, darsdan tashqari bo'ladigan kommunikativ vaziyatlarda kundalik-maishiy uslubni qo'llaydi.

Tilga oid umumiy kompetentsiyalardan asosiy axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi bo'lib, u media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topish, qayta ishlash, ulardan samarali foydalanish, media muloqot layoqatini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu kompetentsiyaning tayanchasi mediya-ta'limni yo'lga qo'yish va mediya-madaniyatni tarbiyalash orqali shakllantiriladi. Bu ikki omil shaxsning ommaviy axborot vositalari (televidenie, radio, kino, pressa, internet matbuoti v.b.) orqali rivojlanishini ta'minlaydi. Mutaxassislar bunda quyidagilarga alohida qiymat beradilar: 1. Media-matnlarni tahlil qilish, tanqidiy anglash va yaratish; 2. Media-mahsulotlarning manbalarini (siyosiy, iqtisodiy, madaniy) topish, xususiyatlarini aniqlash va ularning asl ma'nosini o'rganish; 3. Media-mahsulotni tushunish; 4. Shaxsiy media-mahsulotlarni yaratish, tarqatish va ularga qiziqadigan auditoriyaga ega bo'lish; 5. O'rganish hamda yaratilgan mahsulotning hayot tarzini aniqlash [6], [9].

Umumiy kompetentsiyalar doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, mustaqil qaror qabul qila olish, o'qib-o'rganish kompetentsiyasini egallashni nazarda tutadi. Ona tili ta'limida esa buni o'quvchilarning spontan hamda maxsus tashkil etilgan ta'lim orqali olingan bilim, egallangan ko'nikma va malakalarni o'zlarida shakllangan hayotiy tajribalar asosida o'z-o'zlarini rivojlantirishlari tarzida ifodalash mumkin. Ona tiliga oid qo'shimcha ma'lumotlar, o'z tilining imkoniyatlari haqida kengroq tushuncha beruvchi kitoblarni mustaqil o'qib, o'rganish orqali ma'naviy, ruhiy yuksalish kuzatiladi. Natijada, erkin fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila oladigan (ya'ni tayanch qobiliyatga ega) shaxs tarbiyasiga yo'l ochadi.

Umumiy tayanch kompetentsiyalar sirasidagi ijtimoiy faollik kompetentsiyasi o'zi yashayotgan jamiyat muammolariga daxldorlik, fuqarolik burchi va huquqlarini bilish, ularga rioya qilish, ijtimoiy muloqot va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarining shakllantirilishini nazarda tutadi. Ona tili o'quv predmeti nuqtai nazaridan jamiyat muammolariga daxldorlik ona tilining ijtimoiy nufuzi muammolariga e'tiborli bo'lish, uning jamiyatda o'ziga mos yuqori mavqeda o'rin tutishiga jonkuyarlik tuyg'usi bilan yashashdirki, bu bizning O'zbekiston sharoitida g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston xalqi o'zbek tilini e'zozlashni o'z fuqarolik burchlari deb bilishlari, bu tilning mamlakatdagi yuridik va ma'naviy huquqlarini ado etishlari shart. O'quvchilarda shakllantirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi shundagina tayanch aspektda amalga oshadi. Ayni paytda bu kompetentsiya tarkibida ijtimoiy muloqot madaniyati tushunchasi ham borki, tayanch aspektda alohida o'rin tutadi.

Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf ona tili darslarining samaradorligini oshirish to'g'risida fikr yuritilganda uning ikki xil ma'nosini farqlash kerak: 1. Ona tili ta'limi mazmuni va bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar tizimi. Bunda ona tili ta'limini loyihalashtirish, o'qituvchilar va o'quvchilarning o'quv topshiriqlari maqsadini ajrata olishlari, o'quv topshiriqlari ta'lim jarayonining didaktik maqsadlariga mosligi, o'quv topshiriqlari bilan o'quv materialini o'qitish maqsadi o'rtasidagi muvofiqlik, o'quv topshiriqlarida ta'limning taraqqiy ettiruvchanlik va tarbiyaviy maqsadlarini qamrab olishi kabi elementlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos vazifa va vositalarga

ega. 2. Innovatsion ta'lim sharoiti boshlang'ich sinf ona tili darslari samaradorligini oshirish jarayoni. Innovatsion ta'lim sharoiti ona tili ta'limini tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlaridan biridir.

Har bir o'quv predmetining mazmuni shu maqsadning u yoki bu qirrasini ifodalashi, o'quv fanining xususiy maqsadi ta'limning umumiy maqsadiga uyg'un tarzda ifodalanishi, shuningdek, muayyan o'quv fani bo'yicha belgilab beriladigan ta'lim mazmuni, o'quv materiallari, o'qitish metodlari, o'qitish vositalari shu maqsadga muvofiq kelishi zarur.

Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf ona tili darslari samaradorligini oshirish quyidagilarga imkon beradi: o'quvchilarda bilish ehtiyojini shakllantiradi; o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi; o'quvchilarda fanni o'rganishga qiziqishni oshiradi; axborot bilan ishlashni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi; dunyoni ilmiy bilishning hozirgi zamon metodlari bilan tanishtiradi; ta'limda o'quvchining individuallik darajasini oshiradi; o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi; materiallar mazmunining xilma-xilligini ta'minlaydi; ona tili ta'limida foydalaniladigan o'quv materiallari doirasini kengaytiradi; o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishi, ya'ni baholash jarayonining imkoniyatlarini kengaytiradi va h.k. [7], [8].

Innovatsion ta'lim sharoitida ona tili darslarining samaradorligini oshirishda o'quvchi bajarishi mumkin bo'lgan barcha ishlar inobatga olinishi shart. Har qanday dars ma'lum ta'lim modeliga asosan tashkil etiladi. Ta'lim modellarini loyihalashtirish imkoniyatlarini o'rganish va ulardan maqsadga muvofiqklarini tanlash ta'lim samaradorligini oshiradi. Ijodiy ta'limda mukammal tuzilgan loyihalar asosiy rol o'ynaydi. Ta'limning izohli-ko'rgazmali, muammoli, topshiriqli, differentsial, dasturlashtirilgan, algoritmlashtirilgan kabi turlari mavjud bo'lib, ularni loyihalashtirish xususiyatlari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Yuqorida bayon qilingan kontseptsiyaga muvofiq ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilishda uch asosiy yo'nalishni ajratamiz: birinchi yo'nalish – ta'lim sub'ektlari – o'qituvchi va o'quvchilarning “loyihaviy ta'lim”ni amalga oshirishga oid ishlarni qamrab oladi. O'qituvchi va o'quvchilarning loyihaviy ta'lim haqidagi tasavvurlarini shakllantirmasdan turib, ta'lim samaradorligini ta'minlab bo'lmaydi. Ikkinchi yo'nalish ta'lim mazmuniga, ayni holatda ona tili o'quv predmeti mazmuniga pedagogik ishlov berish va loyihalash jarayoni bilan daxldor. Bu yo'nalishga ko'ra loyihalash vositasida ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish printsip, vosita va metodlarini o'rganishni taqozo etadi. Uchinchi yo'nalish “ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish ta'limning eng samarali vositasi” deb qarash bilan bog'liq tasavvurlar hisolanadi. Shu tasavvur bo'yicha o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish o'quv ishlarining sifatini yaxshilab, samaradorligini oshirish shart-sharoitlarini o'rganishni tushunamiz. Qayd qilingan yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotni tashkil etish va o'tkazish, shubhasiz, ona tili ta'limini loyihalashtirishning nazariy asoslarini bayon qilishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-son Farmoni, “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 546 b.
3. Abdullaeva Q., Safarova R. va b. Boshlang'ich ta'lim kontseptsiyasi. – T., 2020.
4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии.– М., 1998. –С 3-10.
5. Рубинштейн С.Л. Психология личности. –М.: Просвещение, 1991. –237 с.
6. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: ped. fan. doktorlik diss... avtoreferati. –T.: 2005.– 44 b.
7. Safarova R. Ona tili ta'limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – T.: Fan, 1995. – 110 b.
8. Сафарова Р. Теория и практики обучения родного языку в школах Узбекистан в условиях национального возрождения. Автореф. дисс...д-ра. пед. наук. – Т.: 1998. – 36 стр.
9. Поляков С.Д. Педагогическая инноватика: от идеи по практике. М. Центр педагогический поиск, 2007.-176 с.
10. Mengliyev V., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili (Morfologiya). – Qarshi: Nasaf, 2005. – 184 b.

Muallif:

Inomov Rayimjon Mirsaidovich - Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

UDC 372.878

INTEGRATIVE APPROACH IN THE FORMATION OF VARIETY PERFORMING CULTURE (VOCALISTS)

ESTRADA IJRO MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVLAR (VOKALCHILAR)

ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД В ФОРМИРОВАНИИ ЭСТРАДНО-ИСПОЛНИТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ (ВОКАЛИСТЫ)

Xodjakulov Baxodir Xudoykulovich

Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV-mavze.

E-mail:xodjakulovbaxodir@gmail.com

Abstract. The article examines the problem of forming the performing culture of pop vocalists, the importance of the integrative approach in training pop vocalists is substantiated. Providing integrative content educational disciplines is associated not only with the study of vocal performance, but also with familiarization with artistic creative activity, which

manifests itself in classes in other musical disciplines, dance, fundamentals stage movement, etc. The author identified the structure of performing culture pop vocalists, which includes the following components: professionally important qualities, individual qualities, stage culture, emotional and psychological preparation. Professionally important qualities ensure future successful professional activities of pop vocalists. Individual qualities are formed in conditions of active cognitive activity, musical practice, interpretation of musical and artistic values. They develop in the process of various types of musical and cognitive activities, pop vocalists, which involves the perception of music and its performance. An important aspect of stage culture pop vocalists is the culture of sound - this is the tone that creates the mood and conveys depth, brightness and content of performance. One of the indicators of stage culture is the image of the performer, which reflects the inner world of both the artist himself and his image, conveyed by various types of stage embodiment of the artistic image of the performed work. A vivid stage embodiment of a musical image requires emotional and psychological preparation. In many ways, the reaction to a stage situation depends not only on past experience and skill of the artist, but also on his way of reacting to factors causing stress, resistance emotional exhaustion. The formation of a performing culture based on an integrative approach is the process of synthesis of academic disciplines, creative development, vocal training, formation of performance technique, and also the use of diverse creative forms of training, helping.

Key words: integrative approach, performing culture, structure of performing culture of pop vocalists, training of pop vocalists, competencies.

Annotatsiya. Maqolada estrada vokalchilarining ijrochilik madaniyatini shakllantirish muammosi ko'rib chiqiladi, estrada vokalchilarini tayyorlashda integrativ yondashuvning ahamiyati asoslanadi. Integral mazmundagi ta'lim fanlarini ta'minlash nafaqat vokal ijrochiligini o'rganish, balki boshqa musiqa fanlari, raqs, sahna harakati asoslari va boshqalar darslarida o'zini namoyon qiladigan badiiy ijodiy faoliyat bilan tanishish bilan ham bog'liq. Muallif ijroning tuzilishini aniqladi. madaniyat estrada vokalistlari, bu quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: professional muhim fazilatlar, individual fazilatlar, sahna madaniyati, hissiy va psixologik tayyorgarlik. Kasbiy jihatdan muhim fazilatlar estrada vokalchilarining kelajakdagi muvaffaqiyatli professional faoliyatini ta'minlaydi. Individual fazilatlar faol bilim faoliyati, musiqiy amaliyot, musiqiy va badiiy qadriyatlarni sharhlash sharoitida shakllanadi. Ular turli xil musiqiy va kognitiv faoliyat turlari, estrada vokalistlari jarayonida rivojlanadi, bu musiqani idrok etish va uning ijrosini o'z ichiga oladi. Estrada vokalchilarining sahna madaniyatining muhim jihati bu tovush madaniyati – bu ohang kayfiyatni yaratib, ijroning chuqurligi, yorqinligi va mazmunini yetkazadi. Sahna madaniyatining ko'rsatkichlaridan biri bu san'atkorning o'zining ham, uning obrazining ham ichki dunyosini aks ettiruvchi, ijro etilayotgan asarning badiiy obrazini sahna timsolining har xil turlari orqali aks ettiruvchi obrazidir. Musiqiy tasvirning yorqin sahna timsoli hissiy va psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Ko'p jihatdan, sahnadagi vaziyatga munosabat nafaqat rassomning o'tmishdagi tajribasi va mahoratiga, balki uning stressni keltirib chiqaradigan omillarga, hissiy charchoqqa qarshilik ko'rsatishiga ham bog'liq. Integral yondashuvga asoslangan ijro madaniyatini shakllantirish - bu o'quv fanlarini sintez qilish, ijodiy rivojlanish, vokal tayyorlash, ijro etish texnikasini shakllantirish, shuningdek, o'qitishning turli xil ijodiy shakllaridan foydalanish, ularning tayyorgarlik darajasini oshirishga yordam beradi.

Tayanch iboralar: integrativ yondashuv, ijro madaniyati, estrada vokalchilari ijro madaniyati tarkibi, estrada vokalistlarini tayyorlash, kompetensiyalar.

Introduction. The relevance of the study is due to the prospects for the development of the higher education system in the field of musical art, defining new requirements for the quality of student training, increasing professional culture of students, which requires constant self-development and self-improvement in creative activity. One of the tasks of modern music education is the formation of professionally competent pop vocalist with historical and theoretical knowledge, capable of understanding the phenomena performing arts and culture. In this regard, in the educational process of pop vocalists there arises the need to revise the content of training, which includes the use of an integrative approach.

Presentation of the main material of the article. Researcher M.S. Bogomolny believe that the integrative approach in the learning process it is considered “from different sides of integration (intra-subject, individual, intrapersonal, interdisciplinary)” [1]. An integrative approach promotes understanding of theoretical and practical aspects of singing and education of high performing culture of pop vocalists.

Teacher T.D. Smelkova notes that this approach ensures “the validity of the performing process, knowledge history of the development of vocal art and contributes to the unification of vocal and performing practice and tasks vocal education” [2].

Researcher R.Kh. Gilmeeva argues that in the formation of a unified culture, knowledge of musical traditions and the history of their development is important, since complete practical knowledge of vocal art is impossible without awareness of the experience and moral and artistic guidelines of previous generations: “correct intonation without high musical culture is excluded” [3].

The interpersonal and personal growth of pop vocalists is facilitated by an understanding of a single culture within Russian, as well as world performing culture.

According to R.Kh. Gilmeeva, contributes to improving the process of training pop vocalists providing integrative content of educational disciplines, which is associated not only with the study of vocal performance, but also with familiarization with artistic and creative activity, which manifests itself in the activities of others musical disciplines, dance, basics of stage movement, etc. [3].

Important in the training of pop vocalists is performance practice, which allows students get acquainted with future professional musical performing activities and is an indicator of their professional qualities. Performing practice reflects the integration of musical and methodological training in solving the problem of improving the quality of performing culture of pop vocalists in their practical activities, and It also shows the level of competence development.

The integrative approach in the educational process of students is also associated with the use of creative forms training: open classes, master classes, creative workshops, concerts, competitions, conferences, auditions audio and video recordings with subsequent analysis, which contribute to the formation of a holistic performing culture of pop vocalists.

Petrukhina S.A. believes that performing culture includes “various qualitative characteristics: a solid base of acquired theoretical and practical knowledge, skills, deep understanding of aesthetic and psychological characteristics of the performing process, as well as sound culture and technical skill of the performer, features of the interpretation of a musical work, the possibilities of artistic influence on listener, etc.” [4].

Linxiang considers performing culture as “a combination of technical and artistic-figurative aspects of the performed works and consists of: traditions and innovations in deciphering the composer’s intentions, forms and content, styles and genres of compositions, revealing creative potential at the level of aesthetic consciousness students” [4].

Thus, we define the performing culture of pop vocalists as a combination of technical and artistic and figurative aspects of the performed works, which carries traditions and innovations in interpretation ideas of the composer's plan, style and genre of compositions, their form and content, revealing the creative potential of the individual student at the level of aesthetic consciousness and aesthetic activity, performing skills and abilities in combination with public speaking experience.

E.S. Romanova believes that “the individual qualities of pop vocalists are expressiveness, strong-willed qualities, memory, attention, ability to improvise, originality” [5]. Vocal and artistic solution tasks in the study of works are formed by the following complex of individual qualities: inclinations, type of temperament, character, executive will, psychological stability, confidence, responsibility, creative development personality, organizational skills (necessary for the leader of an ensemble, vocal group), individual culture, intelligence, activity of great importance is the correspondence of the appearance to the content of the work. In pop vocal art appearance is not only an integral part of the image, but also characterizes the style of the composition. Should be considered not only the quality and degree of comfort of the stage costume, but also its compliance with the level of the event. A vivid stage embodiment of a musical image requires emotional and psychological preparation. In many ways reaction to a stage situation depends not only on the artist’s past experience and skill, but also on his method respond to factors that cause stress, resistance to emotional exhaustion.

The main problem in the emotional and psychological preparation of a pop performer for a performance is stage anxiety, stress. It can manifest itself in a student depending on his individual features such as elation, panic or apathy. The ability to cope with stress allows pop vocalists implement their performance culture at a high level.

Conclusions. Thus, the formation of a performing culture based on an integrative approach is the process of synthesis of academic disciplines, creative development, vocal training, formation of performance technique, and as well as the use of creative forms of training that contribute to the formation of a holistic performing culture pop vocalists. The structural components of the performing culture of pop vocalists are: professionally important qualities, individual qualities, stage culture, emotional and psychological training that contributes to the development of personality, the formation of a performing culture of pop vocalists and contribute to increasing the level of readiness for future professional activities.

References

1. Bogomolny, M.S. On the analysis of the concept of “performing skills of vocalists” / M.S. Bogomolny // Humanitarian space. M. – T. 9, No. 3. – 2020. – P. 273-278.
2. Smelkova, T.D. Vocal and performing culture in the modern educational space / T.D. Smelkova // Universum: Bulletin of Herzen University. – 2014. – No. 1. – P. 56-60.
3. Gilmeeva, R.Kh. Interdisciplinary integration as a condition for the formation of pedagogical competence students of a music university // KPZh. – 2013. – No. 5 (100).
4. Petrukhina, S.A. On the problem of stage anxiety: emotional and psychological preparation for a concert performance as a necessary condition for the education of a student vocalist // News of the South-Western State University, 2016. – No. 1 (18). – pp. 117-124
5. Romanova, E.S. 99 popular professions. Psychological analysis and professional charts. 2nd ed. – St. Petersburg: Peter, 2003. – 464 p.

Author:

Xodjakulov Baxodir Xudoykulovich - Guliston davlat universiteti, San’atshunoslik fakulteti “An’anaviy xonandalik va xalq cholg’lari” kafedrası mudiri.

УДК: 811.512.133

GAMING TECHNOLOGIES AS A MEANS OF ACTIVATING THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE FORMATION OF PHONETIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOLCHILDREN

O'YIN TEXNOLOGIYALARI BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARIDA FONETIK KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA O'QUV JARAYONINI FAOLLASHTIRISH VOSITASI SIFATIDA

ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО АКТИВИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ФОНЕТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Жалилова Азиза Абдуганиевна

Гулистанский государственный университет, 120100. город Гулистан, IV район.

E-mail: aziza55@gmail.com

Annotation: This article highlights the practical significance, role and place of gaming technologies in the formation of phonetic skills in younger students. The use of gaming technologies in education helps to broaden students' horizons, develop cognitive activity, develop a variety of practical skills and abilities, and is also an effective means of motivating and stimulating students to learn, since these technologies create a favorable and joyful atmosphere.

Key words: game technologies, phonetic skills, activation of the educational process, phonetic aspect, phonetic exercises, didactic interaction, means of development, educational process.

Аннотация: В данной статье освещена практическая значимость, роль и место игровых технологий при формировании фонетических навыков у младших школьников. Использование игровых технологий в образовании способствует расширению кругозора учащихся, развитию познавательной активности, формированию разнообразных умений и навыков практической деятельности, а также является эффективным средством мотивации и стимулирования учащихся на обучение, так как эти технологии создают благоприятную и радостную атмосферу.

Ключевые слова: игровые технологии, фонетические навыки, активизация учебного процесса, фонетический аспект, фонетические упражнения, дидактическое взаимодействие, средство развития, учебный процесс.

Введение. Обучение фонетике на раннем этапе, в основном, должно проводиться на практике, так как обучать фонетике чисто теоретически не даёт видимого эффекта, так как очень сложно школьникам младшего возраста понять теорию произношения звука, не произнеся его вслух. Но сами по себе фонетические упражнения могут быть неинтересны и недостаточно занимательны для младших школьников и поэтому учитель должен найти интересные и увлекательные способы выполнения фонетических заданий, чтобы у учеников появился интерес к изучению фонетического аспекта и чтобы у них повышалась мотивация.

Объект исследования и используемые методы

Наиболее эффективным методом изучения русского языка на начальном этапе являются игровые технологии. Игровые технологии – это совокупность разнообразных методов, средств и приёмов организации педагогического процесса в форме различных педагогических игр. Использование игровых технологий в образовании способствует расширению кругозора учащихся, развитию познавательной активности, формированию разнообразных умений и навыков практической деятельности, а также является эффективным средством мотивации и стимулирования учащихся на обучение, так как эти технологии создают благоприятную и радостную атмосферу. Именно игра является универсальной формой дидактического взаимодействия с учеником, она не знает возрастных границ и позволяет играющим чувствовать себя свободно. Игровая форма занятий выступает как средство побуждения, стимулирования учащихся к учебной деятельности [2].

Использование игры как одного из приемов обучения русскому языку значительно облегчает учебный процесс, делает его ближе и доступнее детям. Игра позволяет разнообразить урок, сделать его увлекательным, живым, весёлым. Использование различных игр на уроках русского языка способствуют овладению языком в занимательной форме, развивают сообразительность, поддерживают интерес к изучаемому языку. Игра подключает все каналы восприятия информации, а не опирается на одну лишь память и воспроизведение и поэтому является более надёжным способом усвоения и применения знаний.

Полученные результаты и их анализ

При работе с младшими школьниками не следует заострять внимание детей на фонетике. Если они только начинают изучать язык, учителю следует подавать материал без использования сложных терминов, начать обучение следует в понятной детям форме- можно им рассказать о звуках в форме сказки, а затем повторять эти звуки посредством игры.

Для уточнения и закрепления правильного произношения звуков можно предложить несколько простых игр: Звук а: Покажи, как плачет Ляля. Учитель показывает ученикам, как плачет кукла Ляля: протяжно, громко и отчетливо произносит звук (а-а-а...). Затем плачь куклы должны воспроизвести ученики. При произнесении звука учитель должен следить за тем, чтобы ученики достаточно широко открывали рот, четко и ясно произносили звук. Звук у: Самолёт. Учитель предлагает ребенку послушать, как гудит самолет: произносит отчетливо и протяжно звук «у». Затем просит учеников воспроизвести гул самолета и следит за тем, чтобы он правильно вытягивал губы вперед, отчетливо, протяжно и достаточно громко произносили звук «У».

При произнесении этих звуков в изолированном виде или в слогах ученики не только закрепляют правильное их произношение, но и укрепляют мышцы артикуляционного аппарата. Ученикам необходимо через зрительное восприятие обрести автоматизм артикуляции, постоянно упражняясь.

Игра «Веселый зоопарк»

Рыбка: Рыбка ротик открывает,

Говорить она желает

(Дети широко открывают и закрывают рот)

Обезьянка: Обезьянка-озорница,

Может целый день дразниться. [1]

(Дети, улыбаясь, произносят «пя-пя-пя», зажимая губами кончик языка.

Панда: Эта пандочка-толстушка,

Настоящая болтушка.

(Дети, открыв рот, выполняют вибрирующие движения языком, касаясь верхней губы.

Игра «Скажи наоборот»

Кран поднял груз, а потом....

Самолёт прилетел, а потом....

Заяц прискакал в огород, а потом....

Саша надел пальто, а потом....

Дедушка сел на диван, а потом....

Петя снял сапоги, а потом.... [1]

Игра «Эхо»

Работа ведется следующим образом; учитель читает сам текст, а ребёнок произносит только слоги

Например: учитель – «Кукушка кукушонку купила капюшон», ученик – ку-ку-ку

Таким образом в увлекательной форме можно проговаривать слоги различной конфигурации довольно долгое время и ребёнку это не надоедает. Так же в процессе многократного проговаривания чистоговорки ребёнок её запоминает и потом может её рассказать на конкурсе чтецов.

Игра «Кто быстрее?»

В этой игре участвуют 2-3 ученика, учитель называет какой-либо слог, например, «КА», а ученики должны вспомнить и сказать на этот слог чистоговорку. Кто первый скажет, тот получает жетон. В конце игры по количеству жетонов определяется победитель. В этой игре важно не только рассказать чистоговорку, а главное произнести правильно звук.

Скороговорки

Дятел долбил, долбил и выдолбил дупло. В нём было сухо и тепло.

Маланья-болтуня молока болтала, болтала, да и выболтала. [1]

Сказки.

Внимательно послушай рассказ. Вспомни и назови слова из рассказа со звуком «Л»

Кот Нил.

Кот Нил любил поспать. Вот он вошёл и пошёл под лавку. Растянулся, укрылся лапой и уснул. Поспал всласть.

Встал кот Нил, зевнул и потянулся. А потом стал умываться лапкой.

Слоны.

На свободе слоны живут в джунглях. В Индии люди ездят на слонах. А у нас слонов можно увидеть только в слоновнике. На следующий день Слава увидел в слоновнике больших сильных слонов со своими слонятами. Слава любовался могучими слонами и весёлыми слонятами. Он подошёл совсем близко к слонам и увидел их бивни. Дома Слава написал сказку о слонах.

Хотела галка пить

Хотела галка пить. Увидела: стоит кувшин с водой. А вода в нём была на самом дне. Галка скакала, скакала – всё без толку. Никак не могла галка достать воду. И стала галка кидать в кувшин камешки. Кидала, кидала и накидала столько, что вода поднялась, и галка смогла напиться. [1]

Игра «Какой звук я задумала?»

Учитель называет цепочку слов, в которых встречается один и тот же звук. Отгадавший первым этот звук, получает право загадать загадку.

Игра «Назови слово»

Например, учитель бросает клубок участникам игры по очереди, называя звук, ученики возвращают клубок учителю, называя слово, в котором слышится этот звук.

Игра «Волшебные картинки»

Учитель показывает картинки, а задача учеников найти и произнести букву с которого начинается это слово. [1]

Также можно использовать игры, подразумевающие разнообразные движения, например, учитель произносит звук, а затем называет слова, если в словах присутствует заданный звук ученики хлопают в ладоши, прыгают или приседают, если они не слышат заданного звука, то они не выполняют данных движений.

Заключение

Из вышесказанного следует, что применение игровых технологий в учебном процессе способствует активизации познавательной и творческой деятельности учащихся, развивает и совершенствует речемыслительную деятельность детей, воспитывает инициативность, развивает организаторские способности, положительно влияет на качество обучения, повышают его эффективность. Достоинство этого метода в том, что в процессе игры учащиеся изучают новое, порой сами того не осознавая, у них не возникают ощущения отторжения учебного процесса. Игровая деятельность является эффективным методом обучения и, в то же время, интересным и занимательным перерывом от учебного процесса.

Использованная литература:

1. Комаров А.Н. Занимательная фонетика. М.,2012.С.102.
2. Дедова Н.Н. Обучение фонетике на уроках русского языка.М., 2014.С.211.
3. Аникеева Н.П. Воспитание игрой. М.,2015.С.152.
4. Медовщикова С.Н. Обучение артикуляции звуков русского языка. М., 2015.С.201.
5. Комарова Ю.А. Использование учебных игр в процессе обучения русскому языку. М.,2017.С.256.

References:

1. Komarov A.N. Entertaining phonetics. M., 2012.P.102.
2. Dedova N.N. Teaching phonetics in Russian language lessons. M., 2014. P. 211.
3. Anikeeva N.P. Education through play. M., 2015.P.152.
4. Medovshchikova S.N. Teaching the articulation of sounds of the Russian language. M., 2015.P.201.
5. Комарова Ю.А. Использование учебных игр в процессе обучения русскому языку. М.,2017.С.256.

Автор:

Жалилова Азиза Абдуганиева, преподаватель кафедры Русского языка и литературы Гулистанского государственного университета.

UDK 372.879.6

THE IMPORTANCE OF NATIONAL ACTIVITY GAMES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' PHYSICAL QUALITIES

TALABALARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДЕЯТЕЛЬНО-ДЕЯТЕЛЬНЫХ ИГР В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ

Burxanov Baxodirxon Raxmatulla o'g'li

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, 4-mavze

E-mail: baxodirxonburxanov@gmail.com

Annotation. This article talks about the importance of national movement games and the role of national movement games in the development of physical qualities in students. Complete instructions were given to improve students' health and improve their physical qualities. Special national movement games are shown for the development of

physical qualities. These games increase students' interest in sports, and if physical education lessons are organized using these games, students' interest in the lesson will increase. The article reveals how useful it is to use national action games.

Keywords: physical qualities, development, national movement games, physical education, sports, agility, strength, flexibility, endurance, dexterity.

Аннотация. В данной статье говорится о значении национальных двигательных игр и роли национальных двигательных игр в развитии физических качеств учащихся. Были даны полные указания по укреплению здоровья студентов и улучшению их физических качеств. Для развития физических качеств показаны специальные национальные двигательные игры. Эти игры повышают интерес учащихся к занятиям спортом, а если уроки физкультуры будут организованы с использованием этих игр, интерес учащихся к уроку повысится. В статье раскрывается, насколько полезно использовать национальные экшн-игры.

Ключевые слова: физические качества, развитие, национальные двигательные игры, физическое воспитание, спорт, ловкость, сила, гибкость, выносливость, ловкость.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng sport sohasiga nafaqat mamlakatni dunyoga tanitish, balki xalqimizning sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom avlodni tarbiyalashning asosiy mezonini sifatida katta e'tibor berildi. Millatning kelajagi masalasi doimo jamiyat tarbiyalayotgan yosh avlodning qanday kamol topishiga bog'liq bo'lib kelgan. Shu sababli ham mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, sport musobaqalari o'tkazish va hakamlik qilishni takomillashtirishda davlat oldidagi muhim vazifa bo'lib kelmoqda.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4877-son, 2021-yil 16-iyundagi "Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5148-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan muhim vazifalarni amalga oshirishda talabidan kelib chiqib boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy sifatlarini rivojlantirishda milliy harakatli o'yinlarning samaradorligi oshirish ularni so'g'lom, barkamol, vatan parvar avlod qilib tarbiyalashimiz lozim.[2]

Harakatli o'yinlarni shakli - qo'yilgan maqsadga erishish usullarini keng tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi, o'yin qatnashchilarini harakatini tashkil qilishdir. O'yin qatnashchilari bir xil o'yinlarda o'zining shaxsiy qiziqishlariga erishish uchun yakka yoki gurux bo'lib harakat qiladilar boshqalarida esa o'zlarining jamoalarini, o'zlarining jamoalarini qiziqishlarini ximoya qiladilar. Shuningdek o'yin uchun o'ynovchilar har xil tuzilishda yoki shaklda turadilar (sochilib yoki tarqalib, doirada, safda, qatorda).

Shu orqali o'yinlarning bir xilligi engib o'tiladi, ularning evaziga jismoniy tarbiya jarayonining zerikarli va bir xil tusda o'tishiga yo'l qo'yilmaydi. Musobaqalashuv – o'yin uslubi talaba-yoshlarning emostiyalarini ishga solish hisobiga mashg'ulotlarda harakat faoliyatini follahtirishning tekshirilgan vositasi hisoblanadi. Jismoniy rivojlanishda ancha yuqori ko'rsatgichlarga erishishga imkon yaratadi, mashg'ulotlarning o'zini esa qiziqarli qiladi.[6]

Milliy o'yinlari (kurashlar, ot o'yinlari, harakatli o'yinlar va h.k) haqida ilmiy-nazariy, pedagogik-uslubiy qo'llanmalar, uslubiy tavsiya-nomalar, ilmiy-nazariy maqolalar ko'p. Shunday bo'lsada, ularga chuqurroq, mantiqiy-ma'no jihatdan qaralsa muammolar ko'pligi bilinadi. Chunki, xalq milliy o'yinlari shakl jihatdan ko'p qirrali va mazmun jihatidan ijtimoiy tarbiyaga bog'liq bo'lgan ilmiy-pedagogik jarayonga boy. Milliy o'yinlarning milliy qadriyatlaridagi o'rni va ma'naviy-ma'rifiy tarbiyada qo'llanilishi lozim bo'lgan jihatlari yanada chuqurroq o'rganish, olingan natijalarni hayotga singdirish to'g'risida maxsus qarorlar chiqarildi.[7]

Tadqiqot obyekti va qo'laniladigan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarining sog'lom turmush tarzi mazmunini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirish rivojlantirish jarayoni. Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatuv, so'rov, suhbat, anketa, test, intervyu, usullaridan foydalanildi.

Milliy harakatli o'yinlarsiz birona ham sport mashg'ulotlari o'tkazilmaydi, deyish mumkin. Hatto oliy ligadagi futbolchilar, volleybolchilar va boshqa sport turlarida shug'ullanuvchi mohir sportchilar ham mashg'ulotlarda va yakka tartibda o'zlariga xos bo'lgan harakatli o'yinlarni bajarishadi. Buning boisi shundaki, harakatli o'yinlar gavda (mushak) chigallarini yozish (razminka), ko'ngil ochish (zavqlanish, xursand bo'lish va h.k.) va jismoniy sifatlarini tayyorlashda maxsus yoki umumiy mashq-o'yin sifatida xizmat qiladi.[3]

Olinadigan natijalar va ularning tahlili

O'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda milliy harakat o'yinlari, masalan, mamlakat madaniyati yoki ommaviy sport turlariga xos bo'lgan o'yinlar haqiqatdan ham muhim rol o'ynashi mumkin. Ushbu o'yinlar samarali bo'lishi mumkin bo'lgan bir necha usullar mavjud:

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

1. Yurak-qon tomir chidamliligi: Ko'pgina milliy faoliyat o'yinlari yurak-qon tomir chidamliligini oshirishi mumkin bo'lgan doimiy harakatni o'z ichiga oladi. Futbol, basketbol yoki kriket kabi o'yinlar o'yinchilardan vaqt o'tishi bilan yurak va o'pka faoliyatini yaxshilaydigan doimiy harakat qilishni talab qiladi.[2]

2. Kuch va quvvat: ko'tarish, otish yoki surish bilan bog'liq o'yinlar mushaklar kuchini va kuchini oshirishi mumkin. Masalan, kurash, kabaddi yoki regbi kabi sport turlari samarali kurash uchun katta jismoniy kuch va kuch talab qiladi.

3. Chaqqonlik va muvofiqlashtirish: Milliy o'yinlar ko'pincha yo'nalishni, muvozanatni va qo'l-ko'zni muvofiqlashtirishni tez o'zgartirishni talab qiladi. Badminton, stol tennisi yoki jang san'ati kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning chaqqonlik va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

4. Moslashuvchanlik: Ko'pgina milliy o'yinlar cho'zish, erishish yoki egilish kabi moslashuvchanlikni talab qiladigan harakatlarni o'z ichiga oladi. Gimnastika, yoga yoki taekvondo kabi sport turlari moslashuvchanlikni va harakat doirasini oshiradi.

5. Jamoada ishlash va muloqot : Jamoaviy milliy o'yinlar nafaqat sportda, balki hayotning turli jabhalarida ham qadrlil bo'lgan jamoada ishlash, muloqot va hamkorlik kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

6. Intizom va e'tibor: milliy faoliyat o'yinlarida qatnashish tartib-intizom va qoidalar, strategiyalar va mashg'ulotlar rejimlariga rioya qilishni talab qiladi. Bu fazilatlar shaxsiy rivojlanish va har qanday ishda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

7. Ijtimoiy o'zaro ta'sir: Sport o'quvchilarga do'stlik, etakchilik qobiliyatlari va tegishlilik tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradigan ijtimoiy o'zaro ta'sir qilish imkoniyatini beradi.

8. Ruhiiy farovonlik: Milliy o'yinlar orqali jismoniy faollik bilan shug'ullanish endorfinlarni chiqarish va muvaffaqiyat tuyg'usini rag'batlantirish orqali kayfiyatni yaxshilaydi, stressni kamaytiradi va umumiy aqliy farovonlikni oshiradi.

Biroq, ushbu o'yinlarda ishtirok etish inklyuziv bo'lishini ta'minlash va talabalar tegishli murabbiylik, jihozlar va jihozlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlash juda muhimdir. Bundan tashqari, faqat raqobatga e'tibor qaratish o'rniga sportdan zavqlanish va shaxsiy o'sish jihatlarni ta'kidlash uzoq muddatli ishtirok etish va jismoniy rivojlanishni rag'batlantirishi mumkin.

Kuch. Mushak kuchi mushakning zo'riqish darajasi, shuningdek, tashqi qarshilik yoki og'irlikka qarshi harakatlar kattaligi bilan tavsiflanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuch sifatini rivojlantirishda juda ham ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak mushaklarga beriladigan yuklamani o'quvchini jismoniy holatiga qarab berilishi kerak.

Shtangachilar -Pedagogik vazifasi. Kuchni, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirish.

Psixologik ahamiyati. O'quvchilarda psixologik (diqqat, koordinatsiya) va psixofiziologik (abjirlik, tezkorlik, kuch) xususiyatlarini shakllantirish.

Tayyorgarlik ko'rish. O'yin sport zalida va maydonchada o'tkaziladi. O'yin ishtirokchilari ikki komandaga bo'linib, bir qatordan bo'lib maydondagi chiziqda turadilar. Har bir komanda o'ziga o'yinboshi – shtangachini tanlaydi. Ular o'z navbatida qo'llarida gimnastika tayoqchasini (shtangachani) ko'krak oldida ushlab 15-20 metr masofada komandalari qarshisida turadilar. Qatorda turgan qolgan o'yinchilarning hammasi esa qo'llarida beshtadan chambarak shtanga diskasini ushlab turadilar.[4]

O'yin qoidasi.

1. Ikkala guruhda ham chambaraklar soni teng bo'lishi kerak.

2. Estafetani qabul qilish paytida chiziqni bosib turish man etiladi.

Egiluvchanlik bo'g'imlar harakatchanligi darajasini ko'rsatadi. Harakatchanlikning miqdoriy ifodasi – harakatlar amplitudasi. Egiluvchanlik uloqtirishlarda, ayrim sakrash turlarida, gimnastik hamda akrobatik mashqlarda, yangi harakat shakllarini yanada samarali egallashda shiddat natijalarining ko'tarilishiga ko'maklashadi. Kichik maktab yoshida egiluvchanlikni shakllantirish uchun qulay sharoit mavjud.[2, 65] Bu, eng avvalo, tayanch – harakat apparatining morfologik xususiyatlariga bog'liq va mushaklarning yuqori cho'ziluvchanligi, umurtqa pog'onasining harakatchanligi demakdir. 7-10 yoshli bolalarda egiluvchanlikning rivojlanish sur'atlari tabiiy ravishda juda yuqori ekanligi kuzatiladi. 11-13 yoshli qizlarda va 13-15 yoshli o'g'il bolalarda faol egiluvchanlik maksimal kattaliklarga erishadi. 7 dan 10 yoshgacha bo'lgan davr harakatlar ephilligining rivojlanish sur'atlari yuqoriligi bilan tavsiflanadi. 12-13 yoshlarda egiluvchanlik hamda bo'g'imlardagi harakatchanlikni anjomlarsiz va kichik og'irlikdagi anjomlar (gimnastika tayog'i, gantellar, to'ldirma to'plar) yoki sherik bilan o'tkaziladigan, ta'sirni kuchaytiruvchi va shu tariqa asta – sekin harakatlar amplitudasini oshirib boradigan faol – sust xususiyatli mashqlar rivojlantiradi. Shuningdek, kattalarga qaraganda ko'proq qomatni shakllantiruvchi mashqlar qo'llaniladi.[4]

Xulosa.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy harakat o'yinlari o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu o'yinlar yurak-qon tomir chidamliligi, kuch, chaqqonlik, muvofiqlashtirish, moslashuvchanlik va

aqliy farovonlik kabi turli jihatlarni maqsad qilib olgan holda jismoniy tayyorgarlikka yaxlit yondashuvni taklif qiladi. Bundan tashqari, milliy o'yinlarda ishtirok etish jamoada ishlash, intizom, diqqatni jamlash va ijtimoiy o'zaro ta'sir kabi muhim hayotiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ushbu mashg'ulotlar bilan shug'ullanish orqali talabalar nafaqat jismoniy salomatligini yaxshilaydi, balki ularning umumiy o'sishi va muvaffaqiyatiga hissa qo'shadigan muhim fazilatlarini rivojlantiradi. Ta'lim muassasalari va jamoalar uchun milliy faol o'yinlarni qo'shishni rag'batlantirish, barcha o'quvchilarning ishtirok etish imkoniyatlari, to'g'ri murabbiylik, jihozlar va jihozlardan foydalanishini ta'minlash juda muhimdir. Ushbu o'yinlarning ahamiyatini birinchi o'ringa qo'ygan holda, o'qituvchilar o'quvchilarga sog'lom, faolroq turmush tarzini olib borishda yordam berishlari mumkin, shu bilan birga o'yin maydonidan tashqarida bo'lgan muhim hayotiy ko'nikmalarni tarbiyalashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F. Xo'jayev, R. Abdurasulov, M. Xo'jayeva. Milliy harakatli o'yinlar va estafetalar. "Umid Design" Toshkent – 2021 - 176 b.
2. Izzatullayev Sunnatulla Shermuxammad o'g'li. Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish. O'quv qo'lanma. "Grand kondor print", 2023 - 248 b.
3. B.R.Burxonov Zamonaviy harakatli o'yinlarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o'rni. "Sirdaryo vilyatini innovatsion hududga aylantirish: muammo, yechimva xalqaro tajriba" 2023. 1546,1547,157 b.
4. Isokova, S. A. (2024). Talabalar sport musobaqalarini tashkil qilish va hakamlik qilish kompetensiyalarini takomillashtirish. Educational Research in Universal Sciences, 3(2), 108-114.
5. Sunnatulla, I. (2023). Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization. *Confrencea*, 11(1), 149-153.
6. Abdusamat Abdumalikovich Umarov, Zulxumor Urinboyevna Umarova SCIENTIFIC PROGRESS. 2023. 262 b.
7. Саёҳатлардан ва миллий ўйинлардан хотин-қизлар жисмоний тарбиясида фойдаланиш "Замонавий спортда муаммо ва ечимлар" халқаро анжумани тўплами. - Чирчик.:2021. – 636 б

References:

1. F. Xo'jayev, R. Abdurasulov, M. Xo'jayeva. Milliy harakatli o'yinlar va estafetalar. "Umid Design" Toshkent – 2021 - 176 b.
2. Izzatullayev Sunnatulla Shermuxammad o'g'li. Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish. O'quv qo'lanma. "Grand kondor print", 2023 - 248 b.
3. B.R.Burxonov Zamonaviy harakatli o'yinlarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o'rni. "Sirdaryo vilyatini innovatsion hududga aylantirish: muammo, yechimva xalqaro tajriba" 2023. 1546,1547,157 b.
4. Isokova, S. A. (2024). Talabalar sport musobaqalarini tashkil qilish va hakamlik qilish kompetensiyalarini takomillashtirish. Educational Research in Universal Sciences, 3(2), 108-114.
5. Sunnatulla, I. (2023). Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization. *Confrencea*, 11(1), 149-153.
6. Abdusamat Abdumalikovich Umarov, Zulxumor Urinboyevna Umarova SCIENTIFIC PROGRESS. 2023. 262 b.
7. Sayohatlardan va milliy o'yinlardan хотин-қизлар жисмоний тарбиясида фойдаланиш "Замонавий спортда муаммо ва ечимлар" халқаро анжумани то'плами. - Чирчиқ.:2021. – 636 б

Muallif:

Burxonov Baxodirxon Raxmatulla o'g'li – Guliston davlat universiteti "Sport turlarini o'qitish uslubiyati" kafedraasi o'qituvchisi.

UDK 372.833

USING CREATIVE APPROACHES IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА КРЕАТИВ ЁНДАШУВЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Зикрияев Фахриддин Маъмурович

Гулистон давлат университети. 120100. Гулистон шаҳри, IV- мавзе.

E-mail: faxriddin-zikriyayev2024@gmail.com

Annotation. The article provides information on the use of creative approaches in organizing the educational process. The process of creative education allows each participant at each level of education not only to develop their creative potential, but also to form the need for self-awareness, creative self-development and objective dignity. In the process of modern higher education, special attention is paid to creating favorable conditions for the manifestation of students' creative abilities and the development of their professional competencies. One of the important tasks of higher education is to focus students on scientific research based on creative approaches.

Key words: creative education, creativity, creative development, higher education, scientific research, educational environment, practical activity.

Аннотация. Мақолада таълим жараёнини ташкил этишда креатив ёндашувлардан фойдаланиш ҳақида маълумотлар келтирилган. Креатив таълим жараёни унинг ҳар бир иштирокчисига ҳар бир таълим даражасида нафақат ўзининг ижодий салоҳиятини ривожлантириш, балки ўз-ўзини англаш, ижодий ўз-ўзини ривожлантириш ва объектив кадр-қимматга бўлган эҳтиёжни шакллантиришга имкон беради. Замонавий олий таълим жараёнида талабалар креативлигини намоён бўлиши учун қулай шарт-шароитларни яратиш, касбий компетеницияларини ривожлантиришга алоҳида эътибор берилади. Олий таълимда талабаларни креатив ёндашувлар асосида илмий-тадқиқот ишларига йўналтириш муҳим вазифалардан биридир.

Калит сўзлар: креатив таълим, креативлик, ижодий ривожлантириш, олий таълим, илмий тадқиқот, таълим муҳити, амалий фаолият.

Аннотация. В статье представлена информация об использовании творческих подходов в организации учебного процесса. Процесс творческого воспитания позволяет каждому его участнику на каждом уровне образования не только развивать свой творческий потенциал, но и формировать потребность в самосознании, творческом саморазвитии и предметном достоинстве. В процессе современного высшего образования особое внимание уделяется созданию благоприятных условий для проявления творческих способностей студентов и развития их профессиональных компетенций. Одной из важных задач высшего образования является нацеливание студентов на научные исследования, основанные на творческих подходах.

Ключевые слова: творческое образование, творчество, творческое развитие, высшее образование, научные исследования, образовательная среда, практическая деятельность.

Кириш. Таълим соҳасида мутахассисларни креатив ёндашув асосида ўқитиш инновацияларни яратиш, янги билимларни яратувчи педагогик жараёнлар асосида когнитив ҳамда дивергент фикрлаш қобилиятни тарбиялаш орқали ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг интеллектуал ресурсларини яратиш ҳамда рақобатбардош кадрлар тайёрлаш имкониятларини кенгайтиришда алоҳида аҳамият касб этади. Шу мақсадда юртбошимиз хориж тажрибасидан фойдаланган ҳолда, ёшларимизнинг илм олишида креатив ёндашувни такомиллаштиришга ургу бермоқда [1].

Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар

Ҳозирги давргача таълим жараёнида мутахассислардан креативлик ва ўзига ҳослик эмас, режалаштирилган вазифанинг аниқ бажаралиши талаб қилинган эди. Бугунги кунга келиб, мутахассислар замонавий билим, кўникма ва малакага, компетеницияларга эга бўлиши ва олинган фундаментал билимларни амалий фаолиятда қўллаш олиши лозим. Тадқиқот жараёнида таҳлил қилиш, киёсий-таққослаш, кузатиш, педагогик тажриба-синов каби методлардан фойдаланилди.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

Таълим соҳасида креатив ёндашув масаласи айрим ҳолатлардагина тадқиқот объекти сифатида олинган - Г.Н. Гаврилова [2], З.Д. Жуковская [3], З.Р. Тушакова [4] ва бошқалар. Бу каби тадқиқотлар маълум бир фан соҳасида креатив ёндашувни ривожлантириш масаласига қаратилган.

Тадқиқотчи Г.Н. Ибрагимова ўз тадқиқот ишида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантиришда интерфаол ўқитиш методлари ва технологияларининг ўрнини очиб берган [5].

Педагогика соҳасидаги тадқиқотларда креативлик ҳақидаги замонавий қарашларни таҳлил қилган А.В. Морозовнинг файд этишича, ушбу тадқиқотларда креативлик “шахсга оид тоифа сифатида кўриб чиқилган ва тортишувлар асосан унинг талқинини аниқлаштириш бўйича олиб борилган, яъни креативлик дивергент (турли хил) фикрлаш сифатида (Дж. Гилфорд, О.К. Тихомиров, ёки интеллектуал фаоллик (Д.Б. Богоявленская, Л.Б. Ермолаева-Томина) ёки яхлит шахс хусусияти сифатида (Я.А. Пономарев ва бошқалар)” [6].

А.В. Хуторский ўз тадқиқотларида креативликни “элементларнинг ўзаро боғлиқ қобилиятларининг бутун бир тизимини ўз ичига олувчи бирлаштирувчи қобилиятлар” сифатида баҳолайди [7]. Таълим жараёнини ташкил этишда у методологик, когнитив ва креатив фаолиятни ажратиш кўрсатади ва айнан мана шу фаолиятларга мутаносиб тарзда педагогнинг методологик, когнитив ва креатив сифатлари шаклланишини таъкидлайди. Хусусан, креатив сифатлар қаторида тадқиқотчи: ассоциативлик, ижодий тасаввур, ривожланган интуиция, ихтирочилик, топқирлик, ноодатий тафаккур ва бошқаларни санаб ўтади.

Тадқиқот мавзумиз бўлган фалсафа фанини ўқитиш методикаси психологик-педагогик фанлар ютуқларига таянади ва креатив фикрлашга ностандарт фикрлаш, қийин вазифаларни ечиш қобилияти, таълим жараёнидаги муаммоли вазиятларга ижодий ёндашиш сифатида қарайди.

Юқорида келтирилган барча адабиётлар таҳлили креативликни ўрганишда мавжуд турлича қарашларни учта йўналишга бирлаштириш имконини беради: креативлик шахсий фазилат, жараён ва маҳсулот сифатида.

Биринчи йўналишда тадқиқот марказида яратувчи сифатида инсон туради, унинг шахси, ижодий/креатив имкониятлари ва бошқа шахсий хусусиятлари тадқиқ этилади (Дж. Гилфорд, Маслоу, К. Роджерс, Р. Стернберг ва бошқалар). Ушбу тадқиқотларда ижодий фаолиятни амалга ошираётган инсоннинг ижодий фаолияти ва интеллекти, қобилияти ва сифатларининг алоқалари ўрганилади. Ушбу йўналишда тадқиқот олиб борган олимлар томонидан ижодкорлик/креативликнинг турли таснифлари келтирилган, улар ички мазмуни, интеллект билан боғлиқ ташқи алоқалари, келиб чиқиш хусусияти ва ҳ.к. ларга кўра фарқланади.

Иккинчи йўналишда креативлик ва ижодкорлик жараён сифатида талқин қилинади (Дж. Гилфорд, Э. Торренс, Г. Уоллес ва бошқалар). Бу йўналишда анча фаол олиб борилган тадқиқотларда креативлик фаолиятининг турли босқичлари, даражалари ва турларига эътибор қаратилган.

Учинчи йўналишда креативлик ижодий фаолият маҳсули сифатида таҳлил қилинган (К. Тейлор, В.И. Андреев, А.В. Брушлинский, Л.С. Выготский, С.Л. Рубинштейн ва бошқалар). Л.С. Выготскийнинг фикрига кўра, ижод маҳсулини ўрганар экан, тадқиқотчилар фақат шакл ва материалга аҳамият қаратишган, унинг яратувчиси ва унинг фаолият шакли эса эътибордан четда қолган. Барча тадқиқотчилар ижодий фаолият натижаси янгилик ва фойдалиликни ўз ичига олиши хусусида яқдил фикрга келишган. Ижодий маҳсулотнинг учта асосий хусусияти ажратиб кўрсатилган: сон, сифат ва аҳамият. Ушбу йўналишдаги тадқиқотлар тобора ривожланиб бормоқда, чунки унинг натижалари ижодий ва креатив фаолиятни баҳолаш мезонларини ишлаб чиқишда муҳим.

Тадқиқотлар таҳлилида яна бир жиҳат кўзга ташланди: айрим тадқиқотларда креативликка таълим воситаси нуқтаи назаридан қаралса, кўпчилик тадқиқотчилар креативликни таълим мақсади сифатида баҳолашади.

Аммо юқоридаги тадқиқотлар фалсафа фанини ўқитишда креатив ёндашувнинг барча жиҳатларини тўлиқ очиб бера олмайди. Фалсафа фанини ўқитиш жараёнида зарур компетенцияларни шакллантириш учун барча йўналиш – шахс, жараён, маҳсулот узвийликда долзарблик касб этиши талаб қилинади. Ижодкор шахснинг шаклланишини шахснинг ўзаро мос тарзда бажарилган ижодий фаолият ва ижодий маҳсулотларни яратиш борасидаги ривожланиши сифатида белгилаш мумкин. Ушбу жараённинг суръати ва қамрови биологик ва ижтимоий омиллар, шахснинг фаоллиги ва креатив сифатлари, шунингдек, мавжуд шарт-шароит, ҳаётий муҳим ва касбий шартланган ҳодисаларга боғлиқ. Замоनावий шароит педагогнинг, шу жумладан бўлажак фалсафа фанини ўқитувчиларининг креативлик сифатларига эга бўлишини тақозо этади.

Креативлик педагогни ўқув-тарбия жараёнида янги инновацион ёндашувларни излашга, касбий компетенцияларни мустақил ўзлаштиришга ундайди. А.В. Морозов таъкидлаганидек, педагогик креативлик ўқитувчининг шахслараро идрок этиш, шахслараро мулоқот ва шахслараро муносабатларда юқори даражадаги малакага эга бўлишни талаб қилади”. Ўқитувчининг ижодий қарорлари интеллектуал ва педагогик креативликнинг ўзаро боғлиқлигига асосланади: креативликнинг юқори даражасида у “нафақат турли хил инновацион таълим тизимларига етарлича мослашади, балки уларни шакллантириш, ривожлантириш ва педагогик амалиётга татбиқ этишда фаол иштирок этади” [8].

Креатив таълим жараёни унинг ҳар бир иштирокчисига ҳар бир таълим даражасида нафақат ўзининг ижодий салоҳиятини ривожлантириш, балки ўз-ўзини англаш, ижодий ўз-ўзини ривожлантириш ва объектив кадр-кимматга бўлган эҳтиёжни шакллантиришга имкон беради.

Замоनावий олий таълим талабалар креативлигини намоён бўлиши учун қулай шарт-шароитларни яратишга қаратилган бўлиб, бу уларнинг касбий компетенцияларини ривожлантириш билан ҳам боғлиқ. Олий таълимда бўлажак мутахассиснинг креатив салоҳиятини ривожлантириш учун шароит яратиш бўйича келгусидаги ишлар унинг малакасини шакллантириш учун ҳам, унинг мулоқот қобилиятини ривожлантириш учун ҳам зарурдир. Шу сабабдан ОТМ талабаларини креатив ёндашувлар асосида илмий тадқиқот ишларига йўналтиришнинг илмий-педагогик асосларини яратиш жуда муҳим.

Шундан келиб чиқиб, таълим жараёнида ўқитувчи фалсафа фанини дан креатив машғулот ўтиши учун фаолиятга йўналтирилган, ечимини топиш учун фанга оид компетенциялар, шахсий ташаббус, фантазия, фаоллик, ўзига хослик талаб қилинадиган вазифалар кўйиши зарур.

Таълимда креатив ёндашувни инновацион ёндашувдан айри ҳолда тасаввур қилиб бўлмайди. Маълумки, инновациялар - бу назарий асосланган, мақсадга йўналтирилган ҳамда амалий-мўлжалланган янгилик саналади. Ҳар қандай инновация, киритилган янгилик таълим олувчилардан юқори даражадаги эмоционаллик ҳамда интеллектуалликни талаб қилади. Инновацион фаолият ғояларни янгиликларга айлантириб беради, шунингдек, ушбу жараённи бошқариш тизимини шакллантиради. Яъни, инновацион фаолият таълим тизимида ижобий ўзгаришларга йўналтирилган ҳамда педагогни ижодкор шахс сифатида ривожлантиришни, уни репродуктив фаолият туридан методик ечимларни мутақил излашга ўтказишни, педагогни инновацион методикалар муаллифига, уларни таълим, ривожлантириш, тарбиялаш воститасига айлантирувчи амалиётчига айлантиришни назарда тутати.

Айнан таълим жараёнида инновацион ҳамда креатив ёндашувларини қарор топтиришга бўлган эҳтиёж “Креатив педагогика”нинг мустақил предмет сифатида шаклланишини таъминлади. Ушбу предмет асосларини

педагогика тарихи, умумий ва касбий педагогика ҳамда психология, хусусий фанларни ўқитиш методикаси, таълим технологияси ва касбий этика каби фанларнинг методологик ғоялари ташкил этади. Креатив педагогиканинг умумий асослари мутахассис, шу жумладан, бўлажак мутахассисларнинг касбий камол топишлари учун зарур шарт - шароитни яратишга хизмат қилади.

В.А. Сластенин ва П.С. Подимоваларнинг назариясига кўра педагогнинг инновацион фаолияти қуйидаги компонентларни ўз ичига олади: мотивацион-мақсадли, креатив, технологик (операцион), рефлексив (назорат-баҳолавчи) [9]. Бу ўринда креатив компонент педагогдан инновацион фаолиятга амалиётда топилган тайёр шаклларни бирлаштириш сифатида эмас, ўзгаришларни, талабалар жамоасининг индивидуаллиги ва ўзига хослигини ривожлантириш сифатида ёндашишни талаб қилади. Шу билан бирга у педагоглардан янгиликни қабул қилишга ва уни яратишга тайёрликни зарур шарт қилиб кўяди. Креативлик педагог инновацион фаолиятининг ижодий хусусиятини белгилаб беради ва ижодий ва инновацион жараённинг маълум босқичида намоён бўлади.

Педагогик креативлик коммуникатив ва дидактик креативликдан иборат. Коммуникатив креативлик диалог ва импровизацияга асосланади, дидактик креативлик эса тўпланган билим ва анъана, ижодкорликка қобилиятни ўз ичига олади.

XXI аср бошидан креатив иқтисодиёт концепцияси фаол ривожланиб келмоқда ва қуйидаги тушунчалар билан бойимокда: “креатив этос”, “хомо креативус” (“homo creativus”), “креатив саноат”, “креатив синф”, “креатив жамият”, “креатив кластер”, “креатив ҳудуд”, “креатив шаҳар” [10] ва ҳ.к.

XXI асрда ушбу мавзунинг ўрганилишида янги жиҳатлари юзага келмоқда. Биринчидан, инсоннинг креатив қобилиятлари қўлланиладиган соҳалар ўзгармоқда. Бу биринчи навбатда янги асрнинг виртуаллик, ҳаётнинг барча соҳаларининг интеллектуаллашуви каби янги ижтимоий-маданий қадриятлари билан боғлиқ.

Юқоридаги психология, педагогика ва методика соҳасида олиб борилган тадқиқотлар таҳлили шуни кўрсатадики, ҳар қандай фаолият шахснинг ҳиссиёти, эҳтиёжи, руҳий-ақлий тараққиёти билан чамбарчас боғлиқ равишда амалга ошади. Бинобарин, талабаларга фалсафа фанини ўқитиш талаба шахсининг ақлий камолотини таъминловчи омил ҳисобланади. Талабаларга фалсафа фанини ўқитиш асосида амалга оширилувчи фаолият тадқиқот ишмизининг кейинги бўлимларида алоҳида илмий кузатувлар, таҳлил ва далиллар асосида ёритилади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, олий ўқув юртларида талабаларга фалсафа фанини ўқитиш фаолияти қандай амалга оширилса, юқори самарага эришилади? Бу жараён қандай қилиб мақсадли ва тизимли амалга оширилади? каби саволлар ҳозирга қадар ўз ечимини тўлиқ топган эмас. Шунга кўра биз тадқиқот жараёнида “Бўлажак мутахассиснинг фалсафа фанини ўқитиш фаолияти ва касбий компетентлиги қандай бўлиши керак? Бўлажак ўқитувчининг мафқураси қайси ижтимоий талаблар асосида шаклланиши лозим?” каби масалалар ўз ечимини топмоғи лозим, деб ҳисобладик.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги №ПҚ-4884 сонли Қарори.
2. Гаврилова Г.Н., Гаврилова Е.В. Развитие креативности у учащихся. – Чебоксари: ФГБОУ ВПО “Московский автомобильно-дорожный государственный технический университет” Волжский филиал”, 2012. – 96 с.
3. Жуковская З.Д. Креативно-коммуникативная система профессионально ориентированного обучения информатике в школе для одаренных детей. – Москва: Исслед. центр проблем качества подгот. специалистов; Воронеж: ВГТУ, 2003. – 100 с.
4. Тушакова З.Р. Развитие умственных умений учащихся при обучении химии с использованием креативных карт. Автореферат дисс.... кан. пед. наук. – Тобольск, 2015. – 22 с.
5. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. Пед. фан. бўйича фалсафа док.дисс... автореферати. – Тошкент, 2017. – 38 б.
6. Морозов А. В. Формирование креативности преподавателя высшей школы в системе непрерывного образования: Дис. ... д-ра пед. наук. – Москва, 2004. – С. 69.
7. Хуторской А. В. Развитие одаренности школьников. Методика продуктивного обучения. Пособие для учителя. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – С. 22
8. Морозов А. В. Формирование креативности преподавателя высшей школы в системе непрерывного образования: Дис. ... д-ра пед. наук. – Москва, 2004. – С. 332.
9. Сластенин В. А., Подымова Л. С. Педагогика: инновационная деятельность. – М.: Магистр, 1997. – С. 97.
10. Флорида Р. Креативный класс: люди, которые меняют будущее. – Москва: Классика – XXI, 2005. – 421 с.

Муаллиф:

Зикрияев Фахриддин Маъмурович - Гулистон давлат университети мустақил тадқиқотчиси.

Filologiya

UO‘K: 821.512.133 (09)

CREATIVE STYLE AND TRADITIONS OF ORAL LITERATURE

IJODKOR USLUBI VA OG‘ZAKI ADABIYOT AN‘ANALARI

ТВОРЧЕСКИЙ СТИЛЬ И ТРАДИЦИИ НАРОДНОЙ УСТНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Mamatqulov Muzaffar Rahmonqulovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mavze

E-mail: mamatqulov1973@mail.ru

Abstract. This article is dedicated to the comparative study of the epic "Tahir va Zuhro" by the Uzbek poet Sayyadi, who lived in the 18th century, and some Uzbek folk traditions. It is said that the traditions of folk art and its achievements played an important role in the creation of the epic "Tahir and Zuhro", and that Sayyadi's poetic skill, the characteristics of classical literature, and the influence of the traditions of written literature can be felt in the work. Zlaned. Sayyadi's epic "Tahir and Zuhra" is written in verse. Although masnavi is its main form, the fact that the poet widely used ghazals in the composition of the epic, as well as the meeting of mukhamas in "Tahir and Zuhra" is considered a unique proof that the tradition of written literature continued in Sayyadi's work. given

Key words: epic, masnavi, lyric genre, poems, classical poetry, poetics, traditional image, idea, tradition, experience, folklore, written literature.

Аннотация. Данная статья посвящена сравнительному изучению эпоса «Тахир ва Зухро» узбекского поэта Сайяди, жившего в XVIII веке, и некоторых узбекских народных традиций. Говорят, что традиции народного творчества и его достижения сыграли важную роль в создании эпоса «Тахир и Зухро», а поэтическое мастерство Сайяди, особенности классической литературы и влияние традиций письменной литературы могут чувствоваться в работе. Эпос Сайяди «Тахир и Зухра» написан в стихах. Хотя маснави является его основной формой, тот факт, что поэт широко использовал газели в составе эпоса, а также встреча мухамас в «Тахире и Зухре» считается уникальным доказательством продолжения традиции письменной литературы в творчестве Сайяди.

Ключевые слова: эпос, маснави, лирический жанр, стихи, классическая поэзия, поэтика, традиционный образ, идея, традиция, опыт, фольклор, письменная литература.

Kirish. “Tohir va Zuhro”, “Bahrom va Gulandom” dostonlari tarkibida qo‘llanilgan g‘azal, muxammas, musaddas, to‘rtlik va mustazod kabi kichik janrlarning vazifasi mazkur asarlar syujeti hamda qahramonlari ta‘rif-tavsifi, ruhiy holati va ichki kechinmalari bilan bog‘liq holda yuzaga kelganligi isbotlangan; Sayyodiyning “Tohir va Zuhro”, Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” hamda Nishotiyning “Husn va Dil” dostonlarida o‘xshatish, mubolag‘a va irsol ul-masal kabi she‘riy san‘atlar folklor asarlari zaminida shakllangani va ijodkorning poetik niyatini amalga oshiruvchi asosiy vositalardan biri ekanligi isbotlangan ekanligi mavzuning **dolzarbligini** ko‘rsatadi.

Sayyodiy, Sayqaliy va Nishotiy asarlariga xalq og‘zaki ijodi an‘analarining ta‘siri, mifologiya va yozma dostonchilik taraqqiyoti, ijodkorning dostonnavislik mahorati, janrlar takomili, dostonlarda badiiy san‘atlarni qo‘llash mahorati masalalarini ochib berish **maqсад** qilingan va o‘z oldiga quyidagi **vazifalarni** qo‘yadi: XVII-XVIII asrlarda yaratilgan yozma adabiyotga mansub dostonlarning tarixiy ildizlarini aniqlash; shoirning folklor an‘analaridan foydalanishdagi o‘ziga xos tajribasi va mahoratini ko‘rsatib berish; doston tarkibida kichik janrlarning qo‘llanilishi ijodkor uslubi bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan hodisa ekanligini asoslash; “Tohir va Zuhro” asarida qo‘llanilgan tashbeh, mubolag‘a, irsol ul-masal kabi she‘riy san‘atlarning dostonlar badiiyatida tutgan o‘rniga baho berish.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida Sayyodiyning “Tohir va Zuhro” dostoni olingan. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, semantik-struktural, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Doston badiiy adabiyot taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan janrlardan biri hisoblanadi. Epiklik, ya‘ni voqealar bayonining mavjud ekanligi dostonning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi va uning eng yirik janr sifatidagi mavqeini ta‘minlaydi. Manbalarda doston so‘zi qissa, hikoyat, afsona kabi ma‘nolarni anglatishi haqida ma‘lumot beriladi. Adabiy istiloh sifatida esa katta hajmga ega bo‘lgan epik asarlar tushunilishi aytiladi [3]. Doston janri og‘zaki ijodda ham, yozma adabiyotda ham keng tarqalgan. Yozma adabiyotdagi dostonlar she‘riy usulda yaratiladi. Aruz ularning asosiy vazni bo‘lsa, masnaviy esa asosiy shakli hisoblanadi. Og‘zaki adabiyotdagi dostonlar erkin qofiyalanish va band tizimiga ega bo‘lsa, yozma adabiyotdagi dostonlarda qat‘iy qofiya tizimi amal qiladi.

Har ikkala adabiyotdagi dostonlarni yuzaga chiqaruvchi omil – ulardagi tasvir jarayoni hisoblanadi. Tasvir – badiiy ijod namunalari boshqa manbalardan farqlashga ham xizmat qiladi. Tarixiylik, reallik, aniqlik, faktlarning

to'g'riligi tarixiy asarlarning yetakchi belgisi bo'lganidek, obrazlilik va badiiylik badiiy ijod namunalarining asosiy xususiyatidir. Yozma va og'zaki adabiyotdagi obrazlilik jarayoni turli shakllarda yuzaga keladi. Tasvir jarayoni ana shu shakllarni yuzaga chiqaruvchi eng muhim vosita sanaladi.

Og'zaki adabiyot namunalari tasvir jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Xalq og'zaki ijodiga mansub dostonlar tasvirida nasr bilan nazmning uyg'un holdagi ko'rinishi kuzatiladi. Bu hol doston janriga o'ziga xoslik bilan birgalikda joziba ham bag'ishlaydi. Nasr asosan voqealar tasvirida o'z vazifasini bajarsa, nazm ko'proq qahramonning ichki ruhiy holati bilan bog'liq jarayonlarni ham yuzaga chiqaradi. Musiqaning jo'rliigi esa nazmning yanada ta'sirli chiqishini ta'minlaydi. Og'zaki adabiyotdagi dostonlarni baxshisiz tasavvur qilish qiyin. "Baxshilar xalq dostonlarini biroz sodda, ko'pchiligi do'mbira, ayrimlarigina qo'biz yoki dutorda kuylaydilar" [4]. Ular musiqa jo'rliigidagi o'z ijrosi bilan dostonga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Baxshi, doston va uning ijrosi yaxlit bir butunlikni tashkil etadi.

O'rni kelganda shuni alohida ta'kidlash lozimki, Sayyodiyning "Tohir va Zuhro" asari ishqi mavzuda yaratilgan doston hisoblanadi. Og'zaki adabiyotda esa bunday asarlarni romanik dostonlar, deb atashadi. Folklorshunos N.Sabirova esa quyidagicha yozadi: "Majlisidan so'ng XVII asrda Sobir Sayqaliy "Bahrom va Gulandom", XVIII asrda Sayyodiy "Tohir va Zuhra" dostonlarini yaratib kitobiy dostonlar rivojiga munosib hissa qo'shdilar" [6]. Bizningcha, tadqiqotchi og'zaki va yozma adabiyotga mansub doston turlarini chalkashtirib yuborgandek tuyuladi. Chunki, yuqorida nomlari tilga olingan asarlar kitobiy dostonlar mohiyatiga mos kelmaydi. Kitobiy dostonlar xalq og'zaki ijodiga mansub dostonlarning bir turi sanaladi. Yirik folklorshunos olim B.Sarimsoqovning qayd etishicha, "O'zbek baxshilari repertuaridan mustahkam o'rin olgan asarlarning maxsus bir turini – klassik poeziya namunalarining baxshilar tomonidan folklorga xos ravishda qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan yoki yaratilishi jihatidan yozma adabiy manbaga ega bo'lgan, shuningdek, bevosita yozma adabiyot ta'sirida yaratilgan asarlarni kitobiy dostonlar deb yuritiladi" [7]. Sayyodiyning "Tohir va Zuhro" hamda Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" asarlari individual ijod mahsuli hisoblanadi. Chunki, bu asarlar alohida shaxslar tomonidan ijod qilingan. N.Sabirovaning bu fikrlari XX asrning 70-yillarida ayrim mutaxassislar tomonidan Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostoni xalq kitoblaridan biri sifatida baholanganligini yodga soladi. Biroq bu qarashlarga adabiyotshunoslari R.Orzibekov va Q.Tohirovlar tomonidan quyidagicha munosabat bildirilgan edi: "Lekin bu asar (Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostoni – MM) folklor bilan yozma adabiyot orasida turib, o'zining ko'p xususiyatlariga ko'ra ularning o'zaro aloqasini namoyish etuvchi ko'priklar holatini olgan bo'lsa-da, uni xalq kitobi namunasi emas, tamomila original asar deb bilish va Sayqaliyning avtorlik huquqini to'la tan olish kerak. U afsonaviy syujet va an'anaviy tema asosida yaratilgan bo'lib, folkloridagi romanik dostonlarga yaqin turadi, ammo asarda yozma poemachilikka xos xususiyatlar: uning aruz vazni va masnaviyda yozilishi, lirik janrdagi she'rlarning klassik she'riyatga xos poetikasi, shoirning an'anaviy, kitobiy individual priyomlari ustun turadi" [9]. Mazkur qarashlarni Sayyodiyning "Tohir va Zuhro" dostoniga nisbatan ham tatbiq etish mumkin. Chunki asarda Sayyodiyning shoirlik mahorati, mumtoz adabiyotga xos bo'lgan xususiyatlar va yozma adabiyot an'alarining ta'siri sezilib turadi.

Sayyodiyning "Tohir va Zuhro" dostoni nazmda yozilgan. Masnaviy uning asosiy shakli bo'lsa-da, shoir doston tarkibida g'azallardan ham keng foydalanadi. Shuningdek, "Tohir va Zuhro"da bitta muxammasning uchrashi yozma adabiyotga xos an'anaviy Sayyodiy ijodida ham davom etganligining o'ziga xos bir dalili hisoblanadi.

Masnaviyda asosan voqealar bayoni tasvirlanishini e'tiborga olsak, ijodkorda obrazlarning ichki ruhiy holati va his-tuyg'ularini aks ettirish ehtiyoji ham paydo bo'ladi. Shu sababli katta hajmdagi badiiy ijod namunalarida kichik hajmli she'riy janrdagi asarlardan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Buni biz Sayyodiyning "Tohir va Zuhro" dostoni misolida ham ko'rishimiz mumkin:

Bor erdi, bir vaziri oti Bohir,
Yo'q erdi, anda ham farzandi zohir.
Bori lashkarga Bohir erdi sardor,
Silohi bor edi tig'i dudamdor.
Bu ham farzand g'amida yig'lar erdi,
Ko'ngilda rozini Haqqa der erdi.
Ki bir kun ko'nglidagi harna rozin,
Ki yig'lab Tangriga yetkurdi arzin [1].

Boboxonning vaziri Bohirning Xudodan farzand so'ragani aks etgan qismdan olingan mazkur parchada masnaviy o'zining voqeabandlik vazifasini to'la bajarmoqda. Bohir Yaratganga nola qiladi, o'zi va podshoh uchun farzand so'raydi. Boshini yerga qo'yib, uxlab qoladi. So'ng tush ko'radi. Uyg'ongach, quyidagi g'azalni aytadi:

Rahmon egam, o'zungdin murodimni tilarman,
Yo'qtur sabr-u qarorim, hasratimdin o'larman.
Kuydum bu ishq o'tig'a, yo'qtur dardim davosi,
Mandin burung'i kuygan tabiblardin so'rarman.
Firoq dashti ichinda hayron-u tashna qoldim,
Eldin adashgan itdek har tarafga qararman.
Shom-u saharlar oning vasli umidi birlan,

Bu sham'i furqat ichra parvonadek yonarman.

Korvon ko'chdi-ketdi, miskin Sayyodiy qoldi,

Qulning xatosi ko'pdur, qalovuzsiz o'larman [1].

Ko'rinadiki, g'azalda Bohirning ichki dunyosi bilan bog'liq qayg'u-hasratlar aks etgan. Bu hasratning sababi – farzandsizlik. Uning Xudodan boshqa suyanchi yo'q. Shu sababli Sayyodiy Bohirning farzand qayg'usidagi o'ylarini berishda g'azal janriga murojaat etadi. G'azal esa shoirning bu poetik maqsadini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.

Bu adabiy hodisa turkiy-islomiy yozma adabiyotning ilk namunasi hisoblanmish "Qutadg'u bilig" dostonidan boshlab kuzatiladi. Ma'lumki, "Qutadg'u bilig" asari masnaviy yo'lida yaratilgan. Yusuf Xos Hojib doston tarkibida to'rtlik va qasidalardan ham unumli foydalanadi. Mutaxassislarning fikricha, "Qutadg'u bilig"da 200 dan ortiq to'rtliklar uchraydi [10]. Dostondagi to'rtliklar masnaviydagi shoir aytmoqchi bo'lgan fikrlarga o'ziga xos tasdiq, poetik xulosa vazifasini bajaradi.

She'riy asar tarkibida bir necha kichik janrlarning qo'llanilishi noma asosida yaratilgan asarlarda ham uchraydi. XIV asr adabiyotining go'zal namunasi bo'lgan "Muhabbatnoma" asarida ham bu adabiy hodisani kuzatish mumkin. Xorazmiy dostonida g'azal, qit'a, fard kabi janrlardan ham samarali foydalanadiki, ular asarda o'ziga xos o'rin tutadi.

Xuddi shunga o'xshash xususiyat og'zaki adabiyot namunalarida ham mavjud. Ayniqsa, xalq dostonlarini shu nuqtai nazardan o'rganish fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi. Dostonlarning she'riy qismi baxshining poetik maqsadidan kelib chiqqan holda turli, ya'ni katta va kichik hajmda yaratilishi mumkin. Dostonlardagi she'riy bo'lak bir xil shaklda bo'lishi shart emas. Ularda xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan erkinlik xususiyati ustunlik qiladi. Masalan, bir she'riy qismda ikkilik, uchlik, to'rtlik yoki beshlik kabi bandlar ham ishlatilaveradi [5]. Rahmatulla Yusuf o'g'lidan yozib olingan "Vomiq va Uzro" dostoniga e'tibor qiling:

Bir xillari aslo qaramay o'tdi,

Birovlar kelib qo'limdan tutdi.

Ayamay boshimga qamchilar chotdi,

Quloq soling bir-bir bayon aylayin.

Qamchilar yeb quloq boshim qon bo'ldi,

Omon bo'p qolgani faqat jon bo'ldi.

Darmonim ketdi-da, yerga yiqildim,

So'ngra ular yitib ko'zdan yo'qoldi.

Quloq soling, bir-bir bayon aylayin.

G'amga g'ami ulanganman, yoronlar,

Shuytib qonga bulanganman, yoronlar [1].

Vomiq tomonidan o'z boshidan kechirganlari bayon etilgan she'riy qismdan olingan mazkur parchada to'rtlik yetakchi shakl hisoblanadi, unda beshlik hamda ikkilik ham qo'llanilganligi folklorga xos bo'lgan an'ananing "Vomiq va Uzro" dostonida ham davom etganligini ko'rsatadi.

Nasr va nazmning uyg'un holda kelishini faqat folklor asarlariga xos deyish to'g'ri bo'lmaydi. Bu adabiy hodisa yozma adabiyot namunalarida ham uchraydi. Xususan, turkiy-islomiy adabiyotda yaratilgan nasrning ilk namunasi bo'lgan "Qisasi Rabg'uziy" asarida bu hodisa kuzatiladi. "Qisasi Rabg'uziy" nasriy asar bo'lsa-da, unda Rabg'uziy fard, qit'a, g'azal kabi janrlarni mahorat bilan qo'llaydi. Demak, nasr va nazmning aralash holda qo'llanilishini badiiy ijod uchun tabiiy adabiy hodisa sifatida baholash mumkin. Albatta, bu adabiy hodisaning paydo bo'lish zamini folklorda ekanligini unutmazlik zarur.

Sayyodiyning "Tohir va Zuhro" dostonida "Hikoyati Zuhroxonim", "G'azali Mirzo Tohirbek", "G'azali Zuhroxonim", "Qosidning o'qug'on g'azali", "Nasihati shohi Xubon" kabi birikmalar berilishi orqali masnaviydan so'ng boshqa janrlar, xususan, g'azal boshlanadi. Bu birikmalar doston kompozitsiyasida o'ziga xos izoh berish vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, dostonida nasrning belgisi bo'lgan "Qul Sayyodiyning Tohir bilan Zuhroni tushida ko'rganini ayturlar", "Boboxonning vaziri Xudodin farzand tilaganining bayoni bu turur", "Zuhroxonim Mirzo Tohir bilan Bog'i Maydonda so'zlashganining bayoni", "Zuhroxonim Mirzo Tohirni otasining xizmatig'a yuborgani", "Yasovullar Mirzo Tohirni tutub sanduqqa solg'oni", "Bag'dod podshohi qizining tush ko'rgani bu turur", "Zuhroxonim Tohirning kelganini enagasiga xabar berganining voqeasi" kabi gaplar ham uchraydiki, ular o'zidan keyin nazmda beriladigan voqealar bayonining qisqacha nasriy izohi yoki xabari vazifasini bajaradi.

Sayyodiy g'azallarni berishda u kimga tegishli ekanligini "Zuhroxonimning o'qug'on g'azali", "Mirzo Tohir o'qug'on g'azalining bayoni", "G'azali shohi Xubon bu turur", "G'azali Qorabahodirbek", "Tohirning otasi Bohirning o'qug'on g'azali", "Mohimxonim Tohirning sha'nig'a o'qug'on g'azali" kabi aniq alohida nasriy izohlar yordamida ko'rsatishga harakat qiladi. Dostondagi g'azallarning vazifasi deyarli bir xil. Sayyodiy qahramonlarning ruhiy kechinmalarini tasvirlashda g'azalning imkoniyatlaridan foydalanishni ma'qul ko'radi. Bu esa o'sha davr yozma adabiyotidagi mavjud an'analardan biri ekanligini unutmazlik lozim.

XULOSA. Sayyodiy xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi bilgan, ulardagi eng ilg'or an'analarni puxta o'zlashtirgan va o'z ijodiga muvaffaqiyatli tarzda tatbiq etgan shoirlardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, ijodkorning "Tohir

va Zuhro” dostoni uchun “Tohir va Zuhro” nomli o‘zbek xalq ertagi asos bo‘lganligiga shoirning o‘zi ham alohida urg‘u berganligi bejiz emas. Mashhur ertakni dostonga aylantirish yo‘lida u to‘rt yil mehnat qilib, og‘zaki ijodda keng tarqalgan syujetni yozma adabiyotga ham olib kirdi. Doston janri Sayyodiy uchun keng imkoniyatlar beradi. Voqealarni batafsil tasvirlash, ertakka nisbatan obrazlarning ko‘pligi, bosh qahramonlarning ichki kechinmalari va ruhiy olamini chuqurroq berish kabilar shoirning yuksak iste’dodi asosida yuzaga keladi hamda dostonga o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi. Shuningdek, dostondagi qo‘shimcha epizodlar va personajlar Sayyodiyning boy fantaziyaga ega ekanligi hamda yetuk ijodkorlik mahoratidan ham darak beradi. Sayyodiyning “Tohir va Zuhro” asari tashbihlarga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Shoir dostonida an’anaviy o‘xshatishlardan unumli foydalangan holda obrazlilik hosil qilishi bilan birgalikda o‘ziga xos yangi original tashbihlar ham yarata olganligi uning shoirlik mahoratining qay darajada yuksak ekanligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayyodiy. Tohir va Zuhro. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019. –B. 23.
2. Вомик ва Узро // Тохир ва Зухра. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974. –Б. 196.
3. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. –Москва: Художественной литературы, 1947. –С. 23-24;
4. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. –Тошкент: Фан, 1979. –Б. 11.
5. Райхонов Ф. Шеър қанотидаги юлдузлар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986. –Б. 39.
6. Сабирова Н.Э. Халқ бахшилари ва халфачилик анъаналари (генезис, локалик, репертуар, ижро усули). Фил. фан. док. дисс. автореферати. –Тошкент, 2021. –Б. 26.
7. Саримсоқов Б. Достон, унинг турлари ва тарихий тараққиёти // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. –Б. 11.
8. Тўхлиев Б. “Кутадғу билиг”нинг поэтикаси масалалари // Ўлмас обидалар. –Тошкент: Фан, 1989. –Б. 332.
9. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 3-том. –Тошкент: Фан, 1978. –Б. 180.
10. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983. –Б. 94.

References:

1. Tourist. Tahir and Zuhra. -Tashkent: Mumtoz Soz, 2019. -B. 23.
2. Vomik and Uzro // Tahir and Zuhra. Uzbek folk art. Many roofs. -Tashkent: Literature and Art, 1974. -B. 196.
3. Zhirmunsky V.M., Zarifov H.T. Uzbek national heroic epic. -Moscow: Khudozhestvennoy literatury, 1947. -S. 23-24;
4. Mirzaev T. An epic repertoire of folk songs. -Tashkent: Science, 1979. -B. 11.
5. Rayhonov F. Stars on the wings of poetry. -Tashkent: Literature and Art, 1986. -B. 39.
6. Sabirova N.E. Folk gifts and khalfalik traditions (genesis, locality, repertoire, method of performance). Phil. science. doc. diss. abstract. -Tashkent, 2021. -B. 26.
7. Sarimsakov B. Doston, its types and historical development // Epic genres of Uzbek folklore. -Tashkent: Science, 1981. -B. 11.
8. Tokhliev B. Issues of the poetics of "Kutadgu bilig" // Immortal monuments. -Tashkent: Science, 1989. -B. 332.
9. History of Uzbek literature. 5-story, 3rd floor. -Tashkent: Science, 1978. -B. 180.
10. Hotamov N., Sarimsakov B. Russian-Uzbek explanatory dictionary of literary terms. -Tashkent: Teacher, 1983. -B. 94.

Muallif:

Mamatqulov Muzaffar Rahmonqulovich, Guliston davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedراسi professori, filologiya fanlari doktori.

UO‘K:894.375:7.044

THE LITERARY IMAGE OF AMIR TIMUR IN THE ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

ФИГУРА АМИРА ТЕМУРА В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКИСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA AMIR TEMUR BADIYY OBRAZI

Yakhshieva Zebo Rashidovna

Karshi branch of Tashkent University of Information Technologies

E-mail: zebona.sevinch@gmail.com

Abstract. The article explores some English and Asian literature examples about Timur who was popular as Tamburlaine in Europe scholars. In addition, the most popular drama “Tamburlaine” written by Nicholas Rowe, prototyped the figure of Amir Timur, an Asian King who made some consequences to the world image which gained its great popularity in 18th-century English literature. Furthermore, given some comparative analysis of the differences and similarities between the two famous works of scholars like Cristofer Marlowe and Charles Sanders, which had been

written before him. Scientific researchers also carried out on the reasons for the occurrence of this work and the theoretical ideas advanced in the scientific discussion about them.

Keywords: eidetic poetics, humanism, sentimentalism, interpretation.

Аннотация. В статье исследуются некоторые примеры английской и азиатской литературы о Тимуре, который был популярен среди европейских ученых как Тамерлан. Кроме того, самая популярная драма “Тамерлан”, написанная Николасом Роу, послужила прототипом фигуры Амира Тимура, азиатского короля, который оказал некоторое влияние на образ мира, получивший свою большую популярность в английской литературе XVIII века. Кроме того, дан некоторый сравнительный анализ различий и сходств между двумя известными работами таких ученых, как Кристофер Марлоу и Чарльз Сандерс, которые были написаны до него. Научные исследователи также провели исследование причин появления этого произведения и теоретических идей, выдвинутых в научной дискуссии о них.

Ключевые слова: эйдетическая поэтика, гуманизм, сентиментализм, интерпретация.

Introduction. The 17th century ushered in periods when there was a great need for drastic changes in the social life of Europeans. Until then, English humanism adopted Renaissance ideological views, exploring ways to counter the ideological violence of the church. On this basis, shown in the samples of written creativity, the influence of the ideal of a physically and spiritually perfect person, the beauty of the real outer world and the discovery by art of the complex world of human experiences, the deep occupation of various edges of the culture of the ancient world. An unequal individual with unlimited and untested power of opportunity and power bound their understanding of humanity. In this sense, the image of Amir Timur was the impetus for yachting as an image typical of the literature of the etching period. Changes in the artistic thinking of English literature also continued the principles of Christopher Marlowe and Charles Sanders, tested in the main factors affecting these realities.

Literature Review: In the process of Turkish works show that Timur even, a high-ranking figure who was the great person in his times. This provides evidence for Amur Timur’s reality as a historical figure. Giyosiddin Ali ibn Jamal al-Islam “Memories of Amir Timur’s campaigns to India”; Nizamiddin Shomi’s “Zafarnoma”, Ibn Arabshah’s “The history of Amir Timur”, Sharafiddin Ali Yazdi’s “Zafarnoma”, Rui Gonzales de Clavixo, Ambassador of Castile and León’s “Diary of a trip to Samarkand; The ambassador Iacon’s “The life and court of Timur”, echoed the descriptions given to Amir Sahibkiran.

In modern Uzbek literary studies, one can find works translated into Uzbek by famous creators with works written by our writers and writers and related to the Timurians in the world literary process: The Tetralogy of Muhammad Ali’s “ The great Reign” and about a hundred articles, The Epic of the “Timurians” by Nurali Qobul, Lucien Karen. The “Amir Timur’s dynasty”, Marcel Brian. “I am Tamerlane”, Ibn Battuta. “Travelogue”. A. Ibrahimov’s “We are Uzbeks” play is very popular work among whole other examples of literature. It can be seen that they analyze the issues of the artistic skill of the authors, philosophical ethics, socio-political and creative individuality as part of the scientific and analytical study of the above works.

In English literature, Nicholas Rowe (Nicholas Rowe) also entered the literary “Tamburlaine”, dedicated to Amir Timur. This drama, like others, brought great fame and prestige to Nicholas Rowe. For the first time this work was staged at the inn field teary, prepared for publication and printed. From the greatness of the work's popularity, the right to publish the work was bought by London’s largest publisher, Jacob Towson, who published it without interruption for a century. The fame of this work goes far beyond that, in seventy years, this drama was held on stage 325 times, becoming one of the main repertoires of the theater. During the 18th century, the production ran 348 times in London alone. According to the testimony of contemporaries of the author N. This drama by Rowe has become his favorite work [1].

Methodology: The events of this drama were also devoted to the Timur and Boyazid wars, continuing the tradition of Charles Sanders. In the work, such Oriental term images as Tamerlane, Boyazid, (Bajaset) Hali darvesh, Omar and Salima are trapped. From the very first pages of the events of the work, the plot begins with scenes from the events of the end of the war between Boyazid and Timur (Tamerlane in the next place), and the plot development becomes intense. Over the centuries, in English literature, the image of Tamerlane, the main character of the work, in which the life path and personality of the historical figure of Amir Timur was prototyped, has become a positive character.

This can be noticed by the fact that the attitude and opinion of Europeans towards this warlord is now relied on historical chronicles, original sources, and not on myths and legends, rumors of Greeks and Turkish people moving from mouth to mouth. Therefore, the author interprets the Asian ruler in his work as a warrior in the drama of Christopher Marlowe and as an image with a contradictory character of the image in the negative character. He is now free from the fears of the 16th century about Timur, a distant, positive character from the definitions of the “punishment of God” of the 17th century: N on the example of Tamerlane. Rou sees a pious, pious ruler, the owner of a peaceful land, who fought for the welfare of his country. N. to create the main character of a work with such sensations. Rou Amir was quoted in Timur’s “Timur” “as saying “I gave the development to the religion of my God and the way of my Prophet Muhammad during my life in the world. I have empowered Islam everywhere and at all times” [2] meaning is seem to have read the

words. Also, the literary scholar Olimjon Dadabayev, who carried out his scientific research on this work, noted: “the theme, plot of the play, the manifestation of Timur in the image of a high-ranking, valiant defender of powerless and oppressed peoples, such factors as high-pedigree characters and exotic grandeur will overwhelm the viewer” [3].

Nicholas Rowe’s treatment of a captured Turkish girl quoted in “Tamburlaine” clarifies the character imposed on the protagonist. He is obsessed with military glory, despite making a name for himself in battles with his bravery and courage, and is an advocate for peaceful settlement of disputes.

Tamerlane: I dare face death, and all the dangers

Which furious war wears in its bloody front?

Yet would I chose to mix my name by peace

By justice, and by mercy and to raise

My trophies on the blessing of mankind [4].

He is able to see the destructive power in war and battles, comprehend the fear and members of humanity. As a skilled politician, however, the horror aware of the devastation of bloody battles in the lives of ordinary people. However, he acknowledges his fame by the triumphs of peace and justice, kindness and mercy to be the one who shares happiness with humanity, that he does not need a kingdom full of spoils under his hands. If the hero of the work Timur is such an image, then Boyazid is his opposite, a ruler who enjoys Wars. And Timur’s victory goals in battles are completely different: *To redress an injured people’ wrongs*

To save the weak one from the strong oppressor. (Act I. Scene I)

In English literature, the same grandiose intention of the scholars Christopher Marlowe and Charles Sanders, who prototyped the historical figure of Amir Timur, for the purposes of writing the work, “the dime characteristic of the Kings of his time, the arrogance”, is also criticized from the language of the main character of the work of Nicholas Rowe:

Tamerlane: Thou vain, rush thing,

That, with gigantic, insolence, hast dared

To lift the wretched self above the stars

And mate with power almighty, Thou art fall in!

Also, when the writer sees in his hero the feelings of forgiveness, nobility and solemnity that he dreamed of seeing in the Kings and Queens of his time, he assures his contemporaries that the hero of his drama is Emir Timur, a warlord who lived in Asia, and not a woven image. While the details of the capture of Boyazid in the work of Christopher Marlowe were characterized by Greek and Turkish legends full of hatred and fear for his own enemies, the details of these events were exchanged a century later in the work of Charles Sanders for the image of Timur The Savior from the expected battles of Boyazid to Europe. In this battle and the scenes of the Turkish sultan’s captivity, Timur is interpreted as a bit benevolence and differ from Boyazid; he orders him to return not only his life, but also his family, even though he has captured his enemy.

The fact that a certain poetic purpose is envisaged in the image of the main character in the mythical epic spirit in the transfer of the Amir Timur to the artistic image of the authors of the XVII-XVIII century. Scholar O. Dadabayev clarified in his views: “they tried to skillfully instill in the dramatic type the laws of novel, short stories and other genres of prose works [5]. During this period, European literature was going through the end of the stage of eidetic poetics. Traditional “devices”, rather than purely new poetic principles, are important in eidetic poetics [6].

In this sense, the depiction of the image of Amir Timur in a mythical-epic spirit determined by this law, which is imposed on the same “outward image”. In revealing the worldview of the two-character, two-side images of the work, their conversations become a field of ideological struggle. His haughty heaven is placed against Tamerlane, the ambitious Boyazid, who does not consider his fellow human, high-minded, tolerant, humane ruler. Through this, Nicholas Rowe believes that his own humanistic ideas embedded in the protagonist will eventually win, as master writers do. Conclusion of the work: “*Great minds, like Heaven are pleased in doing well*”

The author wrote about the glory of the heroes of the past in the work, aims to illuminate the socio-political life of his time. Through this, the sublime and ordinary audience of the theater would see their favorite King in the image of the benevolence Timur, The King of France, who had his enemy on the example of the traitor Boyazid [7].

According to the scientist who conducted research on Nicholas Rowe’s “Tamburlaine”, O. Zagrieva’s conclusions: “the work harmonizes with the noble feeling of the protagonist Tamerlane’s piety and recognition of freedom of religion. Such a worldview of the hero of the work is the same as that of the author, who is in a mood of sharp protest against religious fanaticism” [8]. Hence, the author put forward ideas of interreligious tolerance. Because the main character of the work considers the reconstruction of the world on the basis of humanistic ideas as the main goal of his life. He believes that it is possible to gain eternal fame only by serving in the interests of the people. After all, the ruler, relying on the power of the people, believes that he can melt to his goal both in the internal and foreign policy of the state and by winning the love of the Peoples. These ideas resonate with generations. It is natural that these views, which were the main idea of the “holes”, were inspired by Nicholas Rowe. Judging from this, may argued in favor of the optimistic views of

representatives of the scholar enlightenment. Timur's victory over Boyazid was not just a historical argument, but a clear embodiment of the spiritual and enlightened awakening approaching this world.

In the play, in scenes based on the results of the battles of Tamerlane and Boyazid, Timur says that he is a normal person, and as a king, he is maddened by the victories of his Warriors and does not want to be shrouded in glory, and in the victories over Boyazid he does not want only to honor himself:

*It is too much you dress me,
As an usurper, in the borrowed attributes
Of injured heaven,
Can we call conquest ours?
Shall man this pigmy, with giant's pride
Vaunt of himself, and say thus have I done this,
Oh, vain pretense to greatness [9] (Act II, Sc.I)*

In the drama "Tamburlaine", the main protagonists Tamerlane and Boyazid are, although historical figures, the remaining participants are woven characters. At the same time, the full-fledged whole of the events presented in the work not based on the events that have occurred in history. In these woven adventures, the power of influence of folk oral legends is felt, as observed in the previous two works. The work begins with the events of the capture, rather than images of the battle between Boyazid and Timur. It is understood from this that Nicholas Rowe was more interested not in writing a historical work, but in the character of two Eastern rulers, the result of the historical war between them. Because the victory over Boyazid saved Europe from inevitable slavery, N. Rowe was a well-known reference. Therefore, as a European, he was able to see a patriot, a defender of religion in the image of Timur. The author, who is well aware of the forgiveness of the Lord, his attitude towards his subordinates, is born in his heart to create the image of William III, who, like him, was able to make many worthwhile ascents for England, and the author devotes the work to him. In particular, the author himself writes in the preamble of the work: "it is true that in the life of this great man (Amir Timur), Like His Highness (William III), there are many qualities: courage, courage, integrity, restraint, righteousness, paternal love of his people, his opposition to shame and ignorance, his concern for the common people will go like him"[8].

Among the English-speaking peoples, there is also a wealth of research on Amir Timur, who scientifically studied this work, the most famous of his time and the next centuries. In their work[9] the political interpretation of drama (The author's interpretation of the creative disclosure of the work, based on his own feelings, [10] and the importance of it, both Villar Trop and Donald Clark, famous literary scholars of Europe. These two literary scholars are N.Rou, through the image of Tamerlane, came to the conclusion that he portrayed King William III of England, King Louis IV of France through the image of Boyazid, other English sources claim that in the image of Boyazid, the author recorded the image of another king of England, James II[11].

However, historical records show that James II and King Louis IV of France were rapport and allies, which means that the two conclusions given above are also complementary. Because the tensions between Catholic and protestant denominations in England did not end in the second half of the 17th century, the English were in a disaffected mood at the statehood of the Catholic King James II. From his early Royal years, he began to exalt catalysis in alliance with France. This begins to cause a mood of discontent not only among ordinary representatives, but also among people of the upper echelons. Therefore, they unite and carry out a coup conflicts. In consequence, his son-in-law William III was brought to the throne. The father-in-law fled to France in the presence of his ally, where he remained until the end of his life.

Results: It can be concluded that although there is no clear information on what sources Nicholas Rowe relied on when writing "Tamburlaine", one can conclude from the ideas and events described that when writing it, it was assumed that the author was based on Richard Noll's book "The General History of the Turks" [11], and not on the dramas of Christopher Marlowe and Charles Sanders. D. Clark. The name of the heroes of the work differs from the name of the writers of the two compatriots, whose name was given above, in absolute terms, when choosing a name C. There are similarities in the names of individuals in Clark's "the life of Tamburlaine the Great", written in 1664. According to scholar O. Dadabayev's scientific conclusions based on Tmarchenko's thoughts: "it was this drama that caused the involvement of 18th-century European dramaturgy in the no classic or new age, and contradicted the classical period, and the transition to the no classic period began. It can be concluded that K. Marlowe, Ch. Sanders works as classical historical dramas, N. Rowe's work, on the other hand, is appropriate to be viewed as a product of creation that traditionally preserves the characteristics of eidetic poetics. Another Russian scientist was Y.B. Whipper's point is that 17th-century English literature as the literature of the age of etching derived its medieval identity from its vision of a shift from a basic measure of humanistic values to an independent, free literature independent of delimitation of its rights and possibilities. But the literature of this period sees personalities as a point of understanding in their own way outside of reality, in terms of the point of deep and wide coverage of reality, thus a force affecting reality" [12].

Conclusion: To sum up, the concepts of the representatives of English literature of the XVIII century about humanity were associated with an unequal individual with unlimited and untested power of opportunity and power. In this

sense, the image of Amir Timur was the impetus for an image typical of the literature of the etching period. The image of Tamerlane, based on the prototype of Nicholas Rowe's great commander Amir Timur, who lived in Asia, has gained popularity in English literature for centuries as a hero with such sensations.

References:

1. Nicholas Rowe. Tamerlane. Introductory remarks by Mrs. Inchbald. William Savage print. Dublin. 1750. 90/5 p.
2. Iron Traps. T.: Publishing Press Association named after Gafur Gulam.1991.144 / 24 b.
3. O. Dadabayev. The interpretation of the Personality of Amir Temur in the western and eastern literary context. Philol. Doc.diss. 2019.69 PP.
4. Nicholas Rowe. Tamerlane. Introductory remarks by Mrs. Inchbald. William Savage print. Dublin. 1750. 90/5 p.
5. Dadabayev. The interpretation of the Personality of Amir Timur in the western and eastern literary context. Philol. philosophy.doc.diss. 2019.73 PP.
6. N.D.Tamarchenko, V.I.Tyupa Theory of literature in two volumes. Volume 2. Moscow:2002. -360/118 p.
7. Nicholas Rowe. Tamerlane. Introductory remarks by Mrs. Inchbald. William Savage print. Dublin. 1750. 90/10 p.
8. Nicholas Rowe. Tamerlane. Introductory remarks by Mrs. Inchbald. William Savage print. Dublin. 1750. 90/2 p.
9. O.E. Zagrieva. The work of Nicholas Rowe and the formation of the genre of sentimental drama in England at the end of the XVII and the beginning of the XVIII century. Autoref. diss. kan. philol. sciences.-Kirov.: 2007.-23 p.
10. Nicholas Rowe. Tamerlane. Introductory remarks by Mrs. Inchbald. William Savage print. Dublin. 1750. 90/10 p.
11. Clark, Donald B. The source and characterization of Nikolas Rowe's Tamerlane// Modern language Notes. 1950.№ 5.
12. Yu.B. Whipper. Creative destiny and history. –Moscow: 1991. - 70.

Author:

Yakhshieva Zebo Rashidovna - Karshi branch of Tashkent University of Information Technologies, Head of the department of Information Educational technologies and social sciences Doctor of philosophy in philology (PhD) dotcent” at the.

UO‘K: 821.111.821.512.133.0.82-34(021)

NARRATIVE SAMPLES OF XX TH CENTURY AMERICAN AND UZBEK WRITERS

XX ASR AMERIKA VA O‘ZBEK ADIBLARINING HIKOYACHILIK NAMUNALARI

ОБРАЗЦЫ ПОВЕСТВОВАНИЯ АМЕРИКАНСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ XX ВЕКА

Elboyeva Madina Botirovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti. 181300. Qashqadaryo viloyati , Shahrisabz shahri, Shahrisabz ko'cha 10-uy.

E-mail: elboyeva-madina2024@gmail.com

Abstract. This article discusses the role of 20th century English and Uzbek storytelling in English and Uzbek literature. World and Uzbek writers who contributed to the development of the story genre, Jack London, Washington Irving, Murad Mohammad Dost, Khairiddin Sultan, and examples of their works, will touch upon the art of psychologism and story-writing through the works of these writers. and the contribution of their works to the development of the narrative genre is analyzed and scientifically based.

Key words: harmony, story, genre, Jack London, literary commonality, realistic story, development, scientific heritage.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль английского и узбекского повествования XX века в английской и узбекской литературе. Мировые и узбекские писатели, внесшие свой вклад в развитие жанра рассказа, Джек Лондон, Вашингтон Ирвинг, Мурад Мохаммад Дост, Хайридин Султан и примеры их произведений коснутся искусства психологизма и повествования через произведения Проанализированы и научно обоснованы данные писатели, а также вклад их произведений в развитие повествовательного жанра.

Ключевые слова: гармония, рассказ, жанр, Джек Лондон, литературная общность, реалистическая история, развитие, научное наследие.

KIRISH. Amerika adabiyotiga, jumladan, nasriy asarlar namunalari e'tibor O'zbekistonda XX asrning 20-yillaridan boshlangan bo'lsa, shu bilan birga, AQSH ijod ahlining ham Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston adabiyotiga e'tibori ham shu davrlardan boshlangan. S.Akobirova qayd qilganidek, "Yevropa va AQSHda Sharq va G'arbnig o'zaro munosabatlariga muhim qiziqish va o'rganish XX asr 30-yillari bilan bog'liq bo'lsa, jumladan, Amerika yozuvchilarining ham bu o'lkaga intilishi, o'rganishi xuddi shu davrdan keng harakatga aylangan"[1].

AQSH adabiyotidan o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlar turkumidan ilk bora amalga oshirilgan namunalar – hikoya janriga mansub edi. Amerika adabiyotidagi realistik hikoya rivojini nazardan kechirish asnosi dastlab bu adabiyotda hikoya janri taraqqiyotining to XX asrgacha bo'lgan davrlar tarixiga qisqacha nazar tashlashni taqozo qiladi.

O'zbek adabiyotida ham Yosh ijodkorlar hikoyachiligida odatdagidan ko'ra ancha jonlanish, faollashish jarayoni kechayotganligini alohida ta'kidlash o'rindir. Murod Muhammad Do'st, Xayriddin Sultonov va boshqalar yaratayotgan asarlarning, xususan, hikoyalarning ko'pchiligi yuksak didli kitobxonlarga manzur bo'lmoqda. Bunday iste'dodli yozuvchilar ijod olami o'ziga xos betakror fazilatlar bilan jamoatchilik e'tiboriga tushganligi adabiy hayotimiz yutuqlari sifatida e'tiborlidir. Bu betakror yozuvchilarning mahorat qirralari jahon hikoyachiligi halqasiga ulangandir.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Hikoya – o'rta epik janr deb qaraladi, asosan kichik hajmda bo'ladi. Hikoya janrida qahramonlar xarakter sifatida tayyor holda kirib keladi. Bu esa muallifga qahramonning ruh dialektikasini batafsil ochish imkonini bermaydi. Hikoyada qahramonning situativ ruhiy holatlari aks ettiriladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Vashington Irving Amerika mustaqilligi bilan tengdosh adib sifatida eng avvalo hikoya janri asoschisi hisoblanadi. Vashington Irving qalamiga mansub Sharq rivoyatlari turkumi "Al-Hamro" takribidagi "Uch sohibjamol rivoyati", "Arab munajjimi rivoyati", "Mavr vasiyati" kabi o'ndan ortiq novellalar bu jihatdan muhim. Vashington Irving hikoyalari va afsonalari To'raboy Iskandarov, Nurmuhammad Xolliyev, Mahkam Mahmudov, Bahodir Aminov, Ma'ruf Jalil, Fayzi Shohismoil tomonidan o'zbekchaga o'g'irilgan.

Jek London romannavis, qissanavis, publitsist yozuvchi sifatida ham munosib asarlar yaratgan esa-da, uning yozuvchilik mavqei, badiiy mahorat ko'lami asosan dan ziyod hikoyalari salmog'i bilan o'lchanadi. Amerikalik jahonshumul yozuvchi Jek Londonning asarlari bizning tilimizga XX asrning o'rtalaridan boshlab tarjima qilingan. Tarjima ishlari to hozirga qadar davom etayotganligidan bilish mumkinki, adib ijodiga qiziqish so'ngan emas. Uning qator hikoyalari Fattoh Abdullayev tomonidan o'zbekchalashtirildi va 2010 yilda chop etildi[2]. Tarjimon "Kish o'g'li Kish", "Ayol kishining mardligi", "Moxov Kulau", "Hayotga muhabbat", "Isyonchi", "Buyuk sehrgar", "Shamol Odisseyasi", "Meksikalik" hikoyalari katta mahorat bilan o'girib, o'zbek kitobxonlariga taqdim qildi. Jek Londonning qahramoni Kish qabilachilik an'analari ruhida o'sgan, ammo mister Braun – oq tanli kishining ta'limotini qabul qilayotgan odam. Gnob unga qizini berishni rad qilar ekan, muallif qahramonning ruhiy holatlarini uzundan-uzoq tahlil qilmaydi, "ko'zlari cho'g'dek chaq nab ketdi", "rangi o'chdi", "boshini quyi soldi", "qo'llari musht bo'ldi" singari qisqa tashqi tasvirlar orqali ifoda etadi.

Demakki, hikoya mohiyatan millionlab kitobxonlar sevib, zerikmay mutolaa qiladigan asar bo'lib, ba'zi hikoyalar mazmunan, badiiy teranligi bois yirik nasr namunalari bilan tenglashadigan janrdir.

O'zbek hikoyachiligi XX asr o'ninchi yillarida Abdulla Qodiriyning ijod mahsullari bilan boshlangan. O'zbek realistik hikoyasining paydo bo'lishi va taraqqiy etishi haqida yirik tadqiqotlar yaratgan olimlarimiz N.Vladimirova va M.Sultonova asosan Oktyabr to'ntarishidan so'nggi davrga mansub asarlarga, bu borada ko'proq G'.G'ulom, A.Qahhor, G'ayraty, S.Abdulla, Oydin, S.Ahmad ijodiga e'tibor berganlar[3]. Shuningdek, U.Normatov[4], Q.Pirmatov[5], T.Yuldoshev[6] singari adabiyotshunoslarning ham o'zbek hikoyachiligi taraqqiyotining turli davrlari va masalalari to'g'risida, maxsus tadqiqotlari bor.

Murod Muhammad Do'st, Xayriddin Sulton kabi iste'dodli yozuvchilar ijod olami o'ziga xos betakror fazilatlar bilan jamoatchilik e'tiboriga tushganligi adabiy hayotimiz yutuqlari sifatida e'tiborlidir. Bu betakror yozuvchilarning mahorat qirralari jahon hikoyachiligi halqasiga ulangandir[7].

O'zbek yozuvchilaridan biri Murod Muhammad Do'st jamiyat va inson munosabatlari talqinidagi mahorat, jumladan, psixologizmdagi san'atkorlik borasida Jek London ijod tajribalari bilan o'ziga xos mushtarakliklarni anglash mumkin. Albatta, makon va zamon, ijtimoiy-siyosiy davr, turli xalq, turli xarakterlar tasviri jihatidan bu ikki ijodkor o'rtasidagi alohidaliklar mavjudligini ham alohida qayd etgani holda, inson va jamiyatni anglashdagi o'zaro uyg'unlikni ham inkor etib bo'lmaydi.

M.M.Do'st adabiy izlanishlarida uning badiiy psixologizmdan unumli foydalanishi adabiyotshunoslardan tomonidan qayd qilingan. Masalan, professor Ozod Sharofiddinov M.M.Do'st asarlarida "qahramon ruhiy biografiyasini tahlili", obrazlarning ruhiy iztiroblari, kechinmalari, ichki dunyosi har tomonlama tahlil qilini"shi, shu boisdan asarlaridagi "teran psixologizm"ning diqqatga sazovorlikni ta'kidlaydi [8].

Jahon adabiyotidagi o'ziga xos talqinlar o'zbek adabiyotining bevosita hikoyachiligini taraqqiyotiga ham sezilarli ta'siri ko'rsatganligini alohida qayd etgani holda, Xayriddin Sultonovning hikoyachilikdagi badiiy mahorati bilan bilan bir qatorda, mavjud an'analarning badiiy ifodasi haqida ham mulohaza yuritishni talab etadi. Xayriddin Sultonovning "Yo'qchilik va to'qchilik" hikoyasidagi poetik talqinlarning o'ziga xosligi bilan bir qatorda Jek Londonning "Kish haqida qissa" hikoyasida ilgari surilgan talqinlarga hamohangdir. Xayriddin Sulton qahramonlarining tafakkur dunyosining o'zgarishi, olam va odamga taran nazar solish, hayotning turfa xil murakkabliklarini anglash imkonini beradi. Shu jihatdan bir qator hikoyalaridagi talqinlar, shaxs erki, uning jamiyatdagi o'rnini anglashga bo'lgan xislatni shakllantiradi.

Umuman olganda, har to'rttala ijodkorning qarashlaridagi o'zaro mushtaraklik umuminsoniy muammolarning poetik tashbehlar, qahramon iztiroblari asosidagi talqinlarda teranroq anglash imkonini beradi. Ularning badiiy qahramonlarining o'y-mulohazalari, kechinmalari olam va borliq haqida tafakkur qiladi. Tafakkurning zamirida esa shaxs qismati, erki, ozodligi, insoniy fazilatlar, yovuzlik va vahshilik kabi xislatlar inikosini totib boradi.

Jek Londonning hikoyalaridagi badiiy qahramon o'zligini, oilasini, vatanini anglash yo'liga kira boshlagan bo'lsa, ularning ma'lum bir nuqtadaga holatlari, achchiq qismat, murakkab taqdir asosida qahramon evolyutsiyasi namoyon bo'ladi.

M.M.Do'stning hikoyalaridagi inson va uning qismati, ularning psixologik talqin xususiyatlarini kengroq talqin etish imkonini bergan. Chunki ijodkor olam va odamni teran anglar ekan, uning botiniy olamidagi o'zgarishlarni, ruhiy-ma'naviy istirobalrini badiiy talqin etishda turli psixologik vositalardan unumli foydalanish imkonini yuzaga chiqaradi.

Xayriddin Sulton qahramonlarining tafakkur dunyosining o'zgarishi, olam va odamga taran nazar solish, hayotning turfa xil murakkabliklarini anglash imkonini beradi. Shu jihatdan bir qator hikoyalaridagi talqinlar, shaxs erki, uning jamiyatdagi o'rnini anglashga bo'lgan xislatni shakllantiradi.

Ushbu ilmiy maqolada olg'a surilgan misolalar, xulosalar, nazariy fikrlar AQSh va O'zbekiston adabiyoti va adabiyotshunoslik fanida hikoya janri va uning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda muhim manba sifatida asqatadi.

Maqolada bayon qilingan ilmiy hamda nazariy xulosalardan oliy ta'limda jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tishda, qiyosiy adabiyotshunoslikka bag'ishlangan maxsus o'quv mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Jahon adabiyotidagi yetakchi tamoyillar o'zbek ijodkorlarining poetik tasviriga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shu jihatdan, Jek London va Vashington Irving asarlaridagi psixologik talqinlarni, inson tafakkuridagi evrilishlarni M.M.Do'st va X.Sultonov hikoyalarida ham teran aks etishi, adabiy aloqalarning badiiy funksiyasining ta'siri deb qarash, shu nuqtaiy nazardan tahlil qilish an'anasini kengaytirdi. Ushbu adiblarning asarlari amerika va o'zbek hikoyachilik janrining rivojlanishi va taraqqiy etishida nodir namunalar sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Акбарова С.Т. Американская литература и Восток (на примере первой половины XX века) – Ташкент. АКД, 2002. стр.6
2. London J. Hikoyalar. "Yangi asr avlodi", T., 1910, (176 b.)
3. Владимирова Н., Султонова М. Узбекский советский рассказ. – Т.: "Фан", 1962, (стр.210).
4. Норматов У. Основные тенденции развития современного узбекского рассказа (1950-1961). – Т.: АКД, 1963. (стр.26).
5. Пирматов Қодир. Мастерство саида Ахмада – новеллиста. – Т.: АКД.,1973. (стр.24).
6. Юлдашев Тулкунбай. Традиции А.П.Чехова в формировании узбекского реалистического рассказа 20-30 годов. – Т.: АКД., 1977. (стр.24).
7. Elboyeva M. B. Jek London va Murod Muhammad Do'st hikoyalarida shaxs va jamiyat munosabatlarining psixologik tasviri. BuxDU ilmiy axborotnomasi. 6/2023. 158 bet
8. Sharafiddinov O. "Galatepaga qaytish" qissasiga so'zboshi // "Yoshlik" jurnali, 1982 yil, 7-son. – 4-bet.
9. Akhmedov R.Sh. (2021). Factors of International Dominance of American Science Fiction of the 20th Century. *Bulletin of Gulistan State University*, 3(87): 45-53. URL: <https://unilibrary.uz/articles/91245>

Muallif:

Elboyeva Madina Botirovna - Shahrisabz davlat pedagogika instituti, "Xorijiy tillar nazariyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi.

UDK:894:375-3

ANALYSIS OF THE RAUF PARFI TRIPLETS AND THE HOKKU GENRE

RAUF PARFI UCHLIKLARI VA XOKKU JANRI TAHLILI

АНАЛИЗ ТРИПЛЕТА РАУФА ПАРФИ И ЖАНРА ХОККУ

Eshdavlatova Aziza Ubaydulla qizi

Qarshi davlat universiteti. 180119. Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy

E-mail: eshdavlatova1991@mail.ru

Abstract. The article presents a scientific approach to the formal and semantic analysis of hokku and triplets, which occupy an important place in the works of Rauf Parfi. The structural structure of the hokku genre, the rules of writing hokku are explained based on the research of Russian and English literary experts. Also, poems from the works of the famous Japanese poet Matsuo Basyo are analyzed. Common and different aspects of Rauf Parfi's triplets and Matsuo Basyo's hokku are revealed.

Key words: hokku, Rauf Parfi, Matsuo Basyo, kigo, Zen school, triplets, Ronin, sakura, samurai.

Аннотация. В статье представлен научный подход к формальному и семантическому анализу хокку и триплетов, занимающих важное место в творчестве Рауфа Парфи. На основе исследований русских и английских литературоведов объяснены структурная структура жанра хокку, правила написания хокку. Также анализируются стихи из произведений известного японского поэта Мацуо Басё. Выявлены общие и различные аспекты тройной Рауфа Парфи и хокку Мацуо Басё.

Ключевые слова: хокку, Рауф Парфи, Мацуо Басё, киго, школа Дзэн, тройня, Ронин, сакура, самурай.

Kirish. Har bir xalqning adabiyoti ming yillik tarix va asrlar osha mavjud milliy anʼanalar bulogʻidan suv ichadi. Adabiyotning rivoji va tafakkur kengligida boshqa xalqlar adabiyotining ham oʻziga xos oʻrni bor. Yapon adabiyotini oʻrganish va bu tildagi yetuk asarlarni tarjima qilish ham shular sirasiga kiradi. Tarjimonlarimiz eng durdona, eng sermazmun, yangicha janrga ega asarlarni tarjima qilishar ekan, ushbu tarjima qilinayotgan asarlar oʻzbek kitobxonlari uchun manfaatli boʻlishi asosiy maqsad hisoblanadi.

Yapon sheʼriyatining noyob janrlaridan biri – xokku boʻlib, u yapon xalqi madaniy qadriyatlarining asosini oʻzida jamlaydi. Yapon xalqi falsafasi, uning dunyoqarashini xokkularidan boshqa asar namunasi bunchalik aniq ochib bera olmagan boʻlardir. Xokkularida yapon xalqining orzu-umidlari, oʻziga xos qarashlari aks etadi. Xokkuda sharq xalqining donoligi, insonning hayotdan maqsadi, tabiat hodisalari goʻzal holda yoritib beriladi. Yapon sheʼriyati xokkularida yapon madaniyatining barcha goʻzalligi va uygʻunligi aks ettirilgan.

Adabiyotlar tahlili. Xokkular juda qisqa, loʻnda, biroq falsafaviy maʼnosi juda keng hisoblanadi. Ushbu sheʼriy shakl 17 boʻgʻindan tashkil topib, 5 – 7-5 boʻgʻinlar taqsimotiga koʻra uch satrdan iborat. Ammo yapon tilida xokkular bir satrda yoziladi. Xokku janrini haiku, xokku kabi muqobil nomlarda ham uchratish mumkin. Xokkuda mavsumiylik tamoyiliga muhim oʻrin berilgan. “Kigo” deb atalgan mavsum soʻzlari – 4 fasl va yangi yilga ishora qiladi. Xokkuda ishlatiladigan mavsumiy soʻzlar lugʻati – “saijiki” deb ataladi. [10].

| | |
|------------------|---|
| Bahor | Xinamatsuri (qoʻgʻirchoqlar bayrami), uguisu (qamishovka), ume (olxoʻri gullari), xana yoki sakura (yapon gilosi) |
| Yoz | Niji (kamalak), fu:rin (shamolda jiringlayotgan qoʻngʻiroq), kingu (oltin baliq), himavari (kungaboqar) |
| Kuz | Maygetsu (kuzgi kun va tun tenglashishidan oldingi toʻlin oy), inekari (guruch yigʻim-terimi), samma (sayra), sika (kiyik), momiji (kuzgi burglar) |
| Qish | Simo (sovuq), tsurara (muz), tsuru (buloq), mikan (mandarin) |
| Yangi yil | Kadomatsu (qaragʻay bezaklari), otosidama (bolalarga yangi yil sovgʻalari), xatsuyume (yilning birinchi uyqusi), xatsumo:de (yilning birinchi ziyoratgohi), mochi (guruch pishiriqlari) |

Mavsumiylikning yaponcha talqini koʻp narsalarni anglatadi, masalan, maʼlum bir mavsumda kimononing qanday ranglari qoʻllanilishi, mehmonlar uchun choy toʻplamining maʼlum bir dizaynini tanlash, Ikebana sanʼatida qanday gullar ishlatilishi, xonada osilgan kakejiku choyi qogʻozi ham uy egasi va mehmonlarga boshdan kechirayotgan mavsumni aks ettirishi va eslatishi mumkin.

Mavsumiylik talqini koʻra, fasllar muqarrar ravishda almashib turadi va siz ularning har biridagi “goʻzallik”ni sezishingiz va har bir lahzani qoʻldan boy bermasdan, undan chin dildan bahramand boʻlishingiz lozim. Shunday qilib, yapon simbolizmiga koʻra, fasllarning oʻzgarishi tufayli, butun hayot yangilanadi. Yangi mavsum sizga oʻziga xos narsalarni olib kelganda ularning har biri bilan uchrashishga tayyor turishni anglashingiz kerak boʻladi.

Olim Oltinbek oʻzining chuqur ilmiy izlanishlarida, yapon sheʼriyati bevosita dzen taʼlimoti bilan bogʻliq ekanligini taʼkidlaydi. “Dzen maktabida sigʻinadigan tasvir yoʻq. Bu yerlarda doim koʻzlarni yumib olib, dunyodan toʻlatoʻkis uzilmaguncha jim, qimirlamay oʻtiriladi. Shunda “men” yoʻqolib, “hech nima” holati yuzaga keladi. Bu – boʻshliq. Undagi hamma narsa toʻsiqlar va cheklovlar ortida boʻladi. Boʻshliq haqiqiy boʻshliqqa aylanadi. Bu – ruhning cheksiz Olami! Dzenda ham ustozlar bor, ular shogirdlariga mondo (savol-javob) usuli bilan saboq beradilar, qadimiy dzen bitiklarini oʻrgatadilar, biroq shogird oʻz fikrlariga oʻzi hokim boʻlib qolaveradi va u dilning gʻayriixtiyoriy holatiga oʻz kuchi bilan erishadi. Bu oʻrinda mantiqdan koʻra ichki hissiyot, birovdan olgan bilimdan koʻra ichdan uygʻonish holati muhim”. [11]

Rus adabiyotshunoslari esa xokkuning tabiat tasviri bilan bevosita bogʻliq ekanligini oʻz ilmiy izlanishlarida qayd etadi. “Xayku tersetlari shoir va boʻlajak oʻquvchi nigohini inson yonma-yon yashayotgan dunyoda muhit va aynan tabiat xususiyatlariga qaratadi. Birgina inson buyuk sovgʻa - aql bilan taqdirlangan, shu tufayli nafaqat atrofdagi tabiatning hayot oqimiga eʼtibor qaratish, balki u bilan uygʻunlikda yashash, maʼnaviy ozuqa olish mumkin boʻladi.” [17]

“Xokkuning asosiy xususiyati shundaki, u besh misrali tankaga qaraganda qisqa va chuqur maʼnoli. Shaklning qisqaligi sheʼriy – lingvistik sohaning oʻziga xos turini yaratishga xizmat qildi. Xokkuning asosiy mavzusi – tabiat, fasllarning almashinishidir.” [16] Bunda xokku tabiatdagi muhim hodisalarni oʻzgacha tarzda anglash va oʻsha lahzaga “mavjudlik” qiymatini berishga undaydi. Masalan, Xitoyda sakura(gilos) daraxti gullashi “sevgi” ramziy maʼnosini anglatadi, Yaponiyada esa bu – hayotning oʻtkinchi va omonatligini bildiradi. Qadimiy rivoyatlarga koʻra, quyosh chiqayotgan mamlakatdagi har bir gilos guli jangda halok boʻlgan buyuk samuray jangchisining bevosita timsoli. Har bir samurayning ruhi sakura gulida yashaydi, deb ishoniladi. Gilos gullariga alohida munosabat yapon xalqi madaniy qadriyatlarining asosidir. Gilos gullarini sevgan va qadrlagan odam, qaysidir maʼnoda, oʻz xalqi uchun qurbon boʻlgan jasur samuraylarga hurmat va ehtirom koʻrsatayotgan boʻladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Xokku semantikasidagi eng noyob jihat bu - tabiatning oʻzi taqdim etadigan, lekin ayni paytda yashirin boʻlgan goʻzallik va oniy lahza ifodasidir. Shu sababli xokku janridagi yapon milliy madaniyatiga tegishli semiotik belgilar barcha uchun ham tushunarli boʻlavermaydi. Ular asosan milliy madaniyat tarixiga bogʻlanib, bir

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

necha ramziy ma'nolarni anglatadi. Xokku tarkibida ikki elementni bir –biriga moslashtirish (bu o'xshatish emas) aynan shoir falsafasi va mohiyatiga ko'ra amalga oshiriladi. Bu "kireji" deb ataladi. Bunda men, kana, keru kabi so'zlar ishlatiladi. Ammo bu yapon she'riyatining o'z vakillariga aynan tushunarlidir, sababi boshqa tillarda bu so'zlar muqobil tarjimaga ega emas, ya'ni bu so'zlarning o'rniga ma'lum tinish belgilari (chiziqcha, ikki nuqta, nuqtali vergul) ishlatiladi.

Shubhalanma!

Dengizning o'z bahori bor:

To'lqin gullari. [6]

Ushbu xokkuda kireji – ikki nuqta yordamida ajratilmoqda. Rus va ingliz tiliga tarjima qilingan xokkularda ham shu qoida amal qiladi, ya'ni so'zlar o'rniga tinish belgilari qo'yilgan. Xokkularda qofiya mavjud emasligi ijodkorning yanada erkin qalam tebratishga imkoniyat yaratadi. Xokkular XVII asrgacha hajviy she'r shaklida yozilgan. Shoir Matsuo Basyo (1644-1694) (ingliz tilidagi ilmiy tadqiqot manbalarida Basho) yapon she'riyati olamiga kirib kelishi bilan xokkuni jiddiy janrga aylantirdi. Matsuo Basyo (Bashō) – Igo viloyatining Ueno qal'a-shahrida tug'ilgan. Otasi Matsuo Yodzaemon samuraylardan edi. Basyo (banan chayla) – uning adabiy taxallusi. U o'qituvchi sifatida tirikchilik qildi; ammo keyin shahar hayotidan voz kechdi va o'z ijodini rivojlantirish uchun ilhom manbalarni izlab G'arbiy, Sharqiy va uzoq Shimoliy cho'llarga butun mamlakat bo'ylab sayr qildi. Uning dunyo haqidagi tajribasi ijodiga ta'sir ko'rsatdi, ko'pincha chuqur mazmunni, mohiyat tuyg'usini bir nechta oddiy elementlarda qamrab oldi. Shoirning "Toshko'mir qopi"(1694), "Maymunning poxol jandasi"(1698) kitoblaridan tashqari, yo'l kundaliklari bilan bog'liq nasru nazm o'zaro almashib kelgan besh kitobi: "Dalada oqarib yotgan so'ngaklar", "Kasimada sayohat", "Jahongashta shoir maktublari", "Sarasin sayohati kundaligi" va "Shimol qoyalari bo'ylab" kitoblari bizgacha yetib kelgan.



Tomioko Eisen (1900-1910 y.) "Osilgan she'r" (izoh. Qiz xokku yozilgan she'rni daraxtga osmoqda, chap tomonda xokkuning buyuk ustasi Matsuo Basyo. Surat ukiyo-e.org saytidan olindi)

Jahon adabiyotida XX asrga kelib xokku juda mashhur bo'ldi. Xususan M. Basyoning xokkulari David Landis Barnhill (Bashō's Journey: Selected Literary Prose by Matsuo Bashō, 2005), Donald Keene (The Narrow Road to Oku, 1997), Sam Hamill (The Essential Bashō, 1999), Bob While (Winter Solitude, 2015) lar tomonidan ingliz tiliga tarjima qilindi. Rus adabiyotida eng birinchi xokku tarjimalari Konstantin Balmont tomonidan amalga oshirildi. "Balmont 1916 - yilda Yaponiyaga tashrif buyurgan va bu mamlakatga tashrif buyurgan birinchi rus shoiri edi" [21] Azadovskiy o'zining "Balmont va Yaponiya" kitobida aytganidek: "... o'zi uchun kutilmaganda u Yaponiyada rus adabiyoti haqidagi bilim va tushunchaga duch keldi, bu esa uni samimiy hayratda qoldirdi" [12].

Vera Markova, Valeriy Bryusov, Yu.B. Orlitskiy [20], K. Azadovskiy [12] va E. Dyakonova [16] tadqiqotlari, Nikolay Boldirev tomonidan tuzilgan rus Zen antologiyasi [13], T.P. asarlarida taqdim etilgan yapon miniatyuralarining ruscha tarjimalari xokku janri o'rganilishida muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbek adabiyotida dastlabki xokku tarjimoni Rauf Parfidir. Keyinchalik Xurshid Davron, Jabbor Eshonqul, Farida Afro'zlar tomonidan xokku tarjimalari davom ettirildi. Olim Oltinbek "Xokkuning ilk tarjimoni" maqolasida quyidagi muhim ma'lumotlarni keltiradi: "Xokku, tanka, rondo, rondel kabi jahon poeziyasi janrlarining milliy she'riyatimizga kirib kelishi, bevosita, shoir nomi bilan bog'liq. "Xokkular" nomi ostida chop etilgan uning ilk uchliklari 1963 - yilda yozilgan edi. 1961- yilda tarjima qilingan oltmishta xokku esa shoirning yapon she'riyati bilan juda erta qiziqqanini ko'rsatadi. Qizig'i shundaki, bu tarjimalar bugunga qadar e'lon qilinmagan. Ular Sulhida Yolg'iz qo'lida saqlanayotgan daftarlarning biridan o'rin olgan. Shoidan 50–60-yillar ijodini o'zida jamlagan yigirmata (hozircha topilganlari) daftar saqlanib qolgan. Ularning aksariyati ko'p varaqli umumiy daftarlar. Tarjima xokkular o'rin olgani esa mavjud daftarlarning xronologiya bo'yicha yettinchisi hisoblanadi. U 57 varaq (114 bet) dan iborat.

Yapon xokkulari tarjimasiga qo'l urgan 1961 - yilda Rauf Parfining rus tilini bilish darajasi, she'r tarjimasi borasida orttirgan tajribalaridan tashqari yapon she'riyati bilan ham yetarlicha ma'lumotga ega edi." [6] Shoirning ijod daftaridan o'rin olgan tarjimalar talabalik yillariga to'g'ri kelsada, xokkularning mohiyatini chuqur anglab, shoirona latif ilhom bilan yondoshgan deya olamiz. Rauf Parfi xokkularni "Uchlik" deb ataydi va keyinchalik o'zi ham shu nomdagi ijod namunalarini yaratdi. Rauf Parfining "Tuyg'ular" deb nomlangan xokkulari jamlanmasi "Qaytish", "Ko'zlar", "Turkiston ruhi", "Sakina" kabi to'plamlariga kiritilgan.

Rus tiliga Vera Markova tomonidan tarjima qilingan xokkularni R.Parfi mohirona tarzda o‘zbek tiliga tarjima qildi:


Sovuq yomg‘ir savar beomon.
Ivigandir rosa kuchuk ham:
Tun qo‘ynidan kelar ovozi [6]

Ushbu xokkuda mavsumiy so‘z (kigo) sovuq yomg‘ir bo‘lib, kuz fasliga ishora qiladi. Tarjimadagi ikki nuqta kesish(kireji) vazifasini bajarmoqda. Yapon tilida bu tinish belgilari bilan ifodalanmaydi. Biz tarjimada xokkning 5-7-5 bo‘g‘in qoidasi bilan ham qat‘iy ishlay olmaymiz. Sababi IX asrga kelib yapon tilining fonetikasi shakllandi, shu jumladan atigi 5 ta unli (a, i, y, e, o) va 10 ta undosh (ovozli undoshlardan tashqari) qabul qilindi. Bunday fonetik ko‘rsatkichlar tabiiyki, boshqa tillarning fonetik me‘yorlariga to‘g‘ri kelmaydi. Yapon tilida bo‘g‘in heche deb ataladi. Yapon tilidagi hechelar sanog‘ida og‘zaki nutqdagi 2 bo‘g‘inli so‘zni orfografik me‘yorga ko‘ra 3 bo‘g‘in deb hisoblash mumkin. Masalan, "xayku" so‘zining o‘zi ikki bo‘g‘inli so‘z sifatida eshitaladi, lekin u uchta bo‘g‘inga ega deb hisoblanadi (ha-i-ku). Ushbu format an‘anaviy ravishda jiamari (harflarning ko‘pligi) va jitarazu (harflarning etishmasligi) deb nomlangan ba‘zi o‘zgarishlarga imkon beradi. Rasmiy ravishda she‘r hechelarning soniga asoslanadi.

Buncha yugurasan, yelasan; qo‘shnimning kuchugi,
Ko‘zlaringga shodlik to‘lib qolgan,
Baxtlimisan shuncha? [8]

Rauf Parfi xuddi Balmont kabi Yapon she‘riyatiga oshiq bo‘lib qolgan edi. Shu boisdan o‘zi ham uchliklar yozdi. “San’atkor ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda bo‘lg‘usi asarning shaklini belgilaydi, yana ham aniqrog‘i, bo‘lg‘usi asarning mazmuni uning shaklini belgilaydi”()Uning “ijodiy niyat”i yapon shoirlari kabi qisqa shaklga keng mazmuni joylash edi. To‘g‘ri, shoirning uchliklari bo‘g‘inlar soniga va ichki tarkibiga ko‘ra xokku janriga mos kelmaydi, ammo falsafiy mazmunning zalvoriga ko‘ra mohiyatan mengzaydi. Diqqatimizni qaratishimiz lozim bo‘lgan bir jihat xokkulardagi ma‘lum bir “detal”lar uchliklar tarkibida ham bor. Masalan, “kuchuk” detali M.Basyoda aftodahol tarzda kelsa, R.Parfida “shodlikka to‘lgan” holatda qatnashadi.

Tun. Zimiston. Men yotdim,
Chiroqqa yo‘q moy... Birdan
Derazadan boqar oy! [6]



Kavase Hasui (1931 y.) “Qishki oy” (izoh. Ronin galareyasi, surat ukiyo-e.org saytidan olindi)

Xokkuda har doim ikkita qism mavjud – umumiy va o‘ziga xos aniq tasavvur uyg‘otuvchi qismlar. Umumiy qism xokkuni tabiiy dunyo bilan keng ma‘noda bog‘laydi. Bunday korrelyatsiyada asosiy rolni har bir she‘r uchun majburiy bo‘lgan mavsumiy so‘z kigo o‘ynaydi. Bu, aslida, xaykuning tabiat sikliga tegishli ekanligiga ishora. She‘rning ma‘no markazi bo‘lgan kigo haqida-yaponlar “unutilganlarni tiriltiradi” deyishadi [19,]. Mavsumiy so‘zlar tabiatning o‘ziga xos manzaralarini va ular keltirib chiqaradigan his-tuyg‘ularni deyarli avtomatik ravishda qayta tiklaydigan o‘ziga xos “fasl formulalari” yoki “belgilar”ni hosil qiladi. Xaykuning yana bir qismi – aniq tasvirlangan (aniqrog‘i nomlangan) narsalarning obyektiv, aniq dunyosi mavjudligidir. Avval boshdan janr klassiklari xokkning tor maydonida shunchaki narsalarni nomlash kuchli taassurot qoldirishi mumkin deb hisoblashgan. "Xaykuda narsalar va hodisalar haqidagi ortiqcha so‘zlarga o‘rin yo‘q: ular oddiy tovushlar bilan inson qalbini o‘ziga jalb qiladi." [19]. M.Basyoning ushbu xokkusida mavsumiy so‘z “oy”, uning zimiston qo‘ynidan chiqib kelishi vaqt mezonini belgilaydi.

Tovushlarga ko‘milib qoldim,
Zalvor qorli tovushlarga.
Junjiktirar oynning nolasi [8]

Rauf Parfining ushbu uchligida ham xokkudagi kabi “oy” detali ishtirok etadi. Faqat bunda ramziylik juda kuchli, shoirning ruhi og‘irdek... Yan Parandovskiy aytadiki: “Qotib qolgan qayg‘u-anduhlarni, taassuflarni, xavotirliklar, g‘ashlik va g‘azabni so‘zga ishonib topshirish ruhan poklanmoq demakdir. Ba‘zan esa bu nobud bo‘lishdan yoki jinni

bo‘lib qolishdan saqlab qoladigan yagona choradir”. [22] Xokkuning asosiy maqsadi, o‘quvchini o‘ylantirib qo‘yish, hayot mohiyatini anglashga undashdir. Rauf Parfi ham uchliklari orqali o‘quvchiga o‘zini anglatmoqchi bo‘ladi.

“Shamolga osilib yashadim” turkumida qisqalik bilan ko‘p ma‘noni uchliklarda mujassamlaydi. “Dunyosiga qo‘ydim qo‘limni”, “Tog‘larimga cho‘kdi osmon”, “Balki men mahkumman, balki siz jallo” satrlarida ijodkorning dunyo ishlaridan norozilik tuyg‘ulari, nafs bilan kurashuvi, ishq bilan yuzlashuvi o‘z ifodasini topadi. Tasavvufiy mazmun yuklangan bu uchliklar Rauf Parfi mahoratidan darak beradi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, sharq donishmandligining beqiyos sohiblari, xokku olamidagi eng buyuk so‘z ustalarining uch misrali asarlarini bir necha sahifalarda syujet va falsafani tasvirlash orqali izohlash mumkin. Bu yerda nafaqat har bir so‘z va ritm ma‘lum obrazlarni, balki satrlar orasiga yashiringan ma‘no ham ko‘p narsani aytib berishi mumkin. Axir, aynan satrlar orasida muallif tomonidan aytilmagan falsafaning bebaho kurtaklari yotadi. She‘rdagi asosiy g‘oyani o‘quvchining o‘zi ichki kechinmalari orqali anglab, anglamni o‘z fikr daryosiga "qo‘shishi" kerak.

Xokkuning har bir parchasi, qanday qaramang, insonni tabiat bilan birlashtiradi, unga ajoyib tuyg‘ular, ruhiy holat va izlanayotgan uyg‘unlikni beradi. Shuni esda tutish kerakki, ularning har birida muallif o‘z qalbining bir bo‘lagini emas, balki batafsil syujetni ham qo‘ygan, bu o‘quvchiga o‘z qalbiga satrlar orqali qarash va hayotning sakura gulbargining tezligi kabi o‘tkinchi ekanligini his qilish imkonini beradi. Ibtido va intiho oralig‘ida har bir uchrashuvni qadrlash, har bir daqiqani sevish qanchalik muhim. Ruhiy tafakkurimiz shoiri bo‘lgan Rauf Parfi ham yapon shoiri Matsuo Basyo kabi odatiy hayot o‘zanida oqmas, bil‘aks yurtini junun kabi sevdi, hayotni fano deb bildi va so‘zni e‘zoz etdi. Shu boisdan ham shoirning she‘rlari doimo muxlislari tafakkurida, ruhida sakura daraxti kabi qayta –qayta gullayveradi.

Yapon falsafasi yana bir qadimiy hikmatni aytadi - "Sakura gulbargining tushish tezligi sekundiga besh santimetr". Mantiqan, yaponlar uchun bu hikmat chinakam qadrlil bo‘lib, aynan shu tezlikda qalblar bir-biri bilan topishadi va bir-biridan uzoqlashadi. Ba‘zan shaxsiy tamoyillarimiz muhim ahamiyatga egadek ichki egomizga ta‘sir qiladi va bizga hayotimizni hamma narsadan qimmatliroq qilib ko‘rsatadi. Ammo unutmaylikki - sakura gulbargi juda tez tushadi - xuddi hayotning yakuni kabi.

Adabiyotlar:

1. Dilmurod Qur‘onov. Adabiyotshunoslikka kirish. T – 2004, 87-b
2. Matsuo, Bashō (1997). *The Narrow Road to Oku*. trans. Donald Keene, illustrated by Masayuki Miyata. Tokyo: Kodansha International. [ISBN 978-4-7700-2028-4](#).
3. Matsuo, Bashō (1999). *The Essential Bashō*. trans. Sam Hamill. Boston: Shambhala. [ISBN 978-1-57062-282-3](#).
4. Matsuo, Bashō (2005). *Bashō's Journey: Selected Literary Prose by Matsuo Bashō*. trans. David Landis Barnhill. Albany, NY: State University of New York Press. [ISBN 978-0-7914-6414-4](#).
5. Matsuo, Bashō (2015). *Winter Solitude*. trans. Bob While, illustrated by Tony Vera. Saarbrücken: Calambac Verlag. [ISBN 978-3-943117-85-1](#).
6. Olim Oltinbek Xokkuning ilk tarjimoni – 2018, <http://kh-davron.uz>
7. Parfi R. Karvon yo‘li. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969 – bet 18.
8. Parfi R. Sakina (saylanma). T.: Muharrir, 2013 – bet 34.
9. Parfi R. She‘rlar. T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016 – bet 43.
10. Richard Medxarst *Japanese Haiku Poetry: The Art of Brevity* <http://nippon.com>
11. Yasunari Kavabata. Yaponiya chiroyidan nur emgan. “Jahon adabiyoti”, 2010 yil, 8-son. 166-bet. Q. Do‘stmuhammad tarjimasi.
12. Азадовский К., Дьяконова Е. Бальмонт и Япония. – М., 1991.
13. Антология дзэн / сост. Н. Болдырев. – М., 2004.
14. Барт Р. Империя знаков. – М., 2002.
15. Брюсов В.Я. Собр. соч.: в 7 т. – М., 1973. – Т. 2.
16. Дьяконова Е.М. Поэзия японского жанра трехстиший (хайку). Происхождение и главные черты // Труды по культурной антропологии. – М., 2002. – С. 189–201.
17. Злыгостев В.Ю. Хоккубана: изящный симбиоз японской поэзии «хокку» и японской флористики «икебана»
18. Марковой В.Н., Сановича В.С. Японские трехстишия. Бабочки полет / вступ. ст. и прим. – М., 2002.
19. Масаока Сики сю (Собрание сочинений Масаока Сики). – Гэндай нихон бунгаку дзэнсю (Полное собрание произведений современной японской литературы). Т. т.3, 4, Т., 1961.
20. Орлицкий Ю.Б. Цветы чужого сада. (Японская стихотворная миниатюра на русской почве) // Арион. – 1998. – № 2. <http://haku.ru/frog/orlistky.htm>.
21. Пуртова Т.О. Стилизация хокку в лирике Бальмонта Екатеринбург, УрГПУ
22. Ян Парандовский Алхимия слова. — М.: Прогресс, 1972.

Muallif:

Eshdavlatova Aziza Ubaydulla qizi - Qarshi davlat universiteti, O‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida doktoranti.

УДК:811.512.133 (038). 81'242

RELATIONSHIP OF WORD AND TERM

SO'Z VA TERMIN MUNOSABATI

СООТНОШЕНИЕ СЛОВА И ТЕРМИНА

Ermatov Ixtiyor Rizoqulovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: ermatov.ixtiyor@mail.ru

Abstract. This article focuses on the problems of Uzbek linguistics, in particular, on the differences and similarities between words and terms in the terminology system. Word is the basic unit of language. It is impossible to imagine language without speech sounds, grammatical forms and outside the process of communication. A system of speech sounds, a complex of morphological forms and devices serving for communication - all together make up the language, its whole organism. All this is formed with the help of words. Therefore, the word is considered the main and central unit of language [6]. One of the functional-semantic forms of a word is a term. The fact that words and terms are "partially similar" to the content aspect of language is that, as mentioned above, the content aspect of words includes the meanings formalized in the common memory of the people, while the content aspect of terms refers to specific science, technology and professions. includes the concepts formalized in the memory of some specialized group of individuals. Concept and meaning, although they are common phenomena related to the content aspect of the language, they differ from each other: the "scope of action" of the concept is wider than the "scope of action" of the meaning, because the meaning is an ideal unit included in the scope of the concept. The research used the following methods of scientific analysis: linguistic description, system, statistical, contextual analysis methods. The method of linguistic analysis was used in the analysis of scientific literature on the research topic. The system analysis method was used to clarify the development of linguistic terms. The results of the research will help to organize the terms and interpret the meanings based on the analysis of term and word relations in the terminological system and to include them in the general vocabulary. Linguistic terms serve as illustrative material of the article.

Keywords: word, term, lexicon, synonym, homonym, hyperonym, hyponym, equonym, equonymy relation, language levels, etc.

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется проблемам узбекского языкознания, в частности различиям и сходствам слов и терминов в терминосистеме. Слово – основная единица языка. Невозможно представить язык без звуков речи, грамматических форм и вне процесса общения. Система звуков речи, комплекс морфологических форм и средств, служащих для общения, - все вместе составляет язык, весь его организм. Все это формируется с помощью слов. Поэтому слово считается основной и центральной единицей языка [6]. Одной из функционально-семантических форм слова является термин. «Частичное сходство» слов и терминов с содержательной стороной языка заключается в том, что, как уже говорилось выше, содержательная сторона слов включает в себя значения, формализованные в общей памяти народа, тогда как содержательная сторона терминов относится к конкретным наука, техника и профессии. включает понятия, формализованные в памяти некоторой специализированной группы индивидов. Понятие и значение, хотя и являются общими явлениями, связанными с содержательной стороной языка, но отличаются друг от друга: «сфера действия» понятия шире, чем «сфера действия» значения, поскольку смысл идеальный агрегат, входящий в рамки концепции. В исследовании использовались следующие методы научного анализа: лингвистическое описание, системный, статистический, контекстуальный методы анализа. Метод лингвистического анализа был использован при анализе научной литературы по теме исследования. Метод системного анализа был использован для уточнения разработки лингвистических терминов. Результаты исследования помогут систематизировать термины и интерпретировать значения на основе анализа термино-словных отношений в терминологической системе и включить их в общий словарный запас. Иллюстративным материалом статьи служат лингвистические термины.

Ключевые слова: слово, термин, лексика, синоним, омоним, гипероним, гипоним, эквоним, отношение эквонимии, языковые уровни и т.д.

Kirish. Jahon tilshunosligida milliy tillarning paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanish bosqichlari turli aspektlarda o'rganilgan. Har qanday fan tadqiqining asosiy vositasi bo'lgan terminlar, ularning lingvistik tabiati, yuzaga kelish manbalari, yasalish usullari, terminlarning tuzilishiga ko'ra turlari, ulardagi sinonimlik va dubletlikni bartaraf qilish yo'llari, termin va tushuncha munosabati kabilar ham tilshunoslikdagi asosiy masalalaridan biriga aylangan.

Jahon tilshunosligida lingvistik terminologiyaning paydo bo'lishi va alohida terminologik qatlam sifatida shakllanishini antropotsentrik planda tadqiq etish, terminlarning lingvistik tushunchani qay darajada ifodalashidan kelib chiqib tartibga solish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu ma'noda tilshunoslikning rivoji bilan yangi terminlarining paydo bo'lishi, terminlardagi ekvonomik munosabatlar, sinonimiya, polisemiya va variantlilikning yuzaga kelish

sabablarini aniqlash, o'zlashma terminlarning milliy terminologik tizimga ta'sirini ochib berish, murakkab tarkibli terminlarning hosil bo'lishi yuzasidan aniq xulosalarga kelish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyotga erishishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, milliy-madaniy qadriyatlarning tiklanishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'zbek tili leksikasining boyishi va rivojlanishi ham istiqbol yaratgan imkoniyatlar bilan bog'liq bo'ldi. Shuning barobarida o'zbek tilshunosligida ham tilimizning turkonga tabiatini aniqlashga yo'naltirilgan qator tadqiqotlar bajarildi. O'zbek tilshunoslari terminologiyani tartibga solish, o'zbek tilidagi turli soha terminlarini izohlash, o'zbekcha termin yasash usullarini ishlab chiqish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Shu bilan bir qatorda, tilshunoslikning taraqqiy etib borishi bilan uning terminologiyasida ham tadqiq qilinishi zarur bo'lgan muammolar kelib chiqadi. Ana shunday masalalardan biri terminologiyada termin va so'z munosabatlarni o'zbek tili tilshunoslik terminlari misolida aniqlashdir. O'zbek tilshunosligida lug'aviy-semantik guruhlar o'rtasidagi munosabatlar tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan bo'lsa-da, terminologiya tizimidagi termin va so'z munosabati, terminologiyadagi ekvonomik munosabatlar yetarli darajada o'rganilgan emas. Xususan, R.Safarovning 1990-yilda himoya qilgan "O'zbek tilida giponimiya" deb atalgan dissertatsion tadqiqot ishi [1] hamda 1996-yilda nashr etilgan "Leksik semantik munosabatning turlari" risolasi [2] o'zbek tilida dastlabki ushbu yo'nalishda monografik planda o'rganilgan ish hisoblanadi. Bundan tashqari H.Ne'matov, E.Begmatov, R.Rasulovlar hammuallifligidagi "Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi" (Sistem leksikologiya tezislari) [3]; A.Nurmonovning 1992-yilda nashr etilgan "Lisoniy belgi xususiyatlari haqida"gi [4]; H.Ne'matov, R.Rasulovlar hammuallifligida nashr etilgan "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" [5]; A.Berdialiyev, I.Ermatovlar hammuallifligida nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" [6] asarlari tilning ushbu masalasiga bag'ishlangan. Tadqiqot ishi obyekti sifatida A.Hojjiyevning 1 700 dan ortiq so'z va so'z birikmasidan iborat "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" [7] hamda N.Mahkamov va I.Ermatov hammuallifligida nashr etilgan 1 500 ga yaqin so'z va so'z birikmasidan iborat "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" [8] tahlil qilinadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti o'zbek tili izohli lug'atlari hamda tilshunoslik terminlarining izohli lug'atlaridagi o'zbek tilshunoslik terminlari tashkil etadi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy tahlil metodlaridan foydalanilgan: lingvistik tavsiflash, sistem, statistik, kontekstual tahlil usullari. Tadqiqot mavzusiga doir ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda lingvistik tahlil usulidan foydalanilgan. Terminologik tizimda termin va so'z hamda ekvonomik munosabatlarni yoritishda sistem tahlil usuli qo'llanilgan. Statistik tahlil o'zbek tili izohli lug'atlarda tilshunoslik terminlarining o'rin olishi, aks etish xususiyatlarini o'rganishda keng foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Termin, ifoda planiga ko'ra, tilda rasmiy lisoniy maqomga ega so'zlardan farq qiladi. Chunki termin maqomida ish ko'ruvchi ayrim lisoniy birliklarning ifoda plani so'zning qaraganda sintagmatik jihatdan ancha murakkab (so'z birikmalari xarakterida) bo'lishi ham mumkin (masalan, *ergash gapli qo'shma gaplarni eslatuvchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar // ergash gapli qo'shma gaplarga sinonim bog'lovchisiz qo'shma gaplar* kabi). Lisoniy maqomdagi so'z bilan lisoniy maqomdagi termin munosabatidagi farq ularning ayni shu, ya'ni ifoda plani bilangina cheklanmaydi. So'z va termin orasidagi farq ularning mazmun planiga xos vazifasiga ko'ra ham belgilanadi va bu xususiyat so'z va terminni lisoniy farqlashda muhim va asosiy mezon hisoblanadi.

Atash vazifasi tilning barcha tur terminologik tizimi birliklari uchun xos bo'lgan vazifadir. Chunonchi, morfema, leksema, frazema va hatto sintaksemalar uchun ham xos bo'lgan izomorf lisoniy hodisadir. Biroq terminologik tizim birliklariga xos atash atashning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, ular ifodalagan ma'nolar ekspressivlik, emotsionallik singari ustama uslubiy-pragmatik "hissa"lardan xoli bo'ladi.

Muhimi shundaki, terminlar va ularning tizimi ham umumxalq leksikasining o'ziga xos lug'aviy qatlami sifatida leksikaning boshqa lug'aviy qatlamlari bilan bir xil lisoniy huquqqa ega bo'ladi. Shu sabab terminlar va ularning tizimi ham lisoniy jihatdan leksikaning boshqa lug'aviy qatlamlari kabi, tilning vazifaviy imkoniyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bir etnik jamoaga mansub xalq xo'jaligi, fan va texnikaning "ahvoli" shu etnik jamoaga xizmat qiluvchi tilning terminologik apparati va uning davr talab etgan saviyasi bilan belgilanadiki, bu jihatlar terminologik tizimning ekstralingvistik jabhasiga xos sotsiolingvistik xususiyatdir.


Shunisi xarakterliki, xalq xo'jaligi, fan va texnika sohasiga oid tushunchalar termini bo'lganligi uchun, bunday tizimda sinonimlik, variantlilik yoki dubletlikning bo'lishi lingvistik jihatdan maqbul hisoblanmaydi. Shunga qaramay, bu tizimni sinonimlik, dubletlikdan xoli deb bo'lmaydi. Bu holat tilshunoslikning o'ziga xos muammosi bo'lib, buning yechimi osonlikcha topilmasa kerak. Chunki davr talabi bilan "eski narsa"lar yangilanib turadi. Shu yangilanish dastlab tilda o'z in'ikosini topadi: eski "narsa" darhol yo'qolmaydi, u "yangi narsa" bilan ma'lum muddat muqobil holatda birgalikda "yashab turadi". Bu jarayon fanda *sinergetika* deb ataladi. Mazkur jarayonning tilga xos ko'rinishlari lingvistikada yangi tarmoq sifatida vazifaga kirishgan *lingvosinergetika* tarmog'ida o'rganiladi. Terminologik tizimga mansub sinonimiya, dubletlik va variantlilikka o'xshash ma'nodoshlik hodisalari, shubhasiz, sinergetika ta'sirida o'z faoliyatiga chek qo'ymaydi. Bu lisoniy jarayonlar barcha tillarning terminologik tizimida mushtarak amal qiladi. N.Mahmudov ta'kidlaganidek, sinergetikaning printsipalarini tilni o'rganishga tatbiq qilayotganda, ehtiyotkorlikni unutmagan ma'qul [9].

Soʻz va termin munosabatidagi farqlar yuqorida keltirilgan bu jihatlar bilan chegaralanmaydi, albatta. Soʻz va termin munosabatidagi bu kabi farqlar alohida tadqiqot obyekti sanaladi.

Xullas, terminologik tizim til lugʻat tarkibining lisoniy jihatdan oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan alohida va murakkab qatlamidir. Ular yordamida, yuqorida ham aytilganidek, xalq xoʻjaligi, fan va texnika sohalariga mansub tushunchalar nomlanadi. Termin va soʻz munosabatidagi dastlabki farqlar, asosan, ana shu jihatlarda koʻzga tashlanadi.

Maʼnodosh soʻzlar guruhidan tashkil topuvchi lugʻaviy-mazmuniy medioqurilmalar va ularni hosil qiluvchi vazifaviy-mazmuniy birliklar lisoniy jihatdan lugʻaviy-mazmuniy medioqurilmalarning yuqorida keltirilgan oldingi tur va koʻrinishlaridan bir muncha murakkabdir. Bu guruh dastlab *zid maʼnoli* va *zid boʻlmagan maʼnoli lugʻaviy birliklar* kabi ikki guruhga ajraladi. Zid maʼnoli guruhni *antonimlar* (oppozitivlar), shuningdek, qisman *ekvonimlar* tashkil qiladi.

Soʻz va termin munosabatidagi farqli jihatlar. Soʻz va termin munosabatidagi bu farq, eng avvalo, quyidagilarda koʻzga tashlanadi: a) soʻz terminga nisbatan avval paydo boʻladi; b) soʻz xalq tomonidan yaratiladi, yaʼni soʻzning “ijodkori” xalqdir, termin esa, muayyan soha mutaxassislari, ayrim shaxslar tomonidan “ijod qilinadi” (masalan, *fonema*, *morfema* terminlarining “ijodkori” I.A.Boduen Kurtene boʻlsa, “*til kontakti*” terminining “ijodkori” Andre Martinedir);



v) soʻz til lugʻat tarkibining mikro-, medio- va makroqurilmalarida bir xil amal qiluvchi lisoniy birlikdir, terminning amali esa, lugʻat tarkibining mikroqurilmalarida nisbatan cheklangan boʻladi, chunki terminologik tizimda koʻp maʼnolilik kam uchraydigan semantik hodisadir. Shuningdek, terminologik tizimning mikroqurilmalar qatlamiga mansub terminlar polisemantik lugʻaviy birlik emas, balki polifunksional lugʻaviy birlik tavsifida boʻladi;


v) termin soʻz bazasida shakllanadi, termin bazasida soʻz shakllanmaydi;

g) soʻz umumxalq mulki, u til jamoasining hamma ijtimoiy qatlamlari uchun bir xil xizmat qiladi. Termin esa til jamoasining ayrim ijtimoiy qatlamlari uchun xoslangan boʻladi;

d) soʻzlarda shakliy munosabatning antonimik turi amal qilsa, terminlarda uning ekvonimik turi faol amal qiladi;

e) soʻzlarning mazmun planini lisoniy maʼnolar tashkil qiladi, terminlarning mazmun planini esa tushunchalar tashkil qiladi. Lisoniy maʼnolar bu soʻzning umumxalq tilida mushtarak tushuniladigan semantik tomonidir. Masalan, *daraxt*, *tosh*, *suvi* va h.k. soʻzlar oʻzbek millatiga mansub barcha shaxslar tomonidan bir xil tushunilaveradi, biroq *affiks*, *ega*, *aniqlovchi* terminlari maʼnolarini faqat kasbi (mutaxassisligi) til ilmiga ixtisoslashgan shaxslargina mushtarak tushunadi, xolos;

y) soʻz maʼnolari asoslangan denotatlar obyektiv borliqdagi real narsa-predmetlarni yoxud muayyan millat xotirasida ommaviy rasmiylashgan mavhum “narsa-hodisa”larni bildiradi; terminlar anglatgan “maʼno”lar esa ayrim guruhdagi shaxslar xotirasida mushtarak rasmiylashgan noreal tushunchalarni bildiradi. Masalan, yuqorida keltirilgan *daraxt*, *tosh*, *suvi* soʻzlari maʼnolari asoslangan denotatlar tabiatda oʻz moddiy asosiga ega real “narsa”lar boʻlsa, *xayol*, *oqibat*, *mehr*, *yaxshilik*, *salomatlik* va h.k. soʻzlar maʼnolari asoslangan denotatlar oʻzbek millatiga mansub barcha shaxslar xotirasida bir xil rasmiylashgan noreal “narsa-hodisa”lardir.



Terminlar maʼnosidan anglashilgan denotatlar esa, xalq xoʻjaligining yoxud fan va texnikaning qaysi sohasi boʻlmasin, ular maʼnosi asoslangan denotatlar faqat ayrim guruhga mansub shaxslar xotirasida rasmiylashgan real yoxud noreal “narsa-hodisa”larni bildiradi. Ijtimoiy fanlar, xususan, tilshunoslik terminlari anglatgan maʼnolar faqat noreal denotatlarga asoslanadi. Masalan, *kelishik kategoriyasi*, *egalik kategoriyasi*, *olmosh*, *sifat*, *yuklama* va h.k. terminlarning maʼnosi asoslangan denotatlar oʻzbek tilshunoslari xotirasida rasmiylashgan noreal kasbiy tushunchalardir;

j) soʻz tarkibining funktsional qismlari morfemalar xarakterida boʻladi, chunki qoʻshma, juft va tarkibli soʻzlarning lugʻaviy maʼno anglatuvchi qismlari ham morfemalardir, yaʼni ular oʻzak morfema tavsifida boʻladi. Terminlar tarkibining funktsional qismlari ham morfema va ham soʻz shakllari (glossema) xarakterida boʻlaveradi. Masalan, *ega, son, feʼl, ravish, gap* va h.k. terminlar morfem tarkibi faqat oʻzaklar xarakterida boʻlsa, *kelishik, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi, unli, undosh* va h.k. terminlar “oʻzak/affiks” xarakteridadir. *Bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi; mavhum ot, jamlovchi ot* va h.k. terminlar ikki soʻz shaklidan tashkil topgan oddiy soʻz birikmalari sanalsa, *bogʻlangan qoʻshma gap, ergash gapli qoʻshma gap, bogʻlangan qoʻshma gaplarni eslatuvchi bogʻlovchisiz qoʻshma gap, ergash gapli qoʻshma gaplarni eslatuvchi bogʻlovchisiz qoʻshma gap* va sh.k. boshqa bir qator terminlar turlicha lisoniy qiymatdagi soʻz shakllaridan tuzilgan murakkab soʻz birikmalaridir;

z) termin va soʻz munosabatidagi farqli jihatlardan yana biri ularning (soʻz va terminlarning) maʼno koʻlamiga koʻradir: terminning maʼno koʻlami soʻzning maʼno koʻlamiga nisbatan tor va isteʼmol doirasi cheklangan. Masalan, tilshunoslikda *otning koʻplik shakllari, otning kelishik shakllari, otning egalik shakllari; feʼl zamonlari, oʻtgan zamon feʼli, hozirgi zamon feʼli, kelasi zamon feʼli; bogʻlangan qoʻshma gap, natija ergash gapli qoʻshma gap, bogʻlovchili qoʻshma gaplarga sinonim boʻlgan bogʻlovchisiz qoʻshma gaplar* kabi koʻplab terminlar ishlatiladi. Ular maʼno bildirish jihatidan soʻzlardan farq qilmaydi, chunki soʻzlar ham maʼno bildiradi, terminlar ham, tarkibining sodda va murakkabligidan qatʼi nazar, maʼlum sohaning tushunchasini anglatadi, biroq ularni shu holda, shu shaklda lisoniy rasmiylashgan soʻzlarga tenglashtirish ham toʻgʻri emas.

Termin va soʻz munosabatidagi oʻxshash jihatlar. Shunisi ham borki, termin va soʻz munosabatida oʻxshash jihatlar ham bor. Bu ularning maʼno anglatuvchi birliklar ekanligida koʻrinadi.

Terminlarning soʻzlar bilan til mazmun jabhasidagi yana bir oʻxshashligi shundaki, terminda ham soʻzda boʻlgani kabi *dubletilik, koʻp maʼnolilik, giperonimlik, giponim, partonimlik, graduonimlik va ekvonimlik* xususiyatlari mavjud.

Termin – soʻzning funktsional-semantik koʻrinishidir. Terminning material tomoni soʻz yoki soʻz birikmasidan tarkib topadi. Biroq soʻz va termin oʻzaro farq qiladi. Bu farq shundaki, soʻz umumxalq mulki, u til jamoasining hamma ijtimoiy qatlamlari uchun bir xil xizmat qiladi. Termin esa til jamoasining ayrim-ayrim ijtimoiy qatlamlari foydalanishi uchun xoslangan boʻladi.

Terminning maʼno hajmi soʻzning nisbatan tor, isteʼmol doirasi chegaralangan. Shuningdek, soʻzning shakliy tomoni terminning shakliy tomoni bilan hamma vaqt ham muvofiq kelavermaydi. Masalan, qishloq xoʻjaligi texnikasiga qarashli *paxta terish mashinasi, ariq qazish mashinasi, quvvat olish vali, moylash sistemasi* singari terminlar mavjud. Ular, birinchidan, rus tilidan kalkalash (tarjima qilish) yoʻli bilan oʻzlashtirilgan;

ikkinchidan, birdan ortiq soʻz (*paxta, terish, mashina; ariq, qazish, mashina; quvvat, olish, val; moylash, sistema*)dan tarkib topgan;

uchinchidan, qishloq xoʻjaligi texnikasining aniq bir turi va uning ayrim qismlarini nomlagan; toʻrtinchidan, ularning isteʼmoli uchun, uning barcha ijtimoiy tabaqalari uchun moʻljallanmagan.

Shunga oʻxshash xususiyatlarni turli fanlar sohasida ham uchratish mumkin.

Chunonchi, oʻzbek tilshunosligida *otning kelishik shakllari, otning egalik shakllari; feʼl zamonlari, uzoq oʻtgan zamon feʼli; bogʻlangan qoʻshma gap, ergash gapli qoʻshma gap, natija ergash gapli qoʻshma gap, bogʻlovchili qoʻshma gaplarni eslatuvchi bogʻlovchisiz qoʻshma gap* singari bir necha oʻnlab terminlar ishlatiladi.

Terminologik tizimda terminlarning shakldoshligi, yaʼni omonimiyasi alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Terminlar omonimiyasining bir koʻrinishida umumxalq tiliga mansub oddiy soʻzlar bilan biron-bir fanga va uning tarmogʻiga xos tushunchalarning nomi bir shaklga ega boʻladi. Masalan, *assimilyatsiya* shaklidagi lugʻaviy birliklar tilshunoslik, botanika, etnografiya; *yadro* shaklidagi lugʻaviy birliklar fizika, botanika, matematika, tilshunoslik fanlari doirasidagi tushunchalar nomi sifatida xizmat qiladi. Bu lugʻaviy birliklar anglatgan tushunchalar va ularning maʼnolari munosabatida hech bir aloqadorlik yoʻq. Shularni hisobga olgan holda, leksikologiyada termin va ular tizimi xususiyatlarini oʻrganuvchi maxsus tarmoq shakllangan. Bu tarmoq *atamashunoslik* deyiladi. Shu narsa muhimki, soʻz va termin oraligʻidagi farq jiddiy emas: termin ham soʻzning vazifaviy koʻrinishlaridan biri. Soʻz ham termin, tilning nominativ vazifaga xoslangan birligi.

Terminologiyada omonimiyasi. Terminologik tizimda terminlarning shakldoshligi alohida xususiyat kasb etadi. Terminologik tizimga xos omonimlikning ikki koʻrinishi mavjud: a) tashqi omonimlik; b) ichki omonimlik (terminlar bizniki: I.E.).

Tashqi omonimlik deganda, biz shakldosh lugʻaviy birliklardan birining umumxalq tiliga, boshqasining terminologik tizimga mansub boʻlishligini; *ichki omonimlik*da esa shakldoshlik xususiyatiga ega lugʻaviy birliklar har ikkisining ham terminologik tizimga xosligini nazarda tutmoqdami.

Terminologik tizim doirasidagi *tashqi omonimiyasi*ning bir koʻrinishida ayni bir lugʻaviy birlik har xil fan va ularning muayyan tarmogʻiga xos tushunchalar nomini bildiradi. Masalan, *oʻzak* lugʻaviy birligi *tilshunoslik, botanika, fiziologiya, tibbiyot; assimilyatsiya* lugʻaviy birligi *tilshunoslik, botanika, etnografiya; yadro* lugʻaviy birligi *fizika, botanika, matematika, tilshunoslik* fanlari doirasidagi tushunchalar nomi sifatida xizmat qiladi. Bu lugʻaviy birliklar anglatgan tushunchalar va ularning maʼnolari munosabatida hech bir aloqadorlik yoʻq.

Shaklan o'xshash terminlarning turli fan sohalari terminlogiyasida qo'llanib, omonimik paradigmalarni yuzaga chiqarishini kuzatish mumkin. Chunonchi, *giperbola I* – tilshunoslikda mublag'a; *giperbola II* – matematikada giperbola (konus kesimlaridan biri); *morfologiya I* – tilshunoslikda grammatikaning so'z turkumlari, shuningdek, so'zlarning grammatik shakllari haqidagi bo'limi; *morfologiya II* – tibbiyotda xususan, biologiyada odam va hayvon tanasidagi organlar va to'qimalar shakli hamda tuzilishini o'rganadigan fan; *konvergentsiya I* – biologiyada turli organizmlarda bir xil tashqi muhit ta'sirida o'xshash belgilarning paydo bo'lishi; *konvergentsiya II* – fizikada ikkala ko'z o'q chizig'ining bir nuqtada uchrashuvi; *konvergentsiya III* – tibbiyotda o'xshashlik, yaqinlik; *konvergentsiya IV* – tilshunoslikda birdan ortiq tovushning tarixiy taraqqiyot natijasida bir tovushga birlashishi; *assotsiatsiya I* – psixologiyada muayyan sharoitda psixologik hosilalar orasida paydo bo'ladigan aloqa; *assotsiatsiya II* – biologiyada tuzilishi va turlari bir xil fitotsenozlar majmui; *assotsiatsiya III* – kimyoda molekular yoki ionlarning molekulararo elektr tabiatli harakat kuchi ta'sirida guruhlariga bo'linishi; *assotsiatsiya IV* – siyosatshunoslikda uyushma, birlashma; *assotsiatsiya V* – tilshunoslikda til birliklarining shakli yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko'ra o'zaro birlashishi va h.k. Bu erda *giperbola*, *morfologiya*, *konvergentsiya*, *assotsiatsiya* terminlari **ichki omonimiyani** tashkil etmoqda.

Shunga o'xshash holat tibbiyot, tilshunoslik va boshqa sohalarda qo'llanayotgan *konversiya*, *substansiya*, *substitutsiya*, *transformatsiya* kabi omonimlar qatorida ham o'z aksini topgan.

Terminologik tizimda dubletlik va sinonimlik munosabati. Leksik birliklar lug'aviy ma'no darajasi, uslubiy bo'yog'i, nutqning barcha vazifaviy uslublariga ko'ra, mushtarak lisoniy qiymat kasb etsa, ular mutlaq ma'nodoshlik guruhi sifatida ajratiladi [6]. Masalan, *tilshunoslik* va *lingvistika*, *lug'atshunoslik* va *leksikografiya*, *shakl* va *forma*, *atama* va *termin*, *mavzu* va *tema*, *avtor* va *muallif*, *terminologiya* va *atamashunoslik*, *mimema* va *taqlid so'z*, *pauza* va *to'xtam*, *affiks* va *qo'shimcha*, *fe'l nisbatlari* va *fe'l darajalari*, *morfemika* va *so'z tarkibi*, *ibora* va *frazeologizm* va boshqalar. Ma'nodoshlikning bu turini *dubletlar* sifatida baholash kerak.

Mutlaq ma'nodosh muqobil birliklarni birlashtiruvchi bunday paradigmatic qator odatda ikki a'zodan tashkil topadi. Terminlar va ularning tizimi maxsus "ixtisoslashgan" ma'noli birliklardan iborat alohida qatlam sifatida leksikaning boshqa qatlamlaridan farq qiladi. Termin maqomida amal qiluvchi so'zning o'ziga xos lisoniy vazifasi bu xalq xo'jaligi, fan va texnika sohalariga oid tushunchalarni atashdir [10].

Mutlaq ma'nodoshlik xarakteridagi dubletlikda bir paradigma doirasiga kiruvchi lug'aviy birliklar funktsional-semantik jihatdan o'zaro farq qilmaydi: bir xil lisoniy qiymatga ega bo'ladi. Shunisi ham borki, mutlaq ma'nodoshlik paradigmada birlashuvchi muqobil a'zoldan biri til taraqqiyotining muayyan bir davrida nutqda faol ishlatilib, boshqasining iste'moliga ma'lum darajada mone'lik qiladi, cheklaydi. Iste'moli cheklangan lug'aviy birlik leksikaning nofaol qatlamidan joy oladi. Natijada, vaqt o'tishi bilan, bunday lug'aviy birliklardan tarkib topgan paradigmatic qator unutilib, barham topadi.

O'zbek tilshunosligi terminlarini davriy ketma-ketlikda o'rganishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, terminlar tizimiga xos dubletlik ikki davrga mansub hodisadir. Masalan, hozirgi vaqtda lisoniy rasmiylashgan *qo'shimcha* terminining ma'nosi va vazifasida tilning diaxron davrida *harf*, *olmosh izlari*, *yopishiq olmoshlar*, *ishlovchi*, *turlov belgilari*, *supot belgilari*, *supotlama*, *o'xshatqich*, *tugallik*, *fe'llama*, *durkum turlamalari*, *odot tarzida ishlatilgan bo'lsa*, keyinroq shu ma'no va vazifada *prefiks*, *affiks*, *suffiks* terminlari ishlatilgan. Hozirgi kunga kelib esa, ayni shu ma'no va vazifani ifodalovchi lug'aviy birlik *qo'shimcha* va *affiks* [8] shakllarida lisoniy me'yorlashgan, mazkur termin mansub paradigmanning boshqa muqobillari esa, o'zbek tili leksikasining faol lug'at qatlamidan chetlashgan. Shuningdek, bu lug'aviy birliklar ishtirokida hosil bo'lgan *suffiks* – *qo'shimcha*, *fonema* – *tovush*, *logik urg'u* – *so'z urg'usi*, *o'zak* – *asos*, *negiz* – *asosdosh*, *turlovchi suffiks*lar – *so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar*, *egallik kelishigi* – *qaratqich kelishigi*, *infinitiv* – *fe'lning noaniq formasi*, *tochka* – *nuqta*, *alfavit* – *alifbe*, *apostrof* – *tutuq belgisi*, *ulush son* – *taqsim son* singari vazifaviy-mazmuniy mikrogruphlari (paradigmalar) ham lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalar tizimidan uzoqlashgan.

Mutlaq ma'nodoshlik qatoridagi qaysi muqobil a'zoning qo'llanishi ommalashsa, rasmiylashsa va qay birining passivlashib, unutilishi til egasi bo'lmish etnik jamoaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi va mafkurasi bilan ham bog'liq bo'ladi. Masalan, o'tgan asrning 40-yillarida o'zbek tilida *skobka*, *kavichka*, *ko'p tochka*, *tochka vergul* [11], *tochka*, *suffiks*, *fonema*, *alfavit* [12] va shu kabi lug'aviy birliklar faol ishlatilgan, ularning *qavs*, *qo'shtirnoq*, *ko'p nuqta*, *nuqtali vergul*, *nuqta*, *qo'shimcha*, *tovush*, *alifbe* singari muqobillarining iste'moli cheklangan edi. Keyinchalik esa, aksincha, *qavs*, *qo'shtirnoq*, *ko'p nuqta*, *nuqtali vergul*, *nuqta*, *qo'shimcha*, *tovush*, *alifbe* [13] kabi terminlar iste'moli qaytadan faollashib va ommalashib, ularning o'tgan asrning 40-yillarida faol bo'lgan muqobillarining iste'moli cheklangan. Demak, ma'lum bo'ladiki, terminlar "hayoti"da ham, leksik birliklar "hayoti"da kuzatilgani kabi, mutlaq ma'nodoshlik va uning paradigmatasi tilning o'zgaruvchan nomutlaq hodisalari qatorida bo'ladi.

Yuqorida aytilgan fikrlarga asoslangan holda, aytish mumkinki, sinonim va dublet xarakteridagi terminlar lug'aviy tizimning lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalari tavsifidagi ko'rinishlaridan biri sanaladi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan terminlarning ifoda va mazmun jihatida o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik bo'lmaydi.

Sinonim va dublet xarakteridagi hodisalar shakl va mazmun nomutanosibligining (asimmetriyasining) paradigmatic deb ataluvchi turiga mansub bo'ladi. Bu hodisalarda shakl va mazmun nomutanosibli shakliy birliklar miqdorining ma'noviy birliklar miqdoriga nisbatan ko'pligiga asoslanadi.

Terminologiya tizimda dubletlik hodisalarini yana quyidagilarda ko'rish mumkin. Tilda uzual ma'no okkazional ma'nodan farqli holda, faqat bir so'zning semantik tarkibiga kiradi. Masalan, "suyukli bola" okkazional ma'nosini ijobiy emotsional komponenti bilan qo'zichoq, bo'taloq, toychoq, shunqor, do'mboq kabi so'zlarda ifodalash mumkin. Uzual ma'noni bir so'z ifodalaydi, ya'ni uni yana ikkinchi bir so'zda ifodalab bo'lmaydi.

Sinonimlar ma'nosi bir biriga yaqin bo'lgan birdan ortiq so'zlardir. Lekin bir sinonimik qatoridagi so'zlar yo ekspressiv bo'yog'iga ko'ra, yo ma'no nozikligiga ko'ra o'zaro farq qiladi [15]. Faqat dubletlar tarkibidagi so'zlar ma'nosi ayni bir xil bo'ladi [16]. Lekin dubletlar tilda uzoq yashamaydi: yo biri qo'llanmay ketadi, yo biri bir jihati bilan o'zgarib ketadi [17]. Ya'ni birorta ham uzual ma'no to'laligi bilan ikkinchi bir so'zda takrorlanmaydi.

So'zlarning ya'ni birdan ortiq so'zning ma'no munosabati aynan bir xillikka asoslangan sinonimlar tilshunoslikda *absolyut sinonimlar* deb ataladi [18]. Ularni ayrim tilshunoslar *dublet* deb ataydilar [19]. Ba'zi ishlarda esa ma'nolari ayni bir xil sinonimlar mavjudligini aytish bilan cheklanilgan: uni *absolyut sinonim* deb ham, *dublet* deb ham atalmagan [20]. Aslini olganda, *absolyut sinonim* va *dublet* terminlari bir xil ma'noga ega. Bu terminlar ostida ifodalangan sinonimlar birdan ortiq so'zning semantik tarkibi ayni bir xil bo'lishini bildiradi. Masalan, o'zbek adabiy tilida *chega* va *qadoq* so'zlari bo'lib, ular o'zaro absolyut sinonimlar hisoblanadi. Chunki bu so'zlarning har ikkisida ham ikkitadan leksik ma'no bor: 1) siniq chinnining temir plastinkacha yordami bilan birlashtirilgan o'rni; 2) siniq idishni yamashtiradigan temir plastinkacha. Bu ikki leksik ma'no *chega* so'zining ham, *qadoq* so'zining ham semantik tarkibini tashkil qiladi. Bu ikki so'zning semantik tarkibida bundan boshqa semantika yo'q. Ya'ni ularning semantik tarkibi bir xil. Ular absolyut sinonimlar hisoblanadi. Misollarga e'tibor bering: *chegasidan sinmoq / qadog'idan sinmoq* va *chegasi tushib ketmoq / qadog'i tushib ketmoq*. Bu so'zlar grammatik kategoriyasi, ya'ni turkumi jihatidan ham bir xil.

O'zbek tilida *lingvist / tilshunos, qarsak / chapak, shoti / narvon, sinchalak / chittak, o'qituvchi / muallim, askar / soldat, sivizg'a / nay* kabi so'z juftliklari borki, ular ma'no jihatidan bir-biridan mutlaqo farq qilmaydi. Ular bir xil leksik ma'noga ega sinoimlardir [18]. Bunday *absolyut sinonimlardan* ayrimlari termin ekanligi bilan xarakterlanadi. Masalan, *lingvist* ilmiy uslubga xos termindir.

Absolyut sinonimlar ayni bir xil leksik ma'noga ega bo'lgan birdan ortiq so'zdir. O'zbek tilida absolyut sinonimlar tarkibidagi so'zlar deyarli bir juft bo'lib, leksik ma'nolari tushunchaga teng keladi va ular asosan terminologik leksikaga mansubdir. Komponentlari bir tilga xos bo'lishi shart. So'zni fonetik variantlari va bir ma'noli morfologik shakllari absolyut sinonimni tarkib toptirmaydi. Sinonimlar bir o'zakka mansub bo'lmaydi [18].

Xullas, ma'nodoshlikning umumtil lug'aviy birliklariga xos turi (*sinonim*) bilan uning terminologik tizimiga xos turi (ya'ni dubletlar) diaxron va sinxron jihatlardan farq qiladi. Shakldoshlik xususiyatiga ko'ra o'zaro o'xshash bo'lgan bu ikki hodisa quyidagi jihatlariga ko'ra farq qiladi: a) sinonimlarda ularning paradigmatic qatorida lug'aviy birliklar miqdori (soni) ko'p bo'ladi; dubletlar paradigmasi odatda ikki so'zdan iborat bo'ladi; b) sinonim so'zlarning leksik ma'nosida nutqning farqlanuvchi uslubiga xoslanish, emotsional-ekspressiv bo'yoq bo'ladi, dubletlarda bu kuzatilmaydi; v) sinonimlarning ma'nosi signifikatga nisbatan farqlovchi, dubletlarda esa farqlanmas bo'ladi; g) so'zlar sinonimlarda markerli, dublet so'zlarda markersiz bo'ladi; d) sinonimlar so'zlar ma'nodoshligini ifodalaydi, dubletlar esa faqat bir tushunchani ifodalaydi; j) dublet so'zlarning biri, albatta, "o'tkinchi" bo'ladi, sinonimlar qatorida "o'tkinchi" so'zlar bo'lmaydi, bo'lsa ham passiv bo'ladi; z) dublet so'zlarda so'z ma'nosi farqlanmaydi, chunki ular bir tushunchani anglatadi, sinonimlarda ma'no nozikligi mavjud, ma'no farqlanadi; i) dubletlarda ma'nodoshlik "ortiqcha yuk", sinonimlarda esa ularga xos xususiyat sanaladi; l) sinonimiyada uning qatori (paradigmasi) dominant a'zoga asoslangan holda, tuziladi: dubletlikda dominant a'zo bo'lmaydi.

Xulosa. Yuqoridagilardan chiqadigan xulosa shuki, leksikaning qaysi jabhasida bo'lmasin, so'z o'rganiladi. Shuning uchun so'z leksikaning eng muhim va markaziy lisoniy birligidir. Dublet so'zlar va sinonimlar qatoridagi farqlar bu bilan yakun topmaydi. Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkin: terminlar o'rtasida sinonimiya emas, dubletlik hodisasi mavjud. Shuning uchun terminlarga nisbatan *sinonim* va *dublet* terminlarini farqlab qo'llash lozim. Aslini olganda, tildagi boshqa birliklar singari so'z yoki birikma shaklida bo'lgan terminlar ham til lug'at tarkibining ajralmas birliklari sanaladi. Ammo tushunchalarni aniq, qat'iy chegaralash jihatiga ko'ra unda sinonimlik, variantlilik yoki dubletlikning bo'lishi maqbul holat hisoblanmaydi. Lekin terminologik tizimda hali-hanuz sinonimlik, dubletlik muammolari mavjud. Mazkur muammolar davriy izchillikda yangi terminlarning qabul qilinishi yoki o'zlashma termini tiling ichki imkoniyatlari asosida milliyashtirish natijasida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке. АҚД. – Тошкент, 1990. – 25 с.
2. Сафарова Р. Лексик семантик муносабатнинг турлари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 48 б.
3. Неъматов Х., Бегматов Э., Расулов Р. ва б. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси. (Систем лексикология тезислари) ЎТА, 1989, №6.
4. Нурмонов А. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. – Андижон. 1992. – Б. 56.
5. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т., "Ўқитувчи" нашриёти, 1995. – 128 б.

6. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti bakalavri fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent, Turon-Iqbol, – 2021. 204-b.
7. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.
8. Маҳкамов Н., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Т.: Fan, 2013. – 144 b.
9. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2017. – Б.71.
10. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования и русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – М., 1939. – С. 6.
11. Ҳожиёв Ҳ. Ўзбек тили грамматикаси. II бўлим. Синтаксис. – Т.: Ўқувпедавнашр, 1941. – 196 б.
12. Усмон О., Авизов Б. Ўзбек тили грамматикаси дарслиги. I қисм. – Т.: Ўқувпедавнашр, 1941. – 256 б.
13. Fitrat. O'zbek tili qaydala'g togrus'da bir ta'criba, Birinci kitab. Sarf. Samarqand – Ta'skent: O'zdavnashr, 1930. – 42 b.
14. Fitrat. O'zbek tili qaydala'g togrus'da bir ta'criba, Ikkinchi kitab. Nahv. – Samarqand-Ta'skent: O'zdavnashr, 1930. – 38 b.
15. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.– Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 29.
16. Чофэров С. Муасир азэрбајчан дили. – Бакы: Элм, 1970. – Б. 29.
17. Ҳожиёв А. Семасиология // Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 239.
18. Миртожиёв М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2010. – Б. 233.
19. Камолов Ф.К. Семасиология // Ҳозирги ўзбек адабий тили. I т. / Ф.Абдурахмонов тахр. ост. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 130.
20. Мэммедов Н. Ахундов А. Дилчилик кириш. – Бакы: Маариф. 1966. – Б. 183.

Muallif:

Ermatov Ixtiyor Rizakulovich – Guliston davlat universiteti “O'zbek tilshunosligi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc).

UDK 372.882

DIRECT AND INDIRECT INFLUENCE OF ULUGBEK HAMDAM ON THE HEROIC SPIRIT OF SOCIETY IN “ISYON VA ITOAT”

ULUG'BEK HAMDAMNING “ISYON VA ITOAT” ASARIDA JAMIYATNING QAHRAMON RUHIYATIGA BEVOSITA VA BILVOSITA TA'SIRI

ПРЯМОЕ И КОСВЕННОЕ ВЛИЯНИЕ УЛУГБЕКА ХАМДАМА НА ГЕРОИЧЕСКИЙ ДУХ ОБЩЕСТВА В «ИСЁН ВА ИТОАТ»

Bekzod Ko'liboy Orzuboy o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. 100138. Toshkent shahri, Kichik Xalqa Yo'li ko'chasi, G-9a mavzesi, 21-a uy.

E-mail: bekzodkulibayev@mail.ru

Abstract. Ulugbek Hamdam's "Rebellion and Obedience" tells about the direct and indirect effects of the society on the hero's spirit, and the resulting consequences. During the entire work, we witness that the expression and interpretation of the events, debates, which took place between reality and partly mysterious strangeness, ultimately ended with the priority of human effort.

Key words: rebellion, obedience, spirituality, direct and indirect influence, reality, interpretation.

Annotatsiya. Ulug'bek Hamdamning “Isyon va itoat” asarida jamiyatning qahramon ruhiyatiga bevosita va bilvosita ta'sirlari, natijada yuzaga kelgan oqibatlar haqida so'z boradi. Butun asar davomida reallik va qisman sirli g'aroyibot orasida kechgan voqea-hodisalar, bahs-munozaralar ifodasi, talqini oxir-oqibat inson himmatining ustuvorligi bilan yakunlanganligi guvohi bo'lamiz.

Kalit so'zlar: isyon, itoat, ruhiyat, bevosita va bilvosita ta'sir, reallik, talqin.

Аннотация. В произведении Улугбека Хамдама «Бунтарь и повиновение» рассказывается о прямом и косвенном воздействии общества на дух героя и вытекающих отсюда последствиях. На протяжении всего произведения мы являемся свидетелями того, что выражение и интерпретация событий, споры, которые происходили между реальностью и отчасти загадочными странностями, в конечном итоге закончились приоритетом человеческих усилий.

Ключевые слова: бунт, послушание, духовность, прямое и косвенное влияние, реальность, интерпретация.

Kirish. Har qanday san'at asarining saviyasi uning badiiyligi, tasvir usullarining rang – barangligi, voqealarning ketma - ketligi va xarakterning ishonarliligi bilan o'lchanadi. Hozirgi romanchilikning namunasi sifatida Ulug'bek

Hamdamning “Isyon va itoat” asarida ham lirizm bilan hajviy ohang, reallik bilan g‘ayritabiiylik, ertaknamo usullar bilan fantastik elementlar o‘zaro bog‘langanki, bu o‘ziga xos tasvir usulini yuzaga keltirgan.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldosh, o‘zining “Yoniq so‘z” kitobida Ulug‘bek Hamdamning asarlarida jamiyatdagi qahramonlarning ruhiyati, o‘ylari, ichki kechunmalarini kitobxonga yetkazish mahorati to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” hamda “Muvozanat” romanlari esa adabiyotimizda ulkan bir kemtiklikni to‘ldirdi. Ungacha milliy romanlarimizda inson, asosan, mehnat va faoliyat bag‘rida ko‘rstailar edi. Yosh yozuvchi adabiyotda murakkab va chigal o‘ylar og‘ushidagi o‘zbekni tasvirlashni boshlab berdi. Natijada, adabiyotimizda o‘zi, umri, odam va olam haqida teran falsafiy o‘ylar suradigan millat vakillari qiyofasida yaratildi.” [1].

“Isyon va itoat” romanida tanlangan mavzu markazida yana inson va uning ichki dunyosi masalasi turadi. Insonni ham eng go‘zal yaratiq, ham qismat oldida eng o‘jiz ekanligi tasvirlanadi. Asar noana’anaviy usulda yaratilgan. Unda inson ruhiyati keng ko‘lamli tasvirlanadi. Modernistik bayonchilik asosiga qurilgan asarda realistik tasvir bilan mifologik qarashlar uyg‘unlashib ketadi. Muallif bu romanda tanlangan mavzu orqali inson azaldan adashishga, gunoh qilishga moyil va oqibat yana ichki bir his tufayli Yaratgan, balki o‘z vijdoni oldida kechirim so‘rashini aytmoqchi bo‘ladi. Odam bolasida xato, yomonlik qilish, gunohga botishi aynan yoshlik davrida ko‘proq yuz beradi. Jo‘shqin umrning ming bir yo‘llaridan o‘tib, keksaygani sayin hayot haqida o‘z xulosasini beradigan va o‘zini-o‘zi tahlil qiladigan bo‘ladi. Natijada qalbidagi isyonkorlik ruhiyati o‘rniga itoatkorlik, hayotga teran ko‘z bilan boqish holati vujudga keladi.

Hozirgi adabiy jarayonda roman janrining faolligi, sermahsulligi, serqirraligi rang-barangligi hamda inson o‘zini anglab, yetuklik sari intilishi, qahramonlarning ichki olamini yoritilishi hamda insoniyatga xizmat qilish haqidagi fikrlar adabiyotshunoslik fani oldiga ham muhim vazifalarni qo‘ymoqda. So‘nggi paytlarda inson va jamiyat o‘rtasida yuz berayotgan voqea-hodislarda inson ruhiyatiga bevositda va bilvosita ta’sirlari - yangiliklar, ijobiy-salbiy o‘zgarishlar, yutuq va kamchiliklarni tez ilg‘ab, tahlil etishga asdoydil kirishildi. Inson va jamiyatga xos turli muammolarga bag‘ishlangan alohida yirik tadqiqotlardan tashqari, birgina badiiy asarni chuqur tahlil etish orqali shu kabi mavzularga oid yangi imkoniyatlar va asosiy xususiyatlarni ochib beruvchi o‘nlab maxsus maqolalar ham paydo bo‘ldiki, bu adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning munosib yutug‘idir. Ayni tadqiqotlarning ko‘pi Ulug‘bek Hamdam atrofida kechayotganligi bejiz emas. Ulug‘bek Hamdam ijodida mavzular ko‘lami u qadar keng bo‘lmasa-da, yangi, dolzarb muammolarning ko‘tarib chiqilishi va asarlarida shaxs o‘zini chuqur falsafiy mushohada asosida talqin etilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi o‘zbek adabiyotidagi inson va jamiyat o‘rtasidagi badiiy an‘analarini davom ettirgan holda, qahramonlarning ruhiy kechinmalari, bevosita hamda bilvosita ta’sirlari, shakl masalasining kengligi, obrazlar tanlovi, modernistik talqinlarga murojaat jihatidan yanglanishlarni namoyon qildi. Ayniqsa, yozuvchining “Isyon va itoat” asaridagi qahramonlar ruhiy holatlarining bayon uslubi, kutilmagan yechim bilan yakun topishi, hodisalarning millat va yosh jihatidan qat’iy nazar chuqur anglanishi kabilar bilan yangilik kasb etadi. Usbu mavzularni yoritishda esa mifologik, diniy, falsafiy, ijtimoiy qarashlar uyg‘unlashib ketgan.

Adabiyotshunoslikda insonning ma’naviy-ruhiy olamini talqin qilish va xilma-xil manzaralarda jonlantirish badiiy asarlarning o‘rni beqiyosligi, uning yordami keng ko‘lamligini ifodalovchi qarashlar ham ilgari surilgan. Jamiyatning qahramon ruhiyatiga bevosita ta’sir qilishi, qahramonning tabiiy harakatlariga rioya qilgan holda shaxslarning o‘zaro ta’siri va o‘zaro bog‘liqligi natijasida shakllanadi. Insonning jamiyatdagi o‘ziga xosliklari, individualligi va inson tabiati bir-biri bilan bog‘liq. Uning ko‘pgina jihatlari orasida o‘zini o‘zi himoya qilish, raqobat, aloqa zaruriyati, adolat tuyg‘usi va erkinlikka chanqoqligi kabi voqeliklar mavjud. Shunga qaramay, qahramonlarning xatti-harakatlari asosli emas, chunki inson aql-zakovatiga ega bo‘lishiga qaramasdan, uning ehtiyojlarini ierarxiyasi jamiyatni haqiqat va mantiq talablaridan qat’iy nazar o‘z-o‘zini himoya qilish, raqobat instinktiga moslashtiradi. Inson tabiatining ko‘pgina jihatlari, shuningdek, qarama-qarshi, ziddiyatli xususiyatga ega. Shuning uchun, hokimiyat va erkinlik, tenglik va adolat kabi istaklar o‘rtasida doimiy va murosasiz kurash olib boriladi. “Jamiyat, barcha murakkab tizimlar singari, bir butun bo‘lib, shaxslar tomonidan nazorat qilinmaydi. Shaxslar faqat unga ta’sir qilishi va tizimni tashkil etuvchi turli xil tadbirlarda ishtirok etishi mumkin, ammo uni nazorat qila olmaydi.” [2].

“Shaxsning jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risidagi masala bevosita uning huquq va majburiyatlari bilan ham bog‘liq. Bular jamiyat tarkibiy qismlarini tashkil etgan ijtimoiy guruh a’zolari rioya qilishi zarur bo‘lgan qoidalar belgilangan.” [3]. Shunga ko‘ra, ma’lum bir jamiyatda qabul qilingan qonunlarga ko‘ra, har bir insonning boshqalar bilan tegishli huquqiy munosabatda bo‘lishi kerak. Majburiyatlar esa insonning o‘zi mansub bo‘lgan guruhda egallab turgan vazifalariga muvofiq keladigan xatti-harakatlar qilishdan iborat bo‘ladi. Ushbu huquq va majburiyatlar, qonun-qoidalarning o‘zaro yaxlit holda ishlamasligi inson ruhiyatiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Ayni ruhiyatdagi nomutanosiblik natijasida jamiyatdagi qahramonlar o‘rtasida o‘zaro kelishmovchiliklar: bir-birini asl istaklarini tushunmaslik, hurmatsizlik, qadryatlarga bee‘tiborlik, sansolarlik, qat’iyatsizlik kabi turli xil ruhiy muammolar kelib chiqadi. Yuqoridagi har bir muammoning keng ko‘lamda badiiy usulda yoritib berish: kelib chiqish sababi va oqibati, uni hal qilish yechimlarini yoritish – yozuvchi o‘z asarining qahramonlarida mohirona yo‘l bilan aks ettirishi hozirgi zamon adabiyotining talabi bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatdagi inson ruhiyatiga ta’sirlari tushunchasi adabiyotshunoslik ilmida muhim masalalardan biridir va dolzarbligicha qoladi. Har qanday inson jamiyat bag‘rida tug‘iladi. Adabiyot jamiyatning in’ikosi

sifatida davr bilan hamnafas yangilanish va o'zgarishlarni o'zida aks ettirib boradi. Bugungi adabiy jarayon ham shaklan va mazmunan yangilanib, o'zgarishlarni o'zida aks ettirib bormoqda. Hozirgi o'zbek adabiyotida Ulug'bek Hamdam asarlarining qahramon xarakteri va ruhiyati aks ettirilganligi bilan asar o'zining munosib o'rniga ega. Shu jihatlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, yozuvchi, nafaqat o'zbek adabiyotshunosligi balki rus va boshqa xorij adabiyoti vakillarining ham e'tiborini tortgan. Bu borada nashr etilgan qator ilmiy ishlar hamda maqolalari buning yaxlit isbotidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'ldosh Q. Yoniq so'z. - Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006. 512-b
2. uz.delachieve.com - Yangiliklar va Jamiyat: Madaniyat- Inson va jamiyat
3. Shodmonqul Azizov. Shaxs va Jamiyat (ijtimoiyot asoslari) - "Niso Poligraf", 2016. 46-b

Muallif:

Bekzod Ko'liboy Orzuboy o'g'li - O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti.

UDK 894.375+8-394(021)

DIVINE MOTIVES AND LITERARY COMMUNITY IN THE WORKS OF CHINGIZ AITMATOV AND UZBEK WRITERS

CHINGIZ AYTMATOV VA O'ZBEK YOZUVCHILARI ASARLARIDA ILOHIY MOTIVLAR VA ADABIY MUSHTARAKLIK

БОЖЕСТВЕННЫЕ МОТИВЫ И ЛИТЕРАТУРНАЯ ОБЩНОСТЬ В ТВОРЧЕСТВЕ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА И УЗБЕКСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ

Muxtorova Umida Tolib qizi

Qarshi davlat universiteti. 180119. Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy

E-mail: muxtorovaumida06@gmail.com

Abstract. In this article, in the analyzed works of Chingiz Aytmatov and other Uzbek writers, the mythological plot, image and other elements are not just a means of form, but a form of perception of the world of a certain creator, a means of expressing his ideological concept, a poetic idea like other individual components. participation as an important part of the presentation is shown. In the prose of the 20th century, the interpretation of divine motives and myths increased. It has been scientifically proven that such literary phenomena as building the structure of the entire work on the basis of religious-mythological narratives, artistic perception of real reality in parallel with distant narratives, bringing mythological images into real-life events are widespread.

Key words: Socialism, tendency, brotherhood, spiritual shortcoming, mute, mythological images, Aytmatov mythologism, philosophical belief, solidarity, exposition.

Аннотация. В данной статье в анализируемых произведениях Чингиза Айтматова и других узбекских писателей мифологический сюжет, образ и другие элементы являются не просто средством формы, а формой восприятия мира определенного творца, средством выражения его идейная концепция, поэтическая идея, как и другие отдельные компоненты, показано участие как важная часть изложения. В прозе XX века усилилось толкование божественных мотивов и мифов. Научно доказано, что широко распространены такие литературные явления, как построение структуры всего произведения на основе религиозно-мифологических повествований, художественное восприятие реальной действительности параллельно с отдаленными повествованиями, привнесение мифологических образов в реальные события.

Ключевые слова: Социализм, тенденция, братство, духовная неполноценность, немое, мифологические образы, айтматовский мифологизм, философская вера, солидарность, изложение.

Kirish. Jahon adabiyotining XX-XXI asrdagi eng ulkan yozuchilaridan biri Chingiz To'raqulovich Aytmatov Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Maxtumquli-Farog'iy, Abay, Berdaq, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat kabi zabardast turkiy ijodkorlar qatoridagi atoqli so'z san'atkoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi Qarorida (2018 yil 2 aprel) ta'kidlaganidek, «Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov nafaqat qirg'iz eli, ayni paytda, butun turkiy mamlakatlar, jumladan, o'zbek xalqi uchun aziz va qadrlı siymo, O'zbekistonning ulkan do'sti edi» («Mahalla» gazetasi, 2018 yil, 3 aprel, №37 son.) [1].

Mazkur tarixiy qaror Chingiz Aytmatovning ijodiy dahosiga xos muhim jihatlarni umumlashtirib, uning doimo o'zbek-qirg'iz qardoshlik munosabatlarini mustahkamlashda ulkan rahnamolik ahamiyatga molik ekanligi alohida ta'kidlangan: «O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi munosabatlar tarixida yangi davr boshlangan hozirgi paytda Chingizning o'lmas badiiy merosi xalqlarimiz uchun yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning insonparvarlik va ezgulik g'oyalarini, milliy va umumbashariy qadriyatlar, turli millatlar va elatlar o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik

rishtalarini mustahkamlashga qaratilgan barkamol asarlari mamlakatimizda millionlab nusxalarda nashr etilmoqda. O'zbekiston Milliy universitetida tashkil etilgan «Chingiz Aytmatov va O'zbekiston» doimiy ekspozitsiyasi faoliyat ko'rsatmoqda» [2].

Darhaqiqat, Chingiz Aytmatov o'zbek-qirg'iz xalqi, qolaversa, barcha turkiy xalqlar hamjihatligini mustahkamlashda g'oyatda ulkan tashkilotchilik va o'z asarlari bilan kamarbastalik qilib kelgan yozuvchi va ulkan jamoat arbobi edi. «O'zbek bilan qirg'iz qadimdan birodar bo'lib kelgan va abadiy abad shunday bo'lib qoladiyam», - deb yozgan edi Ch.Aytmatov «O'zbekning dardi – mening dardim» nomli A.Jo'raboyev bilan suhbatida: O'zbeklar buyuk xalq. Jahon sivilizatsiyasi beshigini tebratgan bu xalqda buyuk sabr-matонат ham borligiga ishonaman» («Xalq so'zi» gazetasi», 1991 yil, 3 aprel.)[3].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Adabiyotning umuminsoniy, dunyoviy taraqqiyot tamoyillari nuqtayi nazaridan masalaga razm solsak, o'zaro o'rganish, o'xshashlik yoki adabiy parallellikning o'ziga xos erkin jihatlari mavjud ekanligiga ham guvoh bo'lamiz. Jahoniy adabiyotshunoslik ilmi namoyandalari adabiy ta'sir yoki adabiy an'ana masalasiga siyosiy ijtimoiy bosim bilan emas, adabiyotdek erkin va demokratik fazilatlar ne'mati bo'lgan ma'naviy hodisaga, uning taraqqiyotiga ham shunday erkin munosabatda bo'lishadi.

Dunyo adabiyotshunosligida o'zgaras adabiy qonuniyatlar nuqtayi nazaridan xalq eposlarini, individual uslub asarlarini adabiy mushtaraklik namunasi sifatida o'rganish, ilmiy tadqiq etish metodologiyasi yuzaga kelgan va shakllangan. Bunday fundamental tadqiqotlarda, eng avvalo, mashhur adib A.P.Chexovning yosh Maksim Gorkiyga “Barcha ijodkordan o'rganing, ammo taqlid qilmang (М.Горький и А.Чехов: переписка, статья, высказывания. – Москва: Государственно издательство художественной литературы, 1951. – Стр.170. (286 стр.) [4], degan maslahati kabi, adabiy aloqadorlikni o'zining erkin va to'g'ri mohiyatiga oid xolos muvozanatda talqin etish ilmiy uslubi tahlil etilgan. A.Bushminning talqinicha, adabiy asarlar o'rtasida shu ijodkorning bir biridan xabari bo'lmagan, tegishli mashhur asarni o'qimagan bo'lmagan holatida ham obrazlar qiyofasi, g'oya va pafos, ifoda uslubi kabilarda o'xshash bo'lishi mumkin; adabiyotshunosning vazifasi esa taqlid, ta'sir va tipologik o'xshashlikni to'g'ri baholash, badiiy asarning betakrorligini to'g'ri ko'rsata olishi lozim (Бушмин А. Преемственность в развитии литературы. – Ленинград: “Худ.литература”, 1978. - Стр.125, 127.) [5].

V.Belinskiyning uqtirishicha, barcha ulkan san'atkor yozuvchilar, masalan, u Gomer yoki Shekspirimi, Bayron yoki Servantesmi, V.Skott yoki Gyotemi, Jorj Sand yoki Balzakmi, ular har qanday holatdayam, adabiy mushtaraklik yoki adabiy aloqadorlik aspektida kuzatiladimi, o'rganiladimi, baribir, benazir buyukligicha qolaveradilar (Belinskiy V. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O'zdavnsnr, 1955. – 242 bet.)[6].

Jahonda sanoqli adiblar egallagan cho'qqini hozircha turkiy adabiyot vakillaridan faqat Chingiz Aytmatov egallab turibdi. Bugungi kunda tadqiqotlar adibning asarlari jahon tillarida va million nusxadan oshiq chop qilinganini e'tirof etishmoqda. Bu fakt adib nomini XX asrning eng ko'p va eng ho'p muhokama etilgan J.Sartr, A.Kamyu, M.Frishi, Dyurrelnmatt, G.Markes, Vargas Lyosa, Karlos Fuentes, Kandzaburo Oye kabi so'z san'ati titanlari safidan joy olganini bildiradi (Eshonqul N. Ijod falsafasi (“Men”dan mengacha-2). – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 199-bet)[7].

Olingan natijalar va ularning tahlili

Chingiz Aytmatov (1928-2008) butun umri davomida bir necha hikoya, 9 ta qissa, 4 ta roman yozdi. Har bir asarida insonning ichki olami va jamiyat bilan bog'liq bo'lgan abadiy muammolardan bahs yuritdi. Odamlarning ichidayu tilining uchida turgan eng dardli va eng yorug' his-tuyg'u, kechinma, taqdirlarni tasvirladi. Har bir asari e'lon bo'lishi bilan butun dunyoda aks-sado berdi. Millionlar qalbida ma'naviy uyg'onish boshladi; yovuzlik, illatlarga qarshi nafrat va isyon, sa'y-harakat va jahd qo'zg'adi. Kelajakka achchiq sog'inch, har qanday tushkunlik va shubhaga qarshi harakat uyg'otdi. Katta ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy qasirg'alar, umuminsoniy fojealardan bashorat qildi, ogohlantirdi.

Iste'dodli yozuvchi Nazar Eshonqul o'zining “Xotira va kelajak mas'uliyati yoxud Chingiz Aytmatovning ogohlik bonglari” nomli maqolasida yozgan bu kabi faxriyalar mazmunan jahon miqyosidagi eng taniqli olimlar va ijodkorlar tomonidan ham shunday faxr va ehtirom bilan yozilayotganini tasavvur etish mumkin.

XX asr davomida deyarli barcha dunyo olimlari, jumladan, Yevropa olimlari tomonidan ham G'arbnning Sharqqa ta'siri haqida yozilgan, Sharq mutafakkirlari va adiblarining dunyoviy shuhrati, ijoddagi ta'siri go'yo atayin kamsitib kelinganday bo'lgan esa, bugun Ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Hofiz, Navoiy, Jomiy, Maxtumquli kabi ijodkor va olimlarning dunyoviy ahamiyati, dunyo ilm fani va adabiyotiga ta'siri haqida nisbatan kuchliroq gapirishmoqda. Chingiz Aytmatovning qudratli ijod olamining keng miqyosda o'rganilishi esa Sharqning, turkiy olamning e'tirofi kabi ahamiyatga molikdir.

Shu ma'noda Ch.Aytmatov ijodi jahon adabiyoti namoyandalari uchun, jumladan, navqiron o'zbek yozuvchilari uchun ham ibrat namunasi bo'lib kelayotganligi bilan e'tiborlidir.

Iste'dodli adib Nurali Qobul shunday yozgan edi: “Biz Aytmatovning “Kunda”siga boshimizni qo'yib, qo'limizga qalam olganmiz. Yozuvimizda ustozga hamohanglik sezilgan bo'lsa, bundan faxrlanamiz. Sababkim, yigirmanchi asrning ikkinchi yarim adabiyotida Aytmatov maktabidan saboq olmagan, unga taassub qilmagan yosh yozarlar kam topilardi” (Qobul N. Ustoz Aytmatovning buyuk haqiqati // Chingiz Aytmatov. Iks zurriyot. – Toshkent: Cho'lpon, 1995. – 85-bet.)

[8] Bu e'tirof nafaqat Nurali Qobul, balki ko'pgina o'zbek adiblari uchun Chingiz Aytmatov adabiy maktabining ta'siri qay darajada ekanini ko'rsata oladi. Darhaqiqat, N.Qobul avlodlari, ayniqsa, Murod Muhammad Do'st, Sharof Boshbekov, Nodir Normat, G'affor Hotam kabi yozuvchi va shoirlar yaratmalarida Aytmatov ijodiy pafosini sezish quvonarlidir. Bu haqiqat Nurali Qobullardan keyingi avlod ijodkorlari faoliyatida, chunonchi, Shoyim Bo'tayev, Nazar Eshonqul, Rauf Subhon, Shodiqul Hamroyev, Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, Rajabboy Raupov, Yahyo Tog'a, Qadam Saidmurod ijodiy izlanishlarida ham o'z tasdig'ini topadi.

O'zbek adabiyotining navqiron avlodi faoliyatida Aytmatov ijodi bilan mushtarakliklar mutelikka, ma'naviyatsizlikka qarshi kurash, buzilishlar tanqidi poetikasida ko'proq namoyon bo'ladi. "Hozirgi yoshlar orasida men o'zimni qandaydir begona his qilaman, – degan edi Ch.Aytmatov, – yosh avlodning shu ko'yg'a tushib qolishiga balki o'zimni aybdordirmiz. Bekamu ko'st sharoitda, axir, biz huzur halovatda yashayapmiz-ku, oramizda och, qashshoq, boshpanasiz kimsalar uchramaydi. Lekin ma'naviy tarbiyaga kam e'tibor berilyapti.

Chin qalbdan yuksak madaniyat sohibi bo'lmaslik oqibatida iste'molchilik poygasi, tekin tomoqlik, molparastlik avj oladi. Iqtisodiy omil yetakchi o'ringa chiqqan mahali ma'naviy potensial nolni ko'rsatadi, xolos" (Айтматов Ч. Цена жизнь. (Беседа с И.Пишиной). – Айтматов Ч. Статьи, выступления, диалоги, интервью. – Москва: Изд. Агентство печати новости, 1988. – Стр. 307.)[9]. Adibning bunday jiddiy tashvishlari uning barcha asarlarida katta ma'naviy muammolar sifatida o'zining talqinini topib kelmoqda. Bu o'rinda hech yo'g'ida Sobitjon, manqurtga aylangan modarkush Jo'lomon ("Asrga tatigulik kun"), nashavand Grishan va uning to'dalari ("Qiyomat") qiyofasini eslab o'tish mumkin. Bu aytmatovona adabiy an'ana o'zbek adabiyotining to'rtinchi avlodi deb atash mumkin bo'lgan yosh ijodkorlar faoliyatida ancha keng miqyosda namoyon bo'ladi. Erkin A'zamning "Bayramdan boshqa kunlar", "Javob", G'affor Hotamning "Quduq tepasidagi oy", Norto'xta Qilichning "Chig'iriq", Nodir Normatovning "Jazo" qissalari bu jihatdan xarakterli. Bu asarlar jamiyatda avj olib ketayotgan ma'naviy tubanlashish illatlarini realistlik tahlil etish orqali aytmatovona ma'naviy barkamollik targ'ibi ruhi bilan sug'orilgan. Umuman olganda, yosh o'zbek yozuvchilari va shoirlarining ijodiy dadilligida, tub xalqchil masalalarga alohida e'tibor berishlarida Chingiz Aytmatov dahosiga xos fikr hurligi va ijodiy jasorat fazilatlarining barakali ta'siri mavjudligini ta'kidlab o'tmoq kerak.

Ch.Aytmatovning "Oq kema" qissasidagi Mo'min bobo obrazi adabiyotda o'ziga xos kashfiyot sifatida ajralib turadi. Uning dastlab keskin munozaralarga sabab bo'lganligi ham bejiz emas. Asosan kurashchan va dadil, kashfiyotchi va ishbilarmon kishilar obrazini ulug'lash an'ana tusini olgan Sobiq sho'ro adabiyotida Mo'min bobo kabi butun borlig'i bilan mute, ojiz va notavon ko'rinishi kishining asar markaziga olib chiqilishi hamon vulgar sotsiolog ta'siridagi ayrimlarga sotsialistik realizm prinsiplaridan chekinish bo'lib ham tuyulgandi. Umuman "qaltis" taqdirli kishilar obrazining talqini Aytmatov ijodining alohida qirrasini tashkil etadi. Bu hali "Sarvqomat dilbarim" qissasidagi Ilyos timsolidayoq namoyon bo'lgan edi. Adib "Muqaddima o'rnida" qismini dastlab o'qish uchun o'rtoqlariga berar ekan, "birdaniga ustimga do'lday ta'na-tanbehtar yog'ila boshladi" (1 tom, 23 bet), deya qayd qiladi. Buning boisi Ilyosning risoladagidek kami ko'stsiz tasvirlanganligi bilan bog'liq bo'lib, avtor "go'yo bularning hammasi mening xohishim bilan ro'y bergandek edi", – deb izoh beradi adib. Albatta, 50 yillarda shakllangan, 60 yillar boshida ham kuchini yo'qotmagan, adabiyotdagi shaxsga sig'inish ta'sirida paydo bo'lgan dabdababozlik va konfliktsizlik nazariyasiga amal qilganda, o'sha mavjud andozalarga kirganda, Aytmatov ham Ilyosni qariyb ideal tarzida tasvirlagan bo'lardi. Adib, hayot haqiqati ijodkorning shaxsiy mayliga, uning xohish-irodasiga bog'liq emasligini juda o'rinli ta'kidlaydi. "Oq kema"ga kelib esa, mavjud adabiy andozalarga sig'maslik xususiyati yanada yorqin ko'rinadi. Ch.Aytmatov barcha fazilatlar sohibi bo'lgan ulug'vor qahramon timsolida emas, balki passiv, barchaga mute, o'z qadr-qimmatini bilmaydigan bechorahol kishilar timsolida davr haqqoniyatini ko'rsatadi. Shu jihati bilan Mo'min bobo obrazi mustabid turg'unlik davrlarida oddiy inson hayoti qanday edi, degan savolga haqqoniy javob bera oladigan darajadagi g'oyaviy estetik kuchga ega. Mo'min bobo "kazarmachilik sotsializmi"ning barcha narsa mehnatkash inson uchun, deb, aslida buning teskarisi qilingan davrning fojiviy timsoli hisoblanadi. Fikrimizcha, qahramonni shunday tasvirlash prinsipi ham Aytmatov ijodining muhim an'anasi sifatida shakllandi. Shu jihatdan Uchqun Nazarovning "Jur'at" hikoyasi, Murod Muhammad Do'stning "Iste'fo" va E.A'zamning "Javob" qissalarining qahramonlari bilan Mo'min bobo obrazi o'rtasida o'xshashlik borligi ko'zga tashlanadi. Asad ("Jur'at"), Elemonov ("Iste'fo"), Elchiyev ("Javob" va Mo'min bobo obrazlarining g'oyaviy ohangdoshligi dastlab ularning barchasini birlashtiradigan soddalikda, ishonuvchanlikda va mutelikka ko'rinadi. To'g'ri, "Iste'fo" qissasining qahramoni Elemonov uzoq yillar kattaroq mansabda ishlagan kishi, ammo, u biron odamga zug'um yoki zulm o'tkazmagan, mansabini suiste'mol qilmagan, oshib toshib boylik to'plamagan. Elemonov tabiatan sodda, beg'araz, kimga bo'lsa-da, faqat yaxshilik tilaydi. Ammo, uning fidoiyligi qadr topmaydi. Mansabdand tushgach esa, atrofdagilarning unga bo'lgan muomala-munosabati keskin sovuqqon tus oladi. Hatto xotini ham qo'pol, bepisand bo'lib qoladi. Bugungacha u ish jarayonida ham haqgo'yiligi va beg'arazligi tufayli o'rinbosari Qo'shshayev va uning maslakdoshlari ermagiga aylangan, hatto jiddiy pand yegan edi.

M.M.Do'st bu obraz talqini bilan Aytmatov g'oyaviy prinsipidan kelib chiqib, kishi mansabdormi, kattami kichikmi, haddan ziyod mute, o'ta sadoqatli bo'lsa, buning evaziga qadr talab qila olmasa, oyoqosti bo'ladi, o'zini ma'naviy halokatga boshlaydi, degan falsafiy aqidani ifodalaydi. "Jur'at" hikoyasi qahramoni Asad, "Javob" qissasi qahramoni Elchiyev esa oddiy xodim sifatida Mo'min bobo qiyofasiga ancha yaqin. Ular har qanday kamsitish, haqorat

bo'lsa-da, buni yashash meyorini kabi tabiiy tushunadilar, barcha narsaga ko'nadilar, birovdan nolishni xayolga keltirmaydilar. Sadoqatu halolik bilan mehnat qilishni asosiy fazilat deb tushunadilar. Quyidagi misollarni solishtiraylik:

1. "Ko'pni ko'rgan kishilar kekka Mo'minni Mo'min chaqqon deb atardi. Bu atrofda uni hamma tanirdi, u ham hammani bilardi. U ochiq ko'ngilli, hatto sal-pal biladigan odamiga ham biron yaxshilik qilishga tayyorgarligi, har kimning xizmatiga hoziru nozirliqi, hammaga sadoqati va xushmuomalaligi tufayli shunday laqab olgandi. Ammo, tillani tekin tarqatishganda, hech kim uchun qadri qolmaganidek Mo'minning jonbozligining qadriga ham hech kim yetmasdi. Uning yoshidagi kishilarga qanday hurmat va izzatda bo'lishmasin, Mo'minga hech kim bunday munosabatda bo'lmas edi..." (Aytmatov Ch. Birinchi muallim. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik. Ikkinchi tom. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – 199-bet.)[10].

2. "Men yoshligimdan yumshoq tabiatliman, birovni so'kkan bola emasman qaytaga meni so'kishardi: biron bolaning burnini qonatib, teshikkulchasini tortib olishardi. To'p qo'shnining hovlisiga tushib qolsa, meni yugurtirishar, lapka yoki lanka o'ynasak, quv bolalar g'irromlik qilib, ketma-ket ustimga otishardi" (Nazarov U. Jur'at. Qissa va hikoyalar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977. – 3-bet.)[11].

3. "Choyxona palovlarda, oshning sabzisini albatta Elchiyev to'g'ra'di, yoshlar qolib, o'tinni ham o'zi yoradi, o'zi olov qalaydi. Bu yumushlarni u birovning gapini bilan emas, o'zidan bilib qiladi – go'yo faqat uning ishi, uning burchi. Boshqa mavrid-marosimlarda ham ko'pchilik ep ko'rmagan yoki bo'yni yor bermagan dahmazlarda Elchiyev balogardon: goho chunon xokisorlar bo'lib ketadi, lekin o'sha vazifani bajaradi. Boshqalar esa bunga o'rganib qolishgan, biror sababga ko'ra Elchiyev o'z o'rnida bo'lmasa ajablanishadi, hatto ta'na qilishadi: "Iya, Elchiyev?!", "Nega endi Elchiyev? Nega boshqa odam emas, aynan Elchiyev?" deyidigan mard yo'q. Ularning nazarida Elchiyev shunday bo'lishi kerak, Elchiyev qilishi kerak, chunki u - Elchiyev! O'zi ham bunga ko'nikib ketgan, ba'zida dili og'riydiyu, ammo kimsaga sezdirmaydi: "mayli, kerak bo'lishmasin, men qilsam nima bo'пти, biror joyim kamayib qoladimi?" (A'zam E. Javob. Qissalar va hikoyalar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1986. – 7-8 betlar.)[12].

Xulosa. U.Nazarov va E.A'zamov qahramonni tasvirlash usulida Aytmatovning Mo'min bobo obraziga munosabatidan, unga yuklanadigan g'oyaviy -estetik vazifani qanday belgilash mahoratidan ijodiy ta'sirlanganini shu yuqoridagi misollarning o'zidan ham tasavvur qilish mumkin. O'zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtor E.A'zamovning "Javob" to'plami hikoyasiga berilgan "Bosh tashvish" nomli so'ng so'zida yosh adib ijodining muhim xususiyatini ayta turib, Elchiyev obrazining Mo'min bobo shaxsiga yaqinligiga ham ishora qilib o'tadi." Elchiyevga o'xshagan bechorahol kishilar obrazi adabiyotda ancha ko'payib qoldi. A.Muxtorning fikrlari 70-80-yillar adabiyotiga xos muhim tendensiyalarning ayrim qirralarini tushunishga yordam beradi. U, qolaversa, Aytmatov ijodi novatorligiga ham birinchilardan bo'lib ishora qiladi. Chunki 19-asr rus prozasi yoki, umuman, adabiyotidan keyingi davrda oddiy, bechora odamlar obrazini yaratishni Chingiz Aytmatov boshlab berdi, deyish mumkin.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Бушмин А. Преемственность в развитии литературы. – Ленинград: "Худ.литература", 1978. – 224 стр.
2. Eshonqul J. Mif va badiiy tafakkur. – Toshkent: Fan, 2019. – 312 b.
3. Eshonqul N. Ijod falsafasi. ("Men"dan mengacha-2). – Toshkent: Akademyashr, 2018. – 416 b.
4. Eshonqul N. Mendan "men" gacha. – Toshkent: Akademyashr, 2014. – 505 b.
5. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007. – 351 b.
6. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 109 b.
7. Komilov N. Tafakkur karvonlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 320 b.
8. Boltaboyev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992. – 104-b.
9. G'aniyev I. Asrga tatigulik dard. – Toshkent: Akademyashr, 2010. -
10. G'aniyev I. Ibragimov R. Chingiz Aytmatov va XXI asr. – Toshkent: Akademyashr, 2013. – 288 b.

Muallif:

Muxtorova Umida Tolib qizi - Qarshi davlat universiteti erkin tadqiqotchisi.

UDK 372.881.11

WORD FORMATION AS A LEVEL OF LINGUISTICS

SO'Z YASALISHI – TILSHUNOSLIK SATHI SIFATIDA

СЛОВООБРАЗОВАНИЕ КАК УРОВЕНЬ ЛИНГВИСТИКИ

Ro'ziqulov Shohruh Ilhom o'g'li

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

E-mail: shohruhziqulovv@gmail.com

Abstract. The study of linguistics is carried out in a systematic way, including division into sections, identification of categories, division into categories, division into groups, and finally evaluation of oppositional situations. So, word formation is not an exception, because the relationship between the base of the word and the creator is the basis of this

process. In fact, from the history of linguistics to the present day, different views and opinions have been expressed on the formation of words. In particular, special attention is paid to the issue of the creation of words related to Turkic languages. However, attention is paid to the fact that the problems related to the formation of words have not yet been solved, and that its essence has been significantly revealed. The article also mentions the research of Russian linguists on word formation. The article provides information about the existence of several ways of word formation and the formation of compound words. The famous linguist A. Gulomov and scientists of the same period tried to clarify the controversial issue related to word formation. and we can see that he gave conclusions about the formation of words with his scientific views

Key words: word formation, affixation and composition-syntactic, conversion method, lexical-semantic, phonetic word formation.

Аннотация. Изучение языкознания осуществляется систематически, включая деление на разделы, выявление категорий, деление на категории, деление на группы и, наконец, оценку оппозиционных ситуаций. Итак, словообразование не является исключением, поскольку в основе этого процесса лежит связь между основной слова и творцом. Действительно, от истории языкознания до наших дней высказывались разные взгляды и мнения по поводу образования слов. В частности, особое внимание уделяется вопросу образования слов, относящихся к тюркским языкам. Однако обращается внимание на то, что проблемы, связанные с образованием слов, до сих пор не решены, а его сущность существенно раскрыта. В статье также упоминаются исследования российских лингвистов по словообразованию. В статье приведены сведения о существовании нескольких способов словообразования и образования сложных слов. Известный лингвист А.Гуломов и ученые того же периода попытались внести ясность в спорный вопрос, связанный со словообразованием. И мы видим, что он дал выводы об образовании слов со своими научными взглядами.

Ключевые слова: словообразование, аффиксация и композиционно-синтаксический, метод преобразования, лексико-семантический, фонетический слово образование

Kirish. O'tgan asrda barcha fanlar qatorida tilshunoslikda ham ulkan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, A.G'ulomovning morfonologiya va so'z yasalishiga doir ishlarida, shuningdek, «Fe'l» kitobida juda ko'p bir-biridan yasalgan, bir-biriga tovush juftliklari (fonostoma) jihatidan hamda ma'no aloqadorligiga ko'ra bog'lanuvchi birliklar borligini, ular uch-to'rta emas, yaxlit sistemani tashkil etishini ta'kidlagan. Ularning bir-biridan yasalganligini belgilovchi qonuniyatlari ham mavjud tilga olgan. Fonetik o'zgarish asosida farqlanish tarzida yangi so'zlar hosil bo'lishi masalasi A.G'ulomov tomonidan jiddiy tadqiq etilgan bo'lib, shu usulda so'z yasalishi mavjud bo'lganligi asoslab berilgan. Tilshunoslikda so'z yasash usullarining, haqiqatan ham, til tarixida mavjud bo'lganligini qo'llab-quvvatlovchi, buni atroflicha o'rganishga da'vat etuvchi faktlarga asoslangan ma'lumotlar borligini inkor etib bo'lmaydi. Mazkur holat A.G'ulomov tadqiqotlarining o'zbek tili faktlariga to'la asoslanganligi, chuqur tahlillar asosida xulosalanganligi, tilshunoslik taraqqiyoti uchun nazariy manba bo'lganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Olim «Fe'l» kitobida kompozitsiya usulining o'ziga xos jihatlarini asosli tarzda ko'rsatib berganligidan tashqari, 1975-yilda bu masalaga yana alohida e'tibor qaratadi. «O'zbek tili grammatikasi» kitobining «Qo'shma so'zlar» qismida ular yasalishining asosiy xususiyatlarini, qo'shma so'z yasalishidagi qonuniyatlarni yaxshi ochib beradi va «So'z yasashning bu tipini ham o'zbek tilidagi aktiv yo'llardandir» degan asosli fikrni ayta oldi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Ushbu maqolada so'z yasalishi masalasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlarimiz: N.Yu.Shvedova, N.M Shanskiy, N.A.Baskakova V.V.Burlakova, hamda ularning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda o'zbek tilshunosligida ham salmoqli ishlarni amalga oshirgan ustozlarimiz: A.G'ulomov, Sh.Rahmatullaev A.Hojievlarining ilmiy asarlariga tayandik

Olingan natijalar va ularning tahlili

XX asrning 40-yillarida A.G'ulomovning «O'zbek tilida so'z yasash yo'llari haqida» 50 sahifali maqolasi nashr etiladi [1]. Olim ushbu ishida «So'z yasash termini, dunyo tillarida so'z yasash usullarining bir qancha xil bo'lishiga qaramay, bizning ongimizda, odatda, affiks orqali yangi so'zning muomalaga kirishi tushuniladi, chunki hozirgi tillarda eng ko'p qo'llanadigan, juda singib ketgan usuldir. Lekin bundan boshqa (affikssiz) so'z yasash usullari ham bordir», - deydi [1]. Olim agar affikssiz boshqa usullar ham bordir, deganda, yordamchi so'z sifatida so'z yasashda ishtirok etgan vositalarni (kam, xush, qil, bo'l, et...) nazarda tutgan holda ushbu fikrni aytgan bo'lsa ham, baribir, haqlidir. Olim keyingi olib borgan tadqiqotlari natijasida o'z qarashlarini qisman o'zgartirib, holatlarni umumlashtirib, yangicha yondashib, so'z yasash usullarini uchtaga birlashtirib, grammatik so'z yasash, leksik-semantik so'z yasash va fonetik so'z yasash tarzida ajratadi [2]. Albatta, olim shu o'rinda berilgan jumlada "...o'zbek tilida so'z yasash vositalari har xil bo'lib, ularning tiplari shunday ko'rinishlarga ega: morfologik tip, leksik-semantik tip, morfologik-sintaktik tip, fonetik tip" tarzidagi fikrni aytadi. Ko'rinadiki, A.G'ulomov ushbu fikrida, haqiqatdan ham, ayrim olimlar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, go'yo "so'z yasash tipi" va "so'z yasalish yo'li" tushunchalarini qorishtirib yuborgan, ularni ekvivalenti sifatida qo'llagan. Hatto, tip ma'nosida «model» so'zini ham qo'llanganligi qayd etiladi. Umuman olganda, so'z yasash tipining mohiyatini to'g'ri tushungan, ya'ni olim yasama so'zlarni o'zaro birlashtiruvchi ma'no, bir tomondan, bir tipga oid yasama so'zlarning hammasini ularning so'z yasalishi asoslaridan farqlashini ham, ikkinchi tomondan, so'z yasalishining shu tipini boshqa

soʻz yasalishi tiplaridan farqlashini, uchinchi tomondan, bir tipga oid har bir yasama soʻzning maʼnosi guruhlovchi maʼnoga teng boʻlmasligini ham bilgan. Shu bilan birga, soʻz yasalish tipining umumiylik bilan xarakterlanishini ham, buning esa sistemaga xos, sistemani belgilovchilardan hisoblanishini ham bilgan. Olim yuqoridagi holatlardan xulosa qilib, *soʻz yasalish tipi* va *soʻz yasash yoʻllari*, *soʻz yasash usullari terminlarini ekvivalent* sifatida qoʻllaganiga ham guvoh boʻlamiz. Soʻz yasalish tipi va modellarini farqlab, ikkinchisi birinчисining tarkibida boʻlishini toʻgʻri koʻrsatgan.

Jahon va turkiy tilshunoslikdagi soʻz yasalishi bilan bogʻliq yechimini kutib turgan muammolar rus tilshunos olimlari tomonidan ham oʻrganilib, bildirilgan fikrlar umumlashtirib, dastlab ikkitaga, bir oz vaqt oʻtgandan soʻng esa toʻrtta boʻlimdan iborat ekanligi ilmiy asar va maqolalarda oʻz aksini topa boshladi. Rus tilining oʻziga xos soʻz yasalishi tizimi nuqtai nazaridan qaraydigan boʻlsak, buning qanchalik toʻgʻri va asosli ekanligi guvoh boʻlamiz. Jumladan, 1980 yilda N.Yu.Shvedova bosh muharrirligida yaratilgan «Русская грамматика» (1-kitob) fundamental ishida umumlashtirilgan tarzda, asosan, ikkita soʻz yasash usuli, 1970 yilda nashr etilgan «Грамматика современного русского литературного языка» [5] kitobidagi soʻz yasalishga oid qismida ham shunday ifodalangan. Faqat keyingi kitobda son, olmosh hamda ekspressivlik ifodalovchi yuklamalar, taqlid va undovlar, oʻzgaruvchan soʻzlarning ajratilgan shakllariga xos soʻz yasalish strukturasi, shuningdek, soʻz yasalishida morfonologik hodisalar qoʻshimcha tarzida berilgan boʻlib, rus tilida soʻz yasashning asosan ikki usuli qayd etilganligini koʻramiz. N.M.Shanskiyning «Очерки по русскому словообразованию» monografiyasida soʻz yasalishning abbreviatsiya va rederivatsiya usullarini ham birlashtirgan holda toʻrtta: leksik-semantik; morfologo-sintaktik; leksik-sintaktik va morfologik usullar alohida bobda berilgan [6]. Soʻz yasash usullarini shu tarzida belgilash Galkina-Fedaruk va boshqalar tomonidan tuzilgan «Современный русский язык» kitobida ham qayd etilgan.

Bundan tashqari, 1975-yilda nashr etilgan «Xakas tili grammatikasi»da soʻz yasashning morfologik, sintaktik, leksik (leksik-sintaktik) usullari qayd etilgan. Morfologik usulning eng unumli usul ekanligi, leksik usul izohlanar ekan, bunda, soʻz maʼnosida tub oʻzgarish hosil boʻlib, soʻzning ikkita soʻzga ajralib ketishi nazarda tutilgan [7. B. 5]. Xuddi shu tarzda Ozarbayjon, Qoraqalpoq va boshqa turkiy tillardagi soʻz yasashning affiksatsiya va kompozitsiya usullari qayd etilib, leksik yoki leksik-semantik kabi boshqa usullar ham mavjudligi koʻrsatib oʻtiladi. Shunisi xarakterliki, qayd etilgan adabiyotlarga eʼtibor qaratsa, koʻrsatilgan usullar qatorida faqat fonetik usulda soʻz yasalishi asosan A.Gʻulomovning shu masalaga bagʻishlangan ishlaridagina kuzatiladi. Rus tiliga oid adabiyotlarda ham, turkiy tillarga oid adabiyotlarda ham boshqa olimlar tomonidan bu usul qayd etilmaydi. Demak, A.Gʻulomov oʻzbek tilida tarixan soʻz yasalishining shunday usuli mavjud boʻlganligiga eʼtibor qaratadi va oʻzbek tilining oʻziga xos fonetik materiallari asosida, yasalishning qonuniyatlarini toʻgʻri belgilagan holda, bu usulda koʻplab soʻzlar yasalganligini (til tarixida) asoslab bergan, deyish mumkin. Albatta, bu usulda soʻz yasalishi (olim koʻzda tutgan tarzda) hozirgi kunda kuzatilmaydi hamda oʻz faolligini yoʻqotgan. A.Gʻulomov fonetik usulda soʻz yasalishining birinchi koʻrinishi boʻlgan ichki oʻzgarishlar asosida soʻz yasalishiga koʻp marotaba murojaat qiladi va buning qonuniyatlarini ham belgilab beradi [8].

Gap shundaki, A.Gʻulomovning morfologiya va soʻz yasalishiga doir ishlarida, shuningdek «Feʼl» kitobida, *qop-yop*, *bot-bol-bolta-bosqon*; *soʻz-yoʻz*; *yor-yir-jir-jar (yara)*, *boʻz-bur-bush*; *tim-tom-dom*; *koʻr-goʻr*; *kez-kes-kech* va hokazo juda koʻp bir-biridan yasalgan, bir-biriga tovush juftliklari (fonostoma) jihatidan hamda maʼno aloqadorligiga koʻra bogʻlanuvchi birliklar borki, ular 3-4 ta emas, yaxlit sistemani tashkil etishini koʻrsatib oʻtgan. Ularning bir-biridan yasalganligini belgilovchi qonuniyatlarini ham mavjudligiga ishora qiladi. Jumladan, qarama-qarshi yoki bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar, ot-feʼl hamda ot-feʼl-sifat juftligi kabi alohida qonuniyatlar asosida yuzaga kelganligi ishonchli tarzda dalillashga harakat qilgan. Fonetik oʻzgarish asosida farqlanish, yaʼni yangi soʻzlar hosil boʻlishi masalasi A.Gʻulomov tomonidan jiddiy tadqiq etilgan boʻlib, shu usulda soʻz yasalishi mavjud boʻlganligi asoslab berilgan. Bizningcha, oʻzbek tiliga xos, odatda, bir boʻgʻinli, ikki tovushi bir xil boʻlgan tub soʻzlar jiddiy tadqiq etilsa olimning fikrlari toʻgʻri ekanligi yanada ravshanlashadi, oʻzining aniq isbotini topadi. Masalan, *yop* va *qop* soʻzlari «*bekitmoq*» semasi bilan birlashadi; *soʻz-yoʻz* uzish «biror narsa sathi orqali «*oʻtish*» semasi bilan, *boʻz-boʻr* soʻzlari «*xom*», «*ishlov berilmagan*», «*oq*» semalari bilan, *tim-tom* soʻzlari «*usti bekilgan joy*» (timning tagida) semasi bilan, *yor-yir* juftligi «*ajratish*» semasi bilan birlashadi. Koʻrinadiki, bari bir, qandaydir fonetik hodisa sodir boʻlgan: *kun-tun* juftligida oldingi tovush almashtirilgan va hokazo. Bularning barchasida ana shunday fonetik oʻzgarish asosida, keyin esa soʻzlar oʻrtasida farqlanish roʻy berib yangi bir lugʻaviy birlik yuzaga kelgan. Bu oʻzbek tili materiallari tarixda shu usulda yangi soʻzlar yasalganligini toʻgʻrisida maʼlumot beradi.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida oʻzbek tilshunosligida soʻz yasalishining asosan bitta usuli mavjudligi toʻgʻrisida maʼlumotlar bor, lekin barcha tilshunosliklarda aksariyat olimlarning chiqishlarida kompozitsiya usulida soʻz yasalishi yoʻqligi qayd etila boshlandi [9]. Akademik A.Hojiyev oʻzining 1989-yili nashr etgan «Oʻzbek tili soʻz yasalishi» qoʻllanmasida kompozitsiya usulini koʻrsatib beradi. Olim abbreviatsiya, leksik-semantik, fonetik, sintaktik-leksik usullarni alohida usullar tarzida qayd etmaslikni bayon qilgan hamda abbreviatsiya usulini soʻz yasalishi usuli sifatida qaramaslik haqidagi fikrlari yaxshi asoslangan. Soʻz yasash muammolari, jumladan, soʻz yasash usullari borasida oʻziga xos tarzda mukammal fikrlar aytgan, oʻz qarashlarini bildirgan. Olim oʻtgan asrning 80-yillarda kompozitsiya usuli asosiy usullardan biri ekanini tan olgan edi. Biroq til sistemasiga yangicha yondashuvlar, yangi kuzatishlar asosida oʻz

fikrini o'zgartirdi. «O'zbek tili so'z yasalishi tizimi» qo'llanmasida kompozitsiya usulida so'z yasalishini alohida usul sifatida qaramaslik kerakligini ta'kidlab 3 punktdan iborat xulosa beradi [9]. Albatta, hozirgi kungacha ham, hozir ham qo'shma so'z deb atalib kelingan va ot+sifat, son+ot, fe'l+ot, taqlidiy *so'z+ot, ot+sifat, ot+sifatdosh, ot+ot* tipida yasalgan birliklar «so'z yasalish usuli bilan hosil bo'lgan so'zlar hisoblanmaydi deb ta'kidlagan [10]. “Binobarin, ular so'z yasalishi tizimi ob'ektiga kirmaydi, tarkibida birdan ortiq lug'aviy ma'noli qismning borligi «qo'shma so'z»lik belgisi, kompozitsiya usuli bilan yasalganlik belgisi bo'la olmaydi” [10] kabi fikrlarning to'g'ri yoki to'g'ri emasligi munozaralidir. Bularning har biri avvalo atroflicha asoslanishi kerak. Jumladan, *qo'shma so'zlar* deb atalib kelinayotgan yangi lug'aviy birliklarni tan olmaslik mumkin emas, chunki lug'at, grammatikalarda ham qayd etilgan. Lekin ularni *qo'shma so'zlar* deb atash kerakmi yoki soddalashish jarayoni sodir bo'lganligi va bir tushunchani ifodalovchi birlikka aylanganini hisobga olib *sodda so'zlar* deb atash kerakmi? Soddalashish jarayoni, ikkita so'zning oddiy birikishi qo'shma so'zni – shunday lug'aviy birlikni yuzaga keltira oladimi? kabi savollarga javob topishga ham harakatlar qilingan.

A.G'ulomov ham bu borada fikr yuritib, so'z birikmalari turli xil o'zgarishlardan keyin - shu yo'sinda, birikmaligini yo'qotib bir tushunchani ifodalaydigan lug'aviy birlikka - qo'shma so'zga aylanishini aytadi va hatto, tan olingan affiksatsiya usulida so'z yasalishi ham birinchi ko'rinishdagi so'z yasalish usulining yanada soddalashishidan hosil bo'lganligini ta'kidlaydi: «Tarixiy jihatdan qaraganimizda, affiksatsiya yo'li kompozitsiyadan tug'ilgan: o'zak+o'zak-o'zak+affiks: affiksalar aslida mustaqil so'zlardan kelib chiqqan: oshxona, xalqobod [11] kabi so'zlarning yasalishi va bunga doir fikrlar bugungi mabalarda uchraydi yoki prof.Yo.Tojiev o'zining «O'zbek tilida qo'shma so'zlarning yasalishiga doir maqolasida «Qo'shma so'zlar, haqiqatan ham, ikki so'zning oddiy qo'shiluvchidan yasalmaydi, ular, odatda, so'z birikmalarining fonetik, grammatik va semantik o'zgarishlari natijasida o'zaro singishib ketib yaxlitlashishidan, ular orasidagi sintaktik munosabatning yo'qolishidan, leksikalizatsiyalash asosida yuzaga keladi, bu kompozitsiya usuli tarzida shartli belgilanishi mumkin. Qo'shma so'zning hosil bo'lishi oddiy so'z qo'shilishi usulida hosil bo'lmaydi» [12] degan fikrni aytadi va buni asoslab beradi. Bundan faqat usulning nominigina aniqlash kerakligi oydinlashadi. Hamma qo'shma so'zlar, shu jumladan, so'z birikmalarining uch jihatdan o'zgarishi va soddalashishning yuzaga kelishi bilan hosil bo'ladi, ba'zi tarixan o'zgarishlar hisobga olinmasa, yasama qo'shma so'zlarda ma'no ular tarkibidagi komponentlari ma'nolaridan tashkil topadi, ana shu komponentlar orqali uning yasalma ekanligi motivlanadi: *belning bog'i- belbog', tomning orqasi - tomorqa, erda o'sadigan yong'oq – eryong'oq* va hokazolar. Qo'shma so'z tarkibida ikkita o'zbek tiliga oid, hozir ajratib olsa bo'ladigan, mustaqil holda qo'llanib, ma'no anglatadigan birlikning mavjudligi ularning yasalishini motivlaydi. Ulardan biri bo'lmasa, yasalmalik o'z qimmatini yo'qotadi.

6. Матезиус В. О так называемом актуальном членении предложения // Пражский лингвистический кружок. – Москва: Прогресс, 1967.
7. Попова И.Д. Основные взгляды на проблему актуального членения предложения // Вестник Камчатского государственного технического университета. – 2010. №13. – С. 92-95.
8. Пумпянский А.Л. О логико-грамматическом членении предложения // Вопросы языкознания. – 1972. №2. – С. 66-76.
9. Салтанова Н.Ю. Актуальное членение предложения как средство текстовой организации // Вестник Кемеровского государственного университета. – 2022. Том 24. №2. – С.231-238. DOI: <https://doi.org/10.21603/2078-8975-2022-24-2-231-238>
10. Сафина З.М., Авхадиева И.А. Проблема актуального членения предложения в переводе // Доклады Башкирского университета. – 2018. Т.3. №1. – С. 121-127.
11. Тухватулина С.И. Актуальное членение предложения и способы его выражения // Русская речь. – 2015. №4. – С. 41-46.

Автор:

Бурiev Илхом Эргашевич – преподаватель кафедры русского языка и литературы Гулистанского государственного университета

УДК 81'372/03

UNIFICATION OF ORTHOGRAPHY: SPELLING PROBLEMS OF NEW AND FOREIGN WORDS

ORFOGRAFIYANING UNIFIKATSIYASI: YANGI VA CHET TIL SO'ZLARINI IMLO MUAMMOLARI

УНИФИКАЦИЯ ОРФОГРАФИИ: ПРОБЛЕМЫ ПРАВОПИСАНИЯ НОВЫХ И ИНОЯЗЫЧНЫХ СЛОВ

Нурмухамедова Дилбар Фаруховна

Гулистанский государственный университет, 120100. 4-микрорайон, город Гулистан, Сырдарьинская область.

E-mail: nurmuhamedovadilbar@mail.ru

Abstract. This article is devoted to the study and description of some active processes occurring in the field of spelling and punctuation of the Russian language of the 21st century. Among the most characteristic trends is the discrepancy between codified recommendations of rules and written (spelling and punctuation) practice; the emergence and active introduction into practice of new words (neologisms), as well as foreign words. In addition, spelling is also influenced by the desire of the modern linguistic personality for active linguistic creative activity associated with the use of the expressive capabilities of graphics, spelling and punctuation to attract the attention of readers and writers, as well as the deliberate violation of spelling and punctuation norms, caused by either a low level of proficiency in written communication, either disregard for existing rules, or the desire for linguistic self-identification.

Key words: Russian language, spelling (orthography), unification, tradition, neologism.

Аннотация. Настоящая статья посвящена изучению и описанию некоторых активных процессов, происходящих в сфере орфографии и пунктуации русского языка XXI века. Среди наиболее характерных тенденций отмечается расхождение между кодифицированными рекомендациями правил и письменной (орфографической и пунктуационной) практикой; появление и активное введение в практику новых слов (неологизмов), а также иностранных слов. Кроме того, влияние на правописание оказывает также стремление современной языковой личности к активной лингвокреативной деятельности, связанной с использованием экспрессивных возможностей графики, орфографии и пунктуации для привлечения внимания читающих и пишущих, а также намеренное нарушение орфографической и пунктуационной нормы, вызванное либо низким уровнем владения письменной коммуникацией, либо пренебрежением к существующим правилам, либо стремлением к лингвистической самоидентификации.

Ключевые слова: русский язык, правописание (орфография), унификация, традиция, неологизм.

Annotatsiya. Ushbu maqola 21-asr rus tilining imlo va tinish belgilari sohasida sodir bo'lgan ba'zi faol jarayonlarni o'rganish va tavsiflashga bag'ishlangan. Zamonaviy tendentsiyalardan biri – qoidalarning kodlangan tavsifalari va yozma (imlo va tinish belgilari) amaliyoti o'rtasidagi nomuvofiqlik; yangi so'zlar(neologizmlar)ning, shuningdek, xorijiy so'zlarning paydo bo'lishi va amaliyotga faol kiritilishi. Bundan tashqari, imloga zamonaviy lingvistik shaxsning o'quvchilar va yozuvchilar e'tiborini jalb qilish uchun grafika, imlo va tinish belgilarining ekspressiv imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog'liq faol lingvistik ijodiy faoliyatga bo'lgan istagi ham ta'sir qiladi. Bu imlo va tinish belgilarining normalari yozma muloqotni past darajada bilish, mavjud qoidalarga e'tibor bermaslik yoki o'zini lingvistik identifikatsiya qilish istagi tufayli yuzaga keladi.

Kalit so'zlar: Rus tili, imlo (orfografiya), unifikatsiya, an'ana, neologizm.

Введение. Определенное место в полном своде правил правописания, в разных его разделах (как в отдельных частных правилах, так и в качестве иллюстративного материала), должны занимать неологизмы - новые слова и типы слов. При наличии в практике письма колебаний, вариантов написания тех или иных слов либо типов слов (в первую очередь это касается неологизмов) задача орфографистов - обоснованно выбрать один из вариантов в качестве единственно правильного, кодифицированного, и зафиксировать его в нормативном словаре, а в необходимых случаях – и в правилах.

Методы исследования. В работе используются эмпирические методы изучения научной литературы, словарей и корпусов текстов, описательный, количественный метод, компонентный анализ.

Обсуждение. Новые факты языка должны подчиняться действующим орфографическим правилам. Вот характерный пример: иностранные приставки *пост-* и *супер-* не упомянуты в Правилах 1956 г. просто потому, что тогда их в русском языке в широком употреблении не было [1]. Как писать *постъядерный*, *постъельцинский*, *постъюгославский*, *суперъяхта*, *суперъёлка*? Существует общее правило, что после приставки перед йотированным гласным употребляется буква *ь*, но про это часто забывают, когда пишут слова с этими приставками (результат нередко комичен: например, когда слово *постъельцинский* пишут без твердого знака).

Другой случай: встает вопрос, как писать сложные слова с первой частью *аудио-*, *видео-* или *медиа-*. Такие слова надо писать слитно, а не через дефис, как очень часто пишут [2]. Все сложные слова с первой частью *медиа-* (*медиахолдинг*, *медиамагнат*, *медиаподдержка* и др.), безусловно, следует писать так же, как сложные слова с другими первыми частями на гласную (*авиа-*, *авто-*, *гидро-*, *кино-*, *метео-*, *радио-*, *стерео-*, *фото-*, *электро-* и др.), т. е. слитно.

Появилось новое слово *риелтор* (*ри(э)лте(о)р*) - используются четыре возможных варианта его написания. Какой выбрать в качестве единственно правильного? Предлагается написание *риелтор* [3]: с буквой *о*, потому что написание слова в языке-источнике тоже надо учитывать, и с буквой *е*, потому что в других словах по действующим правилам после и пишется буква *е* (ср.: *гигиена*, *диета*, *дизел*, *коэффициент*, *абитуриент*, *сиеста*, *спаниель* и др.).

Слова *офшор*, онлайн рекомендуется писать с одной буквой *ф*, потому что другие заимствованные английские слова с начальной частью *о* мы пишем с одним *ф* (*офис*, *офсет*, *офсайд* и др.) [4].

Слова *фитнес*, *топлес* следует писать с одним *с*, как слово бизнес.

Слово *карате* надо писать с буквой *е* на конце, как мы пишем другие несклоняемые (нарицательные) существительные, оканчивающиеся на *-е* с предшествующим твердым согласным (*кашине*, *юре*, *шоссе*, *резюме*, *безе*, *кафе*, *варьете* и др.) [5].

Естественно, что в силу большого притока новых иноязычных слов в лексику русского языка подобные вопросы возникают очень часто. Но в принципе такие вопросы вполне разрешимы. Ясно, например, что значительное расширение списка слов с буквой *э* в корне после твердого согласного не соответствовало бы закономерностям русской орфографии, где в этой позиции очевидно преобладает буква *е*, отсюда и закономерность таких написаний, как *бренд*, *дефолт*, *пейджер*, *секонд хенд*, *хеппинг*, *тренд*, *тинейджер*, *хайтек*, *хеви-метал* и др. [6] Слова *рэп*, *бэк-вокал*, *фэнтези* и т. п. только пополняют список словарных исключений из данного правила.

Существует точка зрения, что орфографические варианты новых слов допустимы в течение достаточно долгого времени, пока слова закрепятся в языке, пока установится их написание. Однако, используя продемонстрированный здесь на нескольких примерах метод опоры на орфографический прецедент, на тип написания аналогичных с той или иной точки зрения слов, можно, не дожидаясь какого бы то ни было срока, рекомендовать единственный, общеобязательный вариант написания новых слов. Но не следует думать, что все сложности, связанные с вариативностью орфографии некоторых новых слов, возникают только при выборе написания иноязычных, заимствованных слов (или частей слова). Например, в русской разговорной речи возникло слово *телик*, образованное от слова *телевизор*, *мультик* от *мультфильм*, *велик* от *велосипед*, *видик* от *видеомагнитофон*, *шизик* от *шизофреник* и др. В остальных словах этого типа колебаний в написании не наблюдается, и только слово *телик* пишут двойко - *телик* и *телек* (с буквой *е* - даже чаще, очевидно, под влиянием слов *телевидение*, *телевизор*) [7]. Но существуют два уменьшительно-ласкательных суффикса *-ик* и *-ек*, и есть правило: если гласный суффикса беглый, то он передается в безударном положении буквой *е* (кусочек - кусочка), если же не беглый, то буквой *и* (калачик - калачика). Очевидно, что правильное написание - *телик*. Недавно возникло слово *мелочовка* (иногда пишут *мелочевка*), которое следует писать только с буквой *о*. Ведь буква *е* в словах на *-овка/-евка* пишется только в отглагольных существительных (*ночѐвка*, *перекочѐвка*). В отыменных образованиях (а слово *мелочовка* образовано от существительного *мелочь*) надо писать суффикс *-овк-*. Вообще в именных суффиксах после шипящих под ударением обычно пишется буква *о* (в глагольных - *ѐ*): *мышь* - *мышовка*, *хрыч* - *хрычовка*, *чиж* - *чижовка* [8]. Таков прецедент, согласно которому определяется написание слова *мелочовка*. Слова *плащовка*, *речовка* образованы несколько иначе - с суффиксом *-к(а)* от прилагательных *плащевой*, *речевой* (ср.: *грушовка* от *грушевый*, *гушовка* от *гушевой*, *ношовка* от *ножевой* и *ножовой*). А в суффиксе прилагательных *-ое/-ев-* после шипящих под ударением пишется буква *о* (*парчовый*, *холщовый*, *грушовый* и т. п.). Обратим внимание и на слова *очочки* (от *очки*) и *очочко* (от *очко*). Их не было ни в одном словаре до «Русского орфографического словаря», вышедшего в 1999 г. Выбор написания в них буквы *о* или *ѐ* связан с правилом обозначения беглых гласных в именных и глагольных основах (в этих словах гласный под ударением после *ч* - беглый). Правило состоит в том, что беглый гласный после шипящего под ударением в глаголах передается буквой *ѐ*, а в именах - буквой *о* [9]. Как пишется слово *гадючник*, недавно появившееся в русском языке? В академическом «Словаре современного русского литературного языка» (2-е изд.) оно дано в двух орфографических вариантах: *гадюшник* и *гадючник* [10]. Это слово - украинизм, и в украинском языке в нем произносится звук [ш], а пишется буква *ч*. Почему бы не поддержать эту тенденцию, которая и в русском языке очень хорошо представлена? В словах *подсвечник*, *горчичник*, *полуночник*, *двоячник* и т. п. мы пишем *ч*, а произносим обычно [ш], и таких слов очень много (написания *раѐшник*, *городошник* - исключения). Поэтому предлагается писать *гадючник*.

К правописанию новых слов относится проблема употребление прописных и строчных букв в отдельных словах и словосочетаниях. В практике наблюдаются колебания и разноречивые, находящие свое выражение в

различном написании одних и тех же слов и сочетаний. Причины подобных колебаний связаны, во-первых, со сложностью разграничения понятий «имя собственное» и «имя нарицательное». Между этими ядерными понятиями существует зона переходных случаев, и далеко не всегда легко установить, на какой стадии находится этот переход. Колебания наблюдаются и в производных от собственных имен, что еще раз подтверждает сложность разграничения в некоторых случаях собственных и нарицательных имен. Во-вторых, в последнее десятилетие в нашу жизнь вошло огромное количество новых номинаций, написания которых не кодифицированы. В-третьих, либерализация русского литературного языка, языковая мода и вкус оказывают в этой области правописания значительное влияние.

Особую трудность представляет написание составных названий различного типа, выступающих в функции собственных имен. Выделяются три типа написаний составных названий: 1) с прописной буквы пишутся все слова; 2) с прописной буквы пишется только первое слово; 3) с прописной буквы пишутся первое слово и собственные имена, входящие в составное название.

Однако на практике нередко встречаются случаи, когда непросто подвести то или иное название под один из указанных типов. Дело в том, что, кроме грамматической категории «имя собственное – нарицательное», пишущий должен определить прагматические параметры, такие как «официальность/неофициальность употребления» и «нейтральная/положительная (отрицательная) оценка», что в условиях речевого либерализма оказывается заданным далеко не строго.

Так, наблюдается значительное варьирование в оформлении названий учреждений регионального и местного уровней, политических партий и движений, фирм, компаний, банков и т.д., которое достигает опасных пределов, размывая критерии употребления прописной и строчной буквы. Необходим безотлагательный лингвистический анализ сложившейся практики и обоснованные рекомендации, опирающиеся на грамматический, семантический и прагматический аспекты имени собственного и составных наименований. Как проявление языкового вкуса можно отметить неоправданно резкое увеличение в последние годы написаний с прописной буквы. Особого внимания и изучения должны заслуживать те случаи, когда свобода в использовании прописной и строчной букв затрагивает основы системы написаний. К подобным написаниям относятся *АвтоВАЗбанк*, *ДемРоссия*, фирма *РоссКофе*, издательство «Знак-СП», *РосТВ*, магазин «Атлетика» и т.п. В русской системе письма прописная буква является левым пограничным сигналом: в слове пишется первая большая буква (сигнал первого слова в предложении или имени собственного) или все большие буквы (сигнал аббревиатуры).

Мощными факторами влияния на практику письма являются телевидение, видео, мультимедиа с их сложным взаимодействием речи и видеоряда, собственно языковых и иных приемов воздействия и передачи информации. Все эти проблемы нуждаются в серьезном и комплексном исследовании лингвистами, журналистами, психологами.

Проблемой русской орфографии является орфография иноязычных слов. При передаче в русских текстах заимствуемых слов используются четыре приема: транскрипция; транслитерация; перевод; передача латинскими буквами [11].

Прием транскрипции – это не собственно фонетическая транскрипция, а так называемая практическая транскрипция, т.е. отражение средствами русского алфавита фонетической системы заимствуемого языка с учетом межъязыковых соответствий. Например, *tribalism* – *трайбализм*, *brain drain* – *брейн-дрейн*, *public school* – *публик скул*, *drive-in* – *драйв-ин*, *teach-in* – *тич-ин*, *drugstore* – *драгстор*, *know-how* – *ноу-хау*, *impeachment* – *импичмент* и др. Прием транскрипции отличается от обычной транскрипции: это не собственно фонетическая транскрипция, с различной степенью точности отображающая реальное звучание иноязычного слова в своем языке, а так называемая практическая транскрипция. Практическая транскрипция учитывает правила чтения букв и буквосочетаний, принятых в данной орфографии, хотя для заимствованных слов здесь возможны и некоторые отклонения. Например, *цукат*, но *Цюрих*; *цапля*, но *Свенцяны* (хотя в русском языке нет фонемы /ц'/ и буквосочетания *цю*, *ця* в русских словах не применяются).

В современном русском письме преимущественно используется транскрипция, меньше – транслитерация.

Перевод в русских текстах используется в следующих случаях: 1) способом перевода передается вся масса апеллятивов, т.е. собственно текст; 2) способ перевода иногда применяется к личным именам и географическим названиям, в частности для номенклатурных терминов в составе географических названий (*озеро Эри*) и, по традиции, для ряда крупных географических объектов (*Мыс Доброй Надежды*, *Скалистые горы*). Например, *Новая Зеландия*, *Нижний Рейн*; 3) употребляется перевод с целью передачи специфики внутренней формы имени в художественных произведениях, а иногда и в названиях. Например, в переводе «Моникинов» Дж. Ф. Купера *Lord Chatterino* передан через *Лорд Балаболо*, *island of Leap-high* – *остров Высокопрыгия* и т.п.; 4) полностью или частично переводятся имена многих разрядов, пограничных для ономастики, например, названия книг, статей, фильмов.

С целью недопущения ошибок при орфографии необходимо к более известным географическим именам, таким, как, например, названия горных вершин (*Mont-Blanc*, *Dent du Midi*, *Jungfrau*) применять транслитерацию

(Монблан, Дан дю Миди, Юнгфрау). К именам более узкого местного значения (таким, как названия улиц, местностей, зданий с четко выраженным образным значением) следует применять и перевод (парижские улицы *Boulevard des Italiens, Boulevard a* , парки *Bois de Boulogne, Champs* по-русски обозначаются как *Итальянский бульвар, Севастопольский бульвар, Булонский лес, Елисейские поля*).

Имеет сложности и четвертый способ передачи в русских текстах заимствуемых слов, а именно способ включения в русский текст заимствуемых иноязычных слов (и особенно собственных имен) с передачей их латинскими буквами (латинская транскрипция). Среди иноязычных вкраплений основное место занимают слова и словосочетания, имеющие интернациональный характер. Это, прежде всего, латинские выражения типа *alter ego, post scriptum, ad hoc* и т.п., но так употребляются и выражения из современных живых языков.

Закключение. Актуальной проблемой является как верное и корректное использование иноязычных слов, так и следование правилам введения таких слов в текст. При этом, на наш взгляд, следует помнить, что не всякое иноязычное слово лучше родного (об этом сказано много); иноязычные слова, используемые в речи, должны работать на информацию, а при необходимости должны дать возможность аудитории легко получить и другую информацию. Поэтому иноязычные слова всегда должны быть узнаваемы, понимаемы, то есть функциональны; употребление иноязычного слова должно быть оправданно (важно помнить, что большая часть иностранных слов, с точки зрения языкового вкуса, обладает престижностью, но это не может быть достаточным для употребления).

Список литературы:

1. Nurmukhamedova D.F. The Role of Russian Linguists in the Unification of Spelling // International Journal of Scientific and Research Publications. – 2024. Vol. 14(2). – P.30-34.
2. Арутюнова Е.В. Реформа русской орфографии и пунктуации 1960-х годов: неизвестные страницы истории // Сибирский филологический журнал. – 2016. №3. – С.5-14. DOI: 10.17223/18137083/56/1
3. Беседы с М.В. Пановым // Жизнь языка: Сборник статей к 80-летию М.В. Панова. – М., 2001. – С.483-524.
4. Валгина Н.С. Активные процессы в современном русском языке. – М., 2001.
5. Виноградов В.В. Русская орфография и ее реформа // Известия. – 1962. 15 декабря. – С.5.
6. Голев Н.Д. Русская письменная разговорная речь и её отражение в обыденном метаязыковом сознании участников виртуальной коммуникации // Вестник Томского государственного университета. Филология. – 2013. №5(25). – С.12-30.
7. Головей В.Д. Об одной нерешённой проблеме русской орфографии // Язык. Человек. Общество: II Международный сборник научных трудов. – Владимир, 2010.
8. Григорьева Т.М. Три века русской орфографии. – М., 2004.
9. Иванова В.Ф. Академик В.В. Виноградов как председатель Орфографической комиссии 60-х гг. // Русистика сегодня. – 1995. №2. – С.108-114.
10. Рахманова Л.О реформе орфографии // Отечественные записки. – 2002. №1. – С.177.
11. Храмых А.В. Проект реформы русской орфографии 2001-2002 гг. – Петрозаводск, 2006.

Автор:

Нурмухамедова Дилбар Фаруховна – к.ф.н., доцент кафедры русского языка и литературы Гулистанского государственного университета

UDK: 811.512.133-2

FEATURES OF THE USE OF UNITS ADJACENT IN FORM ACCORDING TO THE REQUIREMENTS OF POETIC METERS IN USMON'S LYRICS

USMON AZIM SHE'RIYATIDA SHAKLDOSH BIRLIK LARNING VAZN TALABIGA KO'RA QO'LLANISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING BADIY-ESTETIK VAZIFALARI

ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ СМЕЖНЫХ ПО ФОРМЕ ЕДИНИЦ СОГЛАСНО ТРЕБОВАНИЯМ СТИХОТВОРНЫХ РАЗМЕРОВ В ЛИРИКЕ УСМОНА

Egamov Umidjon Shavkatovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

Email: umidjon86egamov@gmail.com

Abstract. This article examines the use of such units in the poetry of U. Azim according to the requirement of weight. It is known that the uniqueness of linguistic and poetic research lies in the fact that one of the artistic means that ensures the emergence of a person's socio-psychological mood in a process related to how it changes, changes, changes, is the formulation of similar (homonymous) units, which seems to come down to that weight is applied on demand. Cognates give a poem both charm and melody, as well as a unique position, like units in a synonymous line. "One of the

paradigmatic relationships of the lexical meanings of words is reflected in homonymy. The poet is distinguished from other artists by the use of these units instead. The article analyzes the acceptance of similar units according to weight requirements and their artistic and aesthetic characteristics.

Key words: homonymy, tajnis, weight coefficient, tuyuk.

Annotasiya. Ushbu maqolada U.Azim she'riyatidagi shakldosh birliklarning vazn talabiga ko'ra qo'llanishi o'rganilgan. Ma'lumki, lingvopoetik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, insonning ijtimoiy-psixologik kayfiyati qay tarzda o'zgarib, turlanib, tuslanib turganligi bilan ham bog'liq jarayonda ham yuzaga chiqishini ta'minlovchi badiiy vositalardan biri shakldosh (omonim) birliklarning she'r vazni talabiga ko'ra qo'llanilishini bir nuqtaga yig'ishda ham qabarib ko'rinadi. Shakldosh so'zlar she'rga ham joziba, ham ohangdorlik, xuddi sinonimik qatordagi birliklarga o'xshab o'ziga xos mavqe kasb etadi. "So'z leksik ma'nolarining paradigmatic munosabatlaridan biri o'z aksini omonimiyada topadi. Shoir mazkur birliklarni o'z o'rnida ishlatishi bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. Maqolada shakldosh birliklarning vazn talabiga ko'ra qo'llanilishi hamda ularning badiiy-estetik xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: shakldosh so'z, omonimiya, tajnis, vazn talabi, tuyuq.

Аннотация. В данной статье исследуется употребление подобных единиц в поэзии У.Азима по требованию веса. Известно, что своеобразие лингвопоэтических исследований заключается в том, что одним из художественных средств, обеспечивающих возникновение социально-психологического настроения человека в процессе, связанном с тем, как оно меняется, меняется, является формулировка сходных (омонимичных) единиц, похоже, сводится к тому, что вес применяется по требованию. Родственные слова придают стихотворению и очарование, и мелодичность, а также уникальное положение, подобно единицам в синонимической строке. «Одно из парадигматических отношений лексических значений слов находит свое отражение в омонимии. Поэта отличает от других художников использование этих единиц вместо них. В статье анализируется приемка аналогичных агрегатов по весовому требованию и их художественно-эстетическим характеристикам.

Ключевые слова: омонимия, таджнис, весовой коэффициент, туюк.

Kirish. Ma'lumki, lingvopoetik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, insonning ijtimoiy-psixologik kayfiyati qay tarzda o'zgarib, turlanib, tuslanib turganligi bilan ham bog'liq jarayonda ham yuzaga chiqishini ta'minlovchi badiiy vositalardan biri shakldosh (omonim) birliklarning she'r vazni talabiga ko'ra qo'llanilishini bir nuqtaga yig'ishda ham qabarib ko'rinadi. Shakldosh so'zlar she'rga ham joziba, ham ohangdorlik, xuddi sinonimik qatordagi birliklarga o'xshab o'ziga xos mavqe kasb etadi. "So'z leksik ma'nolarining paradigmatic munosabatlaridan biri o'z aksini omonimiyada topadi. Shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar omonimlardir. Ikki yoki undan ortiq so'zning bir xil yozilishi va bir xil talaffuz etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi" [1].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida Usmon Azimning barcha she'riy to'plamlari, muallifning shaxsiy arxividagi shoir ijodiga doir manbalar, asosan, 1996 yil nashr etilgan saylanmasi olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Haqiqatdan ham, poetik nutqning ma'noviy qatlami balki misralardagi so'zlarning joylashuv tartibi, qofiya va vazn talablarining estetik funksiyasida ohangdoshlikni oshirishda muhim omil sanaladi. Shu boisdan ham, bu borada maxsus tadqiqot olib borgan H.Dadabayev eski turkiy til, xususan, M.Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib asarlarini monografik planda tadqiq qilgan. Mumtoz shoirlar A.Navoiy, Bobur, Mashrab va Ogahiyning omonimlardan keng foydalanilganligini ham o'zbek tilshunos olimlari o'rganishgan [2]. Shakldosh birliklar vazn talablariga ko'ra xilma-xillik kasb etadi. U mumtoz adabiyotda tuyuq janri yuzaga kelgan. Masalan, ko'pincha tajnis san'atini tuyuq bilan birga qo'llash holatlari kuzatiladi. Bular aynan bir xil narsa emas. tajnis – lafziy san'atlar turiga kirsam, tuyuq mustaqil janr sifatida qo'llaniladi. Bularni ko'pchilik shaklda bir xil, yozuvda har xil ma'nosida qo'llab kelavergan. Aksincha, bittasi she'riy sana'at bo'lsa, ikkinchisi badiiy janrdir. O'zbek adabiyotida tuyuqning ilk namunasi "Qutadg'u bilig"da uchraydi:

*Qayu erda bo'lsa uqush birla o'g,
Ani er, atag'il, necha o'gsa o'g.
Uqush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,
Yavuz ersa kaz te, kichig ersa o'g.* [3]

Ma'nosi: Agar kimda bo'lsa aql, ilm, zehn// Uni madh etib sen, tugal er degin// Ziyod bo'lsa kimda uquv, aql, bilim// Yomon va kichik bo'lsa ham maqtagin" [3]. Ko'rinadiki, Yusuf Xos Hojib bu yerda – o'g so'zini omonim (shakldosh) sifatida – aql, maqtamoq, ulug'lamoq ma'nosida qo'llamoqda. Qayerda zehni inson bo'lsa yoshi kattami, kichikmi ulug'lagin demoqda. Shunday ekan, shaklan ko'p ma'noli so'zlar qadimgi turkiy til lug'at boyligining alohida

qismini tashkil etadi. Masalan, yash (ko‘z yoshi, ko‘kat, yangi, sof), qaraqush (qirg‘iy, Mushtariy yulduzi, tuya oyog‘ining tag atroflari), yig‘ach (yog‘och, bir farsax, daraxt), til (til, lug‘at, so‘z, josus), ko‘g (she‘r vazni, kuy, maqom, kulgili voqyea, boshvog‘i olinib, qo‘yib yuborilgan hayvon, echki va boshqa hayvonlarning juftlashadigan vaqti, oyna yuzidagi dog‘, zang, xotinlar yuzidagi dog‘), ko‘k (osmon, ko‘k rangi, yashil daraxtlar) va boshqa so‘zlar shunday ko‘p ma‘nolilik xususiyatlariga ega. “Devonu lug‘otit turk”da bunday so‘zlarning ko‘plab namunalari keltirilgan [4]. Darhaqiqat, she‘riy misralardagi qofiyalarning bir xilligini keltirib chiqaradigan jinsdosh (omonim)lar badiiy-estetik funksiyasi shoir mahoratidan, uning o‘ziga xos tafakkur sohibi ekanligine anglatadi. Qayd etish zarurki, omonimiyaning uch shakli uchraydi. Bu haqda tilshunos olim Sh.Rahmatullayev ommoleksema, omograf, omofonlar [5]. Ifoda jihati teng leksemalardir. Masalan, nutqimizda – tuy (kukun holatga keltir), tuy – (his et). Sh.Rahmatullayev bularni omoleksema tarzida talqin qiladi. She‘rda ham omoleksema ham vazn, ham qofiya, ham lirik qahramon ruhiyatini, ham syujet va kompozision yaxlitlikni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, “omonimiya leksik ma‘no taraqqiyoti natijasida voqye bo‘ladi. Bu tur omonimiyani to‘g‘ri belgilash ancha qiyin, chunki ko‘p ma‘nolilik bilan omonimiyani farqlay bilish talab qilinadi. Ma‘no taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan leksik ma‘nolar boshqa-boshqa turkumga mansub bo‘lsa, o‘z-o‘zidan omoleksema haqida gapirish lozim: o‘rta –I (ot) – II (sifat) misolida bo‘lgani kabi. Agar bunday leksik ma‘nolar bir turkumga mansub bo‘lsa, ularning ideografik semalar tarkibiga suyanib hukm chiqarish kerak. Masalan, kun – I leksemasining leksik ma‘nosiga ideografik semalar asosida beriladigan ta‘rif bilan (yerga issiqlik va nur taratib turuvchi planeta) shu leksemadan o‘rib chiqqan kun II leksemasiga ideografik semalar asosida beriladigan ta‘rifni (quyosh chiqqandan botgungacha bo‘lgan vaqt) qiyoslasak, bu yerda ko‘p ma‘nolilik haqida emas, omoleksema haqida gapirish lozimligi ayon bo‘ladi”. [6] Demak, omoleksema tabitada – poetik nuqtning o‘rni juda muhim. Unda shoirning davrni baholashdagi munosabati, davrning dolzarb mavzusi, yosh xususiyatlari hamda ijtimoiy hayot tarzi ham yuzaga chiqadi. Ayniqsa, davrning og‘riqlarini badiiy-estetik jihatdan mukammal tarzda idroklash U.Azimning bugungi kundagi ijodiy konseptual tutumlarini belgilab beradi. Shuningdek, muhim tomoni muallif-obraz-kechinma birligida omonimiya yanada tiniqroq qabarib, she‘rga, ritmga, qofiyaga uzviy bir jazava tortiq qiladi.

Zavonaviy she‘riyatda lingvopoetika muammolari bilan jiddiy shug‘ullanib kelayotgan M.Abdupattoyev shunday qayd etadi: “Poetik nutq muallifning ichki dunyosi yoki uning lahzalik tuyg‘ularining badiiy ifodasi bo‘lganligi uchun ham, ifodada til vositalarining eng mahsuldor, ma‘no va mazmun tovlanishlarini tinglovchiga yetkaza oluvchi turlari sanaladi. Obyektiv borliq va real voqyelik poetik nutq muallifning tuyg‘ulari orqali tasvirlanadi. Fikr shiddati va muallif tuyg‘ulari (u ijobiy yoki salbiy bo‘lishidan qat‘iy nazar) poetik ifodada o‘z aksini topadi. Emosionallikka yo‘g‘rilgan poetik ifodada sintaktik qurilmalarning shu holatga mos tarzda shakllanishini taqozo etadi. Fikr va tuyg‘ularning sodda, qo‘shma yoki murakkab qurilmalar vositasida ifoda etilishi, ya‘ni fikrga mos qurilma shakllantirilishi poetik nutqning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ana shundagina poetik nutqda shakl va mazmun uyg‘unligi yuzaga chiqadi, ko‘zlangan maqsadga to‘liq erishiladi”. [7] She‘r shoirning oniy lahzada “yarq” etib yuzaga chiqadigan kayfiyati mahsuli. Shuning uchun ham she‘rda sinonim, omonim, antonim, va boshqa-da badiiy-tasviriy vositalarning uyg‘unlashuvi ijodkorning olam va odam haqidagi tafakkur fragmentlarning qay tariqa tartiblashuvini belgilaydi. Dunyoning xohlagan bir shoiri ijodiga teran baho berganda: ikki jihatni unutmazlik lozim. Birinchidan, ijtimoiylik, ikkinchidan falsafiylik. Ana shu ikki jihat mutanosib bo‘lgan holatda – poetik nutq yangilanish sari odimlaydi. Masalan:

*Ammo bizning ko‘zimizda
To‘kmoq uchun yoshimiz ko‘p.
Ko‘nglimizga otmoq uchun
Tilimizda toshimiz ko‘p.
Go‘yo hali o‘lmoq uchun
Boshimiz ko‘p, boshimiz ko‘p –
Bo‘lmasa... O, kelmasmidi
Baxtli-baxtli yashashimiz. [7]*

E‘tibor beraylik: - ko‘p leksemasi ham sinonimik, ham omonimik, polisemantik ma‘no tashuvchi bo‘lib idroklanmoqda. Yoshning ko‘pligi – baxtsizlikning belgisi. Toshning ko‘pligi – baxtga olib boruvchi belgi, ishoralarining asosi. O‘lmoq uchun – boshning ko‘pligi, baxtli yashashga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalaqit qilmoqda. Ayniqsa, shoir juda baxtli yashashni xohlaydi. Ko‘p – omonimi bir tomondan sinonimi, ikkinchi tomondan ruhiy-falsafiy idrok sarzanishlarini yuzaga chiqarmoqda. Shuning uchun ham har ikkala inson bebaxt, ya‘ni baxtsiz. Mana shunday paytda, o‘z-o‘zini ovutishdan nariga o‘tolmaydi shoir. Shuning uchun ham, shoirning dunyosida “baxtli yashash” orzuligicha qolaveradi.

Alisher Navoiyning tuyuqlarini olib ko‘rganimizda ham yuqoridagi mulohazalarimiz to‘laqonli o‘z ahamiyatini isbotlaydi:

*Yo qoshingdin necha bir o‘q ko‘z tutay,
Otki, o‘trusig‘a oning ko‘z tutay.
Necha ko‘rgach o‘zga mahvashlar qoshin,
Yangi oy ko‘rgan kishidek ko‘z tutay.[8]*

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu tuyuqda ikkita soʻz ishtirok etadi: *koʻz tutay*. Bunda birinchi misrada “kutaman” maʼnosida kelsa, ikkinchi misrada “oʻzimni tikaman”, uchinchi misrada “roʻpara qilaman”, toʻrtinchi misrada “shukronalik bilan koʻzimni qoʻlim bilan silayman” degan mazmun kelib chiqmoqda. Binobarin, oʻzbek adabiyotida Navoiy tuyuqlarning juda goʻzal namunalarini yaratgan. Demak, badiiy adabiyotda – tuyuq omonim (shakldosh) soʻzlarning rang-barang tarzda yuzaga kelishiga zamin hozirlaganini koʻrishimiz mumkin. Usmon Azimning sheʼrlarida – omonimlar ham oʻziga xos badiiy-estetik vazifani bajaradi. Deylik quyidagi misralarda ham buning yorqin namunasini koʻramiz:

*Taxtli koʻngil – faqir boʻlgin,
Baxtli koʻngil – haqir boʻlgin.
Bahordan kech – taqir boʻlgin,
Oʻzing soʻng bir – chechak oʻstir.*

*Tosh boʻlmasin – oqib turgin,
Goh-goh oʻzni yoqib turgin.
Koʻkka har dam boqib turgin,
Umiddan bir pechak oʻstir.* [7]

Mazkur sheʼrda faqir, haqir, taqir bular alohida maʼno kasb etuvchi soʻzlardir. *Faqir* – arabcha soʻz boʻlib, oʻzbek tilida qashshoq, kambagʻal degan maʼnolarni anglatadi. [12]. *Haqir* – nimjon, ozgʻin, juda ojiz maʼnosini anglatadi. *Taqir* – soʻzi qurimoq, qovujiragan yerga aytiladi. Bu oʻrinda – *turgin* omonimi, misralardagi har bir faqir, haqir, taqir soʻzlariga oʻziga xos maʼno tashuvchi sifatida ohangdorlikni, sheʼr jozibasini kuchaytiruvchi polisemantik xususiyatni taqdim qilmoqda. Ikkinchi banddagi oqib, yoqib, boqib soʻzlari ham xuddi shunday alohida maʼno tashuvchi soʻzlardir. Biroq mana shu uchta soʻzni birlashtiruvchi – omonimik qator turgin, har qanday vaziyatda oʻzingni qoʻlga olib, yashashda davom etgin qabilida anglashilmoqda. Shuningdek, “psixolingvistik nuqtai nazardan muallif matni shakllantirishda sintaktik noaniqlikka yoʻl qoʻyayotganligini sezmaydi ham, balki u matni shakllantirishda “tilni his etish” imkoniyati hisobiga omonimiyaga yoʻl qoʻyilayotganligiga eʼtibor qaratmaydi. Mazkur holat esa faqatgina til materialini ongli oʻrganishning omonimiya hodisasiga yoʻnaltirilgan jihati bilangina aniqlanishi mumkin boʻladi. Bunday hodisalar, albatta, matni yozish jarayonida emas, balki muayyan vaqt oʻtib, matn tahlili orqaligina aniqlanishi mumkin. Biroq sintaktik noaniqlikning bosh muammosi masalasi, matn tahriri va sintaktik noaniqlikni olib tashlash holatlari muallif tomonidan garchi til va metatil vositalari yordamida amalga oshirilganda ham, hamma vaqt oʻz yechimini topa olmaydi. Bu oʻrinda mazkur muammo soʻzlarning mazmuniy bogʻlanish qonuniyatini oʻrganishga doir turli usullar yordamida va maxsus lingvistik tahlil orqaligina belgilanishi mumkin. [10] Darhaqiqat, U. Azim ham yuqorida sheʼrning umumiy ruhiyatidan kelib chiqib, omonimlarni shu qadar puxta qoʻllaganki, poetik nutqning goʻzal shaklini yuzaga keltirishga imkon bergan. Chunki sheʼrdagi “oʻstir” soʻzi ham keyingi misralarda oʻziga xos maʼnoni, omonimik munosabatni keltirib chiqargan:

*Rasmingga boq, koʻpdir yolgʻon,
Yarming – rahmon, yarming – shayton.
El koridan tolmaydigʻon –
Bilak oʻstir, bilak oʻstir.
Boʻlsin desang el qarindosh,
Avval qilgin oʻzingni fosh.
Beray desang yolgʻonga dosh –
Tilak oʻstir, tilak oʻstir.
Odamgamas, haqqa ishon,
Sen kim boʻlsang – shudir zamon.
Koʻksingni buz, etgin vayron,
Qaytadan bir yurak oʻstir.* [7]

Sheʼrdagi – oʻstir omonimi 5 ta bandda ham har xil maʼnoda kelmoqda. Birinchi va ikkinchi banddagi: chechak – pechak, keyingi misralarda – bilak, tilak, yurak soʻzlarini oʻziga xos qofiyasini hamda sheʼrdagi umumiy ruhiyatni – oʻstir omonimi buygʻunlashtirib, jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Sheʼrda shoir shu qadar omonimik qatorni kashf qilganki, oʻquvchi oʻzining kayfiyatiga mos bir jihatlarni topishi tayin. Inson boʻlib kelib, bu yolgʻon dunyoda nafsni, tiyish, yaxshilik ulashish, oʻzgarlar gʻamini yeyish, yolgʻondan hazar qilish kabi tarbiyaviy, komillika yetaklovchi fazilatlarini topishi tabiiydir. Shuni qayd etish joizki, shakldoshlik turkiy tillarga xos xususiyatdir. Unda feʼl+otomonilari juda koʻplab uchraydi va lingvistik talqinni yuzaga chiqishiga imkon beradi. U. Azim sheʼriyatda omonimlar denotativ maʼno idroklash bilan bir qatorda, konnotativ talqin fragmentlarini ham qayta baholashga yoʻl ochadi.

Quyidagi sheʼrdagi *rahmim keladi* omonimi sheʼrda turli toifadagi kishilar, ruhiy kolliziyalar haqida soʻz boradi:

*Sizga rahmim keladi, rahmim,
Podsholarga rahmim keladi.
Daholarga rahmim keladi,*

*Fuqaroga keladi rahmim.
Bechoraga rahmim keladi.
Xaslarga ham keladi rahmim,
Pastlarga ham rahmim keladi.
O'qlarga ham keladi rahmim,
Yo'qlarga ham rahmim keladi.[7]*

She'rdagi "rahmim keladi" leksemasi – rahm so'zidan kelib chiqqan bo'lib, rahm aylamoq, shafqat qilmoq, mehribonlik ko'rsatmoq tarzida frazeologik omonimga misol bo'la oladi. Poetik nutqdagi: *podshoh, daho, fuqaro, bechora, xas, past, o'q, yo'q* leksemalari shoirning topildig'idir. Har biri alohida ma'no o'ttenkasiga ega leksemalarni rahm qilmoq frazeologik iboralarni fyel kesim bilan izohlaydi. Shoirning mazkur she'rida **omoleksemalar** mavjud emas. Chunki bu yerda yozilishi va talaffuzi bir-biriga yaqin so'zlar uchramaydi. Biroq semasi *fuqaro – bechorada* o'tni ifodalashga qaratilgan. Shunday ekan, "rahmim keladi" omonimida ham – **xas bilan past** (bir xil ma'no anglatish leksemasi ekanligi ayonlashadi.)

Quyidagi she'rda esa omonimik qator she'rning vaznida jiddiy ohangdorlikni yuzaga chiqarganligi ayonlashadi:

*Ruhimga aytdimki, endi uyg'on – samandar bo'l,
Qonimga qaytdimki, endi qo'zg'ol – qalandar bo'l.
Ko'ksimga aytdim, kurash o'tida munavvar bo'l,
O'zimdanda himmatni topdim – oqibat gap shunda.
Ko'z so'zni yozdim, ammo qog'ozga rost tushmadi,
Aqlimdanda tosh tushmadi, ko'zimdanda yosh tushmadi,
"Vatan"dan boshqa bir so'z qalbima mos tushmadi,
Shu so'zdan jur'atni topdim – oqibat gap shunda.[7]*

Ushbu she'rda shoir – bo'l omonimini o'zaro qofiyadosh shaklida tartiblashtiradi. Chunki - **bo'l**, bo'lmoq leksemasi fe'lga qartilyapti. Samandardek bo'lib, uyg'on, yon va qayta tirilginki, qalandar bo'lib, o'rningdan qo'zg'olib, umringni yangidan tatib ber demoqda. Uning eng muhim jihati o'zimdanda boshqa himmat qiladigan narsa, do'st yor topmadim, oqibatda hamm gap shunda deganida qabarib ko'rinadi. Bu yerda omonimik qator she'rning musiqiylikini ham, vazn talablarini ham, shoirning ijtimoiy-psixologik holatini ham idroklashga imkon bermoqda. Keyingi banddagi – **tushmadi** omonimi **rost, yosh, mos** leksemalari bilan yanada ohangni kuchayishiga olib keladi. **Tushish** – biror buyumning yerga tushishi, yig'ilishi, biror obro'ning to'kilishi kabi sinonimlarni yuzaga keltiradi. Shoir **rost, yosh, mos** leksemalari orqali – mutanosib bo'lmagan ruhiy kolliziyani yuzaga chiqiradi.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida ko'p qo'llaniladigan lafziy san'atlardan biri tajnisdir. Bu she'ri matnda shakldosh so'zlarning ya'ni omonimlarning yuzaga kelishida katta rol o'ynaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, "tajnis, ya'ni she'r paytida ma'no jihatdan har xil, ammo shaklan bir-biriga yaqin ikki so'zni keltirib, ular vositasida lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash vositasidir".[11] Binobarin, U.Azimning kplab she'rlarida mazkur she'riy san'at (jinsdosh) tajnisni uchratamiz. Ayniqsa, ahiz-mutoyiba she'rlarida buning yaqqol namunasi mavjud. Biroq shoir jiddiy va ijtimoiy hayot suratlarini aks ettirgan ko'pgina she'rlarida ham omonimlarni kuchaytirish maqsadida mazkur she'riy san'atdan unumli foydalangani ayonlashadi:

*Xayrlashmoq kerak sen bilan,
Ko'ngillarni uzmoqlik kerak.
Kechmoq kerak g'arib umiddan,
Dunyomizni buzmoqlik kerak.*

*Boshqalarga bermoqlik kerak,
Kuzgi oqshom charchoqlarini.
Endi ma'yus termoqlik kerak,
Sevgimizning aldoqlarini.[7]*

Mazkur she'rda tajnis ikki tomondan she'rga ohangdorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. – **Kerak** omonimi esa uzish bilan buzishning orasidagi chegarani aniqlashga qaratiladi. Ko'ngilni uzgan oshiqlar, kechib ketganidan keyin dunyosini ham buzishga kuch topmoqda. Bizning baxtsizligimiz boshqalarga baxt olib kelishi uchun ularga tuhfa qilishdan ham toymaydi. Poetik nutqning jozibasini ana shu yerda namoyon bo'lmoqda. U.Azim she'riyatida sinonimlarga boy, omonimlik xususiyati rang-barang, o'ziga xos javohirdir. Uning badiiy-tasviriy vositalari serqatlam. Sinonimlarning hali bir shoir ijodida uchramasligi, omonimik qatorning o'ziga xos qirralari har qanday iqtidorga ma'naviy-ma'rifiy madad bo'lishi tayin. Chunonchi, o'zligidan – o'zini topgan shoirlargina ana shunday baland pardalarda so'z ayta oladi:

*Ammo siz sarg'aymang – gulli bog' bo'ling,
Yam-yashil ko'karing, mudom sog' bo'ling,
Bahorning bag'rida beadog' bo'ling –
Axir, qarg'aganim sizmas, azizim,*

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

Ikki kuz dunyoga sig'mas, azizim.[7]

She'rdagi - **bo'ling** leksemasi birinchi misrada bog', dov-daraxtlari mo'l-ko'l, yashillik va juda xushsurat maskan nazarda tutlsa, ikkinchi misradagi – **bo'ling** omonimi ham shaxsning o'z ruhiyatiga qaratiladi. Negaki, shaxsning ruhiy olami, falsafiy-estetik madaniyati she'ring har bir bandida yagona tizimga uyushadi. U omonimlik xususiyati bilan ham mazmunni, ham shaklni, ham g'oyaviy tayanch nuqtalarni birlashtira olishiga kata zamin hozirlaydi. Negaki, "Leksik birliklar lisonda turli semantik munosabat asosida turlicha paradigma hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabat ana shunday lisoniy munosabat turlariga kiradi".[12]

Xulosa

Umuman, poetik nutq tabiatida zohir bo'ladigan fonografik stilistika, tovushlarning cho'ziq, baland talaffuz qilinishi, dilektizmlarning nutqiy hosil bo'lish jarayoni, alliterasiya, assonas, anafora, epifora, qofiya, fonetik o'zgarishlar va tovush simvolikasi, tovushga taqlid qilish manerasining rivoj topishiga muayyan ta'sir qilishi shubhasiz! Bular o'z-o'zidan omonimlik variantlarda yanada yaqqol yuzaga chiqadi. Zero, shaklning – ma'noga, ma'ning zidlanishga uchrashi poetik nutqning asosiy funksiyalaridan biri ekanligi ayonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent. 2003. –B.91.
2. Dadaboyev H. Eski o'zbek tilida qiyoslash, o'xshatishning ifodalanishi // Lingvist IV.–T.:Akademnashr, 2013.–B. 4-11.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Saodatga yo'llovchi bilim).- Transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi filol. fan. nom. K. Karimov. 2- nashri-T.: «Fan», 1972, — 964 b.
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/abdurashid-abdurahmonov-oltinchi-qism.html>
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: "Universitet". 2006. –B.40.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvopoetika-poetik-nut-da-ekspressiv-va-ekstralingvistik-vositalar-1/viewer>
7. U.Azim Saylanma. Sharq mat'baa nashr uyi, -B.291
8. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-ruboiylar-va-tuyuqlar-badoyi-ul-bidoya-devonidan.html>
9. <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=6434>
10. <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2021/01/ozbek-tilida-sintaktik-omonimlar-kognitiv-aspekt.pdf>
11. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. -T.: Sharq. 1998. – B. 140.
12. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2009. – B.112

References:

1. Kholmanova Z. Introduction to Linguistics. - Tashkent. 2003. -B.91.
2. Dadaboyev H. Expression of comparison and simile in the old Uzbek language // Linguist IV.- T.: Academic publication,2013.-B. 4-11.
3. Yusuf Khos Hajib. Kutadgu bilig (Knowledge that leads to happiness).- Transcription and description into the modern Uzbek language. Preparatory work for publication. science. name K. Karimov. 2nd edition-T.: "Science", 1972, - 964 p.
4. <https://kh-davron.uz/kutubkhona/jahon/turk/abdurashid-abdurahmonov-oltinchi-qism.html>
5. Rahmatullayev Sh. Modern Uzbek literary language. - T.: "University". 2006. -B.40.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvopoetika-poetik-nut-da-ekspressiv-va-ekstralingvistik-vositalar-1/viewer>
7. U. Azim Seilanma. Sharq printing house, -B.291
8. <https://kh-davron.uz/kutubkhona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-ruboiylar-va-tuyuqlar-badoyi-ul-bidoya-devonidan.html>
9. <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=6434>
10. <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2021/01/ozbek-tilida-syntaktik-omonimlar-kognitiv-aspekt.pdf>
11. Hojiahmedov A. Poetic arts and classical rhyme. - T.: East. 1998. – B. 140.
12. Sayfullayeva R. and others. Current Uzbek literary language. Study guide. - Tashkent: Science and Technology, 2009. - B.112

Muallif:

Egamov Umidjon Shavkatovich, GulDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida o'qituvchisi

Ijtimoiy fanlar

UDC 372.81

OUTLINES OF SCIENTIFIC ACTIVITIES OF MIRZO ULUGBEK ACADEMY

MIRZO ULUG'BEK AKADEMIYASINING ILMIY FAOLIYATIGA SHIZGILAR

ОЧЕРКИ О НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКАДЕМИИ МИРЗО УЛУГБЕКА

Nazarov Obid Raximovich, Qosimova E'tibor G'ayratovna

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: o.nazarov07@gmail.com

Abstract. The great scientists who grew up in Central Asia, including Uzbekistan, made their worthy contribution to the world civilization and the development of science. In world history and Islamic culture, along with thinkers such as our great ancestors Farabi, Beruni, Muhammad Khorezmi, Ibn Sina, Imam Bukhari, Ahmed Yassavi, Navoi, the well-known statesman, one of the founders of the world science of astronomy, the famous scientist Mirza Ulug'bek also occupies a worthy place. In 2023, the 629th anniversary of the birth of the great scientist and statesman Mirza Ulug'bek (1394-1449) was widely celebrated. Although our thinker's ancestor lived a short life, he achieved huge, global achievements during his life, so that even today his name is mentioned with deep respect by people of science. Mirzo Ulugbek's life, activities as a statesman, scientific activity, his famous work on astronomy - "Ulugbek Ziji" (Trigonometric and Astronomical Tables of Ulugbek), the observatory he built near the city of Samarkand, Samarkand Academy and the scientists who worked in the academy, Ulugbek's extremely rich library, his students, the contribution of Ulug'bek and his students to the development of astronomy and mathematics - all this testifies to the greatness of Ulug'bek.

Key words: Renaissance, Muslim renaissance, science, development, encyclopedic scientists, the idea of the third renaissance, astronomy, observatory, stars, Ulugbek academy

Аннотация. Великие учёные, выросшие в Центральной Азии, в том числе в Узбекистане, внесли свой достойный вклад в мировую цивилизацию и развитие науки. В мировой истории и исламской культуре наряду с такими мыслителями, как наши великие предки Фараби, Беруни, Мухаммад Хорезми, Ибн Сина, Имам Бухари, Ахмед Яссави, Навои, известный государственный деятель, один из основоположников мировой науки астрономии, Достойное место занимает и известный учёный Мирза Улугбек. В 2023 году широко отмечалось 629-летие со дня рождения великого учёного и государственного деятеля Мирзо Улугбека (1394-1449). Хотя предок нашего мыслителя прожил недолгую жизнь, он за свою жизнь добился огромных, глобальных достижений, так что и сегодня его имя с глубоким уважением упоминается людьми науки. Жизнь Мирзо Улугбека, деятельность государственного деятеля, научная деятельность, его знаменитый труд по астрономии - «Улугбек Зиджи» («Тригонометрические и астрономические таблицы Улугбека»), построенная им обсерватория недалеко от города Самарканда, Самаркандская академия и учёные, работавшие в академии, богатейшая библиотека Улугбека, его ученики, вклад Улугбека и его учеников в развитие астрономии и математики - все это свидетельствует о величии Улугбека.

Ключевые слова: Ренессанс, мусулманский ренессанс, наука, развитие, учёные-энциклопедисты, идея третьего Возрождения, астрономия, обсерватория, звёзды, академия Улугбека.

Kirish. O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda etishib chiqqan buyuk allomalar dunyo tsivilizatsiyasiga, ilm-fan taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan. Dunyo tarixida va islom madaniyatida buyuk ajdodlarimiz Forobiy, Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Navoiy kabi mutafakkirlar bilan bir qatorda taniqli davlat arbobi, jahon astronomiya fanining asoschilaidan biri, mashhur olim Mirzo Ulug'bek ham munosib o'rin egallaydi.

2023 yilda buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek (1394-1449) tavalludining 629 yilligi keng nishonlandi. Mutafakkir ajdodimiz qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, hayoti davomida ulkan, jahonshumul yutuqlarga erishdiki, uning nomi bugungi kunda ham dunyo ilm-fan ahli tomonidan chuqur hurmat-ehtiromlar bilan tilga olinmoqda. Mirzo Ulug'bekning hayoti, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, ilmiy faoliyati, astronomiyaga doir mashhur asari – «Ulug'bek Ziji» (Ulug'bekning trigonometrik va astronomik jadvallari), uning Samarqand shahri yaqinida qurdirgan rasadxonasi, Samarqand akademiyasi va shu akademiyada faoliyat ko'rsatgan olimlar, Ulug'bekning nihoyatda boy kutubxonasi, shogirdlari, shogirdlarining astronomiya va matematika fanlari rivojiga qo'shgan hissasi – bularning barchasi Ulug'bekning buyukligidan dalolat beradi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Ulug'bekning davlat arbobi sifatidagi faoliyati birmuncha fojeaviydir. U yashagan vaqtda zamona zayli bilan hokimiyat uchun sulolaviy kurash avj olgan mahalda o'zini ilmu fanga bag'ishlagani tufayli bid'at va xurofot qurboni bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Ulug'bek davlat boshqaruvi jilovini o'z qo'lga 17

yoshda olganligi, u davlatni idora qilish bobida ham katta iroda va qobiliyat sohibi, tug‘ma hukmdor bo‘lganligidan dalolat beradi. Chunki qobiliyatsiz hukmdor hech qachon Ulug‘bek kabi davlatni 40 yil davomida boshqara olmaydi.

Ulug‘bek hayotida eng katta o‘rin tutgan, Evropada «Samarqand akademiyasi» deb shuhrat topgan, Ulug‘bek va u homiylik qilgan olimlarning ilmiy kashfiyotlari, laboratoriyasi va oliy mahkamasi hisoblangan, Samarqandda bunyod etilgan mashhur binolardan biri Ulug‘bek rasadxonasidir. U 1424-1429 yillari hozirgi Cho‘ponota tepaligida, Obirahmat arig‘i bo‘yiga yaqin joyda quriladi. Rasadxona uch qavatli, g‘oyat hashamdor va pishiq g‘ishtdan ishlangan ulkan bino bo‘lgan. Mutaxassislarning fikricha, bino balandligi 30,4 metr, aylanasini diametri esa 46,4 metrga teng. Binoning asosiy qismini radiusi 40,2 metrli suds (sekstant) deb atalgan ulkan kuzatish asbobi tashkil qilgan. Sudsning saqlanib qolgan qismi er ostida joylashgan bo‘lib, qolgan qismi er sathidan 30 mertcha baland bo‘lgan. Rasadxona binosi kattaligi, qurilish uslubining originalligi va uskunalanishi jihatidan Sharq va Evropa mamlakatlaridagi barcha boshqa astronomik inshootlardan ustun turgan. Suds astronomiyaning asosiy doimiyliklari – muaddil (ekvator) va falak al-burj (ekliptika) tekisliklari orasidagi burchakni o‘lchash, yillik protsessiya doimiysini va boshqa fundamental astronomiy doimiyliklarni aniqlashga imkon bergan. Rasadxonada sayyoralar, oy harakati tekshirilgan. Kichik o‘lchamli asboblari: amilyar sfera, 2,4 va 7 xalqadan iborat o‘lchash asboblari, quyosh va yulduz soatlari, usturlub (astrolyabiya) va boshqalar bo‘lgan.[1]

Rasadxona bitgach, Ulug‘bek va uning homiyligidagi taniqli va mashhur olimlar fan sohasida tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Shu jumladan shogirdlari ilmiy kuzatishlarda, jadval tuzishda hisob-kitob ishlari bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Ulug‘bek boshchiligidagi ushbu «akademiyasi» olimlari o‘sha davr mezoni bilan olganda, astronomik kuzatishlarda ajoyib muvaffaqiyatlarga erishganlar. Jumladan, ekliptikaning og‘maligini, beshta sayyoraning – Zuhra (Venera), Zuhal (Saturn), Mirrih (Mars), Mushtariy (Yupiter) va Utorud (Merkuriy)ning yillik harakatini, yulduz yilining uzoqligini, 1018 yulduzni o‘z ichiga olgan jadval va nihoyat, aholi yashaydigan punktlardan 683 tasining geografik koordinatalarini tuzganlar. 1437 yili ko‘p yillik kuzatish va ilmiy mulohazalardan so‘ng Ulug‘bek va uning shogirdlari «Samarqand akademiyasi»da ishlangan buyuk asar – «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» («Ulug‘bek Ko‘ragoniyning yangi astronomik jadval»)ni yozib tugatdilar. Bu asar keyinchalik Sharq klassik astronomiyasining nazariy va amaliy masalalarini o‘zida mujassamlashtirgan, uni yangi dalillar bilan boyitgan ulkan kashfiyot sifatida butun dunyoga tanildi.[2]

Olingan natijalar va ularning tahlili

Mirzo Ulug‘bek zamonida Muvarounnahrda dunyoviy va astronomiya fanlaridan tashqari tarix, adabiyot va san‘at, ayniqsa, tasviriy san‘at taraqqiy etgandi. Ulug‘bekning ukasi Boysunqur bilan o‘zaro yozishmalarida ham ilmiy adabiyot mavzularida o‘zora fikr almashishgan va mulohaza yuritishgan. Jumladan, Ulug‘bek she‘riyatda ozarbayjon shoiri buyuk Nizomiy Ganjaviy uslubi va maktabini ustun deb isbotlamoqchi bo‘lsa, Mirzo Boysunqur genial shoir va mutafakkir Amir Xusrav Dehlaviy ijodiyotining haqiqiy mahsuli sifatida bahs qilardi. Ulug‘bek o‘z ona tili (o‘sha davrda chig‘atoy-turkiy tili)dan tashqari arab va fors tillarini mukammal bilardi.

Muhammad Haydar o‘zining mashhur «Tarixi Rashidiy» asarida Mirzo Ulug‘bek «tarixnavis donishmand edi va «To‘rt ulus» tarixini ham yozib qoldirgan edi», deb yozadi. Bu asar Ulug‘bekning «Tarixi arba’ ulus» kitobi bo‘lib, unda bir vaqtlar Chingizxon bosib olgan mamlakatlarning XIII asr – XIV asrning birinchi yarmidagi siyosiy hayoti aks ettirilgan edi [3].

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, buyuk olim va jamoat arbobi Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqandda faqat O‘rta Osiyodagina emas, balki Sharqda ma’lum mashhur bo‘lgan san‘at ahliga hurmati baland bo‘lgan, chunki Ulug‘bekning o‘zi ana shu iste’dod egalariining birinchi muxlisi va homiysi ham edi. Tarixchi G‘iyosiddin Ali kundaliklarida dalolat berishicha, Samarqandga kelgan chet ellik elchilar ham saroy qabul marosimlarida qatnashib, bu erda musiqa tinglar va tasviriy san‘at asarlarini tomosha qilardilar.

Buyuk Alisher Navoiyning ta’rifiga ko‘ra, Ulug‘bek ajoyib shoir ham bo‘lgan. «Tuxfatu surur» kitobi esa uning buyuk musiqa bilimdoni ekanligidan dalolatdir. «Muhit attafviq» kibtobida Ulug‘bekning «Bilujiy» «Shodiyona» (bu asar bizgacha etib kelgan), «Axloqiy», «tabriziy», «Usuli ravon», «Usuli bahriy» singari katta musiqa asarlarini ijod etganligi ko‘rsatilgan. Ulug‘bek homiyligida Samarqandda Darvesh Ahmad Samarqandiy, Sulton Ahmad Noiy, Hosimi Abuvafo, Muhammad Ali G‘aribiy, Yusuf Burxon Naqqorachi (Navoiyning amakisi), Mavlono Sohib Balxiy, Abul baraka va boshqa san‘atkorlar ijod bilan band bo‘lganlar. Shuningdek, Ulug‘bek madrasasining ko‘zga ko‘ringan mudarrisilari - qomusiy olimlar Mavlono Muhammad Havofiy, Said Imomiddin, mashhur tib olimi Hoja Burhoniddin Nafis, yirik adabiyotshunos va tilshunos olim Hoja Fazlulloh hamda Abulqosim Samarqandiy zamonasining peshqadam olimlari sifatida dong taratdilar.

Rasadxona xodimlar, jumladan Ulug‘bekning o‘zi ham, madrasada dars berishar edi. Madrasada diniy – Qur’oni Karim, Hadis va tafsirdan tashqari, tabiiy fanlar – riyoziyot, xandasa, ilmiy hay’at, ya’ni astronomiya, tibbiyot, ya’ni meditsina, surat al-ard, ya’ni geografiya kabilar o‘qitilar edi. Ulug‘bek observatoriyasi asta-sekin vayron bo‘lib, XVII asr oxirida g‘ishtlari aholi tomonidan tashib ketildi.

V. L. Vyatkinning tadqiqotlari natijasida 1908 va 1914 yillarda Ulug‘bek observatoriyasining qoldiqlari topildi va qazish ishlari olib borildi. Tadqiqotlar M. E. Masson tomonidan 1941 yilda, A.A.Pulyavin tomonidan 1943 yilda va V.A.Shishkin tomonidan 1948 yilda davom ettirildi.

Evropalik astronomlarga yulduzlar katalogi 1648 yili Oksfordda chop qilinganidan keyin ma'lum bo'ldi. Asarni chop etishga Oksford universiteti professori Jon Grivs (1602-1652) tayarladi va unga sharh ham ezdi. Bundan 17 yil o'tgach, Oksforddagi Bodleyan kutubxonasidagi olim – saqlovchisi Tomas Xayd (1636-1703) asarni fors va lotin tillarida tayyorlab, «*Tabulae Long, as Lat. Stellarum Fixarum, ex observatione Ulugh Beighi*» (Oxonii, 1665) nomi ostida chop ettirdi. Yan Geveliy tomonidan nashr qilingan “Yulduzli osmon katalogi”da turli davrlarda dunening turli mamlakatlarida yashab ijod qilgan buyuk astronomlarning ramziy yig'ilishini tasvirlovchi gravюра joylashtirilgan edi. Ular astronomiya ilohasi Uraniyadan ikki tomondan joylashib o'tirishibdi. Ular orasida Ulug'bek ham tasvirlangan edi.

Ulug'bek yulduzli katalogining batafsil tahlili Buyuk Britaniya kutubxonalarida saqlangan 8 ta qo'lyozmadagi ma'lumotlar asosida E.B.Nabl tomonidan tayyorlandi va 1917 yilda AQShda chop ettirildi («*Ulugh Beg's Catalogue of Stars. Revised from all Persian Manuscripts Existing in Great Britain*»).

Va nixoyat, Ulug'bek akademiyasida uning xomiyliigi va raxnamoligida xizmat qilgan ko'plab mashhur olimlar xaqida fikr yuritadigan bo'lsak, jumladan, *Alouddin Abulqosim Ali ibn Muhammad al-Qushchi Samarqandiy* (tav. 1402 (1403), Samarqand, vaf. 1474, Istanbul) - astronomiya sohasining mashhur allomasi, matematik Mirzo Ulug'bek, al Koshiy va Qozizoda ar Rumiylarning shogirdi. Avvalida Mirzo Ulug'bek madrasayi oliyasida ta'lim olib, keyinchalik uning mudarrisi va rasadxonaning etakchi ilmiy xodimi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Ali Qushchi madrasada astronomiyaga oid asarlar ham yozdi, Mirzo Ulug'bek «Ziji jadidi Kuragoniy»sining maydonga kelishiga, uni nihoyasiga etkazishga o'zining munosib ulushini qo'shdi. Rumiyning vafotidan so'ng, Samarqanddagi observatoriyaga boshchilik qildi. Ulug'bek vafotidan keyin Hirotda ketdi. Navoiy tavsiyasi bilan Sulton Husayn Boyqarodan yo'l yorlig'ini olib, Samarqand observatoriyasidagi qo'lyozmalarni olib, Istanbulga ketdi. Bu erda o'z faoliyatini sulton Mehmed II saroyida davom ettirib, turk olimlarini samarqandlik kashfiyatlar bilan tanishtirdi. Ayya Sofiya masjidi qoshida madrasa tashkil qildi, turk olimlarini etishtirdi. Ali Qushchi “Arifmetika fani haqida traktat”, “Astronomiya fani haqida traktat” asarlarini yozgan. Bu asarlar XVI-XVII asrlarda O'rta va Yaqin sharq mamlakatlarida matematikani o'qitishda katta rol o'ynagan. Ulug'bekning “Zij”i va al Koshiyning “Osmon narvoni” asarlariga sharhlarni, tilshunoslikka oid qator asarlarni, “Xitoy haqidagi kitob”ni yozdi. Ali Qushchi 1474 yilda Istanbulda vafot etdi.

Nuriddin Abdurahmon Jomiy (1414-1492)-mashhur shoir, mutafakkir va Naqshbandiyaning murshidi. 1436 yilda Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi madrasasiga o'qishga kelib, Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug'bek, xoja Fazlulloh Abu Laysiylardan saboq oldi. So'ng Abdurahmon Jomiy 1452 yilgacha madrasayi oliyaning mudarrisi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Abdurahmon Jomiy madrasada arab sarf va nahvi hamda she'riyat ilmidan dars o'tgan. 1492 yilda «Favoid-i Ziyoiya» yoki «Sharhi mullo» nomli asarini yozgan, bu asar keyingi asrlarda madrasada qo'llanadigan darslik kitoblaridan biri bo'lib qolgan edi.

Abdurahmon Jomiy yana «Risola-i kabir dar muammo» (Muammo haqida katta risola) asarini yozgan (1452). Mirzo Ulug'bek hayot bo'lgan vaqtda madrasa-yi oliyada ta'lim olib, keyinchalik mashhur olim, shoir va adib bo'lib etishganlar juda ko'p. Shulardan biri Mavlono Qozizoda-yi Rumiyning o'g'li Hasan Chalabiy bo'lsa, ikkinchisi mavlono Muiniddin al-Koshiyning o'g'li Mansur al-Koshiydir. Mavlono Mansur al-Koshiy mashhur faqeh va astronomiya sohasining donishmandi Nizomiddin al-Birjandiyning ustozidir [4].

Giyosiddin Jamshid ibn Ma'sud al Koshiy (al-Koshoniy) (1380 y., Koshon (Eron) – 1429 (eki 1430) y., Samarqand - mashhur alloma, muhandislar sultoni. Avval Hirotda yashab faoliyat ko'rsatdi. 1417 yilda Mirzo Ulug'bek taklifi bilan Samarqandga kelib, umrining oxirigacha shu erda faoliyat ko'rsatdi. Mirzo Ulug'bek madrasasida mudarrislik ham qildi. Allomaning asarlari astronomiya, matematika masalalariga bag'ishlagan. Ular darslik sifatida madrasada, qo'llanma sifatida rasadxona ilmiy xodimlari tomonidan foydalanilgan. Samarqand observatoriyasiga rahbarlik qildi, unli kasrlar nazariyasining dastlabki tizimli bayonini chop ettirdi[5] Al-Koshiy tomonidan tuzilgan “Hoqon Ziji” (1414) Nosiriddin at-Tusiyning “Elxon Ziji”ning qayta ishlanmasi hisoblanadi. “Osmonlar narvoni” (1407) asarida al-Koshiy Oy va Quyoshgacha masofalarni, ularning hajmini, sayeralargacha va harakatsiz yulduzlar doirasigacha masofalarni muhokama qiladi. “Kuzatish asboblarini tushuntirish” (1416) asarida kuzatish astronomiyasida qo'llaniladigan asboblar tavsiflanadi. “Bog'lar lazzati” asarida o'zi yaratgan uskunani ta'riflaydi, bu uskuna erdamida yoritg'ichlar kengligi va uzunligini, ularning Ergacha masofasini va boshqalarni aniqlash mumkinligini aytadi. Shuningdek, “Astronomiya haqida traktat”, “Merkuriy haqidagi takliflarni echish to'g'risidagi traktat” asarlarini ezdi. “Arifmetika kaliti” nomli asarida u hisoblashning oltmishtali tizimini ta'riflaydi. Qadimgi yunonlarning astronomik traktatlarda oltmishtali tizimda faqat sonning kasrli qismi qayd qilingan, butun qismi esa an'anaviy harfli ionik tizimda yozilgan. Al-Koshiy butun qismini ham oltmishtalik tizimda ezishni taklif qildi. Bu bilan u qadimgi bobilliklar qo'llagan yozuv shakliga qaytgan, biroq buni o'zi ham bilmagan. O'sha traktatida al-Koshiy unli kasrlarni kiritadi, ular bilan amallar bajarishga oid asosiy qoidalarni chiqaradi, oltmishtali kasrlarni unli kasrlarga va aksincha o'tkazish usullarini keltiradi. “Doira haqidagi traktat” nomli asarida Arximed retsepti bo'yicha doira uzunligini hisoblab chiqadi. Bu unga 2π uchun 6,2831853071795865 yaqinlashuvini beradi. Bu qiymat barcha 16ta unli belgilarda to'g'ribo'lib, 1596 yilgacha saqlanib qolgan rekord edi. 1596 yilda esa Lyudolf van Tseylen π sonini 35ta unli belgilar bilan hisobladi.

Qozizoda ar-Rumiy va boshqa mualliflar al-Koshiyning “Xorda va sinus haqidagi kitob” nomli asarini ham tilga olishgan. Unda al-Koshiy burchak trisektsiyasi tenglamasini echishning iteratsion usulini taklif qilgan va natijasi o‘laroq $\sin 1^\circ \approx 0,017452406437283571$ ekanligini hisoblab chiqqanki, bu erda barcha 19 raqam to‘g‘riligi qayd qilinadi.

Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud Kozizoda ar-Rumiy (Bursa, Turkiya, 1364 – Samarqanl, 1437) – Temuriylar davri o‘rtaosiyolik matematik va astronom. Samarqandda, Amir Temur saroyidagi mavlono Ahmad degan astronomning shogirdi bo‘lgan. Ulug‘bekning ustoz bo‘lib, Samarqand observatoriyasida ishlagan va astronomik jadvallarning mualliflaridan biri hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida buyuk astronomni Shohi Zinda majmuasidagi ikki gumbazli maqbarasida dafn etilgan deb hisoblashgandi, biroq, 1977 yilda bu maqbara ochilganida (me‘mor P.Sh.Zohidov, arxeolog N.B.Nemtseva, antropolog T.Xodjanova tarkibidagi kompleks guruh), unda erkak skeleti yo‘qligi aniqlandi. Natijada Rumiyning dafn etilgan joyi hanuzgacha noma‘lum hisoblanadi.

Ar-Rumiy qalamiga Evklidning “Boshlanish” (“Ibtido”) asarining dastlabki 7ta kitobining tarjimai, Shamsuddin as-Samarqandiyning “Asosnomaga oid takliflar” asariga sharhlar, “Arifmetika haqida traktat”, “Bir gradus sinusini aniqlash haqida traktat”, “Qiblaning azimuti haqida traktat”, “Astronomiya fani haqida traktat”, “Chag‘miniyning asariga sharhlar, Qazviniyning “Manba falsafasi” asariga sharh kabi ishlari bizgacha etib kelgan.

Nixoyat, Ulug‘bek zamonasining vakllaridan yana biri Xoja Fazlulloh Abu Laysiy Samarqandiy xam o‘z davrining mashhur fiqhshunos va arabshunos olimi sifatida dong taratgan allomalar sirasiga kirar edi.[6]

Xulosa. Xullas Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davri tarixan o‘ta murakkab vaziyat bo‘lishiga qaramasdan aytish joizki, Mirzo Ulug‘bekning boy ilmiy merosi uning faqatgina buyuk musulmon o‘g‘loni bo‘lmaganligini tasdiqlaydi. Balki uning ijodiy tafakkur dahosi butun insoniyat ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga bebaho hissa qo‘shgan. Shu sababli, ko‘p asrlar o‘tib, hatto bugun ham Mirzo Ulug‘bekning ismi savob maqsadlarga erishish niyatida Sharq va G‘arb xalqlarini birlashtirgan timsol bo‘lib qoladi. Mirzo Ulug‘bekning yuqori ma‘naviy va sezilarli merosi dunyoning yetakchi o‘quv muassasalarida va ilmiy markazlarida o‘rganib kelinadi.

Adabiyotlar ro‘yhati

- 1.Ахмедов А. Мирзо Улуғбек. Илми нужум. – Т., 1994. - 355 с.
- 2.Қори-Ниёзий Т.Н. Улуғбек ва унинг илмий мероси. Тошкент, «Ўзбекистон» нашриёти, 1971. – 65 б.
- 3.Ашраф Аҳмад. Улуғбек Муҳаммад Тарағай.- Т., 1994. – 40 б.
- 4.Матвиевская Г.П.,Розенфельд Б.А. Математики и астрономы. / Из истории эпохи Улуғбека. Отв.ред. А.К.Арендс.- Т., 1965. С. 540-541.
- 5.Математические трактаты Джемшида Гиясэддина Каши // Историко-математические исследования. — М.: ГИТТЛ, 1954. — № 7. — С. 11-452
6. Валихўжаев Б. Самарқандда мадрасайи олия – университет тарихидан лавҳалар. Самарқанд, 2003. – 165 б.

Mualliflar:

Nazarov Obid Rahimovich - Guliston davlat universiteti “Tarix” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

Qosimova E‘tibor G‘ayratovna - Guliston davlat universiteti talabasi.

UDK 372.894

RELATIONS BETWEEN TURKEY AND UZBEKISTAN DURING THE FIRST WORLD WAR

BIRINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA TURKIYA VA O‘ZBEKISTON O‘ZARO HAMKORLIK ALOQALARI
ОТНОШЕНИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ ТУРЦИЕЙ И УЗБЕКИСТАНА ВО ВРЕМЯ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Mo‘minova Manzura Ashur qizi

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali. Qashqadaryo Viloyati, Qarshi shahri, Beshkent yo‘li.

E-mail: m-manzura2024@gmail.com

Abstract. In this article, highlighted about the topic of mutual relations between Turkistan (is now Uzbekistan) and Turkey during the First World War is based on archival data, as well as sources based on historical works and memory books that provide information about this period political, cultural and educational relations between the two countries. In addition, this article outlined some information about the financial and moral support of Turkistan to Turkey during the First World War. Turkish soldiers captured during the First World War, their participation in the social, economic, spiritual and cultural life of Turkistan and analyzed based on historical sources.

Key words: Turkistan, Turkey, political, cultural and educational relations, jadids.

Аннотация. В данной статье тема взаимоотношений Туркестана (ныне Узбекистан) и Турции в годы Первой мировой войны основана на архивных данных, а также источниках, основанных на исторических трудах и книгах памяти, дающих сведения об этом периоде, освещены политические, культурные и образовательные связи

между двумя странами. Также данная статья проливает свет на материальную и моральную поддержку Турции со стороны Туркестана в годы Первой мировой войны. На основе исторических источников изучаются и анализируются турецкие солдаты, захваченные в годы Первой мировой войны, их участие в социальной, экономической, духовной и культурной жизни Туркестана.

Ключевые слова: Туркестан, Турция, политические, культурные и образовательные связи, Джадиды.

Kirish. XIX asr oxirlarida Usmoniylar imperiyasi ziyolilarining fikrlari va siyosiy faoliyatlari O'rta Osiyo ziyolilari orasida keng tarqaldi. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va tarqalishida Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy, mafkuraviy g'oyalar alohida rol o'ynagan. Shuningdek Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishida, Qrim va Qozon hududlaridagi harakatlarning ham alohida ahamiyat kasb etganini ta'kidlab o'tish lozim. Istanbulda ta'lim olgan Turkiston ziyolilarining bir guruhi Turkiyadagi zamonaviy Yevropa turmush tarzi, madaniyati, ta'limi va texnika taraqqiyoti yangiliklari bilan tanishib, ularni o'rganib qaytdilar. Turkiston ziyolilari bu o'zgarish, yangiliklarni o'z yurtlarining madaniy va ta'lim sohalarini o'zgartirish, rivojlantirish maqsadida foydalanishga harakat qildilar. Bu zamonaviy yangiliklarni o'zlashtirishda, o'rganishda Turkiston jadidlari ushbu tajribalardan foydalanishda O'rta Osiyoning o'ziga xos xususiyatlari va urf-odatlarini, mentalitetiga alohida e'tibor qaratdilar. Ya'ni ushbu tajribalar shunchaki, aynan ko'chirib olinib mamlakatda tadbir etilishga kirishilmadi. Turkistonning o'ziga xosliklari e'tiborga olingan holda yangiliklarni olib kirish uchun harakat boshlandi.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston–Turkiya munosabatlari tarixchilar, siyosatchilar diqqat markazida turgan dolzarb mavzulardan biri bo'ldi. Ushbu yillarda O'zbekistonda xalqaro munosabatlar tarixi bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borildi. Bunda asosan, mustaqillik yillarida O'zbekiston va Turkiya o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar xususida ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ushbu maqolada esa aynan birinchi jahon urushi davrida ikki davlat o'rtasidagi madaniy, ma'orif sohasini rivojlantirishga oid va boshqa o'zaro hamkorlik aloqalari tarixi ilmiy asoslab berilganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuga doir mavjud adabiyotlarni ikki guruhga ajratib, tahlil qilish mumkin: Mahalliy olimlar tomonidan nashr etilgan tadqiqot ishlari; xorijiy mualliflar tomonidan bajarilgan tadqiqotlar. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati hamda xorijiy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik masalasi, jumladan, O'zbekiston va Turkiya davlatlari hamkorligining turli jihatlarini haqida ma'lumot beruvchi ilmiy maqolalar, monografiyalar, tadqiqot ishlari mavzuga doir ilmiy adabiyotlarning birinchi guruhini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida qisqa muddat ichida O'zbekistonning xalqaro aloqalariga bag'ishlangan bir nechta yirik asarlar yaratildi. A.Alimov, E.Nuriddinov, A.Qirg'izboev, S.Safoyev, M.Rahimov, Q.Rajabov, X.Bekmuratov va boshqalarning asarlari shular jumlasidandir. Ayniqsa, yuqorida tilga olingan asarlar orasida Q.Rajabov va X.Bekmuratovning ham mualliflikda yaratgan asari diqqatga sazovordir. Unda o'zbek va turk xalqlarining o'tmishdagi uzoq yillik tarixi, XX asr 90 yillarida O'zbekiston va Turkiya Respublikalarning o'zaro munosabatlarining yo'lga qo'yilishi hamda iqtisodiy va madaniy sohalaridagi aloqalarini tahlil etilishi bilan qimmatlidir.

XX asr boshlarida turkiy xalqlarning bu davrdagi madaniyat markazlaridan bo'lgan Qrim, Qozon va Istanbulda nashr etilgan kitob va jurnallarni Turkistonda ham uchratish mumkin edi. Istanbulda ochilgan “Cemiyet-i Hayriye” va “Neshriyat” kabi shirkatlarning Turkiston bo'limi ham tashkil etiladi. 1909-1913-yillarda Istanbulda Turkiston jadidlarining namoyondalaridan biri Fitratning kitoblari nashr etiladi. XIX asrning oxirlarida Xiva xoni Muhammad Rahim II (1861-1910) turk tarixchisi Ibrahim Hasan Poshoning, “Tarih-i Umumi” nomli asarini o'zbek tiliga tarjima qiladi. Bugungi kunda ushbu tarjima asari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot institutida saqlanmoqda.

XX asr boshlarida Turkistonda va Usmoniylar imperiyasida vaziyat bir muncha og'ir edi. Ushbu og'ir vaziyat o'lka bozor va karvonsaroylarida xalq suhbatining asosiy muhokama mavzusiga aylangandi. Toshkent va Buxoroda “Yosh Turklar” ta'sirida vujudga kelgan “Ittihad va Taraqqiy” tashkiloti “Milliy Istiqlo”, “ Milliy Ittihad” nomlariga o'zgartiriladi[1]. “Yosh Turklar” tashkilotiga o'xshash tarzda Xivada “Yosh Xivaliklar” va Buxoroda “Yosh Buxoroliklar” tashkilotlari tashkil etiladi. Bu davrda O'rta Osiyoda Turkiyadan kelgan “Yosh Turklar”ning ham vakillarini ham uchratish mumkin edi. Ularning ba'zilari O'rta Osiyoda yashay boshlashadi [2]. XX asr boshlarida O'rta Osiyo va Usmoniylar orasidagi madaniy aloqalar ziyolilarning sayi-harakatlari natijasida rivojlanadi. Maorif sohasida katta ishlar amalga oshiriladi. Buxorolik Usmonxo'ja ta'lim sohasidagi yangiliklarni o'rganish uchun Istanbulga boradi. Usmonxo'ja Buxoroga qaytib kelishi bilan Usuli Jadid maktabini ochadi. 1914-yilda bu maktabda 200 ga yaqin o'quvchi tahsil olgani manbalarda keltiriladi[3;91]. Bu davrda Turkistonning boshqa shaharlarida ham Usuli Jadid maktablari ochiladi.

Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja, Po'latxo'ja, Abdurafiq Rafiy Mahdumlar Buxoroda “Tarbiya-yi Atvol Jamiyati”ni tashkil etadilar. Jamiyat Turkiyada o'qigan Turkistonlik yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Istanbul sho'basini ham tashkil etadilar. Jamiyat tarafidan 1911-yilda Istanbulga 15 o'quvchi, 1912-yilda 30 o'quvchi [4], va yana boshqa manbalarga ko'ra esa, faqat Buxoro amirligidan 1910-1913-yillarda 75 nafar [5], butun Turkistondan 95 o'quvchi ta'lim olish uchun yuboriladi.[6] 1909-yilda Munavvar Qori Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekovlar “Jamiyat-i Hayriya”ni tashkil etadilar [7]. Munavvar Qori Qozon, Ufa va Turkiya maktablariga ham

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

o'quvchilarni ta'lim olish uchun yuboradi. 1913-yillarda Istanbul, Qozon va Ufada o'qigan yoshlar Buxoroda "Turon", "Buxoroyi Sharif" gazetalarini nashr etadilar. Bu davrda Turkistonda Turkiyada nashr etiladigan "Tanin", "Ikdam" kabi gazetalarining o'quvchilari bor edi. 1910-yilning oktabr oyidan qo'qonlik Is'hoq Saripov nomi bilan "Istanbul xabarleri" gazetasi chiqa boshlaydi. Bu nashrlar davlatlar, shaharlar o'rtasidagi madaniy, ezgu munosabatlarni yoyilishiga ko'prik vazifasini o'taydi.

Birinchi jahon urushi yillarida Turkiston ziyolilari rahbarligida Usmoniy turklarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatganliklari haqidagi ma'lumotlar arxiv hujjatlarida uchraydi. 1912-1913-yillarda Bolqon urushlarida Rossiyaning Usmoniylarga siyosiy munosabatiga javob sifatida Buxorolik Hoji Jo'rabek, G'iyos oqsoqol, Abdurauf karvonboshilar tomonidan Usmoniylar armiyasiga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida ko'p miqdorda mablag' yig'ilib yuborilgan[8]. Buxoroda ayni shu maqsadda yig'ilgan mablag'lar "tuman" deb nomlangan. 1913-yilning may oylarida Istanbuldan Hayriddin Afandi Bolqondagi urushlar haqidagi haqiqatlarni tushuntirish maqsadida, ya'ni Usmoniylar armiyasining ba'zi xorijiy gazetalarda yozilgani kabi kuchsiz emasligini bildirish maqsadida Turkistonga keladi. 1915-yillarda Toshkentdagi Kolizy kinoteatrda bir film namoyish etiladi. Bu filmni ko'rish uchun Turkiston gubernatori Martson (1915-1916) ham bu yerga keladi. Birinchi jahon urushi haqidagi bu filmda dastlab Rossiya armiyasi so'ngra boshqa davlatlar kabi Usmoniylar armiyasi ham ko'rsatiladi. Ekranida Usmoniylar armiyasi ko'rsatilar ekan bu yerda o'tirgan xalq o'rinaridan turib hayajon bilan olqishlashadi. Bunday xatti-harakatni kutmagan va qabul etmagan Turkiston gubernatori shu zahoti o'rnidan turib chiqib ketadi va bu film boshqa takror namoyish etilmaydi. Birinchi jahon urushi haqida "Sadoyi Turkiston", "Vaqt" gazetalarida Usmoniylar armiyasining zafarlari haqidagi xabarlar tez-tez bosilardi.

1912-yilda Buxoroda birinchi jahon urushi boshlanishidan oldin Rossiya Turkiyaga qarshi urush e'lon qiladi degan gaplar xalq orasida tarqaladi. 1912-yilning oktabr oyi boshlarida Buxoro bosh muftiysi Faqir Husayn G'ulom Muhammedov sakkiz nafar o'quvchisi bilan birgalikda Istanbulga bu yerdagi siyosiy vaziyatni o'rganish uchun keladi. Turkiyaga moddiy yordam berish maqsadida xalqdan yig'ilgan 60 ming rubl mablag'ni Turkiyaga yetkazish Begijon Abdul G'ofur Maqsumga topshiriladi. Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi arxiv hujjatlarida asli Buxoro shayxlaridan bo'lgan, bu davrda Istanbulda istiqomat qilgan Abdulmajid afandi, Turkiston o'lkasiga kelish uchun ruxsat so'ragani va u siyosiy maqsadlarda bu yerga yuborilgani ma'lumotlarda keltiriladi [9]. Turkistondagi politsiya tashkilotlari tomonidan Turkiyadan va boshqa davlatlardan kelgan har bir chet elliklar o'rganilgan va Turkistonga kelishlari uchun maxsus ruxsatnoma olishlari shart edi. Turkiston politsiya tashkilotlarining 1913-yil 8-iyundagi ma'lumotlariga binoan Istanbuldan Usmon, Said, Burhon va Hayfi afandilar Turkistonga musulmon xalq orasida tashviqot ishlarini olib borish uchun kelganliklari haqidagi ma'lumotlar keltiriladi [10] Turkistonga chet ellardan kelayotgan odamlarni ko'rgan hukumat bundan qattiq bezovtalanardi. Bu hukumatga yoqmasdi. Turkistonliklar birinchi jahon urushi yillarida Turkiyaga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatishga harakat qildi. 1914-yil yanvar oyida Usmoniylar havo qo'shinlari uchun Beljuvan beyi Jahongirbek tomonidan 15 ming rubl mablag' to'planib Saidzoda ismli amaldor orqali jo'natiladi. Bu kabi ishlar Farg'onada ham amalga oshiriladi. 1915-yil 17-iyulda Andijonda Usmoniylarga yordam ko'rsatishga chaqiruvchi xabarlar yozilgan manbalar topilgan. Bu kabi harakatlarni oldini olish uchun "Ohranka" (Turkiston viloyatini qo'riqlash boshqarmasi) xodimlari har bir xonadonni tekshirib, andijonlik Ro'ziboy So'fiyevning xonadonidan Usmoniylar bayrog'i chizilgan ana shunday yozuvlarni topdi. "Ohranka" (Turkiston viloyatini qo'riqlash boshqarmasi) hujjatlarida hukumatni xavf-xatardan ogohlantirish maqsadida yozilgan xabarlarni uchratish mumkin: "Toshkentdagi musulmon xalq Usmoniylar uchun muvaffaqiyatsiz bo'lgan urushdan, xafa bo'lib, Turkiyaga moddiy yordam bermoqchi bo'ldilar. Toshkentdan Istanbulga qirq ming rubl miqdorida mablag' yuborildi. Bu ishlarning boshida Halil Mirvali bo'lgani manbalarda keltiriladi" [11]. Bu ma'lumotlar Buxoro, Samarqand, Marv, Qo'qon va Toshkentda Turkiyaga yordam berish bilan shug'ullangan tashkilotlar mavjud bo'lgani va ularning faoliyati haqida ma'lumotlar beradi. Hujjatlar Mirobidboy, Yoqubxo'ja, Umarbey va Mirkomil Mirmo'minboyevlar bu kabi yordam ishlarining boshida bo'lganliklari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Turkiston ziyolilari bu davrda Turkiyaga ochiqdan-ochiq hamdardlik bildirish mumkin bo'lmagan vaqtda bu kabi xatti-harakatlari, moddiy va ma'naviy ko'maklari, qo'llab quvvatlashlari nihoyatda xavfli edi. 1915-yilning yanvar oyida Buxoroga amir Olimxon (1910-1920) ning qarindoshlaridan biri yashirincha keladi va amir uni saroyda qabul qiladi. U besh mingdan ortiq musulmonlar bilan birgalikda Buxoro masjidlaridan birida Usmoniylar uchun duo qiladilar. Juma namozidan so'ngra esa, Usmoniylar uchun uch ming rubl miqdorida mablag' yig'iladi. 1915-yilning iyul oyida Buxoro amirligi qushbegisi Nizomiddin Xojabey o'z jiyanini Istanbulga juda ko'p miqdordagi mablag'ni Usmoniylar hukumatiga olib borib berish uchun jo'natishga tayyorlanayotganligi haqidagi arxiv hujjatlarini uchratish mumkin. Eski shaharda bu kabi ishlarga savdogar, tijoratchilar Musabey, Abdu Olimboyev, Kamoljon Boyxo'ja va Yo'ldoshboy Xojilar rahbarlik qilib, Turkiyaga moddiy yordam uchun mablag' yig'ish ishlari uchun tashviqot ishlarini amalga oshirganlar.

1914-1917-yillarda Kavkaz frontidagi urush Usmoniylar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Erzurum yaqinidagi urushda sakkiz ming Usmoniy askarlari asir olinadi [13]. Birinchi jahon urushida asirga olingan turk askarlari Turkistonliklar kabi front ortidagi ishlarga jalb qilingan. Urush tugagach asir olingan turk askarlari Turkiyaga qaytish uchun Rossiya shaharlaridan O'rta Osiyoga keladi. Bu askarlar orasida bir qancha yaxshi ta'lim ko'rgan askarlar bor edi. Ular bir muddat Toshkent, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Xiva, Buxoro, Toshkentdagi maktablarda o'qituvchilik

faoliyatida ham ishlashadi. Bu kabi askarlardan biri Ruzi Chakiruz edi. Ruzi Chakiruz Kavkazdagi urushda asirga olingan va Krasnoyarskdagi asirlar lageriga yuboriladi. U bu yerdan qochib Turkistonga keladi va bu yerda bir qancha yil mobaynida o'qituvchilik qiladi [14]. Ruzi Chakiruz Turkiyaga kelgandan so'ng Turkistondagi hayoti haqida xotiralarini yozgan. Ruzi Chakiruzning "Hatiralar" nomli kitobida 1918-1923-yillarda Turkistondagi siyosiy hayot va asir olingan turk askarlarining hayoti haqidagi juda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ruzi Chakiruz 1918-yilning boshlarida Toshkentga keladi va bu yerda Ziyo Bey, Haydar Shevkiy, yuzboshi Galib Bey, Shukru Bey, Sulaymon Samiy va kichik ofitser Said Axroriyar bilan tanishadi. Ruzi Chakiruz-Toshkentda, Haydar Shevkiy- Namuna, yuzboshi Galib Bey-Turon, Yuzboshi Shukri Bey -Muhtoriyat, ofitser Said Axroriy- Ifan maktabida, Said Jamol Buxoroda -Farobiy musiqa maktabida ishlagani haqida ma'lumotlar berilgan. Ruzi Chakiruz "Hatiralar"ida asirlikda birga bo'lgan do'stlari haqida batafsil ma'lumotlar bergan. Ruzi Chakiruz asirlikdan birga qochgan Mehmet Avgustos bilan Tbilisidagi Turkiya elchixonasida uchrashadi. Ruzi Chakiruzning yozganlariga ko'ra, Mehmet Avgustos Toshkentda hastalanib qoladi va tuzalgach yo'lda davom etishga majbur bo'ladi. Tuzalgach Ashxobod yo'li yopilganligi xabarini oladi. Natijada Mehmet Avgustos Toshkentdagi Turon maktabida so'ngra esa Farobiy musiqa maktabida, Karkoydagi o'qituvchilar tayyorlash maktabida ishlaydi.

Ahmad Zakiy Validiy "Hatiralar"ida asirga olingan turk askarlari haqida "Starlitamak" ga (1919-1922-yillarda Boshqirdiston Muxtor Respublikasining poytaxti) kelgandan so'ng asir olingan turk askarlari muammosi o'rta chiqadi. "Sibirdan kelgan bu askarlar Ufa va Samara shaharlari orasida yig'iladi va bizdan vatanlariga qaytish uchun yordam berishimizni so'rashdi. Men o'z ehtiyojim uchun zarur deb har birida 120 o'rin bo'lgan ikkita vagon oldim. Bu vagonlarda turk askarlarini Toshkent va Astraxan shaharlariga yetkazish uchun yordam berdim" deb yozadi. Ruzi Chakiruz Turkistonda saksonga yaqin turk askarlari bor ekanligini yozadi. Ruzi Chakiruz Turkiston xalqining ochiq yuz bilan qabul qilganliklarini va har doim yordam berganliklarini yozadi. Ruzi Chakiruz Munavvar Qorini alohida hurmat bilan tilga oladi. Munavvar Qori Ruzi Chakiruz betob bo'lib qolganida Chimkentga borib davolanishi uchun moddiy yordam beradi.

1923-yillarda Karkoy rus harbiy maktabida turk askarlari dars beradi. Ahmad Zakiy Validiy "Hatirlari"da: "Xivada turkiyalik askarlar bor. Pahlavon Niyoz (Pahlavonniyoz Hoji Yusupov (1861-1936) Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar Kengashi raisi) hukumati bu askarlar yordami bilan Toshkentda harbiy maktablar tashkil etadilar. Uskudarlik Ridvan Bey va Hasan Beylar bu maktablarning rahbarlari bo'ldilar. Bu maktabda yuzga yaqin o'zbeklar tahsil oldi. Moskva vakili Safanov (Farg'ona viloyati generali bo'lgan Safanov 1920-yil 19-sentabrda Xorazm Xalq Sovet Respublikasining Rossiya vakili etib tayinlanadi) bu maktablarda turk askarlarini ishlashini xohlamaydi va maktabni yopishga harakat qiladi. Bu yerda uchrashgan askarlar Istanbulga qaytganlaridan so'ng menga juda katta hurmat ko'rsatdilar. Bu kabi askarlar masalan Ali Rizo Bey Turkiston politsiya mahkamasining ochilishida katta hissa qo'shadi", - deb ma'lumotlar bergan [15].

Ahmad Zakiy Validiyning "Hatiralar" kitobi turk askarlari haqida juda qimmatli ma'lumotlarni beradi. Turk askari Umarbey unga bergan yordami, Ali Rizoning Anvar Poshodan bir necha marta maktublar olib kelgani haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Turk ofitserlaridan biri Ali Rizobey Buxoro Xalq Sovet Respublikasida politsiya boshlig'i vazifasida bo'lgan.

Xulosa. XX asrning boshlarida Turkiya siyosiy hayoti, fikri va siyosiy faoliyatlari Turkiston ziyolilari bo'lgan jadidlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Turkiston va Turkiya orasidagi nashr etilgan gazeta, jurnallarda, ta'limga oid aloqalarning yaxshilanishi va ko'payishida bu kabi aloqalar alohida rol o'ynagan. Ziyolilar orasida zamonaviy Yevropa hayot tarzi, madaniyati, ta'limi va texnika taraqqiyoti rivojlanishidagi tajribalari bilan tanishish keng tarqaladi.

Birinchi jahon urushida Turkiston xalqi Turkiyaga moddiy va ma'naviy dastak berdi, uni qo'llab-quvvatladi. Turkiston ziyolilarining bu kabi keng ko'lamliligi, qizg'in faoliyatlari ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishida muhim rol o'ynadi va bu kabi faoliyatlar xalq tomonidan ham ijobiy qarshilandi, ular ham bu kabi ishlarni amalga oshirishda ko'makchi bo'ldilar. Birinchi jahon urushida Rossiya tomonidan asir olingan turk askarlari ham Turkiston xalqi tomonidan juda iliq qarshilandi. Turkiya milliy mustaqillik kurashi davrida ham Turkiston, Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi hukumatlari va xalqi tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimov B. XX asr boshida jadid adabiyoti va tarixiy hodisalar.-Davriy to'plam: Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, 1999.107-bet.
2. Turkestanskaya sbornik. T.544,122-123-bet.
3. Umnyakov I. K istoriy novometodnoy skoli v Buhare.-Byulleten SAGU,1927. 91-bet.
4. Qosimov B. Maslakdoshlar.-Toshkent: Sharq, 1994. 74-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat Arxivi, 461-fond,1260-ish, 82-bet.
6. Xolboyev S. Milliy univetsitetning tarixiy yulduzlari va tashkil topishi.-Toshkent: Sharq, 2003. 82-bet.
7. Dostkarayev B. Turkiston jadidlarining yirik siymosi.- Jahon adabiyoti, 1998. 149-bet.
8. Razakov D. Buxoro xonligining tashqi savdo aloqalari.-T. Tarix fanlari nomzodlik dissertatsiyasi, 1994. 90 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat Arxivi, 3-fond, 256-ish, 1-bet.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat Arxivi, 3-fond, 253-ish, 4-bet.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat Arxivi, 461-fond, 2157-ish, 15-bet.

12. Zakiy Validiy Tog'an. Hatiralar.-Istanbul, 1969. 29-bet.
13. Sisov A. Kavkazskoy front-Pervaya mirovaya voyna.-Moskva. 1998. 578-587-bet.
14. Ruzi Chakiruz. Yuragimga yaqin go'shalar.-Jahon adabiyoti. R. Saripov tarjimai. 1997. 204-bet.
15. Ruzi Chakiruz. Yuragimga yaqin go'shalar.-Jahon adabiyoti. R. Saripov tarjimai. 1997. 96-100-bet.

Muallif:

Mo'minova Manzura Ashur qizi - Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali erkin tadqiqotchisi.

UO'K 655.3.026.25/35.004.12

FACTORS AFFECTING THE SUCCESS OF THE MANUFACTURED PRODUCT

ISHLAB CHIQRILADIGAN MAHSULOT MUVAFFAQIYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА УСПЕШНОСТЬ ПРОИЗВОДИМОГО ПРОДУКТА

Safayeva Dilafruz Ruzmatovna, To'rayev Fazliddin Muxitdinovich

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, 100100. Toshkent shahar, Shohjahon ko'chasi – 5 uy.

E-mail: dilafruzsafayeva@mail.ru

Abstract. The article analyzes various factors that influence the formation of a brand and the production of a new media project. The author shows the problems of research on the insufficient development of the concepts of "branding", "production", "media project". The features of branding in the media sphere are noted, the methodological basis of the study is indicated. The selected set of factors is of fundamental importance in the construction of a new media brand.

Keywords: brand, branding, production, media project, packing, success factors, risk approach, analysis.

Annotatsiya. Maqolada mahsulot uchun media-loyiha ishlab chiqish va brendni shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilindi. Muallif tomonidan mahsulotni "brendlash", "ishlab chiqarish" va "media-loyiha" tushunchalarining yetarlicha o'rganilmaganlik muammolari ko'rsatilgan. Muvaffaqiyat omillari shu tushunchalar asosida aniqlanib, brendlashning mavjud xususiyatlari belgilandi, hamda tadqiqotlarning metodologik asoslari belgilandi. Aniqlangan omillarning yig'indisi yangi mahsulot uchun media-brend loyihasini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: brend, brendlash, ishlab chiqarish, mahsulot uchun media-loyiha, qadoq, muvaffaqiyat omillari, xavfli yondashuv, tahlil.

Аннотация. В статье осуществлен анализ различных факторов, влияющих на формирование бренда и производство нового медиа-проекта новой продукции. Автором показано проблемы исследований недостаточной разработанности понятий «брендинг», «продакшен», «медиа-проект». Отмечены особенности брендинга новой продукции, обозначена методологическая основа исследования. Выделенная совокупность факторов имеет важное значение при конструировании нового бренда в производстве.

Ключевые слова: Тара-упаковочная продукция, фактор, бренд, конструирование, производство.

Kirish. Zamonaviy ilmiy-amaliy tahlillarda "Brend" atamasi hali xam muhim ahamiyatga ega emas. Maqolada bu atama keng yoritibgina qolmay, balki "brend" xususiyatlari va u asosida vujudga kelgan "brendlash" tushunchasi tahlil qilingan. Biror mahsulotning realizatsiya qilinishida muvaffaqiyatga yetaklovchi brendlash strategiyasiga, ya'ni mahsulotning media-loyihasiga ta'sir qiluvchi omillar yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, texnik termin sifatida mutaxassislar orasida qo'llanilmoqda. Har ikkala tushuncha - brendlash va mahsulot uchun media-loyihaning kesishuvi ilm-fanda yangi tadqiqotlarga asos bo'ladi [1]. Brend bu ma'lum belgi bo'lib, u iste'molchilarni u yoki bu xaridga undovchi vosita hisoblanadi. U doimo assotsiativ bo'lib, insonning ongi ostida ishlaydi, bu esa uning muhim xususiyatidir. Brend mustahkam tushunchalar yig'indisi bo'lib, u ijtimoiy va madaniy tomondan tartibga solinadi. Media sohasida ham mahsulot brendining shakllanishi va rivojlanishi alohida xususiyatlarga ega. Qadoq mahsulot brendning samarali vositasi bo'libgina qolmay, bunda u uchun tayyorlanadigan media-loyihada mavjud badiiy, estetik va emotsional omillarning to'liq spektridan foydalanish zarur.

"Brend" tushunchasining rivojlanishi tadqiqotchi D.Ogilvi (1951) nomi bilan bog'liq bo'lib, u brendning imidj moxiyatini ochib berishga xarakat kildi: "Brend- iste'molchilarda qoladigan taassurot bo'lib, uni shakllanishidagi tajribalar natijasidir"[2]. Keyinchalik ushbu tushuncha imidjni anglatibgina qolmay, bevosita sifat bilan bog'liqligi ham yaqqol ko'rindi (Dj.YAkobi(1379)): "Brend-bu mahsulotni sinovlardan o'tishi, qayta xaridlar va iste'molchining qoniqishlari bilan vujudga kelgan uzoq muddatli xizmat va ishonch kafolatidir" [3]. Hozirda brendni boshqarish mahsulot sifatini boshqarish bilan bevosita bog'liq (P.Bush, M.Xauston) [4].

Oldindan shakllangan va taqdim etilgan mahsulot sifati iste'molchi tomonidan olingan dastlabki taassurotlar spektrini hosil qiladi va natijada brend yaratadi. Maqolada media-loyiha prizmasi orqali ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu sohada brend, ehtimol mahsulot bozoridan ko'ra media-loyihani ishlab chiqishda ko'proq ahamiyatga ega. Buning barchasi iste'molchilar auditoriyasining xarakati darajasiga bog'liq, ikkinchidan xaridorlar uchun kurash, hamda media

sohasida yuqori raqobatning mavjudligi hisoblanadi. Bunda media-loyihani joylashtirishda brendning funksionalligi juda yuqori hisoblanib, muvaffaqiyatga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish zarurligini namoyon qiladi. Brendni shakllantirish, rivojlantirish va mustahkamlash jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olinishi zarur. Brendning mohiyati shundan iboratki, unda iste'molchilar auditoriyasining emotsional xolatlari va qadriyatlarini xisobga olish muhim ahamiyatga ega[5]. Bundan shu sohani ma'lum bir fan doirasida cheklab bo'lmazligi namoyon bo'ladi. Endi «prodakshen» atamasi va uning ahamiyati haqida to'xtalib o'tamiz. Atama ingliz tilidan olingan bo'lib, "loyiha yoki ijodiy mahsulot yaratish" degan ma'noni anglatadi. Mahalliy amaliyotda ushbu atama yaqindan foydalanilib kelayotgan bo'lib, hali kam rivojlangan ta'riflar sirasiga kiradi. Ushbu atama orqali biz mavjud resurslarni hisobga olgan holda yangi mahsulot uchun media-loyihani yaratish jarayoni deb kontekst ravishda tushunamiz. Ishlab chiqarishning funksional maqsadi— ishlab chiqarish jarayonida mahsulot media-loyihasiga yangi format yoki element kiritish, ya'ni ijodiy innovatsiya jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqot ob'yekti va qo'llanilgan metodlar

O'rash-qadoqlash sanoatida mahsulotni brendlash jarayonining muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish mahsulot uchun media-loyihani ishlab chiqarish xususiyatlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyosiy, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Yangi mahsulot uchun media-loyiha har doim aloqa ya'ni "iste'molchi-muloqot" munosabatlari orqali shakllanadi, shuning uchun bunday aloqa brendni tayyorlash va shakllantirishda yetakchi vazifasini bajaradi. Yangi mahsulot uchun media-loyihani ko'rgan yoki ommaviy axborot vositalarida eshitgan iste'molchi, albatta, mahsulot brendini hayolida shakllantirishi va uni eslab qolishi kerak [6].

Mahsulot media-loyihasini brendlash uchun muvaffaqiyat omillarini o'rganish u shakllangan va faoliyat olib boradigan muhit ya'ni iste'mol auditoriyasini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, media-loyiha qanday sharoitda shakllangani va brending jarayoni qanday amalga oshirilishini aniqlash kerak. Bu shartlarga quyidagilar kiradi: iste'molchi auditoriyasining holati (ta'sir qiluvchi iste'molchi manfaatlar, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar: hayot uslubi, ijtimoiy hayot tarzi, demografik o'zgarishlar); moliyaviy-iqtisodiy muhit (elektron media-loyiha joylashtirilgan kanalning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari, uning reklamaga bog'liqlik darajasi); texnologik muhit (texnik imkoniyatlar, innovatsiyalar); huquqiy muhit (mahsulotning media-loyihasini rivojlanishi uchun normativ-huquqiy imkoniyatlar); raqobat muhiti (to'g'ridan-to'g'ri raqobatchilar soni, ularning strategiyalar, innovatsiyalar, resurslar bozori ulushlari); Ushbu omillar to'plamidagi eng muammoli bo'g'in bu o'rash-qadoqlash sanoatida iste'molchi auditoriyasi holatini o'rganishdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mahsulot media brendining shakllanishi maqsadli segmentning aniq diagnostikasi bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga turli aspektlarda maqsadli iste'molchi auditoriyaning o'lchovlarini olish ancha murakkab ish hisoblanadi[7].


Bundan tashqari, iste'molchi hohish-istaklari, brending va media-brend yaratish samaradorligi o'rtasidagi munosabatlarning sabab-oqibatlarini aniqlash juda qiyin bo'ladi. Media-loyihani brending effektini aniq o'rnatish ham amalda imkonsizdir, chunki tajribaning "tozaligi"ga ta'sir qiluvchi tasodifiy omillar bo'lishi ehtimoli katta. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, iste'molchi auditoriyasini oldindan tekshirish brending havf-hatarni baholashga yordam beradi, ammo media-loyihani tayyorlashda va amalga oshirishda uning samaradorligi haqida to'liq tasvirni bermaydi.

Iste'molchi auditoriyasi holatini diagnostik tahlil qilish bosqichida auditoriyaning xohish-istaklari o'rganiladi va ularning xatti-harakatlarining ijtimoiy-psixologik harakatlar qonunlari aniqlanadi.

Shunday qilib, mahsulot uchun brending va yangi media-loyihani ishlab chiqarish muvaffaqiyati, loyiha nafaqat ma'no-mazmuniga, balki uning shakli va dizayniga yo'naltirilgan iste'molchilar orasidagi asosiy stereotiplarning ta'siriga bog'liqdir. Masalan, yangi mahsulot loyihasini elektron ommaviy axborot vositalarida taqdim qilishda iste'molchi uchun ma'lum bir sevimli kanalning mavjudligi e'tibordan chetda qolmasligi kerak va bu faktor tashqi sharoitlarni tahlil qilishda hisobga olinishi shart. Aynan shu iste'molchilar auditoriyasi uchun loyiha boshqa brendlardan farq qiluvchi muhim nuqtalarini aniqlab, shunga urg'u beruvchi tomonlarni ko'rsatish zarur.

Taniqli media loyihalar tadqiqotchisi Li Xant tadqiqot natijalariga asoslanib, ommaviy axborot vositalari sohasida ma'lum bir mahsulotni taqdim qilishni real holatda taqdim qilishdan samaraliroq ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning ta'kidlashicha, eng katta imkoniyatlar iste'mol-auditoriyasining vertikal oqimida yotadi. Shunday qilib, yangi mahsulot uchun brend loyihalashda, birinchidan, auditoriyaning ushbu xususiyatlarini bilish, ikkinchidan, auditoriyaning vertikal oqimi va uchinchidan, bozor marketingidan foydalanishga (muayyan segmentni ajratish) asoslanishi kerak [8].


Bizning fikrimizcha, mahsulotning media-loyihasini ishlab chiqish va brendingga ta'sir qiluvchi faktorlarning tahlili ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy soxada qo'llaniladigan paradigmalar asosida amalga oshirilishi kerak. Bunday paradigma kutilmagan riskli omillarni aniqlash va ularni oldini olish uchun harakatlar algoritmini aniqlash va ogohlantirishdan iborat. Shuning uchun bunday harakatlarni o'z vaqtida amalga oshirish mahsulotning media-loyihasini muvaffaqiyatini ta'minlaydi. 1-rasmda media-loyihani muvaffaqiyatiga to'siqlik qiluvchi risklarni aniqlash va sistematik analiz qilish jarayoni aks ettirilgan.



1-rasm. Mahsulot media-loyahasini ishlab chiqish va branding

Shunday qilib, tashqi ta'sirlarni tahlili va risklarni oldini olish yangi mahsulotning media-loyihasi muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim faktor hisoblanadi. Brendning muvaffaqiyatini tahlil qilish uchun biz ingliz avtor Li Xantning uch komponentli modelini tanlab oldik. U tadqiqot ishlarida 3 ta asosiy faktorni tanlab oldi: raqobatchilardan farqlanish; korporativ falsafaga sodiqlik; iste'molchi uchun adekvatlilik. Avtorning fikricha bu uch faktorning o'zaro moslikdagi faoliyati yangi mahsulot brendini muvaffaqiyatga olib keladi [8].

Ammo, bizning fikrimizcha bu sxemani ham ozroq to'ldirish kerak. Mahsulot media-loyahasining muvaffaqiyatini ta'minlovchi faktorlarga Li Xantom teoriyasi va biz izohlagan shartlar hamda risklar tahliliga qo'shimcha qilib, yana auditoriya hamda mediadizayn faktorini ham qo'shish kerak. Brendni loyihalash bu ikki asosiy komponent yordamida amalga oshiriladi. Media-dizayn esa yangi media-loyihani yaratish jarayonida ishtirok etuvchi bo'g'in hisoblanadi.



2-rasm. Mahsulot media-loyahasini yaratish jarayoni

Shu bilan birga shuni ta'kidlash lozimki, media dizaynning alohida maqomi tufayli u media-loyihani yaratish va branding muvaffaqiyatini taminlashda mustaqil omil sifatida harakat qilishi mumkin. Buni bir nechta avtorlar-M.N.Marchenko va A.V.Yaromenko ham o'z ilmiy ishlarida aytib o'tganlar[9].

Maqolada tahlil qilingan muammoni aniq faktlar bilan asoslangan bo'lib, bunda bir nechta loyihalar tahlil qilindi. Olib borilgan tajribada media dizayn ob'yektlarini tizimlashtirish, ularni tahlil qilish va natijalarni umumlashtirish "immersion" usulni tashkil qilib, undan foydalanish mahsulot media-loyihagini muvaffaqiyatga olib kelishi isbotlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, brendning ommaviy axborot vositalarida translyatsiyalari ularning yuqori reytingi boshqa omillar qatori media-dizayn vositalari yordamida yaratilgan harakatlar natijasi hisoblanadi.

Xulosa. Shunday qilib, ushbu maqolada yangi mahsulotning media-loyihagini ishlab chiqishda va brendlashda muvaffaqiyatga e'rishishga ta'sir etuvchi omillarning qisqacha tahlili keltirilgan. Bu omillarga quyidagilar kiradi: shartlar (imkoniyatlar) tahlili, turli risklarni baholash, analog mahsulotlardan farqlanish, iste'mol auditoriyasini taqsimlash, korporativ falsafaga integratsiyalashuv, kontentning yangiligi, shuningdek, ommaviy axborot vositalari media vositalaridan oqilona foydalanish. Istalgan soxadagi yaratilayotgan mahsulot uchun media-loyiha aniq konsepsiyalar asosida yaratilishi talab etiladi. Yangi mahsulot media-loyihasi iste'molchilar auditoriyasining umumiy konsepsiyasiga imkon qadar ko'proq integratsiyalashishi va shu bilan birga unga o'ziga xos yangilikni olib kirishi kerak. Bu yangi mahsulotning media-loyihagini muvaffaqiyatli ishlab chiqish va brendlash uchun muhim shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. П.И. Цветкова. Факторы, влияющие на успешность брендинга и продакшена медиа-проекта. // Автореферат. Москва. 2022. – 32 с.
2. Огилви Д. Огилви о рекламе: [пер. с англ.]. - М.: Эксмо, 2011. -162 с.
3. Jacoby J. Brand Loyalty: Measurement and Management / J.Jacoby, R.W.Chestnut. — N.Y.: Wiley, 1979. — 378 p.
4. Busch P.S. Marketing Strategic Foundation / P.S.Busch, M.J.Houston. — Homewood Free Press, 1988. — 415 p.
5. Епифанова М.А., Совальскова Т.Н. Современный брендинг: сущность и принципы разработки // Социально-гуманитарные проблемы образования и профессиональной самореализации // Сб. материалов Всероссийского научного форума молодых исследователей. — 2016. — С. 128–131.
6. Safayeva D.R. "O'rash va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi va uskunalar"/Toshkent. 2023. -270 b.
7. Марченко И. В. М30 Технология тары и упаковки: учеб.-метод. пособие для студентов специальности 1-47 02 01 «Технология полиграфических производств» Минск: БГТУ, 2014. — 110 с.
8. Хант Ли. Основы телевизионного брендинга и эфирного промоушен. Нью-Йорк-Москва, 2003. — 144 с.
9. Марченко М.Н., Яроменко А.В. Особенности проектирования визуальных коммуникаций в телевизионной среде // Молодой ученый. — 2016. — № 8. — С. 1276–1278.

Mualliflar:

Safayeva Dilafuz Ruzmatovna - Toshkent to'qiachilik va yengil sanoat instituti "Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi" kafedrası t.f.f.n., dots. e-mail: dilafuzsafayeva@mail.ru

To'raev Fazliddin Muxitdinovich - Toshkent to'qiachilik va yengil sanoat instituti "Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi" kafedrası doktoranti.

УДК: 372.834

NATIONAT AND FOREIGN EXPERIENCE IN ADOPTION CASES

**ФАРЗАНДЛИККА ОЛИШ ТЎҒРИСИДАГИ ИШЛАР БЎЙИЧА МИЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР
НАЦИОНАЛЬНЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ В ДЕЛАХ ОБ УСЫНОВЛЕНИИ**

Бегимова Насиба Худайбердиевна

Ўзбекистон Республикаси Хукукни муҳофаза қилиш академияси. 100047, Тошкент шаҳри, Миробод тумани,
Шахрисабз кўчаси, 42.

E-mail: nasiba-begimova2024@gmail.com

Abstract. The article is devoted to the experience of the Russian Federation, the Republic of Kazakhstan and the Kyrgyz Republic and our national legislation in matters of adoption. In this article, the research topic will be covered along with the experience of the Russian Federation, the Republic of Kazakhstan, and the Kyrgyz Republic in cases of adoption, as well as similar and different aspects of our national legislation.

Keywords: adoption, adopters, child, his consent, guardianship and sponsoring body, confidentiality, adoption time.

Аннотация. Статя посвящена опыту Российской Федерации, Республики Казахстан и Кыргызской Республики и нашему национальному законодательству в вопросах усыновления. В данной статье тема исследования будет освещена наряду с опытом Российской Федерации, Республики Казахстан и Кыргызской Республики по делам об усыновлении, а также схожие и различные аспекты нашего национального законодательства.

Ключевые слова: усыновление, усыновители, ребенок, его согласие, орган опеки и попечительства, конфиденциальность, время усыновления.

Кириш. Фарзандликка олиш институти ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишнинг асосий кафолатларидан бири ҳисобланиб, ушбу масалани ҳал қилиш ваколатини судларга берилиши оила институтини янада мустаҳкамлаш, жисмонан соғлом, маънан етук авлодни тарбиялашда оиланинг аҳамиятини кучайтириш ҳамда оилавий муносабатларда қонунийликни таъминлашга хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикасида фарзандликка олиш ҳақидаги ишларни судда кўрилишида ҳуқуқни қўллашда ва суд амалиётида муаммолар мавжуд бўлиб, уларни ўрганиш, таҳлил қилиш орқали мавжуд муаммоларга ечим топиш ва қонунчиликни такомиллаштириш талаб этилади.

Мазкур илмий-тадқиқот иши айнан фарзандликка олиш тўғрисидаги ишларни судда кўрилишида юзага келадиган муаммолар ва уларни ечимини топиш ва қонунчиликни такомиллаштириш чораларини кўришга йўналтирилганлиги билан аҳамиятлидир.

Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар

Фарзандликка олиш билан боғлиқ фуқаролик ишларини кўриб чиқиш ва ҳал қилишда фуқаролик процесси ва оила қонунчилиги доирасида юзага келадиган ижтимоий муносабатлар йиғиндиси. Тадқиқод мавзусини ёритиш тизимли, қиёсий-ҳуқуқшунослик, тарихий-қиёсий, формал-мантиқий, методологик таҳлил усуллари билан фойдаланилган.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

Ўзбекистон Республикасида цивилист олимлар Ф.М.Отаходжаев, З.Эсонова, Ж.Дадабоевалар томонидан фарзандликка олиш тушунчаси, фарзандликка олишнинг моддий ва процессуал жиҳатлари мавзусида, рус олимлари О.Зайкова, З.Алиева, А.Катионова, Т.Мосиенко, Г.Вершинина, Т.Ткаченко, Ю.Гюрджан, В.Лихановалар томонидан фарзандликка олиш тушунчаси, халқаро тажриба, фарзандликка олиш ҳақидаги ишларни судда кўришнинг ўзига хос хусусиятлари юзасидан тадқиқотлар ўтказилган.

Бироқ, мамлакатимизнинг цивилист олимлари томонидан фарзандликка олиш ҳақидаги ишларни судда кўрилишининг ўзига хос хусусиятлари юзасидан тадқиқот олиб борилмаган. Фарзандликка олиш тўғрисидаги ишларни судлар томонидан кўрилиши 2013 йил апрель ойидан бошланган бўлиб, ҳозирги кунда ушбу тоифадаги ишларни судлар томонидан кўрилишида бир қатор муаммолар юзага келадиганлиги, буни эса қонунчиликка тақлифлар киритиш орқали бартараф этиш мумкинлигини тақозо этмоқда.

Фарзандликка олиш тўғрисидаги ишларни судлар томонидан кўрилишида хорижий тажрибани ҳам ўрганиш бу соҳани янада мукамал таҳлил қилишимизга ёрдам беради. Шу сабабли МДХ давлатларининг фарзандликка олиш ҳақидаги ишларини судларда кўрилиши билан қонунчилигини таҳлил қилиш орқали миллий қонунчилигимизга ўхшаш ва фарқли томонларини кўриб чиқамиз.

Ўзбекистондаги каби Россия Федерациясида ҳам фарзандликка олиш ҳақидаги ишлар Фуқаролик процессуал ва Оила кодекслари талабларидан келиб чиққан ҳолда кўриб чиқилади.

Миллий қонунчилигимизга ўхшаш жиҳатлари қуйидагилардан иборат. Россия Федерацияси Фуқаролик процессуал кодексига кўра - фарзандликка олиш тўғрисидаги ариза болани асраб олмоқчи бўлган Россия Федерацияси фуқаролари томонидан асраб олинган боланинг яшаш жойи ёки жойлашган жойидаги туман судига топширилади, Россия Федерацияси ҳудудидан ташқарида доимий яшовчи Россия Федерацияси фуқаролари, Россия федерацияси фуқароси бўлган болани асраб олишни истаган чет эл фуқаролари ёки фуқаролиги бўлмаган шахслар, фарзанд асраб олиш тўғрисида ариза билан республика олий судига, вилоят судига, федерал судига мурожаат қилади [1].

Фарзандликка олиш ҳақидаги аризада фарзандликка олувчиларнинг фамилияси, исми, отасининг исми, уларнинг яшаш жойи, фарзандликка олинган боланинг фамилияси, исми, отасининг исми ва туғилган санаси, унинг яшаш жойи ёки жойлашган жойи, фарзандликка олинган боланинг ота-онаси, унинг ака-ука ва опа-сингиллари бор-йўқлиги тўғрисидаги маълумотлар, фарзандликка олувчиларнинг фарзандликка олиш ҳақидаги илтимосини асословчи ҳолатлар ва ушбу ҳолатларни тасдиқловчи ҳужжатлар, фарзандликка олинган боланинг фамилиясини, исмини, отасининг исмини, туғилган жойини, шунингдек туғилган санасини (бир ёшга тўлмаган болани фарзандликка олишда) ўзгартириш ҳақида илтимоси кўрсатилиши керак. (РФ. ФПК 270-м)

Фарзандликка олиш тўғрисидаги аризага бола турмуш қурмаган шахс томонидан асраб олинганида - фарзанд асраб олувчининг туғилганлик ҳақидаги гувоҳномасининг нусхаси; бола турмуш қурган шахслар (шахслар) томонидан асраб олинганида - фарзандликка олувчиларнинг (фарзандликка олувчи) никоҳ тўғрисидаги гувоҳномасининг нусхаси; турмуш ўртоқлардан бири томонидан болани асраб олишда - бошқа турмуш ўртоғининг розилиги ёки турмуш ўртоқлар оилавий муносабатларни тугатганлигини ва бир йилдан ортиқ бирга яшамаслигини тасдиқловчи ҳужжат. Агар аризага тегишли ҳужжатни илова қилишнинг иложи бўлмаса, аризада ушбу фактларни тасдиқловчи далиллар бўлиши керак; фарзандликка олувчиларнинг (фарзандликка олувчи) саломатлиги ҳолати тўғрисидаги тиббий хулосаси; иш ҳақи ёки даромад декларацияси ёки бошқа даромадини тасдиқловчи ҳужжат нусхаси; турар-жой биноларидан фойдаланиш ҳуқуқини ёки турар-жой биноларига эгалик

хуқуқини тасдиқловчи ҳужжат; фарзандликка олиш учун номзод сифатида рўйхатга олиш тўғрисидаги ҳужжат илова қилиниши шарт. Барча ҳужжатлар икки нусхада топширилиши керак. (РФ.ФПК 271-м)

Ишни суд муҳокамасига тайёрлашда судья асраб олинган боланинг яшаш жойи ёки жойлашган жойидаги васийлик ва ҳомийлик органига фарзандликка олишнинг асослилиги ва асраб олинган боланинг манфаатларига мувофиқлиги тўғрисида судга хулоса тақдим этиш мажбуриятини юклайди. Васийлик ва ҳомийлик органининг хулосасига фарзандликка олувчиларнинг (фарзандликка олувчи) яшаш шароитларини текшириш далолатномаси, боланинг туғилганлик сертификати; асраб олинган боланинг соғлиғи, жисмоний ва ақлий ривожланиши ҳолати тўғрисида тиббий хулоса; фарзандликка олиш учун, шунингдек унинг исми, отасининг исми, фамилияси ва фарзандликка олувчиларни (фарзандликка олувчини) ота-онаси сифатида рўйхатдан ўтказиш учун ўн ёшга тўлган фарзандликка олинган боланинг розилиги (бундай розилик федерал қонунга мувофиқ талаб қилинмайдиган ҳоллар бундан мустасно); боланинг ота-онасининг уни асраб олишга розилиги, ўн олти ёшга тўлмаган ота-оналар томонидан бола асраб олинган тақдирда, шунингдек уларнинг қонуний вакилларининг розилиги, қонуний вакиллари бўлмаган тақдирда эса васийлик ва ҳомийлик органининг розилиги илова қилиниши керак. (РФ. ФПК 272-м)

Суд фарзандликка олиш тўғрисидаги аризани кўриб чиқиб, фарзанд асраб олувчиларнинг (фарзанд асраб олувчи) фарзанд асраб олиш тўғрисидаги аризасини қаноатлантириш ёки рад қилиш ҳақида қарор қабул қилади. Фарзандликка олиш ҳақидаги ариза қаноатлантирилганда, суд болани муайян шахслар (шахслар) томонидан қабул қилинган деб тан олади ва суд қарорида фарзандликка олинган шахс ва фарзандликка олинган ота-оналар (фарзандликка олувчи) ҳақидаги зарур бўлган барча маълумотларни кўрсатади.

Болани асраб олиш тўғрисидаги суд қарорининг нусхаси суд томонидан суд қарори кучга кирган кундан бошлаб уч кун ичида суд қарори қабул қилинган жойдаги ФХДЁ бўлимига болани асраб олишни давлат рўйхатидан ўтказиш учун юборилади. (РФ. ФПК 274-м)

Миллий қонунчилигимиздан фарқли жиҳати фарзандликка олиш ҳақидаги аризага ота-она қарамогисиз қолган болани ўз оиласига асраб олишни истаган шахслар белгиланган тартибда ўқитилганлигини тасдиқловчи ҳужжат илова қиланади, бунда ўғай отаси ёки ўғай онаси, боланинг яқин қариндошлари, фарзанд асраб олувчи ёки фарзандликка олган шахслар бундан мустасно. Миллий қонунчилигимизда фарзандликка олиш истаги бўлган шахслар ўқитилмайди.

Васийлик ва ҳомийлик органларининг хулосасига илова қилинадиган фарзандликка олувчиларнинг (фарзандликка олувчи) яшаш шароитларини текшириш далолатномаси, васийлик ва ҳомийлик органи томонидан фарзандликка олинган боланинг яшаш жойи ёки жойлашган жойида ёки фарзандликка олувчиларнинг (фарзандликка олувчи) яшаш жойида тузилади. Миллий қонунчилигимизда далолатнома тузиш жойи белгиланмаган.

Агар фарзандликка олиш тўғрисидаги ариза қаноатлантирилган бўлса, фарзандликка олувчиларнинг ва фарзандликка олинган боланинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари болани фарзандликка олиш тўғрисидаги суд қарори кучга кирган кундан эътиборан белгиланади. (РФ.ФПК 274-м)

Миллий қонунчилигимизда эса - фарзандликка олиш тўғрисидаги ариза қаноатлантирилган тақдирда, фарзандликка олувчилар (фарзандликка олувчи) ва фарзандликка олинаётган боланинг ўзаро ҳуқуқ ва мажбуриятлари фарзандликка олинган боланинг туғилганлигини қайд этиш дафтарига зарур ўзгартишлар киритилган кундан эътиборан белгиланади. (Ўз.Р.ФПК 302-м.)

Яна асосий фарқли жиҳати шунда эканки, Россия фуқаролик процессуал қонунчилиги бўйича фарзандликка олиш тўғрисида ариза юзасидан қабул қилинган суд қарори устидан апелляция шикоятни суд қарори қабул қилинган кундан бошлаб ўн кун ичида берилиши мумкин. (ФПК РФ-274)

Миллий қонунчилигимизда бу тоифадаги ишлар бўйича қабул қилинган суд қарорига нисбатан апелляция шикоятни келтириш муддати назарда тутилмаган. ФПК 385¹-моддаси талабидан келиб чиқиб, суд томонидан ҳал қилув қарори қабул қилинган кундан эътиборан бир ой ичида апелляция шикоятни (протести) берилиши мумкин.

Қозоғистон Республикасида ҳам фарзандликка олиш ҳақидаги ишлар Фуқаролик процессуал ва Оила кодекслари талабларидан келиб чиққан ҳолда кўриб чиқилади.

Қозоғистон Республикасининг Фуқаролик процессуал қонунчилигидаги талаблар миллий қонунчилигимиз билан ўхшаш томонлари жуда кўп бўлганлиги сабабли, фақат фарқли томонларини кўриб чиқамиз.

Қозоғистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодексини 310-моддасига кўра, фарзандликка олиш тўғрисидаги ариза фарзандликка олишни истаган фуқаролар томонидан боланинг яшаш жойидаги (жойлашган жойидаги) судга берилади [2]. Бундан кўринадики, чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар ҳам фарзандликка олиш ҳақидаги ариза билан боланинг яшаш жойидаги судга ариза берадилар.

Миллий қонунчилигимизда эса, Ўзбекистон Республикаси фуқароси бўлган болани фарзандликка олишни истовчи Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан ташқарида доимий яшаётган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, чет эл фуқаролари ёки фуқаролиги бўлмаган шахслар фарзандликка олиш тўғрисидаги аризани фарзандликка

олинаётган боланинг яшаш (турган) жойидаги тегишинча Қорақалпоғистон Республикаси судига, вилоятлар ёки Тошкент шаҳар судларига беради. (ЎзР.ФПК 298-м)

Фарзандликка олиш тўғрисидаги ишлар суд томонидан фарзандликка олувчилар, васийлик ёки ҳомийлик органи вакилларининг мажбурий иштирокида кўриб чиқилади. (ҚР ФПК 314-м) Яъни прокурор иштироки талаб этилмайди. Миллий қонунчилигимизда эса албатта прокурор иштирокида кўриб чиқилади. (ЎзР.ФПК 302-м).

Россия қонунчилигидаги каби Қозоғистон Республикаси қонунчилигида ҳам агар фарзандликка олиш тўғрисидаги ариза қаноатлантирилса, фарзандликка олувчиларнинг ва фарзандликка олинган боланинг ўзаро ҳуқуқ ва мажбуриятлари суд қарори кучга кирган кундан бошлаб вужудга келади.

Қозоғистон Республикаси ФПК 315-моддасига кўра, суд қароридан нусха суд қарорини қабул қилиш жойидаги фуқаролик ҳолати далолатномаларини давлат рўйхатидан ўтказувчи органга, шунингдек суд қарорини қабул қилиш жойидаги васийлик ёки ҳомийлик органига қарор кучга кирган кундан бошлаб уч иш куни ичида юборилади.

Миллий қонунчилигимизда ва Россия қонунчилигида ҳам суд қароридан кўчирма фақат фуқаролик ҳолати далолатномаларини давлат рўйхатидан ўтказувчи органга юборилиши назарда тутилган. Васийлик ва ҳомийлик органига юборилиши белгиланмаган.

Қирғизистон Республикасида эса фарзандликка олиш ҳақидаги ишлар фақат Фуқаролик процессуал кодекси талабидан келиб чиққан ҳолда кўриб чиқилади. Оила Кодексида мавжуд бўлган норма 06.07.2012 йилдаги қонун билан бекор қилинган.

Қирғизистон Республикаси фуқаролик процессуал қонунчилигида ҳам Қозоғистон Республикаси қонунчилигидаги каби болани ёки болаларни фарзандликка олиш тўғрисидаги ариза болани асраб олмоқчи бўлган фуқаролар томонидан фарзанд асраб олинган боланинг яшаш жойи ёки жойлашган жойидаги туман судига юборилади. [3]. Бу тоифадаги ишлар фақат туман судига кўрилади.

Фарзандликка олиш тўғрисидаги аризада фарзандликка олинаётган боланинг ота-онаси, ака-ука ва опасингиллари тўғрисидаги маълумотларни ҳам кўрсатиш талаб этилади. Бу норма миллий қонунчилигимизда мавжуд эмас. Суд фарзандликка олиш ҳақидаги аризани иш юритишига қабул қилган кундан бошлаб ўттиз кун ичида кўриб чиқади. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодексида айнан бу тоифадаги ишларни кўриб чиқиш муддати белгиланмаган. Барча тоифадаги ишлар 207-моддаси талабига кўра, ишлар суд муҳокамасига тайёрлаб бўлинган кундан эътиборан бир ойдан кечиктирмай суд томонидан кўрилади ва ҳал қилинади.

Фарзандликка олувчиларнинг илтимосига кўра, суд боланинг биологик ота-онаси фарзандликка олаётганларнинг шахси ҳақида билмаслигини таъминлайди. Агар бунинг иложи бўлмаса, боланинг ота-онаси алоҳида суд мажлисида эшитилади. (Қирғ.Р.ФПК 272-м) Ўрганилган давлатларни ва бизни қонунчилигимизда ҳам бу норма мавжуд эмас.

Фарзандликка олиш тўғрисидаги ишлар фарзандликка олувчиларнинг ўзлари, васийлик ва ҳомийлик органи вакили ва прокурорнинг мажбурий иштирокида кўриб чиқилади. Бошқа шахсларнинг ишончнома асосида иштирок этишига йўл кўйилмайди. (Қирғ.Р.ФПК 272-м)

Миллий қонунчилигимизда ишончнома асосида иштирок этишни чеклаш билан боғлиқ талаб мавжуд эмас.

Фарзандликка олиш тўғрисидаги ариза қаноатлантирилганда, суд қарорининг нусхаси қонуний кучга кирган кундан бошлаб уч кун ичида суд томонидан фарзандликка олишни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида қарор қабул қилинган жойдаги ФХДЁ бўлимига юборилади. Буларда ҳам васийлик ва ҳомийлик органига қарор нусхасини юбориш талаби йўқ.

Суд қарордан боланинг собиқ ота-онасига кўчирма беради, унда фарзандликка олувчилар ҳақида маълумотлар кўрсатилмайди. Ўрганилган давлатлар ва миллий қонунчилигимизда бу каби норма мавжуд эмас.

Қирғизистон қонунчилигида ҳам агар ариза қаноатлантирилган бўлса, фарзандликка олувчиларнинг ва фарзандликка олинган боланинг ўзаро ҳуқуқ ва мажбуриятлари болани фарзандликка олиш тўғрисидаги суд қарори кучга кирган кундан бошлаб белгиланади. (Қирғ.Р.ФПК 272-м)

Хулоса. Хорижий мамлакатлар тажрибаси Ўзбекистон фуқаролик процессуал қонунчилигига ижобий ўзгаришлар олиб келиши мумкин. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодексида фарзандликка олиш тўғрисидаги ариза болани фарзандликка олишни истаган фуқаролар (Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, чет давлатда яшаётган Ўзбекистон фуқаролари, фуқаролиги бўлмаган шахслар, чет эл фуқаролари) томонидан фарзандликка олинаётган боланинг яшаш (турган) жойидаги фуқаролик ишлари бўйича туманлараро, туман (шаҳар) судлари томонидан кўрилишини белгилаш орқали вилоят судига ушбу тоифадаги ишни кўриш билан боғлиқ нормани қонунчиликдан чиқариш, суд процессида бошқа шахсларнинг ишончнома асосида иштирокини чеклаш, суднинг аризани қаноатлантириш ҳақидаги ҳал қилув қарорини нусхасини васийлик ва ҳомийлик органига ҳам юбориш билан боғлиқ нормани киритилиши бу тоифадаги ишларни судларда

кўрилишида оврагарчиликни олдини олинишига, фарзандликка олишни сир сақланишига, фарзандликка олинган болани манфаатларини ҳимоя қилинишига ижобий таъсир кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодекси. 01.04.2018 й., www.lex.uz.
2. Гражданский процессуальный кодекс Российской Федерации. 14.11.2002 г. 138-ФЗ
<https://online.zakon./Document>
3. Гражданский процессуальный кодекс Республики Казахстан. 31.10. 2015 г. 377-В
<https://online.zakon./Document>
4. Гражданский процессуальный кодекс Республики Кыргызстан. <https://online.zakon./Document>
5. В.Лиханова. “Усыновление как институт семейного законодательства: Проблемы теории и практики. Тюмень-2022. 64 стр.
6. Г.Вершинина. «Процессуальные особенности судопроизводства по делам об усыновлении. Саратов - 2007. 209 стр.
7. Т.Ткаченко. “Усыновление по Российскому семейному праву” Ростов-на-Дону-1999. 186 стр.
8. А.Катионова, Н.Лукиянова. Законодательства в области усыновления. Опыт сравнительно-правового анализа. Вестник Томского государственного университета. 2018. № 427. С. 208–214. DOI: 10.17223/15617793/427/29.

Муаллиф:

Бегимова Насиба Худайбердиевна- Хуқуқни муҳофаза қилиш академияси магистранти.

УДК:130.2:17.037(575.1)

IS “MEDICAL FUTILITY” BENEFITS OR NOT IN MEDICINE?

“ТИББИЙ БЕФОЙДА”ЛИК ТИББИЁТДА ФОЙДА(МИ) ЁКИ БЕФОЙДА(МИ)?

«МЕДИЦИНСКАЯ БЕСПОЛЕЗНОСТЬ» ПОЛЕЗНА ИЛИ БЕСПОЛЕЗНА В МЕДИЦИНЕ?

Исахова Шахло Мухтаровна

Гулистон давлат педагогика институти. 120100. Сирдарё вилояти, Гулистон шаҳри, 4-мавзе.

E-mail: shaxloisaxova55@gmail.com

Abstract. This article is about how modern medicine with its advanced technologies opens up opportunities to save and prolong a person’s life, and approaches the disease from the concept of medical futility in relation to the patient’s age.

Key words: bioethics, human life, illness, moral impact, medical futility.

Аннотация. Ушбу мақола замонавий тиббиёт ўзининг илғор технологиялари билан инсон ҳаётини сақлаб қолиш ва узайтириш чегарасида имкониятларни очиши билан бирга касаллик, бемор ёшига нисбатан тиббий бефойдалиқ тушунчаси билан ёндашиши ҳақида.

Калит сўзлар: биоэтика, инсон ҳаёти, касаллик, ахлоқий таъсир, тиббий бефойдалиқ.

Аннотация. Эта статья о том, как современная медицина с ее передовыми технологиями открывает возможности в плане спасения и продления жизни человека, и подходит к заболеванию с концепции медицинской бесперспективности по отношению к возрасту пациента.

Ключевые слова: биоэтика, жизнь человека, болезнь, моральное воздействие, медицинская бесполезность.

Қириш. Ҳозирги вақтда яхшиланган технологиялар ва танқидий-таҳлилий парваришлар усуллари тиббиётга ҳаётни кескин равишда узайтириш имкониятларни бермоқда. Масалан, давлатларда технологик ютуқлар маълум шароитларда, сурункали доимий касаллиги бўлган беморларда ҳам пандемия даври вирусли касалликдан омон қолиш даражасининг юқори бўлишига ҳисса қўшди. «Тиббиётда «тиббий бефойда» деган маълум бир ҳолатларда тиббий ахлоқсизлик саналади ва биоэтика принципларига ҳам тўғри келмайди».[1] Юқориди айтиб ўтганимиздек, пандемия шароитида айрим Европа давлатларида беморлар соғлигидан ҳам кўпроқ, ёшига нисбатан танлов устун бўлди. Бу жараёнда ёши катта беморлар соғлигига эътиборсизлик, уларни яшаб қолиш ҳуқуқини чеклаш, ўлимини тезлатишга имконият яратди. Бу ҳолат Европа давлатлари кадрларини қарияларга нисбатан қандай ҳолатдалигини аниқ кўрсатиб берди. Қариялар ёши ва беморлик ҳуқуқи «тиббий бефойда» ибораси билан бириктириб юборилди. «Тиббий бефойда» тиббий ахлоқ ва биоэтика принциплари нуқтаи назаридан айрим ҳолатларда ноўрин тушунчадир. Тиббий ва ахлоқий таъсирга эга бўлган тиббий бефойдалиқ клиник жиҳатдан айрим ҳолатлардагина ҳақиқат деб тан олинади.

Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар

Тадқиқотнинг объекти сифатида «Тиббий бефойда» тиббий ахлоқ ва биоэтика принциплари нуқтан назаридан ижтимоий-ахлоқий тарафи олинди. Тадқиқот мавзусини ёритишда таснифлаш, тавсифлаш, тарихий-киёсий, таҳлил усулларида фойдаланилган.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

«Тиббий бефойда» тушунчасини деярли бундан 3500 йил олдин Гиппократ томонидан қўлланилган. Беморларни даволаш пайтида баъзи тиббий муолажаларни уларни даволашда қўллаб бўлмаслиги ва ўша шароитда ҳам беморлар даволанишни кутишса, уларга танбеҳ берилган. Шунингдек, Гиппократ шифокорларга даволаб бўлмайдиган касалликларни мелиорация қилишни маслаҳат берган. Уларни қачон даволаш мумкин эмаслигини билиш ва «бефойда» ҳаракатлар билан беморларга зарар етказмаслик кераклигини таъкидлайди. Қадимги даврлардан бошлаб, қачон даволаниш ёки беҳуда даволанишдан ўзини тийиш кераклиги тўғрисида шифокор қарор чиқарган. Буларнинг остида беморни даволаш ҳолатларида анъанавий тиббий ахлоқ тамойилини бузиш, яъни хайрихоҳлик, бу беморнинг фойдаси учун ҳаракат қилишни англади. Шунинг учун тиббий бефойдалик мунозарали масала бўлиб, у жуда кўп тиббий ахлоқий ўлчамлар ва таъсир доираларига эгадир. Муайян даволанишни беҳуда деб баҳолаш, талаб қилмайдиган илмий баҳолаш ҳисоблансада, аммо ахлоқий қадриятлар билан ҳам боғлиқдир. Замоनावий тиббиёт ривожидан давригача, турли омиллар тиббий бефойдалик ҳақида тасаввурларни уйғотиб келган. Бу омилларга қуйдагиларни келтиришимиз мумкин: даволашни ҳаёт сифати ва давомийлигига таъсири; молиявий ҳаражатлар; ҳиссий ҳаражатлар; муваффақият эҳтимоли.

Замоनावий давргача бўлган тиббий муаммоларга нисбатан аралашувни бефойда деб қарор қилиш унчалик мураккаб бўлмаган. Аммо замоनावий тиббиёт ўзининг илғор технологиялари билан чегараларни кенг даражада бузмокда. Ҳаётнинг сифатини таъминлашда бундай технологиялардан фойдаланиш керак бўлади. Айнан шу доирада тиббиёт ахлоқий ёки диний қарашларга таянмокда. Шифокорлар қарор қабул қилиш жараёнида, беморлар ва уларнинг оилалари мусулмон бўлганлиги, исломий анъанада бундай масалаларга қандай ёндашиш мумкинлигига эътибор беришмокда. Шу ўринда бир савол туғилади. «Тиббий бефойда» биотибиёт ва биоэтикада қандай мезонлар орқали аниқланади ва ушбу тушунча қандай ахлоқий муаммоларни келтириб чиқаради? Бефойда тушунчасига дастлаб мусулмон уламолари мурожаат этишади. Хайруниса Бахтиёрнинг «Тиббий бефойда: ислом биоэтикаси қарашлари» номли диссертациясида «тиббий бефойда» тушунчасини диний уламолар қарорлари ва фатволари бўйича ёритган. У «тиббий бефойда» тушунчасини қуйдагича қўллаган: «Диний уламолар касалликларга йўналтирилган тиббий бефойда тушунчасига нисбатан бир нечта атамалардан фойдаланадилар. Бу иборалар даволаш беморни ҳолатига қараб, ал-ўамрад ал-майъус минҳа (умидсиз касалликларнинг ҳолати), ал-ўралиб ал-майъус минҳа (умидвор бўлмаган ҳолатлар), ал-майъус мин шифаъ их ёки ла юржа буръух (кимнингдир даволаш ёки тикланиши умидсиз)» [2] дея тариф берилган. Бунда биринчи ҳолатда беморларни «умидсиз касалликлар ҳолатига» айлантирадиган нарса бу - беморнинг аввалги соғлигига қайтишига имкон бермайдиган касалликдир. Бизнинг фикримизча, бу ҳолатда тиббиёт вакилларининг бемор автономияси принципига амал қилиши билан бирга, технологиямас инсон танасига муносабатда бўлаётганлигини маънавий бурчи сифатида англаши, унинг абадий қадриятини ҳурмат қилиши лозим.

Узоқ вақт давомида меъёрий вазифаларни ахлоқ бажарган. Аммо маданият макони ва инсон тўғрисидаги билимларни кенгайтиши биоэтикавий билимларнинг ҳам ривожланишига асос бўлди. Бу жараёнда тиббиёт ва биоэтика масалалари, принциплари бир-бирини тўлдириб, керак ҳолатда назорат қилиб туради. Биоэтика тиббиётнинг ижтимоий назорат шаклига айланишига йўл қўймайди ва унинг маданий кадр-қимматини сақлаб қолади. Тиббиёт янги маданий мажмуа сифатида пайдо бўлади ва структураланадики, бу маданий мажмуа ҳаёт қадрияти билан функционал равишда боғланган предметлар, муассасалар, тасаввурлар, ғоялар, хулқ намуналарини кенг мажмуини ташкил қилади. Тиббиётда инсоннинг бир бутун концепцияси йўқ. Шунга қарамадан шифокор инсон ҳақидаги бир бутун тасаввурга эга бўлиши лозим. Чунки унинг фаолияти моҳиятан маданий ўзаро таъсир ҳисобланади. Бу жараён шифокорни бошқа инсон билан бевосита алоқасига асосланади. Бундан ташқари, бемор ўзига бир бутун ва ноёб шахсга муносабатда бўлишини исботловчи тиббиёт усуллари қўллашни қатъият билан талаб қилмокда. Бутун жонли мавжудотга ахлоқий муносабат бир қанча фалсафий тизимларда методологик ва дунёқарашли асосга эга. Бу фалсафий антропология, маълум даражада ҳаёт фалсафаси, экзистенциализмдир. Гегельнинг ёзишича: «Ҳаёт фалсафаси инсон онгини ҳар тарафлама яҳлит ўрганиб, унинг марказига инсонни қўяди. Бунда асосан илмий назарияларга асосланмасдан, инсон ички дунёсидаги руҳий қувват ва ҳолатларга мурожаат қилиш тавсия этилган».[3] Бундан кўринадики тиббиёт вакили жисмини тузатиши керак бўлган беморга қарамадан, балки жисман ва руҳий қувватга эга инсонга қараши лозим. Сабаби ҳар бир инсон тақдорланмас бир ноёб шахсдир.

Касаллик - бу организмнинг маълум бир аҳоли бўлиб, бунда нимадир танамизнинг гармониясини, физиологик мувозанатини бузиши деб талқин қилинади. Замоनावий жамиятда касаллик бўйича асосий экспертлар бўлиб тиббиёт вакиллари ҳисобланади. Мусулмонлар жамиятида ҳам тиббиёт вакиллари диний манбаларда эътироф этилганини кўришимиз мумкин. Пайғамбаримиз с.а.в ўз ҳадисида шундай деган эдилар: «Илм икки

хилдир; бадан илми ва динлар илми. Илмнинг кўриниши ҳам икки хилдир: динга хизмат қиладиган илм ва дунёвий илм. Диний илм бу фикрхилдир. Дунёвий илм эса тиббиётдир». – У яна шундай дегандилар: «Инсон учун энг зарур бўлган шахслар булар тиббиёт ходимларидир. Улар одамлар сўхатига хизмат қилсалар, уламолар ўз динларига хизмат қиладилар».[4] Бундан ташқари, беморнинг ўзи фақатгина ўз хоҳишига кўра соғайиб, шифо топиши мумкин эмас. Шунинг учун уни лаёқатсизликда, иш қила олмасликда айблашмайди ва унга ёрдам кўрсатишни таклиф қилишади. Тиббиётда даволаш моделини танлаш ва ана шу танлаш содир бўлаётган этномаданий контентнинг (таркиб) маданий- тарихий анъанаси билан бевосита боғлаган. Н.Назаров:«Биотиббий ахлоқнинг ғояларга бой эмаслиги асосан шу билан белгиланадики, ахлоқ нормалари кўпинча қайсидир маданиятда ҳукм сурувчи кадриятлар ва анъаналарни биотиббий тадқиқотлар амалиётига айнан кўчириш орқали амал қилиш анъанаси мавжуд», [5] дея фикр билдирган. Бу фикрга қўшилмайман. Чунки биотиббий тадқиқотлар, биотехнология янгиликлари билан кадрият, ахлоқий- диний таълимотлар давр нуктаи назаридан мос бўлмасда, биотиббий тадқиқотлар амалиётига айнан кўчирилган бўлсада бутун тириклик, инсон ҳаёти, умри, маънавий масъулият, мажбурият масаласида бир нуктада бирлашади. Анъана, кадрият инсонни ҳайвондан ажратиб туради. Илм-фанни, биотиббий технологияларни яратувчиси ҳам инсон экан ўз билимини тўғри йўлга йўналтириш ва бутун тирикликни асл ҳолатда сақланишига хизмат қилиши керак. Шундагина келиб чиқиши мумкин бўлган ижтимоий оқибатларни олди олинади.

Хулоса

Хулоса қиладиган булсак, инсон ҳаёти ва борлиғи бирламчи бўлган ҳар қандай маконда, биоэтика маданий тараққиётнинг бир бўлаги сифатида ривожланади. Айни дамда мавжуд кадриятларга бўйсунди. Биоэтикани консерватив шакли биотиббий тадқиқотлар ва тиббиётда беморга ахлоқий муносабатни диний ақидаларга таянган ҳолда фикр билдириши, бутун борлиқни асл ҳолича сақлаб қолишга уринишдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Киенко Т.С, Щевцова А.М. Эвтаназия как форма милосердия или как узаконенное убийство// Молодежный научный вестник. –М.: 2016. -Ст. 95-105.
2. Khairunisa Bakhtiar. Medical futulity: Islamik bioethiks perspectives. Diss... for the Degree of Master of Art in Islamic Thought and Appliyed Ethics. – Qatar.: in 2019. -P.10
3. Schlegelf. Diedrei Vorlesungen uber die Philosophie des Lebens. Leipzig: OJ, -P.16.
4. Шайх Иброҳим ал- Азрак, Никоҳ ва саломатлик. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 1995. -Б. 3.
5. Назаров Н.Н. Ирсий инженерия ахлоқий муаммоларининг фалсафий таҳлили, Дисс. ... фал. фан. ном. 2008.-Б.18.

References:

1. Киенко Т.С, Щевцова А.М. Эвтаназия как форма милосердия или как узаконенное убийство// Молодежный научный вестник. –М.: 2016. -Ст. 95-105.
2. Khairunisa Bakhtiar. Medical futulity: Islamik bioethiks perspectives. Diss... for the Degree of Master of Art in Islamic Thought and Appliyed Ethics. – Qatar.: in 2019. -P.10
3. Schlegelf. Diedrei Vorlesungen uber die Philosophie des Lebens. Leipzig: OJ, -P.16.
4. Шайх Иброҳим ал- Азрак, Никоҳ ва саломатлик. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 1995. -Б. 3.
5. Назаров Н.Н. Ирсий инженерия ахлоқий муаммоларининг фалсафий таҳлили, Дисс. ... фал. фан. ном. 2008.-Б.18.

Муаллиф:

Исахова Шахло Мухтаровна - Гулистон давлат педагогика институти доцент в.б.

CONTENTS

PEDAGOGY

| | |
|--|----|
| Khudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich. TOOLS FOR ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN AN E-EDUCATION ENVIRONMENT AND THEIR USE..... | 3 |
| Khajiyeva Iroda Adambayevna. PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF INCREASING MORALITY OF UNIVERSITY STUDENTS..... | 8 |
| Mattiyev Ilhom Begmatdulobovich. HEALTH PROMOTING WORLDWIDE IN STUDENTS IN PEDAGOGICAL FIELDS..... | 12 |
| Rahimova Iroda Ravshanovna. PRACTICAL METHODS OF IMPROVING IDEOLOGICAL IMMUNITY OF STUDENTS..... | 15 |
| Jiyanov Oybek Pardabayevich. CHARACTERISTICS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY AND EDUCATIONAL METHODOLOGY..... | 19 |
| Mardiyeva Yulduz Ubaydullayevna. BAIT UL-HIKMA AND ITS PLACE IN PEDAGOGY OF IX-XII CENTURIES..... | 22 |
| Abdujalilov Javlonbek Adilovich. IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING THE FUNDAMENTALS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ROBOTICS IN THE SUBJECT OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES..... | 25 |
| Anorqulov Baxtiyor Norqul o'g'li. EFFECTIVENESS OF DEVELOPING THE PHYSICAL QUALITIES OF 7-8 YEAR OLD STUDENTS BASED ON NATIONAL ACTIVITY GAMES..... | 29 |
| Bekbolayev Javlonbek Jumanazar o'g'li. SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF SOCIAL INSTITUTIONS IN STUDENTS..... | 31 |
| Bekmuratov Alisher Joniqulovich. CHARACTERISTICS OF IMPROVING THE TECHNIQUE OF PLAYERS IN THE GAME OF HANDBALL..... | 35 |
| Dekhkanova Lutfinisa Abdullaevna. TECHNOLOGIES DEVELOPING CRITICAL THINKING OF STUDENTS..... | 39 |
| Bolbekov Elyor Abdimumin o'g'li. IMPROVING STUDENTS' HEALTHY LIFESTYLE CONTENT BASED ON CREATIVE APPROACHES..... | 42 |
| Toshpo'latov Elyor Baxtiyor o'g'li. IMPROVING THE CONTENT OF ORGANIZING ACTIVITY GAMES IN FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON CLUSTER APPROACHES..... | 45 |
| Ergashkulov Boburjon Nusratulloevich. SOCIO-PSYCHOLOGICAL STATE OF ADAPTATION OF STUDENTS TO HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS..... | 48 |
| Sattarova Feruza Rustam qizi. THE ROLE OF DEVELOPING A SENSE OF RESPONSIBILITY IN PRIMARY CLASS STUDENTS IN EDUCATION..... | 51 |
| Gayibnazarov Habibullo Rakhmatullaevich, Alimov Yakh-yobek. METHODS FOR SOLVING SOME PROBLEMS USING GRAPH THEORY..... | 55 |
| Norquziyeva Zebo Kamalovna. IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING REFLECTIVE COMPETENCE OF STUDENTS..... | 58 |
| Akhmedova Shoiraxon Bilalkhanovna. TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING OF IT TEACHERS IN THE PROCEDURE OF PROFESSIONAL IMPROVEMENT..... | 61 |
| Kuchkarova Nazira Kaxramon qizi. DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF STUDENTS IN ENGLISH CLASSES..... | 67 |
| Almatatova Manzura Shavkatovna. THE NON-PHILOLOGICAL DIRECTION PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR INCREASING THE PROFESSIONAL SPEECH ABILITY OF STUDENTS THROUGH GAMIFICATION AND MOTIVATION..... | 71 |
| Qurbonova Mavlyuda Ibaydullayevna. FEATURES OF USING ELECTRONIC PEDAGOGY..... | 75 |
| Jumanova Sokhiba Yuldoshovna, Babojonova Gulbakhor Kurbonazarovna. THE USE OF PEDAGOGICAL AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN CHEMISTRY LESSONS..... | 77 |
| Khamdamov Usmon Ergashevich. “WEB-QUEST” - AS AN IMPORTANT FACTOR FOR THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT LEARNING..... | 80 |
| Meyliyev Sobir Xolmurodovich. METHODOLOGY FOR DEVELOPMENT OF INFORMATION-ANALYSIS COMPETENCE WITH CREATION OF ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN IMPROVING THE SKILLS OF PRIMARY CLASS TEACHERS..... | 83 |
| Normamatova Nazira Alijon qizi. SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF PREMARITAL MATURITY IN STUDENTS..... | 86 |

| | |
|---|------------|
| Nosirov Ergash Sharopovich, Zakhritdinov Alimardon Tajiddinovich, Shukurov Akmal Khudoyqulovich. IMPROVING THE PHYSICAL QUALITIES OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON INNOVATIVE APPROACHES..... | 90 |
| Rasulova Zohida Sindarovna, Norboyeva Sayyora Muratovna. TEACHER'S PEDAGOGICAL SKILLS..... | 92 |
| Qayumov Shohruh Abdualol o'g'li. PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF SPORTS AND HEALTH IMMUNITY IN STUDENTS..... | 94 |
| Qahharova O'g'iloy Adhamjon qizi. THE ROLE OF SOCIAL NORMS AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY..... | 97 |
| Raimov Davlatnur Ilhomjonovich. METHODOLOGY FOR DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF TECHNICAL TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS AGED 13-14..... | 100 |
| Rajabov Otamurod Rayimberdi o'g'li. SOCIAL ASPECTS OF FORMATION OF CONCEPTS OF INFORMATION-PSYCHOLOGICAL SECURITY AMONG STUDENTS..... | 104 |
| Saribaeva Makhuda Urinbaevna. THE ROLE OF CLASSICAL WORKS IN THE FORMATION OF SPIRITUALITY OF YOUTH..... | 108 |
| Sharapova Saboxat Djabbarovna. PROBLEMS OF FORMING VIRTUAL CULTURE IN THE YOUTH-STUDENTS..... | 112 |
| Sherboyev Davron Muhammad o'g'li. GENERAL PRINCIPLES OF IMPROVING THE TRAINING PROCESS OF YOUNG BASKETBALL PLAYERS..... | 117 |
| Jonibekov Shuxrat Jonibekovich. DEVELOPMENT OF HIGH-JUMPING ABILITIES OF VOLLEYBALL PLAYERS..... | 120 |
| Buriyeva Sora Salohitdinovna. IMPORTANCE OF EFFICIENCY OF SCHOOLS SPECIALIZED IN EDUCATION OF TALENTED CHILDREN..... | 122 |
| Saidov Umid Abdugafforovich, Isokova Sevara Abdumannonovna. DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF SPEED QUALITY OF UNDER 10-12 FOOTBALL PLAYERS..... | 124 |
| Umaraliyev Dadaxon Usmonqul o'g'li. DEVELOPMENT OF A CLUSTER MODULE OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF PHYSICAL EDUCATION LESSONS IN PRIMARY GRADES..... | 129 |
| Usmanova Umidaxon Ilxomjon qizi. DEVELOPMENT OF TERMINOLOGICAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE FIELD OF ECONOMICS..... | 132 |
| Yangiboeva Dildoraxon Rahmon qizi. PSYCHOLOGICAL BASIS OF THE STUDY OF LARGE FAMILIES IN THE CONDITIONS OF TRANSFORMATION OF VALUES..... | 138 |
| Yuldasheva Nargiza Egamberdiyevna. PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS..... | 141 |
| Karimov Fazliddin Jamoliddin ugli. DETERMINATION OF THE LEVEL OF SPECIAL PHYSICAL TRAINING OF HIGHLY QUALIFIED WOMEN FOOTBALL PLAYERS BASED ON PEDAGOGICAL TESTING..... | 145 |
| Akbarova Dilrabo. RELATIONSHIP BETWEEN PERSONALITY CONFLICT AND DIRECTION OF SPORT..... | 148 |
| Xabibullaeva Irodaxon Dilshod qizi. USE OF VIRTUAL REALITY TECHNOLOGIES IN THE ACTIVITIES OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS..... | 151 |
| Karimova Mashhura To'lqinovna. THE ROLE OF THE PSYCHOLOGICAL CLIMATE IN THE TEAM IN ENSURING THE EFFECTIVENESS OF WORK..... | 154 |
| Kenjaev Shavkatjon Xusanovich. SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION AND ITS INFLUENCING FACTORS IN THE PROCESS OF NON-STATE EDUCATION..... | 158 |
| Qo'ng'irotova Anorxol Inoyatovna, Bekchonova Shoira Bazarbayevna. PEDAGOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT (AS AN EXAMPLE OF BIOLOGY)..... | 160 |
| Shomurotov Ulugbek Melikboboevich, Yuldoshev Tojiddin Abdukarimovich, Sharafullaeva Shaxlo Kaxramonovna. EFFECTS OF AGGRESSION ON MATURITY CRISIS..... | 164 |
| Sagdullaev Jaxongir Axmadjon o'g'li. METHODOLOGICAL BASIS OF USING NATIONAL VALUES IN PREVENTING JUVENILE CRIME..... | 167 |
| Mamatkulov Akmal Axmadalievich, Jalolov Ibroxim Mustofoqul ugli. THE EFFECTIVENESS OF RUNNING AND JUMPING IN PHYSICAL DEVELOPMENT OF PUPILS AGED 11-12..... | 169 |
| Ravshanov Sobir Abdimalik ugli. THE EMERGENCE AND FORMATION OF SCIENTIFIC SCHOOLS OF PSYCHOLOGY IN THE EARLY MIDDLE AGES..... | 172 |
| Babaev Alisher Odilovich, Sultonov Rabimqul Urolovich. DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL ABILITIES IN BASKETBALL AMONG SCHOOLCHILDREN AGED 13-15 YEARS..... | 175 |
| Raximov Baxtiyor Xudoyberdievich. PSYCHOLOGICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF INTELLECT RELATED TO SCIENTIFIC RESEARCH IN FUTURE TEACHERS..... | 179 |

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 1 ***

| | |
|---|------------|
| Raxmanova Marg'uba Abdivalieva. FORMATION OF ENVIRONMENTAL COMPETENCIES THROUGH INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING BIOLOGY..... | 183 |
| Kdirniyazova Oralxan Asamatdinovna. FORMATION OF SPIRITUALITY OF STUDENTS AND YOUTH BASED ON MASS MEDIA AS A PEDAGOGICAL NEED..... | 186 |
| Usmanova Shoirra Djumabekovna. SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF CAREER GUIDANCE..... | 189 |
